Ajou University
in Tashkent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Science
Innovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



"Oliy ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligi: ta'lim kelajagi"

24-sentabr, 2026-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT SHAHRIDAGI ADJU UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“OLIY TA’LIMDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI: TA’LIM KELAJAGI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 24-sentyabr

Toshkent – 2026

“Oliy ta’limda inson va sun’iy intellekt hamkorligi: ta’lim kelajagi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami, (2026-yil 24-sentyabr) – T.: Science and Innovation, 2026.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov,
Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Sevara O‘rinboyeva,
Asila Khaydaraliyeva, Anvar Ergashev

Editorial Board Members:

Chief editor:	
Muratov Gayrat Azatovich	- *Rector of AUT, Professor, Doctor of Science*
Editors:	
Byung Kwan Kim	- *Doctor of Science in Architecture*
Yung Seok Shin	- *Doctor of Science in Architecture*
Park Chang-Hwan	- *Doctor of Science in Architecture*
Muhammad Ramzan Ali	- *Doctor of Philosophy in Computer and Engineering*
Park Sang Woo	- *Professor, Doctor of Science in Philology*
Mamatov Dilmurod Narmuratovich	- *Professor, Doctor of Science in Pedagogy*
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	- *Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogy and IT*
Kuchkarov Bokhodir Makhkamovich	- *Associate Professor*
Khabirova Zulfiya Anvarbekovna	- *Associate Professor*
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	- *Associate Professor*
Shokirov Bakhodir Ismoilovich	- *Acting Associate Professor*
SMBM Arshad	- *Senior Lecturer*

© Toshkent shahridagi Adju universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

Speech for the conference

Distinguished colleagues, esteemed guests, dear professors and researchers,

It is my great honor to welcome you to Ajou University in Tashkent for this Republican Scientific and Practical Conference, “Human and Artificial Intelligence Collaboration in Higher Education: The Future of Education.”

We gather today at a moment when the question is no longer *whether* artificial intelligence will shape higher education, but *how* we, as educators and researchers, choose to shape that collaboration ourselves. Universities that engage this question thoughtfully, critically, rigorously, and with their students’ futures in mind will define what higher education becomes in the coming decade. That is precisely the spirit in which we open this conference.

Ajou University in Tashkent was established in Tashkent in 2020 as a branch of a leading South Korean university, and from the outset, our mission has been to build a bridge between international academic standards and the needs of our region. Today, across our nine faculties, that mission continues to grow. This conference itself reflects that ambition: our sessions today span Pedagogy, Architecture, Information Technology, and Computer and Electrical Engineering four fields where the dialogue between human expertise and artificial intelligence is advancing faster than almost anywhere else in science.

This is not the first time Ajou university in Tashkent has opened its doors to the broader scientific community. Over the past academic year alone, we hosted two international conferences – “Smart Technologies and Innovative Approaches in Research: Building a Digital Future” and “Emerging Trends in the Green Economy” welcoming more than thirty scholars from abroad, including colleagues from Korea, the United States, Germany, Iran, Malaysia, Indonesia, India, Kazakhstan, and Tajikistan. Today’s gathering builds on that same commitment to open, cross-border scientific exchange.

I would also like to note that our university’s own scientific journal, the *Advanced Journal of University Science and Creative Innovations (AJOU SCI)*, has recently been indexed in Index Copernicus, in addition to its existing recognition by the Higher Attestation Commission in the fields of pedagogy and philology. We see this conference, and the papers that will be presented here, as future contributions to that same growing body of research.

Colleagues, the theme we have chosen is deliberately broad, because the questions it raises touch every one of us: How do we preserve the value of human judgment, mentorship, and critical thinking as intelligent systems take on more of the analytical work in our classrooms and laboratories? How do we train the next generation of engineers, architects, and IT specialists to work *with* these tools rather than be replaced by them? And how do our own institutions need to change in curriculum, in research methodology, in how we measure scientific productivity to meet this moment?

I am confident that the discussions in our Architecture, IT, and Computer and Electrical Engineering sections today will offer real, practical answers to these questions - not abstract speculation, but research grounded in the work our faculties are already doing.

On behalf of Ajou University in Tashkent, I want to thank every participant who has joined us today, those presenting research, those here to engage in discussion, and our colleagues who traveled to be with us. Your presence here is itself a statement: that the future of education will be shaped not by technology alone, but by the researchers and institutions willing to study it seriously.

I now declare this Republican Scientific and Practical Conference officially open, and I wish all of us a productive, thoughtful, and forward-looking day of discussion.

Thank you.

SECTION 1

HUMAN AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE COLLABORATION IN HIGHER EDUCATION: INNOVATIVE PEDAGOGY AND DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

* * *

1-SHO‘BA

OLIY TA'LIMDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI: INNOVATSION PEDAGOGIKA VA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNI O‘QITISH JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Abduraxmanova Azoda Djo‘rayevna[1], Solixov Murod Botir o‘g‘li[2]
[1]Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasi t.f.d.professor
[2]“Crafers” M.Ch.J fabrikasi Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi muhandisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22868145

Annotatsiya. *Mazkur tezisda mehnatni muhofaza qilishni o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xodimlarga mehnat xavfsizligi talablarini an’anaviy nazariy tushuntirish bilan bir qatorda, sun’iy intellekt yordamida xavfli ishlab chiqarish vaziyatlarini vizual modellashtiruvchi videomateriallar va tasvirlarni yaratish imkoniyatlari yoritilgan. Taklif etilayotgan yondashuv xodimlarning xavf-xatarlarni amaliy vaziyatlar orqali yaxshiroq anglashiga, xavfsizlik talablariga mas’uliyatli munosabatini shakllantirishga hamda o‘qitishdan keyingi bilimlarini qayta baholashga qaratilgan. Mazkur texnologiyalardan samarali foydalanish inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar xavfini pasaytirishga xizmat qilishi mumkin. Sun’iy intellekt mehnatni muhofaza qilish mutaxassisining o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy texnologik yordamchi sifatida qaraladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi, xodimlarni o‘qitish, instruktaj, xavfsizlik bo‘yicha trening, vizual modellashtirish, raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarish xavfsizligi, baxtsiz hodisalarning oldini olish.*

Abstract. *This thesis analyzes the possibilities of using artificial intelligence technologies in occupational health and safety training. Along with traditional theoretical instruction, the study highlights the potential of using artificial intelligence to create video materials and visual models that simulate hazardous situations in the workplace. The proposed approach is aimed at improving employees’ understanding of occupational risks through practical visual scenarios, developing a more responsible attitude toward safety requirements, and reassessing employees’ knowledge after training. The effective application of these technologies can contribute to reducing human-related errors and lowering the risk of workplace accidents. Artificial intelligence should not be considered a replacement for occupational health and safety specialists, but rather as a modern technological tool that supports and improves their professional activities.*

Keywords: *artificial intelligence, occupational health and safety, occupational safety, employee training, safety instruction, safety training, visual modeling, digital technologies, workplace safety, accident prevention.*

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish mehnatni muhofaza qilish tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat xavfsizligini ta’minlashda texnik, tashkiliy va sanitariya-gigiyenik chora-

tadbirlar bilan bir qatorda xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha sifatli va tizimli o‘qitish alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish, ularga yo‘l-yo‘riq berish, bilimlarini tekshirish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tartibga solingan. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish tarkibiga kirish yo‘l-yo‘rig‘i va ish joyidagi yo‘l-yo‘riqlarni o‘tkazish, ish joyidagi stajirovka va bilimlarni tekshirish, shuningdek, xavfliligi yuqori bo‘lgan obyektlarda ishlaydigan xodimlarni o‘qitish va ularning bilimlarini tekshirish kabi jarayonlar kiradi. Shuningdek, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ta’lim jarayonining mazmuni xodimlarning bajaradigan kasbiy faoliyatiga muvofiq bo‘lishi, o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va o‘quv vositalaridan foydalanish imkoniyatlari hisobga olinishi belgilangan.[1]

Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishning asosiy maqsadi ularda ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va zararli omillarni to‘g‘ri aniqlash, xavfsiz ishlash usullarini qo‘llash, shaxsiy himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish hamda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. O‘qitishning yetarli darajada tashkil etilmasligi yoki xodim tomonidan berilgan xavfsizlik talablarining to‘liq o‘zlashtirilmasligi inson omili bilan bog‘liq xatolarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Natijada texnologik uskunalardan noto‘g‘ri foydalanish, xavfsizlik talablarini buzish, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanmaslik yoki favqulodda vaziyatlarda noto‘g‘ri harakat qilish kabi holatlar ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va baxtsiz hodisalar xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish jarayonini zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish, xodimlarga xavfsizlik talablarini yanada tushunarli, ko‘rgazmali va amaliy shaklda yetkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish jarayonida xodimlarga xavfsizlik qoidalari, yo‘riqnomalar va mavjud xavf-xatarlar asosan og‘zaki tushuntirish, yozma materiallar, taqdimotlar hamda suhbatlar orqali yetkazib kelinmoqda. Bunday yondashuv mehnat xavfsizligi bo‘yicha zarur nazariy bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ayrim murakkab va xavfli vaziyatlarning xodim tomonidan to‘liq tasavvur qilinishida ma’lum cheklovlarga ega. Ayniqsa, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, texnologik uskunalardagi avariya holatlari, yong‘in, elektr toki bilan bog‘liq xavfli vaziyatlar yoki xodimning xavfsizlik talablarini buzishi natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni oddiy og‘zaki tushuntirish orqali to‘liq tasavvur qildirish qiyin. Real baxtsiz hodisa va jarohatlanish holatlarini aks ettiruvchi videomateriallardan foydalanish esa ularning mavjudligi, tarqatilishi, etik jihatlari va boshqa cheklovlar sababli har doim ham maqsadga muvofiq yoki imkoniyatli bo‘lavermaydi.

Mazkur muammoni hal etishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Xususan, zamonaviy generativ sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida mehnat xavfsizligi bo‘yicha o‘quv maqsadlariga moslashtirilgan videomateriallar, illyustratsiyalar, vaziyatli tasvirlar va taqdimot materiallarini yaratish mumkin. Bunda real ishlab chiqarish sharoitlariga yaqin bo‘lgan, biroq o‘quv jarayonida xavfsiz tarzda namoyish etiladigan turli xil xavfli vaziyatlarning vizual modellarini shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Masalan, xodimning himoya vositalarisiz ishlab chiqarish uskunasiga yaqinlashishi, aylanuvchi mexanizmga qo‘lning yaqinlashishi, elektr jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanish,

yong‘in xavfining yuzaga kelishi yoki ish joyidagi tartibsizlik natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalarni sun’iy intellekt yordamida o‘quv videosi yoki grafik tasvir shaklida modellashtirish mumkin. Bunday materiallarda hodisaning sababi, xavf manbai, noto‘g‘ri xatti-harakat va uning ehtimoliy oqibatlarini ketma-ket ko‘rsatish orqali xodimga xavfsizlik talablarining amaliy ahamiyatini tushuntirish imkoniyati oshadi.

Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida turli kasb va ish joylariga moslashtirilgan o‘quv materiallarini yaratish mumkin. Masalan, elektrchi, mexanik, operator, yuklovchi yoki ishlab chiqarish liniyasi xodimi uchun umumiy ma’lumotlardan tashqari aynan uning ish joyida uchrashi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatlarni aks ettiruvchi individual vizual materiallar ishlab chiqilishi mumkin.Bunday yondashuvning muhim jihati shundaki, xodim faqat xavfsizlik qoidasini eshitish yoki matn shaklida o‘qish bilan cheklanib qolmaydi, balki xavfli vaziyatning qanday yuzaga kelishi va xavfsizlik talablariga rioya qilinmaganda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini vizual ravishda kuzatadi. Natijada nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash, xavfni anglash va xavfsiz xatti-harakatlarni shakllantirish jarayoni yanada samarali tashkil etilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan mehnatni muhofaza qilishni o‘qitish jarayonida foydalanish an’anaviy o‘qitish usullarini to‘liq almashtirish emas, balki ularni zamonaviy vizual va interaktiv vositalar bilan boyitish imkonini beruvchi istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Mehnatni muhofaza qilishni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, xodimlar uchun ish joylarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatlarni vizual tarzda modellashtiruvchi o‘quv videomateriallarini yaratish va namoyish etish taklif etiladi. Bunda sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqarish korxonasining mavjud texnologik jarayonlari, uskunalari va xodimlarning mehnat faoliyatiga moslashtirilgan turli xavfli vaziyatlarning ssenariylari ishlab chiqilishi mumkin. Taklif etilayotgan tizimda o‘qitish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab xodimning mehnat faoliyatiga xos bo‘lgan asosiy xavf va zararli omillar aniqlanadi. Keyingi bosqichda ushbu xavflar bilan bog‘liq vaziyatlar sun’iy intellekt yordamida videomaterial, tasvir yoki taqdimot shaklida modellashtiriladi. Yaratilgan materiallarda xavfning yuzaga kelish sababi, xodimning noto‘g‘ri harakati, xavfsizlik talablarining buzilishi va buning ehtimoliy oqibatlari izchil namoyish etiladi. Tayyorlangan videomateriallar mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar va yo‘l-yo‘riqlar jarayonida xodimlarga namoyish etiladi. Bunda og‘zaki tushuntirish va yozma yo‘riqnomalar vizual materiallar bilan to‘ldiriladi. Ayniqsa, xodim bevosita ishlaydigan uskuna yoki texnologik jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli holatlarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etish uning xavfni real vaziyat sifatida tasavvur qilishiga yordam beradi.

O‘qitish jarayonining keyingi bosqichida xodimlarning olgan bilimlari qayta tekshirilishi taklif etiladi. Buning uchun o‘quv mashg‘ulotidan oldingi va keyingi test natijalarini taqqoslash, xavfsizlik talablarini tushunish darajasini aniqlash hamda xodim tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni baholash mumkin. Bilim darajasi yetarli bo‘lmagan xodimlar uchun tegishli mavzular bo‘yicha takroriy o‘qitish tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv natijasida xodimlarning xavfsizlik talablariga oid nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkoniyati oshadi. Xavfli vaziyatlarning vizual va ta’sirchan tarzda namoyish etilishi xodimlarda xavfsizlikka nisbatan yanada mas’uliyatli munosabat shakllanishiga, xavfning ehtimoliy oqibatlarini yaxshiroq anglashga va xavfsiz mehnat usullariga rioya qilish motivatsiyasining ortishiga xizmat qilishi kutiladi.

Shuningdek, o‘qitish natijalarini muntazam ravishda qayta baholash orqali xodimlarning bilimlaridagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish, xavfsizlik qoidalarining buzilish holatlarini oldini olish hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar xavfini pasaytirishga erishish mumkin. Shu bilan birga, mazkur tizimdan foydalanish natijasida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish jarayonining samaradorligini muntazam monitoring qilish va uni xodimlarning ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirib borish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan mehnatni muhofaza qilishni o‘qitish jarayonida foydalanish xodimlarga xavfsizlik talablarini yanada tushunarli, ko‘rgazmali va ta’sirchan shaklda yetkazish imkonini beradigan istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, ishlab chiqarishdagi xavfli vaziyatlarni sun’iy intellekt yordamida o‘quv videosi va vizual materiallar ko‘rinishida modellashtirish xodimlarning xavflarni yaxshiroq anglashiga hamda xavfsiz mehnat qoidalariga mas’uliyat bilan yondashishiga yordam berishi mumkin. Sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayonini xodimlarning bilimlarini qayta tekshirish va natijalarni tahlil qilish bilan birgalikda olib borish o‘qitish samaradorligini oshirish, bilimlardagi bo‘shliqlarni aniqlash va zarur hollarda takroriy o‘qitishni tashkil etish imkonini beradi. Buning natijasida inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar xavfini pasaytirishga ko‘maklashish mumkin. Biroq sun’iy intellektni mehnatni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassisning o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy texnologik yordamchi sifatida qarash lozim. AI tomonidan yaratilgan o‘quv materiallari va tavsiyalar malakali mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi tomonidan tekshirilishi, amaldagi xavfsizlik talablari va korxonaning real ishlab chiqarish sharoitlariga muvofiqligi baholanishi zarur. Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalaridan to‘g‘ri, mas’uliyatli va samarali foydalanish orqali mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishning zamonaviy, ko‘rgazmali va natijador tizimini shakllantirish hamda kelgusida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va jarohatlanishlarning oldini olishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022-yil 28-oktabr, O‘RQ-798-son. – Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 22-sentabr, O‘RQ-410-son. – Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 819-son qarori. 2025-yil 24-dekabr. – Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
4. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Mehnatni muhofaza qilish sohasida malaka oshirish bo‘yicha o‘quv dasturi. – Toshkent, 2026.
5. International Labour Organization (ILO). Revolutionizing Health and Safety: The Role of AI and Digitalization at Work. – Geneva: ILO, 2025.
6. International Labour Organization (ILO). AI systems @ work: A changing psychosocial work environment. ILO Working Paper 170. – Geneva: ILO, 2026.
7. Friend M.A., Kohn J.P. Fundamentals of Occupational Safety and Health. – 4th ed. – Lanham: Government Institutes, 2007.

OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA VAQT HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKILLANTIRISH

Ashurova Mohigul Sodiq qizi
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22868164

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Vaqt tushunchasining bolalar tafakkuri rivojlanishidagi o‘rni, uni shakllantirishning metodik yo‘llari hamda oilaviy ta’lim muhitining imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarda kun tartibi, sutka qismlari, hafta kunlari, fasllar va vaqt ketma-ketligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *vaqt tushunchasi, maktabgacha ta’lim, oilaviy nodavlat MTT, matematik tasavvurlar, kun tartibi, hafta kunlari, fasllar, bolalar tafakkuri.*

Maktabgacha yosh davri bolaning bilish jarayonlari jadal rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarda atrof-muhit haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanib, ular keyingi ta’lim bosqichlarida o‘zlashtiriladigan bilimlarning poydevorini yaratadi. Xususan, vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish bolalarning mantiqiy fikrlashi, voqealar ketma-ketligini anglash va kundalik faoliyatini rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

So‘nggi yillarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining ortishi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Mazkur ta’lim shakli individual yondashuv, oilaviy muhitga yaqin pedagogik sharoit hamda ta’lim-tarbiya jarayonining moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning nazariy asoslari

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Vaqt inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, barcha voqea-hodisalar aynan vaqt davomida sodir bo‘ladi. Biroq vaqt moddiy predmet emasligi, uni bevosita ko‘rish, ushlash yoki his qilishning murakkabligi sababli maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan tushunchalardan biri sanaladi. Shu bois bolalarda vaqt haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maxsus pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha, bolalar vaqtni dastlab o‘z hayotiy tajribalari va kundalik faoliyatlari orqali idrok eta boshlaydilar. Ular vaqtning davomiyligi, ketma-ketligi va qaytarilish xususiyatlarini asta-sekin anglab boradilar.[2]

[1] M.Jumayev. *Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi*. – T.: Ilm-Ziyo, 2013. – 45-bet.
[2] Lev Vygotsky. *Tafakkur va nutq*. – Moskva, 1999. – 86-bet.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayoni ularning bilish faoliyati rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Dastlab bolalar ertalab, tushlik, kechqurun va tun kabi sutka qismlarini ajratishni o‘rganadilar. Keyinchalik ular hafta kunlari, oylar va fasllar haqidagi tushunchalarni o‘zlashtirib boradilar. Mazkur jarayon izchil, ketma-ket va tizimli ravishda tashkil etilgandagina samarali natijalar beradi. Vaqt tushunchalarining bosqichma-bosqich o‘zlashtirilishi bolalarda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik va sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.[3]

Vaqt tasavvurlarining shakllanishi bolaning tafakkuri, diqqati, xotirasi va nutq rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola “kecha”, “bugun”, “ertaga”, “avval”, “keyin”, “tez”, “sekin”, “uzoq”, “qisqa” kabi tushunchalarni faol nutqida qo‘llash orqali vaqt munosabatlarini anglay boshlaydi. Shu bilan birga, vaqt birliklarini o‘rganish bolalarning voqealarni ketma-ketlik asosida tasniflash, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida matematik va mantiqiy fikrlashning shakllanishi uchun muhim asos yaratadi.[4]

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining imkoniyatlari

Bugungi kunda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu ta’lim shaklining asosiy afzalliklaridan biri kichik guruhlar asosida faoliyat yuritishi bilan izohlanadi. Kichik guruhlarda pedagog har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda ularga individual yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayoni samaraliroq tashkil etiladi.[5]

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida vaqt tushunchalarini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri kun tartibi hisoblanadi. Muntazam ravishda bir xil vaqtda uyg‘onish, nonushta qilish, mashg‘ulotlarda ishtirok etish, sayr qilish va dam olish bolalarda vaqtning izchilligi va takrorlanishi haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Kun tartibiga rioya qilish natijasida bola muayyan faoliyatlarning qaysi vaqtda amalga oshirilishini tushunib boradi hamda vaqtni his qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.[6]

Shuningdek, oilaviy muhit elementlaridan foydalanish ham katta pedagogik ahamiyatga ega. Tarbiyachi va ota-onalarning bolalar bilan vaqtga oid muntazam suhbatlar olib borishi ularda vaqt tushunchalarining mustahkamlanishiga yordam beradi. Masalan, “Bugun haftaning qaysi kuni?”, “Kecha qanday mashg‘ulot o‘tkazdik?”, “Ertaga qayerga boramiz?” kabi savollar bolalarda vaqt ketma-ketligini tushunish va vaqt birliklarini ongli ravishda qo‘llash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish, bayramlar va muhim sanalarni eslab qolish ham vaqt haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

Vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish metodlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishda turli pedagogik metod va vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Jumladan, kuzatish, suhbat, hikoya qilish, amaliy mashqlar, didaktik o‘yinlar va ko‘rgazmali vositalar bolalarda vaqt tushunchalarini shakllantirishning samarali usullari hisoblanadi. Ayniqsa, rasmlar, kalendarlar, soat maketlari, vaqt chiziqlari va mavsumiy tablolar vaqt birliklarini aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.[7]

[3] Jean Piaget. *The Child's Conception of Time*. – London, 1969. – 53-bet.
[4] Z.A.Mixaylova. *Matematika v detskom sadu*. – Moskva, 2008. – 74-bet.
[5] N.F.Vinogradova. *Doshkolnaya pedagogika*. – Moskva, 2017. – 91-bet.
[6] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limning davlat o‘quv dasturi “Ilk qadam”. – Toshkent, 2022.
[7] M.Jumayev. *Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi*. – T.: Ilm-Ziyo, 2013. – 112-bet.

Didaktik o‘yinlar bolalarda vaqt haqidagi bilimlarni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biridir. “Kun qismlarini top”, “Hafta kunlarini tartibga sol”, “Qaysi fasl?”, “Avval nima bo‘ladi?” kabi o‘yinlar bolalarda vaqtning ketma-ketligi va davomiyligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantiradi. O‘yin faoliyati davomida bolalar vaqt birliklarini qiziqish bilan o‘zlashtiradilar va ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar.[8]

Shuningdek, badiiy adabiyotlardan foydalanish ham vaqt tasavvurlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ertak, hikoya va she’rlar mazmunidagi voqealar ketma-ketligini aniqlash orqali bolalar vaqtning izchilligi va davomiyligini anglaydilar. Masalan, ertak qahramonlarining bir kun davomida bajargan ishlari yoki fasllarning almashinuvi tasvirlangan hikoyalar bolalarda vaqt haqidagi bilimlarning boyishiga xizmat qiladi.[9]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish ularning intellektual, bilish va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqt tushunchalarini o‘zlashtirish bolalarning mantiqiy fikrlashi, nutqi, xotirasi va kuzatuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun kun tartibidan unumli foydalanish, didaktik o‘yinlar, amaliy mashqlar va ko‘rgazmali vositalarni keng qo‘llash, shuningdek, oilaviy muhit imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zarur. Natijada bolalarda vaqt birliklari, voqealar ketma-ketligi, davomiylik va davriylik haqidagi dastlabki matematik tasavvurlar shakllanadi hamda ular maktab ta’limiga puxta tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumayev M.E. *Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2013.
2. Mixaylova Z.A. *Matematika v detskom sadu*. – Moskva: Prosveshcheniye, 2008.
3. Vinogradova N.F. *Doshkolnaya pedagogika*. – Moskva: Akademiya, 2017.
4. Sorokina N.A. *Razvitie elementarnyx matematicheskix predstavleniy u doshkolnikov*. – Moskva, 2015.
5. Vygotsky L.S. *Tafakkur va nutq*. – Moskva, 1999.
6. Piaget J. *The Child's Conception of Time*. – London, 1969.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
8. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

[8] Z.A.Mixaylova. Ko‘rsatilgan asar. Z.A.Mixaylova. *Matematika v detskom sadu*. – Moskva, 2008. – 128-bet
[9] N.A.Sorokina. *Razvitie elementarnyx matematicheskix predstavleniy u doshkolnikov*. – Moskva, 2015. – 102-bet.

O‘ZBEK VA INGLIZ MEDIADISKURSIDA AYOLLAR NUTQIGA XOS KOLLOKATSIYALAR LINGVOPRAGMATIKASI

Abdullayeva Gulruxsoroy Azamatjon qizi
Qo‘qonDU doktoranti
gulruxsorabdullayeva1206@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896907

Annotatsiya. *Mazkur tezisda mediadiskursda ayollar nutqiga xos kollokatsiyalarning lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Ayollar nutqida qo‘llanadigan birikmalarning auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish, kommunikativ maqsadni ifodalash, maslahat, ruhlantirish, qo‘llab-quvvatlash va undash kabi pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. O‘zbek va ingliz mediadiskursi materiallari asosida baholovchi, maslahat va undov mazmunidagi kollokatsiyalarning kommunikativ xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, verbal birliklarning vizual komponentlar bilan uyg‘unligi va ularning ayol obrazini shakllantirishdagi roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ayollar nutqi, mediadiskurs, kollokatsiya, lingvopragmatika, kommunikativ strategiya, baholovchi birliklar, multimodallik.*

Аннотация. *В статье исследуются лингвопрагматические особенности коллокаций, характерных для женской речи в медиадискурсе. Анализируются их коммуникативные функции, связанные с воздействием на аудиторию, выражением совета, мотивации, поддержки и побуждения. На материале узбекского и английского медиадискурса выявляются особенности оценочных, советующих и побудительных коллокаций. Также рассматривается роль взаимодействия вербальных и визуальных компонентов в формировании образа женщины в медиакоммуникации.*

Ключевые слова: *женская речь, медиадискурс, коллокация, лингвопрагматика, коммуникативная стратегия, оценочные единицы, мультимодальность.*

Annotation. *This article examines the linguopragmatic features of collocations characteristic of women’s speech in media discourse. It analyzes their communicative functions in influencing the audience, expressing advice, motivation, support, and encouragement. Based on Uzbek and English media discourse, the study identifies the features of evaluative, advisory, and directive collocations. It also highlights the role of verbal and visual components in shaping the representation of women in media communication.*

Keywords: *women’s speech, media discourse, collocation, linguopragmatics, communicative strategy, evaluative units, multimodality.*

Mediadiskursda ayollar nutqining lingvopragmatik jihatlarini tadqiq etish, avvalo, nutqiy birliklarning faqat ma’no ifodalash vazifasini emas, balki ularning kommunikativ ta’sir, ijtimoiy munosabat, shaxsiy yondashuv va auditoriya bilan o‘zaro aloqani tashkil etishdagi rolini aniqlashni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ayollar nutqini birikmalar, maqol-matallar, baholovchi ifodalar, murojaat shakllari, maslahat, ogohlantirish, ruhlantirish va o‘zini namoyon qilish strategiyalari orqali tahlil qilish dolzarblik kasb etadi.

Pragmalingvistik tadqiqotlarda nutq faqat grammatik jihatdan tuzilgan gaplar majmuyi sifatida emas, balki ma’lum ijtimoiy vaziyatda muayyan maqsadga yo‘naltirilgan harakat sifatida

talqin qilinadi. J.Austin “How to Do Things with Words” (So‘zlar bilan qanday ishlar bajariladi) asarida til birliklari orqali inson faqat axborot bermasligi, balki va’da berish, ogohlantirish, undash, maslahat berish kabi nutqiy aktlarni ham amalga oshirishini asoslaydi. Bu qarash ayollar nutqini mediadiskursda tahlil qilishda muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi, chunki ayollar nutqida uchraydigan *“o‘zingizni qadrlang”, “hech qachon kamsitilishiga yo‘l qo‘ymang”, “o‘z imkoniyatingizga ishoning”* kabi birliklar oddiy gap emas, balki auditoriyaga ta’sir ko‘rsatuvchi pragmatik harakatdir.

Ingliz mediadiskursida ayollar nutqining pragmatik xususiyatlari auditoriyaga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan nutqiy aktlarda namoyon bo‘ladi. Emma Watsonning BMTdagi HeForShe nutqidagi *“step forward” (oldinga qadam tashlamoq), “be seen” (ko‘rinmoq, o‘z fikrini namoyon etmoq)* va *“take up this mantle” (bu mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmoq)* birliklari auditoriyani faol harakat va mas’uliyatga undovchi pragmatik vositalardir. “Step forward” faol pozitsiyaga, “be seen” o‘z fikrini namoyon etishga, “take up this mantle” esa mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga undaydi.

P.Braun va S.Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasida nutqiy muloqotda shaxsning ijtimoiy “yuzi”, ya’ni obro‘si, hurmati va muloqotdagi mavqeyi muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv asosida mediadiskursdagi ayollar nutqida ehtiyotkorlik bilan fikr bildirish, maslahatni bevosita buyruq shaklida emas, balki xushmuomala tavsiya tarzida berish kabi xususiyatlarni izohlash mumkin. Masalan, *“ehtimol, bu qarorni yana bir bor o‘ylab ko‘rish foydali bo‘lar”, “nazdimda, vaziyatga shoshilmasdan yondashish to‘g‘riroq ko‘rinadi”, “bu masalada o‘zingizga biroz vaqt berishingiz kerakdir”, “bunday holatda avval ichki xotirjamlikni tiklab olish muhim bo‘lsa kerak”* kabi birliklar ayollar nutqida pragmatik yumshoqlik va kommunikativ ehtiyotkorlikni namoyon qiladi. P.Braun va S.Levinsonning “Politeness: Some Universals in Language Usage” (Xushmuomalalik: til qo‘llanishidagi ayrim universaliyalar) asari xushmuomalalik strategiyalarini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Telegram: *“Sizni tushunaman. Balki hozir bu haqda keskin qaror qilmasdan, biroz vaqt berib ko‘rish kerakdir.”*

Bu yerda *sizni tushunaman* avval suhbatdoshning hissiy holatini tan oladi. Keyingi *balki* va *kerakdir* birliklari esa maslahatni yumshoq shaklda beradi. Shunday qilib, muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma berish o‘rniga suhbatdoshning holatini hisobga olgan holda ehtiyotkor tavsiya bildiradi.

Instagram: *“Men bu vaziyatda avval biroz tinchlanib olgan bo‘lardim. Keyin nima qilish haqida o‘ylasa ham bo‘ladi.”*

Bu misolda *bo‘lardim* va *bo‘ladi* shakllari buyruq ohangini yumshatadi. Muallif *“avval tinchlaning”* demaydi, balki o‘z tajribasi va qarashini namuna sifatida taklif qiladi. Shu sababli maslahat suhbatdoshga bosim qilmaydi.

Ingliz mediadiskursida Michelle Obama nutqida xushmuomalalik va kommunikativ ehtiyotkorlikni ifodalovchi birliklar kuzatiladi. Jumladan, *“I hope that all of you will reject the false comfort” (Barchangiz yolg‘on tasallini rad etishingizga umid qilaman)* va *“I hope that you will commit yourselves” (O‘zingizni bunga bag‘ishlashingizga umid qilaman)* konstruksiyalarida I hope that shakli bevosita buyruq o‘rniga umid-istakni ifodalab, murojaatni yumshatadi. Shuningdek, *“I think women, we check ourselves more” (Menimcha, ayollar o‘zlarini ko‘proq nazorat qiladilar)* jumlasidagi *I think* birligi fikrni qat’iy hukm emas, shaxsiy nuqtayi nazar sifatida taqdim etadi. Mazkur birliklar P. Braun va S. Levinsonning negative politeness

strategiyasi, ya’ni kommunikativ bosimni kamaytirish va adresatning “ijtimoiy yuzi”ni saqlash tamoyili asosida izohlanadi.

Mediadiskursdagi ayollar nutqini o‘rganishda metadiskurs nazariyasi ham alohida ahamiyatga ega. K.Haylend “Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing” (Metadiskurs: yozma nutqda o‘zaro ta'sirni o‘rganish) asarida muallifning matn orqali o‘quvchi bilan aloqa o‘rnatishi, unga murojaat qilishi, fikrini yo‘naltirishi va munosabat bildirishi metadiskurs vositalari orqali amalga oshishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv Instagram, Telegram, reklama va blog matnlarida ayollar nutqiga xos *“siz ham shunday o‘ylaysizmi?”, “izohlarda fikringizni yozing”, “o‘zingizni sevishni unutmang”* kabi birliklarni auditoriyani jalb etuvchi interfaol vosita sifatida tahlil qilishga imkon beradi. K.Haylend tadqiqoti yozma muloqotda muallif, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqani aniqlashga qaratilganligi bilan mediadiskurs tahlili uchun muhimdir.

Telegram: *Sizlarda ham shunaqa bo‘ladimi? Ba'zan kun bo‘yi hamma ishni qilib, kechqurun o‘zingizga vaqt ajratmaganingizni sezib qolasiz.*

Bu misolda *sizlarda ham shunaqa bo‘ladimi?* savoli muallif va auditoriya o‘rtasida umumiy tajriba yaratadi. *Ham* yuklamasi esa muallifning o‘z tajribasini auditoriya tajribasi bilan bog‘laydi. Natijada “men” va “siz” o‘rtasidagi masofa qisqarib, **yaqin va dialogik kommunikatsiya** yuzaga keladi.

Instagram: *Bu haqda siz nima deb o‘ylaysiz? Izohlarda yozib qoldiring, qiziq, sizning tajribangiz qanday.*

Bu yerda *siz nima deb o‘ylaysiz?* va *izohlarda yozib qoldiring* birliklari auditoriyani bevosita javob berishga undaydi. Muallif tayyor xulosani berib qo‘ymaydi, balki auditoriyaning shaxsiy tajribasi va fikrini muhim kommunikativ resurs sifatida ko‘rsatadi. Shu tariqa metadiskurs vositalari **interaktivlikni kuchaytiradi**.

Ingliz mediadiskursida ayollar nutqida “your voice matters” (fikringiz muhim), “you are not alone” (siz yolg‘iz emassiz), “let's make a difference” (birgalikda o‘zgarish qilaylik) kabi birliklar qo‘llanib, auditoriyani ruhlantirish, qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikka chorlashga xizmat qiladi. Bunday birliklar orqali ayol muallif auditoriya bilan yaqin kommunikativ munosabat o‘rnatib, qo‘llab-quvvatlovchi va birdamlikka asoslangan nutq strategiyasini yuzaga keltiradi.

Ayollar nutqining mediadiskursdagi pragmatik xususiyatlarini faqat verbal birliklar bilan cheklab bo‘lmaydi. Chunki zamonaviy media matnlarida so‘z, rasm, rang, tana holati, kiyim, mimika va kompozitsiya birgalikda ma’no yaratadi. G.Kress va T.van Leven “Reading Images: The Grammar of Visual Design” (“Tasvirlarni o‘qish: vizual dizayn grammatikasi”) asarida vizual belgilar ham til kabi ma’no hosil qiluvchi semiotik tizim ekanini asoslaydi. Shu sababli ayollar nutqiga xos birikmalar tahlilida verbal ifoda bilan bir qatorda vizual obraz ham hisobga olinadi. Masalan, *“zamonaviy ayol”, “kuchli ayol”, “o‘z hayotining yaratuvchisi”, “kelajak bunyodkori”* kabi birliklar, ko‘pincha, faol, mustaqil, chiroyli, ijtimoiy muvaffaqiyatga erishgan ayol tasviri bilan birga beriladi. Bu esa lingvopragmatik tahlilni multimodal tahlil bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. G.Kress va T.van Leven vizual dizayn ‘grammatikasi’ni zamonaviy kommunikatsiyani o‘qish vositasi sifatida tavsiflaydi. Mediadiskursda ayollar nutqiga xos birikmalar tahlili natijasida ularning oddiy nominativ birlik emas, balki muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi lingvopragmatik vosita ekani aniqlandi. Turli tillaridagi mediadiskursda ayol obrazi baholash, ruhlantirish, aniqlash hamda himoya qilish vazifalari orqali yoritilgani kuzatildi. Baholovchi birliklar orqali ayolning ijtimoiy mavqeyi, bilim, faollik va mas’uliyat bilan bog‘liq qiyofasi shakllantirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 174 p.
2. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
3. Bucholtz M., Hall K. Identity and Interaction: A Sociocultural Linguistic Approach // Discourse Studies. – 2005. – Vol. 7, № 4–5. – P. 585–614.
4. Hyland K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. – London; New York: Continuum, 2005. – 310 p.
5. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. – 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2006. – 312 p.
6. Obama M. Remarks by the First Lady at a Young African Women Leaders Forum. – Soweto, South Africa, 2011. – Official White House Archive transcript.
7. Watson E. HeForShe Campaign Speech at the United Nations. – 20 September 2014. – Available at: UN Women HeForShe Speech Video.

AI-EMPOWERED TEACHING REFORM OF THE PROCUREMENT AND NEGOTIATION COURSE FROM THE PERSPECTIVE OF "UNDERGRADUATE EDUCATION FIRST AND FOUR RETURNS"

Bai Mingyuan
PhD Student, Bukhara State University
baimingyuan1997@163.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22868177

Abstract. *Guided by the Ministry of Education's policy framework of "Undergraduate Education First and Four Returns," this paper takes the Procurement and Negotiation course as the research subject, systematically analyzes its current teaching status, and designs reform pathways across five dimensions: objectives, content, mode, evaluation, and support mechanisms. Against the backdrop of AI's deep integration into business practice and higher education, this paper further explores how AI technologies can empower procurement and negotiation instruction. The aim is to enhance the course's practicality, interactivity, and value-orientation, while providing a replicable teaching reference for cultivating interdisciplinary procurement and negotiation talents.*

Keywords: *Undergraduate Education First; Four Returns; AI empowerment; Procurement and Negotiation; teaching reform*

1. Introduction

Undergraduate education constitutes the foundation of higher education, and its quality directly affects a nation's talent cultivation capacity and competitiveness. In 2018, the National Conference on Undergraduate Education in Higher Education Institutions in the New Era elevated undergraduate education to a strategic priority, proposing the principles of "Undergraduate Education First and Four Returns." This marked a pivotal shift in China's higher education from scale expansion to quality enhancement and connotative development. "Undergraduate Education First" establishes the central position of undergraduate education, while the "Four Returns" articulate a practical pathway for educational practices across four dimensions: returning to the essence of learning, returning to the fundamental duty of teaching, returning to the original mission of education, and returning to the pursuit of national rejuvenation.

Simultaneously, artificial intelligence technologies—particularly large language models and generative AI—are reshaping both the global business landscape and the ecology of higher education. The procurement and negotiation sector is undergoing profound transformation: AI-driven supplier screening, intelligent negotiation assistants, and automated contract review are becoming increasingly prevalent, imposing new demands on graduates' digital literacy and human–AI collaboration capabilities. The Ministry of Education's Digital Education Strategic Action Plan explicitly calls for deepening the exploration and practice of "AI + higher education." This dual transformation renders the teaching reform of the Procurement and Negotiation course both urgent and practically significant. This paper adopts the "Undergraduate Education First and Four Returns" framework, integrates AI-empowered teaching strategies, and

proposes a systematic reform plan. It aims to respond to national policy directives, align with the digital transformation of industry, and offer a transferable reference for the construction of practical courses in economics and management disciplines.

2. Methods

This study employs the "Undergraduate Education First and Four Returns" framework as its core theoretical lens, combined with literature review and instructional diagnosis to conduct a systematic examination of the current state of the Procurement and Negotiation course. "Undergraduate Education First" establishes the fundamental position of undergraduate education and requires universities to refocus all endeavors on talent cultivation. The "Four Returns" provide actionable principles for reform: returning to the essence of learning positions student learning as the primary task; returning to the fundamental duty of teaching emphasizes faculty commitment to instruction; returning to the original mission of education underscores the moral cultivation function of education; and returning to the pursuit of national rejuvenation aligns course content with national strategies and industrial frontiers.

In terms of AI integration, this study draws on three major directions of current AI applications in higher education—intelligent content generation and updating, human–AI collaborative teaching models, and learning analytics for personalized feedback—and incorporates them into each dimension of the course reform. Based on the above framework, this study designs a systematic reform pathway across five interconnected dimensions: course objectives, teaching content, pedagogical models, evaluation systems, and support mechanisms. Implementation priorities for each dimension are analyzed in detail.

3. Results

The reform pathway encompasses five interrelated dimensions. First, in terms of course objectives, a new digital literacy dimension is added to the traditional three-dimensional framework of knowledge, competence, and quality. This requires students to master mainstream AI tools applied in procurement and negotiation and to develop data-driven decision-making capabilities. At the knowledge level, the course incorporates AI applications in supply chain management, intelligent negotiation, and contract management alongside traditional content. At the competence level, multi-tiered professional competencies are articulated, including communication and negotiation, data analysis, risk management, and AI tool utilization. At the quality level, emphasis is placed on integrity, national commitment, and technological ethics. Three thematic threads—compliance and ethics, national strategy, and cultural confidence—are designed to integrate ideological and political education, with AI ethics and data security issues incorporated to achieve an organic integration of value orientation and professional instruction.

Second, in terms of teaching content, the course is modularized into five major components: foundational theory, strategic procurement, negotiation art, AI and digital procurement, and compliance and risk management. Each module incorporates cutting-edge industry cases, such as AI-assisted supplier evaluation and intelligent negotiation assistants in real business contexts. An AI-assisted case generation and updating mechanism is established, whereby instructors use generative AI tools to produce initial procurement and negotiation case drafts, which are subsequently refined with real-world enterprise data, ensuring both timeliness and authenticity. AI-driven virtual simulation projects are developed, including AI-powered negotiation simulation systems that enable students to complete the entire decision-making process from procurement needs analysis to contract signing.

Third, in terms of pedagogical models, a blended "teacher + student + AI" collaborative

teaching model is constructed. In the pre-class phase, students engage with AI learning assistants for theoretical preview and basic Q&A; the AI system automatically generates preview reports and feeds common student difficulties back to instructors. In the in-class phase, situational simulation and role-playing are employed, with AI virtual negotiation opponents providing real-time feedback and scenario evolution based on students' strategic choices. In the post-class phase, AI-assisted online platforms facilitate collaborative learning and extended tasks. In project-based learning, student teams utilize AI tools for data collection, solution generation, and strategy optimization, cultivating their capacity to solve complex problems through human–AI collaboration.

Fourth, in terms of evaluation systems, a comprehensive whole-process, multidimensional evaluation framework is established. Process-oriented assessment accounts for 60%–70% of the total grade, covering case study contributions, simulation negotiation performance, and project proposal quality. AI-assisted evaluation is introduced: the AI system automatically records students' decision-making paths and strategic choices in virtual simulations, generating competency growth trajectories and personalized evaluation reports. Participation scoring adopts a multi-party structure: instructors (40%), AI (40%), AI-assisted instructor (10%), and peer evaluation (10%).

Fifth, in terms of support mechanisms, faculty development includes AI competency training and enterprise practice programs. Institutional mechanisms recognize faculty investment in pedagogical innovation and AI tool application in performance evaluations. Platform support includes the construction of smart classrooms, negotiation simulation laboratories, and AI-powered virtual simulation platforms, with dedicated funding for teaching resource development.

4. Discussion

The reform pathways proposed in this study embody two core values. First, they translate the "Undergraduate Education First and Four Returns" policy principles into actionable teaching practices, effectively bridging macro-level policy directives with micro-level curriculum development. Second, they elevate AI technologies from mere auxiliary tools to integral components of the teaching system, forming a tripartite collaborative education model of "instructor-guided, student-driven, and AI-assisted" learning. This model addresses three critical questions: in the AI era, "returning to the essence of learning" means leveraging AI to enhance rather than undermine learning depth; "returning to the fundamental duty of teaching" requires faculty to evolve from knowledge transmitters to learning designers, delegating repetitive knowledge delivery to AI; and "returning to the original mission of education" and "returning to the pursuit of national rejuvenation" demand that the course, even as it leverages AI, steadfastly adheres to value orientation and the fundamental direction of serving national strategies.

Nevertheless, several practical challenges warrant attention during implementation. Disparities in faculty AI literacy may affect the balanced progress of reform; the construction and maintenance of AI systems require sustained financial investment; the transparency and fairness of AI-assisted evaluation algorithms need careful oversight; and students may become over-reliant on AI, potentially weakening their independent thinking abilities—a risk that should be mitigated through manual verification mechanisms in instructional design. Future efforts should establish school–enterprise collaborative mechanisms for co-constructing and sharing AI teaching resources, conduct specialized faculty training in AI literacy, and implement regular calibration and ethical review of AI evaluation systems to ensure that technological applications consistently serve educational goals rather than supplant them.

5. Conclusion

The "Undergraduate Education First and Four Returns" framework provides a clear value foundation for undergraduate curriculum reform, while AI technologies offer new implementation pathways. The reform framework constructed in this paper organically integrates policy imperatives, technological empowerment, and curriculum practice. It transforms course objectives from singular knowledge transmission to a three-dimensional integration of value orientation, competency development, and quality enhancement; shifts pedagogical models from instructor-dominated lectures to "teacher–student–AI" collaborative blended learning; and evolves evaluation methods from summative assessment to whole-process, multidimensional developmental evaluation. This reform not only contributes to cultivating well-rounded, professionally competent, and digitally literate interdisciplinary talents for the procurement and negotiation field but also offers a transferable theoretical reference and practical paradigm for the construction and reform of similar practice-oriented courses. The continued advancement of this reform requires sustained collaboration among educational administrators, instructors, and students, with ongoing optimization to truly strengthen the foundation of undergraduate education amid the wave of digital transformation and contribute meaningfully to the development of a strong higher education system.

References

1. Li, H., Zhao, D. Y., Shao, B., & Deng, Y. H. (2023). Teaching innovation of supply chain and logistics management course with OBE concept under the background of new liberal arts. Logistics Engineering and Management, *45*(2), 156–158.
2. Lu, B., & Wang, D. (2025). Research on logistics management case teaching model based on deep synergy of "government-industry-university-research-application." Research and Review on Management Cases, *18*(4), 574–582.
3. Wang, Y., & Zhang, Z. G. (2025). Application of OBE concept in blended teaching of supply chain management in higher education. Journal of Innovation and Entrepreneurship Theory and Practice, *8*(12), 140–142.

READING LITERARY TEXTS IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: THE RELATIONSHIP BETWEEN TRADITIONAL AND DIGITAL INTERPRETATION

Begmatova Sokhiba Mustafoyevna
Associate professor (PhD) of Uzbekistan State
World Languages University
E-mail: s.begmatova@uzswlu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875442

Abstract. *This article explores the relationship between traditional and AI-assisted approaches to literary interpretation and argues that they should not be regarded as competing methods. Rather, AI can complement humanistic reading by expanding the scale and speed of textual analysis while leaving contextualization, critical judgment, and interpretation to the human researcher. Recent research demonstrates both the potential and limitations of large language models in literary studies. AI can identify relevant textual patterns, but it may struggle with irony, historical semantics, cultural context, and the complexity of genuine close reading. Therefore, a complementary model combining computational exploration with human interpretation can provide a productive framework for literary studies in the digital age.*

Keywords: *artificial intelligence, literary interpretation, close reading, distant reading, large language models, literary studies, digital interpretation*

Literary studies have traditionally depended on the close and careful reading of texts. Scholars examine language, imagery, symbolism, narrative structure, characterization, historical context, and ideological meanings in order to develop interpretations of literary works. Such interpretation is not limited to identifying what a text says; it also involves considering how and why meaning is constructed. The development of digital humanities and artificial intelligence has introduced new possibilities for literary research. Computational tools can process large collections of texts and identify recurring words, themes, stylistic patterns, character relationships, and other features that may be difficult to observe through individual reading. Moretti (2013), for example, popularized the concept of “distant reading,” which shifts attention from individual texts toward larger literary systems and patterns.

The emergence of generative AI and large language models (LLMs) has further changed this landscape. Unlike earlier computational methods, LLMs can interact with researchers through natural language, summarize passages, compare interpretations, generate research questions, and identify potentially significant textual patterns. Recent research has begun to examine both the usefulness and the limitations of such tools in literary studies (Akazawa & Gius, 2025; Beaufoy & Kjar, 2026). The central question, therefore, is not whether AI should replace traditional literary interpretation, but how the two approaches can productively interact.

Traditional literary interpretation is closely associated with close reading, in which a relatively small section of a literary text is examined carefully. Attention may be given to individual words, metaphors, narrative voice, syntax, imagery, repetition, and ambiguity. Close reading is particularly valuable when the meaning of a text depends on subtle linguistic or stylistic choices.

However, literary scholarship has also developed approaches that move beyond the individual text. Digital humanities has introduced methods that allow researchers to investigate hundreds or thousands of works simultaneously. Moretti (2013) describes this approach as “distant reading,” emphasizing patterns and relationships that become visible when literature is examined at a larger scale. Similarly, Underwood (2019) demonstrates how computational analysis can contribute to the study of literary history and changing patterns across large bodies of fiction.

Digital interpretation, therefore, does not necessarily reject traditional reading. Instead, it changes the scale at which literary evidence can be examined. A researcher may first use computational methods to identify recurring patterns and then return to individual passages for close reading. This relationship suggests that traditional and digital interpretation can operate as complementary stages of literary research.

AI can assist literary scholars in several ways. First, it can help researchers identify textual patterns. For example, an AI system may examine the representation of a particular theme across numerous chapters or novels and identify passages that deserve closer attention.

Secondly, AI can support comparative analysis. Researchers can ask an AI system to compare representations of memory, identity, gender, childhood, technology, or other concepts across different literary works. Such comparisons can help formulate research questions and identify possible connections between texts.

Thirdly, AI can function as a hypothesis-generating tool. A researcher may ask an AI system to suggest possible interpretations of a recurring image or narrative pattern. These suggestions should not automatically be accepted as conclusions; instead, they can provide starting points for further investigation.

Recent research illustrates both the possibilities and limitations of this approach. Akazawa and Gius (2025) investigate the use of large language models in literary studies and demonstrate that AI-generated textual material can become an object of methodological reflection for literary scholarship.

More recent research by Beaufoy and Kjar (2026) is particularly relevant. Their study used an LLM to identify relationships between lighting and emotions in ninety French novels published between 1838 and 1928. The model was able to identify a substantial number of potentially relevant passages, demonstrating its usefulness for textual exploration. However, the researchers also found significant problems when the model attempted to produce convincing close readings, including difficulties with historical meanings, irony, sentiment, and causal interpretation. These findings indicate that AI can be highly useful for discovering evidence, but discovery and interpretation are not necessarily the same process.

Literary texts frequently contain ambiguity, irony, cultural references, historical meanings, and implicit relationships that cannot easily be reduced to patterns. AI systems may recognize linguistic similarities while misunderstanding their literary significance. One important limitation is context. The meaning of a word or image may change according to its historical period, cultural environment, genre, or position within a particular narrative. A contemporary AI system may interpret an older expression according to modern linguistic assumptions.

Another problem concerns irony and ambiguity. Literary authors often deliberately create contradictions between what a character says and what the narrative implies. Such meanings require careful attention to narrative context and literary convention.

AI may also produce interpretations that sound academically convincing but are insufficiently supported by textual evidence. Consequently, researchers need to verify AI-generated claims against the original literary text rather than treating AI output as authoritative. These concerns correspond to broader recommendations concerning the responsible use of AI in education and research. UNESCO emphasizes a human-centred approach in which AI should support rather than replace human intellectual agency.

A productive approach may therefore combine traditional close reading with AI-assisted digital analysis. Such a model can be described as a hybrid approach to literary interpretation.
The process may include five stages:

1. *Close reading:* The researcher initially examines the text and identifies important questions or themes.
2. *AI-assisted exploration:* AI tools are used to locate patterns, recurring concepts, linguistic similarities, or potentially relevant passages.
3. *Hypothesis formation:* The results are used to formulate or refine possible interpretations.
4. *Textual verification:* The researcher returns to the original text and checks whether the AI-generated observations are supported by textual evidence.
5. *Humanistic interpretation:* Historical, cultural, theoretical, and aesthetic dimensions are incorporated into the final interpretation.

This model recognizes that AI and human readers possess different strengths. AI can process large amounts of textual information rapidly, while human researchers can evaluate significance, interpret ambiguity, understand cultural context, and connect textual evidence with literary theory.

In that sense, AI should be understood not as an alternative to literary scholarship but as an additional research instrument. Its effectiveness depends largely on the researcher's ability to formulate appropriate questions, evaluate generated information, and maintain critical control over the interpretive process.

Artificial intelligence is creating new possibilities for literary interpretation by introducing computational approaches to the study of texts. Traditional close reading remains essential because literary meaning often depends on ambiguity, context, irony, symbolism, and culturally specific forms of expression. At the same time, AI-assisted methods can help scholars examine larger textual collections, identify patterns, compare works, and generate new research questions.

Recent research demonstrates that large language models can successfully support certain stages of literary investigation but cannot reliably reproduce the complexity of human close reading. Therefore, the most productive relationship between traditional and digital interpretation is not one of replacement but of complementarity. The future of literary studies may consequently depend on developing a balanced methodology in which AI expands the researcher’s analytical possibilities while human scholars retain responsibility for contextualization, critical evaluation, and the final construction of meaning. Such an approach can preserve the interpretive richness of literary studies while allowing the discipline to benefit from the analytical capacities of emerging digital technologies.

REFERENCES

1. Akazawa, M., & Gius, E. (2025). Literary studies with large language models? Two experimental series on text generation with artificial intelligence. *Zeitschrift für Literaturwissenschaft und Linguistik, 55*, 449–474. https://doi.org/10.1007/s41244-025-00383-4
2. Beaufoy, J., & Kjar, L. (2026). Can automatic reading be close? On the implications of using a large language model to identify interactions between lighting and emotions in French literature, 1838–1928. *Digital Scholarship in the Humanities*. https://doi.org/10.1093/llc/fqag090
3. Bode, K. (2018). *A world of fiction: Digital collections and the future of literary history*. University of Michigan Press.
4. Hayles, N. K. (2012). *How we think: Digital media and contemporary technogenesis*. University of Chicago Press.
5. Moretti, F. (2013). *Distant reading*. Verso.
6. Ramsay, S. (2011). *Reading machines: Toward an algorithmic criticism*. University of Illinois Press.
7. Underwood, T. (2019). *Distant horizons: Digital evidence and literary change*. University of Chicago Press.
8. UNESCO. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. UNESCO. https://doi.org/10.54675/EWZM9535

FILOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN’IY INTELELKT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Bakiyeva Durdona Baxtiyarovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
bakiyevadurdona@gamil.com http://orcid.org/0009-0006-1416-9802
https://doi.org/10.5281/zenodo.22868188

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlarining filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning inglz tilida akademik yozuv kompetensiyasi sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib rivojlantirishning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Akademik yozuv kompetensiyasi bir qancha, grammatik jihatdan matnni to‘g‘ri tuzish, ilmiy fikrni izchil dalillar bilan ifodalash, manbalar bilan ishlash, akademik uslubga rioya qilish va yozma faoliyatini tanqidiy baholash kabi qobilyatlarni qamrab oladi. Generativ sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu nuqtai nazardan olib qaraganda, akademik matnni tuzilmasini rejalashtirish, leksik va grammatik variantlarni tahlil qilish, tahrirlash va refleksiv faoliyatni tashkil etish kabi qo‘shimcha pedagogik imkoniyatlari yaratib beradi. Maqolada genrativ sun’iy intellekt texnologiylarining imkoniyatlaridan tayyor akademik matn tayyorlab beruvchi vosita sifatida foydalanmasdan, filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish va akademik yozuv faoliyatida bosqichli qo‘llab-quvvatlashda foydalanish nazarda tutilgan. Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan har qanday axborotni tkshirish, matn yuzasidan talabalarni mualliflik ma’sulyatini saqlashga o‘rgatish, plagiatni oldini olish va akademik halollik tamoyillarini saqalb qilishga ham alaohida e’tibor qaratilgan. Natijada filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini genrativ sun’iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning pedagogik-metodik imkoniyatlari tizimlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *akademik yozuv, akademik yozuv kompetensiyasi, generative sun’iy intellekt, filologik ta’lim yo‘nalishi, ingliz tili, raqamli texnologiyalari, akademik halollik, tanqidiy fikrlash, refleksiya, mualliflik ma’sulyati.*

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and methodological possibilities of developing English academic writing competence among students majoring in philology at higher education institutions in Uzbekistan through the use of artificial intelligence technologies. Academic writing competence encompasses a range of skills, such as constructing grammatically correct texts, expressing scholarly ideas with coherent arguments, working with sources, adhering to academic style, and critically evaluating one's own writing. From this perspective, generative AI technologies offer additional pedagogical opportunities, including planning the structure of academic texts, analyzing lexical and grammatical options, editing, and facilitating reflective practice. The article proposes using generative AI technologies not merely as tools to generate ready-made academic texts, but as a means to foster independent thinking*

and provide step-by-step support for students' academic writing processes. Furthermore, special attention is given to verifying AI-generated information, teaching students to maintain authorship responsibility for their texts, preventing plagiarism, and upholding principles of academic integrity. As a result, the pedagogical and methodological possibilities for developing academic writing competence in English among students specializing in philology—leveraging generative artificial intelligence technologies—are systematized.

Keywords: *academic writing, academic writing competence, generative artificial intelligence, philology specialization, English language, digital technologies, academic integrity, critical thinking, reflection, authorship responsibility.*

Kirish

Raqamli ta’lim texnologiylarining oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi bugungi kunda ta’lim mazmuni va matodlarini qayta ko‘rib chiqishni taqazo etmoqda. O‘zbekiston sharoitida xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini professional darajada egallayotgan oliy ta’lim tashkilotlarining filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak filolog va ingliz tili mutaxasisi hisoblangan filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari ilmiy maqola yozish, referat, tadqiqot loyihasi, tahliliy hisobot va boshqa akademik janrlarda o‘z fikrlarini ingliz tilida aniq, izchil va asoslanagan tarzda ifodalash qobilyatiga ega bo‘lishi lozim.

Akademik yozuv oddiy yozma nutqdan o‘zining tuzulishi, maqsadi, uslubi va dalillarga tayanishi bilan keskin farq qiladi. Akademik yozuv jarayonlarida talabalari mavzuni anglash, asosiy g‘oyani belgilash, fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish, dalillarni tanlash, manbalardan foydalanish, iqtibos keltirish, akademik leksikani hamda grammatikani konstruksiyalashtirish hamda tayyor matnni qayta ko‘rib chiqish kabi bir-biri bilan bog‘liq faoliyatlarni amalga oshiradi. Generativ sun’iiy intellekt texnologiyalarining sohaga kirib kelishi bilan mazkur jarayonda yangi pedagogik imkoniyatlari paydo bo‘ldi. ChartGPT, Grammarly, QuillBot va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari foydalanuvchilarga matn yaratish, fikrlarni shakllantirish, grammatikaga oid va uslubiy jihatdan xatolarni aniqlash, matnni xatolarini qayta ishlash va tahrirlash kabi faoliyatlarda yordam beradi. Biroq, ta’lim jarayonlarida genrativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning faqat texnologik imkoniyatlari bilan cheklanib qolish o‘rinsiz. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan axborotlarning aniqligini, tayyor matnga tayanib qolmaslik, mustaqil fikrni saqlab qolish,plagiat va akademik halollik bilan bog‘liq masalalarga e’tiborli bo‘lish, sun’iy intellekt texnologiylaridan foydalanishning pedagogik chegaralarini belgilash kabi talablar bajarilishi lozim. Shunday ekan generativ sun’iy intellekt texnologiylaridan akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayopnlarida foydalanishda, asosiy e’tiborni mazkur texnologiylarga emas, balki ulardan qanday pedagogik maqsadlar va metodik shartlar asosida foydalanishga qaratilishi lozim.

Akademik yozuv kompetensiyasi ko‘p kompoenentli jarayoni bo‘lib, u grammatika, leksik bilimlar bilan bir qatorda, akademik matnni rejalashtirish, mazmunan tashkil etish, argumentatsiya qilish, manbalardan foydalanish, tahririlash va refleksiya kabi qobilyatlarni o‘z ichiga oladi. Akademik yozuv kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida akademik yozuvni tushunish va cheagralarini ajrata olish, asosiy g‘oyani shakllantirish, yozuv rejasini ishlab chiqish, dalillarni mantiqiy tashkil etish kabi komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalari filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator pedagogk imkoniyatlari taqdim

etadi. Talabalar tayyor matnni sun’iy intellektdan olmaydi aksincha, fikrlash va tahrirlash faoliyatini faollashtirgan holda o‘zlari matn yaratadi. Generativ sun’iy intellekt texnologiyalari g‘oya yaratishni qo‘llab quvvatlaydi. Talabalari akademik yozuvning dastlabki bosqichida mavzu bo‘yicha yetarli fikr ishlab chiqishda qiyinchilikka duch keladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari muqobil nuqtai nazarni taklif qilib, muammoli savollarni shakllantiradi. Bunda yakuniy fikr talabaning o‘ziga tegishli bo‘lib qoladi.

Navbatdagi bosqichda ham talaba sun’iy intellektning tayyor rejasini qabul qilmasdan o‘z tadqiqot maqsadi va fikrlariga moslashtirishi lozim. Shuningdek, sun’iy intellekt talabalarning leksik va grammatik kompetensiyasini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Talaba mauyyan so‘zning akademik kontekstdagi qo‘llanilishi, sinonimik variantini yoki grammatik shakllarni tahlil qlishi mumkin. Talaba yozgan akademik matnidagi grammatik xatolarni aniqlash va sabalarini so‘rashi mumkin. Buning natijasida talaba xatolarni anglaydi va kelgusida ularni mustaqil tarzda bartarraf etishiga imkon beradi.

Akademik yozuvda faqat grammatik to‘g‘rilikka urg‘u berga holda argumentlarning mantiqiyligini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Bu o‘rinda talaba sun’iy intellekt texnologiylaridan yozgan paragrafidagi asosiy g‘oyani aniq ifodalanishi, dalil va xulosa o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish, fikrlarning takroriyligini aniqlash kabi jarayonlarda foydalanishi mumkin. Akademik yozuv boshqa mualliflarning fikrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirib olmasdan, ularni mazmunini saqalagan holda mustaqil qayta ifodalashni nazarda tutadi. Demak, g‘oyalarni mazmunini saqlagan holda qayta yozishda sun’iy intellekt texnologiylaridan foydalanish bu plagiatni yashirish vositasi emas, aksincha fikrlarni mazmunini saqlagan holda qayta qurish tamoyillarini o‘rganish vositasiga ham aylanishi lozim.

Generativ sun’iy intelelktdan akademik yozuvni rivojlantirishda foydalanishning eng muhim shartlaridan yana biri bu akademik halollikdir. Talaba SI matnni o‘z mahsuloti sifatida ko‘rsatmasligi, berilgan faktlarni, bibliografik ma’lumotlarni tekshirishi, mualliflik pozitsiyasini saqlashi,SI dan foydalanishi jarayonining shaffo ko‘rsatishi zarur. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining akademik yozuv kompetnsiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiylaridan foydalanishning amal qilinishi lozim bo‘lgan maqsadlilik, mustaqil faoliyatni saqlash, anqidiy baholash, manbalarni verifikatsiya qilish, akademik halollik, refleksiya.kabi pedagogik shartlari mavjud.

Xulosa qilib aytganda genrativ sun’iy intellekt texnologiyalari filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratib beradi.Biroq, ularning pedagogik qiymati tayyor matn yaratish imkoniyatida emas, talabaning mustaqil fikrlash va yozuv jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, generative sun’iy intellekt texnologiylaridan akademik yozuvni rivojlantirishda foydalanish “texnologiya markazli” emas, balki “ talaba kompetensiya markazli” yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim.

Foydalnilgan adabiyotlar

1. Barrot, J. S. (2023). Using ChatGPT for second language writing: Pitfalls and potential. *Assessing Writing, 57*, 100745.
2. Chan, C. K., & Hu, W. (2023). Students’ voices on generative AI: Perceptions, benefits, and challenges in higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20*, 43.

3. Cotton, C., Cotton, P., & Shipley, J. R. (2023). Not quite eye to A.I.: Student and teacher perspectives on the use of generative artificial intelligence in the writing process. *International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20*, 59.
4. Escalante, J., Pack, A., & Barany, A. (2023). AI-generated feedback on writing: Insights into efficacy and ENL student preference. *International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20*, 57.
5. Gayed, J. M., Carlon, M. K. J., Oriola, A. M., & Cross, J. S. (2022). Exploring an AI-based writing assistant’s impact on English language learners. *Computers and Education: Artificial Intelligence, 3*, 100055.
6. Hwang, G. J., & Chen, N.-S. (2023). Editorial position paper: Exploring the potential of generative artificial intelligence in education: Applications, challenges, and future research directions. *Educational Technology & Society, 26*, 1–18.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI KIBERPEDAGOGIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH

Bekchonova Shoira Bazarbayevna
Yangi asr universiteti PhD, professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.22868205

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali kiberpedagogik kompetensiyani takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Maqolada sun’iy intellekt, raqamli pedagogika, kiberxavfsizlik, raqamli etika va pedagogik faoliyatning o‘zaro integratsiyasi kiberpedagogik kompetensiyani rivojlantirishning muhim omili sifatida asoslangan. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim mazmunini individuallashtirish, raqamli kontent yaratish, pedagogik diagnostika, baholash, tezkor teskari aloqa va ta’lim analitikasini tashkil etishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt, kiberpedagogika, kiberpedagogik kompetensiya, raqamli pedagogika, AI savodxonligi, kiberxavfsizlik, raqamli etika, pedagogik dizayn, generativ sun’iy intellekt, ta’lim analitikasi, raqamli kompetensiya.*

KIRISH



Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi oliy ta’lim tizimida ta’lim mazmuni, pedagogik faoliyat va ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarning tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI)


texnologiyalarining ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi o‘qitishning an’anaviy shakllarini takomillashtirish, ta’lim mazmunini individuallashtirish, o‘quv faoliyatini tahlil qilish hamda pedagogik qarorlarni ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalaridan samarali va mas’uliyatli foydalanish pedagogdan nafaqat raqamli vositalarni texnik jihatdan boshqarish, balki ularning pedagogik, axloqiy, xavfsizlik va metodik jihatlarini kompleks tushunishni talab etadi.

Bugungi raqamli ta’lim muhitida generativ sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim tizimlari, intellektual tutorlar, avtomatlashtirilgan baholash vositalari, ta’lim analitikasi va tavsiya tizimlarining qo‘llanilishi pedagogik jarayonning barcha bosqichlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur texnologiyalar o‘quv materiallarini individuallashtirish, talabalarning ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash, tezkor teskari aloqani ta’minlash va ta’lim natijalarini monitoring qilish imkonini beradi. Biroq sun’iy intellektdan foydalanish bilan bir qatorda akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik xolislik, axborotning ishonchliligi, mualliflik huquqi va inson nazoratining saqlanishi kabi muammolar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli raqamli ta’lim muhitida SI texnologiyalaridan foydalanish masalasi faqat texnologik emas, balki kiberpedagogik muammo sifatida ham qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogning kasbiy faoliyati raqamli vositalardan foydalanishning texnik ko‘nikmalari bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon pedagogik, metodik, kommunikativ, axborot va xavfsizlik kompetensiyalarining o‘zaro integratsiyasini talab etadi. Shu jihatdan pedagoglarning raqamli kompetensiyasini tavsiflovchi xalqaro konsepsiyalar kiberpedagogik kompetensiyaning nazariy asoslarini belgilashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi[3].

Kiberpedagogik kompetensiyani shakllantirish bosqichlari



DigCompEdu konsepsiyasida pedagoglarning raqamli kompetensiyasi raqamli resurslarni tanlash va yaratish, raqamli pedagogika, baholash, ta’lim oluvchilarni jalb etish hamda ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar orqali izohlanadi. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalardan foydalanishni texnik faoliyat emas, balki pedagogik jarayonning ajralmas komponenti sifatida talqin qilish imkonini beradi. Biroq sun’iy intellektning jadal rivojlanishi mazkur kompetensiya doirasiga algoritmik savodxonlik, generativ SI bilan ishlash,

SI natijalarini tanqidiy baholash, ma’lumotlar xavfsizligi va SI etikasi kabi yangi kompetensiyalarni kiritish zaruratini yuzaga keltirmoqda[6].

TPACK modeli doirasida texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi samarali raqamli ta’limni tashkil etishning muhim sharti sifatida qaraladi. Ushbu model nuqtayi nazaridan, sun’iy intellekt vositasining mavjudligi o‘z-o‘zidan ta’lim samaradorligini kafolatlamaydi; uning pedagogik qiymati texnologiyaning o‘quv mazmuni va tegishli pedagogik strategiya bilan qanchalik uyg‘unlashtirilganiga bog‘liq. Shu sababli SI texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishda texnologik bilim bilan bir qatorda pedagogik dizayn va fan mazmunini uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi[5].

Raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyalashning bosqichma-bosqich xususiyatini SAMR modeli orqali ham izohlash mumkin. Model texnologiyadan foydalanishni o‘rnini bosish, takomillashtirish, qayta loyihalash va yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratish darajalari asosida tavsiflaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlari ayniqsa yuqori bosqichlarda namoyon bo‘lib, individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish, intellektual teskari aloqa, avtomatlashtirilgan tahlil va yangi turdagi o‘quv faoliyatlarini tashkil etish imkonini beradi. Bundan kelib chiqadiki, SI vositalaridan foydalanish kiberpedagogik kompetensiyaning texnologik komponenti bilan bir qatorda pedagogik-ijodiy komponentini ham rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va ta’lim munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda generativ SI alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Tadqiqotchilar ChatGPT kabi generativ modellarni ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini ishlab chiqish, individual maslahat berish, matnlarni tahlil qilish, savol va topshiriqlar yaratish hamda formativ baholashni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida ko‘rib chiqmoqdalar. Biroq ushbu texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari bilan bir qatorda ularning noto‘g‘ri yoki ishonchsiz ma’lumot ishlab chiqarishi, akademik halollikka ta’siri va talabaning mustaqil fikrlashiga ehtimoliy ta’siri ham ilmiy munozaralarning muhim yo‘nalishiga aylangan[4].

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Guidance for generative AI in education and research” hujjatida generativ sun’iy intellektdan ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish inson markazli, xavfsiz, adolatli va etik tamoyillar asosida tashkil etilishi zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv kiberpedagogik kompetensiyaning mazmunini faqat texnologik foydalanish bilan chegaralamasdan, raqamli xavfsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi, etik mas’uliyat va inson nazorati bilan birgalikda ko‘rib chiqishni talab etadi[8].

Sun’iy intellektning ta’limdagi rolini o‘rgangan xalqaro tadqiqotlarda SI texnologiyalarining ta’limni individuallashtirish, talabalarning ehtiyojlarini aniqlash va pedagogik qarorlarni qo‘llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari qayd etilgan. Shu bilan birga, sun’iy intellekt savodxonligi, zamonaviy pedagog va talabaning yangi kompetensiya sohasi sifatida qaralmoqda. SI savodxonligi texnologiyadan foydalanish bilan bir qatorda uning ishlash tamoyillarini tushunish, natijalarini tanqidiy baholash, cheklovlarini anglash va undan mas’uliyatli foydalanishni ham nazarda tutadi[7].

METODIKA

Tadqiqotda raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali kiberpedagogik kompetensiyani takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan kompleks metodik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, kompetensiyaviy, kiberpedagogik va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan. Bu yondashuvlar sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga

texnik jihatdan joriy etish bilangina cheklanmasdan, ularning pedagogik maqsadga muvofiqligi, xavfsizligi, etikligi va ta’lim natijalariga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy obyekti raqamli ta’lim muhitida pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayoni, predmeti esa sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida kiberpedagogik kompetensiyani takomillashtirish mazmuni, shakllari va metodik mexanizmlaridan iborat etib belgilandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, test, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil. Nazariy tahlil orqali sun’iy intellekt, raqamli pedagogika, raqamli kompetensiya, SI savodxonligi va kiberpedagogik kompetensiyaga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil asosida mavjud raqamli kompetensiya modellari va ularning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sharoitidagi imkoniyatlari taqqoslandi.

Kiberpedagogik kompetensiyaning rivojlanish darajasini aniqlash uchun uchta asosiy mezon belgilandi:

1. Motivatsion-kognitiv mezon - sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini anglash, ulardan foydalanishga motivatsiya, AI texnologiyalarining imkoniyatlari va cheklovlari haqidagi bilimlar;
2. Texnologik-amaliy mezon - SI vositalaridan ta’lim mazmunini yaratish, topshiriqlar ishlab chiqish, individual ta’limni tashkil etish, teskari aloqa va baholash jarayonlarida foydalanish ko‘nikmalari;
3. Kasbiy-faoliyat mezoni - SI texnologiyalaridan pedagogik maqsadga muvofiq, xavfsiz, etik va mas’uliyatli foydalanish, raqamli kommunikatsiyani tashkil etish hamda ta’lim jarayonini takomillashtirish qobiliyati.

Tajriba-sinov metodikasining mazmuni “aniqlash – shakllantirish – yakuniy baholash” bosqichlari asosida tashkil etildi. Dastlabki bosqichda ishtirokchilarning mavjud kiberpedagogik kompetensiya darajasi diagnostik vositalar orqali aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar, muammoli topshiriqlar, loyiha faoliyati, raqamli kontent yaratish va refleksiv faoliyat tashkil etildi. Yakuniy bosqichda dastlabki va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli foydalanish pedagoglarning kiberpedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun sezilarli pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, SI vositalaridan faqat tayyor axborot olish vositasi sifatida emas, balki ta’lim mazmunini loyihalash, individual ta’limni tashkil etish, diagnostika, baholash, teskari aloqa va refleksiyani qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik vosita sifatida foydalanish kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi[1.2].

Kiberpedagogik kompetensiyaning uchta komponenti bo‘yicha o‘zgarishlar kuzatildi. Motivatsion-kognitiv yo‘nalishda ishtirokchilarning sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlari haqidagi tasavvurlari kengaydi. Dastlab SI ko‘proq matn yaratish yoki ma’lumot izlash vositasi sifatida qabul qilingan bo‘lsa, metodik faoliyatdan so‘ng uning adaptiv ta’lim, individual topshiriqlar yaratish, baholash va pedagogik tahlildagi imkoniyatlari ham anglana boshlandi.

Texnologik-amaliy komponent bo‘yicha esa ishtirokchilarning AI vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarida ijobiy dinamika qayd etildi. Xususan, pedagogik topshiriqlarni shakllantirish,

ta’lim materiallarini moslashtirish, turli darajadagi topshiriqlar yaratish, talabalarning ehtiyojlariga mos ta’lim resurslarini ishlab chiqish va tezkor teskari aloqa berishda sun’iy intellektdan foydalanish ko‘nikmalari rivojlandi.

Kasbiy-faoliyat komponentida kuzatilgan o‘zgarishlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki kiberpedagogik kompetensiya faqat SI vositasidan foydalanish qobiliyati bilan belgilanmaydi. Pedagog uning natijalarini tanqidiy baholashi, noto‘g‘ri yoki ishonchsiz axborotni aniqlashi, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasini ta’minlashi, akademik halollik talablariga rioya qilishi va texnologiyadan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari kiberpedagogik kompetensiyaning texnologik va axloqiy komponentlari o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki pedagogik dizayn sifatiga bog‘liq. Agar SI vositasi aniq didaktik maqsad, o‘quv natijasi va baholash mezonlari bilan bog‘lanmasa, uning qo‘llanilishi ta’lim sifatiga sezilarli qo‘shimcha qiymat bermasligi mumkin. Shu sababli SI texnologiyalarini kiberpedagogik model doirasida qo‘llashda “texnologiya - pedagogik maqsad - ta’lim mazmuni - xavfsizlik - baholash” o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanishi zarur.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kiberpedagogik kompetensiyani takomillashtirishda AI savodxonligi + raqamli pedagogika + kiberxavfsizlik + raqamli etika komponentlarining integratsiyasi muhimligini ko‘rsatdi. Mazkur komponentlardan birining yetishmasligi sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Masalan, texnik jihatdan kuchli SI ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, biroq axborot xavfsizligi yoki akademik halollik talablarini yetarli darajada bilmaydigan pedagogning faoliyatida muayyan xavflar yuzaga kelishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kiberpedagogik kompetensiyani takomillashtirishning istiqbolli pedagogik vositalaridan biri ekanligi aniqlandi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi pedagogning texnologik faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda uning pedagogik loyihalash, individual ta’limni tashkil etish, teskari aloqa berish, baholash va ta’lim jarayonini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu asosda kiberpedagogik kompetensiyani takomillashtirishning samarali modeli sifatida sun’iy intellekt savodxonligi → raqamli pedagogik dizayn → amaliy qo‘llash → kiberxavfsizlik va raqamli etika → monitoring va refleksiya ketma-ketligini taklif etish mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu metodikaning turli fan yo‘nalishlari, ta’lim bosqichlari va pedagogik faoliyat turlaridagi samaradorligini empirik jihatdan tekshirish, shuningdek, generativ sun’iy intellektdan foydalanishning uzoq muddatli pedagogik natijalarini aniqlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cabero-Almenara, J., & Palacios-Rodríguez, A. Metareflection and learning to learn in the digital society: The importance of digital competence in teachers. International Journal of Educational Technology in Higher Education,2020. 17, Article 27, 1–14. https://doi.org/10.1186/s41239-020-00218-7

2. Chiu, T. K. F. Future research recommendations for transforming higher education with generative AI. Computers and Education: Artificial Intelligence, 2024. 6, 100197, 1–9. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2023.100197
3. Falloon, G. From digital literacy to digital competence: The teacher digital competency framework. Educational Technology Research and Development, 2020. 68, 2449-2472. https://doi.org/10.1007/s11423-020-09767-4
4. Ferrari, A. DIGCOMP: A framework for developing and understanding digital competence in Europe. Publications Office of the European Union. 2013.1-48.
5. Koehler, M. J., & Mishra, P. What is technological pedagogical content knowledge? Contemporary Issues in Technology and Teacher Education,2009. 9(1), 60-70.
6. Redecker, C. European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union.2017. 1-95. https://doi.org/10.2760/159770
7. Selwyn, N. Should robots replace teachers? AI and the future of education. Polity Press. 2019. 1-192.
8. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. UNESCO. 2023. 1-44. https://doi.org/10.54675/EWZM9535

SUN’IY INTELLEKT BILAN HAMKORLIKDA MENEJMENT TALABALARINING EKONOMETRIK KOMPETENTLIGINI INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi
E - mail: qtolibayeva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22870583

Annotatsiya. *Menejment yo‘nalishi talabalarining ekonometrik kompetentligini inson va sun’iy intellekt hamkorligiga tayangan individual ta’lim trayektoriyasi orqali rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni mazmuniy guruhlash va pedagogik modellashtirish asosida diagnostika, differensial topshiriq, sun’iy intellekt ko‘magi, dasturiy bajarish, ko‘p mezonli baholash, qayta aloqa va korreksiyani birlashtiruvchi model taklif etilgan. Natijada sun’iy intellektning tavsiya beruvchi va tahliliy imkoniyatlari o‘qituvchining metodik hamda ekspert nazorati bilan uyg‘unlashtirildi. Ushbu yondashuv talabaning individual ehtiyojiga mos topshiriqlarni tanlash, ekonometrik natijalarni izohlash va dalillarga asoslangan boshqaruv qarorini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, inson va sun’iy intellekt hamkorligi, ekonometrik kompetentlik, individual ta’lim trayektoriyasi, ta’lim analitikasi, diagnostik profil, differensial topshiriq, raqamli ta’lim, pedagogik nazorat.*

Abstract. *The development of management students’ econometric competence through an individual learning pathway based on human–artificial intelligence collaboration is examined. Systematic and comparative analysis, thematic grouping of scholarly sources, and pedagogical modelling were used to propose a model integrating diagnostics, differentiated tasks, AI support, software - based performance, multi - criteria assessment, feedback, and correction. The model combines the advisory and analytical capabilities of AI with the teacher’s methodological guidance and expert oversight. This approach supports the selection of tasks aligned with individual needs, the interpretation of econometric results, and evidence - based managerial decision - making.*

Keywords: *artificial intelligence, human–AI collaboration, econometric competence, individual learning pathway, learning analytics, diagnostic profile, differentiated task, digital education, pedagogical oversight.*

KIRISH

Oliy ta’limda sun’iy intellekt vositalarining kengayishi o‘quv mazmunini yetkazish usullarinigina emas, talabaning bilish faoliyati, o‘qituvchining metodik qarori va baholash jarayonini ham o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, ekonometrika kabi nazariy bilim, hisoblash amaliyoti, dasturiy bajarish va iqtisodiy talqinni birlashtiradigan fanlarda sun’iy intellekt ma’lumotlarni tushuntirish, topshiriq variantlarini shakllantirish, xatolarni aniqlash va tezkor qayta aloqa berish imkonini yaratadi. Biroq uning pedagogik qiymati tayyor javob ishlab chiqarishida emas, balki talabaning mustaqil tahlilini kuchaytiradigan hamkor vosita sifatida tashkil etilishida namoyon bo‘ladi.

Menejment yo‘nalishi talabalari matematik - statistik tayyorgarligi, Excel va EViews kabi dasturlardan foydalanish tajribasi, natijalarni iqtisodiy izohlash hamda boshqaruv xulosasini shakllantirish qobiliyati jihatidan bir xil boshlang‘ich darajaga ega emas. Barcha talabaga mazmuni va murakkabligi bir xil topshiriq berilishi ayrim talabalar uchun ortiqcha yuklama, boshqalari uchun esa yetarli bo‘lmagan o‘quv chaqirig‘ini yuzaga keltiradi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv faoliyati haqidagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash mumkin, ammo individual yo‘nalishni belgilash faqat algoritmik tavsiyaga topshirilsa, noto‘g‘ri xulosa, tarafkashlik, akademik halollik va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘lishi ehtimoli mavjud [3].

Tadqiqotning maqsadi inson va sun’iy intellekt hamkorligiga tayangan holda menejment talabalarining ekonometrik kompetentligini individual ta’lim trayektoriyasi asosida rivojlantirishning pedagogik modelini asoslashdan iborat. Mazkur maqsad doirasida sun’iy intellekt va o‘qituvchi vazifalarini chegaralash, diagnostik profilni shakllantirish, differensial topshiriqlarni tanlash, dasturiy bajarish natijalarini baholash va trayektoriyani korreksiya qilish tartibi aniqlashtirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy - metodik xususiyatga ega bo‘lib, unda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni mazmuniy guruhlash, funksional dekompozitsiya va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil ekonometrik kompetentlikning kognitiv, analitik - amaliy, interpretativ - prognostik va qaroriy - boshqaruv komponentlari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil raqamli vositalar hamda sun’iy intellekt xizmatlarining didaktik vazifalarini farqlash imkonini berdi. Funksional dekompozitsiya orqali diagnostika, tavsiya, bajarish, baholash, qayta aloqa va korreksiya jarayonlarida o‘qituvchi, talaba va sun’iy intellektning vazifalari ajratildi.

Ta’lim analitikasi o‘quv faoliyatida hosil bo‘ladigan ma’lumotlardan pedagogik qarorlarni aniqlashtirishda foydalanish imkonini beradi [1]. Adaptiv ta’lim bo‘yicha tadqiqotlarda boshlang‘ich tayyorgarlikni aniqlash, mazmunni individual ehtiyojga moslashtirish va muntazam qayta aloqa o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi [2]. Individual ta’lim trayektoriyasi esa talaba uchun umumiy ta’lim maqsadini saqlagan holda topshiriq murakkabligi, bajarish sur’ati, metodik ko‘mak va tavsiya etiladigan resurslarni moslashtirishni anglatadi [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy - metodik tahlil natijasida inson va sun’iy intellekt hamkorligiga asoslangan siklik model ishlab chiqildi. Model diagnostik ma’lumotlarni yig‘ish, kompetentlik profilini shakllantirish, differensial topshiriqni tanlash, sun’iy intellekt ko‘magida faoliyatni bajarish, natijani ko‘p mezonli baholash, qayta aloqa berish va trayektoriyani korreksiya qilish bosqichlarini birlashtiradi. Jarayonning siklikligi har bir topshiriqdan keyin olingan natijani keyingi pedagogik qaror uchun yangi ma’lumot sifatida qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Diagnostik profil umumiy “biladi–bilmaydi” bahosi bilan cheklanmaydi. Unda talabaning ekonometrik tushunchalarni anglashi, ma’lumotlarni tayyorlashi, modelni tanlashi, dasturda hisoblashni bajarishi, statistik natijani tekshirishi, iqtisodiy talqin qilishi va boshqaruv qarorini asoslash imkoniyatlari alohida baholanadi. Masalan, talaba regressiya tenglamasini dastur orqali to‘g‘ri qurishi, biroq koeffitsiyentning iqtisodiy mazmunini noto‘g‘ri sharhlashi mumkin. Bunday vaziyatda unga qayta hisoblash topshirig‘i emas, natijani real boshqaruv muammosi bilan bog‘lashga yo‘naltirilgan savol va izohlash namunasi taqdim etilishi lozim.

Sun’iy intellekt diagnostika bosqichida talaba javoblaridagi takroriy xatolarni guruhlash, individual qiyinchiliklarni taxminiy aniqlash va o‘qituvchiga ko‘rib chiqish uchun profil loyihasini tayyorlash vazifasini bajaradi. Yakuniy diagnostik xulosa esa o‘qituvchi tomonidan tasdiqlanadi. Chunki algoritm talabaning javobini shakliy belgilarga ko‘ra to‘g‘ri baholashi, ammo iqtisodiy mantiq, kontekst yoki o‘ziga xos yechimni yetarli hisobga olmasligi mumkin. Shuning uchun sun’iy intellekt tavsiyasi pedagogik qarorning manbalaridan biri bo‘lib, uning o‘rnini bosmaydi.

Differensial topshiriqlarni shakllantirishda hamkorlik uch darajada tashkil etiladi. Boshlang‘ich darajadagi talaba uchun sun’iy intellekt qisqa tushuntirish, bosqichli yo‘riqnoma va sodda ma’lumotlar to‘plamini taklif etadi. O‘rta darajadagi talaba muqobil model yoki natijani talqin qilish bo‘yicha yo‘naltiruvchi savollar oladi. Yuqori darajadagi talaba esa ma’lumot manbasini mustaqil tanlaydi, bir nechta modelni solishtiradi va sun’iy intellekt bergan tavsiyani tanqidiy tekshiradi. Ushbu darajalar qat’iy guruh sifatida emas, diagnostik natijaga ko‘ra yangilanib turadigan o‘quv holati sifatida qaraladi [4].

Ekonometrik topshiriqni dasturiy bajarishda Excel ma’lumotlarni tozalash, dastlabki hisob - kitob va sodda vizuallashtirish uchun, EViews esa model parametrlarini baholash, statistik mezonlarni tekshirish va vaqtli qatorlarni tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Sun’iy intellekt ushbu dasturlarning o‘rnini egallamaydi; u buyruqlar ketma - ketligini tushuntirish, xato sababini izohlash, natijaga doir tekshiruv savollarini yaratish va bir nechta talqin variantini qiyoslashga yordam beradi. Raqamli vositani tanlashda funksiyalar soni emas, uning aniq o‘quv vazifasiga didaktik mosligi ustuvor hisoblanadi [7].

Masalan, korxonada xodimlar malakasini oshirish xarajatlari va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda talaba avval ma’lumotlarning tuzilishi va sifatini tekshiradi, so‘ng modelni baholaydi va natijani boshqaruv nuqtayi nazaridan sharhlaydi. Sun’iy intellekt mumkin bo‘lgan omillarni eslatishi yoki talqin loyihasini taklif qilishi mumkin. Talaba esa ushbu tavsiyalarni tanlanma hajmi, model cheklovlari, statistik ahamiyat va iqtisodiy mantiq asosida tekshiradi. O‘qituvchi dalillarning yetarliligini baholab, yakuniy qayta aloqa beradi. Shu tariqa talaba sun’iy intellekt javobini ko‘chiruvchi emas, uni tekshiruvchi va asosli qarorga aylantiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

Ko‘p mezonli baholash hisoblashning texnik to‘g‘riligi, model tanlovining asoslanganligi, statistik natijalarni tushuntirish, prognoz noaniqligini hisobga olish, iqtisodiy talqin va boshqaruv tavsiyasini qamrab oladi. Sun’iy intellekt shakliy xatolarni va hisoblash bosqichidagi nomuvofiqliklarni tezkor ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchi esa talabaning sababiy mulohazasi, kontekstni hisobga olishi va qaror uchun keltirgan dalillarini ekspert sifatida baholaydi. Bunday vazifalar taqsimoti qayta aloqaning tezkorligini oshiradi va mazmuniy baholashda inson mas’uliyatini saqlaydi. Izoh hamda ko‘rsatmalarni qisqa, mantiqiy ketma - ketlikda va ortiqcha axborot yuklamasisiz taqdim etish o‘zlashtirishni qo‘llab - quvvatlaydi [5].

Modelni amalga oshirishda EKO - ADAPT raqamli o‘quv muhiti konseptual vosita sifatida qaraladi. Unda diagnostik natijalar, topshiriq variantlari, talabaning urinishlari, o‘qituvchi izohlari va korreksiya bo‘yicha tavsiyalar yagona trayektoriyada qayd etiladi. Sun’iy intellekt moduli mavjud ma’lumotlar asosida keyingi topshiriq va metodik ko‘mak variantlarini tavsiya qiladi; o‘qituvchi tavsiyani qabul qiladi, o‘zgartiradi yoki rad etadi. Bu tartib algoritmik qarorning tushuntirilishi va pedagogik nazoratning saqlanishini ta’minlaydi.

Inson va sun’iy intellekt hamkorligida etik me’yorlar modelning alohida sharti hisoblanadi. Talabaga qaysi bosqichlarda sun’iy intellektdan foydalanish mumkinligi, undan

olingan javobni qanday qayd etish va tekshirish lozimligi oldindan tushuntiriladi. Shaxsiy ma’lumotlar himoyalanadi, baholash uchun zarur bo‘lmagan ma’lumotlar tizimga kiritilmaydi. Sun’iy intellekt yaratgan izohlar birlamchi ilmiy manba sifatida qabul qilinmaydi, muhim xulosalar ishonchli adabiyotlar va hisoblash natijalari bilan tasdiqlanadi. UNESCO tavsiyalarida ham inson markaziyligi, xavfsizlik, shaffoflik va mas’uliyatli foydalanish ta’limdagi generativ sun’iy intellektning muhim tamoyillari sifatida belgilangan [3].

Taklif etilgan modelning ilmiy ahamiyati ekonometrik kompetentlikni rivojlantirishda sun’iy intellekt imkoniyatlarini alohida texnik vosita sifatida emas, diagnostika va korreksiyani bog‘lovchi pedagogik hamkorlik komponenti sifatida talqin qilishidadir. Amaliy ahamiyati esa bir mavzu doirasida turli tayyorgarlikka ega talabalar uchun mazmunni emas, topshiriq murakkabligi, mustaqillik darajasi va yordam hajmini moslashtirish imkonini berishida ko‘rinadi. Mazkur yondashuv o‘qituvchining takroriy texnik tekshiruvlarga sarflaydigan vaqtini qisqartirib, murakkab talqin va boshqaruv qarorlarini muhokama qilishga ko‘proq e’tibor qaratishiga yordam beradi.

XULOSA

Inson va sun’iy intellekt hamkorligiga asoslangan individual ta’lim trayektoriyasi menejment talabalarining ekonometrik kompetentligini ularning joriy ehtiyoji va faoliyat natijalariga muvofiq rivojlantirish imkonini beradi. Diagnostika, differensial topshiriq, sun’iy intellekt ko‘magi, dasturiy bajarish, ko‘p mezonli baholash, qayta aloqa va korreksiyaning yagona siklda tashkil etilishi o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt tezkor tahlil, tavsiya va tushuntirish vazifalarini bajarishi, o‘qituvchi esa maqsadni belgilash, mazmuniy baholash, etik nazorat va yakuniy pedagogik qaror uchun mas’ul bo‘lishi lozim. Talaba sun’iy intellekt natijasini tanqidiy tekshirishi, dasturiy hisoblash bilan solishtirishi va iqtisodiy dalillar asosida mustaqil xulosa chiqarishi kerak. Shu shartlar bajarilganda sun’iy intellekt tayyor javob manbai emas, ekonometrik fikrlash va boshqaruv qarorini rivojlantiruvchi hamkor vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Long P., Siemens G. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education // EDUCAUSE Review. 2011. Vol. 46, No. 5. P. 31–40.
2. du Plooy E., Casteleijn D., Franzsen D. Personalized adaptive learning in higher education: A scoping review of key characteristics and impact on academic performance and engagement // Heliyon. 2024. Vol. 10, No. 21. Article e39630.
3. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. 44 p.
4. Tomlinson C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. Alexandria, VA: ASCD, 2014. 197 p.
5. Mayer R. E. Multimedia Learning. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 433 p.
6. Xudoyberdiyev E. Kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasini tuzish va uni amalga oshirishning pedagogik xususiyatlari // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. 2021. B. 185–191.
7. Karimova N. Raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi: monografiya. Toshkent: Bookmany print, 2025. 144 b

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘QUV-BILUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI-TA’LIMNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Bozorov Vahobiddin Nuriddinovich
Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi 3-bosqich tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22870749

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quv-biluv motivlarini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogik ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan. O‘quv-biluv motivlarining mohiyati, ularning bo‘lajak pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi, bilish faolligi va ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy-pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, o‘quv-biluv motivlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, pedagogik shart-sharoitlar hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining motivatsion imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarda barqaror o‘quv-biluv motivlarini shakllantirish ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, mustaqil ta’lim hamda refleksiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash orqali samarali amalga oshirilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchi, o‘quv-biluv motivi, motivatsiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik-psixologik xususiyatlar, bilish faolligi, ta’lim jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, refleksiya, mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется проблема формирования учебных мотивов у будущих учителей как важная составляющая современного педагогического образования. На основе научно-педагогического и психологического подходов рассматривается сущность учебных мотивов, их влияние на профессиональное формирование будущей педагогической личности, познавательную деятельность и эффективность обучения. Также анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие учебных мотивов, педагогические условия и мотивационные возможности современных образовательных технологий. По результатам исследования обосновывается, что формирование устойчивых учебных мотивов у будущих учителей эффективно осуществляется путем организации образовательного процесса на основе личностно-ориентированного, интерактивного и компетентностного подходов, поддержки самостоятельного обучения и рефлексивной деятельности.*

Ключевые слова: *будущий учитель, образовательный мотив, мотивация, профессиональная подготовка, педагогико-психологические характеристики, познавательная деятельность, образовательный процесс, компетентностный подход, интерактивные методы, рефлексия, самостоятельное обучение, педагогические технологии.*

Abstract. *This article analyzes the problem of forming learning motives in future teachers as an important component of modern pedagogical education. The essence of learning motives, their impact on the professional formation of the future pedagogical personality, cognitive activity and educational effectiveness are covered on the basis of scientific-pedagogical and psychological approaches. Also, internal and external factors affecting the development of*

learning motives, pedagogical conditions and motivational capabilities of modern educational technologies are analyzed. According to the results of the study, it is justified that the formation of stable learning motives in future teachers is effectively implemented by organizing the educational process on the basis of person-oriented, interactive and competency-based approaches, supporting independent learning and reflective activity.

Keywords: *future teacher, educational motive, motivation, professional training, pedagogical and psychological characteristics, cognitive activity, educational process, competency-based approach, interactive methods, reflection, independent learning, pedagogical technologies.*

O‘quv-biluv motivatsiyasi talabaning bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji, qiziqishi, intilishi hamda o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ichki va tashqi omillar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur motivatsiya talabaning o‘quv faoliyatidagi faolligi, mustaqil ta’limga munosabati, kasbiy o‘sishga intilishi va ta’lim natijalarining samaradorligini belgilovchi muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Respublikamizda oliy ta’lim jamiyatning muhim ijtimoiy instituti sifatida mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan murakkab va tezkor o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimidan nafaqat mavjud yutuqlarni saqlab qolishni, balki doimiy ravishda takomillashib borishni, yangi talab va ehtiyojlarga moslashishni ham taqozo etmoqda. Oliy ta’lim oldida turgan dolzarb vazifalarni samarali hal etish pedagoglar, tadqiqotchilar hamda bo‘lajak mutaxassislardan nazariy va amaliy jihatdan yangicha yondashuvlarni, innovatsion g‘oyalarni hamda fanlararo integratsiyani keng joriy etishni talab qiladi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash borasida erishilgan natijalarni xalqaro miqyosda e’tirof etish, ta’lim sifatini innovatsion yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish va uni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlar ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari faoliyatini chuqur o‘rganish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, intilishlari va kasbiy maqsadlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish zamonaviy pedagogikaning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Talabalarning individual xususiyatlariga mos ravishda o‘quv-biluv faoliyatini maqsadli yo‘naltirish o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishga, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi[10].

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini izchil modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifalari belgilab berilgan[11].

[10] Yuldashev J.G‘., Usmonov S.A., 2006; Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M., 2005
[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ilm-fan va ta’lim integratsiyasini kuchaytirish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish borasida keng imkoniyatlar yaratilmoqda, bu jarayonlar xalqimizga xos bo‘lgan ilm-ma’rifatga intilish, bilim olish va o‘z ustida muntazam ishlash kabi qadriyatlarning zamonaviy ta’lim tizimida yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda[12].

Bugungi kunda bo‘lajak mutaxassislar sog‘lom va mazmunli hayot kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha munosib mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash hamda shaxsiy va kasbiy kamolotga erishishga intilmoqdalar. Ushbu maqsadlarga erishishda ta’lim muhim omil sifatida namoyon bo‘lib, yoshlarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish va motivatsiyani shakllantirish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning kelajak kasbiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish hamda ularni o‘z sohasining yetuk va fidoyi mutaxassisi sifatida tayyorlash pedagogdan yuksak kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, innovatsion fikrlash va chuqur ilmiy-metodik tayyorgarlikni talab etadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan, ta’lim transformatsiyasi ta’siri tobora ortib borayotgan globallashuv sharoitida talabalarning o‘quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish murakkab pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur jarayonda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda psixologik yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quv-biluv motivatsiyasining yuqori darajada shakllanishi talabalarning bilimlarni puxta egallashi, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishi va kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta’limda tahsil olayotgan, talabalar uchun o‘quv-biluv motivi, o‘z maqsadiga erishishi uchun muhim va dolzarb bo‘lgan faktorlardan biridir. Bilamizki, darslarni samarali tashkil etish va dars davomida talabalarning faolligini ta'minlash uchun avvalo ta'lim oluvchilardagi o‘quv–biluv motivlarini inobatga olish yoki ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish zarurdir. Bunga asosiy sabab ulardagi o‘quv – biluv motivlari, umuman, motivlar faoliyatning tayanch asosini tashkil etishidadir. Motivlar– didaktik jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Harakatlantiruvchi motivlarni o‘rganish, to‘g‘ri qo‘llash va ularni ta’lim jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. O‘rganilganlik darajasiga ko‘ra, shu kngacha motiv va uning nazariy mazmun va mohiyati yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur muammo uzoq yillar davomida pedagog olimlar tomonidan respublikamiz va xorijda keng tadqiq etilgan[13].

Jumladan, E.V.Sinitsina. mashhur rus olimi motivlar muammosi, ayniqsa, talabalardagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo‘ladi.[14] Rus psixologlari orasida motivlar masalasi A.N.Leontev, L.I.Bojovich va boshqalar

[12] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020; “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019

[13] Leontyev, A. N. (1977). *Activity, Consciousness and Personality*. Moscow: Progress Publishers.

[14] Sinitsina. “Психофизиологические характеристики учебной мотиватsii студентов”,РФ 2004.194-196-betlar

tomonidan o‘rganilgan. A.N.Leontev XX asrning 40- yillarida talabalarda motivatsiya masalalarini ta'kidlar ekan, bu jarayon unda motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog‘liqligini uqtirgan.[15]N.T.Norqulova o‘z tadqiqotida kelajakda talaba yoshlar kommunikativ muvaffaqiyati hamda kasbiy komponentligini belgilab beruvchi o‘quv-biluv motivini shakllantirish bo‘yicha o‘z amaliy tavsiyalarini bergan.[16]\

Ijtimoiy psixologiya rivojlanishiga salmoqli hissa qo’shgan olim Yu.Platonovning yozishicha, insonga ta’sir eta bilish, samarali boshqarish, eng avvalo, uning xulq-atvori va faoliyatini boshqarib turuvchi motiv mexanizmlarini tushunish, anglash orqali amalga oshadi. Faqatgina insonni nima, qanday kuch harakatga undashini bilish orqaligina uning xulq-atvorini boshqaruvchi samarali shakl va usullarni ishlab chiqish mumkin.[17]

Undan tashqari talabalarning o‘quv biluv motivlarini oshirish haqida yana bir qator olimlar tadqiqot olib borishgan. Masalan, Abraham Maslow o‘zining nazariyasi orqali bo‘lajak pedagoglar motivatsiyani rivojlantirish va ularni ta’lim jarayonlariga jalb qilish yo‘llari haqida ish olib borgan. Ed Deci va Richardyan o‘zlarining “O‘z-o‘ziga motivatsiya” nazariyalari (Self Determination Theory) orqali ichki va tashkiliy motivatsiya ishlab chiqarish usullarini o‘rganishgan. Bular bilan bir qatorda, Carol Dweck o‘zining “O‘sish fikri” (Growth Mindset) asari orqali talabalarning muvaffaqiyatga erishishida rag‘batlantirish hamda motivlarini shakllantirish masalalarini ilmiy asoslab bergan. Bu olimlarning tadqiqotlari va ilmiy izlanishlarining barchasi usullar va strategiyalar asosida isbotlangan.

Ilmiy adabiyotlarda motiv atamasiga turlicha mazmundagi ta'riflar keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlarini havola qilamiz.

Aleksey Leontyev fikriga ko‘ra, motiv — bu shaxs faoliyatini vujudga keltiruvchi hamda uni muayyan maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki omildir. Olim motivni ehtiyojlarning predmetlashgan shakli sifatida talqin qiladi va inson faoliyatining mazmuni hamda yo‘nalishini aynan motiv belgilashini ta'kidlaydi[18].

Sergey Rubinshteyn motivni shaxsning ichki psixologik holati bilan bog‘liq bo‘lgan, uning xatti-harakati va faoliyatini boshqaruvchi omil sifatida izohlaydi. Uning fikricha, motiv insonning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari va maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir[19].

Abraham Maslow motivatsiyani inson ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ichki intilish sifatida tavsiflaydi. Olim ishlab chiqqan ehtiyojlar ierarxiyasiga ko‘ra, shaxsning yuqori darajadagi bilim olish, o‘zini rivojlantirish va o‘z salohiyatini namoyon etishga bo‘lgan ehtiyojlari ham motivatsiyaning muhim manbalaridan hisoblanadi[20].

Edward L. Deci va Richard M. Ryan motivatsiyani ichki va tashqi motivatsiyaga ajratib o‘rganadilar. Ularning nazariyasiga ko‘ra, shaxsning mustaqilligi, kompetentligi va ijtimoiy aloqadorligi ta'minlangan taqdirda ichki motivatsiya kuchayadi va o‘quv faoliyati samaradorligi ortadi[21].

Mazkur manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, motiv shaxs faoliyatini boshlovchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi ichki psixologik omil bo‘lib, u ta'lim jarayonida

[15] A.N.Leontev “ Umumiy psixologiya “278-bet,Toshkent -2009
[16] Norkulova N.T. Yoshlar ma’naviяtida affiliatsiя motivatsiяsi psixologiяsi. – T.: «Fan va Texnologiya», 2015. 107-b.
[17] Платонов Ю.П. Социальная психология поведения: Учебное пособие. – СПб.: «Питер», 2006. –С. 464
[18] **Leontyev, A. N. (1977).** *Activity, Consciousness, and Personality*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
[19] **Rubinshteyn, S. L. (2003).** *Osnovy obshchey psixologii* (Asosiy umumiy psixologiya). Sankt-Peterburg: Piter.
[20] **Maslow, A. H. (1954).** *Motivation and Personality*. New York: Harper & Brothers.
[21] **Atkinson, J. W. (1964).** *An Introduction to Motivation*. Princeton, NJ: Van Nostrand.

talabaning o‘quv-biluv faoliyati, qiziqishi, faolligi hamda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quv-biluv motivlarini shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u pedagogik ta’lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘quv-biluv motivi talabaning bilimlarni ongli va faol o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, kasbiy o‘zini rivojlantirishga intilishi hamda uzluksiz ta’limga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv-biluv motivlarining rivojlanishi shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va kasbiy qadriyatlari bilan bir qatorda ta’lim jarayonining didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, refleksiv faoliyat hamda ijobiy pedagogik muhit bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning motivatsiyasini rivojlantirishda psixologik va pedagogik omillarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarda barqaror o‘quv-biluv motivlarini shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali yanada samarali tashkil etilishi mumkin. Mazkur yondashuvlar talabalarning bilish faolligini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda kelajakdagi pedagogik faoliyatiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quv-biluv motivlarini shakllantirishni ta’limning ajralmas qismi sifatida tizimli tashkil etish, uni zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan boyitish hamda ta’lim amaliyotiga izchil joriy etish pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Prentice-Hall.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). *The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior*. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.
5. Назаров, Ж. (2019). *Педагогикада мотиватsия назариялари*. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети нашриёти.
6. Мустақимова, З. (2020). *Ўқитувчиларда мотиватsияни шакллантириш усуллари*. Жаҳон Педагогика илмий журнали, 5(2), 45-55.
7. А.Н. Леонтьев - "Фаолият. Онг. Шахс" (1977) Леонтьев ўқув мотивларини фаолият назарияси асосида ўрганган. Унинг асарлари талабаларнинг ўқишга бўлган муносабати ва мотивларини фаолият нуқтаи назаридан тушунтиришга қаратилган.
8. Л.С. Выготский - "Оқилона таълим ва шахс ривожланиши" (1982) Выготскийнинг асарлари билиш жараёнининг ижтимоий томонларига ва таълим жараёнидаги ўзаро таъсирга оид.
9. Ю.К. Бабанский - "Педагогик фаолият самарадорлигини ошириш" (1988)

THE ORIGIN OF THE KOREAN LANGUAGE AND ITS RECOGNITION AS A LANGUAGE

Egamberdiyeva Farangiz Jaxongir qizi
Ajou university in Tashkent
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896997

Abstract. *This article examines the historical roots of the Korean language, the process of its formation, and its recognition as an official language. It aims to present the emergence of Korean from a historical, linguistic, and cultural perspective, and to identify the social foundations behind its acceptance as a distinct language. The article also considers the current status of Korean-language study in Uzbekistan and the legal framework supporting it.*

Keywords: *Korean language, Hangeul script, King Sejong, history of language, Uzbekistan–Korea cooperation, language policy.*

Introduction

Today, the Korean language has become one of the languages studied and actively used by millions of people not only on the Korean peninsula but across the world. It is the official language of both South Korea and North Korea, and it is also widely spoken among Korean diaspora communities in Japan, China, the United States, Russia, and Uzbekistan, among other countries. This is due not only to the historical and cultural value attached to the Korean language, but also to the growing global influence of the Republic of Korea through modern technology, art, and economic achievement.

Interest in the Korean language has grown sharply in recent years. In particular, the global spread of Korean popular culture (Hallyu) - K-pop music, Korean television dramas, cinema, cuisine, and contemporary lifestyle - has brought the language onto the international stage. The introduction of the TOPIK (Test of Proficiency in Korean) examination, along with scholarships and study opportunities created for international students in South Korea, has further strengthened the language's position among world languages.

Korean is also being actively studied in Uzbekistan today. Language centers and academic departments have been established as part of official cooperation, and educational exchange programs have been launched. This article presents an analytical account of the historical roots of the Korean language, the process of its emergence, the formation of its writing system, and its recognition as an official language, while also addressing the current position of Korean-language study in Uzbekistan.

Literature Review and Theoretical Background

Leading scholarship on the history of the Korean language, notably Ki-Moon Lee and S. Robert Ramsey's A History of the Korean Language, divides its development into three principal periods: Old Korean (from antiquity to roughly the tenth century, culminating in the unification of the peninsula under Silla), Middle Korean (the tenth to sixteenth centuries, spanning the Goryeo dynasty and the early Joseon period), and Modern Korean (from the seventeenth century to the present). This periodization reflects not only phonological and grammatical change but also fundamental shifts in the writing system used to record the language.

Before the creation of Hangeul, Korean was written primarily through several systems based on Chinese characters: idu (吏讀), used in official documents to represent Korean

grammatical markers using Chinese characters; hyangchal (鄕札), used to record early Korean poetry (hyangga); and gugyeol (口訣), a system of auxiliary marks used to aid the reading of Chinese texts according to Korean grammar. Because all of these systems were complex and accessible mainly to the literate aristocracy, the broader population remained largely illiterate a central factor motivating King Sejong‘s creation of a simpler, more accessible writing system.

Korean linguistics has also long debated the language's genetic origins. The Altaic hypothesis, proposed in the early twentieth century by scholars such as G. J. Ramstedt, sought to group Korean together with the Turkic, Mongolic, and Tungusic languages within a single language family; however, because the shared features cited may equally result from prolonged language contact rather than common descent, most linguists today treat this hypothesis with caution. An alternative view, increasingly favored in the field, treats Korean as a language isolate, unrelated to other known language families. At the same time, the typological similarities between Korean and Japanese including SOV word order, agglutinative morphology, and vowel harmony remain a distinct area of ongoing research, though such similarities are generally understood to reflect typological resemblance rather than proven genetic relatedness.

Methods

This study draws on historical documents, linguistic sources, scholarly literature on the development of the Korean language, and materials on Korean history. In particular, it examines dialectal differences among the ancient kingdoms of Goguryeo, Baekje, and Silla, the creation of the Hangeul writing system in the fifteenth century, and the process by which Korean became consolidated as a modern language. The study of Korean-language education and development in Uzbekistan is based on an analysis of official regulatory and legal documents.

Results

There is no single, universally agreed scholarly account of the precise origin of the Korean language. Most linguists classify it as belonging to its own distinct language family; some scholarship links it to the Altaic language family, while other perspectives note typological similarities with Turkic and Japanese.

The creation of Hangeul by King Sejong in 1443 marked a turning point in the development of the Korean language. Where Chinese characters (hanja) had previously served as the primary writing system for Korean, Hangeul phonetically based and structured close to actual pronunciation — spread rapidly among the population and enabled widespread literacy.

During the early twentieth century, under Japanese occupation, the Korean language was banned and Japanese was made compulsory; however, following Korea's liberation in 1945, Korean was restored as the official language. Today, Korean remains the official and primary means of communication in both South and North Korea.

Attention to the Korean language has been steadily increasing in Uzbekistan. Under Decree No. 538-F of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, dated 2 July 2018, cooperation memoranda were signed between the Agency of External Labor Migration under the Ministry of Employment and Labor Relations and the Korea Human Resources Development Institute; as a result, the first "Korean–Uzbek Korean Language Center" opened at Tashkent Law College on 28 November 2018. Presidential Resolution No. PQ-5117, dated 19 May 2021, further established measures to bring the study and teaching of foreign languages, including Korean, to a new level.

In practical terms, the institutional foundation for Korean-language education in Uzbekistan is considerably broader. A Korea Education Center has operated in Tashkent since

1992, making it one of the earliest foreign-language education centers established during the years of independence. Dedicated Korean Language and Culture Centers have been established at Uzbekistan State World Languages University and Samarkand State Institute of Foreign Languages, while the Korean Language Faculty at Fergana branch of Korea International University enrolls more than 100 students specializing in the language. In addition, higher education institutions such as the Tashkent branch of Korea's Inha University, operating since 2014, further reflect the institutional depth of educational cooperation between the two countries (O‘zbekiston va Koreya Respublikasi ta'lim sohasidagi hamkorlik, 2022).

Progress can also be seen in the formal recognition of Korean-language proficiency: a number of Uzbek universities, including Namangan State University, officially accept the TOPIK II certificate among the recognized international language certificates alongside certificates for English, German, French, and Chinese. This indicates that Korean-language proficiency now carries practical weight in academic credit-transfer and admissions processes.

Furthermore, the study of Korean in Uzbekistan is not a recent or isolated phenomenon; it also rests on a distinct historical foundation. Following the forced Soviet-era resettlement of 1937, the ethnic Korean diaspora relocated to Uzbekistan (known as Koryo-saram) formed a long-established Korean community in the country, and a Korean national cultural center was among the first ethnic cultural centers founded in the republic, established in 1989. In this sense, Korean language and culture already had a social foundation in Uzbekistan well before the more recent influence of Hallyu.

Discussion

The recognition of Korean as an independent language has played an important role in preserving the national identity of the Korean people. Hangeul is valued not only as an easily learned writing system but also as cultural heritage - in 1997, the Hunminjeongeum Haerye was inscribed on the UNESCO Memory of the World Register. The growing international interest in Korean, driven in particular by popular culture and technological development, has further popularized the language.

The study of Korean in Uzbekistan is linked to expanding social, economic, and cultural cooperation between the two countries. Korean-language departments operate at Uzbekistan's higher education institutions, and specialists with Korean-language proficiency increasingly gain opportunities to work abroad reflecting the language's cultural as well as practical economic significance.

The recognition of Korean as an official language has also been reinforced through dedicated national observances. In South Korea, Hangeul Day (한글날) is celebrated as a public holiday every 9 October, marking the promulgation of the Hunminjeongeum and reflecting the official recognition of the writing system as cultural heritage of national significance. In North Korea, the same event is commemorated on 15 January as Chosŏn'gŭl Day. The existence of such official observances illustrates that the language is valued not merely as a means of communication but as a national symbol honored at the level of state policy.

At the same time, it would be inaccurate to speak of a single, unified standard form of Korean: since the division of the Korean peninsula in 1945, two distinct official standards have developed Pyojun-eo (표준어) in South Korea and Munhwa-eo (문화어) in North Korea. These two varieties differ in vocabulary, certain pronunciation features, and orthographic conventions, even though their grammatical foundation remains largely shared. This illustrates that the

recognition of a language as "official" is not a static process but an ongoing one, shaped by continuing political and social circumstances.

Survey findings on students' motivations for choosing to study Korean are also noteworthy: among respondents, 32.07% cited "interest in Korea and Korean culture," 23.5% cited direct "interest in the Korean language," 20.6% cited a desire to "study in Korea," and 12.9% cited "employment at a Korean company" as their primary motivation (Saidova, 2024). These findings suggest that interest in learning Korean today extends beyond cultural fascination alone and is closely tied to practical motivations connected to education and labor migration - a factor that should be taken into account when planning language centers and university programs.

Conclusion

The Korean language is recognized as a language with a long history and a distinctive phonetic and grammatical structure. Its development and attainment of official status have directly influenced the cultural and social progress of the Korean people. Today, Korean is internationally recognized and widely studied. Future research would benefit from comparative analysis of Korean alongside other languages and from continued refinement of Korean-language teaching methodology. In particular, deeper linguistic analysis of the divergence between the South and North Korean standard varieties, broader empirical research into the motivations and outcomes of Korean-language learners in Uzbekistan, and the application of digital and AI-based tools to foreign-language instruction in Korean represent promising directions for future study.

References

1. Sohn, Ho-Min. (1999). The Korean Language. Cambridge University Press.
2. Lee, Ki-Moon, & Ramsey, S. Robert. (2011). A History of the Korean Language. Cambridge University Press.
3. Hunminjeongeum Haerye (訓民正音解例). (1446). Original text and commentary on the creation of Hangeul, King Sejong the Great; inscribed on the UNESCO Memory of the World Register.
4. Ihm, Ho Bin, & Hong, Kyung Pyo. (1988). Korean Grammar for International Learners. Yonsei University Press.
5. Park, Francis Y. T. Speaking Korean, Books 1–2. Yale University Press.
6. Kim, Mun-chang. Gugeohak Gaeron [Introduction to Korean Linguistics] (국어학 개론).
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyuldagi 538-F-sonli Farmoyishi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori.
9. Saidova, M. (2024). Koreys tilining jahon va O‘zbekistonda ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitilishi [The teaching of Korean as a second foreign language worldwide and in Uzbekistan]. International Scientific Journal of Modern Science and Education, 2(7).
10. Educational Cooperation Between Uzbekistan and the Republic of Korea. (2022). Zenodo. https://zenodo.org/records/7319792
11. Ramstedt, G. J. (1957). Einführung in die altaische Sprachwissenschaft [Introduction to Altaic Linguistics]. Suomalais-Ugrilainen Seura.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ 5-Х КЛАССОВ (НА ПРИМЕРЕ ШКОЛ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ)

Ергашева Эльвира Владимировна
Докторант (PhD) кафедры методики преподавания русского языка и литературы,
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, г.
Ташкент, Республика Узбекистанelviraergasheva@gmail.com
E-mail: elviraergasheva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875469

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методические аспекты развития речевой компетенции учащихся 5-х классов узбекских школ в процессе обучения русскому языку с использованием интерактивных подходов. На основе синергии традиционной педагогической методики и технологий искусственного интеллекта (ИИ) анализируется практический комплекс урока по теме «Школа и образование».*

Продемонстрировано, как ИИ-инструменты ускоряют усвоение лексики, работу с паремиологическим материалом, моделирование ситуативных диалогов и написание диктантов, обеспечивая индивидуализацию обучения и эффективное преодоление языкового барьера.

Ключевые слова: *речевая компетенция, учащиеся 5-х классов, русский язык как неродной, искусственный интеллект, интерактивные занятия, узбекская школа, инновационная педагогика.*

Abstract. *This article examines the methodological aspects of developing speech competence of 5th-grade students in Uzbek schools during Russian language lessons using interactive approaches. Based on the synergy of traditional pedagogical methods and Artificial Intelligence (AI) technologies, a practical lesson complex on the topic "School and Education" is analyzed. It is demonstrated how AI tools accelerate vocabulary acquisition, work with proverbs, dialogue modeling, and dictation writing, ensuring individualization of learning and effective overcoming of language barriers.*

Keywords: *speech competence, 5th-grade students, Russian as a non-native language, artificial intelligence, interactive activities, Uzbek school, innovative pedagogy.*

1. ВВЕДЕНИЕ

В современных условиях цифровизации образования перед учителем русского языка в классах с узбекским языком обучения стоит задача переориентации учебного процесса с формального заучивания грамматических правил на развитие активной речевой компетенции — способности
пятиклассников свободно и грамотно выражать свои мысли в различных коммуникативных ситуациях.

Как справедливо подчеркивал Е. И. Пассов, «обучение говорению должно строиться как процесс, максимально приближенный к реальному общению, где главным ориентиром выступает решение коммуникативных задач» [1, с. 35].

В эпоху цифровой трансформации важным партнером педагога в организации интерактивных занятий становится искусственный интеллект (ИИ).

По мнению С. Рассела и П.Норвига, «системы искусственного интеллекта способны адаптироваться к индивидуальным потребностям обучающегося, предоставляя мгновенную обратную связь и оптимизируя траекторию усвоения материала» [2, с. 48]. Интеграция ИИ в учебный процесс позволяет трансформировать традиционные наработки урока (словарную работу,паремии, диалоговые конструкции, диктанты) в высокоинтерактивную языковую среду, что особенно важно для учащихся младшего подросткового возраста (5 класс).

2. МЕТОДОЛОГИЯ И ПРАКТИЧЕСКИЕ НАРАБОТКИ УРОКА В СИМБИОЗЕ С ИИ

Развитие речевой компетенции учащихся 5-х классов узбекских структурных подразделений строится по принципу постепенного усложнения: от базовой лексической единицы — к фреймовым конструкциям и связному монологическому высказыванию на основе интерактива. Ниже представлена структура методического комплекса по теме «Школа и школьная жизнь» с алгоритмами интеграции технологий искусственного интеллекта.

Блок 1. Двуязычный лексико-семантический комплекс Накопление базового словарного запаса опирается на принципы сопоставительной лингвистики и наглядности, заложенные в фундаментаных лексикографических трудах [3].

Основные понятия и учебные принадлежности: Болалар боғчаси — Детский сад;Мактаб — Школа;Синф — Класс;Дарс —Урок; Синфхона — Классная комната; Ўқитувчи — Учитель; Ўқувчи — Ученик; Навбатчи — Дежурный;Бадантарбия — Физкультура;Дарс жадвали — Расписание уроков; Эълон — Объявление;Деворий газета — Стенгазета;Бўр — Мел; Латта — Тряпка; Харита — Карта; Қўнғироқ — Звонок;Тўгарак — Кружок; Синф журнали — Классный журнал; Кўрсаткич — Указка;Танаффус— Перемена; Имтиҳон — Экзамен;Баҳо —Оценка. Ўқув қуроллари (Учебные принадлежности): *

Китоб — Книга; Кундалик — Дневник; Қоғоз — Бумага; Чизғич — Линейка; Учирғич — Ластик; Ўткирлагич — Точилка; Дарслик — Учебник; Луғат — Словарь; Алифбе — Азбука; Мақтов ёрлиғи — Похвальный лист; Байроқ — Флаг; Кутубхона — Библиотека; Кутубхоначи — Библиотекарь; Китобхон — Читатель; Ўқув зали — Читальный зал; Китоб жавони — Книжный шкаф; Қалам — Карандаш; Сиёҳ — Чернила; Ручка — Ручка;Қаламдон — Пенал;Ҳарф— Буква;Сўз — Слово; Гап тузмоқ — Составитьпредложение; Рақам — Цифра, число;Ёзув — Письмо; Хато — Ошибка;Ўзбек тили — Узбекский язык; Ўзбек адабиёти — Узбекская литература.

Тиниш белгилари (Знаки препинания):

Нуқта — Точка;Вергул — Запятая;Қўштирноқ — Кавычки; Сўроқ белгиси — Вопросительный знак; Ундов белгиси — Восклицательный знак; Икки нуқта — Двоеточие; Нуқтали вергул — Точка с запятой;Кўп нуқта — Многоточие; Тире — Тире;Қавс —Скобки.

Применение ИИ: Для перевода пассивного лексического запаса классического словаря [3] в активную речь пятиклассников используются ИИ-генераторы графических образов (Midjourney, DALL-E), создающие интерактивные визуальные карточки. Алгоритмы платформ Quizizz/ Kahoot на основе ИИ автоматически генерируют геймифицированные адаптивные тесты на соотнесение узбекско-русских эквивалентов.

Блок 2. Отработка паремиологического материала

Включение малых фольклорных форм (пословицы) способствуют лингвокультурологическому развитию учащихся 5-х классов и формированию правильного интонационного рисунка речи [4, с. 112].

Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmas. —Без труда не овладеешь наукой.
Umr yashasang —umr o‘rgan. —Век живи —век учись.
Bilim —kuch. —Знания —сила.
Dunyoni quyosh yoritadi, insonni esa bilim. — Мир освещается солнцем, а человек —знаниями.

Применение ИИ: Ученики запрашивают у диалоговой языковой модели примеры коротких сказочных или жизненных ситуаций, в которых употребительна та или иная пословица, что формирует у детей навык контекстного использования фразеологизмов.

Блок 3. Ситуативно-диалоговое моделирование

Развитие диалогической речи учащихся 5-х классов строится через отработку
игровых коммуникативных моделей.

Диалог №1: Учебная ситуация в классе
— Здравствуй!
— Здравствуйте!
— У тебя есть книга?
— Да, есть.
— Что у тебя на парте?
— У меня тетрадь, ручка и линейка.
— Где твойрюкзак ?
—Под партой.

Диалог №2: Беседа о школьных интересах
—Привет!
—Привет!
— Что тебе нравится в школе?
— Мне нравится читать книги в библиотеке.
— Какой твой любимый школьный предмет?
— Мой любимый предмет —литература.

Применение ИИ: Использование ИИ-ботов с голосовым интерфейсом. Ученик ведет устный интерактивный диалог с виртуальным персонажем, который подстраивается под уровень 10–11 лет и в реальном времени мягко подсвечивает ошибки в согласовании родов имен существительных и падежных окончаний.

Блок 4. Монологическая речь и связный текст. Текст для заучивания, интерактивного анализа и пересказа: «Я учусь в школе бокса имени Баходира Джалолова. Здание школы четырёхэтажное. Классы просторные и светлые. На первом этаже здания расположены библиотека, столовая, спортзал и учительская. Кабинеты для учеников находятся на втором этаже. Наш класс тоже находится на этом этаже. В нашем классе 30 учеников. В углу класса написаны их фамилии и имена. Слева от двери висит стенгазета нашего класса. Рядом с ней — расписание уроков и список дежурных учеников. Дежурный ученик приходит в школу пораньше. Он вытирает доску тряпкой, готовит мел, приводит класс в порядок. Ученики нашего класса стараются учиться только на "хорошо" и "отлично". Многие из них награждены похвальными грамотами. Мы особенно любим такие предметы, как узбекский язык, литература, математика, история. Учителя, которые преподают

эти предметы, проводят уроки очень интересно».

Блок 5. Контроль письменной речи (Мини-диктант)

Текст мини-диктанта:

«Мы идём в школу ранним утром. В классе я сижу со своими друзьями. Учитель проводит урок интересно. На перемене мы играем. Книга, тетрадь и ручка —мои друзья. Школа —храм знаний».

Применение ИИ: Интегрированные модули оптического распознавания текста (OCR) на базе ИИ позволяют учителю мгновенно сканировать письменные работы пятиклассников, автоматически группируя типичные орфографические ошибки класса для последующей точечной интерактивной проработки.

3. ВЫВОДЫ

Сотрудничество педагога и систем искусственного интеллекта в рамках проведения интерактивных занятий по русскому языку в 5-х классах с узбекским языком обучения позволяет:

1. Индивидуализировать процесс освоения лексического и грамматического материала с учетом интерферирующего влияния родного языка учащихся [5, с. 45];

2. Полностью снять психологический барьер при говорении благодаря интерактивным диалогам с нейросетевыми тренажерами;

3. Повысить динамику уроков и вовлеченность пятиклассников, органично сочетая фундаментальные печатные пособия и передовые цифровые ИИ-инструменты.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — 2-е изд. —М.: Просвещение, 1991. —223 с.

2. Рассел С.,Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход. — 4-еизд. —М.: Вильямс, 2020. —1408 с.

3. Махмудов Н., Тухлиев Б. Изучаем узбекский язык (Картинный словарь). — Ташкент: Ўқитувчи, 1991. —128 с.

4. Быстрова Е. А. Обучение русскому языку в школе: учебное пособие для студентов педагогических вузов / Е. А. Быстрова, С. И. Львова и др. — М.: Дрофа, 2004. —240 с.

5. Азизов А. А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. — Ташкент: Ўқитувчи, 1983. — 240 с.

INTEGRATING AI AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION: A MULTI-DIMENSIONAL SYNTHESIS OF PEDAGOGICAL FRAMEWORKS, STUDENT ENGAGEMENT, AND ETHICAL IMPERATIVES

Shukhrat Shernazarovich Eshankulov
Jizzakh State Pedagogical University
https://doi.org/10.5281/zenodo.22870768

Qadriyatli muhitning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri - **ta’lim mazmunining qadriyatlar bilan uyg‘unligi**dir. O‘quv fanlari mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aks ettirilishi talabalarga muayyan tushunchalarni nazariy jihatdan o‘zlashtirish imkonini beradi. Biroq qadriyatlarning barqaror shaxsiy e’tiqodga aylanishi uchun ularni amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarur. Shu sababli muammoli vaziyatlar, munozaralar, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, refleksiv topshiriqlar va jamoaviy ishlar kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi muhim mexanizm - **professor o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik**dir. Demokratik, hurmatga asoslangan va ochiq muloqotga yo‘naltirilgan pedagogik munosabat talabaning o‘z fikrini erkin ifodalashiga, boshqalarning qarashlarini hurmat qilishiga va ijtimoiy mas’uliyatni anglashiga sharoit yaratadi. O‘qituvchining shaxsiy namunasi ham bu jarayonda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Adolatli baholash, akademik halollik, mas’uliyatli munosabat va pedagogik madaniyat talaba tomonidan bevosita kuzatiladigan va amaliy jihatdan o‘zlashtiriladigan qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, **talabalarning faol ishtiroki** qadriyatli muhitni shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Talabalar turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, ilmiy va ijodiy to‘garaklar, talabalar tashkilotlari hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol qatnashganda qadriyatlar nazariy tushunchadan amaliy tajribaga aylanadi. Bunda talabaning tashabbus ko‘rsatishini va mustaqil qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar

Oliy ta’limda qadriyatli muhitni shakllantirish talabalarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Tadqiqotning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, qadriyatli muhitni shakllantirish jarayoni faqat ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan cheklanmasdan, balki ta’lim mazmuni, pedagogik munosabatlar, talabalar faoliyati va oliy ta’lim muassasasining umumiy ijtimoiy-madaniy muhitini qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Tahlillar asosida oliy ta’limda qadriyatli muhitni shakllantirishning asosiy mexanizmlari sifatida qadriyatlarni ta’lim mazmuniga integratsiya qilish, interfaol va muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish, talabalarning ijtimoiy-ma’naviy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, mentorlik va hamkorlik tizimini rivojlantirish, refleksiv faoliyatni tashkil etish hamda monitoring va baholash tizimini joriy etish belgilandi. Umuman olganda, oliy ta’limda qadriyatli muhitni shakllantirish uzluksiz, tizimli va monitoringga asoslangan pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi ta’lim, tarbiya, ijtimoiy faoliyat va pedagogik hamkorlikning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Tavsiyalar

1. **Oliy ta’lim muassasalarida qadriyatli muhitni shakllantirishning yaxlit konsepsiyasini ishlab chiqish** va uni ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlariga izchil joriy etish.
2. **O‘quv fanlari mazmuniga qadriyatlar komponentini integratsiya qilish**, bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kasbiy tayyorgarlik bilan uzviy bog‘lash.
3. **Professor-o‘qituvchilarning aksiologik va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish**, ular uchun qadriyatli ta’lim va tarbiya metodlariga bag‘ishlangan seminar va treninglarni tashkil etish.
4. **Talabalarning faol ishtirokini kuchaytirish** maqsadida ijtimoiy loyihalar, munozaralar, volontyorlik faoliyati, ijodiy va ilmiy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish.

5. **Mentorlik tizimidan samarali foydalanish**, mentorlarni talabalarning shaxsiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faol jalb etish.
6. **Qadriyatli muhit monitoringi tizimini joriy etish** va talabalarning qadriyatli kompetensiyalari, ijtimoiy faolligi hamda ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni muntazam tahlil qilib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. **“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun**. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni**. PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida**gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. Avloniy A. **Turkiy guliston yoxud axloq**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Nishonova S. **Komil inson tarbiyasi**. – Toshkent: Istiqlol, 2003.
7. Ochilov M. **Muallim – qalb me’mori**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
8. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Haydarov M., Hasanboyeva O. **Pedagogika**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
9. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. **Pedagogika**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
10. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. **Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari**. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
11. Podlasy I.P. **Pedagogika**. – Moskva: YuRayt, 2012.
12. Asmolov A.G. **Psixologiya lichnosti: kulturno-istoricheskoe ponimanie razvitiya cheloveka**. – Moskva: Smysl, 2007.
13. Vygotsky L.S. **Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes**. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

O‘QUVCHILARDA VITAGEN FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TUZILMASI

Kazakova Dilnoza Qobil qizi
Buxoro davlat universiteti, Pedagogika kafedrasi 3-bosqich doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896157

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarda vitagen faoliyatini takomillashtirishning metodik tuzilmasi, uning mazmun-mohiyati hamda ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Vitagen faoliyat o‘quvchilarning hayotiy tajribasi, mavjud bilim va ko‘nikmalarini ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faolligini oshirish vositasi sifatida tahlil etilgan. Maqolada o‘quvchilarning individual tajribasini aniqlash, uni pedagogik jihatdan faollashtirish, amaliy faoliyatga yo‘naltirish va natijalarni refleksiv baholashga asoslangan metodik tuzilma taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *vitagen faoliyat, o‘quvchi, hayotiy tajriba, metodik tuzilma, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiya, shaxsiy rivojlanish, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, refleksiya, hayotiy kompetensiya, ta’lim motivatsiyasi, ijodiy faoliyat.*

Аннотация. *В статье раскрываются методологическая структура, сущность и педагогическая значимость активизации «витагенной деятельности» (деятельности, основанной на жизненном опыте) учащихся в рамках образовательного процесса. Витагенная деятельность рассматривается как средство интеграции жизненного опыта, имеющихся знаний и умений учащихся в образовательный процесс, а также как фактор личностного развития и социальной активности. Предлагается методологический подход, включающий выявление индивидуального опыта учащихся, его педагогическую актуализацию, направление в русло практической деятельности и рефлексивную оценку результатов.*

Ключевые слова: *витагенная деятельность, учащийся, жизненный опыт, методологическая структура, образовательный процесс, педагогическая технология, личностное развитие, интерактивные методы, самостоятельное мышление, рефлексия, жизненная компетентность, учебная мотивация, творческая деятельность.*

Abstract. *This article outlines the methodological structure, essence, and pedagogical significance of enhancing "vitagenic activity" (activity based on life experience) among students within the educational process. Vitagenic activity is analyzed as a means of integrating students' life experiences and existing knowledge and skills with the educational process, as well as fostering personal development and social engagement. The article proposes a methodological framework based on identifying students' individual experiences, activating them pedagogically, channeling them into practical activities, and conducting a reflective assessment of the outcomes.*

Keywords: *vitagenic activity, student, life experience, methodological structure, educational process, pedagogical technology, personal development, interactive methods, independent thinking, reflection, life competence, educational motivation, creative activity.*

Kirish. Bugungi kunda global ta'lim tizimi o‘zgarishlarni, yangi pedagogik texnologiyalarni, metodologiyalarni va o‘quvchilar uchun samarali ta'lim berish usullarini joriy

etishni talab qilmoqda. Har bir davlatda ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy ta'lim metodlari va usullariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi ham o‘zgarishlar jarayonida bo‘lib, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, vitagenlashtirilgan ta'lim muhitini ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.Ta`lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi va dunyoqarashini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda vitagelashtirilgan faoliyat ko‘p qirrali samara beradi.

Asosiy qism. Ta’lim sohasida innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda dars o‘tish zarurati hozirgi kunda dolzarbdir. Zamonaviy o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy faoliyatida ham an’anaviy, ham innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanadilar. An’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o‘zlashtiirishi va takrorlashi kerak bo‘ladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan darslar jarayonida o‘quvchilar mavzuni tushunishlari va tasavvur qilishlarini osonlashadishu orqali ta’lim samaradorligi oshishiga olib keladi. Vitagenlashtirilgan ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi biologiyani o‘qitishda vitagenlashtirilgan ta’lim dasturlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beruvchi istiqbolli yondashuv hisoblanadi.

Vitagen texnologiya - o‘quvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanishga asoslangan texnologiya. Vitagen-vita (lotincha) hayot, geneses-tug‘ilmoq (hosil bo‘lish) degan ma’noni anglatadi. Vitagen ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida haqiqiy hamkorlik o‘rnatilishiga qaratilgan amaliy yo‘ldir. Vitagen- inson boshidan o‘tkazgan ya’ni, idrok xotirasi, hissiy xotira va xulqiy xotira bilan bog‘liq va uning uchun yetarlicha qiymatga ega bo‘lgan fikrlar, tuyg‘ular, harakatlar yig‘indisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Vitagen texnologiya o‘quvchilarning hayotiy tajribalarini o‘rganishni yaxshilash shu bilan bir qatorda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratishga qaratilgan jarayondir.

Shaxs boshidan kechirgan his-tuyg‘u va harakatlarni o‘zida mujassam etgan va uzoq muddatli xotira zaxiralari saqlanadigan vitagenik tajriba konseptsiyasi o‘quv jarayonida shaxsiy dolzarblik va qiymatning muhimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini boyitadi va ta’lim mazmundorligini oshiradi.

Vitagen texnologiya - o‘quvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanishga asoslangan texnologiyadir. Vitagen-vita (lotincha) hayot, geneses-tug‘ilmoq (hosil bo‘lish) degan ma’noni anglatadi. Vitagen ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida haqiqiy hamkorlik o‘rnatilishiga qaratilgan amaliy yo‘l hisoblanadi. Vitagen-o‘quvchining idrok xotirasi, hissiy xotira va xulqiy xotira bilan bog‘liq bo‘lgan va uning uchun yetarlicha qiymatga yega bo‘lgan fikr va tuyg‘ular, harakatlar yig‘indisi hisoblanadi. Vitagen texnologiya o‘quvchining hayotiy tajribalarini o‘rganishni yaxshilash va o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratishga qaratilgan jarayondir.

Vitagenlashtirilgan ta'lim metodlari o‘quvchilarda o‘rganish motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarga bilimlarni interaktiv va amaliy usullar yordamida o‘rganishga imkon berish, ular orasida raqobatni va bir-biridan o‘rganishni kuchaytiradi. Sayfullaevning tadqiqotida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda vitagenlashtirilgan ta'lim metodlarining roli o‘rganildi. Tadqiqotda, o‘quvchilarni bir-biriga o‘rganish, bilim almashish va

yangi g‘oyalarni yaratishga undovchi metodlar, masalan, "debate", "rol o‘ynash" va "fikr almashish" metodlarining samarasini ko‘rsatdi. Sayfullaevning tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, vitagenlashtirilgan ta'lim o‘quvchilarda nafaqat bilim olishga, balki amaliyotda foydalanish va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga yordam beradi.

Biologiya fani o‘qitish jarayonida vitagenlashtirilgan ta'limning qo‘llanilishi haqidagi amaliy tadqiqotlar ham mavjud. **Mansurov (2021)** tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda vitagenlashtirilgan ta'lim metodlarining biologiya darslarida qo‘llanilishi bilan bog‘liq tajribalar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda, vitagenlashtirilgan ta'lim muhitida o‘quvchilar bilan laboratoriya ishlarini tashkil etish, dalillarga asoslangan tahlillarni bajarish, ekskursiyalar va tajriba ishlari o‘tkazish jarayonlari sinovdan o‘tkazilgan. Mansurovning tajribasi shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar vitagenlashtirilgan ta'lim muhitida biologiya fanini o‘rganishda ancha faollashdilar va o‘rganilgan mavzularni real hayotdagi misollar bilan bog‘lashda o‘z bilimlarini amaliy qo‘llashni o‘rgandilar.

Inson vitagen tajribasini olish jarayonida o‘quvchilarning vitagen ta’limi tamoyillarini shakllantirish o‘quvchilar individualligining namoyon bo‘lishini to‘laqonli va o‘z hayotining yangi shakllarini, jamiyat rivojlanishiga (o‘zgarishiga) mos keladigan shakllarda namayon bo‘ladi va qo‘llab-quvvatlash samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlashga asoslangan. Shuningdek, vitagen ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarni o‘qitish shakllari, usullari va vositalari aniqlangan. Vitagensiya jarayonining mohiyati hayotiy, hayotiy funktsiyalarni amalga oshirish uchun vositalar, mexanizmlarni, ya’ni vitagenik tajribani topish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq jarayon hisoblanadi. Ularning o‘ziga xos xususiyati, o‘quv jarayonida foydalanishning afzalligi shundaki, ular o‘quvchining kognitiv jarayonlarini tabiiy ravishda tartibga soladi: faollashtiradi, qo‘llab-quvvatlaydi va kerakli darajada hayotiyligini saqlaydi.

Xulosa o‘quvchilarda vitagen faoliyatini takomillashtirish ta’lim jarayonini o‘quvchining hayotiy tajribasi, individual imkoniyatlari va amaliy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lashni taqozo etadi. Vitagen yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarning mavjud hayotiy tajribasini aniqlash, uni tizimlashtirish, pedagogik jihatdan faollashtirish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida undan samarali foydalanish imkonini beradi.O‘quvchilarning vitagen faoliyatini rivojlantirishda muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, interfaol metodlar, guruhli hamkorlik va refleksiv faoliyatdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik, o‘z faoliyatini baholash hamda real hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.Shuningdek, vitagen faoliyatni takomillashtirishning metodik tuzilmasi maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishi maqsadga muvofiq. Mazkur tuzilma o‘quvchilarning individual tajribasini hisobga olish, ta’lim mazmunini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash imkonini beradi. Natijada ta’limning amaliy yo‘nalishi kuchayib, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy moslashish va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Demak, vitagen faoliyatni takomillashtirish zamonaviy ta’limning shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyilini amalga oshirishning samarali vositalaridan biri bo‘lib, o‘quvchi shaxsining intellektual, ijtimoiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Белкин А.С. Витагенное образование: многомерный подход к изучению педагогических явлений. — Москва: Просвещение, 1999.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. — Москва: Педагогика, 1991.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. — Москва: Логос, 2004.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — Москва: Политиздат, 1977.
5. Подласый И.П. Педагогика. — Москва: Юрайт, 2013.
6. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. — Москва: Академия, 2002.
7. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. — Тошкент: ТДПУ, 2006.
8. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. — Тошкент: Фан, 2006.
9. Йўлдошев Ж.Г., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. — Тошкент: Ўқитувчи, 2004.
10. Мавлонова Р.А., Раҳмонов Б., Матназарова К.О. Педагогика. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, 2007.
11. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. — Москва: Педагогика, 1989.
12. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. — Москва: Арена, 1994.

OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Karimova Sidora Baxtiyorovna
assistent, Jizzax politexnika instituti
karimovasidora@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875591

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Maqolada sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalar bilimini baholash, elektron ta’lim resurslarini yaratish, professor-o‘qituvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish hamda oliy ta’lim muassasalarini boshqarish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan akademik halollik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolish kabi muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt oliy ta’lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, oliy ta’lim, raqamli ta’lim, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, raqamli kompetensiya, akademik halollik.*

Abstract. *This article analyzes the role and practical significance of artificial intelligence technologies in the development of the modern higher education system. The rapid development of digital technologies is creating new pedagogical opportunities by introducing artificial intelligence into the educational process. The article analyzes the role and practical significance of artificial intelligence technologies in the development of the aviation higher education system.The rapid development of digital technologies is creating new pedagogical opportunities by introducing artificial intelligence into the educational process.*

Keywords*: artificial intelligence, higher education, digital education, innovative technologies, quality of education, digital competence, academic integrity, e-learning.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi oldida zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan va innovatsion yondashuvlarga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi oliy ta’limning an’anaviy shakllarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Sun’iy intellekt — insonning muayyan intellektual faoliyatini kompyuter tizimlari yordamida modellashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Bugungi kunda sun’iy intellekt matn yaratish, tarjima qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish, tasvirlarni aniqlash, prognozlash va individual tavsiyalar berish kabi ko‘plab vazifalarni bajarishda qo‘llanilmoqda.

Oliy ta’lim tizimida ushbu texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati shundaki, u ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi ta’limiy munosabatlarni ham yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shu sababli sun’iy intellektning oliy ta’limdagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish va undan foydalanishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekistonda oliy ta’limni raqamlashtirish va sun’iy intellekt

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini raqamlashtirish, elektron ta’lim resurslarini kengaytirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim, elektron kutubxonalar va raqamli boshqaruv tizimlarining kengayishi buning yaqqol misolidir.

Mazkur jarayonning keyingi bosqichi sifatida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki sun’iy intellekt oddiy raqamlashtirishdan farqli ravishda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va foydalanuvchiga mos tavsiya berish imkoniyatiga ega.

Oliy ta’limda SI texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar faoliyati haqida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, ta’limdagi muammolarni erta aniqlash va individual yondashuvni kuchaytirish mumkin. Bu esa ta’lim sifatini boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari

Sun’iy intellektning oliy ta’limdagi eng muhim afzalliklaridan biri — **ta’limni individuallashtirish** imkoniyatidir. Har bir talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi va qiyinchilikka duch kelayotgan mavzulari turlicha bo‘lishi mumkin. SI asosidagi ta’lim tizimi ushbu farqlarni tahlil qilib, talabaga mos o‘quv materiallarini tavsiya qilishi mumkin.

Masalan, ma’lum bir mavzu bo‘yicha talabaning bilimida bo‘shliq mavjud bo‘lsa, tizim unga shu mavzuga oid qo‘shimcha material, mashq yoki tushuntirishni tavsiya etishi mumkin. Natijada ta’lim jarayoni “barcha uchun bir xil” yondashuvdan individual ta’lim modeliga yaqinlashadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — **talabalar bilimini baholash**. Test topshiriqlarini avtomatik tekshirish, javoblarni tahlil qilish va o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish orqali o‘qituvchining vaqtini tejash mumkin. Biroq SI vositalari tomonidan amalga oshirilgan baholash inson nazoratini to‘liq almashtirmasligi kerak. Yakuniy pedagogik qaror o‘qituvchining professional xulosasi asosida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi yo‘nalish — **o‘quv materiallarini tayyorlash**. O‘qituvchi sun’iy intellekt yordamida ma’ruza rejasi, nazorat savollari, test topshiriqlari va amaliy mashg‘ulotlar uchun dastlabki materiallarni ishlab chiqishi mumkin. Bu o‘qituvchining vaqtini tejaydi va ta’lim jarayonini tashkil etishni yengillashtiradi.

Sun’iy intellektning professor-o‘qituvchilar faoliyatidagi o‘rni

Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallash emas, balki uning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qaralishi kerak. O‘qituvchi SI yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilishi, dars uchun qo‘shimcha materiallar tayyorlashi va talabalar bilan individual ishlashga ko‘proq vaqt ajratishi mumkin.

Masalan, o‘qituvchi bir guruh talabalarining test natijalarini tahlil qilishda SI vositalaridan foydalanib, qaysi mavzularda o‘zlashtirish darajasi pastligini aniqlashi mumkin.

Shundan so‘ng keyingi mashg‘ulotlarda aynan shu mavzularga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt xorijiy tillarni o‘rganish, akademik yozuvni rivojlantirish va mustaqil ta’limni tashkil etishda ham yordamchi vosita bo‘la oladi. Talabalar undan matnni tahlil qilish, grammatik xatolarni aniqlash, tushunarsiz tushunchalarni izohlash va qo‘shimcha savollar shakllantirishda foydalanishlari mumkin.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida sun’iy intellekt

Oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri nafaqat mutaxassis tayyorlash, balki ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt ilmiy izlanishlarni samarali tashkil etish uchun ham katta imkoniyat yaratadi.Tadqiqotchi katta hajmdagi ilmiy adabiyotlarni saralash, muayyan mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni tizimlashtirish va statistik natijalarni qayta ishlashda SI vositalaridan foydalanishi mumkin.

Shu bilan birga, SI tomonidan yaratilgan yoki qayta ishlangan ma’lumotlarni tanqidiy tekshirish zarur. Chunki sun’iy intellekt ayrim holatlarda noto‘g‘ri, eskirgan yoki mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni ishonchli ko‘rinishda taqdim etishi mumkin. Shuning uchun ilmiy faoliyatda asosiy manbalarni tekshirish va ularga mustaqil murojaat qilish muhim hisoblanadi.

Sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq muammolar

Sun’iy intellekt oliy ta’lim uchun katta imkoniyatlarni taqdim etishi bilan birga, ayrim xavflarni ham yuzaga keltiradi.

Birinchidan, **akademik halollik** masalasi dolzarb hisoblanadi. Talaba mustaqil bajarishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni to‘liq SI yordamida tayyorlashi uning bilim va ko‘nikmalarini obyektiv baholashni qiyinlashtiradi.

Ikkinchidan, **shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi** masalasi mavjud. Talabalar va o‘qituvchilarga tegishli ma’lumotlarning turli SI platformalariga yuborilishi maxfiylik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, **raqamli kompetensiya** yetarli bo‘lmasa, SI vositalaridan noto‘g‘ri foydalanish ehtimoli ortadi. Foydalanuvchi SI bergan har qanday ma’lumotni tekshirmasdan qabul qilmasligi, uning imkoniyatlari va cheklovlarini yaxshi tushunishi kerak.

To‘rtinchidan, ta’lim jarayonida SI texnologiyalaridan ortiqcha foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoni mustaqil hal qilish ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli texnologiya va inson omili o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir.

Oliy ta’limda sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar

Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan samarali foydalanish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha aniq metodik va akademik qoidalarni ishlab chiqish.
2. Professor-o‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt va raqamli pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
3. Talabalarda SI vositalaridan mas’uliyatli foydalanish, axborotni tekshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
4. Akademik halollik tamoyillarini kuchaytirish va SI vositalaridan foydalanishga oid shaffof talablarni joriy etish.

5. Shaxsiy va ta’limga oid ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

6. Sun’iy intellektni o‘qituvchini almashtiruvchi emas, balki pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida rivojlantirish.

7. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun o‘zbek tilidagi sifatli SI va ta’lim resurslarini rivojlantirishga e’tibor qaratish.

Xulosa

Umuman olganda, sun’iy intellekt oliy ta’lim tizimini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan zamonaviy texnologiyalardan biridir. Undan oqilona foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalar bilimini tahlil qilish, professor-o‘qituvchilar faoliyatini yengillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish va oliy ta’lim boshqaruvini takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektni ta’limga joriy etish faqat texnologik masala emas. Bu jarayon pedagogik, huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. Ayniqsa, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini saqlab qolish masalalariga alohida e’tibor berish zarur.

Kelajakdagi oliy ta’lim modelida inson va sun’iy intellektning hamkorligi muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchining pedagogik tajribasi, ijodkorligi va insoniy muloqoti sun’iy intellektning katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashganda ta’limning sifati va samaradorligini yanada oshirish mumkin. Demak, sun’iy intellektdan to‘g‘ri va mas’uliyatli foydalanish O‘zbekistonda oliy ta’limni zamonaviy, raqobatbardosh va innovatsion tizimga aylantirishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO, 2023.
2. UNESCO. *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: UNESCO, 2021.
3. OECD. *Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. OECD Publishing, 2023.
4. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
5. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B. *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson, 2016.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta’limni raqamlashtirishga oid materiallari.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE LEARNING

Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva
khayrinisoganiyeva@gmail.com
JSPU. Associate Professor,PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897471

Abstract. *In the rapidly evolving digital landscape, the role of English teachers is transforming to meet the demands of 21st-century learners. This article explores the integration of critical thinking skills within digital learning environments to prepare future English teachers effectively. By examining current pedagogical strategies, digital tools, and theoretical frameworks, the study highlights the importance of fostering analytical and evaluative abilities in educators. The findings suggest that a combination of technology-enhanced instruction and critical pedagogy can significantly enhance the preparedness of future English teachers, enabling them to cultivate critical thinking in their students. Recommendations for teacher education programs and future research directions are also discussed.*

Key words: *integration of critical thinking skills, digital learning environments, technology-enhanced instruction, problem-solving, decision-making, logical reasoning, collaborative learning, interactive pedagogical approaches.*

Annotatsiya. *Raqamli dunyoning tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan sharoitida ingliz tili o‘qituvchilarining roli XXI asr o‘quvchilarining talablariga javob berish uchun o‘zgarib bormoqda. Ushbu maqola kelajakdagi ingliz tili o‘qituvchilarini samarali tayyorlash maqsadida raqamli o‘quv muhitida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini integratsiyalashni o‘rganadi. Hozirgi pedagogik strategiyalar, raqamli vositalar va nazariy asoslar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarda tahliliy va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiya bilan boyitilgan ta'lim va tanqidiy pedagogika kombinatsiyasi kelajakdagi ingliz tili o‘qituvchilarining tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishi va ularni o‘z o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon yaratishini ta'kidlaydi. O‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari va kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ham muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini integratsiyalash, raqamli ta’lim muhiti, texnologiya asosida takomillashtirilgan o‘qitish, muammolarni yechish, qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda o‘rganish, interfaol pedagogik yondashuvlar.*

INTRODUCTION

The 21st century has ushered in an era characterized by rapid technological advancements and an abundance of information. In this context, critical thinking has emerged as a pivotal skill for both educators and learners. For English teachers, the ability to analyze, evaluate and synthesize information is essential in fostering a deeper understanding of language and literature. In the context of higher education particularly within English Departments, the insufficient application of critical thinking skills and the lack of engaging activities are believed to contribute to why university students often struggle to exchange ideas and write critically in English. They tend to accept opinions, especially regarding current issues like politics,

corruption, and education, without properly evaluating them. This is likely due to the fact that many of these students previously attended primary and secondary schools that predominantly used a teacher-centered approach. As a result, expressing ideas in English, both communicatively and critically, can be challenging for students in English Departments. This article examines the strategies and tools necessary to develop critical thinking skills in future English teachers within digital learning environments.

MAIN PART

Critical thinking involves the ability to engage in reflective and independent thinking, crucial for problem-solving and decision-making (Ennis, 1987). In education, it enables students to comprehend complex texts, construct coherent arguments, and engage in meaningful discussions (Facione, 2011). For English teachers, cultivating these skills is essential for effective teaching and fostering a learning environment that encourages intellectual growth. As Edenia Gadis Maryam (2024) states critical thinking is seen as a crucial skill in educational settings and as an essential tool in the development of a student's thinking skills and capacity. It is frequently brought up in connection with the higher order thinking abilities students need to develop in order to perform better academically. For example, the Partnership for 21st Century Learning (2019) lists analysis, synthesis, and assessment as critical thinking activities. It implies that one do not directly absorb the information or the situation as how it actually is but analyze whether the information they accepted correlates with their previous knowledge on that topic or not, does research to identify to what extend the information is reliable or not and then draw conclusion.

In this age of fast technological innovation, critical thinking—a core ability necessary for processing complex information and making educated decisions—faces particular difficulties. The emergence of artificial intelligence (AI) and digital technology offers both chances to improve teaching methods and difficulties in making sure that students acquire the analytical abilities required to assess and use these tools critically. By using conventional approaches, traditional pedagogies for teaching critical thinking have mostly concentrated on problem-solving, logical reasoning, and analytical skills. However, there are new factors to take into account as AI is incorporated into the educational setting. Intelligent tutoring systems, data analytics, and adaptive learning platforms are a few examples of AI technologies that provide cutting-edge resources to improve critical thinking instruction.

Digital Learning Environments and Pedagogy

Digital learning environments offer diverse tools and resources that can enhance teaching and learning processes (Johnson et al., 2016). The integration of technology in education facilitates access to vast information, collaborative learning, and interactive pedagogical approaches (Mishra & Koehler, 2006). However, the effective use of these tools requires educators to possess strong critical thinking skills to navigate and evaluate digital content.

Teacher education programs play a critical role in preparing future educators with the necessary skills and competencies (Darling-Hammond et al., 2017). Incorporating critical thinking into teacher training ensures that educators can model and teach these skills to their students. Studies have shown that teacher preparedness in critical thinking directly impacts student outcomes (Paul & Elder, 2014).

This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative data to explore the development of critical thinking skills in future English teachers. Data was collected through surveys, interviews, and classroom observations from participants enrolled in a

teacher education program. The digital tools utilized in the study included learning management systems, collaborative platforms, and critical thinking software.

The survey indicated that participants recognized the importance of critical thinking in teaching but felt inadequately prepared to integrate digital tools effectively. Approximately 60% of respondents expressed a need for more training in using technology to foster critical thinking. Interviews revealed that hands-on experience with digital tools and exposure to critical pedagogy significantly enhanced participants' confidence in their ability to teach critical thinking. Participants highlighted the value of collaborative projects and problem-based learning in developing these skills. Classroom observations showed that instructors who effectively integrated digital tools facilitated higher levels of student engagement and critical discourse. Techniques such as digital storytelling, online debates, and multimedia presentations were particularly effective in promoting critical thinking.

The findings underscore the necessity of integrating critical thinking into teacher education within digital contexts. The use of digital tools can enhance the development of critical thinking by providing diverse and interactive learning experiences. However, the effectiveness of these tools depends on the educators' ability to use them strategically. Teacher education programs must prioritize training in both critical pedagogy and digital literacy to equip future English teachers with the skills needed for modern classrooms. Teacher education programs should incorporate modules that focus on critical thinking and digital literacy. Practical training with digital tools, coupled with theoretical knowledge of critical pedagogy, can prepare educators to create engaging and intellectually stimulating learning environments. One of the primary challenges is the varying levels of digital proficiency among future teachers. To address this, programs should offer differentiated training that caters to diverse skill levels. Additionally, fostering a community of practice where educators can share experiences and strategies can support continuous professional development.

CONCLUSION

As education continues to evolve in the digital age, the preparation of future English teachers must adapt to incorporate critical thinking within digital learning environments. By leveraging technology and emphasizing critical pedagogy, teacher education programs can equip educators with the necessary skills to foster analytical and evaluative abilities in their students. Future research should explore longitudinal studies to assess the long-term impact of these educational strategies on teaching practices and student outcomes.

REFERENCES

1. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute.
2. Ennis, R. H. (1987). *A Taxonomy of Critical Thinking Dispositions and Abilities*. Educational Leadership, 44(1), 22-27.
3. Facione, P. A. (2011). *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts*. Insight Assessment.
4. Johnson, L., Becker, S. A., Cummins, M., & Estrada, V. (2016). *NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition*. The New Media Consortium.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
6. Paul, R., & Elder, L. (2014). *The Miniature Guide to Critical Thinking Concepts and Tools*. Foundation for Critical Thinking.

7. Edenia Gadis Maryam. 2024. English Education in the Digital Age: Navigating 21st Century Skills in English Education.
8. Ali Faheem, Ravi Tazel. 2024. Teaching Critical Thinking in a Digital World: Adapting Pedagogiesfor AI-Enhanced Learning.

DIGITAL HUMANITIES BASED COMPUTATIONAL ANALYSIS OF LINGUISTIC EVOLUTION

Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva
khayrinisoganiyeva@gmail.com
JSPU. Associate Professor,PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897498

Abstract. *The swift progress in computational techniques has provided ample possibilities for investigating the evolution of language and changing discourse patterns in large corpora of texts. The paper describes a computational framework or investigating longitudinal register shifts and formal discourse organization in American English using the Corpus of Contemporary American English (COCA) from 1990–2019. Lexical, discourse, informational, temporal, and statistical analyses are combined into the framework to detect systematic change from one period to another. Three periods, 1990–1999, 2000–2009, and 2010–2019, were identified in the corpus and analyzed on the level of thedocument in terms of linguistic indicators calculated through word-count weighting.*

Key words: *Digital Humanities, Computational Linguistics, Linguistic Evolution, Corpus Analysis, Discourse Analysis, COCA*

Annotatsiya. *Hisoblash usullarining jadal rivojlanishi katta matnli korpuslar yordamida til evolyutsiyasi va nutq naqshlaridagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu maqolada 1990–2019 yillar uchun Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi (COCA) yordamida Amerika ingliz tilida registr va rasmiy nutq tashkilotidagi uzoq muddatli o‘zgarishlarni o‘rganish uchun hisoblash tizimi tasvirlangan.*

Ushbu tizim bir davrdan ikkinchisiga tizimli o‘zgarishlarni aniqlash uchun leksik, nutq, axborot, vaqt va statistik tahlillarni birlashtiradi. Korpus ichida uchta davr aniqlandi: 1990–1999, 2000–2009 va 2010–2019. Har bir davr so‘zlar sonining og‘irligiga asoslangan holda hisoblangan lingvistik ko‘rsatkichlar yordamida hujjat darajasida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *Raqamli gumanitar fanlar, Hisoblash lingvistikasi, Lingvistik evolyutsiya, Korpus tahlili, Diskurs tahlili, COCA*

Аннотация. *Стремительное развитие вычислительных методов создало широкие возможности для исследования эволюции языка и изменений в моделях дискурса на основе больших корпусов текстов. В статье описывается вычислительная система для исследования долгосрочных изменений регистров и формальной организации дискурса в американском английском языке с использованием Корпуса современного американского английского языка (Corpus of Contemporary American English, COCA) за период с 1990 по 2019 год. В рамках данной системы объединены лексический, дискурсивный, информационный, временной и статистический виды анализа, позволяющие выявлять систематические изменения от одного периода к другому. В корпусе были выделены три периода: 1990–1999, 2000–2009 и 2010–2019 годы. Каждый период анализировался на уровне документа с использованием лингвистических показателей, рассчитанных на основе взвешивания количества слов.*

Ключевые слова: *Цифровые гуманитарные науки, компьютерная лингвистика, языковая эволюция, корпусный анализ, дискурс-анализ, COCA*

INTRODUCTION

The rapid digitalization of contemporary longitudinal corpus has led to changes in the research of language, culture, and heritage because it allows conducting computer-based investigations of textual documents, which were available mostly through close reading. Digital Humanities (DH) creates an interdisciplinary platform where it is possible to combine computer methods, archives, linguistics, and cultural studies to conduct research on the historical evidence, which cannot be conducted using conventional approaches. The recent developments prove that digital humanities are becoming more engaged in archive studies, multilingual corpora, and computational methods, thus increasing opportunities for the investigation of cultural and linguistic diversity in historical documents (Wang & Lin, 2026). Interactive and visual methods of analysis have also helped scholars to reveal connections and structures in large corpora of text that are not so obvious in the case of traditional methods (Jänicke et al., 2017). With the advent of text mining, machine learning, deep learning, visualization, and corpus analyses, the computational approach in the field of DH has seen significant growth. The bibliometric analysis reveals that computationally oriented text research is increasingly becoming one of the significant components of the developing intellectual structure of Digital Humanities (Aladağ & Aydin, 2026). Furthermore, deep learning using neural networks has also been shown to provide the capability of extracting semantic and contextual knowledge from complicated texts beyond frequency-based analysis (Suissa et al., 2022). This is part of a wider trend within the scope of DH whereby DH is shifting from being purely digitization-focused to being an analytic research science with the combination of computation and humanistic interpretation (Dalbello, 2011). Nevertheless, the disciplinary status of DH remains in line with the integration of methods from computer sciences and humanities research (Luhmann & Burghardt, 2022). Historical textual analysis is especially beneficial for computational exploration due to the dynamic nature of language. Language undergoes transformations and modifications depending on what changes occur in society in terms of technology, politics, economy, and culture. Computational exploration, thus, becomes a way to explore language development during a long period of time rather than focus only on single documents or examples chosen manually. The formation of the international research infrastructure of DH is an indicator of growing interest in the use of computation to explore language, literature, culture, and history (Wang, 2018). In the realm of artificial intelligence, computational approaches are additionally transforming the study of language and literature due to theirability to classify and interpret collections of documents (Shweta, 2025).

MAIN PART

Computational Digital Humanities has evolved from early digitization and management techniques to become an analytical discipline that now includes natural language processing, machine learning, visualization, network analysis, and modeling. The evolution of this discipline is characterized by gradual integration of computational tools into traditional humanities research (Dalbello, 2011). Growing institutional and disciplinary consolidation has also led to the emergence of computational tools able to tackle large-scale problems of cultural and textual research (Luhmann & Burghardt, 2022). Text mining is among the main computational methods in digital humanities research due to the possibility of analyzing large amounts of data using

frequency distribution, categorization, clustering, semantic representation, and pattern detection. Text mining techniques have been applied so widely that computation can now be employed for the purpose of exploring both hypotheses and problems in humanities research (Jockers & Underwood, 2015). In addition, longitudinal bibliometric data show that there is increased intellectual coherence in the field of DH even when considered as an interdisciplinary field of study (Tang et al., 2017). Digital history, too, has begun using computational methods to study historical documents at levels beyond the capabilities of manual analysis. The state of research on digital history shows that the use of computational analysis as part of historical research is becoming more important but, at the same time, insists on the importance of historical interpretation and source criticism (Romein et al., 2020). Recent debates about the computational turn stress the change of historical research because of data-driven methods but ask for an approach to incorporating computational methods into existing historical methods (Lang, 2026). Studies on text mining of historical literature illustrate even further the penetration of digital methods into historical research (Sokova et al., 2026).

While it was impossible to build a co-occurrence network of the concepts directly, there are several discourse measures that can serve as quantitative indicators of the organization of narratives. Specifically, Reasoning, Information Comparison, Purpose–Plan, and Reader-Directed Metadiscourse altogether account for the degree of relationship building within texts, their argumentation, their purpose expression, and their guidance to the reader. The concurrent rise in these measures, as seen in table 4, shows a tendency to the development of the structured informational discourse in the years 2010-2019. To assess the validity of the suggested computational approach, the uploaded Corpus of Contemporary American English (COCA) was employed, which included the data from the period 1990-2019. COCA includes 42,720 documents, around 149.23 million words, and includes 8 text types: academic, blog, fiction, magazine, news, spoken, television/movie, and web texts. There is an equal representation of 1,068 documents per year in the temporal distribution. For analysis, the corpus was split into three periods: 1990-1999, 2000-2009, and 2010-2019. The empirical analysis evaluates document-level annotations across 42,720 COCA documents from 1990 to 2019. Variables were calculated using word-count-weighted means per chronological period to trace the evolution of lexical specialization, informational density, and discourse organization.

CONCLUSION

davlatlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, Covid-19 global pandemiyasi yana bir bor raqamli texnologiyalardan ko‘proq foydalanish hamda ta’lim sohasini transformatsiya qilish zaruratini keltirib, ijobiy natijalarni berishini ko‘rsatdi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham axborot texnologiyalarni keng kirib kelishi hamda barcha jabhalarda shu jumladan ta’lim sohasida qo‘llanilishiga keng e’tibor qaratilmoqda.[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079- sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3930- sonli “Korporativ, loyiha boshqaruvi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan oliy ta’lim muassasalariga, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalariga, ularning mulkchilik shakli va bo‘ysunuvidan qati’y nazar, masofaviy o‘qitishni tashkil etish huquqi berildi. [1,2]

Raqamli pedagogika haqida gapirganda biz ta’limdagi vaziyatlar, o‘qitish usullari, resurslari shu jumladan, kompyuter yordamida o‘qitish, kompyuter texnologiyalari pedagogikasi, virtual (onlayn) o‘qitish, kiberpedagogika, multimedia pedagogika, inklyuziv pedagogika, gibrid pedagogika kabi tushunchalardan foydalanamiz. Umumiy olganda quyidagi shartlardan biri raqamli pedagogika tushunchasini yoritishi mumkin:

- Ta’lim maqsadlarida bevosita axborot texnologiyalardan foydalanish (o‘qitish, o‘rganish, baholash yoki ta’limni boshqarish).

-Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash (uskunalarni sotib olish dasturlari yoki o‘quv dasturlarini moslashtirish, o‘quv dasturlari orqali raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish).

- Ta’lim yo‘nalishida salohiyatni inobatga olish (ta’lim siyosatini ishlab chiqish, raqamli resurslardan foydalanishni muvofiqlikni baholash).

Raqamli pedagogika ma’lum darajada boshqa maqsadli pedagogikaning o‘rganish yo‘nalishlari bilan mos keladi: ochiq pedagogika, tanqidiy pedagogika, interfaol pedagogika. Shu bilan birga, raqamli pedagogikaning ommalashgan shaklidan biri bo‘lgan onlayn kurslar, xususan Ommaviy ochiq onlayn kurslar (OOOK) haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. OOOK “Massive Open Online Course” quyidagicha ta’rfilanadi: Ommaviylik – OOOK shunday tartibda ishlab chiqilganki, bir vaqtning o‘zida 1000 dan ortiq talabalar tahsil olishi mumkin. Ochiqlik – mazkur kursalar interneti borlar uchun hammaga ochiq. Onlayn – kurslar faqatgina internet orqali ishlaydi. Kurs – nafaqat materiallar taqdimotidan iborat, balki uyga vazifa va imtihonlarni o‘z ichiga olgan mahsulot hisoblanadi. OOOK larning bir qator turlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos tasniflanishi bilan bir-biridan farq qiladi. [4,5]

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda jahonda elektron ta’lim resurslari, xususan onlayn darslar ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. “O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishni takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi: onlayn darslar ommabopligini oshirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish; mamlakatimizning chekka hududlarini axborot-kommunikatsion infratuzilma bilan keng qamrab olish darajasini oshirish; onlayn ta’lim jarayonini ishlab chiqishda o‘quvchilar qiziqishi va istaklarini inobatga olish.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korporativ, loyiha boshqaruvi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3930-sonli qarori.
3. Qodirov A. (2023). O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida dasturiy vositalardan foydalanish: muammolar va yechimlar. Zamonaviy ta’lim, 8(4), 78-85.
4. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
5. Gurevich, M.A., 2018 – Virtual ta’limning pedagogik asoslari.
6. https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/07/30/Oliy_va_professional_talimda_mutaxxasisliki.pdf.
7. https://www.researchgate.net/publication/348916562_MASOFAVIY_TA'LIM_TIZIMI

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING LITERATURE IN HIGHER EDUCATION

Murodova Dilnavoz Nizomovna
Associate professor (PhD) of Uzbekistan State
World Languages University
E-mail: dil7navoz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875641

Abstract. *The rapid development of Artificial Intelligence (AI), particularly Generative Artificial Intelligence (GenAI), is transforming teaching and learning practices in higher education. Since the emergence of publicly accessible generative AI systems such as ChatGPT, universities have increasingly examined the opportunities and challenges associated with incorporating AI into teaching, learning, assessment, and research. Literature education represents a particularly significant field for examining this transformation because literary studies require close reading, interpretation, critical thinking, creativity, contextual understanding, and independent argumentation. This article examines the role of AI in teaching literature in higher education, with particular attention to its pedagogical applications, potential benefits, challenges, and implications for the changing role of the literature teacher.*

Keywords: *Artificial Intelligence, Generative AI, literature teaching, higher education, literary studies, literary analysis, ChatGPT, critical thinking, AI literacy, academic integrity, digital humanities.*

Introduction

Artificial Intelligence has become one of the most influential technological developments in contemporary education. Although AI had been incorporated into educational technologies long before the emergence of ChatGPT, the rapid development of Generative AI has significantly expanded the possibilities for interaction between students, teachers, and digital systems. Generative AI can produce text, provide explanations, generate questions, summarize information, offer feedback, translate material, and engage users in natural-language dialogue. Consequently, higher education institutions are increasingly reconsidering traditional approaches to teaching, assessment, academic writing, and learning support (Crompton & Burke, 2023; Qian, 2025).

The educational significance of Generative AI lies not only in its ability to automate particular tasks but also in its capacity to change the relationship between learners and knowledge. Students can now interact with AI systems in ways that resemble conversations with tutors or study partners. Teachers can use AI to support lesson planning, create instructional materials, design activities, and provide preliminary feedback. At the same time, these possibilities raise questions about what students should learn independently, how academic achievement should be assessed, and what role human teachers should continue to play. Recent research indicates that the impact of AI in higher education is broad but uneven. Crompton and Burke (2023), in a systematic review of AI research in higher education, demonstrated that AI applications encompass teaching, learning, assessment, administration, and student support. More recent systematic reviews specifically examining Generative AI have

shown rapid expansion in research since the introduction of ChatGPT (Qian, 2025). A systematic review of 139 studies of GenAI in higher-education classroom teaching found that applications have been particularly common in language, engineering, and health-related disciplines, while humanities and social sciences remain comparatively less represented (Luo et al., 2025).

This relative lack of research in the humanities makes the question of AI and literature teaching especially significant. Literature is fundamentally concerned with language, interpretation, human experience, culture, imagination, and meaning. Unlike disciplines in which many questions have relatively determinate answers, literary studies frequently involve ambiguity and competing interpretations. A poem, novel, drama, or short story can support several interpretations depending on textual evidence, theoretical perspective, historical context, and the reader's response.

Consequently, AI cannot simply be regarded as a machine that provides the "correct" interpretation of a literary work. Its educational value must instead be considered in relation to the processes through which students learn to interpret texts. UNESCO (Miao & Holmes, 2023) similarly promotes a human-centred approach to Generative AI in education, emphasizing ethical, safe, equitable, meaningful, and pedagogically appropriate use. In literature education, this principle is particularly important. AI can help students understand difficult vocabulary, identify possible literary devices, generate alternative interpretations, explore historical contexts, compare literary works, and receive feedback. However, if students use AI to summarize every text or produce complete literary analyses, they may bypass the very intellectual processes that literature courses are designed to develop. The central issue, therefore, is not whether AI should be used in literature education but **how it can be used to strengthen rather than weaken literary learning**. This article explores the role of AI in teaching literature in higher education by examining existing research, pedagogical applications, opportunities, risks, and implications for teachers and students.

Literature Review

The increasing use of AI has created the need for a new dimension of digital literacy: **AI literacy**. AI literacy involves understanding how AI systems work, recognizing their strengths and limitations, evaluating generated information, identifying possible bias, protecting personal information, and using AI responsibly. For literature students, AI literacy can be integrated naturally with critical reading. Students can learn to examine AI-generated literary interpretations in the same way that they examine scholarly arguments. For example, students might ask:

What evidence does the AI provide?

Does the primary text support the claim?

Has the AI overlooked an important passage?

Does the interpretation depend on an unsupported assumption?

Are the historical facts accurate?

Could another interpretation be equally plausible? Such activities transform AI literacy from a technical skill into an extension of critical literary thinking. UNESCO‘s guidance emphasizes the need for human capacity-building and a human-centred approach to AI in education, including attention to ethical and pedagogical considerations (Miao & Holmes, 2023).

Research on GenAI in higher education has developed rapidly, but disciplinary coverage is uneven. Luo et al. (2025) found that humanities applications were less represented than applications in several other disciplines.

This is important because humanities subjects have distinctive epistemological characteristics. Literary knowledge cannot always be reduced to factual recall or procedural problem-solving. Interpretation frequently involves uncertainty, ambiguity, contextual reasoning, and argumentation. AI can therefore be valuable in literature education not because it eliminates ambiguity but because it can provide additional perspectives that students learn to evaluate. The humanities may consequently offer an important context for developing responsible approaches to AI. Students can investigate not only what AI produces but also how machine-generated language affects concepts such as authorship, creativity, interpretation, originality, and meaning.

Discussion

Close reading is central to literary studies because it requires students to pay careful attention to language and textual structure.

AI can support this process by generating questions rather than simply providing answers. For example, instead of asking: "What does this poem mean?" students could ask an AI system to identify recurring images and then independently determine how those images contribute to the poem's meaning. Students could investigate: imagery; metaphor; symbolism; repetition; tone; diction; syntax; narrative perspective; characterization; irony.

The important point is that AI should stimulate students' attention to the text rather than replace their engagement with it.

A productive sequence might therefore be: **Read → Annotate → Interpret → Consult AI → Evaluate → Reinterpret.** This approach preserves the central role of close reading while allowing AI to introduce additional perspectives.

Critical thinking is one of the most important objectives of university literature courses. Students need to learn how to formulate claims, evaluate evidence, recognize assumptions, compare interpretations, and construct logical arguments.

AI can be used to support these skills if students are required to evaluate its responses. For example, an instructor could provide an AI-generated interpretation of a literary passage and ask students to identify: accurate observations;

unsupported claims; missing evidence; possible factual errors; alternative interpretations. This creates an important reversal of the traditional AI model.

Instead of asking: **"What does AI think about this text?"** students ask: **"Can I demonstrate whether AI's interpretation is justified?"** Such activities position students as evaluators rather than passive recipients. Recent research emphasizes that pedagogically guided use of GenAI can support argumentation, critical thinking, and other higher-order skills, while unguided outsourcing may produce weaker learning outcomes (Daniel, 2025; OECD, 2026).

University literature classes contain students with different levels of language proficiency, reading experience, cultural knowledge, and academic preparation. AI can provide individualized scaffolding. For example, a student struggling with an unfamiliar nineteenth-century text can request: vocabulary explanations;

definitions of literary terms; contextual information; simplified explanations; examples of analytical techniques.

Literature courses taught in English or another second language can present significant linguistic challenges. Students may encounter: archaic vocabulary;

idiomatic expressions; figurative language; dialect; complex syntax; culturally specific references. AI can provide preliminary explanations and examples.

For example, students reading Victorian literature may ask an AI system to explain unfamiliar vocabulary in context. They can then verify the explanation using a reliable dictionary or scholarly edition. This approach can improve accessibility while simultaneously developing students' source-verification skills.

Understanding historical and cultural context is essential to literary interpretation. AI can provide preliminary information about: literary movements; historical periods; authors; philosophical ideas; social conditions; cultural practices; intellectual movements. For example, before studying Romantic poetry, students can use AI to obtain an initial overview of Romanticism and then compare that overview with academic sources. However, AI-generated contextual information must be verified. This is particularly important because Generative AI systems can produce plausible but inaccurate information. UNESCO (Miao & Holmes, 2023) consequently emphasizes the importance of responsible and critical approaches to GenAI rather than treating AI-generated information as inherently reliable.

Comparative Literary Analysis

AI can help students generate possible dimensions for comparing literary texts. For example, students studying two novels might compare: representations of nature; concepts of identity; individual and society; social class; gender; colonialism; migration; alienation; narrative perspective; symbolism. AI can suggest potential categories, but students should develop the actual argument from the primary texts and scholarly literature. Thus, AI can function as a **question generator**, while the student remains the **interpreter**.

AI and Creative Writing

Creative writing is another area in which AI can be incorporated into literature courses. Students may use AI to experiment with: narrative perspective; genre; dialogue; characterization; setting; style; alternative endings; adaptation. For example, students can ask AI to rewrite a short scene from the perspective of another character and then analyze how the change affects the reader's understanding. The educational value lies not in producing a finished AI-generated story but in comparing stylistic and narrative possibilities. Students can ask: How does the narrative voice change? What information becomes available? What is lost? How does the tone change? Does the alternative perspective alter the interpretation? In this way, AI becomes an experimental literary tool.

Assessment represents one of the most significant challenges created by Generative AI. Traditional take-home essays can be generated or substantially assisted by AI. Consequently, a final written product may no longer provide sufficient evidence of independent learning. Research and policy discussions increasingly emphasize the need to reconsider assessment design in the context of GenAI (OECD, 2026; Qian, 2025). Literature courses can respond through several approaches.

The Changing Role of the Literature Teacher

The development of AI does not make the literature teacher unnecessary. Instead, it changes the nature of the teacher's role. The literature teacher increasingly becomes: a facilitator of interpretation; a designer of learning activities; a guide to scholarly sources; a moderator of discussion; an evaluator of AI-generated information; a mentor in academic writing; a developer

of critical thinking; a guardian of academic integrity. AI can identify possible metaphors, but the teacher can ask why they matter. AI can summarize a novel, but the teacher can ask what the summary has omitted. AI can produce an interpretation, but the teacher can ask students to defend or challenge it. AI can generate a paragraph, but the teacher can help students develop an independent scholarly voice.

The OECD (2026) similarly emphasizes that educational GenAI can augment human teaching while preserving teacher agency. Effective educational use therefore involves cooperation between human expertise and technological capability rather than replacing one with the other.

Practical AI-Supported Activities

"Find the Error" The teacher presents an AI-generated analysis containing several inaccuracies. Students identify and correct the errors using textual evidence. **Skills developed:** close reading; critical thinking; evidence evaluation; AI literacy. "Two Interpretations" Students ask AI to provide two different interpretations of a literary passage. They compare the interpretations and identify the textual evidence supporting each.

"Context Verification" Students ask AI to provide historical information about a literary work. They verify the information using academic sources.

"Human and AI Interpretation"Students independently interpret a passage. They then compare their interpretation with an AI-generated interpretation. Rather than determining which interpretation is "correct," students analyze differences in: evidence; assumptions; terminology; reasoning; contextual knowledge. This approach emphasizes interpretation as a process of argumentation rather than a search for a single automated answer.

Conclusion

Artificial Intelligence is creating new possibilities for teaching literature in higher education while simultaneously challenging established assumptions about reading, writing, interpretation, assessment, and authorship. The literature reviewed in this article indicates that AI can support numerous aspects of university literature education. It can assist teachers with lesson preparation, provide individualized learning support, facilitate vocabulary development, generate discussion questions, support comparative analysis, provide alternative interpretations, stimulate creative writing, and contribute to innovative assessment practices (Crompton & Burke, 2023; Qian, 2025). However, the benefits of AI should not be confused with automatic educational improvement. Research increasingly indicates that the pedagogical context surrounding AI is more important than the technology itself. The OECD (2026) emphasizes that GenAI can support learning when used with clear pedagogical intentions, while unstructured outsourcing of cognitive tasks may improve students' immediate performance without producing corresponding learning gains.

REFERENCES

1. Crompton, H., & Burke, D. (2023). Artificial intelligence in higher education: The state of the field. *International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20*, Article 22. https://doi.org/10.1186/s41239-023-00392-8
2. Daniel, K. (2025). Can generative AI revolutionise academic skills development in higher education? A systematic literature review. *European Journal of Education*. https://doi.org/10.1111/ejed.70036

3. Luo, J., et al. (2025). A systematic literature review on the application of generative artificial intelligence (GAI) in teaching within higher education: Instructional contexts, process, and strategies. *The Internet and Higher Education, 65*, 100996. https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2025.100996
4. Miao, F., & Holmes, W. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. UNESCO.
5. OECD. (2026). *OECD Digital Education Outlook 2026: Exploring effective uses of generative AI in education*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/062a7394-en Qian, Y. (2025). Pedagogical applications of generative AI in higher education: A systematic review of the field. *TechTrends, 69*, 1105–1120. https://doi.org/10.1007/s11528-025-01100-1
6. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education—Where are the educators? *International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16*, Article 39. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0

OLIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING KIBERPEDAGOGIK MODELI

Mamatov Dilmurad Narmuradovich[1], Bekchonova Shoira Bazarbayevna[2]
[1]DSc, professor, [2]PhD, professor
Yangi asr universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896197

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning kiberpedagogik modeli masalasi yoritilgan. Maqolada sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim, intellektual ta’lim platformalari, raqamli ta’lim resurslari, virtual yordamchilar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Kiberpedagogik modelni shakllantirishda tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli pedagogika, kiberpedagogika, kiberpedagogik model, raqamli pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, adaptiv ta’lim, raqamli kompetensiya, ta’limni individuallashtirish.*

Kirish

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari va zamonaviy raqamli pedagogik vositalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim, intellektual ta’lim platformalari, virtual yordamchilar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari hamda raqamli ta’lim resurslari talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat texnik infratuzilmani, balki pedagogik, metodik, axborot xavfsizligi va akademik halollik talablarini ham uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

Oliy ta’limda sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishni yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur yondashuv kiberpedagogika tamoyillariga asoslangan holda o‘qituvchi, talaba, raqamli ta’lim muhiti va intellektual texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta’limda sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning kiberpedagogik modeli tahlida shu mavzuga oid ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda sun’iy intellekt, raqamli pedagogika va kiberpedagogik yondashuvlarning imkoniyatlari so‘nggi yillarda keng tadqiq etilmoqda. Xususan, O.Zawacki-Richter, V.I.Marín, M.Bond va F.Gouverneur tomonidan olib borilgan tizimli tadqiqotda oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishga oid ilmiy ishlar tahlil qilinib, SI texnologiyalarining akademik qo‘llab-quvvatlash, baholash va ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Olimlar, shuningdek, sun’iy intellekt tadqiqotlarida pedagoglarning roli yetarlicha yoritilmayotganini ta’kidlaydilar.

W.Holmes, M.Bialik va C.Fadel sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda uning pedagogik, texnik va etik jihatlarini ham kompleks tarzda o‘rganib, SI ta’lim mazmuni, o‘qitish usullari va pedagog faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni talab etishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, sun’iy intellekt ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin, biroq undan foydalanish pedagogik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim[2].

F.Miao va W.Holmes tomonidan generativ sun’iy intellektdan ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda foydalanishning pedagogik hamda etik jihatlari yoritilgan. Mualliflar sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda inson manfaatlariga yo‘naltirilgan yondashuv, ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash, xavfsizlik, tenglik va mas’uliyatli foydalanish tamoyillariga amal qilish zarurligini qayd etadilar[3].

Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi, pedagogning raqamli kompetensiyasi va inson omili kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga shunchaki texnologik vosita sifatida emas, balki pedagogik maqsad, mazmun, metod, baholash va ta’lim natijalari bilan uzviy bog‘langan tizim sifatida qarash muhimdir[4].



Mavjud ilmiy yondashuvlarda sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalarning alohida imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni oliy ta’limning yagona kiberpedagogik muhiti doirasida tizimli ravishda birlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli o‘qituvchi, talaba, sun’iy intellekt vositalari, raqamli pedagogik texnologiyalar va

ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlovchi kiberpedagogik modelni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning muhim ilmiy yo‘nalishi sifatida belgilanadi.

Metodika

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi. Kiberpedagogik modelni ishlab chiqishda oliy ta’lim jarayonining maqsad, mazmun, subyektlar, raqamli vositalar, pedagogik texnologiyalar va natijalar kabi asosiy komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik tajribani tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Modelning asosini o‘qituvchi va talabaning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish, individual ta’limni qo‘llab-quvvatlash hamda raqamli ta’lim muhitining samaradorligini ta’minlash tamoyillari tashkil etadi.

Munozara va muhokama

Tadqiqot natijalari oliy ta’limda sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tizimli tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonda sun’iy intellektni faqat texnik vosita sifatida emas, balki o‘qituvchi va talabaning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi intellektual komponent sifatida qarash maqsadga muvofiq. Kiberpedagogik model doirasida raqamli platformalar, sun’iy intellekt vositalari, elektron ta’lim resurslari va interaktiv texnologiyalarning o‘zaro integratsiyasi ta’lim jarayonining individuallashuvi va moslashuvchanligini ta’minlaydi.



Modelning muhim jihatlaridan biri talabaning individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash va unga mos ta’lim resurslarini tavsiya etish imkoniyatidir. Sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar talabaning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, murakkab mavzularni aniqlash va qo‘shimcha

o‘quv materiallarini tavsiya etish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchi ta’lim jarayonidagi asosiy pedagogik subyekt sifatida saqlanib qoladi. Uning vazifasi texnologiyani bevosita qo‘llashdan tashqari, sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan natijalarni pedagogik jihatdan baholash va ta’lim maqsadlariga moslashtirishdan iborat[5].

Kiberpedagogik modelni amaliyotga joriy etishda akademik halollik, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellektdan nazoratsiz foydalanish talabaning mustaqil fikrlash faolligining pasayishiga yoki tayyor axborotga ortiqcha tayanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli SI vositalaridan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish, talabalarni raqamli va axborot savodxonligiga o‘rgatish hamda akademik halollik tamoyillarini mustahkamlash zarur.

Kiberpedagogik modelning samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki uning pedagogik maqsadlar bilan qay darajada uyg‘unlashtirilganiga bog‘liq. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalarni joriy etishda texnologik, pedagogik, metodik va etik komponentlarning o‘zaro birligi ta’minlanishi lozim.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oliy ta’limda sun’iy intellekt va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi. Ularning integratsiyasi individual ta’limni tashkil etish, o‘quv jarayonini moslashtirish, bilimlarni monitoring qilish, baholash jarayonini takomillashtirish va pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan kiberpedagogik model o‘qituvchi, talaba, sun’iy intellekt texnologiyalari va raqamli ta’lim muhitining o‘zaro hamkorligiga asoslanadi. Modelning asosiy maqsadi texnologiyani ta’lim jarayoniga shunchaki joriy etish emas, balki undan pedagogik jihatdan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashdan iborat.

Kiberpedagogik modelni amaliyotga tatbiq etishda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarining sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, akademik halollik va axborot xavfsizligini ta’minlash muhim shartlar sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – Where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16, Article 39. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0. (DOI)
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign, 242 pp. (Google Книги)
3. Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO. 44 pp. (ЮНЕСКО)
4. UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research (pp. 7–17, 24–36). UNESCO. (Google Книги)
5. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Artificial intelligence applications in higher education: A systematic review of research. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16, 39. (DOI)

XITOY TILINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN ETIK FOYDALANISH: MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI

Nazarova Sayyora Anvarovna
PhD, dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik oliy maktabi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22871844

Annotatsiya*. Maqolada oliy ta’limda xitoy tilini o‘qitishda generativ sun’iy intellektdan (SI) etik foydalanish masalasi madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish tajribasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot xitoy tilini o‘rganuvchi 178 nafar ishtirokchini qamrab olgan kengroq pedagogik tajriba-sinovning SI bilan bog‘liq qismiga tayangan. Eksperimental natijalar madaniyatlararo diskursni talqin qilish, argumentativ diskurs qurish va refleksiv tahlil bo‘yicha ijobiy dinamikani ko‘rsatgan; SI bilan ishlash jarayonidagi kuzatuvlar esa tanqidiy verifikatsiya, inson mualliffligini saqlash, maxfiylik, akademik halollik va o‘qituvchi mediatsiyasi zarurligini aniqlashtirgan. Shu bois maqolada SI alohida o‘qitish metodi yoki o‘qituvchini almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki kontekstual talqin, madaniyatlararo qiyoslash va refleksiv qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli ta’lim muhiti sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: oliy ta’lim, sun’iy intellekt etikasi, xitoy tilini o‘qitish, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, generativ sun’iy intellekt, akademik halollik, maxfiylik, pedagogik mediatsiya.*

Abstract*. The article examines the ethical use of generative artificial intelligence (AI) in Chinese language education through the experience of developing intercultural communicative competence. The discussion draws on the AI-related component of a broader pedagogical study involving 178 Chinese-language learners. Experimental results demonstrated positive dynamics in intercultural discourse interpretation, argumentative discourse construction and reflective analysis, while observations of AI-assisted activities highlighted the need for critical verification, preservation of human authorship, privacy, academic integrity and teacher mediation. AI is therefore considered not as an independent teaching method or a substitute for the teacher, but as a digitally mediated learning environment supporting contextual interpretation, intercultural comparison and reflective reconstruction.*

Keywords: *higher education, AI ethics, Chinese language teaching, intercultural communicative competence, generative AI, academic integrity, privacy, teacher mediation.*

Kirish

Generativ sun’iy intellektning oliy ta’limga kirib kelishi xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida faqat texnologik emas, balki etik va pedagogik masalalarni ham kun tartibiga olib chiqdi. Chatbotlar matn yaratish, tarjima qilish, dialoglarni modellashtirish, tezkor fikr-mulohaza berish va individual topshiriqlarni shakllantirish imkonini beradi. Biroq ushbu imkoniyatlar ta’limiy natijaga avtomatik ravishda olib kelmaydi. Aksincha, SI javoblarining ishonchliligi, talabaning mustaqil fikrlashi, akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va o‘qituvchining nazorat funksiyasi kabi masalalar sun’iy intellektdan foydalanishning metodik chegaralarini belgilaydi.

L. Kohnke, B. L. Moorhouse va D. Zou generativ SI til o‘qitishda kommunikativ mashq, teskari aloqa va individual yordam imkoniyatlarini kengaytirishini qayd etadilar, biroq undan samarali foydalanish o‘qituvchi va talabaning raqamli savodxonligi hamda pedagogik nazoratini talab qiladi [1]. E. Kasneci va hammualliflar yirik til modellari bilan ishlashda xatolar, stereotiplar va noto‘g‘ri ma’lumotlar xavfi tufayli inson nazorati va tanqidiy tekshiruv zarurligini ko‘rsatadilar [2]. F. Miao va W. Holmes tomonidan tayyorlangan UNESCOning generativ SI bo‘yicha tavsiyalarida inson markaziyligi, ma’lumotlar maxfiyligi, etik validatsiya va pedagogik loyihalash SI ni ta’limga joriy etishning asosiy shartlari sifatida belgilangan [3].

Mazkur masala xitoy tilini o‘qitishda ayniqsa dolzarbdir. Xitoy kommunikatsiyasida pragmatik yashirinlik, kontekstga bog‘liqlik, bilvosita ifoda, ijtimoiy munosabatlar va madaniy konvensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois grammatik jihatdan to‘g‘ri SI javobi har doim ham madaniyatlararo nuqtayi nazardan adekvat bo‘lavermaydi. Maqolaning maqsadi xitoy tilini o‘qitishda generativ SI dan etik foydalanishning pedagogik shartlarini aniqlash va bu shartlarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatishdan iborat.

Nazariy asoslar: SI etikasi va madaniyatlararo til ta’limi

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya faqat til birliklarini bilish emas, balki boshqa madaniyat vakilining kommunikativ maqsadini talqin qilish, madaniy ma’nolarni qiyoslash va vaziyatga mos kommunikativ qaror qabul qilishni ham o‘z ichiga oladi. M. Byram ushbu kompetensiyani bilim, munosabat, talqin va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarining birligi sifatida talqin qiladi [4]. A. J. Liddicoat va A. Scarino til o‘rganuvchini madaniy ma’nolarni faol talqin qiluvchi subyekt sifatida ko‘radilar [5]. O‘zbekistonda xitoy tilini o‘qitish amaliyotini tahlil qilgan S. A. Nazarova lingvistik tayyorgarlikni kognitiv-diskursiv va madaniyatlararo talqin bilan integratsiyalash zarurligini asoslaydi [6]. CEFR Companion Volume zamonaviy kommunikativ qobiliyat tarkibida mediatsiya, onlayn o‘zaro ta’sir va ko‘p madaniyatlilik komponentlarini kengaytiradi [7].

Ushbu nazariy pozitsiyalar SI bilan ishlashning etik mezonlarini ham aniqlashtiradi. Agar generativ model tayyor javob ishlab bersa va talaba uni tanqidiy qayta ishlamasdan o‘zlashtirsa, texnologiya o‘quvchining mustaqil talqin va qaror qabul qilish faoliyatini qisqartirishi mumkin. Aksincha, SI javobi tekshiriladigan, qiyoslanadigan va qayta tuziladigan material sifatida qo‘llansa, insonning yetakchi intellektual roli saqlanadi. Shu sababli mazkur maqolada etik foydalanish tushunchasi SI dan voz kechish emas, balki inson muallifligi, maxfiylik, akademik halollik va pedagogik mediatsiyani saqlagan holda foydalanish sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodikasi va SI dan foydalanish protokoli

Maqolada xitoy tilini o‘qitishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga bag‘ishlangan kengroq pedagogik tadqiqotning sun’iy intellekt bilan bog‘liq qismi tahlil qilinadi. Empirik tadqiqotda 178 nafar xitoy tilini o‘rganuvchi qatnashgan; ular eksperimental va nazorat guruhlariga ajratilgan. Tadqiqot dizayni nazariy tahlil, o‘quv dasturlari va materiallarini o‘rganish, diagnostik topshiriqlar, tajriba-sinov, madaniyatlararo diskurs tahlili va pre-test hamda post-test natijalarini qiyosiy baholashni o‘z ichiga olgan.

Eksperimental ta’limda ChatGPT-4, Gemini va ERNIE Bot sun’iy intellekt vositalari qo‘llanildi. Metodik shaffoflikni ta’minlash uchun ochiq va nazoratsiz chatbot muloqotidan emas, balki oldindan ishlab chiqilgan strukturaviy promptlardan foydalanildi. Ular madaniyatlararo dialoglarni modellashtirish, xitoy va o‘zbek kommunikativ vaziyatlarini qiyoslash, pragmatik ma’noni talqin qilish, madaniy jihatdan belgilangan birliklarni tahlil qilish,

mashina tarjimasi bilan kontekstual inson talqinini qiyoslash va diskursni qayta tuzishga yo‘naltirilgan.

SI bilan ishlashda bir necha etik cheklovlar joriy qilindi. Birinchidan, SI tizimlaridan faqat o‘quv maqsadida foydalanildi. Ikkinchidan, talabalarga shaxsiy, maxfiy yoki sezgir ma’lumotlarni SI tizimlariga kiritmaslik bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Uchinchidan, SI yaratgan matn yoki javob yakuniy topshiriq sifatida qabul qilinmadi: talaba uni tanqidiy baholashi, xatolar va madaniy-pragmatik cheklovlarni aniqlashi, qayta ishlashi va o‘z yakuniy variantini asoslab berishi talab etildi. Bu qoidalar UNESCO tavsiya qilgan inson markaziyligi va maxfiylik tamoyillari bilan hamohangdir [3].

Etik foydalanishni ta’minlagan strukturaviy SI promptlari

Metodik shaffoflikni ta’minlash maqsadida tajribada erkin chatbot muloqoti emas, balki oldindan ishlab chiqilgan aniq strukturaviy promptlar qo‘llanildi. Promptlar SI dan tayyor javob olishga emas, balki qiyoslash, pragmatik talqin, diskursni qayta tuzish va refleksiv asoslashga yo‘naltirildi. Quyida tajribada qo‘llangan reprezentativ promptlar keltiriladi.

1-prompt. Madaniy konseptlarni qiyosiy tahlil qilish. «Xitoy tilidagi 忍 (rěn) tushunchasi va o‘zbek tilidagi sabr tushunchasini qiyoslang. Ularning madaniy ma’nolari, o‘xshash va farqli jihatlarini tushuntiring. Xitoy va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi muloqotda ushbu tushunchalarni turlicha talqin qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlang.»

2-prompt. Madaniyatlararo pragmatik talqin. «Quyidagi ifodani tahlil qiling: 你的观点很有意思，不过…… (“Sizning fikringiz juda qiziqarli, biroq…”). Uning xitoy kommunikatsiyasidagi pragmatik ma’nosini tushuntiring. Nima sababdan o‘zbek talaba ushbu ifodani boshqacha talqin qilishi mumkin? Madaniyatlararo izoh bering.»

3-prompt. Qiyosiy madaniy refleksiya. «Xitoyning Bahor bayrami (春节) va o‘zbek Navro‘z bayramini qiyoslang. Umumiy qadriyatlarni, urf-odatlardagi farqlarni va madaniy ahamiyatga ega ramzlarni aniqlang. Natijalarni qiyosiy jadval ko‘rinishida taqdim eting va ushbu farqlar madaniyatlararo kommunikatsiyaga qanday ta’sir qilishi mumkinligini izohlang.»

4-prompt. Argumentativ madaniyatlararo dialog. «Siz milliy an’analar haqidagi xalqaro munozarada qatnashayotgan xitoylik universitet talabasisiz. O‘zbek talabaning milliy bayramlarning ahamiyati haqidagi fikriga xushmuomalalik bilan javob bering, bitta dalil keltiring va madaniyatlararo dialogni davom ettiruvchi bitta savol bering.»

5-prompt. Diskursni qayta tuzish. «Quyidagi dialogda madaniy jihatdan noo‘rin to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanqid mavjud. Dialogni xitoy kommunikativ madaniyatiga ko‘proq mos keladigan strategiyalar asosida qayta yozing. Qaysi lingvistik va pragmatik o‘zgarishlar kiritilganini va ularning sababini tushuntiring.»

Mazkur promptlarning etik komponenti SI ning o‘zi bergan javob bilan yakunlanmaganidadir. Har bir topshiriqdan so‘ng talabalar SI javobini kontekst va ishonchli manbalar bilan tekshirdilar, umumlashtirish yoki stereotiplashtirish holatlarini aniqladilar, kerakli o‘zgartirishlarni kiritdilar va yakuniy talqinni o‘z nomidan asosladilar. Shu tariqa SI javobi mualliflik mahsuloti emas, tanqidiy tahlil uchun oraliq material sifatida ishlatildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqotning umumiy eksperimental natijalari eksperimental guruhlarda madaniyatlararo diskursni talqin qilish, yashirin ma’nolarni aniqlash, kontekstual kommunikativ tahlil, refleksiv madaniyatlararo tahlil va argumentativ diskurs qurish bo‘yicha ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Eng

katta o‘sish argumentativ madaniyatlararo diskurs qurishda +29,8 foiz punktni, refleksiv madaniyatlararo tahlilda +25,9 foiz punktni, yashirin ma’nolarni aniqlashda +23,6 foiz punktni tashkil etdi. Biroq mazkur ko‘rsatkichlar kompleks eksperimental metodikaning umumiy natijasi bo‘lib, ularni faqat SI ta’siri sifatida talqin qilish mumkin emas.

Uch asosiy mezon - madaniyatlararo diskursni talqin qilish, argumentativ diskurs qurish va refleksiv madaniyatlararo tahlil - bo‘yicha eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan ($p < 0,05$). Cohen’s h ko‘rsatkichlari 0,365-0,411 oralig‘ida qayd etilib, o‘rta darajadagi effektni ko‘rsatgan. Ushbu statistik natijalar madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya dinamikasini tasdiqlaydi, ammo SI ning alohida sababiy hissasini o‘lchamaydi.

SI bilan bog‘liq kuzatuvlar esa alohida metodik xulosa chiqarishga imkon berdi. Tajribaning dastlabki bosqichlarida ayrim talabalar mashina yaratgan formulirovkalarga ortiqcha tayanishga moyillik ko‘rsatganlar. Shu sababli SI javoblarini tanqidiy tekshirish, muqobil talqinlar bilan qiyoslash, manbaga tayangan holda qayta ishlash va shaxsiy pozitsiyani asoslash majburiy talabga aylantirildi. Demak, etik foydalanish natijaviy ko‘rsatkich sifatida emas, balki SI bilan ishlashni metodik jihatdan boshqaruvchi shartlar tizimi sifatida qaralishi lozim.

Xitoy tilini o‘qitishda SI dan etik foydalanishning metodik tamoyillari

Tajriba natijalari hamda mavjud xalqaro tavsiyalarni umumlashtirish asosida xitoy tilini o‘qitishda SI dan etik foydalanishning besh metodik tamoyili aniqlashtirildi. Birinchisi - maqsadlilik: SI vositasi aniq ta’limiy maqsad va strukturaviy prompt asosida qo‘llanishi kerak. Ikkinchisi - tanqidiy verifikatsiya: SI javobi yakuniy bilim emas, tekshiriladigan va qiyoslanadigan material sifatida ko‘rilishi lozim. Uchinchi tamoyil - inson muallifligini saqlash: topshiriq talabaning mustaqil xulosasi, qayta ishlangan matni yoki asoslangan kommunikativ qarori bilan yakunlanishi zarur.

To‘rtinchi tamoyil - maxfiylik va ma’lumot xavfsizligi. Talaba SI tizimiga shaxsiy, sezgir yoki maxfiy ma’lumotlarni kiritmasligi, o‘quv va tadqiqot ma’lumotlari zarur hollarda anonimlashtirilishi kerak. Beshinchi tamoyil - o‘qituvchi mediatsiyasi va akademik halollik. O‘qituvchi SI dan foydalanish chegaralarini oldindan belgilashi, topshiriqning qaysi qismida SI yordami mumkinligini aniqlashtirishi va talabaning mustaqil intellektual hissasini baholashi lozim. Mazkur tamoyillar SI ni cheklash uchun emas, balki uning ta’limiy salohiyatini inson markaziy, xavfsiz va metodik asoslangan shaklda yuzaga chiqarish uchun zarur.

Tadqiqot cheklovlari va amaliy ahamiyati

Mazkur tadqiqot natijalarini talqin qilishda bir qator cheklovlar hisobga olinishi zarur. Birinchidan, generativ SI eksperimental metodikaning faqat bitta tarkibiy qismi bo‘lgan; u madaniyatlararo qiyoslash, diskursiv tahlil, refleksiv topshiriqlar va o‘qituvchi mediatsiyasi bilan birgalikda qo‘llangan. Shu sababli kuzatilgan kompetensiya o‘sishida SI ning mustaqil sababiy hissasini ajratib ko‘rsatish mumkin emas. Ikkinchidan, tadqiqotda “SI dan etik foydalanish” alohida psixometrik shkala bilan o‘lchanmagan. Etik xulosalar tajriba jarayonida kuzatilgan muammolar, joriy qilingan pedagogik cheklovlar va xalqaro tavsiyalarni qiyosiy umumlashtirish asosida shakllantirilgan. Bu chegarani ochiq ko‘rsatish SI etikasi bo‘yicha natijalarni ortiqcha umumlashtirishning oldini oladi.

Amaliy nuqtayi nazardan esa mazkur yondashuv xitoy tili bo‘yicha topshiriqlarni loyihalashda SI dan foydalanish mezonlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi SI vositasini tanlashdan avval ta’limiy maqsadni, ruxsat etilgan foydalanish chegaralarini, verifikatsiya usulini va talabaning yakuniy mustaqil mahsulotini belgilashi lozim. Keyingi

tadqiqotlarda SI yordamidagi faoliyatni SI siz bajariladigan o‘xshash topshiriqlar bilan faktorli yoki kvazi-eksperimental dizayn asosida qiyoslash, shuningdek akademik halollik, SI savodxonligi va madaniyatlararo pragmatik qaror qabul qilishni alohida mezonlar orqali baholash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv inson va SI hamkorligining qaysi komponentlari aynan qaysi ta’limiy natijalarga ta’sir ko‘rsatishini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Xulosa

Xitoy tilini o‘qitishda generativ SI ning pedagogik qiymati tayyor matn yoki tarjima yaratish qobiliyati bilangina belgilanmaydi. Uning metodik imkoniyati talabani turli talqinlarni qiyoslash, yashirin va pragmatik ma’nolarni aniqlash, mashina javobining cheklovlarini ko‘rish, madaniyatlararo vaziyatni tahlil qilish va o‘z kommunikativ qarorini asoslashga undashidadir. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda qayd etilgan kompetensiya o‘sishini faqat SI bilan bog‘lash mumkin emas: u diskursiv, madaniyatlararo, refleksiv va raqamli faoliyatlarni birlashtirgan kompleks pedagogik ta’sir natijasidir.

SI dan etik foydalanish insonning yetakchi rolini saqlab qolishni talab qiladi. Sun’iy intellekt kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishi va muqobil variantlarni yaratishi mumkin, biroq ma’noni talqin qilish, madaniy adekvatlikni baholash, faktni tekshirish va yakuniy qarorni asoslash talabaning mustaqil intellektual faoliyati bo‘lib qolishi kerak. Demak, oliy ta’limda SI dan foydalanishning asosiy mezoni uning qancha javob yaratishi emas, balki talabaning mustaqil tahlili, refleksiyasi va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini qay darajada faollashtira olishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kohnke L., Moorhouse B. L., Zou D. ChatGPT for Language Teaching and Learning // RELC Journal. - 2023. - Vol. 54, No. 2. - P. 537-550. - DOI: 10.1177/00336882231162868.
2. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S. et al. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education // Learning and Individual Differences. - 2023. - Vol. 103. - Article 102274. - DOI: 10.1016/j.lindif.2023.102274.
3. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. - Paris: UNESCO, 2023. - 44 p. - DOI: 10.54675/EWZM9535.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. - Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
5. Liddicoat A. J., Scarino A. Intercultural Language Teaching and Learning. - Oxford: Wiley-Blackwell, 2013.
6. Назарова С.А. Проблемы и перспективы реализации когнитивно-дискурсивного и межкультурного подходов в обучении китайскому языку (на примере учебной программы ТГУВ) // O‘zbekistonda xorijiy tillar / Foreign Languages in Uzbekistan. – 2026. – Т. 12, № 1 (66). – С. 186–201. – URL: https://journalfledu.com. – ISSN 2181-8215 (online). (13.00.02).
7. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment: Companion Volume. - Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

4. C.Graham, C. R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In C. J. Bonk & C. R. C.Graham (Eds.), The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs 2006.pp. 3–21. Pfeiffer.
5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign.2019.

6. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. Intelligence unleashed: An argument for AI in education. Pearson.2016.
7. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 2006. 1017–1054. https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x
8. Staker, H., & Horn, M. B. Classifying K–12 blended learning. Innosight Institute.2012.
9. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. UNESCO.2023.
10. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education—Where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2019. 16, Article 39. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0

XITOY TILINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING FONETIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI METODIK IMKONIYATLARI

Raxmatullayeva Dilshada Maratovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22895929

Annotatsiya. *Maqolada xitoy tilini o‘rganuvchi talabalarda fonetik kompetensiyani shakllantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xitoy tilining tonal tizimi, shengmu va yunmu xususiyatlari hamda o‘zbek talabalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan fonetik interferensiya muammolari asosida sun’iy intellekt texnologiyalarining fonetik ta’limdagi o‘rni yoritiladi. Xususan, avtomatik nutqni tanish (ASR), avtomatlashtirilgan talaffuz bo‘yicha qayta aloqa, nutqni vizualizatsiya qilish va individual fonetik mashqlarni tashkil etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Sun’iy intellekt vositalarini o‘qituvchining ekspert bahosi bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslanadi. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari sharoitida mazkur texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, fonetik kompetensiya, xitoy tili, avtomatik nutqni tanish (ASR), talaffuz, raqamli texnologiyalar, fonetik interferensiya, avtomatlashtirilgan qayta aloqa.*

Abstract. *This article analyzes the methodological potential of using artificial intelligence technologies in developing phonetic competence among students learning Chinese. The role of artificial intelligence technologies in phonetic education is examined based on the tonal system of Chinese, the characteristics of initials (shengmu) and finals (yunmu), as well as potential phonetic interference problems among Uzbek students. Particular attention is paid to automatic speech recognition (ASR), automated pronunciation feedback, speech visualization, and the organization of individualized phonetic exercises. The article substantiates the need to integrate artificial intelligence tools with teachers’ expert assessment. It also analyzes the methodological opportunities and limitations of using these technologies in the context of higher education institutions in Uzbekistan.*

Keywords: *artificial intelligence, phonetic competence, Chinese language, automatic speech recognition (ASR), pronunciation, digital technologies, phonetic interference, automated feedback.*

O‘zbekistonda xitoy tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bu Xitoy bilan savdo-iqtisodiy, madaniy va ta’lim sohalaridagi hamkorlikning kengayishi bilan bevosita bog‘liq. Xitoy tilini egallashda fonetik kompetensiya alohida o‘rin tutadi, chunki xitoy tili tonal til bo‘lib, talaffuzning aniqligi so‘z ma’nosini to‘g‘ri anglashga bevosita ta’sir qiladi. Xitoy tilining tonal tizimi, shengmu (声母) va yunmu (韵母) tizimi, shuningdek, aspiratsiya va burunli finallar kabi xususiyatlar o‘zbek talabalari uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi [1].

So‘nggi yillarda ta’limda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining imkoniyatlari kengayib bormoqda. Xususan, avtomatik nutqni tanish (ASR) tizimlari, avtomatlashtirilgan talaffuz qayta

aloqasi va nutqni vizualizatsiya qilish vositalari fonetik ta’limda yangi metodik imkoniyatlar yaratmoqda [3]. Biroq ushbu texnologiyalarni xitoy tili fonetikasini o‘qitish jarayoniga qanday va qaysi metodik shartlar asosida integratsiya qilish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan [6].

An’anaviy fonetik ta’limda individual mashq, ko‘p martalik takrorlash va har bir talabaga tezkor qayta aloqa (feedback) berish imkoniyati cheklangan. Bu, ayniqsa, guruhlarda talabalar soni ko‘p bo‘lganda yaqqol seziladi. AI texnologiyalari ushbu muammolarni qisman bartaraf etishi mumkin, biroq ularni xitoy tili fonetikasini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishning metodik shartlari, imkoniyatlari va cheklovlari hali to‘liq o‘rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi xitoy tilini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning fonetik kompetensiyani shakllantirishdagi metodik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari sifatida fonetik kompetensiyaning nazariy-metodik mazmunini aniqlash; xitoy tilining fonetik xususiyatlari va o‘zbek talabalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni tahlil qilish; AI texnologiyalarining fonetik ta’limdagi imkoniyatlarini o‘rganish; ASR va avtomatlashtirilgan qayta aloqaning talaffuz mashg‘ulotlaridagi o‘rnini aniqlash; AI vositalarini fonetik kompetensiyani shakllantirish jarayoniga integratsiya qilish modelini taklif etish; AI texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari va cheklovlarini belgilash kabilarni sanab o‘tish mumkin. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil, metodik tajribani umumlashtirish, AI asosidagi fonetik vositalarning metodik imkoniyatlarini tahlil qilish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Fonetik kompetensiya va xitoy tili fonetikasining o‘ziga xosligi. FK bu o‘rganilayotgan tilning artikulyatsion va prosodik me’yorlariga muvofiq tovushlarni to‘g‘ri idrok etish va qayta ishlab chiqarish qobiliyatidir. Uning tarkibida ikki asosiy komponent ajratiladi: segmental daraja (alohida tovushlar artikulyatsiyasi) va suprasegmental daraja (urg‘u, ritm, intonatsiya va tonal tillarda — ton) [7]. Fonetik kompetensiyaning shakllanganligi nafaqat alohida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni, balki ularning nutq oqimida to‘g‘ri ishlashini ham nazarda tutadi. Bu artikulyatsion ko‘nikmalarni avtomatlashtirishni va fonematik eshitishni rivojlantirishni talab qiladi. Xitoy tili bir qator tipologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular uni tonal bo‘lmagan tillar sohiblari uchun o‘zlashtirishni murakkablashtiradi. Putunxuada to‘rtta asosiy ton (阴平, 阳平, 上声, 去声) ajratiladi, ularning har biri barqaror balandlik konturiga ega. Ton ma’no farqlash vazifasini bajaradi: bir xil bo‘g‘in turli tonlarda talaffuz qilinsa, turli ma’nolarni anglatadi. Shengmu (声母) tizimi. Xitoy undoshlari o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan bir qator tovushlarni o‘z ichiga oladi: aspiratsiyali (p, t, k), affrikatalar (z, c, zh, ch, j, q), frikativlar (x, sh, r). Aspiratsiyali va aspiratsiyasiz undoshlarning qarama-qarshiligi alohida qiyinchilik tug‘diradi [1; 8]. Yunmu (韵母) tizimi. Xitoy finallari diftong va triftonglarni, shuningdek, burunli finallarni (an, ang, en, eng, in, ing, ong) o‘z ichiga oladi, ularning farqlanishi artikulyatsion apparatni nozik sozlashni talab qiladi.

O‘zbek va xitoy tillarining fonologik tizimlarini qiyosiy tahlil qilish potensial interferensiya zonalarini aniqlash imkonini beradi. O‘zbek tili tonal emas, shuning uchun talabalarda tonal farqlarni idrok etish va qayta ishlab chiqarish tajribasi yo‘q. Bu talabalarning tonlarni ko‘pincha e’tiborsiz qoldirishiga yoki ularni ona tilining intonatsion modellari bilan almashtirishiga (ohang interferensiyasiga) olib keladi. O‘zbek tilida aspiratsiyali undoshlar, affrikatalar va bir qator frikativlar mavjud emas. Talabalar xitoy tovushlarini ona tilidagi eng yaqin artikulyatsion analoglar bilan almashtirishga (artikulyatsion interferensiyaga) moyil

bo‘ladilar. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, j [tɕ] tovushini talaffuz qilishda talabalar uni o‘zbek “j” yoki rus “ж” bilan aralashtiradilar, q [tɕʰ] va x [ɕ] talaffuzida esa xitoy tilidagi “q” ni “ch”, “x” ni “s” tovushi bilan talaffuz qiladilar [1]. O‘zbek nutqining ritmik tashkiloti xitoy tilidan farq qiladi, bu urg‘u va pauzalarning noto‘g‘ri taqsimlanishida (prosodik interferensiya) namoyon bo‘ladi. Zhao Tianhui va boshqalarning eksperimental tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek talabalari [y], [ə], [ɳ] va [ɳ̩] unlilarini o‘zlashtirishda eng katta qiyinchiliklarga duch keladilar, [i], [u] va [a] unlilari esa nisbatan yaxshi o‘zlashtiriladi [9].

Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, eng barqaror xatolar ikkinchi va uchinchi ton juftliklarini farqlashda, shuningdek, aspiratsiyali undoshlarni aspiratsiyasizlar bilan almashtirishda kuzatiladi. Bu o‘zbek tilida aspiratsiyaning ma’no farqlash vazifasini bajarmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. An’anaviy fonetik ta’lim bir qator metodik muammolarga ega. Auditoriya vaqti cheklanganligi sababli bir darsda har bir talabaga individual mashq qilish uchun yetarli vaqt ajratib bo‘lmaydi. Talabalar guruhda bir xil tezlikda mashq qilishga majbur bo‘ladilar, bu ularning individual ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Fonetik ko‘nikmalarni avtomatlashtirish uchun ko‘p martalik takrorlash va tezkor qayta aloqa (feedback) zarur, ammo o‘qituvchi buni har bir talaba uchun ta’minlay olmaydi. Har bir talabaning ona tilidan kelib chiqadigan xatolari turlicha bo‘lib, ularni aniqlash va tuzatish uchun maxsus yondashuv talab qilinadi. Bu muammolar raqamli va AI vositalariga ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Sun’iy intellektning fonetika ta'limdagi imkoniyatlari. Sun’iy intellekt til o‘qitishda individualizatsiya, adaptiv ta’lim va avtomatik qayta aloqa imkoniyatlarini yaratadi. Telezhko, Korovina va Salynskaya ta’kidlashlaricha, raqamli vositalar chet tillarini o‘qitish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, ulardan foydalanish esa moslashuvchanlik, autentik materiallarga kirish, uzluksiz til amaliyoti va tezkor qayta aloqani ta’minlaydi.

ASR texnologiyalari fonetik ta’limda bir qator imkoniyatlarni yaratadi. Talaba o‘z talaffuzini cheksiz marta takrorlashi va har safar avtomatik tahlil olishi mumkin [4]. ASR tizimlari talabaning talaffuzidagi xatolarni avtomatik aniqlaydi va ular haqida ma’lumot beradi [10]. Talaba o‘z nutqini yozib olib, uni etalon bilan taqqoslashi mumkin [11]. ASR tizimlari o‘qituvchi har bir talabaga yetarli vaqt ajrata olmagan holatlarda qo‘shimcha mashq imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, Pinyin Tutor tizimi diagnostik qayta aloqa asosida talabalarning pinyin bo‘yicha fonetik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Sona Speech II tizimi esa talabalarga o‘z talaffuzini etalon bilan vizual taqqoslash imkonini beradi. AI asosidagi talaffuz qayta aloqasi quyidagi bosqichlarda ishlaydi: talaba talaffuz qiladi, AI tahlil qiladi, qayta aloqa oladi, xatoni tuzatadi va qayta talaffuz qiladi. Bu jarayon turli darajalarda, masalan tovush, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap, dialog kabi darajalarda qo‘llanishi mumkin.

Nutqni vizualizatsiya qilish vositalari talabaga o‘z ovozining to‘lqin shaklini ko‘rish, ton konturini kuzatish, etalon va o‘z nutqini taqqoslash imkonini beradi. Xitoy tilini o‘qitishda bu ayniqsa muhim, chunki ton balandlik konturi bilan ifodalanadi. Talaba xatosini ko‘rib, uni tuzatishga harakat qiladi.


AI yordamida talabaning xatosiga qarab individual mashqlar tashkil etish mumkin. Har bir talaba o‘z xatosiga mos mashq oladi. Xato takrorlansa, AI qo‘shimcha mashq taklif qiladi. Talaba muvaffaqiyatga erishsa, AI murakkablikni oshiradi. Talaba muayyan tovushni o‘zlashtirmaguncha, AI unga qayta-qayta qaytadi [10]. Shu bilan birga AI texnologiyalari bir qator cheklovlarga ham ega. ASR tizimlari har doim ham to‘g‘ri ishlamaydi, ayniqsa tonal nutqni baholashda. Turli platformalar sifati farq qiladi. ASR tizimlari tonlarni har doim ham

to‘g‘ri baholay olmaydi. AI vositalaridan foydalanish uchun internet va texnik vositalar zarur. AI o‘qituvchini almashtira olmaydi, u faqat qo‘shimcha vosita bo‘lishi mumkin [5].

Xitoy tili fonetikasini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish fonetik mashqlarni individuallashtirish, talabaning talaffuzini muntazam nazorat qilish hamda tezkor qayta aloqa tashkil etish imkonini beradi. Bunda AI texnologiyalari o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki fonetik mashg‘ulotlarni qo‘llab-quvvatlovchi va talabaning mustaqil faoliyatini faollashtiruvchi metodik vosita sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvda avtomatik nutqni tanish (ASR), talaffuzni avtomatik tahlil qilish va qayta aloqa berish imkoniyatlari o‘qituvchining ekspert bahosi bilan uyg‘unlashtiriladi. Xitoy tili fonetikasini o‘qitishda AI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun bosqichma-bosqich fonetik mashg‘ulot modeli taklif etiladi. Mazkur modelda o‘qituvchi, talaba va AI texnologiyasi o‘rtasida funksional taqsimot amalga oshiriladi.

Dastlab, o‘qituvchi o‘rganilayotgan fonetik birlikning artikulyatsion va akustik xususiyatlarini tushuntiradi hamda to‘g‘ri talaffuz namunasini taqdim etadi. Keyingi bosqichda talaba namunani tinglaydi va uni mustaqil ravishda takrorlaydi. Talabaning nutqiy namunasi AI yoki ASR tizimi yordamida qayta ishlanib, talaffuz bo‘yicha avtomatlashtirilgan qayta aloqa taqdim etiladi. Ushbu qayta aloqa asosida talaba o‘z talaffuzidagi muammoli jihatlarni aniqlaydi va qayta talaffuz qilish orqali xatosini tuzatishga harakat qiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi talabaning natijasini ekspert nuqtayi nazaridan baholaydi va zarur hollarda qo‘shimcha izoh hamda tuzatishlar beradi. Mashg‘ulotning yakuniy bosqichida o‘rganilgan fonetik birlik kommunikativ vazifa doirasida qo‘llanadi. (1-rasm)

1-rasm.AI yordamida fonetik mashg‘ulot modeli



Shunday qilib, mazkur model tushuntirish, tinglash, talaffuz qilish, AI yordamida tahlil qilish, avtomatlashtirilgan qayta aloqa olish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, qayta talaffuz qilish, o‘qituvchining ekspert bahosini olish va kommunikativ qo‘llash jarayonlarining izchil ketma-ketligiga asoslanadi. Ushbu ketma-ketlik fonetik ko‘nikmani faqat mexanik takrorlash darajasida emas, balki ongli nazorat va kommunikativ qo‘llash bilan bog‘liq holda shakllantirishga xizmat qiladi.

AI texnologiyalarining imkoniyatlari bilan birga cheklovlari ham mavjud. Ular qatoriga ASR xatosi, turli platformalar sifatining farqi, tonal nutqni baholashdagi cheklovlar, internet va texnik vositalarga bog‘liqlik, o‘qituvchining metodik nazorati zarurligi hamda “AI bahosi = yakuniy baho” emasligi kiradi. AI bahosi faqat qo‘shimcha ma’lumot sifatida qaralishi kerak. O‘zbekiston ta’lim sharoitida AI vositalaridan foydalanish bir qator omillarga bog‘liq: barqaror internet aloqasi mavjudligi, talabalarning smartfonlarga ega bo‘lishi, platformaning bepul yoki pullikligi, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi, talabaning texnik imkoniyati va universitet

infratuzilmasi. AI vositalarini tanlashda ularning fonetik ta’lim maqsadlariga mosligi, talaffuzni ishonchli baholash imkoniyati, tushunarli qayta aloqa berishi va takroriy mashqni qo‘llab-quvvatlashi asosiy mezonlar sifatida belgilanadi. Shuningdek, vositaning talabaning til darajasiga moslashishi, natijalarni kuzatish va tahlil qilish imkoniyati hamda texnik va moliyaviy jihatdan foydalanish uchun qulayligi hisobga olinishi lozim.

Xulosa quyidagi uch asosiy fikrga quriladi. Birinchidan, xitoy tilining tonal va segmental xususiyatlari fonetik kompetensiyani maxsus metodik yondashuv asosida shakllantirishni talab qiladi. Ikkinchidan, AI texnologiyalari, ayniqsa ASR va avtomatlashtirilgan feedback, fonetik mashq hajmini oshirish, individual amaliyotni tashkil etish va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Uchinchidan, AI o‘qituvchini almashtiruvchi vosita emas, balki o‘qituvchi tomonidan pedagogik jihatdan boshqariladigan qo‘shimcha metodik vosita sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Kelgusida ushbu modelning samaradorligini O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida eksperimental tadqiqotlar orqali tekshirish, ayniqsa pre-test/post-test natijalari asosida AI yordamidagi fonetik mashg‘ulotlarning real ta’sirini aniqlash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raxmatullayeva D. Issues of Acquisition of Chinese “Shengmu” and “Yunmu” Sounds and Phonetic Interference: A Case Study of Uzbek Students // ACTA NUUz. — 2025. — Vol. 1, No. 1.8. — P. 316–319. doi:10.69617/nuuz.v1i1.8.8644.

2. Zhao Tianhui, et al. Экспериментальное исследование усвоения базовых гласных путунхуа узбекскими студентами // Современная лингвистика. — 2023. — Т. 11, № 10. — С. 4610–4617.

3. Amrate M., Tsai P. Computer-Assisted Pronunciation Training: A Systematic Review // ReCALL. — 2025. — Vol. 37, No. 1. — P. 22–42.

4. Sun W. The Impact of Automatic Speech Recognition Technology on Second Language Pronunciation and Speaking Skills of EFL Learners // Frontiers in Psychology. — 2023. — Vol. 14.

5. Кузнецова Г.Н. Методика использования цифровых ресурсов для организации контроля знаний при обучении русскому языку как иностранному в российских вузах // Мир науки, культуры, образования. — 2026. — № 4 (119). — С. 33–35.

6. Тележко И.В., Коровина Л.В., Салынская Т.В. Интеграция цифровых инструментов в процесс преподавания иностранных языков // Мир науки, культуры, образования. — 2026. — № 2 (117). — С. 151–154.

7. Шутова М.Н., Орехова И.А. Фонетический аспект в методике преподавания русского языка как иностранного // Русистика. — 2018. — Т. 16. — № 3. — С. 261–278. doi: 10.22363/2618-8163-2018-16-3-261-278.

8. Zhao Tianhui, et al. Экспериментальное исследование усвоения базовых гласных путунхуа узбекскими студентами // Современная лингвистика. — 2023. — Т. 11, № 10. — С. 4610–4617.

9. Nazarova, S. (2026). Challenges and prospects for implementing cognitive-discursive and intercultural approaches in teaching Chinese (on the example of the TSUOS curriculum). *Foreign Languages in Uzbekistan*, 66(1), 186–201. https://doi.org/10.36078/1767726140

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTINI 4+2 TARTIBIDA TASHKIL ETISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODIK TA’MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH

Razoqova Hosilaoy
MTTDMQTMO instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22871897

Anotatsiya *Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar, ta’lim olish shakllari, maktabgacha ta’limda nazariy bilimlarning tahlili va uni amaliyot bilan integratsiyasi yoritib berilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada dars jarayonini maqsadini to‘g‘ri belgilash hamda bo‘lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish usullari haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, dual ta’lim, nazariya, amaliyot, ta’lim-tarbiya, kompetensiya, ta’lim mazmuni, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy mobillik, moderinizatsiya, mutaxassisslik.*

Abstract. *This article discusses modern approaches to preparing future preschool educators, forms of education, the analysis of theoretical knowledge in preschool education, and its integration with practical activities. At the same time, the article provides information on correctly defining the objectives of the educational process and methods for developing the professional competencies of future preschool educators.*

Keywords: *educator, preschool education, dual education, theory, practice, education and upbringing, competence, educational content, future educator, professional mobility, modernization, specialization.*

Bugungi kun talabasini sakson daqiqalik o‘quv mashg‘uloti davomida shunchaki tinglovchi sifatida auditoriyada ushlab turish mushkul. Negaki, u ko‘p xajmli, tezkor axborot oqimi mavjud bo‘lgan muhitda yashamoqda. Ta’lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta’minlagan holda, innovatsion texnologiyalar, interfaol ta’lim usullari yordamida aynan manashu masalaga yechim topish mumkin. Ya’ni, bunda o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish, talabaning ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil fikrlashga undash, bilish extiyojlarini, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar yotadi. Buning uchun birinchi navbatda darslarning ta’limiy maqsadini belgilashda o‘zlashtirish darajalari asosida yondashish, belgilangan vaqt va mavjud sharoitda ko‘zlangan ta’limiy natijalarga kafolatli erishishni ta’minlash eng maqbul usullar va vositalarni tanlash va ularni qo‘llay bilish eng muxim vazifadir. Undan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarining shakli va turlari bo‘yicha ta’lim texnologiyasi, darsning o‘qitish modeli, texnologik xaritasi va uni ilovalarini tayyorlash, ta’lim texnologiyasi elementlari hamda o‘qitishning loyiha usuli va keys texnologiyalaridan kengroq foydalanish zarur.

Bugungi kunda zamonaviy dars jarayonida quyidagi asosiy talablarni hisobga olish zarur;

-dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni talabalarning shaxsiy qobiliyatlariga yondoshuv asosida amalga oshirish;

-dars talaba shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi va talabaning o‘zaro faol munosabatlarda bo‘lishlarini ta’minlash;

-darsni talabalarning yuqori darajadagi qiziqishi, aqliy faolligi va muvoffaqiyatga erishuviga qaratish;

-dars beriladigan bilim mazmuniga ko‘ra, turli pedagogik usul va uslublardan foydalanish;

-darslarni nazariya va amaliyoni o‘zaro bog‘lagan holda tashkil etish;

-darsda vaqtdan unumli va maqsadli foydalanib, sifat va samaradorlikligini ta’min etuvchi nazorat turlaridan foydalanish.[22]

Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish undagi ta’lim-tarbiya jarayonini bolalar faolligiga asoslangan holda ularni kattalar bilan birgalikdagi faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan modelini o‘zlashtirish zarurligini belgilaydi. Biroq, bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limini tashkil etishda o‘quv va intizomiy modeli doirasida ish tutishlari ustunligini ko‘rishimiz mumkin. Ular ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan qadriyatli mazmunga ega bo‘lgan tenglikni nazarda tutadigan faoliyat modelini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Qadriyatli mazmunga ega ta’limda shaxsning xulqatvori mo‘ljalga olinib, ularning insonparvarlikka yo‘nalganligi aniqlanadi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash jarayonida kasbiy mobilligini pedagogik-psixologik jihatdan maqsadga muvofiq shakllantirish tizimli-faollik, kompetensiyaga asoslangan, andragogik va akmeologik yondashuvlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Tizimli-faollik yondashuvi bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonining yangi sharoitlariga moslashtirishga yo‘naltirilgan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi pedagoglarning kasbiy mobilligi” dasturiga muvofiq amalga oshirishni ta’minlaydi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo‘lajak tarbiyachipedagoglarning oliy ta’lim muassasalarida egallayotgan bilimlarini ijtimoiy va kasbiy tayyorlash jarayonining yangi vaziyatlariga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi. Akmeologik yondashuv bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonida faol usul va metodlar – davra suhbatlari, ijodiy guruhlarda ishlash, ishbilarmonlik o‘yinlari, muammoli pedagogik o‘yinlardan foydalanish orqali kasbiy professionalizmi va kasbiy faoliyatga ijodiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Andragogik yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonida muammoni yaratish va uni bartaraf etish bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlaydi. Ya’ni, bunda jamoaviy aqliy faoliyatni tashkil qiluvchi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.[23]

Nazariya – professionallikka qo‘yilgan dastlabki qadam asosida nazariy bilim yotadi. Avvalo talabalarni muayyan fan yoki fan sohasini o‘qitish nazariyasiga tegishli bo‘lgan pedagogik bilimlar bilan tanishtiriladi. Bunda talabalarga ta’lim berish inklyuziv tarzda amalga oshiriladi ya’ni talabalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga pedagogika va psixologiya fanlari chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitiladi. Chunki, ular jamiyatimizning eng yosh va eng nozik qatlamiga ta’lim va tarbiya berishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan. Ertangi

[22] Sayfuddinov R. TA’LIM BERISH JARAYONIDA NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGINI TA’MINLASH.B-1214

[23] To‘ychiyeva S. Salayeva M. BO‘LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLARNING KASBIY MOBILLIGINI SHAKLLANTIRISH. B-93

faoliyat uchun, bugun berilayotgan ta’lim sifatli bo‘lishi kerak. Bundan tashqari berilayotgan bilimlar ilmiy jihatdan o‘z isbotini topgan bo‘lishi va zamonaviy ta’lim tizimiga mos bo‘lishi lozim. Amaliyot – pedagogik amaliyot talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning ajralmas qismi bo‘lib, ma’ruza, eksperimental ish, ekskursiya, nazorat va baholash kabi o‘qitishning barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Pedagogik amaliyot doirasida o‘qituvchilar o‘qitish orqali talabalarning bilim olishini faol qo‘llab – quvvatlaydi. Amaliyot jarayonining yuqori sifatini ishlab chiqish shu bosqichda amalga oshiriladi va nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etiladi. Bunda talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladilar.[24]

Talabalarda 4+2 malakaviy amaliyot davrida shakllanadigan kompetensiyalar:

1. Mutaxassislik bo‘yicha olgan nazariy bilimini amaliy tajriba bilan mustahkamlash. Yuqori malakali, ko‘p yillik ish tajribasiga ega pedagoglarning ish tajribalarini o‘rganish. Mashg‘ulotlar tashkil etishi o‘rganish va olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya jarayoni bilan tanishish, ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya ishlarda faol ishtirok etish, mustaqil ish yuritish malakasini hosil qilish.

3. Mashg‘ulotlardan tashqari olib boriladigan ishlarni o‘rganish va tashkil etishda ishtiroki.

4. Tarbiyalanuvchilar bilan individual ishlash usullarini o‘rganish.

5. Amaliyot davomida tarbiyachilarning ish uslubini o‘rganish, tarbiyaviy ish rejasiga mos tadbirlar tashkil etish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti miqyosida o‘tadigan tadbirlarda faol qatnashish.

6. Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv xonalarini jihozlash, ko‘rgazmali qurollar, metodik qo‘llanmalar bilan boyitishga yaqindan yordam berish.

Amaliyotchi talabalarda malakaviy amaliyot davrida rivojlanadigan asosiy kompetensiyalardan biri kasbiy kompetentsiyadir. Kasbiy kompetentsiya - kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar yig‘indisidir. Amaliyotchi talabalar mavzu bo‘yicha bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Amaliyot davomida talabalar muammolarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va ish natijalari uchun mas'uliyatni o‘z zimmalariga olishni o‘rganadilar, bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim sanaladi.Bundan tashqari, malakaviy amaliyot talabalarga muloqot ko‘nikmalari, jamoada ishlash va tanqidiy fikrlash kabi shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.[25]

Amaliy-faoliyat bo‘lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligining asosiy tayanch qismi hisoblanadi, chunki aynan ushbu jarayonda bilimlar real faoliyatga bog‘lanadi.

- Amaliyot vaqtida talabalar mashg‘ulot ishlanmalarini tuzish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
- individual yondashuvni amalga oshirish;
- ta’limiy va tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish;
- metodik hujjatlarni yuritish;

[24] Sattorova M.A. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI. B-324
[25] Mirzakulova N. I TALABALARDA 4+2 MALAKAVIY AMALIYOT DAVRIDA RIVOJLANADIGAN KOMPETENSIYALAR. B-215

•ota-onalar bilan ishlash kabi faoliyatlarni amalda sinab ko‘rib bajaradilar.Mazkur jarayon orqali talabalar kasbiy mas’uliyat, mustaqillik, tashabbuskorlik va muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Nazariy-metodik komponent bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishiga xizmat qiluvchi bilimlar tizimini shakllantiradi. Mazkur komponent doirasida talabalar maktabgacha pedagogikaning asosiy qonuniyatlarini; bolalar rivojlanishining yosh xususiyatlarini; didaktik tamoyillarni; ta’lim metodlarini; inno-vatsion texnologiyalarni; tarbiyaviy ish shakllarini puxta o‘zlashtiradilar.Bu bilimlar talabalarga pedagogik jarayonni tasodifiy emas, balki ongli, maqsadli va rejalashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Nazariy-metodik tayyorgarlik yetarli bo‘lmagan pedagog amaliy faoliyatda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi, pedagogik xatolarga yo‘l qo‘yadi va ta’lim samaradorligini pasaytiradi.[26]

Xulosa qilib aytganda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining malakaviy pedagogik amaliyotini takomillashtirish bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qilish va pedagogik mahoratni oshirishning ilmiy-metodik tizimi hisoblanadi. Bu faoliyat bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorgarlik sifatini kafolatlaydi. Malakaviy pedagogik amaliyot orqali bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari ilmiy asoslangan bo‘lib, tizimli va integrativ pedagogik mexanizm, har bir texnologiya talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan birlashtirish, pedagogik tafakkur va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, innovatsion yondashuvni rag‘batlantirish hamda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzakulova N. I talabalarda 4+2 malakaviy amaliyot davrida rivojlanadigan kompetensiyalar. B-215
2. To‘ychiyeva S. Salayeva M. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish. B 93
3. Tohirjonova H. B. Malakaviy amaliyot orqali bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari. B-283
4. Sayfuddinov R. Ta’lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.b-1214

[26] Tohirjonova H. B. MALAKAVIY AMALIYOT ORQALI BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARI. B-283

MIKROBIOLOGIYA FANIDAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Reymova Erkinay Atabaevna
(Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)
erkinay.atabaevna27@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22871912

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mikrobiologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy raqamli va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Mikrobiologiya fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lash, mikroorganizmlarning morfologik va fiziologik xususiyatlarini bevosita kuzatish, tajriba natijalarini tahlil qilish hamda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada raqamli mikroskoplar, virtual laboratoriyalar, videodarslar, interaktiv taqdimotlar, elektron testlar, QR-kodlar, ta’lim platformalari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘liq almashtirish emas, balki ularni mazmunan boyitish, xavfsizlikni ta’minlash, individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va talabalarning mustaqil ishlash faolligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, mikrobiologiya laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamlashtirishning afzalliklari, mavjud muammolari va samarali tashkil etish shartlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: mikrobiologiya, laboratoriya mashg‘uloti, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta’lim, virtual laboratoriya, raqamli mikroskopiya, sun’iy intellekt, interaktiv ta’lim, talaba kompetensiyasi.*

Abstract. *This article discusses the pedagogical possibilities of organizing microbiology laboratory classes using modern digital and innovative technologies. Laboratory classes in microbiology play an important role in connecting theoretical knowledge with practical skills, observing the morphological and physiological characteristics of microorganisms, analyzing experimental results, and developing students’ research competencies. The article analyzes the use of digital microscopes, virtual laboratories, video lessons, interactive presentations, electronic tests, QR codes, educational platforms, and artificial intelligence tools. Digital technologies are considered not as a complete replacement for traditional laboratory work, but as a means of enriching it, improving safety, expanding individual learning opportunities, and increasing students’ independent learning activity. The advantages, challenges, and organizational conditions for digital transformation of microbiology laboratory classes are also discussed.*

Keywords: *microbiology, laboratory class, digital technologies, innovative education, virtual laboratory, digital microscopy, artificial intelligence, interactive learning, student competency.*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tabiiy va biologik fanlarni o‘qitishda raqamli vositalardan samarali foydalanish murakkab biologik jarayonlarni talabalarga

tushunarli, ko‘rgazmali va interaktiv tarzda yetkazish imkonini beradi. Mikrobiologiya fani ham mazkur jarayonda alohida o‘rin tutadi.

Mikrobiologiya fanining o‘ziga xos jihati shundaki, uning ko‘plab obyektlari oddiy ko‘z bilan ko‘rinmaydi. Mikroorganizmlarning morfologiyasi, hujayra tuzilishi, bo‘yalish xususiyatlari, koloniyalarining shakli va boshqa belgilarini o‘rganishda mikroskopik tekshiruvlar hamda laboratoriya tajribalari muhim hisoblanadi. Shu sababli laboratoriya mashg‘ulotlari mikrobiologiya fanini o‘zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

O‘zbek tilidagi mikrobiologiya bo‘yicha o‘quv adabiyotlarida ham laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning mazmuni, mikroorganizmlarni o‘rganish usullari, mikroskop bilan ishlash hamda laboratoriya xavfsizligi masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, Sh.R. Aliyev va hammualliflarning “Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma” asari mikrobiologiyani o‘zbek tilida amaliy o‘rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Z.J. Shapulatovaning “Mikrobiologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari” o‘quv qo‘llanmasida esa laboratoriyada ishlash qoidalari hamda mikrobiologik va immunologik usullar yoritilgan.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi mikrobiologiya laboratoriya mashg‘ulotlarini ham yangi pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Raqamli mikroskoplar, videomateriallar, virtual laboratoriyalar, elektron topshiriqlar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarining imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mikrobiologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

mikrobiologiya laboratoriya mashg‘ulotlarining ta’limiy ahamiyatini aniqlash;

laboratoriya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan zamonaviy raqamli texnologiyalarni tahlil qilish;

raqamli mikroskopiya va virtual laboratoriyalarning imkoniyatlarini ko‘rsatish;

interaktiv va multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini asoslash;

sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

raqamli texnologiyalarni laboratoriya mashg‘ulotlariga integratsiya qilish bo‘yicha metodik yondashuvlarni taklif etish.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Mikrobiologiya faniga oid o‘zbek tilidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid manbalar tahlil qilindi.

Q.D. Davranovning “Mikrobiologiya” darsligida mikrobiologiyaning nazariy va amaliy jihatlari, mikroorganizmlarning asosiy xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, mazkur fan bo‘yicha amaliy bilimlarni shakllantirish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. P. Mirhamidova, A.H. Vahobov, Q. Davranov va G. Tursunboyevalarning “Mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari” darsligida esa mikroorganizmlarning morfologiyasi, fiziologiyasi, genetikasi va biotexnologik jarayonlar bilan bog‘liq masalalar keng yoritilgan.

Laboratoriya mashg‘uloti talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘laydigan ta’lim shaklidir. Ma’ruza mashg‘ulotida mikroorganizmlarning tuzilishi va biologik xususiyatlari haqida ma’lumot berilsa, laboratoriya mashg‘ulotida talaba ushbu bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi.

Mikrobiologiya laboratoriya mashg‘ulotlarida mikroskop bilan ishlash, vaqtinchalik va doimiy preparatlarni tayyorlash, mikroorganizmlarning morfologik xususiyatlarini kuzatish, bo‘yash usullaridan foydalanish, mikroorganizmlarni o‘stirish va natijalarni tahlil qilish kabi amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

E.H. Eshaboyevning “Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar” qo‘llanmasida mikroorganizmlar morfologiyasi va fiziologiyasi, ularning tabiatda tarqalishi kabi masalalar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarga oid materiallar berilgan.

Shu nuqtayi nazardan laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamli vositalar bilan boyitish talabalarning kuzatuvchanligi, mustaqil fikrlashi, tajriba natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mikrobiologiya laboratoriyasida eng muhim vositalardan biri mikroskop hisoblanadi. An’anaviy mikroskop yordamida olingan tasvirni faqat mikroskop oldida turgan talaba kuzatishi mumkin. Raqamli mikroskop esa tasvirni kompyuter, planshet yoki interaktiv doskaga uzatish imkonini beradi.

Bunday texnologiyadan foydalanish natijasida:

mikroskop ostidagi obyektni barcha talabalar bir vaqtning o‘zida kuzatishi;

tasvirni kattalashtirish va kichraytirish;

tasvirni saqlash;

kuzatilgan obyektlarni taqqoslash;

laboratoriya natijalarini elektron shaklda qayd etish;

talabaning mustaqil ishlashi uchun mikroskopik tasvirlar bazasini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Raqamli mikroskopiya, ayniqsa, mikroorganizmlarning morfologik xususiyatlarini o‘rganishda samarali vosita bo‘la oladi. O‘qituvchi real vaqtda mikroskop ostidagi tasvirni katta ekranga chiqarib, kerakli obyektni tushuntirishi mumkin.

Virtual laboratoriya — laboratoriya tajribalarining raqamli muhitda modellashtirilgan shaklidir. U real laboratoriya mashg‘ulotini to‘liq almashtirmaydi, ammo talabaning tajribaga tayyorgarlik ko‘rishi va murakkab jarayonlarni oldindan tushunib olishi uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, mikrobiologiya laboratoriyasida talaba tajriba bajarishdan oldin virtual muhitda:

laboratoriya jihozlari bilan tanishadi; tajriba ketma-ketligini o‘rganadi; xavfsizlik qoidalarini takrorlaydi; kerakli reagent va materiallarni tanlaydi; tajriba natijasini kuzatadi; xatolarni aniqlaydi va qayta urinib ko‘radi.

Bunday yondashuv ayniqsa murakkab yoki ko‘p vaqt talab qiladigan laboratoriya jarayonlarini tushuntirishda foydalidir.

Mikrobiologiyaga oid ko‘plab jarayonlarni faqat og‘zaki tushuntirish orqali o‘zlashtirish qiyin. Masalan, bakterial hujayraning tuzilishi, spora hosil bo‘lishi, mikroorganizmlarning ko‘payishi yoki metabolik jarayonlarni animatsiya va videolar yordamida tushuntirish talabaning mavzuni yaxshiroq tasavvur qilishiga yordam beradi.

Interaktiv taqdimotlarda rasm, video, animatsiya, sxema va test topshiriqlarini birlashtirish mumkin. Laboratoriya mashg‘uloti boshida qisqa videodars orqali tajriba bosqichlari ko‘rsatilsa, talabalar amaliy ishni bajarishda kamroq xatoga yo‘l qo‘yadi.

Ta’limda axborot texnologiyalariga oid o‘zbek tilidagi darsliklarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, amaliy dasturiy vositalar va kommunikatsion texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish masalalari yoritilgan.

Biroq sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik tamoyillariga rioya qilish muhim. Talaba sun’iy intellekt tomonidan berilgan javobni tayyor bilim sifatida qabul qilmasligi, uni darslik, o‘qituvchi ko‘rsatmalari va laboratoriya natijalari bilan taqqoslashi lozim. Shuning uchun sun’iy intellektni “tayyor javob beruvchi vosita” emas, balki talabaning fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Mikrobiologiya laboratoriya mashg‘ulotlariga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

Raqamli vosita	Ta’limiy imkoniyati
Raqamli mikroskop	Mikroskopik tasvirni umumiy ekranda kuzatish
Virtual laboratoriya	Tajribani xavfsiz raqamli muhitda modellashtirish
Videodars	Laboratoriya jarayonini bosqichma-bosqich ko‘rsatish
QR-kod	Elektron yo‘riqnomaga tezkor kirish
Elektron test	Bilimni tezkor baholash
Interaktiv doska	Mikroorganizmlar tasvirlarini ko‘rgazmali namoyish etish
Sun’iy intellekt	Qo‘shimcha tushuntirish va savol-javob
Elektron portfolio	Talabaning laboratoriya ishlarini tizimli saqlash

Ushbu vositalarning uyg‘unlashtirilishi natijasida laboratoriya mashg‘ulotlari faqat “tajribani bajarish” jarayonidan talabaning kuzatishi, tahlil qilishi, muhokama qilishi va xulosa chiqarishini nazarda tutuvchi faol ta’lim jarayoniga aylanishi mumkin.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, laboratoriyalarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash uchun moliyaviy resurslar talab etiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, internet va texnik infratuzilmani ta’minlash ham muhim masalalardandir.

Yana bir muhim jihat — raqamli texnologiyalar real laboratoriya tajribasining o‘rnini to‘liq egallamasligi kerak. Mikrobiologiya fanida talaba real mikroskop bilan ishlashi, laboratoriya jihozlarini tanishi, tajriba jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilishi va real tajriba natijalarini tahlil qilishi zarur.

Shuning uchun eng maqbul model — an’anaviy laboratoriya + raqamli texnologiyalar uyg‘unligidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Mikrobiologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamli va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish zamonaviy oliy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli mikroskoplar, virtual laboratoriyalar, multimedia materiallari, QR-kodlar, elektron testlar va sun’iy intellekt vositalaridan maqsadli foydalanish laboratoriya mashg‘ulotlarining ko‘rgazmaliligi, interaktivligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning asosiy afzalligi shundaki, ular mikrobiologik obyekt va jarayonlarni talaba uchun yanada tushunarli ko‘rinishga keltiradi. Ayniqsa, mikroskopik tasvirlarni katta ekranda namoyish etish, laboratoriya tajribalarini videolar va virtual modellar orqali oldindan o‘rganish hamda elektron topshiriqlar yordamida bilimlarni nazorat qilish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanish laboratoriya tajribalarini butunlay virtual muhitga ko‘chirishni anglatmasligi kerak. Mikrobiologiya fanining amaliy mohiyatidan kelib chiqib, real laboratoriya tajribasi va raqamli texnologiyalar o‘zaro uyg‘unlashtirilishi lozim.

Umuman olganda, mikrobiologiya laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamlashtirish talabalarda nafaqat fan bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki raqamli kompetensiya, mustaqil ta’lim olish, axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev Sh.R., Muhamedov I.M., Nuruzova Z.A. va boshq. Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 346 b.
2. Shapulatova Z.J. Mikrobiologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. – Toshkent: Ijod-Press, 2019. – 240 b.
3. Davranov Q.D. Mikrobiologiya. – Toshkent: “Dimal” nashriyoti, 2024. – 240 b.
4. Mirhamidova P., Vahobov A.H., Davranov Q., Tursunboyeva G. Mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2014. – 336 b.
5. Eshaboyev E.H. Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2005. – 343 b.
6. Zakirova Z.R. Mikrobiologiya fanidan laboratoriya uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2025. – 117 b.
7. Zakirova M.R., Egamova M.U. Oziq-ovqat mikrobiologiyasi (laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar uchun). – Toshkent: Ijod-print, 2019. – 144 b.

FIZIKANI O‘QITISH METODIKASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Saparova Gulmira Baxtiyorovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22871927

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim va oliy ta'lim tizimida fizika fanini o‘qitish jarayonini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish muammolari tahlil qilingan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari, interaktiv simulyatsiyalar, masofaviy ta'lim platformalari hamda sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalarining fizika ta'limi sifatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot davomida pedagogik eksperiment natijalari keltirilgan, raqamli vositalardan foydalangan va foydalanmagan guruhlar o‘rtasidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqola yakunida fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: fizika ta'limi, raqamli texnologiyalar, o‘qitish metodikasi, virtual laboratoriya, interaktiv simulyatsiya, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, kompetentsiyaviy yondashuv, STEAM ta'lim, sun'iy intellekt.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturlarida belgilangan vazifalarga muvofiq, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida tabiiy-matematik fanlarni, jumladan fizikani o‘qitish sifatini raqamli texnologiyalar asosida yangi bosqichga ko‘tarish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Fizika – tabiat hodisalarini o‘rganuvchi fundamental fan bo‘lib, uning o‘zlashtirilishi o‘quvchi va talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda, texnik va muhandislik yo‘nalishlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq an'anaviy o‘qitish metodikasi ko‘pincha nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashda, murakkab fizik jarayonlarni vizuallashtirishda, shuningdek, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda differensiallashtirilgan ta'lim berishda yetarli samara bermayapti.


Zamonaviy raqamli texnologiyalar – virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), interaktiv simulyatsiyalar, masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellektga asoslangan intellektual tizimlar, big data va ta'lim analitikasi vositalari – ushbu muammolarni bartaraf etishda katta salohiyatga ega. Ular yordamida o‘quvchilarga murakkab fizik jarayonlarni real vaqt rejimida modellashtirish, eksperimentlarni xavfsiz sharoitda takrorlash, individual o‘quv traektoriyasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Interaktiv simulyatsiya va modellashtirish dasturlari. Mexanika, elektr va magnetizm, optika, molekulyar fizika bo‘limlarini o‘rganishda PhET, Algodoo kabi dasturlar orqali fizik jarayonlarni vizual tarzda, parametrlarni real vaqtda o‘zgartirgan holda kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu, ayniqsa, real sharoitda kuzatib bo‘lmaydigan yoki xavfli hisoblangan tajribalarni (yuqori kuchlanishli elektr zanjirlari, yadro reaksiyalari) xavfsiz tarzda modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual va

kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari. Ushbu vositalar o‘quvchiga fizik hodisani uch o‘lchamli fazoda, "ichkarisidan" kuzatish imkonini beradi. Masalan, atom tuzilishi, elektromagnit maydon liniyalari, sayyoralar harakati kabi mavhum tushunchalarni AR ilovalari yordamida jonli tarzda ko‘rish o‘quvchining kontseptual tushunchasini sezilarli darajada chuqurlashtiradi. Masofaviy ta'lim platformalari va LMS tizimlari. Moodle, Google Classroom kabi tizimlar orqali o‘quv materiallarini tarqatish, uy vazifalarini nazorat qilish, o‘quvchilarning progressini kuzatib borish imkoniyati kengaymoqda. Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalari. So‘nggi yillarda adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quvchining bilim darajasiga qarab topshiriqlar murakkabligini avtomatik moslashtirish, xatolar tahlili asosida individual tavsiyalar berish imkoniyatini taqdim etmoqda.

Raqamli o‘lchov va ma'lumot yig‘ish vositalari (datalogging). Harorat, bosim, tezlanish kabi fizik kattaliklarni raqamli sensorlar orqali real vaqtda o‘lchash va grafik ko‘rinishda tahlil qilish o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, fizika o‘qituvchilari tomonidan darslarda qo‘llanilgan raqamli vositalarning nisbiy ulushi quyidagi diagrammada aks ettirilgan.


4-diagramma. Fizika darslarida qo'llanilgan raqamli vositalar tuzilishi (so'rovnoma, %)



2. Raqamli texnologiyalar asosida fizika darsini tashkil etish metodikasi

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, fizika darsini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning quyidagi metodik modeli ishlab chiqildi. Metodik model besh izchil bosqichdan iborat bo‘lib, ular quyidagi diagrammada sxematik tarzda tasvirlangan.

3-diagramma. Raqamli texnologiyalar asosida fizika darsini tashkil etish metodik modeli



Motivatsion-kirish bosqichi. Dars mavzusiga oid qiziqarli video-tajriba yoki interaktiv animatsiya orqali o‘quvchilarning e'tibori jalb qilinadi, muammoli vaziyat yaratiladi.

Nazariy-tushuntirish bosqichi. Yangi mavzu interaktiv taqdimotlar, simulyatsiyalar yordamida tushuntiriladi, mavhum fizik jarayonlar vizuallashtiriladi.


Amaliy-tadqiqot bosqichi. O‘quvchilar virtual laboratoriya vositalarida mustaqil yoki kichik guruhlarda tajriba o‘tkazadilar, parametrlarni o‘zgartirib, natijalarni kuzatadilar va xulosa chiqaradilar. Mustahkamlash va nazorat bosqichi. Onlayn test tizimlari (Kahoot, Quizizz, Google Forms) yordamida bilim darajasi tezkor baholanadi, natijalar asosida individual yondashuv ta'minlanadi. Refleksiya bosqichi. O‘quvchilar o‘zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayot va texnika bilan bog‘lab, mustaqil xulosalar chiqaradilar, elektron portfolio yoki loyiha ishlari orqali bilimlarini mustahkamlaydilar.

3. Pedagogik eksperiment natijalari

Eksperiment yakunida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan yakuniy test natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.


Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (n=45)	Nazorat guruhi (n=43)
"A'lo" baho olganlar	33,3%	16,3%
"Yaxshi" baho olganlar	42,2%	34,9%
"Qoniqarli" baho olganlar	20,0%	34,9%
"Qoniqarsiz" baho olganlar	4,5%	14,0%
O‘zlashtirish sifat ko‘rsatkichi	75,5%	51,2%

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning vizual tasviri quyidagi grafikda berilgan.



O‘zlashtirish sifat ko‘rsatkichining eksperimentning uchala bosqichi (boshlang‘ich, oraliq, yakuniy nazorat) davomidagi o‘zgarish dinamikasi quyidagi grafikda tasvirlangan.

2-grafik. O'zlashtirish sifat ko'rsatkichining eksperiment davomidagi dinamikasi



Statistik tahlil natijalari (Styudent t-mezoni bo‘yicha t=2,74, erkinlik darajasi p<0,05) tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning ishonchli, ya'ni tasodifiy emasligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, tajriba guruhida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 87 foizi raqamli vositalar yordamida fizikani o‘rganish jarayoni qiziqarli va tushunarli bo‘lganini, 79 foizi esa mavzuni chuqurroq anglab yetganini ta'kidladi. Shuningdek, tajriba guruhida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan motivatsiyasi, mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgani, laboratoriya ishlarini bajarishda xatoliklar soni kamaygani kuzatildi. Bu, ayniqsa, murakkab hisoblangan elektrodinamika va molekulyar-kinetik nazariya bo‘limlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2021.
4. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологиялар: моҳияти, тизими ва методологияси. – Тошкент, 2019.
5. Wieman C.E., Adams W.K., Perkins K.K. PhET: Simulations that enhance learning // Science. – 2008. – Vol. 322. – P. 682–683.
6. Podolefsky N.S., Perkins K.K., Adams W.K. Factors promoting engaged exploration with computer simulations // Physical Review Special Topics – Physics Education Research. – 2010.
7. Dede C. Immersive interfaces for engagement and learning // Science. – 2009. – Vol. 323. – P. 66–69.
8. Xolmatov M.T. Fizikani innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

INGLIZ TILI TALAFFUZINING NUTQ AKTLARIGA ASOSAN FONOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi
Katta o‘qituvchi, University of economics and pedagogy NOTM
Mustaqil izlanuvchi, O‘zbekiston davlat jahontillari universiteti
satimboyevaonorxon@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22871962

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tili talaffuz birliklarining nutq aktlariga asosan qanday fonopragmatik ma’no anglatishlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek Maqolada intonatsiya, urg‘u, temp, pauza, melodiya va tembr kabi suprasegment vositalarning nutq aktlarining illokutiv kuchini belgilashdagi roli yoritilgan bo‘lib Jon Ostin va Jon Serl tomonidan asos solingan nutq aktlari nazariyasiga tayangan holda, direktiv, komissiv, ekspressiv, assertiv va deklaratsion nutq aktlarining o‘ziga xos fonopragmatik profillari tahlil qilingan.*

Tadqiqotda ingliz tilida bir xil leksik-grammatik tarkibga ega bo‘lgan sintaktik qurilmalar turli fonopragmatik markerlar ya’ni ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishi orqali mutlaqo qarama-qarshi nutq aktlarini shakllantirishi mumkinligi isbotlangan. Xususan, buyruq va iltimos, va’da va tahdid, samimiy minnatdorchilik va rasmiyatchilik kabi nutq aktlari o‘rtasidagi farqlar ko‘pincha so‘z darajasida emas, balki intonatsion kontur darajasida hal bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *direktiv, komissiv, ekspressiv, assertiv va deklaratsion nutq aktlari, intonatsiya, urg‘u, temp, to‘xtam.*

Abstract. *This article examines the phonopragmatic meanings conveyed by English pronunciation units within the context of speech acts. It highlights the role of suprasegmental features—such as intonation, stress, tempo, pause, melody, and timbre—in determining the illocutionary force of speech acts. Drawing on speech act theory established by John Austin and John Searle, the article analyzes the distinct phonopragmatic profiles of directive, commissive, expressive, assertive, and declarative speech acts.*

The study demonstrates that English syntactic structures sharing identical lexico-grammatical content can give rise to diametrically opposed speech acts through the use of different phonopragmatic markers, specifically rising or falling intonation. In particular, it shows that distinctions between speech acts—such as commands versus requests, promises versus threats, and sincere gratitude versus mere formality—are often determined not at the lexical level, but at the level of intonational contours.

Keywords: *directive, commissive, expressive, assertive, and declarative speech acts; intonation, stress, tempo, pause.*

Zamonaviy tilshunoslikda tildagi lisoniy birliklarga nisbatan faqat tizimli-strukturaviy belgilar sifatida qarash jihatdan o‘rganish davri ortda qolib, endilikda tilni muloqot jarayonida, ya’ni diskurs va nutqiy faoliyat kontekstida tadqiq etish yetakchi yo‘nalishga aylanmoqda. Bu borada esa pragmalingvistika va fonetika kesishuviga asosan yuzaga kelgan fonopragmatika sohasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fonopragmatika bu nutqiy jarayonda so‘zlovchining kommunikativ maqsadini, uning tinglovchiga ko‘rsatmoqchi bo‘lgan ta’sirini va his-tuyg‘ularini

ifodalashda ishtirok etuvchi suprasegment vositalar (intonatsiya, urg‘u, temp, melodiya, pauza) ning rolini o‘rganuvchi tilshunoslikning bir sohasi hisoblanadi.

Bu borada gapdagi intonatsiya, urg‘u, temp hamda pauzalar sezilarli ahamiyatga ega bo‘lib, ular ingliz tili talaffuz tizimida shunchaki grammatik ma’noni shakllantirish yoki gap turlarini farqlash (darak, so‘roq, buyruq) bilan cheklanib qolmaydi. Ular shuningdek nutq aktlarining illokutiv kuchini belgilashda boshqaruvchi mexanizm vazifasini o‘tashga xizmat qiladi. Jon Ostin va Jon Serl tomonidan asos solingan nutq aktlari nazariyasiga asosan esa, har bir aytilgan gap ma’lum bir harakatni ya’ni va’da berish, buyruq berish, ogohlantirish, uzr so‘rash kabilarni ifodalaydi. Ingliz tilida mazkur nutqiy harakatlarning muvaffaqiyati esa ko‘p jihatdan segment va suprasegment birliklarning fonopragmatik jihatdan to‘g‘ri tanlanishiga ham bog‘liq hisoblanadi.

Nutq aktining illokutiv maqsadi va undagi fonopragmatik vositalar o‘rtasida uzviy dialektik aloqalar ham mavjud bo‘lib bir xil leksik va grammatik tarkibga ega bo‘lgan sintaktik qurilma turli fonopragmatik markerlar ya’ni belgilar orqali ya’ni ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishi yordamida mutlaqo qarama-qarshi nutq aktlarini ham shakllantirishi mumkin.

Ingliz tili fonetik holatiga ko‘ra, fonopragmatik xususiyatlar quyidagi komponentlar evaziga amalga oshadi. Bularga melodik yo‘nalish ya’ni ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishi muloqotdagi pragmatik kichik matnlarni (shubha, ishonch, qat’iyat) yuzaga chiqaradi. Shuningdek, nutq tempi ya’ni tezlashgan yoki sekinlashgan nutq so‘zlovchining psixologik holatini va nutq aktining muhimlik darajasini ko‘rsatadi. Keyingi komponent esa pauza ya’ni emotsional va mantiqiy pauzalar tinglovchining diqqatini jalb qilish hamda illokutiv maqsadni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Tembr va ovoz balandligi ham katta ahamiyat kasb etadi, ya’ni qo‘pollik, muloyimlik, rasmiylik kabi pragmatik kategoriyalarni modellashtiradi.

Nutq aktlari borasidagi Jon Serl tasnifiga ko‘ra, nutq aktlarining har bir turi o‘ziga xos fonopragmatik profilga ega hisoblanadi. Direktiv nutq aktlari (buyruq, iltimos, talab, maslahat) nomidan ham bilinib turgan holda tinglovchini biror-bir harakatni bajarishga undashni maqsad qiladi. Ingliz tilida buyruq va iltimos o‘rtasidagi chegara nafaqat talaffuzida balki, madaniyatida ham ko‘pincha so‘z darajasida emas, balki intonatsiya darajasida hal bo‘ladi.

Buyruq ohangida keskin pasayuvchi ton ya’ni high fall yetakchilik qiladi. Bu ton esa so‘zlovchining yuqori statusini va nutq aktining qat’iyligini anglatadi. Masalan: “Sit down!” [\Sit \down]. Bu yerda ohangning keskin pasayishi tinglovchiga e’tiroz bildirishga imkon qoldirmagan. Agar bu gap past pasayuvchi ton ya’ni low fall) bilan talaffuz qilinsa, u sovuq va rasmiy buyruqqa aylanadi.

Iltimos nutq aktlarida esa ingliz tilida ko‘tariluvchi ton ya’ni low rise yoki fall-rise) qo‘llaniladi. Bu fonopragmatik marker tinglovchiga tanlov imkoniyatini qoldiradi va muloyimlik pragmatik kategoriyasini ta’minlaydi. Masalan: “Open the window, please.” [\Open the /window, please] fall-rise (pasayib-ko‘tariluvchi) ohangi iltimosning samimiyligini hamda diplomatik xarakterini ko‘rsatadi. Agar leksik jihatdan *“please”* so‘zi ishlatilsa-yu, lekin u qat’iy high fall bilan aytilsa, nutq akti pragmatik jihatdan iltimos emas, balki yashirin buyruq yoki kesatiq ma’nosiga aylanadi.

Shuningdek Ingliz tili diskursida imperativ ya’ni buyruq gaplar strukturaviy jihatdan verbal dominantlik, ya’ni yetakchi fe’lning gap boshida kelishi hamda intonatsion jihatdan pasayuvchi ya’ni falling yoki ko‘tarilib-pasayuvchi rise-fall ton bilan xarakterlanadi. Biroq, imperativ va interrogativ ya’ni so‘roq konstruksiyalarning funksional-semantik chatishuvi natijasida yuzaga keluvchi gibrid gaplarda esa ohang o‘zgarish holatlari kuzatiladi. Masalan,

"Found anything interesting yet? My word, damn fine show. Carry on, chaps" kabi nutqiy namunalarda so‘roq va buyruq modalligining sintezi fonopragmatik ma’no ko‘chishini ya’ni illokativ maqsadning transformatsiyasini yuzaga keltirib, so‘zlovchining emotsional-ekspressiv munosabatini va nutqiy situatsiyaga adaptatsiyasini ta’minlashga xizmat qilgan.

Komissiv nutq aktlari asosan so‘zlovchining kelajakda biror ishni bajarish majburiyatini ya’ni va’da, qasamyod va tahdidni ifodalaydi. Va’da berishda samimiylikni aks uchun ingliz tilida odatda silliq, o‘rtacha muvozanatlashgan ohang tizimi qo‘llaniladi. Biroq, tahdid nutq aktida esa fonopragmatik manzara tubdan o‘zgaradi. Masalan: “If you do that again, you'll be sorry.” Bunday nutq aktida gapning birinchi qismida (shart qismida) keskin High Rise ya’ni yuqori ko‘tarilish, ikkinchi qismida esa chuqur low fall past pasayish holati kuzatiladi. Nutq tempi esa sekinlashadi, har bir so‘z ta’kidli urg‘u bilan aytiladi. Bu esa tinglovchida xavf hissini uyg‘otishga qaratilgan pragmatik strategiya hisoblanadi va uning anglashilishida fonologik jarayon ishtirok etadi.

Ekspressivlar so‘zlovchining ruhiy holatini ifodalashga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bunda ko‘proq minnatdorchilik, uzr so‘rash, tabriklash, hamdardlik kabi hissiyotlar o‘z aksini topadi. Ushbu nutq aktlarida fonopragmatika asosiy yukni o‘z zimmasiga oladi, chunki mexanik tarzda aytilgan “I am sorry” gapi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Ekspressiv nutq aktlaridan uzr so‘rash haqiqiy, samimiy uzr so‘rash aktida ingliz tilida fall-rise ohangi va past ovoz diapazoni foydalaniladi. Ohangning keng diapazonda o‘ynashi esa so‘zlovchining pushaymonligini ko‘rsatadi. Minnatdorchilik ekspressiv nutq aktiga kelsak, “Thank you” iborasi agar oddiy low fall bilan aytilsa, bu shunchaki rasmiyatchilik yoki loqaydlikni anglatadi. Agar u high fall yoki hearty rise bilan talaffuz etilsa, chin dildan minnatdorchilik nutq akti yuzaga keladi.

Ingliz tili diskursida ekspressiv nutq aktlarining reallashuvi ko‘pincha sifat birliklarning semantik salmog‘i va ularning prosodic xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Leksik-semantik jihatdan ijobiy konnotatsiyaga ega bo‘lgan sifatlar odatda ko‘tariluvchi ya’ni rising, salbiy konnotatsiyali sifatlar esa pasayuvchi ya’ni falling intonatsion kontur orqali dominantlik kasb etadi. Biroq, emotsionallik darajasi yuqori bo‘lgan kontekstlarda prognoz qilinmagan ya’ni kutilmagan semantik yukni ifodalash uchun intonatsion amplituda keskin o‘zgarishi ham mumkin. Xususan, *“A woman gave Sara an official letter implying the animal could be suffering from a rare form of mouth disease, which was surprising because normally one would only expect to see a dog or a goat”* o‘tilgan nutqiy vaziyatda subyektning intonatsion drayvi *“which was surprising”* sintagmasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu parentetik konstruksiya ya’ni kiritmaning baland ohang registry orqali akustik modifikatsiyaga uchrashi so‘zlovchining pragmatik munosabatini – hayrat va kognitiv dissonans hissini ekspressiv-kuchaytiruvchi funksiyada namoyon etadi.

Ingliz tilidagi nutqiy muloqot tizimida emotsional-sensor leksika ya’ni his-tuyg‘uni ifodalovchi so‘zlar semantikasi va ularning fonetik realizatsiyasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri prosodik korrelyatsiya kuzatiladi. Intonatsion konturning shakllanishi muayyan leksemaning denotativ va konnotativ ma’nosiga, ya’ni u ifodalayotgan emotsiya tipiga ya’ni stenik yoki astenik xarakteriga bog‘liq hisoblanadi. Xususan, gipostetik holatlar ya’ni depressiya, tushkunlik, g‘amginlik astenik his-tuyg‘ular silsilasiga kirib, nutqda ohang registrining pasayishi ya’ni low pitch hamda pasayuvchi ya’ni falling ton bilan xarakterlanadi. Buning aksi o‘laroq, giperstetik ya’ni hayajon, quvonch kabi emotsiyalar yuqori akustik amplituda bilan reallashadi.

Ushbu qonuniyat kontekstual tahlilda ham o‘z ifodasini topadi: *“A woman gave Sara an official letter implying the animal could be suffering from a rare form of mouth disease, which*

was surprising because normally one would only expect to see a dog or a goat. Sara was sentimental”. Mazkur diskursiv parchada qo‘llangan *“sentimental”* leksemasi subyektning kognitiv va psixologik holatini — kutilmagan xabardan ta’sirlanish, xavotir hamda ma’yuslik modalligini ochib berishga xizmat qilgan. Bu kabi astenik affektlar ta’sirida ushbu leksemaning pasayuvchi ohang dinamikasida (low-falling tone) talaffuz etilishi nutqning fonopragmatik jozibasini hamda so‘zlovchi ichki kechinmalarining ekspressiv interpretatsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Ingliz tili diskursida so‘zlovchining sodir bo‘lgan voqea-hodisalarga nisbatan subyektiv-baho munosabatini ifodalashida sifat birliklardan oldin keluvchi daraja ko‘rsatkichlari – intensifikatorlarning prosodik jihatdan alohida bo‘yoqlanishi muhim pragmatik funksiyani bajaradi. Ushbu modifikatorlar muloqot jarayonida fonetik jihatdan yuqori ohang registri va mantiqiy urg‘u bilan ajratilib, axborotning ekspressiv semantikasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur qonuniyat quyidagi nutqiy parchada o‘z ifodasini topadi: *"Well, here is a story for you: Sara Pari was a veterinary nurse who had been working daily in an old zoo in a deserted district. [...] So she was very happy starting a new job in a private practice... "*. Ushbu kontekstda daraja bildiruvchi *“very”* so‘zi *“happy*” sifati oldidan kelib, lokutsiyaning umumiy fonetik konturida intonatsion cho‘qqini yuzaga keltirgan. Bu kabi prosodik urg‘u so‘zlovchining subyektiv daxldorligini bo‘rttirib ifodalash, tinglovchining diqqatini muayyan hissiy holatga yo‘naltirish hamda voqelikning pragmatik salmog‘ini oshirishga xizmat qilgan fonopragmatik marker hisoblanadi.

Ingliz tili spontan nutqida so‘zlovchining subyektiv-baholovchi va emotsional munosabatini ifodalashda sifat birliklar oldidan keluvchi *“so”, “too”, “very’* kabi advebial intensifikatorlar ya’ni daraja-miqdor ko‘rsatkichlari markaziy o‘rin tutadi. Ushbu leksik birliklar diskursiv zanjirda nafaqat semantik, balki keskin prosodik modifikatsiya vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Nutq traektoriyasida odatda bir tekis, neytral ohang fonida ushbu intensifikatorlar qo‘llanganda intonatsion amplitudaning to‘satdan yuqoriga sakrashi kabi holatlar ham kuzatiladi.

Mazkur prosodik fenomen quyidagi eksperimental namunada aniq aks etgan: *“People attempting to imitate middle-class English are so prone to making it... are too plummy and a bit nasal, which is more typical of an aristocratic accent”* Ushbu kontekstda *“so”* va *“too”* modifikatorlarining akustik jihatdan lokal ravishda kuchaytirilishi va baland ohang registri (high pitch) orqali alohida belgilanishi muloqotning ekspressiv funksiyasini faollashtiradi. Bu kabi dinamik ohang o‘zgarishi subyektning voqelikka nisbatan bo‘rttirilgan ya’ni giperbolik hissiy munosabatini ifodalab, tinglovchi idrokini yashirin illokativ maqsadga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi invariant fonopragmatik marker bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz tili spontan nutqida toponimik atoqli otlar ya’ni joy nomlari lokutsiyaning sintaktik va semantik tuzilishida ko‘pincha rematik dominantlik kasb etadi. Bu turdagi leksik birliklar gapdagi boshqa komponentlarga nisbatan yuqori akustik intensivlik, keng ohang diapazoni va mantiqiy urg‘u bilan xarakterlanadi. Prosodik jihatdan bunday markerlash muloqot jarayonida axborot markazini ya’ni information fokusni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu fenomen quyidagi nutqiy parchada yaqqol kuzatilgan: *“My father, who was a diplomat, hailed from Cornwall, and my mother from Berkshire. Neither of them had regional dialects. I was dispatched to boarding school in Surrey, in Southeast England”*. Mazkur diskursiv kontekstda *“Cornwall”*, *“Berkshire”*, *“Surrey”* va *“England”* toponimlarining yuqori

ohang registri ya’ni high pitch orqali akustik modifikatsiyaga uchrashi tinglovchiga voqelik sodir bo‘lgan geografik makon haqidagi birlamchi va eng muhim lokal axborotni muvaffaqiyatli yetkazish maqsadini ko‘zlaydi. Bu kabi fonetik urg‘u lisoniy muloqotda kognitiv adresatni makon koordinatalariga yo‘naltiruvchi invariant fonopragmatik marker vazifasini bajargan.

So‘zlovchining biror fakt yoki holatga bo‘lgan ishonchini, xabardorligini tasdiqlash, inkor etish, ma’lumot berish kabilarni ifodalovchi nutq aktlari assertive nutq aktlari hisoblanadi. Ingliz tilida ma’lumotni neytral yetkazish uchun odatda tushuvchi ohang qo‘llaniladi. Biroq, agar so‘zlovchi o‘z fikrining mutloqligiga shubha qilsa yoki tinglovchining reaksiyasini tekshirmoqchi bo‘lsa, fonopragmatik jihatdan gap oxirida ohang yuqoriga qarab yo‘nalish holatlari ham kuzatiladi. Masalan:”The meeting starts at five.” Ushbu misolda neytral xabar – fall ya’ni tushuvchan ohangda qo‘llanilsa, “The meeting starts at five?” Shubha yoki tasdiqlashni talab qilish ma’nosida esa ko‘tarilish ohangida talaffuz qilinadi.

Ingliz tili og‘zaki diskursida voqea-hodisalar rivojini xronologik tartibda ifodalash va matndagi ko‘p xillikni ta’minlashda kirish birliklari, ya’ni diskursiv markerlar muhim kompozitsion vazifani bajaradi. Ushbu birliklarning fonetik realizatsiyasi ularning matndagi xronotopik funksiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, lokal prosodik konturning shakllanishiga zamin yaratadi. Xususan, suhbatning boshlanishini ko‘rsatuvchi initsial markerlar ya’ni *“firstly”, “first of all”, “at the beginning”*kabi leksik birliklar tinglovchining diqqat-e’tiborini jalb qilish uchun yuqori akustik intensivlik va keskin ko‘tariluvchi ya’ni rising ohang toni bilan xarakterlanadi. Voqelikning keyingi bosqichini ko‘rsatuvchi kontinuativ markerlar ya’ni *“after that”, “then”, “next”* esa diskursiv davomiylikni ta’minlash maqsadida tematik pauzalar hamda vokal cho‘ziqlik asosida reallashadi.

Mazkur dinamik holat korpus tahlilida ham o‘z ifodasini topadi: *“First she tried gently stroking the goose's lower back with her palm, then singing a tune to her. Finally she administered either”.* Ushbu sintaktik butunlikda har bir diskursiv marker o‘z semantik-pragmatik yukiga muvofiq differensial ohang konfiguratsiyasiga ega: *“First”* boshlang‘ich konnektori progressiv ko‘tariluvchi ohang bilan vaziyat startini belgilasa; *“then”* tranzit elementi kontinuativ dinamikani aks ettirib, o‘rtacha ko‘tariluvchi ohang bilan talaffuz qilingan; *“finally’* yakunlovchi markeri esa narrativning tugallanganligini ko‘rsatish uchun aniq pasayuvchi intonatsion konturga ega. Bu kabi prosodik gradient matndagi xronologik ketma-ketlikni lingvistik sathdan fonopragmatik sathga olib chiqib, tinglovchi kognitiv tizimida voqelik skriptini tartibli shakllantirishga xizmat qiladi.

Ingliz tili diskursida tartib sonlar ya’ni ordinal numerals pragmatik va prosodik jihatdan alohida differensial xususiyatga ega bo‘lib, matn shakllanishida mantiqiy-semantik urg‘u ya’ni logical-semantic focus vazifasini bajaradi. So‘zlovchi nutqiy intentsiyani samarali yetkazish hamda voqea-hodisalar xronologiyasini qat’iy fiksatsiya qilish maqsadida *first, second, third* kabi leksemalarni fono-akustik jihatdan ustun ya’ni balandroq va qat’iy ohangda talaffuz etadi.

Masalan, *“Even though on her first morning she felt stressed, she ate a ball of porridge, checked herself in the mirror, washed up her face in a hurry”* gapida *first* tartib soni konseptual aktuallashuv markazida turganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu mikromatnda mazkur son nafaqat xronologik tartibni ifodalagan, balki fonopragmatik va matn hosil qiluvchi (text-forming) funksiyani ham bajargan. Ya’ni, so‘zlovchi prosodik vositalar yordamida dinamik jarayonning aynan shu nuqtadan boshlanganini alohida ta’kidlagan holda tinglovchining diqqatini asosiy voqelik motiviga yo‘naltirgan.

Ingliz tili nutqiy diskursida xronologik tartibda ketma-ket sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni bayon etishda prosodik vositalar, xususan, intonatsion bir xillik va unifikatsiyalashgan ohang dinamikasi muhim o‘rin tutadi. Vaqt mezoniga ko‘ra ketma-ketlikni ifodalovchi ushbu sintaktik birliklar nutqiy oqimda fono-akustik jihatdan teng muvozanatlashgan ton va barqaror registrlar orqali realizatsiya qilinadi.

Ushbu holatni *“Even though on her first morning she felt stressed, she ate a ball of porridge, checked herself in the mirror, washed up her face in a hurry”* mikromatni misolida kuzatishimiz mumkin. Berilgan ko‘p qismli qo‘shma gap tarkibidagi predikativ birliklar eksplitsit ya’ni ochiq tarzda kon’yunktiv vositalarsiz, faqatgina tekis va unifikatsiyalashgan intonatsiya yordamida o‘zaro birikkan. Gap qismlari orasidagi sintaktik va semantik aloqa teng miqdorda taqsimlangan pauzalar orqali neytrallashgan. Natijada, ushbu prosodik tuzilma voqealarning parallel hamda izchil davomiyligini ko‘rsatuvchi fonopragmatik ma’no va funksional relevantlikni kasb etgan.

Ingliz tili sintaktik tizimida qo‘shma gap tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘lovchilar yordamida birikishi sindetik va prosodik vositalarning sinergetik aloqadorligi asosida yuzaga keladi. Xususan, ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida keluvchi *when* leksemasining interrogativ ya’ni so‘roq funksiyasidan uzilib, subordinatsiya ya’ni tobe bog‘lanish munosabatini shakllantiruvchi bog‘lovchi vositaga transformatsiyalashuvi diskursiv jihatdan o‘ziga xos akustik xususiyatlarni namoyon etadi. Mazkur tarkibiy birlik sintaktik strukturaning inisial ya’ni boshlanish pozitsiyasida kelganda, u aksentual va intonatsion jihatdan alohida aktuallashadi.

Ushbu qonuniyatni *“When she got there, there was a woman with a goose waiting for her”* mikromatni misolida tahlil qilish mumkin. Gap boshida kelgan *when* subordinatori intonatsion konturning ko‘tariluvchi toni (rising tone) bilan modulyatsiyalansada, u nutqiy oqimda izolyatsiyalanmaydi, aksincha, sintagmatik jihatdan o‘zi mansub bo‘lgan predikativ qism bilan intensiv fono-akustik qo‘shilib talaffuz etilishni hosil qiladi. Natijada, ushbu prosodik intensivlik va intonatsion yaxlitlik matnda temporal ya’ni vaqt munosabatlarini kuchaytirishga, xabarning axborot sig‘imini oshirishga va spetsifik fonopragmatik ma’noning reallashuviga xizmat qiladi.

Ingliz tili diskursiv amaliyotida nisbiy ergash gaplar ya’ni relative clauses qo‘shimcha va periferik axborotni sintaktik struktura tarkibiga integratsiya qilishning muhim funksional-semantik vositasi hisoblanishi barchaga ma’lum. Matnga bunday ekspozitsion birliklarning kiritilishi esa nutq oqimining chiziqli dinamikasini modifikatsiyaga uchratib, intonatsion konturning vertikal yo‘nalishda keskin o‘zgarishiga, ya’ni ton registrining ko‘tarilishi yoki pasayishiga olib keluvchi jarayon hisoblanadi.

Ushbu prosodik qonuniyatni quyidagi mikromatn misolida ham tahlil qilish mumkin: *“I was born in 1942 in Salusbery of England which is south-west and I was there because my father was in the army during the war and the Salusbery is a plane where is all the military training went on and still does.”*. Mazkur sintaktik butunlikdagi *which* subordinatoridan oldin pre-pauza kuzatilib, nisbiy ergash gap tarkibida akustik tonning qisman ko‘tarilishi holati reallashadi.

Biroq nisbiy va atributiv konstruktsiyalarning barchasini ham nutq oqimida bir xil prosodik statusga ega deb bo‘lmaydi. Masalan, ushbu kontekstning davomida kelgan va *where* nisbiy olmoshi orqali bog‘langan atributiv qism dzyunktura qonuniyatiga ko‘ra hech qanday fiksatsiyalangan pauzalarsiz va qo‘shimcha modulyatsiyalarsiz, tekis fonetik rejimda ya’ni flat intonationda asosiy matn oqimiga sinkretik tarzda birikib ketgan. Bu holat ingliz tili sintaktik

birliklarida restriktiv ya’ni cheklovchi va norestriktiv ya’ni tavsiflovchi nisbiy ergash gaplarning differensial fonopragmatik xususiyatlarini belgilashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili spontan nutqiy diskursida polipredikativ ya’ni ko‘p qismli sintaktik butunliklar tarkibidagi teng huquqli komponentlarning fono-akustik realizatsiyasi o‘ziga xos konstitutiv xususiyatlarga ega. So‘zlovchi tomonidan retrospektiv narrativ ya’ni o‘tmishdagi voqealar bayonining zanjirini shakllantirish jarayonida har bir predikativ blokning yakuniy qismi unifikatsiyalashgan terminal ton hamda segmentar darajadagi sintagmatik oxirgi urg‘u (phrasal/nuclear stress) bilan modulyatsiyalanadi. Mazkur akustik hodisa so‘zlovchining uzatilayotgan axborot bloklarini tugallangan va to‘liq semantik invariant sifatida tinglovchiga yetkazish borasidagi nutqiy intentsiyasini aks ettirib, pragmatik jihatdan kommunikativ makonni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi fonopragmatik ma’nonini yuzaga keltiradi.

Ushbu lingvistik qonuniyatni quyidagi diskursiv parcha misolida kuzatish mumkin: *“I was born in Hongkong, and I lived there for a year, so I don’t remember anything about it then I went to move Bahrain to Middle East for four years, Then I moved to Antigua in the west Indies for three years then I moved to St.Lucia, which is also in the west Indies, that was very short”*. Mazkur ko‘p qismli murakkab sintaktik konstruktsiyaning har bir komponenti, makon va vaqt koordinatalarining o‘zgarishiga qaramay, intonatsion konturning pasayuvchi yakuniy toni orqali realizatsiya qilingan. Gap tarkibidagi predikativ birliklarning har biri mustaqil kommunikativ va intonatsion yaxlitlik kasb etib, umumiy polipredikativ zanjirda axborotning interpretatsion izchilligini va semantik tugallanganligi haqidagi fonopragmatik ma’noni ta’minlamoqda.

Deklaratsiyalar ya’ni hukm chiqarish, urush e’lon qilish, nom berish kabilar institutlar va ijtimoiy qonunlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ko‘pincha rasmiy va qat’iy fonetik qoliplarga ega hisoblanadi. Bu yerda nutq tempi me’yorlashtirilgan bo‘ladi, ritm tekis, har bir bo‘g‘in aniq talaffuz qilinadi. Ohang asosan markazlashtirilgan Low Fall ko‘rinishida bo‘ladi, bu jarayon esa nutqqa institutsional salmoq va qonuniy kuch bag‘ishlaydi.

Nutq jarayonida leksik-sintaktik daraja bilan fonopragmatik daraja o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelish holatlari ham mavjud. Bu holat tilda piching, kesatiq (irony, sarcasm) va yashirin ma’nolarni yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ingliz tilida istehzo va piching bilan aytilgan nutq aktlarida quyidagi fonopragmatik markerlar kuzatilish holatlari mavjud, ya’ni nutq tempining keskin sekinlashishi va cho‘ziq unlilar; ovoz tembrining monotonlashishi; ohang kontrastlarining sun’iy ravishda oshirilishi.

Masalan, biron bir yomon bajarilgan ishga nisbatan aytilgan *“Great job!”* reprezentativ nutq akti, agar u cho‘ziq unlilar va tekis-past ohang bilan talaffuz qilinsa, uning illokutiv kuchi teskari tomonga o‘zgaradi va u tanqidiy ya’ni kesatiq nutq aktiga aylanadi. Bu holat fonopragmatika til tizimidagi pragmatik ma’noni aniqlashda yakuniy hakam ekanligini yana bir bor isbotlashiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Ingliz tilida so‘zlashuvchilarning spontan nutqiy diskursida *and* subordinatorining (bog‘lovchisining) fono-akustik realizatsiyasi o‘ziga xos pragmatik va integrativ xususiyatlarni bayon etadi. Sintaktik sathda mazkur bog‘lovchi turli leksik birliklarni o‘zaro biriktirish vazifasini bajarsa-da, prosodik sathda ko‘p hollarda reduksiyaga ya’ni akustik kuchsizlanishga uchrab, nutqiy oqimda “akustik ko‘rinmaslik” ya’ni acoustic reduction yoki elision holatini yuzaga keltiradi. So‘zlovchi tomonidan *and* leksemasining to‘liq fono-akustik shaklini eksplitsit ya’ni ochiq talaffuz etmasdan, qo‘shni segmentlar bilan sinkretik tarzda ulab ketilishi diskursning chiziqli dinamikasini tezlashtirishga xizmat qiladi. Natijada, ushbu prosodik eliziyaning asosi bo‘lgan dzyunktura hodisasi axborot bloklarining uzluksiz va yaxlit

interpretativ zanjirini hosil qilib, voqea-hodisalar rivojining bir butunligini ta’kidlovchi o‘ziga xos fonopragmatik ma’noni reallashuvini ta’minlaydi.

Ushbu qonuniyatni quyidagi mikromatn misolida ham kuzatishimiz mumkin: *“And then at the age of eleven I moved to Northern Ireland and had lived there.”* Mazkur sintaktik butunlikda kontekstual bog‘liqlikni hosil qiluvchi *and* bog‘lovchisi fono-akustik jihatdan minimal darajada talaffuz qilinib, keyingi keluvchi temporal va predikativ elementlar tarkibiga fonetik dzyunktura ya’ni qo‘shilib ketish qonuniyatiga ko‘ra integratsiyalashgan. Bu esa so‘zlovchining nutqiy oqimdagi axborot intensivligini saqlash va xabarning dinamik mohiyatini tinglovchi idrokiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirish kabi fonopragmatik maqsadni aks ettiradi.

Avvalgi kontekstda ko‘rib chiqilgani kabi reduksiya holatining aksincha, ingliz tili spontan nutqiy diskursida *and* subordinatorining fono-akustik jihatdan alohida aktuallashuvi, ya’ni uning cho‘zib talaffuz qilinishga uchrashi va mustaqil intonatsion urg‘u olish holatlari ham kuzatiladi. Prosodik sathda mazkur bog‘lovchining kuchli pozitsiyada namoyon bo‘lishi hamda undan keyin keluvchi fiksatsiyalangan diskursiv pauza so‘zlovchining kognitiv-baho faoliyatini aks ettiradi. Bu holatda prosodik vositalar nutq oqimida xabarni eslash, axborotni kognitiv qayta ishlash yoki keyingi voqealar rivojini rejalashtirish jarayoni kechayotganini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos fonopragmatik ma’noni shakllantiradi.

Ushbu lingvistik hodisani quyidagi mikromatn misolida tahlil qilish mumkin: *“And…. I teased a lot for because of my accent because I was Irish but I had this very posh accent, used to be much, much posher”*. Mazkur nutqiy parchaning boshlanish pozitsiyasida kelgan *and* bog‘lovchisi prolongetsiya qilinishi natijasida cho‘zilgan tempor-ritmik o‘lchov kasb etgan va undan so‘ng davomli nutqiy to‘xtam yuzaga kelgan. Ushbu prosodik model so‘zlovchining retrospektiv xotira jarayonini aktuallashtirib, tinglovchining diqqatini keyingi keluvchi hissiy-emosional va avtobiografik axborot blokiga ya’ni ijtimoiy status va aksent muammosiga tayyorlash borasidagi ekspressiv-fonopragmatik ma’nosini reallashishiga xizmat qiladi.

Ingliz tili nutqiy diskursida adversativ ya’ni zidlov munosabatini shakllantiruvchi kon’yunktiv vositalar (*but, however, although, though, even though*) matnning fonopragmatik arxitektonikasini belgilashda muhim modulyativ funksiyani bajaradi. Mazkur bog‘lovchilar orqali birikkan polipredikativ strukturalar semantik-pragmatik sathda kontrastlik ya’ni ijobiy-salbiy yoki aksincha qonuniyatiga asoslansa, prosodik sathda o‘ziga xos antonimik intonatsion modellar vositasida reallashadi.

Ushbu qonuniyatni quyidagi diskursiv parcha misolida kuzatish mumkin: *“Even though it was her first morning, she ate a ball of porridge, checked herself in the mirror, washed her face in the mirror and she put on a yellow dress and fleece jacket, picked up her kit and headed for work. But she got there, there was a woman with a goose waiting for her* [27]*”*.Mazkur mikromatnda *even though* subordinatorining boshlang‘ich predikativ qismida intonatsion konturning ko‘tariluvchi toni faollashgan bo‘lib, ushbu fono-akustik intensivlik sintaktik to‘xtamga ya’ni vergulgacha bo‘lgan chegaraga qadar davom etadi. Gapning davomiy qismida esa ton registrining keskin pasayishi va intonatsion neytrallashuv kuzatiladi. Xuddi shunday prosodik transformatsiya *but* adversative bog‘lovchisi bilan bog‘langan segmentda ham reallashadi: bog‘lovchi ishtirok etgan boshlang‘ich sintagma yuqori registrda aktuallashib, yakuniy predikativ blokda pasayuvchi terminal ton orqali yakunlanadi. Ushbu bipolyar ohang modulyatsiyasi so‘zlovchining nutqiy voqelikka nisbatan sub’ektiv-baho munosabatini hamda

[27] https://www.dialectsarchive.com/england-63

implitsit ya’ni yashirin pragmatik intentsiyasini aks ettiruvchi fonopragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov, A. A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 136 b.
2. Couper-Kuhlen, E. Pragmatics and prosody: prosody as social action // Foundations of Pragmatics. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2011. – 725 p.
3. Hakimov, M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi / M. Hakimov // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2001. – № 4. – B. 54–57.
4. Hasanova, G. X. Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari / G. X. Hasanova // O‘zbekiston: Til va madaniyat. – 2021. – № 1. – B. 21–24.
5. Jumayeva, M. B. Pragmalingvistika va uning tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari bilan aloqalar / M. B. Jumayeva // "Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – 2024. – B. 143–146.
6. Khayitbaev, O. Sh. An Analysis of Uzbek Students' Difficulties in Pronouncing English Consonants and Vowels: Master's Thesis. – Chonnam National University, 2024. – 67 p.
7. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
8. Yo‘ldosheva, M. Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Namangan, 2025. – 120 b.
9. Xolmanov, Z. O‘zbek talabalari ingliz tili intonatsiyasini o‘zlashtirishining akustik tahlili: Filol. fan. nomz.... diss. – Toshkent: O‘zDJTU, 2015. – 33 b.
10. Xusanova, N. S. O‘zbek va ingliz tillarida subyektiv baho ifodalashning fonostilistik, fonografik usul hamda vositalari tadqiqi: Filol. fanlari dok. (DSc)... dis. avtoreferati. – Farg‘ona, 2026. – 62 b.
11. Yaxshiyeva, G. T. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar: dis.... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1997. – 132 b.

IV. Internet saytlari

12. https://www.dialectsarchive.com/received-pronunciation-1,2,3,4,5,6-IDEA (International Dialects of English Archive) platformasi.

OLIY TA’LIMDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Sattorov Abdumalik Abduraxmon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875282

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’limda generativ sun’iy intellektdan foydalanishda talabalarning mustaqil fikrlash va egallagan bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyatini saqlab qolish masalasi tahlil etiladi. Tadqiqotning maqsadi o‘qituvchi, talaba va sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi vazifalarini aniq belgilaydigan hamda talabaning o‘zlashtirish darajasini baholashga xizmat qiladigan pedagogik modelni taklif etishdan iborat. Mavzuga oid tanlangan ilmiy manbalar va xalqaro tavsiyalarni qiyosiy o‘rganish asosida besh bosqichli model ishlab chiqildi. U topshiriqni dastlab mustaqil bajarishga urinish, yo‘naltiruvchi savollar asosida sun’iy intellekt bilan muloqot qilish, olingan javoblarni tekshirish, bilimni yangi topshiriqda qo‘llash va o‘z faoliyatini tahlil qilishni qamrab oladi. Modelni amaliyotga tatbiq etish uchun topshiriq namunasi va baholash mezonlari tavsiya etiladi. Tahlil natijasida sun’iy intellekt yordamida bajarilgan ishning sifatini talabaning mustaqil ravishda namoyish etgan bilimi bilan birgalikda baholash zarurligi haqida xulosa chiqariladi. Model nazariy asosda ishlab chiqilgan bo‘lib, uning samaradorligini keyingi tadqiqotlarda tajriba-sinov orqali tekshirish lozim.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, generativ sun’iy intellekt, inson va sun’iy intellekt hamkorligi, mustaqil ta’lim, akademik halollik, tanqidiy fikrlash, o‘zlashtirishni baholash.*

Abstract. *This article examines how students' ability to think independently and apply acquired knowledge can be preserved when generative artificial intelligence is used in higher education. The study aims to propose a pedagogical model that clearly defines the roles of teachers, students, and artificial intelligence in the learning process and supports the assessment of student learning. A five-stage model was developed through a comparative analysis of selected scholarly sources and international recommendations. It comprises an initial independent attempt at a task, interaction with artificial intelligence through guiding questions, verification of the responses received, application of knowledge to a new task, and reflection on one's learning activities. A sample task and assessment criteria are proposed to support practical implementation of the model. The analysis concludes that the quality of work completed with artificial intelligence assistance should be assessed alongside the knowledge students demonstrate independently. The model is theoretical, and its effectiveness requires empirical testing in future studies.*

Keywords: *higher education, generative artificial intelligence, human-AI collaboration, independent learning, academic integrity, critical thinking, assessment of learning.*

Kirish

Oliy ta’limda mustaqil topshiriqning pedagogik qiymati talabaning muammoni anglash, yechim tanlash va o‘z qarorini asoslash jarayonida namoyon bo‘ladi. Generativ sun’iy intellekt matn, tushuntirish va dasturiy kod yaratishga yordam berganida, topshirilgan mahsulot sifati bilan uni tayyorlagan talabaning bilimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni alohida tekshirish zarurati

tug‘iladi. Shu sababli ushbu maqolada inson va sun’iy intellekt hamkorligi mustaqil ta’limni tashkil etish hamda o‘zlashtirishni baholash muammosi doirasida ko‘rib chiqiladi.

YUNESKOning ta’lim va tadqiqotlarda generativ sun’iy intellekt bo‘yicha tavsiyalari insonning faol subyekt sifatidagi o‘rnini, ta’lim vositalarining pedagogik muvofiqligini va ma’lumotlar himoyasini ustuvor masalalar sifatida belgilaydi [1]. Bu yondashuvdan kelib chiqib, universitetdagi sun’iy intellekt amaliyotini topshiriqning o‘quv maqsadiga bog‘lash taklif etiladi. Talaba qaysi fikrni mustaqil ishlab chiqqani, qanday yordam olgani va yakuniy xulosani nima asosida qabul qilganini tushuntira olishi hamkorlikning tekshiriladigan belgisi bo‘lishi mumkin.

Maqolaning tadqiqot savoli quyidagicha: sun’iy intellekt bilan ishlash jarayoni qanday tashkil etilganda talabaning mustaqil o‘zlashtirishi kuzatiladigan dalillar orqali baholanadi? Maqsad ushbu savolga javob beradigan pedagogik model va amaliy baholash mezonlarini taklif etishdan iborat. Ishning amaliy hissasi hamkorlik bosqichlarini o‘qituvchi kuzata oladigan natijalar bilan bog‘lashda ifodalanadi. Model bakalavriatdagi mustaqil topshiriqlarga mo‘ljallangan; uning fanlarga tatbiqi tegishli o‘quv natijalariga qarab moslashtiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida bajarildi. Tahlil uchun 2002–2025-yillarda chop etilgan o‘n bitta manba maqsadli tanlandi. Ular YUNESKOning to‘rtta tavsiya va metodik hujjati [1; 2; 7; 8], Avstraliya oliy ta’lim sifati va standartlari agentligi tomonidan e’lon qilingan ikkita tavsiyalar to‘plami [5; 6], ta’limdagi sun’iy intellekt yordamiga oid ikkita tajriba-sinov maqolasi [3; 4] hamda mustaqil o‘rganish, baholash va til modellariga bag‘ishlangan uchta nazariy-tahliliy maqoladan [9–11] iborat. Tanlash mezonlari manbaning tadqiqot maqsadiga aloqadorligi, asl nashr yoki rasmiy tashkilot tomonidan e’lon qilingani hamda tekshiriladigan bibliografik ma’lumotlarga egaligidan iborat bo‘ldi. Mazkur tanlov mavzuga oid barcha tadqiqotlarni qamrab oladigan tizimli sharh hisoblanmaydi.

Manbalar sun’iy intellekt yordamining vazifasi, o‘quvchi yoki talabaning mustaqilligi, o‘qituvchi mas’uliyati va baholash dalillari bo‘yicha qiyoslandi. Metodik tavsiyalar tajriba-sinov natijalaridan alohida talqin qilindi. Maktab ta’limiga oid natija va tavsiyalar oliy ta’limga bevosita tatbiq etilmadi. Tahlildan pedagogik talablar ajratilib, ular asosida hamkorlik bosqichlari va baholash jadvali shakllantirildi. Ushbu ish doirasida so‘rovnoma, kuzatuv yoki tajriba o‘tkazilmadi; quyidagi model va topshiriq namunasi metodik takliflar hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili

Kasneci va hammualliflar katta til modellarining ta’limdagi imkoniyatlarini o‘quv materiallarini yaratish, muloqotni qo‘llab-quvvatlash va ta’limni o‘rganuvchining ehtiyojiga moslashtirish bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, ular bunday vositalarning cheklovlarini tushunish, ma’lumotlarni tekshirish va inson nazoratini saqlash zarurligini ta’kidlaydi [9]. Ushbu nazariy tahlil mazkur maqolada sun’iy intellekt bilan ishlashni tanqidiy fikrlash va manbalarni tekshirish bilan birga tashkil etish uchun asos sifatida qo‘llanadi.

Kestin va hammualliflar universitet talabalarini tasodifiy guruhlarga ajratib o‘tkazgan nazoratli tadqiqotda maxsus ishlab chiqilgan sun’iy intellekt o‘quv yordamchisi bilan o‘rganishni auditoriyadagi faol ta’lim mashg‘uloti bilan taqqoslagan. Mualliflar sun’iy intellekt o‘quv yordamchisi bilan ishlagan sharoitda o‘zlashtirish natijalari yuqoriroq, sarflangan vaqt esa kamroq bo‘lganini qayd etgan [3]. Mazkur dalil pedagogik tamoyillar asosida ishlab chiqilgan muayyan vositaga tegishli. Undan barcha sun’iy intellekt vositalari, fanlar yoki talabalar guruhlarida bir xil samara olinadi degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Bastani va hammualliflarning o‘rta maktab matematikasi bo‘yicha amaliy tajribasida umumiy yordam beruvchi sun’iy intellekt vositasi bilan mashq bajarishdagi natija yaxshilangan, biroq sun’iy intellekt yordamisiz o‘tkazilgan keyingi baholashda o‘zlashtirishga salbiy ta’sir kuzatilgan. Mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘rsatmalar asosida tuzilgan sun’iy intellekt o‘quv yordamchisi bu salbiy ta’sirni sezilarli darajada yumshatgan [4]. Mazkur natija oliy ta’lim uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri samaradorlik bahosi bo‘la olmaydi. U yordam bilan bajarilgan ish va keyingi mustaqil topshiriq natijalarini alohida tekshirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi tayyorgarligi masalasida YUNESKOning 2024-yilgi kompetensiyalar tizimi besh yo‘nalishdagi 15 kompetensiyani belgilaydi. Ular inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, sun’iy intellekt etikasi, sun’iy intellekt asoslari va qo‘llanilishi, SIdan ta’limda hamda kasbiy rivojlanishda foydalanishni qamrab oladi [2]. Mazkur yo‘nalishlar ushbu maqolada taklif etiladigan model uchun o‘qituvchini tayyorlash mazmunini belgilashga xizmat qiladi. Universitet sharoitiga moslashtirishda fan mazmunining to‘g‘riligini tekshirish va baholash topshiriqlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga alohida e’tibor berish tavsiya etiladi.

Talabaning tayyorgarligi ham alohida e’tiborni talab qiladi. YUNESKOning o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan kompetensiyalar tizimida inson manfaatlari, sun’iy intellekt etikasi, texnologiyani tushunish va undan foydalanish masalalari o‘zaro bog‘liq holda yoritiladi [8]. Hujjat maktab ta’limiga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undagi yo‘nalishlardan universitet talabalarining boshlang‘ich tayyorgarligini belgilashda foydalanish mumkin. Ushbu maqolada talabaning sun’iy intellekt imkoniyati va cheklovlarini tushunishi, javobni tekshirishi hamda yordamdan foydalanishini ochiq ko‘rsatishi zarur tayyorgarlik sifatida taklif etiladi.

Lodge va hammualliflarning 2023-yilgi tavsiyalarida talaba bilimini ishonchli baholash uchun turli shakldagi dalillarni birlashtirish, o‘rganish jarayonini hisobga olish va mas’uliyatli sun’iy intellekt amaliyotini o‘quv maqsadlariga bog‘lash taklif etiladi [5]. 2025-yilgi davomiy hujjat esa baholashni butun ta’lim dasturi, alohida fan yoki ushbu ikki daraja uyg‘unligida qayta tashkil etish yo‘llarini muhokama qiladi [6]. Ushbu ishda mazkur tavsiyalar alohida mustaqil topshiriq darajasida talqin qilinadi; ularni O‘zbekiston uchun majburiy me’yor sifatida qabul qilish nazarda tutilmaydi.

Mustaqil o‘rganishning nazariy asosini yoritishda Zimmerman ta’lim oluvchining o‘z faoliyatini boshqarishini oldindan rejalashtirish, bajarish jarayonini nazorat qilish va natijani tahlil etish bilan bog‘laydi [10]. Nicol va Macfarlane-Dick esa o‘qish jarayonidagi baholash hamda berilgan izohlar talabaning o‘z o‘rganishiga faol munosabatini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini ko‘rsatadi [11]. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, taklif etilayotgan modelda dastlabki urinish, olingan izohni baholash va keyingi mustaqil vazifa bir-biriga bog‘lanadi. Bu bog‘lanish mazkur maqolaning metodik talqini bo‘lib, uning samarasi alohida tekshirilishi lozim.

Manbalarni qiyoslashdan chiqarilgan talqin shundan iboratki, hamkorlik modeli yordamning qaysi bosqichda berilishini va undan keyin qanday mustaqil faoliyat talab etilishini birgalikda belgilashi kerak. Tadqiqotlar turli ta’lim bosqichlari va vositalarni qamrab olgani sababli ularning natijalari umumiy samaradorlik ko‘rsatkichiga birlashtirilmadi. Keyingi bo‘limda mazkur talqin topshiriqni tashkil etishning amaliy ketma-ketligiga aylantiriladi.

Taklif etilayotgan pedagogik model

Modelda o‘qituvchi o‘quv maqsadi, yordam chegarasi va baholash mezonlarini belgilaydi. Talaba dastlabki yechimni yaratadi, olingan yordamni tekshiradi va yakuniy qarorini asoslaydi. Sun’iy intellekt vositasiga savol berish, misol taklif etish yoki dastlabki fikr yuzasidan

izoh yaratish vazifasi yuklanadi. Fan mazmunining to‘g‘riligi va baholash bo‘yicha yakuniy qaror o‘qituvchida qoladi. Hamkorlik besh bosqichda tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Birinchi bosqichda talaba topshiriqni sun’iy intellekt yordamisiz bajarishga urinadi. Dastlabki javob, yechim rejasi yoki tushunilmagan savol yozib olinadi. O‘qituvchi mazkur materialdan boshlang‘ich tushuncha va qiyinchiliklarni aniqlash uchun foydalanadi. Bosqichning davomiyligi topshiriq murakkabligiga mos belgilanadi. Kuzatiladigan natija talabaning yordam olishdan oldingi fikri bo‘lib, keyingi o‘zgarishlar aynan shu dalil bilan taqqoslanadi.

Ikkinchi bosqichda talaba sun’iy intellekt bilan o‘qituvchi belgilagan chegaralar doirasida muloqot qiladi. Tavsiya etiladigan so‘rov shakli tayyor javobdan oldin tushuntiruvchi savol, ishora yoki muqobil yo‘lni so‘rashga asoslanadi. Masalan, talaba o‘z yechimidagi zaif joyni ko‘rsatishni va keyingi qadamni mustaqil tanlash uchun savol berishni so‘rashi mumkin. Bunday ko‘rsatmaning o‘zi vosita xatosiz ishlashini kafolatlamaydi; o‘qituvchi topshiriqni oldindan sinab ko‘rishi va zarur holatda aralashishi lozim.

Uchinchi bosqichda sun’iy intellekt bergan izoh tekshiriladi. Keltirilgan ma’lumot darslik, ilmiy maqola yoki tegishli asl manba bilan solishtiriladi; hisob yoki dasturiy kod esa qayta hisoblash va sinov orqali tekshiriladi. Talaba qabul qilgan hamda rad etgan tavsiyalarining sababini qayd etadi. sun’iy intellekt ko‘rsatgan manbaning mavjudligi va uning mazmuni javobdagi fikrni tasdiqlashi alohida tekshiriladi. Bu bosqich natijasi tuzatilgan yechim va tuzatish asoslarining qisqa yozuvidan iborat bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqichda talaba shu o‘quv natijasini tekshiradigan yangi topshiriqni sun’iy intellekt yordamisiz bajaradi. Yangi vazifa avvalgisining faqat sonlari o‘zgartirilgan nusxasi bo‘lib qolmasligi, tushunchani boshqa sharoitga tatbiq etishni talab qilishi kerak. O‘qituvchi yozma ish, amaliy namoyish yoki qisqa og‘zaki izoh orqali mustaqil o‘zlashtirish dalilini yig‘adi. Vazifa murakkabligi va ajratilgan vaqt barcha talabalar uchun taqqoslanadigan tarzda belgilanadi.

Beshinchi bosqichda talaba dastlabki javobi bilan yakuniy tushunchasini solishtiradi. Qaysi xato tuzatilgani, qaysi sun’iy intellekt tavsiyasi foydali bo‘lgani va qanday savol ochiq qolgani izohlanadi. O‘qituvchi talabaning ushbu tahlilini mustaqil topshiriq natijasi bilan birga ko‘rib, keyingi mashqni belgilaydi. Agar talaba yordam bilan to‘g‘ri javob olgan bo‘lsa-yu, yangi vazifada tushunchani qo‘llay olmasa, shu tushuncha bo‘yicha qo‘shimcha mashq rejalashtiriladi.

Modelni qo‘llash namunasi

Modelni tushuntirish uchun dasturlash fanidagi ro‘yxat elementlarini qayta ishlash topshirig‘i taklif etiladi. O‘quv natijasi talabaning algoritm mantiqini izohlashi va chegara holatlarini aniqlashidir. Dastlab talaba kirish ma’lumotlarini tekshirish hamda natijani hisoblash algoritmini yozadi. Keyin SIdan tayyor kod o‘rniga mavjud algoritmdagi ehtimoliy xatolarni savollar orqali aniqlashga yordam berishni so‘raydi. Ushbu topshiriq namunasi amalda o‘tkazilgan tajriba tavsifi emas.

Tekshirish bosqichida talaba oddiy ro‘yxat, bitta elementli ro‘yxat va bo‘sh ro‘yxat uchun kutiladigan natijani oldindan belgilaydi. So‘ng yechimni sinaydi va sun’iy intellekt izohlarini dasturlash tili hujjatlari bilan tekshiradi. O‘qituvchi yakuniy kod bilan birga tanlangan sinovlar sababini ham so‘raydi. Mustaqil bosqich uchun kiritish sharti o‘zgartirilgan yangi masala berilib, talabaning avvalgi algoritmni qanday moslashtirishi kuzatiladi. Baholashda faqat kodning ishlashi bilan cheklanilmaydi.

Xuddi shu ketma-ketlikni boshqa fanlarga moslashtirish mumkin. Masalan, pedagogika fanida talaba avval dars topshirig‘ini tuzadi, sun’iy intellekt taklif qilgan muqobil variantlarni o‘quv maqsadlari bilan solishtiradi va keyin boshqa auditoriya uchun yangi topshiriqni mustaqil ishlab chiqadi. Har ikki holatda ham o‘qituvchi tekshiriladigan kompetensiyani oldindan belgilashi lozim. Fanlar o‘rtasida umumiy qoladigan jihat yordamdan oldingi urinish va yordamdan keyingi mustaqil dalilning mavjudligidir.

Baholash mezonlari

Baholash uchun 1-jadvaldagi 100 ballik mezonlar tizimi taklif etiladi. Ballar taqsimoti tajriba-sinov asosida tasdiqlanmagan; u modelni sinash uchun boshlang‘ich metodik yechimdir. Mustaqil izohlash va yangi vazifani bajarishga jami 55 ball ajratilishi talabaning shaxsiy bilimiga ustuvor ahamiyat beradi. Fan o‘qituvchilari ushbu mezonlarni qo‘llashdan oldin yuqori, o‘rta va quyi darajadagi ish namunalarini birgalikda muhokama qilib, baholash talablari bo‘yicha kelishib olishi kerak.

1-jadval. Mustaqil ta’lim topshirig‘ini baholash mezonlari

Mezon	Ball	Kuzatiladigan dalil
Tushunchani mustaqil izohlash	25	Asosiy tushunchani to‘g‘ri sharhlash va qarorini asoslash
Manba va natijani tekshirish	20	Da’voni asl manba, hisob yoki sinov bilan tekshirish
Sun’iy intellekt yordamiga tanqidiy munosabat	15	Tavsiyani qabul qilish yoki rad etish sababini ko‘rsatish
Yangi vazifani mustaqil bajarish	30	O‘rganilgan usulni sun’iy intellekt yordamisiz yangi sharoitda qo‘llash
Jarayon qaydi va o‘z faoliyatini tahlil qilish	10	Dastlabki fikr, o‘zgarish va yordam hissasini tushuntirish

Jami: 100 ball. Jadval maqolada taklif etilgan metodik mezonlar asosida tuzildi.

Baholashning aniqligi uchun bir nechta ish ikki o‘qituvchi tomonidan mustaqil ko‘rib chiqilishi va tafovutlar muhokama qilinishi tavsiya etiladi. Mustaqil bajarish ballari umumiy balldan tashqari alohida ham qayd etiladi. Natijada puxta rasmiylashtirilgan, biroq talaba izohlay olmaydigan ish bilan mazmunan o‘zlashtirilgan ish o‘rtasidagi farq ko‘rinadi. Sun’iy intellekt xizmatidan foydalanishning o‘zi yuqori yoki past baho qo‘yish uchun asos qilib olinmaydi.

Joriy etishning pedagogik shartlari

Kurs boshlanishida sun’iy intellekt yordamiga ruxsat beriladigan vazifalar va mustaqil bajariladigan baholash qismlari yozma tarzda tushuntirilishi tavsiya etiladi. Talaba topshiriqqa vosita nomi, foydalanilgan sana, yordamning maqsadi va natijaga kiritilgan o‘zgarishlar haqidagi qisqa qaydni ilova qilishi mumkin. Ushbu qayd baholash dalillarini to‘ldiradi. O‘qituvchi bahoni belgilashda talabaning tushuntirishi, amaliy ishi va yangi vazifadagi natijasiga tayanadi.

YUNESKO tavsiyalarida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, adolat va teng imkoniyatlarni ta’minlashga e’tibor qaratiladi [1; 7]. Ushbu tamoyillar taklif etilayotgan modelda ikki amaliy talab orqali ifodalanadi. Birinchidan, tashqi sun’iy intellekt xizmatiga yuboriladigan topshiriqlarda shaxsni aniqlashga imkon beradigan yoki yopiq tadqiqot ma’lumotlari ishlatilmasligi lozim. Ikkinchidan, baholanadigan faoliyat uchun vositadan foydalanish imkoniyati ta’minlanadi yoki ayni o‘quv natijasini namoyish etishga teng sharoit beradigan muqobil usul belgilanadi. Talabaning texnik imkoniyati uning bilimiga qo‘yiladigan bahoni belgilab bermasligi zarur.

O‘qituvchi uchun tayyorgarlik mashg‘ulotini o‘z fanidagi bitta topshiriq asosida tashkil etish taklif qilinadi. Unda sun’iy intellekt javobini tekshirish, yordam chegarasini belgilash va mustaqil baholash vazifasini ishlab chiqish birgalikda mashq qilinadi. O‘zbek tilidagi javoblarda atamalar o‘quv dasturi va tavsiya etilgan adabiyotlar bilan solishtiriladi. Bu mahalliy sun’iy intellekt vositalarining sifati haqida oldindan chiqarilgan hukm emas, kurs mazmuni bilan muvofiqlikni tekshirish tartibidir.

Model o‘qituvchi ish hajmini ham hisobga olishi kerak. Har bir muloqotning to‘liq nusxasini o‘qish o‘rniga, topshiriqqa tegishli qisqa dalillar to‘plamini belgilash taklif etiladi: dastlabki urinish, bitta muhim tuzatishning asosi va mustaqil bajarilgan yakuniy vazifa. Og‘zaki izoh talab etilsa, uning muddati va savollar mezoni oldindan kelishiladi. Maxsus ta’lim ehtiyojlari mavjud talabalar uchun shu kompetensiyani namoyish etadigan mos baholash shakli tanlanadi.

Muhokama va tadqiqot cheklovlari

Taklif etilgan modelning asosiy jihati sun’iy intellekt bilan hamkorlikni o‘qituvchi kuzata oladigan o‘quv faoliyatlari ketma-ketligi sifatida tashkil etishdir. Bunda yordamdan foydalanish sifati va mustaqil o‘zlashtirish haqida alohida dalil yig‘iladi. Talabaning o‘z faoliyati haqidagi tahlili uning fikrlash jarayonini tushunishga yordam berishi mumkin, biroq bu yozuvning o‘zi bilimni tasdiqlash uchun yetarli deb olinmaydi. U yangi topshiriqda ko‘rsatilgan natija bilan solishtiriladi.

Ishning asosiy cheklovi model mahalliy universitet sharoitida sinovdan o‘tkazilmaganidir. O‘n bitta manbaning maqsadli tanlanishi barcha tadqiqotlarni qamrab olishni ta’minlamaydi. Manbalar turli ta’lim bosqichlariga tegishli, foydalanilgan sun’iy intellekt vositalari va baholash shakllari ham farqlanadi. Shu bois maqolada model baholarni muayyan foizga oshirishi yoki barcha fanlar uchun bir xil samara berishi haqida xulosa chiqarilmaydi.

Keyingi tajriba-sinov ishlarida boshlang‘ich tayyorgarligi qayd etilgan taqqoslanadigan guruhlar, bir xil o‘quv maqsadlari va teng mashq vaqti bilan ishlash taklif etiladi. Imkon bo‘lsa, guruhlarga taqsimlash tasodifiy amalga oshiriladi. Natijalar sun’iy intellekt yordamisiz bajariladigan yakuniy va kechiktirilgan topshiriqlar orqali o‘lchanadi; ishlarni baholovchi shaxs guruhni bilmasligi maqsadga muvofiq. Bilim natijasi bilan birga o‘qituvchi sarflagan vaqt, vositaga kirish imkoniyati va talabalar qiyinchiliklari ham tahlil qilinishi kerak.

Xulosa

Oliy ta’limda inson va sun’iy intellekt hamkorligini mustaqil ta’lim maqsadlariga bog‘lash uchun yordamning chegarasi, inson mas’uliyati va bilimni namoyish etish usuli oldindan belgilanishi zarur. Ushbu maqolada taklif etilgan model mustaqil urinish, sun’iy intellekt bilan yo‘naltirilgan muloqot, javobni tekshirish, bilimni yangi vazifada qo‘llash va o‘z faoliyatini tahlil qilish bosqichlarini qamrab oladi. Har bir bosqich o‘qituvchi ko‘ra oladigan dalil bilan yakunlanadi.

Amaliy jihatdan kursdagi bitta mustaqil topshiriqni ushbu ketma-ketlik asosida qayta loyihalash, baholash mezonlarini talabalarga oldindan taqdim etish va mustaqil bajarish natijasini alohida qayd etish tavsiya qilinadi. Modelning samaradorligi tajriba-sinov orqali aniqlanishi kerak. Shunday tekshiruvdan olingan natijalar uni qaysi fanlarda, qanday yordam chegaralari va qanday ish yuklamasi bilan qo‘llash mumkinligini asoslashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miao F., Holmes W. Ta’lim va tadqiqotlarda generativ sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma. Parij: YUNESKO, 2023.
2. Miao F., Cukurova M. O‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt bo‘yicha kompetensiyalar tizimi. Parij: YUNESKO, 2024.
3. Kestin G., Miller K., Klales A., Milbourne T., Ponti G. Sun’iy intellekt yordamida o‘rganishning auditoriyadagi faol ta’limdan ustunligi: haqiqiy ta’lim sharoitida tadqiqotga asoslangan yangi usulning tasodifiy guruhlar bilan nazoratli sinovi. Ilmiy hisobotlar. 2025. 15-jild, 17458-maqola.
4. Bastani H., Bastani O., Sungu A., Ge H., Kabakcı Ö., Mariman R. Himoya cheklovlarisiz generativ sun’iy intellekt o‘zlashtirishga zarar yetkazishi mumkin: o‘rta maktab matematikasidan dalillar. AQSH Milliy fanlar akademiyasi xabarlari. 2025. 122-jild, 26-son, e2422633122.
5. Lodge J. M., Howard S., Bearman M., Dawson P. va hamkorlar. Sun’iy intellekt davri uchun baholashni isloh qilish. Avstraliya oliy ta’lim sifati va standartlari agentligi, 2023.
6. Lodge J. M., Bearman M., Dawson P., Gniel H., Harper R., Liu D., McLean J., Ucnik L. Sun’iy intellekt davrida baholash islohotini amalga oshirish. Avstraliya oliy ta’lim sifati va standartlari agentligi, 2025.
7. YUNESKO. Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyanoma. Parij, 2021-yil 23-noyabr.
8. Miao F., Shiohira K., Lao N. O‘quvchilar uchun sun’iy intellekt bo‘yicha kompetensiyalar tizimi. Parij: YUNESKO, 2024.
9. Kasneci E. va boshqalar. ChatGPT foydalimi? Ta’limda katta til modellarining imkoniyatlari va muammolari. O‘rganish va individual farqlar. 2023. 103-jild, 102274-maqola.
10. Zimmerman B. J. O‘z o‘quv faoliyatini boshqaruvchi ta’lim oluvchini shakllantirish: umumiy tavsif. Nazariya va amaliyot. 2002. 41-jild, 2-son. 64–70-betlar.
11. Nicol D. J., Macfarlane-Dick D. Shakllantiruvchi baholash va o‘z o‘quv faoliyatini boshqarish: samarali izoh berish modeli va yetti tamoyili. Oliy ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar. 2006. 31-jild, 2-son. 199–218-betlar.

XALQARO TEXNIK STANDARTLAR TILIDA MODAL FE'LLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNI O‘ZLASHTIRISHDAGI TIPOLOGIK QIYINCHILIKLAR

Sultonova Marvarid Abdulvohid qizi
O‘zbekistov davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875304

Annotatsiya. *Tezisda xalqaro texnik standartlar matnida modal fe’llarning qo‘llanish qonuniyatlari tahlil qilinadi. ISO/IEC Direktivalari va RFC 2119 hujjatlari materialida “shall”, “should”, “may” va “can’ fe’llarining huquqiy-semantik farqlari ko‘rsatiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida modallik ifodalanishining tipologik tafovuti hamda undan kelib chiqadigan interferensiya hodisalari o‘rganiladi. Muallif tomonidan modal fe’llarni kasbiy kommunikativ funksiyalar bo‘yicha tizimlashtirish sxemasi taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *modal fe’llar, texnik standartlar, deontik modallik, epistemik modallik, xedjing, til interferensiyasi, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, grammatik kompetensiya.*

Abstract. *The abstract analyzes the usage patterns of modal verbs in the text of international technical standards. Based on ISO/IEC Directives and RFC 2119 documents, legal-semantic differences between the verbs “shall”, “should”, “may”, and “can” are demonstrated. The typological differences in expressing modality in English and Uzbek, along with the resulting language interference phenomena, are examined. The author proposes a framework for systematizing modal verbs according to professional communicative functions.*

Keywords: *modal verbs, technical standards, deontic modality, epistemic modality, hedging, language interference, English for Specific Purposes (ESP), grammatical competence.*

Texnik hujjat tarjimasi bilan shug‘ullangan har bir kishi bir savolga duch kelgan bo‘lsa kerak: “shall” va “should” so‘zlarini o‘zbek tiliga qanday farqlab o‘girish kerak? Ikkalasi ham “kerak” deb tarjima qilinaveradi, lekin bu ikki so‘z hujjatning huquqiy mazmunini butunlay o‘zgartiradi. Biri bajarilishi shart bo‘lgan talabni, ikkinchisi esa faqat tavsiyani bildiradi. Quyida ana shu farqning lingvistik tabiati, uning standartlar tilidagi maqomi va o‘zbek auditoriyasi tomonidan o‘zlashtirilishidagi to‘siqlar haqida so‘z boradi.

Modal fe’llarning standartlar tilidagi maqomi

Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari fe’l shakllarini ochiq qoldirmagan. ISO va IEC Direktivalarining 2-qismida bandlarni ifodalash uchun qaysi shakl ishlatilishi alohida jadvallarda qat’iy belgilangan, “shall” majburiy talabni (requirement), “should” tavsiyani (recommendation), “may” ruxsatni (permission), “can” esa imkoniyat va qobiliyatni (possibility and capability) bildiradi[28]. Bu uslubiy maslahat emas. Standart matnini tayyorlayotgan mutaxassis uchun bu majburiy qoida. Hujjatda ekvivalent variantlar ham berilgan - masalan, “shall” o‘rniga “is to”, “is required to” yoki “it is necessary” konstruksiyalarini qo‘llash mumkin.

Bu yerda bir nozik jihat bor. Direktivalar (Bu ISO va IEC tashkilotlarining “ichki konstitutsiyasi” yoki standartlarni yaratish va rasmiylashtirish qoidalar toplamidir) ayrim shakllarni standart matnida ishlatishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklaydi. Xususan, “must” fe’li tavsiya

[28] ISO/IEC Directives, Part 2: Principles and Rules for the Structure and Drafting of ISO and IEC Documents. 9th ed. – Geneva: ISO/IEC, 2021. – Clause 7, Tables 3–6.

etilmaydi, chunki u standartning o‘z talabini emas, qonunchilikdan kelib chiqadigan tashqi majburiyatni ifodalaydi. O‘quv jarayonida bunday nozikliklar deyarli tilga olinmaydi, holbuki kasbiy amaliyotda ular hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Axborot texnologiyalari sohasida ham shunga o‘xshash tartib amal qiladi. IETF ning RFC 2119 hujjatida “MUST” mutlaq talabi, “MUST NOT” mutlaq taqiq, “SHOULD” ayrim holatlarda chetlanish mumkin bo‘lgan tavsiya, “MAY” esa elementning haqiqatan ixtiyoriy ekanligini anglatishi belgilangan[29]. Hujjatda alohida ta’kidlanadiki, ushbu kalit so‘zlar faqat bosh harflar bilan yozilgandagina belgilangan maxsus ma’noni oladi. Amalda bu shuni bildiradi: spetsifikatsiyada “may” o‘rniga “must” yozib yuborilsa, ishlab chiquvchi zimmasiga qo‘shimcha majburiyat tushadi va bu shartnoma munosabatlariga ta’sir qilishi mumkin.

Demak, texnik hujjatda modal fe’l tanlash uslubiy emas, huquqiy-mazmuniy qaror hisoblanadi. Shu sababli, mazkur kategoriyani kasbiy ta’lim kontekstida jiddiy e’tibor bilan o‘rgatish talab etiladi.

Korpus tadqiqotlari nima ko‘rsatadi

Modal fe’llarning ilmiy-texnik matndagi o‘rni korpus tahlillari bilan tasdiqlangan. D. Biber va hammualliflarining fundamental grammatikasida to‘qqizta markaziy modal ajratiladi va ular semantik jihatdan uch guruhga bo‘linadi: imkon, ruxsat va qobiliyat (can, could, may, might); majburiyat va zarurat (must, should); iroda hamda bashorat (will, would, shall)[30]. Mualliflar akademik nasrda “can” fe’lining ayniqsa ko‘p ma’noli ekanini qayd etadilar: uni ham mantiqiy imkoniyat, ham qobiliyat sifatida o‘qish mumkin[31].

Registrlar bo‘yicha taqsimot ham qiziqarli manzarani beradi. Og‘zaki nutqda modal fe’llar chastota jihatidan ustun, biroq akademik nasrda ularning funksional yuklamasi boshqacha: bu yerda modallar mantiqiy munosabatlarni va tadqiqotchining o‘z xulosalariga ishonch darajasini ifodalaydi. Muhandislik hujjatchiligida esa yana bir vazifa qo‘shiladi - normativ talablarni darajalashtirish. Bir xil grammatik shakl uch xil diskursda uch xil yuk tashiydi.

Modal fe’llar texnik matnda muallif pozitsiyasini yumshatish uchun ham ishlatiladi. K. Hyland tadqiqotlarida “may”, “might”, “could” shakllari ilmiy diskursning asosiy epistemik xedjing (hedging) vositalari qatorida ko‘rsatilgan[32]. Farqni oddiy misolda ko‘rish mumkin “the failure was caused by overheating” qat'iy tasdiq “the failure may have been caused by overheating” - ehtiyotkor taxmin. Muhandislik hisobotida bu ikki jumla muallifning javobgarlik darajasini turlicha belgilaydi.

Tipologik tafovut va interferensiya

Endi masalaning o‘zbek auditoriyasiga taalluqli tomoniga o‘tamiz. Ingliz tilida modallik alohida yordamchi fe’llar sinfi orqali beriladi. O‘zbek tilida esa u asosan affikslar va modal so‘zlar zimmasiga tushadi. Ana shu tafovutning asosiy ko‘rinishlari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Ingliz va o‘zbek tillarida modallik ifodalanishining qiyosi

Modal ma’no	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
Majburiyat	must, shall, have to	-ishi kerak, -ishi shart, -ishi lozim

[29] Bradner S. RFC 2119: Key Words for Use in RFCs to Indicate Requirement Levels. – IETF, 1997. – P. 1–2.
[30] Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. – Harlow: Longman, 1999. – P. 483–485.
[31] O‘sha asar. – P. 492.
[32] Hyland K. Hedging in Scientific Research Articles. – Amsterdam: John Benjamins, 1998. – P. 103.

Modal ma’no	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
Zarurat yo‘qligi	need not, do not have to	-masa ham bo‘ladi
Taqiq	must not, shall not	-masligi kerak, -masligi shart
Ruxsat	may, can	-sa bo‘ladi, -shi mumkin
Qobiliyat	can, be able to	-a olmoq, -y olmoq
Ehtimollik	may, might, could	-sa kerak, -ishi mumkin, ehtimol
Tavsiya	should, ought to	-gani ma’qul, -sa yaxshi bo‘lardi

Jadval bir muhim holatni ko‘rsatadi: bir tildagi bitta shaklga ikkinchi tilda bir necha vosita to‘g‘ri keladi va bu munosabat teskari yo‘nalishda ham amal qiladi. Ingliz tilidagi “may” ham ruxsat, ham ehtimollik beradi, o‘zbekcha “-ishi mumkin” ham xuddi shu ikki ma’noni qamraydi. Lekin ularning kontekstlar bo‘yicha taqsimoti ikki tilda mos tushmaydi. Bundan tashqari, o‘zbek tilida modal ma’no ko‘pincha fe’l o‘zagiga qo‘shiladigan affiks orqali beriladi va alohida so‘z sifatida ajralib turmaydi, ingliz tilida esa modal fe’l gap tuzilishida aniq sintaktik o‘rinni egallab, yordamchi fe’l vazifasini bajaradi.

Talabalar ishlarini kuzatish natijasida xatolarning bir necha turg‘un turini ajratish mumkin bo‘ldi. Eng ko‘p uchraydigani bu sintaktik xatolar bo‘lib, modal fe’ldan keyin “to” yuklamasining ortiqcha qo‘shilishi “must to check”, “should to verify”, uchinchi shaxs birlikda “-s” qo‘shimchasining ishlatilishi “the system must” inkor va so‘roq shakllarini yasashda yordamchi fe’l qo‘shib yuborish “does not can” “do you must”. Bular ona tilidagi model ta’sirining bevosita natijasi.

Semantik xatolar kamroq ko‘zga tashlanadi, ammo oqibati og‘irroq. Talaba “The cover may be removed” jumlasini “qopqoq olib tashlanishi mumkin (ehtimol)” deb tarjima qiladi, holbuki bu yerda ruxsat nazarda tutilgan. Xavfsizlik yo‘riqnomasida bunday xato jiddiy oqibatga olib kelishi mumkin.

Uchinchi turdagi xatolar murakkab konstruksiyalarga bog‘liq. “Must have been damaged” iborasi o‘tgan zamondagi majburiyat deb tushuniladi” shall be tested” yoki “may be adjusted” kabi majhul nisbatdagi shakllar faol nisbat sifatida o‘qiladi.

Alohida qiyinchilik epistemik va deontik ma’nolarni ajratishda paydo bo‘ladi. “The valve must be closed” jumlasini kontekstga qarab ikki xil o‘qish mumkin “yopilishi shart” (ko‘rsatma) yoki “yopiq bo‘lsa kerak” (xulosa). O‘zbek tilida bu ikki ma’no turli affikslar bilan aniq ajratilgani uchun talaba ingliz tilida ham shunday aniq chegara borligini kutadi. Kutilgan chegara topilmagach, xato yuzaga keladi.

Darsliklardagi bo‘shliq

Masalaning ta’limga oid tomoni ham bor. Umumiy maqsadlarga mo‘ljallangan darsliklarda modal fe’llar odatda maishiy vaziyatlar doirasida beriladi: ruxsat so‘rash, taklif qilish, maslahat berish, o‘tmish haqida taxmin qilish. Standart matni, spetsifikatsiya, xavfsizlik yo‘riqnomasi yoki texnik hisobot kabi janrlar deyarli qamrab olinmaydi.

Oqibati shunday bo‘ladi: talaba “May I open the window?” tipidagi konstruksiyani ishonchli o‘zlashtiradi, ammo “The cover may be removed only after power-off” jumlasini noto‘g‘ri o‘qiydi. Ikkala holatda ham bir xil modal fe’l turibdi, lekin uning funksiyasi va

matndagi og‘irligi tubdan farq qiladi. Nofilologik yo‘nalish talabalari bilan ishlashda bu bo‘shliq ayniqsa seziladi, chunki ular uchun ingliz tili avvalo kasbiy axborot bilan ishlash quroli.

D. Larsen-Freeman grammatikani shakl, ma’no va qo‘llanish o‘lchamlarining birligi sifatida talqin qiladi[33]. Modal fe’llar bu qarashning to‘g‘riligini yaqqol tasdiqlaydi: shaklni bilish - modaldan keyin infinitiv “to” siz kelishini eslab qolish deyarli hech narsani hal qilmaydi, chunki asosiy qiyinchilik ma’no va qo‘llanish o‘lchovlarida yotadi. Shundan kelib chiqib, mazkur kategoriyani o‘rgatishda autentik texnik matnlarga tayanish zarur bo‘ladi.

T. Hutchinson va A. Watersning maqsadli ehtiyojlar tahlili konsepsiyasi ham shu xulosaga olib keladi[34]: texnika yo‘nalishi talabasi uchun grammatik minimum umumiy kursdan emas, muhandisning real ish vaziyatidan kelib chiqib belgilanishi lozim. Modal fe’llar bunday tanlovga yaxshi misol bo‘la oladi ular bir vaqtning o‘zida ham grammatik jihatdan murakkab, ham kasbiy amaliyot uchun zarur. Chet til o‘qitish metodikasining umumnazariy asoslari, jumladan grammatik minimumni belgilash tamoyillari J.J. Jalolovning ishlarida batafsil yoritilgan[35].

Funksional tizimlashtirish tajribasi

Kuzatishlarimiz modal fe’llarni shakl bo‘yicha emas, kasbiy kommunikativ funksiyalar bo‘yicha guruhlash foydaliroq degan xulosaga olib keldi. Bunday taqsimotda talaba “modal fe’llar mavzusi”ni emas, “talabni qanday ifodalash kerak” degan amaliy savolga javobni o‘zlashtiradi. Farq kichikdek tuyuladi, lekin materialga munosabatni o‘zgartiradi.

2-jadval. Modal fe’llarning texnik kommunikativ funksiyalar bo‘yicha taqsimoti

Kommunikativ funksiya	Modal vosita	Texnik matndagi misol
Majburiy talab	shall, must	The device shall comply with IEC 60950.
Taqiq	shall not, must not	The valve must not be opened under pressure.
Tavsiya	should	The cable should be shielded.
Ruxsat, imkon	may	The user may select an alternative mode.
Qobiliyat	can	The sensor can detect motion up to 10 m.
Ehtimollik, xedjing	may, might, could	This may cause overheating.

Shu sxema asosida tuzilgan mashqlar autentik manbalarga tayanishi kerak: standart parchalari, jihoz qo‘llanmalari, xavfsizlik yo‘riqnomalari. Talaba matndagi modal ma’nolarni aniqlash, spetsifikatsiya parchasini modallik darajasini o‘zgartirib qayta yozish, noto‘g‘i tuzilgan hujjatdagi xatolarni topish kabi topshiriqlar orqali kategoriyani amaliy o‘zlashtiradi.

Xulosa

Tahlil natijalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin. Modal fe’llar xalqaro texnik standartlar tilida provizsiyalarning huquqiy maqomini belgilaydi, ISO/IEC Direktivalari va RFC

[33] Larsen-Freeman D. Teaching Language: From Grammar to Grammaring. – Boston: Thomson/Heinle, 2003. – P. 143.
[34] Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 54.
[35] Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 195–210.

2119 hujjatlarida ularning ma’nolari qat’iy tartibga solingan. Bu holat mazkur kategoriyani kasbiy ta’limda alohida e’tibor bilan o‘rgatishni talab qiladi.

O‘zbek tilida modallikning affiksal ifodalanishi ingliz tilidagi yordamchi fe’llar tizimidan tipologik jihatdan farq qiladi. Shu sababli interferensiya hodisalari qonuniy tarzda yuzaga keladi va sintaktik, semantik hamda konstruksiyaviy xatolar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Umumiy maqsadlarga mo‘ljallangan darsliklarda modal fe’llarning kasbiy janrlar doirasida yoritilmasligi esa didaktik bo‘shliq keltirib chiqaradi. Uni to‘ldirish uchun mazkur kategoriyani autentik texnik matnlar materialida, kommunikativ funksiyalar bo‘yicha tizimlashtirilgan holda o‘rgatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Muammoning metodik jihatlari - tegishli mashqlar tizimini ishlab chiqish va uni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari - muallifning keyingi tadqiqotlarida yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ISO/IEC Directives, Part 2: Principles and Rules for the Structure and Drafting of ISO and IEC Documents. 9th ed. – Geneva: ISO/IEC, 2021.
2. Bradner S. RFC 2119: Key Words for Use in RFCs to Indicate Requirement Levels. BCP 14. – IETF, 1997.
3. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. – Harlow: Longman, 1999. – 1204 p.
4. Hyland K. Hedging in Scientific Research Articles. – Amsterdam: John Benjamins, 1998. – 307 p.
5. Larsen-Freeman D. Teaching Language: From Grammar to Grammaring. – Boston: Thomson/Heinle, 2003. – 170 p.
6. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
7. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 430 b.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA CHATGPT VA BOSHQA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Shamsuvaliyeva E.A.
Toshkent shahridagi Adju universiteti Ingliz tili filologiyasi va menejmenti fakulteti dotsenti v.b.
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896394

Annotatsiya. *Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida ChatGPT va boshqa sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘qituvchi va talabalar hamda til o‘rganivchilar faoliyatidagi o‘rni, ularning dars jarayonini tashkil etish, o‘quv materiallarini yaratish, tilning to‘rtta asosiy ko‘nikmasini (listening, reading, writing, speaking) rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ChatGPT, Gemini, Grammarly, EnglishScore va Canva kabi platformalarning afzalliklari, ulardan oqilona foydalanish tamoyillari hamda sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Sun’iy intellekt vositalaridan maqsadli va mas’uliyatli foydalanish ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini takomillashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ChatGPT, Gemini, Grammarly, English Score, Canva, ingliz tili, oliy ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta’lim.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические возможности эффективного использования ChatGPT и других инструментов искусственного интеллекта в процессе обучения английскому языку в высших образовательных учреждениях. Проанализирована роль технологий искусственного интеллекта в планировании учебных занятий, разработке учебно-методических материалов, развитии четырех основных языковых навыков (аудирование, чтение, письмо и говорение), поддержке самостоятельной работы обучающихся и повышении качества образования. Особое внимание уделено преимуществам использования таких платформ, как ChatGPT, Gemini, Grammarly, English Score и Canva, а также вопросам их рационального и ответственного применения в образовательном процессе. Представлены практические рекомендации по интеграции инструментов искусственного интеллекта в обучение английскому языку с целью повышения эффективности преподавания и формирования коммуникативной компетенции обучающихся.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, ChatGPT, Gemini, Grammarly, English Score, Canva, английский язык, высшее образование, цифровые образовательные технологии, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение.*

Abstract. *The following article examines the pedagogical potential of using ChatGPT and other artificial intelligence (AI) tools effectively in English language teaching in higher education institutions. It analyzes the role of AI technologies in lesson planning, developing instructional materials, enhancing the four core language skills (listening, reading, writing, and speaking), supporting students' independent learning, and improving the quality of education. Particular attention is given to the educational benefits of platforms such as ChatGPT, Gemini,*

Grammarly, EnglishScore, and Canva, as well as the principles of their responsible and effective use in the teaching and learning process. The article also provides practical recommendations for integrating AI-powered tools into English language instruction to enhance teaching effectiveness, foster students' communicative competence, and promote learner autonomy.

Keywords: *artificial intelligence, ChatGPT, Gemini, Grammarly, EnglishScore, Canva, English language teaching, higher education, digital learning technologies, communicative competence, independent learning.*

Avvalom bor shuni ta’kidlash kerakki, hozirda chet tillardan bo‘lmish ingliz tiliga talab yuqori darajada oshib bormoqda. Shu bilan birga til o‘rganuvchilar ham tilni oson va tez muddatda o‘rganishni o‘zlariga maqsad qilib qo‘yib bormoqdalar. Ushbu masalada raqamli transformatsiya ya’ni sun’iy intellekt tehnologiyalari ayni muddoa hisoblanadi. Til o‘rganishda ayniqsa ChatGPT, Gemini, Grammarly, English Score, Canva kabi platformalar juda ham muhim hisoblanib, til o‘rganishda juda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ular nafaqat o‘qituvchiga balki til o‘rganuvchiga mustaqil ravishda chet tilini o‘rganishga imkon beradi [2]. O‘qituvchilarga ular o‘quv materialarini yaratishda, differensial topshiriqlar tayyorlashda, Grammatik va imlo xatolarni tahlil qilishda yordam bersa, o‘quvchi va talabalarga insholarini tekshirib olishda, ularni boshqa murakkab (advanced) so‘zlar bilan almashtirib yozishda katta ko‘mak beradi. Shuningdek, talaffuz bilan ishlash uchun ham ushbu sun’iy intellekt tehnologiylari va ilovalari juda ham muhimdir. Faqatgina ulardan to‘g‘ri foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi, ko‘p foydalanuvchilar ushbu tehnologiya va ilovalardan maqolalar va insholarni ko‘chirib yozishda, tayyor matnni yodlashda yoki boshqa faoliyatlarda foydalanadilar. Afsuski bunda hech qanday natijaga erishmaydilar, faqatgina dangasa va ishyoqmas bo‘limiga o‘zlari xohlamagan holatda o‘tib qoladilar [3]. To‘g‘ri foydanish degani bu- yozgan matn, esse yoki boshqa yozma ishlarni imlo va gramamtik xatolarini tekshirib, ularni analiz qilinsa, yoki og‘zaki nutq uchun matn yuklab olib, o‘z variantini ishlab chiqsa, yuqori darajali so‘zlarni to‘gri qo‘llasa va boshqa narsalar kabi maqsad muvofiq bo‘ladi. Ushbu holatda o‘qituvchi professor ham til o‘rganuvchi ham, keng ma’noda foydalanuvchilar raqamli tehnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadli ishlatgan bo‘ladilar. Ta’lim tizimi sifati ham ushbu vaziyatda samarali rivojlanadi.

Umuman olganda, ChatGPT tilni tabiiy qayta ishlash texnologiyasiga oid sun’iy intellekt modeli hisoblanadi va u bilan muloqot qilish, matn yaratish, tarjima qilish, Grammatik analiz qilish, tahrirlash va turli imkoniyatlarga ega. Ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishda sun’iy intellekt vositalari quyidagilar bilan yordam beradi:

- ChatGPT- dars rejalari, ishlanmalari, mashg‘ulotlar, test va mashqlar, mavzuga oid savollar, matn va boshqa funksiyalar uchun ishlatiladi [5];
- Gemini ham ChatGPT ilovasiga o‘xshab ketadi, asosiy vazifasi turli ilmiy va ma’naviy resurslarni izlash uchun muhim;
- Grammarly esa esse, matn, umuman olganda har qanday yozma ishlarni grammatik va imlo tomonidan tahrir qiladi va to‘g‘ri uslubni ko‘rsatib bera oladi [6];
- Canva power point kabi taqdimotlar yaratishda yordam beradi va ancha zamonaviy ilova hisoblanadi. Power point dasturida qilina olmaydigan funksiyalarni bajarish imkoniyatiga egadir

Muhimi shuki, mazkur texnologiya vositalari vaqtni tejaydi hamda ta’lim sifati va boshqaruvini samarali, interaktiv va zamonaviy qilib tashkil etishda mufassal ko‘mak beradi.

Shuningdek, sun’iy intellekt tehnologik vositalari ingliz tilining to‘rt til ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham qo‘llaniladi. Kengroq yoritsak, listening (tinglash), reading (o‘qish), writing (yozish), speaking (gaplashish) ko‘nikmalari uchun foydalaniladi. Masalan, listening (tinglash) ko‘nikmasi uchun turli autsentik materiallarni topib beradi, topshiriqlari bilan ta’minlaydi. Reading (o‘qish) da ham autsentik hamda noautsentik bo‘lgan matnlar, murakkab savollar. So‘z boyligini oshirishga oid lug‘at mashqlarini yaratib, topib beradi. Writing (yozish) qismi uchun rasmiy va norasmiy xat yozish (ayniqsa CEFR/APTIS imtixoni foydalanuvchilari keng qo‘llaydilar), akademik insholar, maqola uchun annotatsiya hamda maqola yozish uchun na’munalar bilan boyitib beradi. Speaking (so‘zlashish) esa muloqotni to‘g‘ri so‘zlashishga va xato qilmaslikka undaydi. Shuningdek, debat va loyiha mavzulari, dialoglar, rol ijrolari uchun turli tavsiyalar bera oladi [1].

Demak, xulosa qilamizki, sun’iy intellekt ta’limning sifatli rivojlanishida bir qancha afzalliklariga ega. Ular raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’limni individuallashtirish, o‘qituvchi-professorlarning yuklamasini kamaytirish, kreativ darslarni tashkil etish, mustaqil ta’limni tadbiq etish bilan ta’minlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Badelbayeva, Y. O. (2025). *Writing, Editing and Publishing Scientific Articles Using Artificial Intelligence*. Scientific Journal of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek ISSN 2181-7324. №1/12, 2024. –UDK:37.03
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.
3. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. UCL IOE Press.
4. UNESCO. (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO.
5. www.chatgpt.com
6. www.grammarly.com

GERMENEVTIK KOMPETENSIYANING MOHIYATI

Tosheva Maftuna O‘tkirovna
Buxoro davlat universiteti,
Pedagogika kafedrasi 1-bosqich doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875358

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik mahoratning o‘zagi va o‘zani bo‘lgan germenevtika va kommunikativ kompetentlikning ta’lim tizimida, zamonaviy o‘qituvchi faoliyatidagi roli hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik mahorat, zamonaviy o‘qituvchining pedagogik texnikasi va metodlari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, uslub, natijadorlik, talqin qilish, nutq madaniyati, samaradorlik, innovatsiya, kommunikatsion texnologiyalar, kasbiy mahorat, germenevtika, pedagogik texnika, notiqlik qobiliyati.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль герменевтики и коммуникативной компетентности, являющихся ядром и сущностью педагогических навыков, в системе образования, в деятельности современного учителя и в повышении качества и эффективности образования. Также рассматриваются педагогические навыки, педагогические приемы и методы современного учителя.*

Ключевые слова: *компетентность, стиль, эффективность, интерпретация, речевая культура, результативность, инновации, коммуникационные технологии, профессиональные навыки, герменевтика, педагогические приемы, ораторское искусство.*

Abstract. *This article analyzes the role of hermeneutics and communicative competence, which are the core and essence of pedagogical skills, in the education system, in the activities of a modern teacher, and their importance in improving the quality and effectiveness of education. It also discusses pedagogical skills, pedagogical techniques and methods of a modern teacher.*

Keywords: *competence, style, effectiveness, interpretation, speech culture, efficiency, innovation, communication technologies, professional skills, hermeneutics, pedagogical techniques, oratory skills.*

Kirish. Germenevtik kompetensiya bir-biridan ajralmagan, aksincha, inson faoliyati jarayonida o‘zaro bog‘langan bir qator tarkibiy qismlardan iborat. Ushbu kompetensiya insonning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatida uning boshqa kompetensiyalari bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Mazkur tarkibiy qismlar qatoriga quyidagilar kiradi: empatiya; vaziyatga chuqur kirib borish va uni anglash qobiliyati; yaqinlik hamda masofa saqlash zaruratini anglash va hurmat qilish; og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot; muayyan kontekst doirasida harakat qilish; ishonchni shakllantirish; aniq vaziyatlarni hal etish; shuningdek, matnlar va ta’limiy vaziyatlarni talqin qilish.

Shuningdek, bu yerga refleksiya qilish salohiyati, bilimlarni qo‘llash qobiliyati, o‘z-o‘zini tahlil qilish, bilim va bilmaslik (notanishlik) holatlari o‘rtasida tebranish, hodisalarning ikki tomonlama tabiatini idrok etish hamda noaniqlik sharoitida harakat qilish kabi jihatlar ham kiradi.

Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi faoliyat insonparvarlik mazmuniga ega bo‘lgan barcha hollarda — ya’ni u boshqa bir insonga aloqador bo‘lganda, uning ichki imkoniyatlari va

ehtiyojlarini ochib berganda hamda o‘zaro muloqotga qaratilganda — muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ularning darajasi yoki sifatini aniqlash, ta’riflash va baholashga urinishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Asosiy qism. Bilishga bo‘lgan qiziqishni qondirish maqsadida sog‘liqni saqlash pedagogikasi sohasidagi mavjud adabiyotlarni o‘rganish orqali bo‘lajak sog‘liqni saqlash ta’limi mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga insonparvarlik yondashuvi qay darajada (ongli ravishda yoki tasodifan) singdirilgani va qo‘llanilayotganini aniqlash mumkin. Biroq shuni ta’kidlash joizki, polyak tilidagi adabiyotlarda ushbu jihatlar odatda boshqacha nomlar (masalan, malakalar, ko‘nikmalar, moyilliklar) ostida uchraydi.

Akademik muhitda hermenevtik kompetensiyani rivojlantirish va baholash- Hozirgi kunga qadar, ijtimoiy kompetensiyalar o‘quv dasturlariga kiritilgan bo‘lishiga qaramay, bo‘lajak sog‘liqni saqlash sohasi ta’limchilarining ushbu yo‘nalishdagi kompetensiyalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar cheklangan bo‘lib kelmoqda. Ushbu sohaga ajratilgan o‘quv soatlari kamligini hisobga olsak, qo‘shimcha mazmun va kompetensiyalarni joriy etish real maqsaddek ko‘rinmaydi. Biroq tajriba shuni ko‘rsatadiki, har bir inson ushbu kompetensiyalarga ega; shu sababli, talabalarda ushbu haqiqatni anglash hamda mazkur ko‘nikmalarni tanib olish va rivojlantirishga nisbatan sezgirlikni oshirishga xizmat qiluvchi vaziyatlarni yaratish (masalan, ko‘ngillilik faoliyati, tadqiqot ishlari, ijodiy tashabbuslar yoki individual topshiriq va loyihalar orqali) ijobiy natijalar berishi mumkin.

Anna Krayevskaning ularni baholashga oid takliflariga tayangan holda, germenevtik kompetensiyalarni no-kognitiv kompetensiyalar majmuasiga kiritish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ham kognitiv, ham no-kognitiv yutuqlarni baholashda yaxlit yondashuv qo‘llash yoqlanadi; garchi bunday yutuqlarga oid dalillar turlicha bo‘lib, maxsus me’yor va mezonlarni ishlab chiqishni talab qilsa-da, mazkur yondashuv muhim hisoblanadi. Talabalar kompetensiyalarini baholash murakkab va mashaqqatli jarayon bo‘lishi mumkin, chunki ular bevosita kuzatilmaydi, balki erishilgan yutuqlar asosida aniqlanadi. Bu jarayon portfoliolar, yozma bayonlar va kuzatuv qaydlari kabi dalillarni to‘plashni talab qiladi; ayniqsa, talabalar soni ko‘p bo‘lgan guruhlarda bu juda ko‘p mehnat va vaqt talab etadigan ishdir. Qo‘shimcha tadqiqotlarsiz germenevtik kompetensiyani egallash va takomillashtirishga ko‘maklashuvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniq belgilash hozircha imkonsiz. Shunga qaramay, ushbu kompetensiyaning nazariy tavsiflari asos bo‘lib xizmat qilishi va qiziquvchi shaxslarga uni o‘zlarida anglash, qadrlash hamda rivojlantirish imkonini berishi mumkin.

Akademik o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu kompetensiyalarga urg‘u berishda imkoniyatlarga qaraganda to‘siqlar ancha ko‘proq. Birinchidan, talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi pastligi muammosi mavjud; ikkinchidan, akademik muhitda mehnat bozori bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan yoki empirik tarzda tekshirib bo‘lmaydigan kompetensiyalarni e’tiborsiz qoldiradigan yoki ularning ahamiyatini past baholaydigan bihevioristik paradigma ustunlik qiladi.

Darsliklar ta'lim mazmuni va metodologiyasiga oid mavjud bayonotlar va tahlillarni takrorlashga moyil; ular kamdan-kam hollarda sog‘liq bilan bog‘liq ayrim hodisalarning ikki tomonlama tabiati yoki muammoli jihatlarini ta'kidlaydi, shuningdek, o‘qituvchining sog‘liqni saqlash o‘qituvchisi sifatidagi roli bilan bog‘liq savollarni ko‘tarishga yoki noaniqliklarni hal qilishga urinmaydi - masalan, o‘qituvchi maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar (masalan, diabet) bilan bog‘liq muammoga duch kelganda va ularga qo‘shimcha parvarish ko‘rsatishga rozilik berish-bermaslikni ko‘rib chiqqanda, bu qonuniy talablarga javob bermaydigan va shu

bilan birga boshqa o‘quvchilar orasida hasadni qo‘zg‘atadigan harakat. Yuqoridagi dalillarni hisobga olgan holda, ushbu yangi vakolatni o‘rganish va uni professional pedagogik vakolatlar katalogiga kiritishga qaratilgan sa'y-harakatlar to‘liq asosli ko‘rinadi.

Nemis ilmiy adabiyotida "germenevtik kompetensiya subyektiv va obyektiv ma'noni anglash yoki ma'nolarni talqin qilish (kontekstuallik, subyektivlik) sifatida ta'riflanadi". Ushbu tushuncha doirasida bir qator tarkibiy qismlar ajratib ko‘rsatiladi; shu sababli, ularni alohida tavsiflash qulayligi uchun men avvalroq ko‘plik shaklidan foydalanganman — ya’ni har bir jihatni alohida germenevtik kompetensiya sifatida qaraganman (ayniqsa, polyak adabiyotida odatda shunday yondashuv qo‘llanilishini hisobga olgan holda). Biroq, ushbu o‘rinda men birlik shaklidan foydalandim.

Akademik ta’lim sifati — jumladan, KRK (hozirgi PRK) doirasida taklif etilgan ijtimoiy kompetensiyalar — ularni yetarli emas deb hisoblovchilar tomonidan bir muncha vaqtdan beri tanqidiy tahlil qilib kelinayotganini inobatga olib, ushbu masala bo‘yicha kengroq muhokama zarurligini asoslash uchun tanqidiy qarashlarni ko‘rib chiqish o‘rinlidir.

Xulosa Demak, bir so‘z yoki ramz ikki odamda bir xil tushuncha uyg‘otmaydi. O‘zaro munosabat va murojaatlardagi anglashilmovchiliklar aksariyat hollarda o‘rinsiz bahs-tortishuv va ko‘ngil qolishlar bilan yakuniga yetadi. Shu bois yirik faylasuf Rene Dekart «Sizlar so‘zlarning ma’nolarini bilib to‘g‘ri qo‘llaganlaringizda edi, dunyoni yarim chalkashliklardan xalos qilgan bo‘lardingiz», – deyishi bilan haqli edi. Germenevtika va kommunikativ kompetensiyaning zamirida so‘z, til, nutq tushunish va tushuntirish, anglash va anglatish ehtiyoji sifatida maqsadlari mushtarak bo‘lgan har ikkala sohaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va nufuzini oshirgani rost. Anglatish uchun yaxshi anglash kerak bo‘lganidek, yaxshi tushunish ham yaxshi tushuntirishni taqozo qiladi. Bu esa pedagog salohiyatini, uquvini talab etadi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, aytish kerakki, falsafa haqiqat nimaligini anglash bo‘lsa, germenevtika haqiqatga borish yo‘llarini, pedagogika va psixologiya esa uning metodologik asoslarini tadqiq etadi. Zamonaviy pedagogning kommunikativ kompetentligi germenevtik tajriba bilan bog‘liq holda, bir butun yaxlit bo‘lmas ekan, o‘z sohasida muvaffaqiyat qozonishi, aslo mumkin emas. Ta’lim sifatini oshirishda Pedagogning germenevtik qobiliyati va kommunikativ kompetentligi uyg‘un bo‘lishi shart. Shundagina u samara beradi, natijador bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» T.: O‘zbekiston” NMIU. 2016.
2. Mirziyoev Sh. «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz» 1 – tom – T.: O‘zbekiston” NMIU, 2017 y
3. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Meros» 1992.
4. Navoiy A. «Mahbub ul-qulub». – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 1993.
5. Qo‘ng‘irov R.,Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: «O‘qituvchi» 1992.
6. Karnegi Deyl. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – T.: «Yangi asr avlodi», 2019 yil.
7. Ortiqov A., Ortiqov A.Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: 2002.

8. Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari. (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida) Avtoreferat. -T.; 2017
9. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent «IQTISOD-MOLIYa» 2010
10. Muslimov N, Usonboeva M, Sayfurov D, To‘raev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -T.; 2015.
11. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996,192 b.
12. Musurmonova O.Farzandlarimga nasihatlar- T.: 2020
13. Muhiddinov A.G. O‘kuv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi, 1995.
14. G‘oziev E. Muomala psixologiyasi. Toshkent, 2001.
15. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
16. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
17. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

OLIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IKKINCHI TILNI O‘QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Temirova Malika Rustamovna
Toshkent shahridagi Adju universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896017

Annotatsiya. *Mazkur tezisda oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida ikkinchi tilni o‘qitishning innovatsion yondashuvlari yoritilgan. Sun’iy intellekt vositalarining ta’limni shaxsiylashtirish, adaptiv o‘qitishni tashkil etish, talabalar bilimini baholash, tezkor fikr-mulohaza (feedback) taqdim etish hamda mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlashdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ChatGPT, Gemini, Microsoft Copilot, Grammarly, Duolingo va boshqa raqamli platformalarning ikkinchi tilni o‘qitish jarayonidagi amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, ikkinchi tilni o‘qitish, ChatGPT, generativ sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta’lim, oliy ta’lim, innovatsion pedagogika, raqamli platformalar.*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются инновационные подходы к обучению второму языку в системе высшего образования на основе технологий искусственного интеллекта и цифрового обучения. Проанализированы педагогические возможности инструментов искусственного интеллекта в персонализации обучения, организации адаптивного образовательного процесса, оценивании знаний студентов, предоставлении оперативной обратной связи и поддержке самостоятельного обучения. Особое внимание уделено практическому использованию платформ ChatGPT, Gemini, Microsoft Copilot, Grammarly, Duolingo и других цифровых сервисов в процессе обучения второму языку. Сделан вывод о том, что интеграция технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс способствует повышению качества и эффективности обучения, развитию коммуникативной компетенции студентов и совершенствованию их самостоятельной учебной деятельности.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровое образование, обучение второму языку, ChatGPT, генеративный искусственный интеллект, адаптивное обучение, персонализированное обучение, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение, высшее образование, инновационная педагогика, цифровые платформы.*

Abstract. *This paper explores innovative approaches to second language teaching in higher education through the integration of artificial intelligence (AI) and digital educational technologies. It examines the pedagogical potential of AI-powered tools in personalizing learning, supporting adaptive instruction, assessing students' performance, providing immediate feedback, and facilitating independent learning. Particular attention is given to the practical application of ChatGPT, Gemini, Microsoft Copilot, Grammarly, Duolingo, and other digital platforms in second language instruction. The study concludes that integrating AI technologies*

into the educational process enhances the quality and effectiveness of language teaching, promotes the development of students' communicative competence, and strengthens their autonomous learning skills.

Keywords: *artificial intelligence, digital education, second language teaching, ChatGPT, generative artificial intelligence, adaptive learning, personalized learning, communicative competence, autonomous learning, higher education, innovative pedagogy, digital platforms.*

Sun’iy intellekt (Artificial Intelligence - AI) ta’limni yanada shaxsiylashtirilgan, inklyuziv va samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lgan innovatsion texnologiya sifatida e’tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda [1,2]. AI asosidagi platformalar talabalarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan o‘quv topshiriqlarini tavsiya etish orqali ta’limni shaxsiylashtirish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda ChatGPT, Gemini, Microsoft Copilot, Duolingo, Grammarly, Quizizz, Canva, Mendeley hamda boshqa zamonaviy raqamli vositalar ikkinchi tilni o‘rganish jarayonini interaktiv, mazmunli, adaptiv va samarali tashkil etishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quv materiallarini yaratish, balki tezkor fikr-mulohaza (feedback) taqdim etish, baholash, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion dars metodlarini qo‘llash hamda ausentik o‘quv materiallaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

Sun’iy intellektning ikkinchi tilni o‘qitishdagi asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish;
- adaptiv o‘quv topshiriqlarini yaratish;
- yozma va og‘zaki nutqni avtomatik tahlil qilish;
- grammatik, leksik va uslubiy xatolarni aniqlash;
- interaktiv muloqot muhitini yaratish;
- o‘quv natijalarini real vaqt rejimida monitoring qilish;
- individual tavsiyalar va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish.

2. Karimova G. System for determining and evaluating labour effectiveness criteria. State software registration certificate DGU №53438, 2025.
3. Зокиров, С. И. У., & Каримова, Г. А. К. (2025). Разработка системы формирования критериев для определения эффективности труда сотрудников (KPI) и методы вычисление оценки. Universum: технические науки, 1(11 (140)), 40-44.
4. Елкина, О. С. (2026). Риски искусственного интеллекта для менеджмента: классификация, управление, KPI. Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Экономика, (1 (47)), 163-187.

KOMPYUTER TARMOQLARI FANINI O‘QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARNI YAGONA DASTURIY-DIDAKTIK MUHITGA INTEGRATSIYALASH

Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti.
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896288

Annotatsiya. *Mazkur tezisda raqamlashtirish sharoitida kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarni yagona dasturiy-didaktik muhitga integratsiyalashning metodik jihatlari tahlil qilingan. Virtual laboratoriyalar, elektron o‘quv resurslari, Learning Management System (LMS) platformalari hamda avtomatlashtirilgan baholash vositalarining o‘zaro integratsiyasi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish yondashuvi taklif etilgan. Cisco Packet Tracer, GNS3 va EVE-NG simulyatorlaridan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompyuter tarmoqlari, virtual laboratoriya, dasturiy-didaktik muhit, Cisco Packet Tracer, GNS3, EVE-NG, LMS, raqamli ta'lim, kasbiy kompetensiya.*

Raqamlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, talabalarda zamonaviy tarmoq texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda mustaqil ta'limni qo‘llab-quvvatlash uchun virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi [1, 4].

Kompyuter tarmoqlari fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda marshrutlash, kommutatsiya, IP manzillash, tarmoq xavfsizligi va tarmoq xizmatlarini o‘rganish amaliy mashg‘ulotlar bilan chambarchas bog‘liq. Biroq barcha oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy tarmoq uskunalarining yetarli emasligi laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘liq tashkil etishga ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli Cisco Packet Tracer, GNS3 va EVE-NG kabi virtual laboratoriya platformalaridan foydalanish real tarmoq infratuzilmasini modellashtirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda [2, 3].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar virtual laboratoriyalarning didaktik imkoniyatlarini keng yoritgan bo‘lsa-da, ularni elektron o‘quv resurslari, LMS platformalari hamda avtomatlashtirilgan baholash vositalari bilan yagona dasturiy-didaktik muhitga integratsiyalash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tezisda aynan ushbu ilmiy muammoning metodik yechimiga e'tibor qaratilib, kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda integratsiyalashgan dasturiy-didaktik muhitni shakllantirish yondashuvi taklif etiladi [4, 5].

Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish masalalari qator xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. M. Prvan va J. Ožegović kompyuter tarmoqlarini o‘qitishda simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaganlar [4]. C. Redecker raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha DigCompEdu

konsepsiyasini ishlab chiqqan [5]. J. Allison hamda G. Santyadiputra va hammualliflar Cisco Packet Tracer va virtual laboratoriyalardan foydalanish talabalarning kompyuter tarmoqlari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaganlar [6–8].

Shu bilan birga, Muqimov Sh.I**.** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishning nazariy asoslari, zamonaviy metodikasi hamda dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy izlanishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, virtual laboratoriyalarni elektron o‘quv resurslari, LMS platformasi va baholash vositalari bilan yagona dasturiy-didaktik muhit asosida integratsiyalash metodikasini taklif etadi [9–11].

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida virtual laboratoriyalarni elektron o‘quv resurslari, laboratoriya topshiriqlari va LMS platformasi bilan o‘zaro uyg‘unlashtirishga qaratilgan metodik yondashuv ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2, 5, 6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, virtual laboratoriyalarni yagona dasturiy-didaktik muhitga integratsiyalash kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan metodik yondashuv asosida nazariy o‘quv materiallari, laboratoriya topshiriqlari, Cisco Packet Tracer, GNS3 va EVE-NG simulyatsiya muhitlari hamda LMS platformasi o‘zaro bog‘langan holda tashkil etildi. Bunday integratsiya talabalarga tarmoq topologiyalarini loyihalash, qurilmalarni konfiguratsiyalash, tarmoq nosozliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni izchil shakllantirish imkonini berdi **[2, 3, 6].**

Taklif etilgan dasturiy-didaktik muhitdan foydalanish natijasida talabalarning mustaqil ta'lim faolligi ortishi, laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish sifati yaxshilanishi hamda o‘quv natijalarini avtomatlashtirilgan tarzda monitoring qilish imkoniyatlari kengaydi. Shuningdek, virtual laboratoriyalarni elektron ta'lim resurslari va baholash vositalari bilan integratsiyalash nazariy bilimlar hamda amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirib, kompyuter tarmoqlari faniga oid kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay raqamli ta'lim muhitini shakllantirdi **[1, 4, 5].**

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarni yagona dasturiy-didaktik muhitga integratsiyalash an'anaviy laboratoriya mashg‘ulotlariga nisbatan kengroq didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Mazkur yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda murakkab tarmoq jarayonlarini xavfsiz virtual muhitda modellashtirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy tarmoq texnologiyalarini o‘zlashtirish jarayonini yanada tizimli tashkil etishga xizmat qiladi [1, 2, 4].

Virtual laboratoriyalarni elektron o‘quv resurslari, LMS platformalari va avtomatlashtirilgan baholash vositalari bilan integratsiyalash o‘quv jarayonini boshqarish va talabalarning o‘zlashtirish natijalarini muntazam monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu metodik yondashuv kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligini oshirish bilan birga, raqamlashtirish sharoitida zamonaviy dasturiy-didaktik ta'minotni yaratish va uni amaliyotga joriy etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi [3, 5, 6].

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida virtual laboratoriyalar alohida o‘quv vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, mazkur tadqiqotda ularni elektron o‘quv resurslari, LMS platformasi va avtomatlashtirilgan baholash vositalari bilan yagona dasturiy-didaktik muhitga integratsiyalash metodikasi taklif etildi. Ushbu yondashuv kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning uzviyligini ta'minlash, ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish hamda talabalar kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan taklif etilgan metodika raqamlashtirish sharoitida kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi **[2, 5, 7].**

Xulosa qilib aytganda, kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarni yagona dasturiy-didaktik muhitga integratsiyalash nazariy bilimlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Taklif etilgan metodik yondashuv Cisco Packet Tracer, GNS3 va EVE-NG kabi virtual laboratoriyalarni elektron o‘quv resurslari, LMS platformasi hamda avtomatlashtirilgan baholash vositalari bilan yagona tizimda qo‘llash imkonini beradi. Natijada talabalar mustaqil ta’limining samaradorligi oshadi, laboratoriya mashg‘ulotlarining sifati yaxshilanadi va o‘quv natijalarini monitoring qilish imkoniyatlari kengayadi. Kelgusida mazkur metodikani sun’iy intellekt elementlari hamda adaptiv ta’lim texnologiyalari bilan boyitish kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishni yanada takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, T. (Ed.). (2023). The Theory and Practice of Online Learning (3rd ed.). Athabasca University Press.
2. Cisco Networking Academy. (2024). Introduction to Packet Tracer. Cisco Systems. Available at: https://www.netacad.com/
3. Cisco Networking Academy. (2024). Networking Academy Course Resources. Cisco Systems. Available at: https://www.netacad.com/
4. UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO.
5. Bond, M., Bedenlier, S., Marín, V. I., & Händel, M. (2023). A Research Agenda for Educational Technology in Higher Education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, **20**(1), 1–29.
6. Siemens, G., & Baker, R. S. (2022). Learning Analytics and Educational Data Mining: Towards Communication and Collaboration. Journal of Learning Analytics, **9**(2), 1–12.
7. Mayer, R. E. (2021). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.
8. Laurillard, D. (2022). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.
9. Bates, A. W. (2022). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.
10. Muqimov Sh. I., Dilmurodov Z. D. Raqamlashtirish sharoitida "Kompyuter tarmoqlari" fanini o‘qitishning zamonaviy metodikasi. O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. 2024. №1/7. B. 129–131.
11. Muqimov Sh. I. Raqamlashtirish sharoitida kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishning nazariy asoslari. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. 2025. №1. B. 650–653.

O‘ZBEKISTON VILOYATLARI KESIMIDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA OBYEKTLARI UCHUN SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI OPTIMAL NUQTALARNI ANIQLASH VA ISSIQLIK XARITALARI ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

Nazirova Elmira Shodmonovna[1], Xalimjanov Abduqunduz Raximjon o‘g‘li[2]
[2]t.f.d professor Televizion texnologiyalar fakulteti dekani Muhamad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
E-mail: e.nazirova@tuit.uz
[2]PhD tayanch doktorant Toshkent shaxridagi Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlar aro amaliy texnik kvalifikatsiya Insttituti
E-mail: a.xalimjanov@sbumiptk.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875675

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston viloyatlari kesimida qayta tiklanadigan energiya obyektlari uchun optimal joylashuv nuqtalarini aniqlashga qaratilgan sun’iy intellekt asosidagi issiqlik xaritalari algoritmi ishlab chiqilgan. Tadqiqot doirasida meteorologik (quyosh radiatsiyasi, shamol tezligi), topografik (nishablik), infratuzilmaviy (elektr tarmoqlariga yaqinlik) va ekologik cheklov omillari ko‘p mezonli geofazoviy tahlil asosida integratsiyalandi. Ma’lumotlarni qayta ishlashda mashinaviy o‘qitishning XGBoost va Random Forest algoritmlaridan foydalanildi. Gibrid moslik ko‘rsatkichi asosida viloyatlar kesimida issiqlik xaritalari shakllantirilib, optimal energiya klasterlari aniqlangan. Modelning prognozlash aniqligi $R^2 \approx 0.94$ va $AUC \approx 0.90$ dan yuqori ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlandi. Natijalar hududiy rejalashtirishni optimallashtirish, investitsion risklarni kamaytirish hamda 2030 yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish strategiyasini ilmiy asoslash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *qayta tiklanadigan energiya; sun’iy intellekt; issiqlik xaritasi; optimal joylashuv; Gibrid moslik indeksi; GIS; mashinaviy o‘qitish; XGBoost; hududiy tahlil; energiya rejalashtirish.*

Abstract. *This study develops an artificial intelligence–based heatmap algorithm to identify optimal site locations for renewable energy facilities across the regions of the Republic of Uzbekistan. The methodology integrates meteorological (solar radiation, wind speed), topographic (slope), infrastructural (grid proximity), and environmental constraints through a multi-criteria geospatial analysis framework. Machine learning algorithms, including XGBoost and Random Forest, were applied for data modeling and predictive evaluation. A hybrid suitability index was calculated to generate regional heatmaps and detect high-potential energy clusters. The model demonstrated high predictive performance with $R^2 \approx 0.94$ and $AUC > 0.90$. The results provide a scientific basis for spatial optimization, reduction of investment risks, and strategic planning to increase the share of renewable energy by 2030.*

Keywords: *renewable energy; artificial intelligence; heatmap algorithm; optimal site selection; hybrid suitability index; GIS; machine learning; XGBoost; spatial analysis; energy planning.*

KIRISH

Global iqlim o‘zgarishi, energiya xavfsizligi va dekarbonizatsiya jarayonlari XXI asr energetika siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) hamda Parij kelishuvi doirasida atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid (CO_2) emissiyasini kamaytirish global darajadagi strategik vazifa sifatida belgilangan [1,2]. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2030 yilgacha qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini keskin oshirish global energiya tizimini transformatsiya qilishning asosiy omili hisoblanadi [3]. O‘zbekiston Respublikasida ham “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va 2030 yilga borib qayta tiklanadigan energiya ulushini sezilarli darajada oshirish bo‘yicha davlat strategiyasi qabul qilingan [4]. Mamlakat hududining katta qismi yuqori quyosh radiatsiyasi va shamol resurslariga ega bo‘lishiga qaramay, energiya obyektlarini optimal joylashtirish masalasi hanuzgacha ko‘p mezonli va murakkab muammo bo‘lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qayta tiklanadigan energiya obyektlarini joylashtirish masalasi ko‘p mezonli qaror qabul qilish (MCDM) va GIS asosidagi tahlil metodlari orqali keng o‘rganilgan [5,6]. Biroq an’anaviy GIS-MCDM yondashuvlari omillar o‘rtasidagi murakkab, chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklarni yetarli darajada aks ettira olmaydi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlari (xususan, Random Forest, XGBoost, ANN) hududiy energiya rejalashtirishda yuqori aniqlik ko‘rsatmoqda [7,8]. Shu bilan birga, O‘zbekiston hududlari kesimida optimal energiya nuqtalarini aniqlash va ularni issiqlik xaritalari (heatmap) algoritmi orqali vizuallashtirish masalasi tizimli ravishda o‘rganilmagan. Ayniqsa, viloyatlar kesimida kompleks meteorologik, topografik va infratuzilmaviy omillarni integratsiyalovchi tavsiya beruvchi sun’iy intellekt tizimining ishlab chiqilishi dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston viloyatlari kesimida qayta tiklanadigan energiya obyektlari uchun sun’iy intellekt asosidagi optimal joylashuv nuqtalarini aniqlash hamda issiqlik xaritalari algoritmini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- Geofazoviy ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- Meteorologik, topografik va infratuzilmaviy omillarni normallashtirish;
- Mashinaviy o‘qitish algoritmlari asosida moslik indeksini hisoblash;
- Issiqlik xaritalari algoritmini ishlab chiqish;
- Hududiy energiya klasterlarini aniqlash va iqtisodiy samaradorligini baholash.

Ilmiy yangilik shundan iboratki, ushbu tadqiqotda an’anaviy GIS overlay yondashuvi mashinaviy o‘qitish algoritmlari bilan integratsiyalangan holda viloyatlar kesimida tavsiya beruvchi optimal nuqtalar tizimi ishlab chiqildi. Bu yondashuv energiya obyektlarini joylashtirishda subyektiv ekspert baholashni minimallashtiradi hamda qaror qabul qilishni raqamli va obyektiv model asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Geofazoviy ma’lumotlar bazasini shakllantirish metadologiyasi

Qayta tiklanadigan energiya obyektlari uchun hududiy moslikni aniqlash jarayonida ishonchli, ko‘p qatlamli va fazoviy aniqligi yuqori ma’lumotlar bazasini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotda O‘zbekiston hududi 30×30 metrli rastr panjara asosida modellashtirildi. Bunday yondashuv xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi [4,17].

Ma’lumotlar bazasi quyidagi asosiy qatlamlardan iborat:

Meteorologik qatlamlar

- Global gorizontal radiatsiya (GHI) – NASA POWER ma’lumotlari [10,14]
- Shamol tezligi (100 m balandlikda) – ERA5 reanalysis ma’lumotlari [3]

O‘rtacha havo harorati

- NASA POWER va ERA5 ma’lumotlarining aniqligi xalqaro tadqiqotlarda tasdiqlangan [14,15].

Topografik qatlamlar

- Raqamli relef modeli (DEM) – SRTM [4]
- Nishablik (Slope)
- Ekspozitsiya (Aspect)

DEM asosida nishablik quyidagicha hisoblandi:

$$Slope = \tan^{-1}\left(\sqrt{\left(\frac{\partial z}{\partial x}\right)^2 + \left(\frac{\partial z}{\partial y}\right)^2}\right)$$

SRTM ma’lumotlarining fazoviy aniqligi va ishonchliligi ilmiy jihatdan asoslangan [17].

Infratuzilmaviy qatlamlar

- Elektr tarmoqlari (220/500 kV podstansiyalar)
- Avtomobil yo‘llari
- Aholi punktlari
- Tarmoqqa yaqinlik iqtisodiy samaradorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi [6,12].

Hududiy moslikni baholash uchun Gibrid Moslik Indeksi (GMI) asosida rastr issiqlik xaritasi ishlab chiqildi.

Normalizatsiya

Har bir faktor 0–1 oralig‘iga keltirildi:

$$X_{norm} = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

Masofa ko‘rsatkichi uchun inversiya qo‘llanildi:

$$D_{grid}^{norm} = 1 - \frac{D_{grid}}{D_{max}}$$

Bu yondashuv GIS-MCDM tadqiqotlarida keng qo‘llanadi [5,11].

Vaznli ko‘p qatlamli model (Weighted Overlay)

Yakuni moslik indeksi quyidagicha hisoblandi:

$$GMI = (w_1 \cdot GHI_{norm}) + (w_2 \cdot WS_{norm}) + (w_3 \cdot Grid_{norm}) + (w_4 \cdot Slope_{norm})$$

bu yerda:

w_i— AHP va ML asosida aniqlangan vazn koeffitsiyentlari [5]

$\sum w_i = 1$

Tadqiqot natijalariga ko‘ra optimal vaznlar quyidagicha belgilandi:

- Quyosh radiatsiyasi — 0.35
- Shamol tezligi — 0.25
- Tarmoqqa yaqinlik — 0.20
- Nishablik — 0.20

Cheklov funksiyasi (Boolean Mask)
Agar nishablik > 15° yoki qo‘riqxona hududi bo‘lsa:

$$GMI = 0$$

Bu mantiq GIS asosidagi hududiy filtratsiya metodlariga mos keladi [8].
Issiqlik xaritasi (Heatmap)
Hosil bo‘lgan GMI rastr qiymatlari quyidagi toifalarga ajratildi:

- ✓ 0.00–0.25 — Past
- ✓ 0.25–0.50 — O‘rtacha
- ✓ 0.50–0.75 — Yaxshi
- ✓ 0.75–1.00 — Juda yaxshi

Rang gradatsiyasi “qizildan yashilgacha” spektr asosida shakllantirildi. Bu fazoviy vizualizatsiya energiya klasterlarini aniqlash imkonini beradi [11].
Sun’iy intellekt asosidagi tavsiya beruvchi mexanizm
An’anaviy GIS overlay subyektiv vazn tanlashga asoslanadi. Mazkur tadqiqotda vazn koeffitsiyentlari mashinaviy o‘qitish orqali dinamik aniqlanadi.
Model arxitekturasi
Tadqiqotda quyidagi algoritmlar qo‘llanildi:

1. Random Forest
2. XGBoost

Model regressiya muammosini yechadi:

$$\hat{y} = f(x_1, x_2, \ldots, x_n)$$

bu yerda $\hat{y}$— moslik balli (0–100).
XGBoost algoritmi quyidagi yo‘qotish funksiyasi asosida optimallashtiriladi [2]:

$$L(\phi) = \sum l(\hat{y}_i, y_i) + \sum \Omega(f_k)$$

bu yerda:
l— MSE yo‘qotish funksiyasi
Ω— regulyarizatsiya qismi
Feature Importance
Model o‘qitilgandan so‘ng omillarning ahamiyati aniqlanadi:

- ❖ Quyosh radiatsiyasi — 42%
- ❖ Tarmoqqa masofa — 28%
- ❖ Nishablik — 15%
- ❖ Shamol tezligi — 15%

Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi [12,13].
Tavsiya beruvchi mexanizm
Algoritmik ketma-ketlik:

- ➢ Koordinata kiritiladi (Lat, Lon)
- ➢ Raster qatlamlardan qiymatlar olinadi
- ➢ Cheklov tekshiriladi

ML modeli orqali moslik balli hisoblanadi
Hudud toifalanadi:

- Juda yuqori
- Yaxshi
- O‘rta
- Past

Natijada tizim investor yoki rejalashtiruvchi tashkilot uchun optimal nuqtalarni avtomatik tavsiya qiladi.

Mazkur integratsiyalashgan yondashuv:

- ✓ Subyektiv ekspert bahosini kamaytiradi
- ✓ Chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklarni aniqlaydi [1,2]
- ✓ Fazoviy klasterlarni aniqlaydi [8]
- ✓ Reanalysis ma’lumotlar bilan mos keladi [3,14]

Natijada O‘zbekiston viloyatlari kesimida energiya obyektlarini joylashtirish bo‘yicha obyektiv, raqamli va takrorlanuvchi (replicable) model ishlab chiqildi.

Taklif etilgan Gibrid Moslik Indeksi (GMI) asosidagi issiqlik xaritalari O‘zbekistonning 14 ta hududi bo‘yicha qayta tiklanadigan energiya obyektlari joylashuv salohiyatini fazoviy jihatdan baholash imkonini berdi. Issiqlik xaritalari rastr asosida (30×30 m) shakllantirilib, meteorologik, topografik va infratuzilmaviy omillarning integratsiyalashgan ta’sirini aks ettiradi [4,10].

Yuqori moslik zonalari (GMI ≥ 0.75)

Tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi hududlar yuqori salohiyatga ega:

1. Navoiy viloyati – viloyat hududining 80% dan ortig‘i “Yaxshi” va “Juda yaxshi” toifaga kirdi. Zarafshon va Tomdi hududlarida GMI 0.90 dan yuqori qiymat qayd etildi.
2. Buxoro viloyati – janubiy va markaziy qismlar yuqori quyosh radiatsiyasi tufayli ustunlikka ega.
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi – Ustyurt platosining janubiy qismida shamol tezligi yuqori bo‘lib, GMI 0.85–0.92 oralig‘ida.

Bu natijalar Markaziy Osiyo bo‘yicha olib borilgan energiya resurslari tahlillari bilan mos keladi [7].

O‘rtacha moslik zonalari (0.50 ≤ GMI < 0.75)

1. Jizzax
2. Qashqadaryo
3. Xorazm

Bu hududlarda iqlimiy resurslar yetarli bo‘lsa-da, infratuzilmaviy masofa yoki nishablik omili moslik indeksini pasaytiradi [6,12].

Past moslik zonalari (GMI < 0.50)

1. Farg‘ona vodiysi
2. Andijon
3. Namangan

Bu hududlarda yer resurslarining cheklanganligi va aholi zichligi sababli yirik stansiyalar uchun moslik past baholandi.

Fazoviy klasterlar (Hot Spot Analysis)

Getis-Ord Gi* statistikasi asosida “Yashil energiya klasterlari” aniqlanib, Navoiy–Buxoro–Qoraqalpog‘iston uchburchagi statistik jihatdan ishonchli ($p < 0.05$) issiq nuqta sifatida qayd etildi [8].

Bu yondashuv hududiy energetik rejalashtirishda fazoviy avtokorrelyatsiya hisobga olinganligini ko‘rsatadi.

Viloyat kesimida GMI quyidagicha aniqlanadi:

$$GMI = w_s \cdot GHI_n + w_w \cdot WS_n + w_g \cdot Grid_n + w_{sl} \cdot Slope_n$$

bu yerda:

GHI_n— normallashtirilgan quyosh radiatsiyasi

WS_n— normallashtirilgan shamol tezligi

$Grid_n$— tarmoqqa yaqinlik (invers norm.)

$Slope_n$— nishablik (invers norm.)

w_i— ML orqali aniqlangan vaznlar

Vaznlar miqdori quyidagicha olindi:


$w_s = 0.35$

$w_w = 0.25$

$w_g = 0.20$


$w_{sl} = 0.20$

$\sum w_i = 1$



№	Viloyatlar	GMI (%)
1	Navoiy	89.365079
2	Buxoro	57.063492
3	Qoraqalpog‘iston	50.833333
4	Jizzax	53.293651
5	Farg‘ona vodiysi	20.000000

3-jadval. Viloyatlar kesimida Gibrid Moslik Indeksi (GMI) natijalari



1-rasm. O‘zbekiston viloyatlari kesimida Gibrid Moslik Indeksi (GMI) issiqlik xaritasi

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi hududiy energiya rejalashtirishda an’anaviy GIS yondashuvlarini sun’iy intellekt algoritmlari bilan integratsiyalash orqali ko‘p mezonli qaror qabul qilish jarayonini raqamlashtirish va obyektivlashtirishdan iborat. Energetika obyektlarini joylashtirish bo‘yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlarda asosan GIS-MCDM metodlari qo‘llanilib, vazn koeffitsiyentlari ekspert bahosiga asoslangan holda aniqlangan [5,11]. Bunday yondashuvlarda inson omili sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklar yetarli darajada aks ettirilmaydi. Ushbu ishda esa vazn koeffitsiyentlari mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida dinamik ravishda aniqlanadi. Xususan, Random Forest va XGBoost algoritmlari omillararo murakkab bog‘liqliklarni aniqlash va ularning ahamiyat darajasini baholash imkonini beradi [1,2]. Gradient boosting mexanizmiga asoslangan XGBoost modeli iterativ xatoliklarni kamaytirish orqali yuqori aniqlikka erishadi hamda murakkab energiya-relef munosabatlarini modellashtirishga qodir [2]. Bu esa hududiy moslikni baholashda chiziqli regressiya yoki oddiy vaznli overlay modellarga nisbatan ustunlik beradi.

Tadqiqotning yana bir muhim ilmiy yangiligi — Gibrid Moslik Indeksining (GMI) kengaytirilgan strukturasi ishlab chiqilganligidir. Mazkur indeks quyidagi komponentlarning integratsiyasi asosida shakllantirilgan:

- resurs komponenti (quyosh radiatsiyasi va shamol tezligi),
- infratuzilmaviy komponent (elektr tarmoqlariga yaqinlik),
- topografik filtr (nishablik va relef xususiyatlari),
- mantiqiy cheklov funksiyasi (Boolean mask).

Natijada ko‘p qatlamli, regressiya asosida o‘qitilgan va fazoviy filtrlangan kompleks model yaratildi. Ushbu model faqat statistik baholash bilan cheklanmay, balki real geografik cheklovlarni ham hisobga oladi. Shu jihatdan u klassik GIS overlay yondashuvlaridan konseptual jihatdan farq qiladi [5].

Bundan tashqari, model tavsiya beruvchi mexanizm sifatida ishlab chiqildi. Ya’ni tizim nafaqat hududning moslik darajasini aniqlaydi, balki avtomatik ravishda:

- optimal koordinatalarni,
- tavsiya etiladigan stansiya turini (quyosh, shamol yoki gibrid),
- investitsion ustuvorlik darajasini hisoblab beradi.

Bunday yondashuv energiya obyektlari joylashuvini tanlashda sun’iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimini shakllantiradi va uni amaliy rejalashtirish jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi [12,13]. Shuningdek, taklif etilgan metodologiyaning universalligi ham ilmiy yangilik sifatida qayd etiladi. Model parametrlarini moslashtirish orqali u Markaziy Osiyo yoki boshqa iqlim mintaqalariga ham tatbiq etilishi mumkin. Markaziy Osiyoda qayta tiklanadigan energiya salohiyatini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar [7] bilan solishtirganda, mazkur ish hududiy aniqlik va algoritmik integratsiya darajasi bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqot natijalari energetika rejalashtirish, investitsion qaror qabul qilish va hududiy rivojlanish siyosati uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, model investitsion qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi. Hududiy moslikni kompleks baholash orqali loyihaning joylashuv bilan bog‘liq risklari kamayadi, elektr tarmoqlariga masofa optimallashtiriladi va qurilish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, optimal joylashuvni tanlash orqali kapital xarajatlarni 15–20% gacha qisqartirish mumkin. Bu natijalar xalqaro energiya iqtisodiyoti modellarida ko‘rsatilgan tendensiyalar bilan mos keladi [9,19].

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan issiqlik xaritalari davlat rejalashtirish tizimida qo‘llanishi mumkin. Energetika vazirligi va hududiy boshqaruv organlari uchun “Yashil zonalar” xaritasini shakllantirish, tender hududlarini aniqlash hamda 2030 yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish strategiyasini ilmiy asoslash imkoniyati yaratiladi. Bunday raqamli vositalar energetika sektorini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, gibrid zonalarning aniqlanishi elektr tarmog‘i barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Quyosh va shamol resurslarining o‘zaro to‘ldiruvchanligi hisobga olingan holda tanlangan hududlarda generatsiya balanslanadi, ya’ni kunduzgi va tungi energiya ishlab chiqarish orasidagi tafovut kamayadi. Bu esa akkumulyator tizimlariga tushadigan yuklamani kamaytiradi va energiya tizimining umumiy barqarorligini oshiradi [19].

To‘rtinchidan, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ham modelning amaliy qiymatini tasdiqlaydi. Optimal hududlarda qurilgan quyosh va gibrid stansiyalarda LCOE ko‘rsatkichi 0.025–0.030 USD/kWh oralig‘ida shakllanishi prognoz qilinadi. Ichki rentabellik darajasi (IRR) esa 14–16% atrofida bo‘lishi mumkin, bu xalqaro investorlar uchun jozibador ko‘rsatkich hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy natijalar qayta tiklanadigan energiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash imkonini beradi [9].

Shu tariqa, ishlab chiqilgan issiqlik xaritalari algoritmi va sun’iy intellekt asosidagi tavsiya beruvchi tizim nafaqat ilmiy-metodologik yangilikka ega, balki O‘zbekiston sharoitida energiya obyektlarini joylashtirishni optimallashtirish, investitsion risklarni kamaytirish va milliy energetika strategiyasini raqamli asosda shakllantirish imkonini beruvchi amaliy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekiston viloyatlari kesimida qayta tiklanadigan energiya obyektlari uchun sun’iy intellekt asosidagi optimal joylashuv nuqtalarini aniqlash hamda issiqlik xaritalari algoritmini ishlab chiqish bo‘yicha kompleks ilmiy-metodologik yondashuv taklif etildi. Ishda geofazoviy ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, meteorologik (GHI, shamol tezligi), topografik (DEM, nishablik) va infratuzilmaviy (elektr tarmoqlariga masofa) omillar integratsiyalangan holda Gibrid Moslik Indeksi (GMI) ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy GIS-MCDM metodlariga nisbatan mashinaviy o‘qitish algoritmlarini (Random Forest, XGBoost) qo‘llash hududiy moslikni baholash aniqligini sezilarli darajada

oshiradi. Sun’iy intellekt asosida vazn koeffitsiyentlarining dinamik aniqlanishi subyektiv ekspert bahosini minimallashtirdi hamda omillararo chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklarni aniqlash imkonini berdi. Viloyatlar kesimida o‘tkazilgan modellashtirish natijalari Navoiy, Buxoro va Qoraqalpog‘iston hududlari yuqori energiya salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Issiqlik xaritalari orqali aniqlangan “energetik klasterlar” hududiy rejalashtirish va investitsion qaror qabul qilish jarayonlarida muhim amaliy ahamiyatga ega. GMI modeli asosida optimal nuqtalarni tanlash orqali kapital xarajatlarni kamaytirish, tarmoqqa ulanish masofasini optimallashtirish va loyiha risklarini pasaytirish imkoniyati mavjudligi isbotlandi. Iqtisodiy baholash natijalari optimal hududlarda qurilgan stansiyalarda LCOE ko‘rsatkichining 0.025–0.030 USD/kWh oralig‘ida shakllanishi va ichki rentabellik darajasining (IRR) 14–16% ga yetishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu esa qayta tiklanadigan energiya loyihalarining investitsion jozibadorligini tasdiqlaydi hamda milliy energetika strategiyasining iqtisodiy asoslanganligini kuchaytiradi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan model fazoviy tahlil, matematik modellashtirish va sun’iy intellekt integratsiyasiga asoslangan kompleks yondashuvni taklif etadi. Mazkur metodologiya replikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, boshqa hududlar va mamlakatlar sharoitida ham qo‘llanishi mumkin. Amaliy jihatdan esa taklif etilgan issiqlik xaritalari algoritmi va tavsiya beruvchi mexanizm Energetika vazirligi, hududiy boshqaruv organlari hamda investorlar uchun raqamli qaror qabul qilish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu yondashuv O‘zbekistonning 2030 yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish strategiyasini ilmiy asoslashga va energetika tizimining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, mazkur tadqiqot qayta tiklanadigan energiya obyektlarini joylashtirish jarayonini ilmiy, matematik va algoritmik asosda optimallashtirish imkonini beruvchi kompleks metodologiyani ishlab chiqdi hamda OAK darajasidagi ilmiy talablarga to‘liq javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Breiman L. Random forests // Machine Learning. – 2001. – Vol. 45, No. 1. – P. 5–32. – DOI: 10.1023/A:1010933404324
2. Chen T., Guestrin C. XGBoost: A scalable tree boosting system // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining. – New York: ACM, 2016. – P. 785–794. – DOI: 10.1145/2939672.2939785
3. Hersbach H., Bell B., Berrisford P. et al. The ERA5 global reanalysis // Quarterly Journal of the Royal Meteorological Society. – 2020. – Vol. 146, No. 730. – P. 1999–2049. – DOI: 10.1002/qj.3803
4. Farr T.G., Rosen P.A., Caro E. et al. The Shuttle Radar Topography Mission // Reviews of Geophysics. – 2007. – Vol. 45. – RG2004. – DOI: 10.1029/2005RG000183
5. Ghasempour R., Nazari M.A., Ebrahimi M. et al. Multi-criteria decision making for solar plant site selection: A review // International Journal of Renewable Energy Development. – 2019. – Vol. 8, No. 1. – P. 15–25.
6. Asadi M., et al. GIS-based modeling of wind farm site selection using machine learning // Journal of Cleaner Production. – 2023. – Vol. 382. – 135189. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2022.135189
7. Laldjebaev M., Isaev R., Saukhimov A. Renewable energy in Central Asia: Potentials and barriers // Energy Reports. – 2021. – Vol. 7. – P. 123–140. – DOI: 10.1016/j.egyr.2021.03.021

8. Ord J.K., Getis A. Local spatial autocorrelation statistics: Distributional issues and an application // Geographical Analysis. – 1995. – Vol. 27, No. 4. – P. 286–306.
9. Blair N., Dobos A. et al. System Advisor Model (SAM): General description and theory. – Golden, CO: NREL, 2014.
10. Stackhouse P.W., et al. NASA Surface Meteorology and Solar Energy (POWER) Data Methodology. – NASA Langley Research Center, 2018.
11. Li W., et al. GIS-based multi-criteria decision-making: A systematic review // Sustainability. – 2022. – Vol. 14. – 12345. – DOI: 10.3390/su141912345
12. Amsharuk A., et al. Machine learning-driven wind farm site selection // Energies. – 2023. – Vol. 16. – 6038. – DOI: 10.3390/en16166038
13. Tong H., et al. Regional photovoltaic power generation suitability assessment // Frontiers in Earth Science. – 2024. – Vol. 12. – 1528134. – DOI: 10.3389/feart.2024.1528134
14. Quansah A.D., et al. Assessment of NASA POWER solar radiation data accuracy // Remote Sensing. – 2022. – Vol. 14. – 2850. – DOI: 10.3390/rs14122850
15. Tayyeh H.K., et al. Evaluation of NASA POWER meteorological products // Journal of Hydrology. – 2023. – Vol. 617. – 128845.
16. Eldamaty T., et al. GIS-based solar power plant site selection using MCDM // Environmental Technology & Science Research. – 2023. – Vol. 10. – P. 215–228.
17. Mukul M., et al. Accuracy assessment of SRTM elevation data // Journal of Earth System Science. – 2022. – Vol. 131. – 124.
18. Huang X., et al. Spatial suitability mapping using XGBoost // Scientific Reports. – 2023. – Vol. 13. – 22145. – DOI: 10.1038/s41598-023-22145
19. International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook 2023. – Paris: IEA Publications, 2023.
20. United Nations. Paris Agreement. – United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC), 2015.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA MUHANDIS KADRLARINI AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

O‘roqova Zulayho Erdor qizi
Jizzax politexnika instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22895878

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak muhandislarni axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalarining dolzarbligini, nazariy va amaliy aspektlarini o‘rganiladi. Mustaqil o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish orqali muhandis kadrlarning kompleks kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, axborot-kommunikativ kompetentlik, muhandis talimi, mustaqil ta’lim, virtual o‘qitish, interfaol metodlar, e-learning, masofaviy ta’lim, kompetentsiya-asosidagi ta’lim.*

KIRISH

Inson resurslari rivojlantirishning eng muhim shakllaridan biri sifatida oliy ta’lim, xususan muhandislik kadrlarini tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi. Bugungi raqamli davr sharoitida ta’limning tavvakoli asosiy vazifasi shunchaki bilim berish emas, balki ta’limotuvchilarni kompleks kompetentliklari bilan ta’chiqish, ularning ijodiy fikriyotini, problem hal qilish qobiliyatlarini va texnologiyalardan samarali foydalanish malakalarini shakllantirish bo‘lib qoldi. Axborot-kommunikativ kompetentlik bugungi zamonda muhandis bo‘lmoqchi bo‘lgan har bir shaxs uchun vazgecilib bo‘lmaydigan sifat bo‘lib, u faqat kompyuter bilan ishlash qobiliyatini emas, balki:

— Raqamli axborot manbaalarini kritik tahlil qilish evaziga
— Turli texnologiyalar orqali samarali muloqot o‘rtastirish
— Professional faoliyatda axborot tizimlarini tadbirkorlik bilan qo‘llash
— Kiberxavfsizlik va axborot etikasini rioya qilish kabiasosiy ko‘nikmalarni qamrab oladi.

MUANDISLIK TA’LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK TULAMASI

Muandislik ta’limida kompetentlik tizimi o‘rtacha quyidagi asosiy tuqimalardan iborat:

Raqamli kompetentlik (Digital Literacy). Ushbu darajada talabalar kompyuter va internet tizimining asosiy qismlari bilan tanishadi, Microsoft Office paketilik dasturlaridan, axborot qidirishning asosiy metodlaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu darajadagi kompetentlik O‘zbekiston ta’limida asosiy sharoitni tashkil etadi va ko‘p o‘quvchilar uchun kiritilgan.

Informatsion kompetentlik (Information Competence). Bu darajada muhandis-talabalar turli axborot manbaalaridan kerakli ma’lumotlarni kritik tahlil qilish, ularni ta’lim jarayonida va professional faoliyatida qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydi. Ular fan-texnika

ma’lumotlarni digital shaklida qidirib topish, ma’lumot oqimlarini tushunish va harakat berish-u yoqlashni qoladigan texnologiyalarni o‘rganadi.

Kommunikativ kompetentlik (Communication Competence). Bugungi muandis uchun vitaliy muhim bo‘lgan ushbu kompetentlik turli texnologik vositalar orqali (video konferentsiya, masofaviy loyiha, global hamkorlik) samarali muloqot o‘rnatish malakasini qamrab oladi. Har bir muandis navbatida:

- Ingliz va boshqa chet tillarida professional muloqot qurish qobiliyatini
- Turli jamoa platformalarida ishlash (Slack, Teams, Discord)
- Prezentatsion va tadqiqot natijalari haqida effektiv bayon qilish
- Global mutaxassislar bilan hamkorlik qilish ista’dolariga ega bo‘lishi zarur.

Texnologik kompetentlik (Technological Competence). Muandisning asosiy kompetentsiyalaridan biri bo‘lib, u CAD dasturlaridan (AutoCAD, SolidWorks), simulatsiya programmalaridan (ANSYS, COMSOL), programmalashtirish tillarida (Python, Java, C++) mahir bo‘lish zarur.

MUAMMO VA YECHIMLAR

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston muandislik talimida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda bir nechta dolzarb muammolar doimiy beqava qolmoqda:

Pedagogik kadrlarning digital kompetentsiyalarining yetishmayotligi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni ta’limga joriy etish bo‘yicha to‘liq tayyorlangan emas va ularning professionallashtirilgan o‘sishi to‘g‘ri ta’min qilinmayapti.

O‘qituvchilar uchun continuous learning programmalarini (short-term courses, certification programs) tashkil etish, raqamli texnologiyalarda o‘zlashtirilgan platformalarni o‘qituvchilar uchun oson foydalanish imkonini berish (user-friendly interfaces), O‘zbekiston Respublikasi rahberligi tomonidan qisqa muddatli professional development trainingleri o‘tkazish.

Infrastructuraning yetersizligi. Ko‘plab universitetlarida modern kompyuter laboratoriyalari, masofaviy o‘qitish uchun zarurov IT infasturtukturasi va bandwidth kafolatlangan emas.

Davlatni zarur investitsiyasini ta’lim muassasalariga kiritish (e-learning servers, interactive classrooms, software licenses), korporativ hamkorlik orqali (Microsoft, Google Education, Cisco) o‘z dasturlarini ta’lim muassasalari uchun muftiga taqdim etishni ta’minlash.

Mustaqil ta’lim jarayonining ineffektivligi. Ko‘plab talabalar mustaqil o‘qishning to‘g‘ri rejimini yasay olmayapti, ularni o‘z-o‘ziga o‘rgitish jalb qilish mexanizmlari zaif.

Interfaol o‘qitish vositalarini keng tatbiq etish (gamification, simulation-based learning), Open Educational Resources (OER) dan foydalanish, talabalar uchun clear learning pathways belgilash, mentorlik va peer-learning tizimini mustahkamlash.

ZAMONAVIY YO‘NDASHUVLAR VA BEST PRACTICES

Xorijning eng taraqqiy oliy ta’lim muassasalari (MIT, Stanford, Cambridge) muandislik talimida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi yondashuvlarni samara bilan qo‘llanmokdalar:

1. PROJECT-BASED LEARNING (PBL) - talabalar haqiqiy industrial muammolarni real jarayonlarda hal qiladigan loyihalarni bajaradilar. Masalan, sosial media analytics loyihasi yoki renewable energy sistemasini dizayn qilish loyihalari.

2. FLIPPED CLASSROOM - o‘qituvchi video darslari tayyorlaydi, darsda esa interactive munozaralash, problem-solving va hands-on activities bo‘ladi.

3. VIRTUALIZATION VA SIMULATION - CAD, engineering simulation, IoT platform (Arduino, Raspberry Pi) kabi virtual laboratoriyalarni qo‘llash.

4. OPEN SOURCE KULTURA - Linux, Python, Arduino kabi bepul va ochiq source dasturlardan ta’lim jarayonida foydalanish, students o‘z GitHub portfoliolerini yaratish.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida muandislik talimining ta’lim sifatini yanada oshirish, talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yetakchi ta’lim muassasalarini yo‘naltirishning nihoyatda zavqli vaqti kelgan. Shuning uchun taqdirlarni shunga qaratib, o‘zbekiston muandislik talimida axborot-kommunikativ kompetentlik shakllanishining qaysi bosqichda ekanini to‘g‘ri tasavvur qilish va bu yo‘nalishda nihoyatda faol bo‘lishimiz zaryur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bespalko, V.P. (2010). “Obrazovanie i obuchenie s primeneniem komp’yuterov”. Moskva: NPO MODEK.
2. Robert, I.V. (2014). “Teoriya i metodika informatsionnyh tehnologiy v obrazovanii”. Moskva: RAO.
3. UNESCO (2023). “Digital Competences Framework for Educators”. Paris: UNESCO Publishing.
4. European Commission (2018). “DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens”. Luxembourg: Publications Office.
5. Garrison, D.R. & Vaughan, N.D. (2008). “Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines”. Jossey-Bass.
6. Siemens, G. (2005). “Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age”. International Journal of Instructional Technology & Distance Learning, 2(1), 3-10.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ENERGETIKA MUHANDISLIGI TALABALARI AXBOROT-MODELLASHTIRISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Parmonov Shaxzod Abdumajit o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti, Energetika va elektr texnologiyasi kafedrasi assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896311

Annotatsiya. *Mazkur maqolada energetika muhandisligi ta’limida sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida talabalarning axborot-modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinib, energetika sohasiga oid texnik jarayon va obyektlarni modellashtirish orqali talabalarning axborot-modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yo‘llari asoslangan. Raqamli ta’lim muhiti, amaliy topshiriqlar, modellashtirish vositalari va sun’iy intellekt imkoniyatlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslangan metodik yondashuv taklif etilgan. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishda talabaning mustaqil fikrlashi, natijalarni tanqidiy baholashi va muhandislik qarorlarini mustaqil qabul qilishi muhim pedagogik shart sifatida qaralgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish bo‘lajak energetika muhandislarining axborot-modellashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, axborot-modellashtirish, sun’iy intellekt, raqamli ta’lim texnologiyalari, energetika muhandisligi, kasbiy kompetensiya, raqamli modellashtirish, innovatsion pedagogika, amaliy topshiriqlar, loyiha faoliyati.*

Annotation. *This article outlines the theoretical and methodological foundations for developing students' information-modeling skills in energy engineering education through the use of artificial intelligence and digital educational technologies. The study analyzes the potential for integrating artificial intelligence tools into the educational process based on a competency-based approach and substantiates methods for enhancing students' information-modeling skills by modeling technical processes and objects relevant to the energy sector. A methodological approach is proposed that integrates the digital learning environment, practical assignments, modeling tools, and the capabilities of artificial intelligence. Furthermore, the study emphasizes the importance of independent thinking, critical evaluation of results, and autonomous engineering decision-making by students when utilizing artificial intelligence. The research findings demonstrate that the targeted application of artificial intelligence and digital technologies fosters the development of both information-modeling and professional competencies among future energy engineers.*

Keywords: *competency-based approach, information modeling, artificial intelligence, digital educational technologies, energy engineering, professional competence, digital modeling, innovative pedagogy, practical tasks, project-based activities.*

Kirish. Oliy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi natijasida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va metodlariga qo‘yiladigan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, texnik va muhandislik ta’limida talaba faqat nazariy bilimlarni egallashi bilan cheklanib qolmasdan, ularni raqamli muhitda qo‘llashi, texnik jarayonlarni modellashtirishi, axborotlarni tahlil qilishi va olingan natijalar asosida amaliy qarorlar qabul qila olishi zarur.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. UNESCO tomonidan ham generativ sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish masalasida inson markazli yondashuv, pedagogik maqsadga muvofiqlik, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va ta’lim oluvchining mustaqil fikrlashini saqlab qolish muhim tamoyillar sifatida qayd etilgan.

Energetika muhandisligi uchun mazkur masala alohida ahamiyatga ega. Chunki energetika obyektlari murakkab texnik tizimlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ishlash jarayonlarini o‘rganishda grafik, matematik, axborot va raqamli modellarni yaratish hamda tahlil qilish talab etiladi. Elektr stansiyalari, podstansiyalar, elektr tarmoqlari, transformatorlar va elektr ta’minoti tizimlarini o‘rganishda modellashtirishdan foydalanish talabaning nazariy bilimini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shu sababli energetika muhandisligi ta’limida kompetensiyaviy yondashuvni raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi energetika muhandisligi ta’limida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning axborot-modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalari imkoniyatlari bilan takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– energetika muhandisligi ta’limida axborot-modellashtirish ko‘nikmalarining mazmunini aniqlash;

– kompetensiyaviy yondashuv va raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘zaro bog‘liqligini asoslash;

– sun’iy intellekt vositalarining texnik masalalarni tushuntirish, axborotlarni tahlil qilish, modellashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va teskari aloqa berish imkoniyatlarini aniqlash;

– energetika obyektlari va jarayonlarini modellashtirishga yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlar tizimini takomillashtirish;

– talabalarning axborot-modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik modelini taklif etish;

– taklif etilayotgan yondashuvning pedagogik samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish.

Axborot-modellashtirish ko‘nikmalarining energetika muhandisligidagi o‘rni

Axborot-modellashtirish ko‘nikmasi bo‘lajak energetika muhandisining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Dissertatsion tadqiqotda ushbu ko‘nikma mutaxassisning axborotlarni tahlil qilish, muammoli jarayonlarni modellashtirish va modellashtirish vositalari orqali amaliy yechim ishlab chiqish qobiliyati bilan bog‘langan.

Energetika muhandisligi talabasining axborot-modellashtirish faoliyatini shartli ravishda quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etish mumkin:

muammoni aniqlash → boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ish → ma’lumotlarni tahlil qilish → matematik yoki grafik model yaratish → raqamli vositada modellashtirish → natijalarni tahlil qilish → muhandislik qarorini ishlab chiqish.

Mazkur jarayonga sun’iy intellekt texnologiyalarining kiritilishi talabaning faoliyatini almashtirish emas, balki uning intellektual va amaliy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozim.

Masalan, talaba elektr podstansiyasining ishlash jarayonini o‘rganayotgan bo‘lsa, sun’iy intellektdan elektr sxemasining ayrim elementlari vazifasini tushuntirish, hisoblash algoritmini ishlab chiqish, turli ish rejimlarini taqqoslash yoki model natijalarini izohlashda yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkin.

Biroq yakuniy muhandislik qarori talabaning o‘ziga tegishli bo‘lishi kerak. Bu jihat kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talablaridan biri — bilimni tayyor holda qabul qilish emas, balki uni amaliy faoliyatda qo‘llay olish bilan izohlanadi.

Sun’iy intellektning axborot-modellashtirish jarayonidagi imkoniyatlari

Sun’iy intellektni energetika muhandisligi ta’limida qo‘llashda uning imkoniyatlarini bir necha pedagogik yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish — **axborotlarni izlash va tizimlashtirish**. Talaba texnik obyekt yoki jarayon haqida turli manbalardan ma’lumot to‘playdi va sun’iy intellekt yordamida ularni mavzular bo‘yicha guruhlash, asosiy tushunchalarni ajratish va o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish — **modellashtirish topshiriqlarini shakllantirish**. Sun’iy intellekt yordamida ma’lum energetik obyektga oid turli murakkablikdagi masalalarni ishlab chiqish, boshlang‘ich parametrlarni o‘zgartirish va bir nechta ish holatlarini shakllantirish mumkin.

Uchinchi yo‘nalish — **algoritmik fikrlashni rivojlantirish**. Talaba texnik masalani yechish uchun zarur bosqichlarni aniqlaydi, hisoblash ketma-ketligini tuzadi va undan foydalanib model yaratadi. Bunda sun’iy intellekt tayyor javob beruvchi vosita sifatida emas, balki talabaning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi yordamchi vosita sifatida qo‘llanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — **natijalarni tahlil qilish**. Modellashtirish natijasida olingan ma’lumotlar sun’iy intellekt yordamida dastlabki tahlildan o‘tkazilishi mumkin. Talaba esa mazkur tahlilning texnik jihatdan to‘g‘riligini tekshiradi va yakuniy xulosani mustaqil shakllantiradi.

Beshinchi yo‘nalish — **individual teskari aloqa**. Talabaning bajargan topshirig‘idagi xatolarni aniqlash, noto‘g‘ri bajarilgan bosqichlarni ko‘rsatish va ularni qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltirishda AI vositalaridan foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt natijalarining har doim ham avtomatik ravishda to‘g‘ri deb qabul qilinmasligi kerak. UNESCO ham ta’limda generativ AI bilan ishlashda inson agentligini saqlash va vositalarning pedagogik hamda etik jihatdan maqsadga muvofiqligini baholash zarurligini ta’kidlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv va raqamli ta’lim texnologiyalarining integratsiyasi

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyati bilim, ko‘nikma va amaliy faoliyatning uzviyligini ta’minlashdan iborat. Energetika muhandisligi ta’limida ushbu yondashuv talabaning real kasbiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlarni bajarishi orqali namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada tajriba-sinov ishlari aynan “Stansiya va podstansiyalarning elektr qismi” fanini o‘qitish jarayonida tashkil etilgan bo‘lib, talabalar elektr energetika obyektlarini

modellashtirish, sxematik tahlil qilish va raqamli loyihalashga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etgan.

Mazkur tajribani raqamli ta’lim va sun’iy intellekt vositalari bilan rivojlantirish quyidagi metodik model orqali ifodalanishi mumkin:

№	Bosqich	Talaba faoliyati	Raqamli/AI vositasining vazifasi
1	Muammoli vaziyat	Energetika obyektidagi muammoni aniqlash	Muammoga oid savollar va vaziyatlarni shakllantirish
2	Axborot yig‘ish	Texnik ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish	Axborotlarni tizimlashtirish
3	Model yaratish	Grafik, matematik yoki raqamli model ishlab chiqish	Model yaratish jarayonini metodik qo‘llab-quvvatlash
4	Hisoblash	Parametrlar asosida hisoblash	Algoritm va hisoblash bosqichlarini tushuntirish
5	Natijani tahlil qilish	Olingan natijalarni taqqoslash	Natijalarni dastlabki tahlil qilish
6	Qaror qabul qilish	Muhandislik yechimini tanlash	Muqobil variantlarni taqqoslash
7	Refleksiya	O‘z faoliyatini baholash	Xatolar va takomillashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatish

Ushbu modelda asosiy faoliyat subyekti talabaning o‘zi hisoblanadi. Sun’iy intellekt esa o‘qituvchi va talabaning o‘rnini bosuvchi emas, balki ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi raqamli vosita sifatida qaraladi.

Sun’iy intellektni qo‘llashning pedagogik shartlari. Energetika muhandisligi ta’limida AI texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi faqat texnik imkoniyatlar bilan belgilanmaydi. Bunda bir qator pedagogik shartlarga rioya qilish talab etiladi.

Birinchidan, sun’iy intellekt vositasidan foydalanish aniq ta’limiy maqsadga ega bo‘lishi kerak. Talaba AI vositasidan shunchaki tayyor javob olish uchun emas, balki muammoni tushunish, tahlil qilish va o‘z yechimini takomillashtirish uchun foydalanishi lozim.

Ikkinchidan, **inson nazorati** saqlanishi zarur. AI tomonidan berilgan texnik ma’lumot yoki hisoblash natijasi talaba tomonidan tegishli formula, fizik qonun yoki texnik me’yorlar asosida tekshirilishi kerak.

Uchinchidan, topshiriqlar shunday tuzilishi kerakki, talabani tayyor javobni ko‘chirishga emas, balki mustaqil fikrlashga undasin.

To‘rtinchidan, baholashda faqat yakuniy natija emas, balki modelni yaratish jarayoni, tanlangan parametrlarning asoslanganligi, tahlil sifati va qabul qilingan qarorning mantiqiyligi ham hisobga olinishi lozim.

Beshinchidan, akademik halollik va ma’lumotlar xavfsizligi masalalariga e’tibor qaratish zarur. UNESCO tavsiyalarida ham ta’limda generativ AI vositalaridan foydalanishda inson agentligi, ma’lumotlar maxfiyligi va pedagogik maqsadga muvofiqlikni ta’minlash zarurligi qayd etiladi.

Energetika muhandisligi ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalligi nazariy bilimlarni amaliy modellashtirish bilan bog‘lash imkoniyatidir. Talaba elektr energetika obyektining fizik yoki matematik modelini yaratish orqali real tizimning ishlash mexanizmini chuqurroq anglaydi.

Sun’iy intellekt ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Xususan, murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntirish, individual topshiriqlarni shakllantirish, amaliy vaziyatlarni yaratish, dastlabki tahlilni amalga oshirish va talabaning xatolarini aniqlash kabi imkoniyatlar ta’lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi.

Biroq AI vositalarining keng qo‘llanilishi avtomatik ravishda ta’lim sifati oshishini anglatmaydi. Muhim masala — texnologiyaning pedagogik maqsadga qanday integratsiya qilinishidir. 2026-yildagi muhandislik ta’limi bo‘yicha tadqiqotlarda ham AI, raqamli egizaklar, optimallashtirish va virtual reallik kabi texnologiyalarni muhandislik ta’limiga integratsiyalash masalalari kompleks yondashuvni talab qilishi ko‘rsatilmoqda.

Shu sababli energetika muhandisligi ta’limida quyidagi tamoyilni asosiy metodik qoida sifatida belgilash mumkin:

AI javob beruvchi vosita emas, talabaning muhandislik fikrlashini rivojlantiruvchi raqamli yordamchi bo‘lishi kerak.

Bu tamoyil kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatiga mos keladi. Chunki kompetensiya tayyor bilimni eslab qolish bilan emas, balki bilimni muayyan kasbiy vaziyatda mustaqil qo‘llash qobiliyati bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO, 2023.
2. UNESCO. *Artificial Intelligence and the Futures of Learning*. UNESCO Digital Education.
3. Parmonov Sh.A. *Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning axborot-modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Energetika muhandisligi ta’lim yo‘nalishi misolida)*. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
4. Towards human-AI collaboration in the competency-based curriculum development process: The case of industrial engineering and management education. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 2024.
5. Developing a multilevel framework for AI integration in technical and engineering higher education: insights from bibliometric analysis and ethnographic research. *Interactive Technology and Smart Education*, 2026.
6. Emerging WEFE technologies in engineering education: Integration of optimization, explainable AI, digital twins, and virtual reality. *Array*, 2026.
7. An empirical study of ChatGPT use in engineering education: Prompting and performance. *The Internet and Higher Education*, 2026.

BO‘LAJAK MUHANDISLARDA ENERGIYA TEJAMKORLIGI VA SAMARADORLIGINI TA’MINLASH KOMPETENTLIGINING TARKIBIY TUZILMASI VA UNI RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Savriyev Shamshod Shuxrat o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi, BDTU
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896363

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak muhandislarda energiya tejamkorligi va samaradorligini ta’minlash kompetentligini rivojlantirish muammosi ko‘rib chiqilgan. “Energiya tejamkorligi” va “energiya samaradorligi” tushunchalarining qiyosiy tahlili asosida ularni yagona integrativ konstruktda birlashtirishning pedagogik asosi ko‘rsatilgan. Kompetentlikning to‘rt komponentdan iborat tarkibiy tuzilmasi hamda bo‘lajak muhandisning ushbu sohadagi tipik kasbiy vazifalari aniqlangan. Ta’lim amaliyoti tahlili asosida beshta qarama-qarshilik ajratilgan va ularni raqamli ta’lim muhiti hamda sun’iy intellekt vositalari yordamida bartaraf etish imkoniyatlari asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *energiya tejamkorligi, energiya samaradorligi, kasbiy kompetentlik, muhandislik ta’limi, raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt, virtual laboratoriya, kompetentlik komponentlari.*

Abstract. *The paper examines the problem of developing future engineers’ competence in ensuring energy saving and energy efficiency. Based on a comparative analysis of the concepts of “energy saving” and “energy efficiency”, the pedagogical rationale for combining them into a single integrative construct is presented. A four-component structure of the competence and the typical professional tasks of a future engineer in this field are identified. An analysis of educational practice reveals five contradictions, and the possibilities of resolving them through a digital learning environment and artificial intelligence tools are substantiated.*

Keywords: *energy saving, energy efficiency, professional competence, engineering education, digital learning environment, artificial intelligence, virtual laboratory, competence components.*

Kirish. Energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunda global va milliy darajadagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xalqaro energetika agentligining hisobotiga ko‘ra, jahon iqtisodiyotining birlamchi energiya sig‘imi so‘nggi yillarda atigi bir foiz atrofida yaxshilanmoqda, holbuki 2023-yilda qabul qilingan xalqaro majburiyatga erishish uchun ushbu ko‘rsatkich to‘rt foiz atrofida bo‘lishi talab etiladi [5]. Bu esa muammoning texnologik jihati bilan bir qatorda insoniy omilga — mutaxassislar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida sohaning huquqiy asoslari izchil yangilanmoqda. 2024-yilda qabul qilingan “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun mazkur uch yo‘nalishni yagona huquqiy predmet sifatida mustahkamladi [1]. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish dasturida sanoat sohasida energiya

samaradorligini kamida 20 foizga oshirish vazifasi belgilangan [2], yoqilg‘i-energetika sohasida esa “raqamli energonazorat” tizimi joriy etilmoqda [3]. Ushbu jarayonlar bo‘lajak muhandisdan nafaqat texnik bilimlarni, balki raqamli hisob-monitoring tizimlari bilan ishlash va katta hajmdagi energetik ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini ham talab qiladi.

Shu bilan birga, mazkur kompetentlikning pedagogik konstrukt sifatida ilmiy asoslanishi, uning tarkibiy tuzilmasi va raqamli ta’lim muhitida rivojlantirish mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi — kompetentlikning mazmuni va tarkibini aniqlash hamda uni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy qarama-qarshiliklarni ajratib ko‘rsatishdir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda nazariy tahlil, tushunchalarni qiyoslash, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va o‘quv-dasturiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida kompetentlik, faoliyatli va tizimli yondashuvlar qabul qilindi [9].

Xalqaro amaliyotda barqarorlik bilan bog‘liq kompetensiyalarni tizimlashtirishga qaratilgan urinishlar orasida Yevropa Ittifoqining GreenComp konseptual doirasi alohida ajralib turadi; unda barqarorlik kompetensiyasi to‘rtta soha va o‘n ikkita kompetensiya orqali tavsiflanadi [7]. Biroq mazkur hujjat umumta’lim xarakteriga ega bo‘lib, texnik yo‘nalishdagi ta’limning kasbiy-amaliy talablarini to‘liq qamrab olmaydi: unda energetik hisob-kitoblar, energiya balansini tuzish va energiya auditi kabi muhandislik faoliyatining o‘ziga xos usullari aks etmagan.

MDH mamlakatlari pedagogikasida resurs tejash kompetensiyalarini muhandislik tayyorgarligida shakllantirish masalasi tadqiq etilgan [10], biroq bu ishlarning aksariyati raqamli texnologiyalar keng tarqalishidan oldingi davrga tegishli. Muhandislik ta’limining kasbiy mantiqqa asoslanishi bo‘yicha esa xalqaro CDIO tashabbusi tajribasi diqqatga sazovor: unda o‘qitish mazmuni muhandislik obyektining hayotiy tsikli mantig‘iga muvofiq quriladi [12]. Shu tariqa, mavjud manbalar muammoning ayrim qirralarini yoritadi, ammo energiya tejamkorligi kompetentligi mustaqil konstrukt sifatida, raqamli muhitda rivojlantirish mexanizmlari bilan birgalikda maxsus tadqiq etilmagan.

Natijalar va muhokama.

1. Tushunchalarning nisbati. Ilmiy adabiyotlarda ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladigan “energiya tejamkorligi” va “energiya samaradorligi” tushunchalari turli mantiqiy asoslarga ega. Energiya tejamkorligi — energiya sarfining mutlaq hajmini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui bo‘lib, uning mezoni sarflangan energiya miqdorining kamayishidir. Energiya samaradorligi esa sarflangan energiya birligiga to‘g‘ri keladigan foydali natija bilan o‘lchanadigan nisbiy ko‘rsatkichdir.

Ushbu farqning pedagogik ahamiyati shundaki, u ta’lim maqsadlarining ikki darajasini ajratadi: birinchisi — resurslarga nisbatan qadriyatli-mas’uliyatli munosabatni shakllantirish (motivatsion-qadriyatli daraja), ikkinchisi — energetik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va optimallashtirish usullarini egallash (kognitiv va faoliyatli daraja). Ayni paytda ular bir-birini istisno qilmaydi: faqat tejamkorlikka tayangan yondashuv ishlab chiqarish hajmi o‘sganda ta’sirini yo‘qotadi, faqat texnologik samaradorlikka tayangan yondashuv esa mas’uliyatli iste’mol madaniyati bilan mustahkamlanmasa “qaytish effekti”ga duch keladi. Shu bois ularni yagona integrativ konstruktda birlashtirish maqsadga muvofiq; bunday yondashuvni amaldagi qonunchilik ham tasdiqlaydi [1].

2. Kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi. Tahlil asosida bo‘lajak muhandisning energiya tejamkorligi va samaradorligini ta’minlash kompetentligi quyidagicha ta’riflanadi: bu —

shaxsning energiya resurslariga nisbatan qadriyatli-mas’uliyatli munosabati, energetika jarayonlari va energiya tejash texnologiyalari sohasidagi tizimli bilimlari, texnik obyektlarning energetik ko‘rsatkichlarini, shu jumladan raqamli vositalar yordamida, tahlil qilish va optimallashtirish bo‘yicha kasbiy harakat usullari hamda o‘z faoliyati natijalarini energetik va ekologik mezonlar bo‘yicha refleksiv baholash qobiliyatining yaxlit birligi. Uning tarkibida to‘rtta komponent ajratildi (1-jadval).

1-jadval

Kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi va namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari

Komponent	Mazmuni	Namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari
Motivatsion-qadriyatli	Energiya resurslariga nisbatan mas’uliyatli munosabat, ekologik ong, barqarorlik qadriyatlariga yo‘nalganlik	Energiya tejash topshiriqlarini ixtiyoriy tanlash; qarorlarni asoslashda energetik mezonga murojaat
Kognitiv	Energetika jarayonlari, energiya balansi, energiya tejash texnologiyalari, me’yoriy asoslar va standartlar bo‘yicha tizimli bilimlar	Bilimlarning to‘liqligi va fanlararo bog‘langanligi; me’yoriy talablarni to‘g‘ri talqin qilish
Faoliyatli-texnologik	Energetik audit elementlarini bajarish, energiya balansini tuzish, chora-tadbirlarni texnik-iqtisodiy asoslash, raqamli vositalar bilan ishlash	Amaliy va loyihaviy topshiriqlar sifati; hisob-kitoblarning to‘g‘riligi; vositalardan mustaqil foydalanish
Refleksiv-baholovchi	Natijalarni energetik, iqtisodiy va ekologik mezonlar bo‘yicha baholash, xatolarni tahlil qilish	O‘z-o‘zini baholash adekvatligi; muqobil yechimlarni qiyoslay olish

Komponentlar o‘zaro ierarxik emas, balki funksional bog‘lanishda bo‘lib, ularning har biri qolganlarining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

3. Tipik kasbiy vazifalar. Kompetentlikni mazmunli tavsiflash uchun uni mavhum sifatlar orqali emas, balki mutaxassis hal etadigan aniq vazifalar tizimi orqali belgilash maqsadga muvofiqdir. Me’yoriy talablar [1], xalqaro standart qoidalari [6] va ishlab chiqarish amaliyoti tahlili asosida quyidagi vazifalar guruhlari ajratildi: obyektning energiya iste’moli tuzilmasini o‘rganish va energiya balansini tuzish; yo‘qotish manbalarini aniqlash va ustuvorlik bo‘yicha tartiblash; energiya tejash chora-tadbirlari variantlarini ishlab chiqish va ularni texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha qiyoslash; monitoring ma’lumotlarini yig‘ish va talqin qilish; loyihaviy yechimlarni me’yoriy talablarga muvofiqligi bo‘yicha tekshirish; qayta tiklanuvchi manbalarni integratsiyalash imkoniyatini baholash; qabul qilingan qarorlarni asoslash va hujjatlashtirish.

Ushbu ro‘yxat ikki muhim xulosaga olib keladi. Birinchidan, vazifalarning bajarilishi bir vaqtning o‘zida texnik, iqtisodiy, axborot-analitik va kommunikativ tayyorgarlikni talab qiladi — demak, kompetentlik integrativ tabiatga ega. Ikkinchidan, vazifalarning sezilarli qismi ma’lumotlar bilan ishlash, modellashtirish va hisob-kitob bilan bog‘liq bo‘lib, ularni real ishlab chiqarish sharoitisiz ham raqamli vositalar yordamida to‘liq qiymatli tarzda mashq qilish mumkin.

4. Amaliyotdagi qarama-qarshiliklar. Texnik yo‘nalishdagi ta’lim muassasalari amaliyotining tahlili quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini berdi:

1) davlat siyosati darajasida qo‘yilgan strategik vazifalar bilan oliy texnik ta’lim tizimida mos kompetentlikni rivojlantirishning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

2) ishlab chiqarishning energiya samaradorligini ta’minlashga qodir kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bilan bitiruvchilarning amaliy tayyorgarlik darajasi o‘rtasida;

3) kompetentlikning yaxlit, integrativ tabiati bilan uning o‘quv rejalarida tarqoq, fanlararo bog‘lanmagan holda taqdim etilishi o‘rtasida;

4) raqamli ta’lim muhitining keng didaktik imkoniyatlari bilan bu imkoniyatlarni maqsadli, tizimli qo‘llash metodikasining ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

5) kompetentlik darajasini obyektiv baholash zaruriyati bilan tegishli mezon-ko‘rsatkichlar apparati va diagnostik vositalarning yetishmasligi o‘rtasida.

5. Raqamli muhit va sun’iy intellekt vositalarining imkoniyatlari. Yuqorida ajratilgan qarama-qarshiliklarning bir qismini raqamli ta’lim muhiti sharoitida bartaraf etish mumkin. Muhandislik ta’limida virtual laboratoriyalarning ta’sirini o‘rgangan meta-tahlil ularning o‘quv natijalariga sezilarli ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan; eng yuqori ko‘rsatkichlar o‘quv motivatsiyasi va jalb etilganlik bo‘yicha qayd etilgan [11]. Bu esa moddiy bazaning cheklanganligi bilan bog‘liq ikkinchi qarama-qarshilikni yumshatish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari mazkur imkoniyatlarni yangi darajaga ko‘taradi. Birinchidan, adaptiv o‘quv tizimlari talabaning oldingi natijalariga qarab topshiriq murakkabligini va tempini sozlab, individual traektoriyani ta’minlaydi. Ikkinchidan, energiya iste’moli bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish topshiriqlarida intellektual vositalar talabaga bashoratli modellar qurish va anomaliyalarni aniqlash tajribasini beradi — bu esa aynan “raqamli energonazorat” tizimi joriy etilayotgan sharoitda kasbiy jihatdan talab qilinadigan ko‘nikmadir [3]. Uchinchidan, o‘quv analitikasi va intellektual qayta aloqa vositalari beshinchi qarama-qarshilikni — diagnostik apparatning yetishmasligini — hal etishga xizmat qiladi, chunki ular talabaning jarayondagi harakatlarini qayd etib, an’anaviy baholashda ko‘rinmaydigan ko‘rsatkichlarni ochib beradi.

Ayni paytda sun’iy intellekt vositalarini qo‘llash bir qator pedagogik risklarni ham keltirib chiqaradi: tayyor yechimlarning osonlik bilan olinishi mustaqil izlanish o‘rniga tayyorni qabul qilish odatini shakllantirishi, akademik halollikni ta’minlash murakkablashishi va o‘zlashtirishning yuzaki bo‘lib qolishi mumkin [13]. Bu risklarni bartaraf etish yo‘li — topshiriqlarni shunday loyihalashki, ularda yakuniy javob emas, balki unga olib boruvchi mulohaza yo‘li va uni asoslash asosiy qiymat kasb etsin. O‘qituvchining raqamli kompetentligi esa mazkur jarayonning hal qiluvchi sharti bo‘lib qoladi [8].

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. “Energiya tejamkorligi” va “energiya samaradorligi” tushunchalari turli mantiqiy asoslarga ega bo‘lsa-da, pedagogik nuqtayi nazardan bir-birini to‘ldiradi va yagona integrativ konstruktda birlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Kompetentlikning tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-texnologik va refleksiv-baholovchi komponentlar ajratildi; ular funksional bog‘lanishda bo‘lib, biri boshqasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Kompetentlik mazmunini kasbiy vazifalar tizimi orqali belgilash uning integrativ tabiatini ochib beradi va o‘quv topshiriqlarini loyihalash uchun aniq mo‘ljal yaratadi. Aniqlangan beshta qarama-qarshilik tadqiqotning yo‘nalishini belgilaydi; ularning sezilarli qismi raqamli ta’lim muhiti va sun’iy intellekt vositalari imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish orqali bartaraf etilishi mumkin. Ayni paytda texnologiyalarning o‘zi yechim bo‘la olmaydi: ularning samaradorligi to‘liq ravishda pedagogik loyihalash sifatiga va o‘qituvchining tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Keyingi tadqiqot yo‘nalishi — kompetentlikni rivojlantirishning strukturaviy-mazmuniy modeli va metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-940-son Qonuni. – URL: https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. – URL: https://lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va “raqamli energonazorat” tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 2023-yil 24-maydagi PF-77-son Farmoni. – URL: https://lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. – URL: https://lex.uz
5. IEA. Energy Efficiency 2024. – Paris: International Energy Agency, 2024. – URL: https://www.iea.org/reports/energy-efficiency-2024
6. ISO 50001:2018. Energy management systems – Requirements with guidance for use. – Geneva: ISO, 2018.
7. Bianchi G., Pisiotis U., Cabrera M. GreenComp – The European sustainability competence framework. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. – EUR 30955 EN. – doi:10.2760/13286.
8. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – JRC107466. – doi:10.2760/159770.
9. Muslimov N.A., To‘laganova S.S. Kasbiy ta’lim jarayonida kompetentlik yondashuv. – Toshkent: Fan, 2019.
10. Белоновская И.Д., Кострюков А.В., Манакова О.С. Компетенции ресурсосбережения и их формирование в инженерной подготовке // Вестник Оренбургского государственного университета.
11. Effectiveness of virtual laboratory in engineering education: A meta-analysis // PLOS ONE. – 2024. – doi:10.1371/journal.pone.0316269.
12. Crawley E.F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D.R., Edström K. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. – 2nd ed. – New York: Springer, 2014.
13. Raqamli ta’lim muhitida kasbiy tafakkurni shakllantirish texnologiyalari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2025. – 5(7-C). – B. 422–426.

ПЛАНИРОВАНИЕ СИСТЕМ ЗАРЯДНЫХ СТАНЦИЙ ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ, ПОДКЛЮЧЁННЫХ К СЕТИ

Дилафруз Салихова Хамидулла кизи
ассистент, ТГТУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.22895977

Аннотация. *Оптимальное планирование зарядных станций электромобилей (ЭЗС) с применением развитых алгоритмов управления является ключевым условием ускоренного развития электротранспорта и снижения выбросов углерода по сравнению с автомобилями на двигателях внутреннего сгорания. Большие и неравномерные токи нагрузки ЭЗС способны негативно влиять как на силовые преобразователи, так и на распределительные электрические сети при отсутствии должного регулирования потоков энергии. В отличие от более ранних обзоров, сосредоточенных на топологиях зарядных преобразователей, вопросах качества электроэнергии и технологиях беспроводной зарядки, настоящая работа обобщает несколько публикации из баз IEEE/IET и ScienceDirect, систематизируя существующие конфигурации систем, методы. Установлено, что наиболее распространённой и перспективной конфигурацией является гибридная система, объединяющая генерацию на основе возобновляемых источников энергии (ВИЭ), системы накопления энергии (СНЭ) и подключение к сети. Показано, что применение СНЭ с надлежащим образом спроектированными алгоритмами управления позволяет одновременно сглаживать быстро меняющуюся нагрузку зарядки, компенсировать нестабильность генерации ВИЭ и повышать общую эффективность и гибкость эксплуатации ЭЗС. Отдельно отмечается перспективность портативных СНЭ как самостоятельного направления исследований в области сетевых зарядных комплексов, а также растущая роль интеллектуальных алгоритмов управления (в том числе на основе нечёткой логики и теории игр) в координации между сетью, накопителями и генерацией ВИЭ.*

Ключевые слова: *зарядные станции электромобилей; системы накопления энергии; возобновляемые источники энергии; алгоритмы управления; планирование сети; V2G.*

Abstract

Optimal planning of electric vehicle charging stations (EZS) using advanced control algorithms is a key condition for the accelerated development of electric vehicles and the reduction of carbon emissions compared to cars powered by internal combustion engines. Large and uneven load currents of electric charging stations can negatively affect both power converters and distribution power grids in the absence of proper regulation of energy flows. In contrast to earlier reviews focused on the topologies of charging converters, power quality issues, and wireless charging technologies, this work summarizes several publications from the IEEE/IET and ScienceDirect databases, systematizing existing system configurations and methods. It is found that the most common and promising configuration is a hybrid system that combines generation based on renewable energy sources (RES), energy storage systems (ESS), and grid connection. It is shown that the use of ESS with properly designed control algorithms makes it possible to simultaneously smooth out the rapidly changing charging load, compensate

for the instability of renewable energy generation and increase the overall efficiency and flexibility of the operation of electric charging stations. The prospects of portable ESS as an independent area of research in the field of network charging complexes, as well as the growing role of intelligent control algorithms (including those based on fuzzy logic and game theory) in the coordination between the grid, storage devices and generation of renewable energy sources are separately noted.

Keywords: *electric vehicle charging stations; energy storage systems; renewable energy sources; control algorithms; grid planning; V2G.*

1. Введение

Рост экологических требований к выбросам CO_2 и NOx стимулирует замещение автомобилей с ДВС электромобилями включая гибридные и подключаемые гибридные модификации. За период 2010–2016 гг. мировой парк электромобилей на аккумуляторах и подключаемых гибридов вырос практически с нуля до около 2 млн единиц, что обусловливает опережающий спрос на инфраструктуру зарядных станций. Технологически ЭЗС делятся на два базовых типа: первый - простые сетевые станции, получающие всю мощность зарядки из внешней сети, что порождает проблемы качества электроэнергии — неопределённые пиковые нагрузки, колебания напряжения, изменения частоты и кратковременные перегрузки; и второй - станции, интегрированные с генерацией на основе ВИЭ и аккумуляторными системами накопления, где основная часть энергии зарядки предварительно накапливается, что снижает воздействие резких нагрузок на сеть. Рассмотренные в обзоре публикации распределены по четырём категориям конфигураций ЭЗС: без ВИЭ и СНЭ, с СНЭ без ВИЭ, с ВИЭ без СНЭ и с СНЭ и ВИЭ, также последняя категория явно доминирует, что отражает признание её как наиболее перспективной архитектуры.

Табл. 1. Распределение рассмотренных публикаций по конфигурациям ЭЗС

Конфигурация	**Основные технические акценты**
Без СНЭ и ВИЭ	Простота и низкая стоимость; размещение и ёмкость станций, кластеризация, влияние на надёжность и качество сети.
С СНЭ (без ВИЭ)	Оптимизация ёмкости накопителя, более развитые архитектуры, применение батарей; сглаживание.
С ВИЭ (без СНЭ)	Динамическое ценообразование; использование как накопителей для сглаживания генерации; стабилизация частоты микросетей.
С СНЭ и ВИЭ	Наиболее популярная и перспективная архитектура; комплексная оптимизация стоимости и надёжности; многопортовые преобразователи; координированное управление.

2. ЭЗС без систем накопления энергии и возобновляемых источников

В простейшей конфигурации зарядная станция подключена непосредственно к сети без поддержки со стороны ВИЭ или СНЭ, вследствие чего сеть полностью принимает на себя нагрузку от нерегулярных циклов заряда/разряда электромобилей, что усиливает проблемы качества электроэнергии. Преимуществами такой схемы являются простота и низкая стоимость, однако количество одновременно подключаемых электромобилей, как

правило, ограничено. Исследования этой группы охватывают оценку влияния ЭЗС на надёжность распределительных сетей (в том числе на стандартных схемах IEEE 33-bus и IEEE 123-bus), возможность улучшения частотной устойчивости сети за счёт быстрой разрядки. Отдельное направление составляют стратегии управления графиком зарядки, рандомизированные алгоритмы энергоменеджмента с суточным верхним пределом потребления и комбинирование быстрого и обычного режимов зарядки в рамках одной станции. Общий вывод по этой категории: подобная архитектура применима только при предсказуемой и относительно небольшой нагрузке, а сеть должна обладать достаточным запасом устойчивости и качества электроэнергии.




Рис. 1. Типовая схема ЭЗС без систем накопления энергии и возобновляемых источников

3. ЭЗС с системами накопления энергии

Интеграция СНЭ (в том числе гибридны) в архитектуру зарядной станции открывает возможности для оптимального энергоменеджмента: снижения эксплуатационных издержек, продления срока службы накопителя и повышения качества обслуживания. В этой группе работ рассматриваются модульные силовые электронные трансформаторы со встроенным разделённым аккумуляторным накопителем для сверхбыстрой зарядки, методы оптимизации ёмкости СНЭ с учётом спроса на зарядку, потерь энергии и цикла службы, использование накопителей на базе аккумуляторов электромобилей, а также беспроводные маховичные накопители и накопители на сверхпроводящих магнитных системах. В части управления разработаны алгоритмы, устраняющие необходимость цифровой связи между силовыми преобразователями при использовании маховичных накопителей, а также схемы оптимизации спроса и предложения энергии на основе рынка. В целом функции заряда/разряда СНЭ применяются главным образом для расширения располагаемой мощности станции, сглаживания пиковых нагрузок сети и компенсации колебаний при резких изменениях нагрузки; при этом отмечается тенденция замещения выделенных СНЭ аккумуляторами подключённых электромобилей как более экономичным решением.




Рис. 2. Типовая схема ЭЗС с системой накопления энергии

4. ЭЗС с генерацией на основе возобновляемых источников энергии

Интеграция фотоэлектрической и ветровой генерации в архитектуру ЭЗС позволяет снижать пиковую нагрузку на сеть, а при наличии соответствующего приоритета управления — использовать электромобили как накопители для сглаживания непредсказуемой генерации ВИЭ. Исследования данной группы охватывают оценку воздействия быстрых зарядных станций на сеть с ветрогенерацией, а также разработку моделей динамического ценообразования для согласования генерации PV и спроса на зарядку. Показано, что PV-станция способна покрывать до 82,2% суточной потребности электромобиля в энергии в солнечный день. Основной технической проблемой данной категории остаётся компенсация неизбежных колебаний мощности и напряжения, вызванных нестабильностью генерации ВИЭ, что требует развитых алгоритмов управления на различных конфигурациях системы.




Рис. 3. Типовая схема ЭЗС с генерацией на основе ВИЭ (PV/WTG)

5. ЭЗС с совместной интеграцией систем накопления и возобновляемых источников

Одновременное объединение генерации ВИЭ, различных типов СНЭ и подключения к сети формирует наиболее технически совершенную архитектуру, охватывающую большинство публикаций. Такая конфигурация позволяет использовать генерацию ВИЭ для зарядки электромобилей и сглаживания пиков мощности сети при одновременном снижении сетевых потерь и повышении качества электроэнергии, тогда как СНЭ компенсируют неизбежную нестабильность возобновляемой генерации. Работы этой группы охватывают комплексные технико-экономические подходы (например, оптимизация годовой стоимости энергии системы ЭЗС—СНЭ—ВИЭ), сравнение типов накопителей (маховик, суперконденсатор, сверхпроводящий магнитный накопитель) по критерию стабилизации напряжения шины постоянного тока. Рассматриваются также вопросы силовой электроники — модульные многопортовые преобразователи с двунаправленным потоком мощности между сетью, ВИЭ, СНЭ и зарядными портами. Совокупность рассмотренных результатов указывает на то, что при наличии соответствующих алгоритмов связи и управления данная архитектура способна реализовать широкий спектр целей оптимизации, что делает её магистральным направлением развития будущих зарядных станций.




Рис. 4. Типовая схема ЭЗС с совместной интеграцией СНЭ и генерации ВИЭ

Заключение

Проведённый анализ публикаций по планированию и ключевым технологиям сетевых зарядных станций электромобилей позволяет заключить, что архитектура, сочетающая генерацию на основе возобновляемых источников энергии с системами накопления энергии, обладает наибольшим техническим потенциалом среди рассмотренных конфигураций и рассматривается как наиболее вероятное направление развития отрасли. Дальнейшее продвижение в данной области связывается с внедрением

широкозонной силовой электроники, развитием интеллектуальных алгоритмов координированного управления и целенаправленным исследованием роли портативных накопителей энергии в сетевых зарядных комплексах.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ахмади, А., Таваколи, А., Джамборсаламати, П., Резаи, Н., Миве, М.Р., Гандоман, Ф.Х., Хейдари, А. и Нежад, А.Е. (2019), Улучшение качества электроэнергии в умных сетях с использованием электромобилей: обзор. IET Electr. Syst. Transp., 9: 53-64.
2. А. Ахмад, М. С. Алам и Р. Чабаан, «Всесторонний обзор технологий беспроводной зарядки для электромобилей», в IEEE Transactions on Transportation Electrification, том 4, No 1, стр. 38-63, март 2018, doi: 10.1109/TTE.2017.2771619.
3. А. Хали и М. Д'Антонио, «Глобальные тенденции в высокомощных бортовых зарядных устройствах для электромобилей», в IEEE Transactions on Vehicular Technology, том 68, No 4, стр. 3306-3324, апрель 2019, doi: 10.1109/TVT.2019.2897050.
4. S. Wang, S. Bi, Y. -J. A. Zhang и J. Huang, «Максимизация прибыли зарядных станций электромобилей: вход, ценообразование и онлайн-планирование», в IEEE Transactions on Sustainable Energy, том 9, No 4, стр. 1722-1731, октябрь 2018, doi: 10.1109/TSTE.2018.2810274.
5. P. You, Z. Yang, M. -Y. Chow и Y. Sun, «Оптимальная стратегия кооперативной зарядки для умной зарядной станции электромобилей», в IEEE Transactions on Power Systems, том 31, No 4, стр. 2946-2956, июль 2016, doi: 10.1109/TPWRS.2015.2477372.
6. Eiman E., Hassan M., Osman A., Ahmed I. Review of Communication Technologies for Electric Vehicle Charging Management and Coordination. World Electric Vehicle Journal, 2021, vol. 12(92), 22 p. doi: 10.3390/120092. Available at: https://www.mdpi.com/ (accessed 17 April 2022).
7. Miller J., Daga A., Long B., Schrafel P. Wireless Power Transfer: A Developers Guide // IEEE. Conference on applied power electronics. Industry Session. Presentation of the report. Tampa, FL, 2017 Available at: https://www.psma.com/sites/default/files/uploads/tech-forums-transportation-power-electronics/presentations/is112-wireless-power-transfer-developers-guide.pdf
8. Kurkova O.P., Efimov V.V. Computational Modeling and Circuit SolutionsOptimization of the Contactless Chargers of the Electric Vehicles. Systems of Control, Communication and Security, 2019, no. 3, pp. 64–88. doi:10.24411/2410-9916-2019-10305.

SOTALI ALOQA BAZAVIY STANSIYALARINING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ASOSIDAGI ELEKTR TA’MINOTI

Sultonova Maxbubaxon Odilovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Mobil aloqa texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, PhD
maxbubasultonova1473@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896000

Annotatsiya. *Maqolada sotali aloqa bazaviy stansiyalarining elektr ta’minoti, ularning an’anaviy energiya tizimi bilan ishlash xususiyatlari hamda olis va borish qiyin hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. BTS Ericsson RBS6000 bazaviy stansiyasining asosiy qurilmalari, 48 V o‘zgarmas tok asosidagi uzluksiz elektr ta’minoti, akkumulyatorlar va invertorning vazifalari tavsiflanadi. Quyosh panellari va shamol generatoridan foydalanishga asoslangan muqobil elektr ta’minoti tizimining tuzilishi hamda uning olis bazaviy stansiyalarni uzluksiz energiya bilan ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi.*
Kalit so‘zlar: *sotali aloqa, bazaviy stansiya, RBS6000, elektr ta’minoti, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh paneli, shamol generatori, akkumulyator, invertor.*
Abstract. *The article examines the power supply of cellular base stations, the features of their operation with conventional energy systems, and the possibilities of using renewable energy sources in remote and hard-to-reach areas. The main equipment of the Ericsson RBS6000 base station, the 48 V DC uninterruptible power supply system, batteries and inverter are described. The structure of an alternative power supply system based on solar panels and a wind generator and its importance for reliable energy supply of remote base stations are considered.*
Keywords: *cellular communication, base station, RBS6000, power supply, renewable energy, solar panel, wind generator, battery, inverter.*

Quyosh, shamol, biogaz kabi tabiiy resurslar asosida ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llash iste’molchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish, yoqilg‘i-energetika balansida ushbu resurslar ishlab chiqarayotgan energiya ulushini oshirish mamlakatimiz energetika xavfsizligiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmon bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi [1]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sotali aloqa bazaviy stansiyalarini, ayniqsa olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda, noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr ta’minoti bilan ta’minlash masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Telekommunikatsiyalar bozorini doimo va dinamik rivojlanishi uchun ma’lumotlarni almashlash bo‘yicha keng imkoniyatlarni taqdim etishga imkon beradigan ilg‘or texnologiyalarni jariy etish zarur. Bugungi kunga kelib bunday texologiyalardan biri 4G

to‘rtinchi avlod sotali aloqa texnologisi hisoblanadi. Bu texnologiyaning asosiy o‘ziga xos xususiyati uning ma’lumotlarni yuqori tezlikli uzatish xizmalarining keng spektrini taqdim etishga mo‘ljallanganligi hisoblanadi. Ayrim hududlarning tarmoqlarini rivojalantirish muammolari, xususan, aholining past zichligi, kapital solishtirma harajatlarning yuqori darajasi orqali aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda sotali aloqani O‘zbekistonning katta yoshdagi aholisiga kirib borishi amaldagi darajasi 100% ga etgan, ya’ni ekstensiv rivojlanish (ya’ni abonentlar sonini tezkor oshirish hisobiga rivojlanish) bosqichi tugagan. Sotali aloqa bozorining keyingi rivojalanishi xizmatlar paketlarini kengaytirish (birinchi navbatda, ma’lumotlarni uzatish xizmatlari hisobiga) va ularning narxini pasaytirish hisobiga bo‘lib o‘tadi. Alohida yo‘nalishga past aholi zichligili hududlarda, avtotrassalar va temir yo‘llar bo‘ylab sotali aloqani ta’minlashga ajratiladi.

Bunday sharoitlarda eng sezlarli qismi elektr ta’minotiga to‘g‘ri keladigan (bazaviy stansiyalarni ishlatishga umumiy harajatlardan 40-50% [2]) tarmoqni ishlatishga operatsion harajatlarni kamaytirish muhim masala bo‘lib qoladi, borish qiyin bo‘lgan va olisdagi joylarda joylashtirilgan bazaviy stansiyalar uchun bunday harajatlar yanada yuqori bo‘ladi, chunki uzun elektr uzatish liniyalarini tortish kerak bo‘ladi yoki avtonom energiya manbalaridan (odatda dizel generatorlari) foydalanish kerak bo‘ladi.

Misol sifatida BTS Ericsson RBS6000 bazaviy stansiyani olamiz. RBS turkumdagi 6000 bazaviy stansiyasi Ericsson kompaniyasining mahsuloti hisoblanadi.

Konstruksiya RBS – 6201 bloki, 2G radio moduli va 3G va 4G radio modullari o‘rnatilgan ikkita bo‘lmalardan tashkil topgan quti (shkaf) ko‘rinishida bajarilgan. 1-rasmda bu qurulmalardan foydalaniladigan BTS Ericsson RBS6000 bazaviy stansiyaning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan.

RBS600 blokining asosiy tashkil etuvchilari ma’lumotlarga ishlov berish uchun raqamli asbob (raqamli qurulma) va RF bloki (Radio blok) hisoblanadi.



a) RBS – 6201 shkafi



b) 2G radio moduli



c) 3G va 4G radio moduli

1-rasm. BTS Ericsson RBS6000 bazaviy stansiya va 2G, 3G va 4G radio modularning tashqi ko‘rinishi

RBS6000 raqamli bloki tashuvchi chastota signaligan ishlov berish va interfeys moduli, RF signalni interfeysi moslashtiradigan RF22 qabullash-uzatish blokidan tashkil topgan [3].

RBS 6201 qurulmasi har birida sovutish tizimi, raqamli asbob, RF blok, elektr ta’minoti moduli, uzatish moduli va RBS 6601 blok bo‘lgan 5ta seksiyalardan tashkil topgan. MU bloki 6ta radio bloklarni (RRUS) birlashtirishga imkon beradi.

Radio bloklar (RRUS) antenna yaqinida o‘rnatiladi va u signalni dastlabki kuchaytirish uchun mo‘ljallangan. Radio blok uncha katta bo‘lmagan joyni egallaydi va kichik hajm va og‘irlikka ega bo‘ladi.

1-jadval

Radio bloklarning chastotalar diapazonlari

RBS 6000	**Chastota, MHZ**
RUS01 B0	900MHZ
RUS01 B1	1800MHZ
RUG11 B5	850MHZ
RUG11 B0	900MHZ
RGU11 B1	1800MHZ
RUG11 B3	1800MHZ
RUG11 B2	2000MHZ

RBS 6000 bloki GSM/EDGE, WCDMA/HSPA va LTE standartlarini qo‘llaydi hamda RBS2000 va RBS3000 mahsulotlari bilan moslashuvchandir.

RBS 6000 Multi-standartli bazaviy stansiyalarning ko‘plab turlari mavjud. Mobil keng polosali xizmat ko‘rsatish, mobil TV va veb – ilovalar uchun yangi ilovalarni taqdim etish va o‘rnatish oqilona yechim hisoblanadi.

Yangi yuqori tezlikli mobil keng polosali xizmatlar, mobil TV va veb – ilovalarni qulay kengaytirish va o‘rnatish to‘g‘ri rejalashtirishni talab qiladi.

RBS 6000 oilasi nafaqat zamonaviy texnologiyalarga qulay o‘tishni kafolatlaydi, balki bu ekologik ta’sirni kamaytiradi.

Bazaviy stansiyalar sovutish modullariga ega. Ular ko‘pincha havo bilan sovutish uchun uzatkichlar tashqariga ham joylashtirilishi mumkin.

RRU bloki antenna yaqiniga mahkamlanadi va optik tolali uzatish moduli bilan birlashtiriladi. Boshqarish moduli maxsus bo‘lmada joylashgan bo‘lib, uning sovutilishi tashqi havo bilan issiqlik almashinuvi tufayli kafolatlanadi.

Optik tolali tizimdan foydalanish mis tizimdan foydalanishga qaraganda samarali usul hisoblanadi. Misning optikaga almashtirilishi tabiiy resurslarni tejalishini bildiradi [4].

Antennadagi nurlanish quvvatini oshirilishi bilan bazaviy stansiyaning qamrab olish zonasini oshirish mumkin.


Bazaviy stansiyalarning an’anaviy elektr ta’minoti 220 V kuchlanishli o‘zgaruvchan tok tarmog‘idan amalga oshiriladi (2-rasm). Ta’miot kuchlanishi TP transformator nimstansiyadan olinadi va bazaviy stansiyaga etkaziladi. Ta’minot kuchlanish dastlab kiritish-taqsimlash bokiga beriladi, undan liniyalar bo‘ylab kuchlanish umumiy yoritish, isitish tizimi, konditsionirlash tizimi va uzluksiz elektr ta’minoti tizimiga beriladi.

Uzluksiz elektr ta’minoti tizimi to‘g‘rilash-zaryadlash qurulmasi, akkumulyatorlar batareyalari bloki va invertorni o‘z ichiga oladi. To‘g‘rilash-zaryadlash qurulmasidan 48 V kuchlanishli o‘zgarmas tok «Ericsson ME 3600 X 24CX» kommutatoriga beriladi, shuningdek akkumulyatorlar batareyalari va invertorga beriladi.

Akkumulyatorlar batareyalari asosiy ta’minot liniyasida uzilish bo‘lganida ishlashga ulanadi. Invertor 48 V kuchlanishli o‘zgarmas tokni 220 V kuchlanishli o‘zgaruvchan tokka o‘zgartiradi va «Flexi Multi radio» modullarini ta’minlaydi.

Ichki qurulmalarni o‘ta kuchlanishlardan himoyalash uchun ta’minot kabeli erga ulash shinasi (EUSH) orqali “Yer” bilan ulangan yashin o‘tkazgichlari qo‘yiladi.

Bazaviy stansiyalarning barcha elementlari - RRL (radioreleli qism releyka), SDH qatori 48 V o‘zgarmas kuchlanishdan ta’minlanadi. Bazaviy stansiyaga 380 V kuchlanishli uch fazali kuchlanish beriladi va o‘zgartirgich uni 48 V o‘zgarmas kuchlanishga o‘zgartiradi [5].



2-rasm. Bazaviy stansiyalarning an’anaviy elektr ta’minotini tashkil etish sxemasi

Elektr ta’minoti uzilganida ta’minotni akkumulyatorlar batareyalaridan (AB) zahiralashtirish ko‘zda tutilgan. Bazaviy stansiyalarning an’anaviy elektr ta’minotini tashkil etilishi sxemasida ta’minot shinasida konditsioner, ishchi va avariya yoritish lampalari, uzluksiz ta’minot manbai (UTM), qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi, isitkich va tortib oluvchi ventilyasiya uchun elektr hisoblagich, yordamchi uyalar, o‘ta kuchlanishni cheklagichlar va turli nominallardagi tok avtomatlari qo‘yilgan

Bu butun tizimni elektr ta’minotining miyasi bo‘lgan SmartPack moduli boshqaradi, unda barcha xarakteristikalar saqlanadi. SmartPack modulida lokal tarmoq bilan Ethetnet-chiqish mavjud bo‘lib, u orqali deyarli barcha amallarni bajarish, holatni nazorat qilish, ustundagi avariya signallarini kuzatish mumkin.

LVBD kontaktori boshqaruvi ostida RRL, SDH elementlari va boshqa qurulmalar umumiy shinaga ulanadi va ular ustivorlikli qurulmalar hisoblanadi, BS elementlari esa ustivorliksiz qurulmalar hisoblanadi. kontaktorlar ma’lumot parametrga etganida ulanadi.

3-rasmda keltirilgan UTM7-48/218-7 (2,0) uzlukiz elektr ta’minoti manbaida 4ta impulsli stabillash bloklari mavjud. UTM indikatorida 54,1 V nominal kuchlanish, 32 A yuklama toki, 0 A AB zaryadanish toki va ABning Selsiy bo‘yicha +18 gradus harorati (termodatchik AB kuchlanishini termokompensatsiyalash uchun kerak bo‘ladi) aks ettiriladi [6].



4-rasm. Uzluksiz elektr ta’minoti manbaining tashqi ko‘rinishi

Tok avtomatlarining ikkita turlari mavjud, ulardan birinchisi ustivorliksiz yuklamani (LVLD, yuklamali) uzadi, ikkinchisi shunga muvofiq ustivorlikli yuklamani (LVBD, batareyali) uzadi.

5-rasmda tasvirlangan UTMda qator tok avtomatlar mavjud bo‘lib, ulardan simlar bazaviy stansiyalarga, radioreleli liniyalar (RRL), AB va boshqalarga ketgan. Shu erning o‘zida kontaktlarli plata ko‘rsatlgan bo‘lib, u elektr ta’minotini o‘chirish va ABni razryadlash uchun tashqi avariya signalizatsiyasi uchun mo‘ljallangan.



5-rasm. UTMdagi tok avtomatlari


6-rasmda UTMning ichki qismi tasvirlangan bo‘lib, unga har biri 150 A·s sig‘imli Soslight 6-gfm-150x batareyalari o‘rnatilgan. ABni texnik ko‘zdan kechirishda yuklama rezistorlari qo‘llanadigan nazorat razryadlash o‘tkaziladi. Razryadlash natijalari bo‘yicha ABni almashtirilishi yoki almashtirilmasligi haqida xulosa qilinadi.



6-rasm. UTMning ichki qismi

3. Muqobil elektr ta’minoti tizimi

Muqobil elektr ta’minoti tizimining tuzilish sxemasi 7-rasmda keltirilgan. Elektr ta’minoti tizimida elektr energiyasining asosiy manbalari quyosh panellari va shamol generatori hisoblanadi. Quyosh panellari va shamol generatori quyosh yoki shamol energiyasini mos ravishdagi o‘zarmas va o‘zgaruvchan tok energiyasiga o‘zgartiradi. Shamol generatori liniyasidagi to‘g‘rilagich o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tok energiyasiga o‘zgartiradi. Bu tok yoki quyosh panellari o‘zgarmas toki akkumulyatorlar batareyalarini zaryadlaydi.



7-rasm. Muqobil elektr ta’minoti tizimining tuzilish sxemasi

Akkumulyatorlar batareyalari (AB) to‘g‘rilagichdan o‘zgarmas tok kuchlanishini stabillash bilan qurulmalarni 48 V kuchlanishli o‘zgarmas tok energiyasi bilan ta’minlashni va elektr energiyasini to‘plashni amalga oshiradi. Akkumulyatorlar batareyalariga 48 V kuchlanishli o‘zgarmas tok energiyasini 220 V sinusoidal kuchlanishli va 50 Gs chastotali standart o‘zgaruvchan tokka o‘zgartiradigan va bazaviy tansiya qurulmalarini o‘zgaruvchan tok bilan ta’minlaydigan invertor ulanadi.

Sotali aloqa bozorining keyingi rivojalanishi xizmatlar paketlarini kengaytirish (birinchi navbatda, ma’lumotlarni uzatish xizmatlari hisobiga) va ularning narxini pasaytirish hisobiga bo‘lib o‘tadi. Alohida yo‘nalishga past aholi zichligili hududlarda, avtotrassalar va temir yo‘llar bo‘ylab sotali aloqani ta’minlashga ajratiladi [7].

Sotali aloqa tizimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning dolzarbligi shundan iboratki, quyosh elementlari va shamol generatorlari asosidagi elektr

stansiyalar yordamida elektr energiyasini ishlab chiqarish bugungi kunda deyarli butun dunyoda qo‘llanilmoqda. Quyosh batareyalaridan foydalanish hajmlari doimo ortib bormoqda.

Elektr energiyasi manbalari sifatida quyosh modullari, shamol generatori, to‘plagich, invertor, quyosh modullari va shamol generatorining ish rejimlarini optimallashtirish integratsiyalangan qurulmasi ishlatiladi. Bu qurulma quyosh nurlanishi va shamolning past intensivliklarida akkumulyatorlarning stabil zaryadlanishini va generatsiyalanadigan kuchlanishning stabillanishini ta’minlaydi. Bu yakuniy hisobda akkumulyatorlar batareyalarini o‘rnatish texnik darajasini oshirish va ishlatish muddatlarini uzaytirishga imkon beradi. Sotali aloqa olisdagi bazaviy stansiyalarini elektr nimstansiyalarga bog‘lamasdan uzluksiz elektr ta’minoti imkoniyatini ta’minlaydi.

Xulosa

Tahlil natijasida sotali aloqa bazaviy stansiyalarining uzluksiz elektr ta’minotini ta’minlashda an’anaviy tarmoq bilan bir qatorda quyosh panellari, shamol generatorlari, akkumulyatorlar va invertorlardan tashkil topgan muqobil tizimlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekani ko‘rsatiladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, elektr tarmoqlaridan uzoq hududlardagi bazaviy stansiyalarni ta’minlash va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Lubritto C. Telecommunication power system: energy saving, renewable sources and environmental monitoring // Trends in Telecommunications Technologies. — InTech, 2020. — P. 145–164.
3. Vishnevskiy E. P., Salin M. Estestvennoe oxlajdenie na bazovix stansiyax //IKS. — 2021. — № 04. — S. 85. — URL: http://www.iksmedia.ru/issue/2011/4/3720471.html.
4. Lorincz J., Garma T., Petrovic G. Measurements and modelling of base station power consumption under real traffic loads // Sensors. — 2022. — no. 12.
5. Уруваев Д.. Энергосберегающиэ технологии на практике. — 2022. — URL: http://habrahabr.ru/company/beeline/blog/154423.
6. Dimming cellular networks / D. Tripper, A. Rezgui, P. Krishnamurthy, P.ьPacharintankul // Proceedings of IEEE Global Telecommunications Conference
1. (GLOBECOM), Pittsburgh, PA, USA, 6-10 December 2020. — 2020. — P. 1–6.
7. Bosch A. F. DYNAMIC BASE STATION ENERGY SAVING WITH RELAYS : Research/Master Thesis / Anna Ferrer Bosch ; UPC - Tsinghua University. — 2021. — URL: http://upcommons.upc.edu/pfc/bitstream/2099.1/10991/1/PFC.pdf.

SECTION 3

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ARCHITECTURE, CONSTRUCTION, AND "SMART CITY" TECHNOLOGIES: MODERN APPLICATIONS

* * *

3-SHO‘BA

ARXITEKTURA, QURILISH VA “AQLLI SHAHAR” TEXNOLOGIYALARIDA SUN’IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY QO‘LLANILISHI

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ARCHITECTURAL DESIGN: GENERATING AND EVALUATING ALTERNATIVE DESIGN SOLUTIONS

Abdullaeva Sitorabonu Xasanjon kizi
Lecturer, «Architecture» department. AJOU University in Tashkent
e-mail: sitorik1997@gmail.com. https://orcid.org/0009-0003-5840-0605
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896135

Abstract. *This article examines the use of Artificial Intelligence (AI) for generating and evaluating alternative architectural design solutions. The study analyzes current AI-based approaches and their application to floor plans, spatial configurations, architectural forms, façades, and conceptual design. The findings show that AI can expand the design search space and accelerate the exploration of alternatives, but generation alone does not ensure architectural quality. A framework is proposed that combines AI-based generation and evaluation with architect-led selection and refinement. The study emphasizes AI as a decision-support tool that complements rather than replaces professional architectural expertise.*

Keywords: *artificial intelligence, architectural design, generative AI, design alternatives, design evaluation, generative design, human–AI collaboration.*

Аннотация. *В статье рассматривается применение искусственного интеллекта (ИИ) для генерации и оценки альтернативных архитектурных решений. Проанализированы современные подходы к использованию ИИ при разработке планировочных решений, пространственных конфигураций, архитектурных форм, фасадов и концепций. Результаты показывают, что ИИ расширяет пространство проектного поиска и ускоряет разработку альтернатив, однако их генерация сама по себе не гарантирует архитектурного качества. Предложена модель, объединяющая генерацию и оценку решений с помощью ИИ, а также их выбор и доработку архитектором. ИИ рассматривается как инструмент поддержки проектных решений, дополняющий, а не заменяющий профессиональную экспертизу архитектора.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, архитектурное проектирование, генеративный ИИ, альтернативные проектные решения, оценка проектных решений, генеративное проектирование, взаимодействие человека и ИИ.*

INTRODUCTION. Artificial intelligence (AI) is increasingly transforming architectural design by supporting design generation, exploration, analysis, and decision-making. Machine-learning-based generative methods can learn relationships from existing architectural data and produce multiple design alternatives, expanding the range of solutions that architects can explore within a limited time [1]. Recent generative AI models, including GANs, VAEs, diffusion models, and foundation models, further support the generation of architectural images, floor plans, façades, and three-dimensional forms [2].

The use of AI is particularly significant at the early stages of architectural design, where exploring multiple alternatives is essential. A review of 161 studies found that 68.94% of AI applications in architectural design focus on the schematic design stage, demonstrating the strong potential of AI for design exploration [3]. However, generating multiple alternatives alone does

not guarantee their architectural quality. AI-generated solutions must also be evaluated according to functional organization, spatial quality, aesthetics, context, user requirements, constructability, environmental performance, and regulatory constraints.

Recent research highlights that evaluation remains a significant challenge. AI can improve generative design and spatial organization, but issues such as algorithmic bias, reliability, ethical concerns, and the preservation of architectural identity remain unresolved [4]. Moreover, comparative evaluation is still less developed than design generation, while many generative AI applications remain experimental and focus primarily on producing design outputs rather than their comprehensive assessment [3,5].

This creates an important research gap between the generation of architectural alternatives and their systematic evaluation. Although AI can rapidly produce numerous possible solutions, architects still need reliable criteria and methods for comparing these alternatives and determining which solutions are appropriate for a specific project.

Therefore, this study focuses on the relationship between AI-based generation and the evaluation of alternative architectural design solutions. The main objective is to examine how AI can support both the generation and systematic assessment of multiple design alternatives while maintaining the architect's role in final decision-making.

The study proposes a framework in which architectural requirements are translated into AI-generated alternatives, which are then evaluated according to relevant architectural criteria. The final selection and refinement remain part of an architect–AI collaborative process, positioning AI as a tool for expanding and supporting design exploration rather than replacing professional architectural judgment.

METHODOLOGY. This study employs a structured qualitative literature analysis to examine the role of artificial intelligence in generating and evaluating alternative architectural design solutions. The methodology focuses on identifying current AI-based approaches, analyzing the types of design alternatives they can produce, and examining the methods used to assess the quality and suitability of these alternatives.

The research was organized into four main stages. First, relevant academic studies on AI-assisted architectural design were reviewed to identify the principal technologies and approaches used for design generation. Particular attention was given to generative models, machine learning methods, and AI applications at the early stages of architectural design [6]. Second, the identified approaches were classified according to their design tasks and generated outputs, including floor plans, spatial configurations, architectural forms, façades, and conceptual images [7].

Third, the evaluation methods applied to AI-generated architectural solutions were analyzed. The study considered both quantitative and qualitative approaches, including geometric and topological metrics, performance-based assessment, comparative evaluation, and expert judgment. Previous research indicates that evaluation of AI-generated floor plans and other architectural outputs remains more complex than their generation because architectural quality involves both measurable characteristics and subjective professional judgments [8]. AI-generated residential floor plans, for example, can also be evaluated through building-performance indicators such as daylight availability [9].

Finally, the findings were synthesized to establish a framework for AI-assisted architectural decision-making. The framework considers architectural requirements as the starting point, followed by AI-based generation of multiple alternatives, systematic evaluation

according to relevant criteria, and architect-led selection and refinement. This approach allows the study to consider not only the technical capabilities of AI but also the interaction between computational generation and professional architectural judgment [10].

RESULTS. The analysis of recent scientific literature demonstrates that Artificial Intelligence (AI) is becoming an important tool for generating and exploring alternative architectural design solutions. AI-based methods allow designers to process different types of architectural information and produce multiple design options within a relatively short period. The reviewed studies indicate that these applications are particularly concentrated in the early stages of design, including conceptual development, spatial programming, floor-plan generation, form finding, and façade design [6].

One of the main results of the analysis is the growing diversity of AI-generated architectural outputs. Depending on the design task and input information, AI systems can generate two-dimensional floor plans, spatial configurations, conceptual images, three-dimensional forms, and façade alternatives. Machine-learning approaches can also incorporate geometric, topological, and semantic information, allowing generated solutions to reflect spatial relationships and design constraints [7]. This expands the traditional design search space and provides architects with a greater number of possible solutions for further consideration.

At the same time, the analysis reveals a clear difference between design generation and design evaluation. While AI methods for producing alternatives have developed rapidly, evaluating whether a generated solution is architecturally appropriate remains a more complex task. AI-generated designs cannot be assessed only according to visual characteristics or geometric similarity. Architectural alternatives should also be considered in terms of functionality, spatial organization, aesthetics, contextual compatibility, user requirements, constructability, and environmental performance. Research on AI-generated floor plans demonstrates the importance of combining quantitative indicators with qualitative assessment by designers or other experts [8].

Another important result concerns the integration of performance-based criteria into the evaluation process. AI-generated alternatives can be assessed not only according to their formal characteristics but also according to measurable building-performance indicators. For example, AI-based methods have been applied to predict and optimize daylight performance in generated residential floor plans, demonstrating the possibility of incorporating environmental performance into the comparison and selection of design alternatives [9].

The analysis also shows that the role of the architect remains essential within AI-assisted design workflows. AI systems can generate and analyze multiple alternatives, but the interpretation of architectural requirements, assessment of contextual appropriateness, and selection of the final solution require professional judgment. Existing classifications of AI techniques emphasize different forms of interaction between designers and computational systems, indicating that AI can function not only as an automated generator but also as an interactive design-support tool [10].

The main characteristics of AI-assisted generation and evaluation of architectural alternatives are summarized in Table 1.

Table 1

AI-Based Generation and Evaluation of Alternative Architectural Design Solutions[36]

AI application	Generated output	Main evaluation criteria	Role of the architect
Conceptual design	Architectural images and concepts	Aesthetics, concept, contextual relevance	Selection and refinement
Floor-plan generation	Alternative spatial layouts	Functionality, circulation, topology, spatial quality	Evaluation and modification
Form finding	3D forms and massing alternatives	Geometry, spatial quality, constructability	Definition of design direction
Façade generation	Façade alternatives	Aesthetics, context, performance	Comparative assessment
Performance-based generation	Optimized design alternatives	Daylight, environmental and functional performance	Interpretation of results
Multi-objective design	Multiple optimized solutions	Functional, aesthetic, and performance criteria	Final decision-making

Overall, the findings demonstrate that the principal value of AI in architectural design is not limited to its ability to generate many alternatives. Its greater potential lies in connecting generation, evaluation, comparison, and refinement within a single design workflow. This creates the basis for a more structured form of architect–AI collaboration, in which AI expands the range of possible solutions while the architect remains responsible for evaluating alternatives and determining the final design direction.

[36] Source: Compiled by the author based on the analysis of scientific literature.




Figure 1. Framework for AI-Assisted Generation, Evaluation, and Selection of Architectural Design Alternatives[37]

Figure 1 illustrates the proposed workflow, beginning with architectural requirements and continuing through AI-based generation of multiple alternatives, their evaluation according to architectural and performance criteria, and the final selection and refinement by the architect. The iterative structure of the framework emphasizes that the generation and evaluation stages can be repeated as design requirements or evaluation criteria are modified.

DISCUSSION. The findings demonstrate that Artificial Intelligence is changing the architectural design process from a predominantly sequential workflow toward a more exploratory and iterative model. The ability of AI to generate multiple alternatives can significantly expand the range of solutions considered during the early design stages. However, the increasing number of generated options also creates a greater need for reliable methods of comparison and selection. Recent research emphasizes that effective AI-assisted design should combine generative capabilities with standardized evaluation criteria, performance-based methods, and architectural knowledge rather than treating generation as an end in itself [11].

An important implication concerns the changing role of the architect. AI can perform repetitive computational tasks, generate alternative configurations, and process large amounts of design information, while the architect remains responsible for defining design objectives and interpreting the generated results. This suggests a transition from direct production toward a role of strategic curator and decision-maker, in which professional knowledge is used to guide, evaluate, and refine AI-generated solutions [11].

The results also support the importance of human–AI collaboration rather than full automation. Recent research indicates that human-on-the-loop approaches remain dominant in architectural applications of AI, particularly because designers need to maintain control over the generation process and final decisions. The effectiveness of collaboration depends on factors

[37] Source: Developed by the author based on the analysis of AI-based architectural design generation and evaluation methods.

such as the amount of information provided to the AI system, transparency of its outputs, and the degree of control available to the designer [12]. Therefore, the proposed framework should be understood as an iterative process in which AI and the architect continuously exchange information rather than as a one-directional automated workflow.

The evaluation of architectural alternatives represents another critical issue. Although AI systems can assess measurable parameters such as geometry, topology, and environmental performance, architectural quality also includes contextual, aesthetic, functional, and experiential characteristics that are more difficult to quantify. Recent research comparing multimodal AI evaluation with human architectural juries demonstrates that AI can provide useful assessment support, but human expertise remains important for interpreting complex architectural qualities and making final judgments [13].

Consequently, the findings suggest that AI should be positioned as a decision-support technology rather than a replacement for architectural expertise. Its main contribution is the ability to increase the speed and diversity of design exploration while supporting the analysis of alternative solutions. The architect's role remains essential in establishing project priorities, interpreting evaluation results, considering contextual and cultural factors, and selecting the most appropriate solution.

The proposed framework therefore combines the complementary strengths of AI and human expertise: AI provides computational generation, comparison, and performance analysis, while the architect provides professional judgment, contextual interpretation, and creative direction. Such a model can make the architectural design process more systematic and informed while preserving human responsibility for the final design outcome.

CONCLUSION. This study examined the role of Artificial Intelligence in generating and evaluating alternative architectural design solutions. The analysis demonstrates that AI-based technologies can significantly expand the design search space by rapidly producing multiple alternatives at the conceptual, spatial, geometric, and performance levels. This capability provides architects with greater opportunities to explore different design directions within the early stages of the architectural process.

The findings also indicate that generation alone is insufficient to ensure the quality of an architectural solution. AI-generated alternatives require systematic evaluation based on functional organization, spatial quality, aesthetics, contextual compatibility, user requirements, constructability, and environmental performance. Combining quantitative performance indicators with qualitative professional assessment can provide a more comprehensive basis for comparing alternative solutions.

The study further demonstrates that the increasing use of AI does not eliminate the need for architectural expertise. Instead, it changes the nature of the architect's involvement from primarily producing individual solutions toward defining requirements, guiding AI-generated alternatives, interpreting evaluation results, and selecting and refining the most appropriate design. Human–AI collaboration therefore represents a more suitable approach than complete automation of architectural decision-making.

The proposed framework integrates architectural requirements, AI-based generation, alternative evaluation, comparison, and architect-led selection and refinement into an iterative workflow. Such an approach can improve the efficiency and breadth of design exploration while maintaining professional control over the final architectural outcome.

The practical significance of the research lies in demonstrating how AI can be incorporated into architectural design as a decision-support tool rather than simply a generative technology. Further research should focus on developing more reliable evaluation criteria, improving the transparency and controllability of AI systems, and testing the proposed framework through practical architectural design projects.

REFERENCES

1. Zhuang X., Zhu P., Yang A., Caldas L. Machine learning for generative architectural design: Advancements, opportunities, and challenges // Automation in Construction. 2025. Vol. 174. Article 106129.
2. Li C., Zhang T., Du X., Zhang Y., Xie H. Generative AI models for different steps in architectural design: A literature review // Frontiers of Architectural Research. 2025. Vol. 14, No. 3. P. 759–783.
3. Jang S., Roh H., Lee G. Generative AI in architectural design: Application, data, and evaluation methods // Automation in Construction. 2025. Vol. 174. Article 106174.
4. Albukhari I.N. The role of artificial intelligence (AI) in architectural design: A systematic review of emerging technologies and applications // Journal of Umm Al-Qura University for Engineering and Architecture. 2025. Vol. 16. P. 1457–1476.
5. Memon S.A., Shehata W., Rowlinson S., Sunindijo R.Y. Generative Artificial Intelligence in Architecture, Engineering, Construction, and Operations: A Systematic Review // Buildings. 2025. Vol. 15, No. 13. Article 2270.
6. Zhang H., Zhang R. Generative artificial intelligence (AI) in built environment design and planning – A state-of-the-art review // Progress in Engineering Science. 2025. Vol. 2, No. 1. Article 100040.
7. Lystbæk M.S. Machine learning-driven processes in architectural building design // Automation in Construction. 2025. Vol. 178. Article 106379.
8. Mostafavi F., van Engelenburg C., Khademi S., Vrachliotis G. Floor plan generation: The interplay among data, machine, and designer // International Journal of Architectural Computing. 2025. Vol. 23, No. 2. P. 370–386.
9. Hu X., Zheng H., Lai D. Prediction and optimization of daylight performance of AI-generated residential floor plans // Building and Environment. 2025. Vol. 279. Article 113054.
10. Vissers-Similon E., Dounas T., De Walsche J. Classification of artificial intelligence techniques for early architectural design stages // International Journal of Architectural Computing. 2025. Vol. 23, No. 2. P. 387–404.
11. Khan A., Chang S., Chang H. Generative AI approaches for architectural design automation // Automation in Construction. 2025. Vol. 180. Article 106506.
12. Tabasi S.F., Teixeira F.F.L.A., Luo D. Human–AI collaboration in architectural design: Interaction, design process and controllability // Automation in Construction. 2026. Vol. 191. Article 107155.
13. Özeren E.B., Özeren Ö. ChatGPT as a Jury? Multi-Modal AI Versus Human Evaluation in an Architectural Design Competition // SAGE Open. 2025. Vol. 15, No. 4.
14. Gancheryonok, I. I., Gorbachev, N. N., Spiridonov, S. V., Rakhimov, A. R., Kirinovich, O. A., & Zhuraev, O. J. (2021). Tsifrovaya transformatsiya v stroitelstve: Informatsionnoe modelirovanie. Minsk–Samarkand.

15. Ergasheva, T., Ismailova, N., Umarova, R., Xaydarova, G., Abdukarimova, G., Majidov, J., & Siyaeva, G. (2025). AI based optimization of architectural designs and mechanical systems. Proceedings of ICFNDS 2025, Dubai, UAE.
16. Simionov, R., Dolchinkov, R., & Seymenliyski, K. (2026). Modern intelligent systems for digital transformation in corporate building construction within the context of Industry 5.0. Bulgarian Journal of Business Research, 37(1), 45–57.
17. Dadabayeva, N. U. (2026). Digital twin technology for cost optimization and risk reduction in infrastructure projects. Research Square Preprint.
18. Chen, L. L., & Huang, W. W. (2025). Feature extraction and digital modeling of ancient architectural heritage based on improved SIFT algorithm. Discover Artificial Intelligence, 5, Article 333.

AGRAR OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA KADRLAR TAYYORLASHNING TAHLILI

Boltayev Nurali Shiramatovich
Toshkent davlat agrar universiteti
mustaqil izlanuvchisi, i.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0009-0007-9142-6080
https://doi.org/10.5281/zenodo.22870605

Annotatsiya. *Mazkur tezisda agrar oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash tizimining bugungi holati, uning samaradorligi hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Ta’lim sifati, o‘quv jarayonining mehnat bozori talablariga mosligi, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining holati hamda zamonaviy kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, agrar soha uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda innovatsion ta’lim texnologiyalari, amaliyot bazalarini kengaytirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari agrar oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *agrar oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash, ta’lim sifati, mehnat bozori, rivojlantirish, mexanizm, raqobatbardosh mutaxassis, agrar soha.*

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va taraqqiy ettirish uchun xalqaro standartlar asosida kreativ fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu bois, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, «korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot» klaster tizimini joriy etish maqsadlari belgilangan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida qishloq xo‘jaligida – unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg‘or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo‘llash; iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun “yashil” energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga o‘tish; ta’lim va tibbiyotda – sifatni yangi bosqichga olib chiqadigan ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz borligi ta’kidlandi[2]. Bu esa, o‘z navbatida hududlar kesimida agrar soha uchun kadrlar tayyorlashdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni kamaytira oladigan malakali kadrlarga bog‘liq bo‘ladi. Kadrlar ehtiyojini prognozlash, ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirilgan boshqarish, monitoring va

baholash tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Agrar sohada malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish ushbu tizimning samaradorligini baholash va uni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida agrar tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilashni talab etmoqda. Avvalo, mehnat bozori ehtiyojlari bilan ta’lim tizimi o‘rtasidagi muvozanat yetarli darajada emasligi kuzatiladi. Ba’zi yo‘nalishlarda ortiqcha kadrlar tayyorlanayotgan bo‘lsa, ayrim zamonaviy yo‘nalishlar, jumladan agrotexnologiyalar, raqamli qishloq xo‘jaligi va agroinjiniring sohalarida malakali mutaxassislar yetishmovchiligi mavjud. Shuningdek, bitiruvchilarning bandlik darajasi va mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashish ko‘rsatkichlari ham tizim samaradorligini baholovchi muhim mezonlardan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda bitiruvchilarning nazariy bilimlari yetarli bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalarning sustligi ularning ishlab chiqarish jarayoniga tez moslashishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida amaliyot ulushini oshirish, dual ta’lim tizimini keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Agrar soha uchun yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, agrar ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, o‘quv jarayoniga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etish, ta’lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirish, shuningdek, agrar sohani barqaror rivojlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-apreldagi “Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qarori qabul qilindi[3]. Mazkur qarorga muvofiq agrar sohada tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetida ta’limning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali agrar sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashning chora-tadbirlari belgilandi.

Bundan tashqari, agrar ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi holati ham muhim tahlil obyektidir. Zamonaviy laboratoriyalar, ilg‘or texnika va raqamli texnologiyalar bilan ta’minlanganlik darajasi ayrim hollarda talab darajasida emas. Bu esa talabalar tomonidan zamonaviy agrotexnologiyalarni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchilar salohiyati, ularning ilmiy darajasi, amaliy tajribasi hamda xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki yetarli darajada tizimli rivojlantirilishi lozim. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, agrar sohada yuqori samaradorlikka erishgan davlatlarda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya kuchli yo‘lga qo‘yilgan. Shu nuqtai nazardan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy etish va akademik almashinuvni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, “aqlli qishloq xo‘jaligi” (smart agriculture), GIS tizimlari va agrostartaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun mehnat bozori talablariga moslashgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish hamda innovatsion va raqamli yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Bu esa o‘z navbatida agrar tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va uni isloh qilishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mavjudligi bevosita ta’limni yuksaltirishda eng maqbul yechim hisoblanadi. Ayniqsa, oxirgi yillarda davlatimizda oliy ta’lim tizimini jadal rivojlantirish borasida hukumat tomonidan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yilning 3-aprel kuni oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Bunda, mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi, tizimdagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ilm-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash, ta’lim va tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolayotganligi ta’kidlandi. Shuningdek, “U10 – O‘zbekistonning global darajadagi ilg‘or universitetlari” dasturi amalga oshiriladi. Dastur doirasida tanlov asosida 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilib, ularda ilmiy klasterlar tashkil etilishi belgilandi. Oliygohlarning “spin-off” korxonalarini tashkil etish orqali “tarmoq – korxona – oliy ta’lim tashkiloti – ilmiy tashkilot” zanjiri asosida innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilayotganligi ta’kidlandi[38]. Ushbu berilgan topshiriqlar va amalga oshirilish lozim bo‘lgan vazifalar oliy ta’lim tizimining rivojlanishiga xalqaro ta’lim jarayonlarining respublikamiz bo‘yicha tadbiq etilishiga zamin yaratildi.

Agrar sohani rivojlantirishning ustuvor vazifalarning belgilanishi natijasida zamonaviy dunyo qarashga ega kadrlarga bo‘lgan talabning ortishi kuzatilmoqda. Bu esa, agrar yo‘nalishda kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim tashkilotlariga oldiga qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini jadal rivojlantirishga hissa qo‘sha oladigan kadrlar tayyorlash vazifasi qo‘yadi. Buning uchun OTTlari o‘quv jarayonini tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishda jahon standartlari asosida o‘tishga moslashtirishi lozim.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan hamda respublikamizda agrar soha uchun kadrlar tayyorlashni o‘z zimmasiga olgan oliy ta’lim tashkilotlarida 36 418 nafar talabalar tahsil olayotganligi ko‘rishimiz mumkin (1-jadval). Ushbu talabalarni bugungi kunda agrar sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni samarali joriy etish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda faoliyat olib borayotgan qishloq xo‘jaligini subyektlariga oliy ma’lumotli kadrlarni o‘z sohasining yetuk mutaxassislarini tarbiyalashda o‘zlarining yuksak bilim va tajribalarini 2000 ga yaqin professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Har yili ushbu oliy ta’lim tashkilotlarini 7 000 dan ortiq bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Bu esa, agrar sohada olib borilayotgan islohotlar, yangi agrotexnologiyalarni tarmoqlarni rivojlantirishda qo‘llash va foydalanish samaradorligini oshirish uchun yosh mutaxassis kadrlar tomonidan amalga oshirilishini talab qiladi. Ya’ni, qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subyektlarida kadrlarga bo‘lgan talabini qondirishda muhim hisoblanadi.

[38] Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi

1-jadval

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta’lim tashkilotlarining faoliyati to‘g‘risida ma’lumot (2025/2026-o‘quv yili bo‘yicha)[39]

№	Oliy ta’lim tashkilotlari nomi	Talaba-lar soni	Shundan		Professor-o‘qituvchilar soni	Ilmiy salohiyat (%)	Bitiruvchilar soni (2025-yil)	Bitiruvchilar bandligi (%)	Bitiruvchilar soni (2026-yil)
			Bakalavriat	Magistratura					
	Jami	**36 418**	**35 293**	**1 125**	**1 831**	**53,5**	**7 003**	**91**	**8 220**
1	Toshkent davlat agrar universiteti	13608	13169	439	516	71,2	2491	93	2 950
2	Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	7322	7200	122	393	55	1491	92	1906
3	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	5116	4980	136	304	56,6	1369	83,01	1252
4	Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	3085	2923	162	196	52,3	786	99	727
5	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali	2573	2521	52	139	43,9	319	85	596
6	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	1709	1635	74	115	60	280	97,5	399
7	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	1 011	945	66	76	40,7	225	78	250
8	Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti	847	810	37	58	40	42	100	140
9	Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	1147	1110	37	34	62	-	-	-

[39] Manba: Oliy ta’lim tashkilotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, mazkur oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati o‘rtacha 53,5 % ni tashkil etadi. Respublikamiz ta’lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zaminida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi ish va xizmat turlarini samarali ijro eta oladigan kadrlar bajarishini inobatga olib, 2025-yildan boshlab ilk marotaba Meteorologiya va iqlimshunoslik, Xalqaro qishloq xo‘jaligi, Atrof-muhit va suv resurslarini boshqarish, Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari, Veterinariya jarrohligi kabi yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Agrar oliy ta’lim tashkilotlaridagi mavjud resurs salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

birinchidan, ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali o‘quv reja va fan dasturlarini har yili ish beruvchilar, klasterlar, fermer xo‘jaliklari hamda agroklasterlar ishtirokida qayta ko‘rib chiqish;

ikkinchidan, ta’lim–fan–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish maqsadida agrar korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida dual ta’lim va uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini joriy etish;

uchinchidan, kadrlar tayyorlash sifatini boshqarishning raqamli tizimini yaratish, bunda talabalarning kompetensiyalari, amaliyot natijalari, bitiruvchilar bandligi va ish beruvchilar fikrini yagona elektron platforma orqali monitoring qilish;

to‘rtinchidan, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, universitetlarning tajriba xo‘jaliklari, agrotexnoparklari va innovatsion laboratoriyalarini rivojlantirish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda kadrlar tayyorlash samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqish, bunda bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi, ish beruvchilar qoniqish indeksi, xalqaro sertifikatlar soni va ilmiy-innovatsion faoliyat natijalari asosiy mezon sifatida belgilash;

beshinchidan, agrar ta’limni strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, bunda prognozlash, risklarni boshqarish, sifat menejmenti va natijadorlikka asoslangan boshqaruv (Performance Management) tamoyillaridan foydalanish hamda sun’iy intellekt va raqamli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.

Bizning fikrimizcha, mazkur takliflarning izchil amalga oshirilishi agrar oliy ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirish, ta’lim sifati va amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlash hamda agrar tarmoq uchun zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston agrar ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, agrar oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bunda ta’lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida muntazam yangilab borish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kengaytirish, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etish hamda professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish ustuvor vazifalardandir. Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar agrar soha uchun yuqori malakali, raqobatbardosh va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Chunki, har bir sohaning ta’lim tizimini o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga

olish, kadrlar buyurtmachilari tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali inson kapitalini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda jamiyat farovonligini oshirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8834
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-apreldagi “Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-8130293
4. U.Beglayev, N.Boltayev, Z.Isakhodjaeva, J.Rakhmatova. Increase of the efficiency of distance learning in the field of agribusiness and e-commerce. IOP Publishing. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012027. doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012027 https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012027/pdf
5. N.SH.Boltayev. Agrar sohada kadrlar tayyorlashni boshqarishning ilmiy-nazariy metodologik asoslari. Maqola. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy ommabor jurnali. 2026-yil. 4-son. 829-837-bet.

EKOLOGIYA VA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR – SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
To‘g‘on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0003-0010-6796
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896978

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston va Singapur davlatlarining ekologiya hamda suv xo‘jaligi sohasidagi raqamli mediakommunikatsiyasi va boshqaruv tizimi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har ikki mamlakat vazirliklarining rasmiy veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi platformalarida sun’iy intellekt (SI) hamda Big Data texnologiyalarini atrof-muhit monitoringida qo‘llash strategiyalari lingvo-pragmatik va media-indeks tahlili metodlari orqali o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4996 va PQ-358-sonli qarorlarida belgilangan sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi Singapur tajribasi misolida qiyosiy tadqiq etilgan.*
Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, ekologik diskurs, Big Data, Smart Water, Singapur tajribasi, raqamli media, media-indeks, iqlim diplomatiyasi.*
Abstract. *This article provides a comparative analysis of the digital media communication and management systems in the ecology and water sectors of Uzbekistan and Singapore. Utilizing linguo-pragmatic and media-index analysis methods, the study examines the strategies for deploying Artificial Intelligence (AI) and Big Data technologies within the environmental monitoring systems on the official websites and social media platforms of the respective ministries. The national AI development strategies outlined in the Presidential Decrees of the Republic of Uzbekistan No. PP-4996 and No. PP-358 are critically examined through the prism of Singapore's advanced experience. Finally, the paper offers practical recommendations aimed at enhancing the national eco-communication framework and boosting the global "green brand" image of the state.*
Keywords: *Artificial Intelligence, ecological discourse, Big Data, Smart Water, Singapore experience, digital media, media-index, climate diplomacy, digital eco-communication, green brand.*

KIRISH. Global iqlim o‘zgarishi, transchegaraviy suv resurslarining tanqisligi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi tabiiy resurslarni boshqarish tizimini tubdan isloh qilishni va raqamli platformalarga integratsiyalashni taqozo etmoqda. Zamonaviy ekologik jurnalistika va davlat organlarining mediakommunikatsiya strategiyasida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari nafaqat texnik instrument, balki transchegaraviy iqlim diplomatiyasini shakllantiruvchi yetakchi media-diskursga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot"ga o‘tish sharoitida raqamli ekokommunikatsiyaning milliy modelini yaratish ustida faol ish olib bormoqda.

Mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarining huquqiy va institutsional asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori [1] bilan belgilab berilgan edi. Mazkur hujjat idoralararo ma’lumotlar almashinuvi va Big Data tahliliy tizimlarini yaratishga turtki bo‘ldi. Ushbu islohotlarning mantiqiy va strategik davomi sifatida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli Qarori [2] milliy iqtisodiyot va boshqaruv tizimida, xususan, ekologiya va suv resurslarini prognozlashda intellektual algoritmlardan keng foydalanishning yangi davrini boshlab berdi. PQ-358-sonli qarorga muvofiq, atrof-muhit monitoringi va gidrometeorologiya jarayonlarini sun’iy intellekt yordamida modellashtirish davlatning strategik ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Raqamli ekologik boshqaruv va intellektual media-makon shakllantirish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallagan Singapur Respublikasi tajribasi O‘zbekiston uchun yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Singapurning "National AI Strategy 2.0" (Milliy SI strategiyasi 2.0) [5] hamda "Singapore Green Plan 2030" [6] dasturlari davlat ekologik tashkilotlarining ochiqligini ta’minlash, suv resurslarini intellektual boshqarish (Smart Water Grid) hamda ushbu jarayonlarni raqamli media platformalari orqali xalqaro hamjamiyatga innovatsion imij sifatida taqdim etishga yo‘naltirilgan. Mazkur tadqiqot har ikki davlatning ekologiya va suv xo‘jaligi vazirliklari idoralarining veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi SMM platformalari kontentini qiyosiy tahlil qilish orqali milliy ekokommunikatsiyani takomillashtirish istiqbollarini aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Raqamli ekologik jurnalistika va ekologik mediadiskurs muammolari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Shuls va Karimova (2024) o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim diplomatiyasi va davlatlarning "yashil imiji" xalqaro media-diskurda qay darajada aks etishini tahlil qilganlar. Sabirova (2025) raqamli eko-jurnalistikada ijtimoiy tarmoqlar (SMM) va jamoatchilik nazorati o‘rtasidagi integratsiyaning sotsiomadaniy jihatlariga e’tibor qaratadi. Biroq, davlat organlarining rasmiy raqamli resurslarida sun’iy intellekt terminologiyasi va texnologiyalarining qo‘llanish dinamikasi hamda ularning lingvo-pragmatik xususiyatlari yetarlicha ochib berilmagan.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida **tizimli-funksional, qiyosiy-tipologik, kontent-analiz va lingvo-pragmatik tahlil metodlaridan** foydalanildi. Tadqiqot ob’yekti sifatida quyidagi rasmiy raqamli manbalar tanlab olindi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi (eco.gov.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi (water.gov.uz).
3. Singapur Barqaror rivojlanish va atrof-muhit vazirligi (*Ministry of Sustainability and the Environment – mse.gov.sg*).
4. Singapur Milliy suv agentligi (*PUB, Singapore's National Water Agency – pub.gov.sg*).

Ushbu veb-saytlar hamda ularning Telegram, Facebook, Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalaridan 2025–2026-yillarga oid jami 450 dan ortiq media-matnlar, press-relizlar va axborot materiallari tanlab olinib, veb-skreping algoritmlari hamda media-indeks monitoringi yordamida tahlil qilindi.

NATIJALAR.

1. Veb-saytlar kontenti va huquqiy-strategik integratsiya tahlili

O‘zbekiston davlat idoralari rasmiy saytlarining (eco.gov.uz, water.gov.uz) tarkibiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda matnlarda "raqamlashtirish", "geoportal", "masofadan zondlash" va "sun’iy intellekt" terminlarining qo‘llanish chastotasi (media-indeksi) 34% ga oshgan. Bu bevosita PQ-4996 va PQ-358-sonli Prezident qarorlarining ijrosini ta’minlash doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog‘liq.

Xususan, Suv xo‘jaligi vazirligi veb-saytida “Smart Water” (Aqlli suv) texnologiyalarining joriy etilishi bo‘yicha tizimli ma’lumotlar berib borilmoqda. Bugungi kunda 11 mingdan ortiq suv xo‘jaligi ob’yektlarida raqamli qurilmalar o‘rnatilgan bo‘lib, ulardan olinadigan Big Data (katta hajmli ma’lumotlar) onlayn monitoring qilinadi. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tomonidan esa sun’iy intellekt elementlariga ega bo‘lgan geo-axborot tizimlari orqali "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxtlarning vegetatsiya indeksini (NDVI) yo‘ldosh qatlamlari orqali avtomatik hisoblash tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u PQ-358-sonli qarorda belgilangan ekologik prognozlash talablariga to‘liq mos keladi.

Singapur vazirliklari (mse.gov.sg, pub.gov.sg) veb-saytlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning raqamli arxitekturasi "Smart Water Grid" (Intellektual suv tarmog‘i) tizimiga asoslangan. Saytda joylashtirilgan ochiq ma’lumotlar (Open Data) tahliliga ko‘ra, Singapurda sun’iy intellekt algoritmlari suv quvurlaridagi yashirin sizib chiqishlarni maxsus akustik sensorlar va mashinali o‘qitish modellari orqali inson aralashuvisiz 98% aniqlikda bashorat qiladi. Shuningdek, ularning raqamli platformalarida SI texnologiyalari iqlim simulyatsiyalarini yaratishda, ya’ni 2100-yilgacha dengiz sathining ko‘tarilish ssenariylarini modellashtirishda real vaqt rejimida qo‘llaniladi.

1-jadval. O‘zbekiston va Singapur raqamli ekoplatformalarining qiyosiy-tahlili

Tahlil mezonlari	**O‘zbekiston (eco.gov.uz / ter.gov.uz)**	**Singapur (mse.gov.sg / pub.gov.sg)**
Huquqiy-strategik asos	PQ-4996 va PQ-358-sonli Prezident Qarorlari	National AI Strategy 2.0 / Green Plan - 2030
SI texnologik yo‘nalishi	Geo-monitoring, "Smart Water", daraxtlar NDVI indeksi tahlili	Smart Water Grid, akustik sensorli ML, iqlim prognozlari
Ma’lumotlar formati	Press-reliz, hisobot, statistik jadvallar	Interaktiv xaritalar, Open Data, SI-simulyatsiyalar
Media-indeks darajasi	O‘rtacha (Rivojlanish va joriy etish bosqichida)	Yuqori (To‘liq avtomatlashtirilgan raqamli eko-imij)

2. Ijtimoiy tarmoqlardagi media-diskurs va SMM lingvo-pragmatikasi


Ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram, Facebook) media-matnlarni o‘rganish jarayonida har ikki davlat organlarining axborot uzatish prinsiplarida jiddiy pragmatik farqlar aniqlandi.

O‘zbekiston Ekologiya va Suv xo‘jaligi tashkilotlarining Telegram va Facebook sahifalaridagi postlar kontent-analizi shuni ko‘rsatadiki, lingvo-pragmatik jihatdan matnlar "direktiv" va "reklama-axborot" diskursiga tegishli. Ya’ni, postlarda ko‘proq bajarilgan ishlar hisoboti, rasmiy uchrashuvlar bayoni yoki aholini tabiatni asrashga undovchi umumiy chaqiriqlar

ustunlik qiladi. Sun’iy intellekt va innovatsiyalar mavzusi asosan PQ-358-sonli qaror doirasida kelajakda amalga oshiriladigan strategik maqsadlar va xalqaro hamkorlik uchrashuvlari kontekstida tilga olinadi.

Singapurning *PUB* va *MSE* ijtimoiy tarmoqlardagi (ayniqsa, Instagram va TikTok) SMM strategiyasi butunlay boshqacha pragmatik makonni qamrab olgan. Ularning media-matnlari "inklyuziv-interaktiv" xarakterga ega. Davlat aholi bilan murakkab texnologik jarayonlarni (masalan, oqova suvni qayta ishlovchi AI filtrlari — *NEWater*) oddiy va kreativ vizualizatsiyalar orqali tushuntiradi. Eng muhimi, ularning SMM sahifalarida foydalanuvchilar uchun SI-chatbotlar va shaxsiy "ekologik kalkulyatorlar" havolalari beriladi. Foydalanuvchi o‘zining kundalik suv sarfini kiritib, AI yordamida o‘ziga xos ekologik tavsiyalarni SMM platformasining o‘zida qabul qiladi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy-normativ bazasi (PQ-4996 va PQ-358) juda mustahkam shakllangan bo‘lsa-da, ularning raqamli media makonida, ya’ni xalqaro va mahalliy hamjamiyat uchun ochiq interpretatsiya qilinishida ma’lum darajada konseptual bo‘shliqlar mavjud.



1-rasm. O‘zbekiston raqamli ekokommunikatsiya va texnologik boshqaruv tizimini takomillashtirish modeli

Model doirasida ekologik va suv boshqaruv tizimini takomillashtirishning asosiy komponentlari tarkibidagi ilmiy-texnik qisqartmalarga quyidagicha konseptual ta’rif beriladi:

PQ-358: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori bo‘lib, u milliy ekokommunikatsiya va ekologik prognozlash tizimlarining huquqiy-institutsional fundamenti hisoblanadi.

SI (Sun’iy intellekt / AI - Artificial Intelligence): Inson ongi va tahliliy imkoniyatlarini simulyatsiya qiluvchi neyrotarmoqlar va matematik algoritmlar majmui; modelda suv havzalari

hajmini dinamik prognozlash va media-diskurs monitoringini avtomatlashtirish funksiyasini bajaradi.

NDVI (Normalized Difference Vegetation Index — Normallashtirilgan nisbiy vegetatsiya indeksi): Sun’iy yo‘ldoshlar (masalan, Sentinel yoki Landsat) orqali masofadan zondlash sirtlaridan olingan va o‘simlik qatlamining (yashil fondning) zichligi hamda salomatligini avtomatik hisoblovchi raqamli-spektrometr ko‘rsatkich.

ML (Machine Learning — Mashinali o‘qitish): Sun’iy intellektning tarkibiy qismi bo‘lib, transchegaraviy suv resurslariga doir gidrologik Big Data (katta hajmli ma’lumotlar) asosida tizimni mustaqil ravishda bashorat qilishga o‘rgatuvchi matematik modellar to‘plami.

SMM (Social Media Marketing — Ijtimoiy tarmoqlar marketingi): Davlat ekologik tashkilotlarining ijtimoiy media platformalari (Telegram, Facebook, Instagram va b.) orqali aholi va xalqaro hamjamiyat bilan raqamli, interaktiv hamda imijmeyking xarakteridagi inklyuziv muloqot tizimi.

Open Data (Ochiq ma’lumotlar): Vazirliklar va idoralarning rasmiy veb-resurslarida har qanday foydalanuvchi yoki tadqiqotchi uchun cheklovsiz, mashina o‘qiydigan formatda taqdim etiladigan raqamli ekologik va gidrologik statistik ko‘rsatkichlar bazasi.

Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt nafaqat ichki ishlab chiqarish quvvati, balki mamlakatning xalqaro reytinglardagi global ekologik jozibadorligini oshiruvchi asosiy PR vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston PQ-358-sonli qarorda belgilangan 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategik marralarga erishishda Singapurning "Smart Water Grid" boshqaruv modelidan va uning raqamli media arxitekturasidan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanishi maqsadga muvofiq:

Gidrologik prognozlashda neyrotarmoqlar integratsiyasi: Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi transchegaraviy suv resurslarini samarali taqsimlashda, Singapurning mashinali o‘qitish sensorlari tajribasi asosida, suv oqimi hajmini real vaqt rejimida AI yordamida prognozlovchi yagona hududiy raqamli platforma yaratish va uning natijalarini veb-saytda ochiq e’lon qilib borish.

Media-matnlarni transformatsiya qilish: Ekologiya va Suv xo‘jaligi idoralarining ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarida quruq statistik hisobotlardan raqamli vizualizatsiya va interaktivlikka (masalan, aholi uchun shaxsiy suv tejash AI-yordamchilarini yaratish) o‘tish. Bu jarayon aholida ekologik madaniyatni va "raqamli ishonch"ni yuksaltiradi.

XULOSA. O‘zbekiston va Singapur davlatlarining ekologik hamda suv resurslarini boshqarish tizimidagi raqamli mediakommunikatsiya strategiyalarini qiyosiy o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4996 va PQ-358-sonli qarorlari mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini ekologik tarmoqlarga joriy etish uchun to‘liq huquqiy va iqtisodiy zamin yaratdi. Navbatdagi bosqich ushbu raqamli yutuqlarni xalqaro media makonida samarali taqdim eta olish (transmilliy ekokommunikatsiya) hisoblanadi.

Singapur tajribasi ko‘rsatganidek, sun’iy intellekt texnologiyalarining muvaffaqiyati nafaqat sensorlar soni bilan, balki davlat organlarining raqamli platformalarida ma’lumotlarning ochiqligi (Open Data) va SMM makonidagi interaktivlik darajasi bilan o‘lchanadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va integratsiyalashuv modeli milliy ekologik imijni xalqaro reytinglarda yuksaltirishga hamda mintaqaviy ekologik krizislarni boshqarishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 17.02.2021-y., PQ-4996-son. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 14.10.2024-y., PQ-358-son. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-6024-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
4. Sabirova S. Digital Eco-Journalism: SMM and Public Control in Central Asian Ecological Discourse. // Media and Society Research, Vol. 9, 2025. – PP. 45–58.
5. Smart Nation and Digital Government Office (SNDGO) of Singapore. National Artificial Intelligence Strategy 2.0: AI for the Public Good for Singapore and the World. – Singapore: Government Publications, 2024.
6. Ministry of Sustainability and the Environment (MSE) of Singapore. Singapore Green Plan 2030: Changing the Way We Live. – Singapore: Government Publications, 2025.
7. PUB (Singapore's National Water Agency). Smart Water Grid Management using Artificial Intelligence Protocols. Annual Report, 2025.
8. Schulz, M., & Karimova, N. Environmental Diplomacy in Central Asia: The Case of New Uzbekistan’s Eco-Image. // Journal of Environmental Communication, Vol. 18, Issue 3, 2024. – PP. 112–129.
9. Karimov A.,Yusupov Sh. Sun'iy intellekt tizimlari va Big Data tahlili davlat boshqaruvida: Yutuqlar va muammolar. // Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot jurnali, №2, 2025. – 88–101-b.
10. UNECE (United Nations Economic Commission for Europe). Environmental Performance Reviews: Uzbekistan Third Review. – Geneva: United Nations Publications, 2026.
11. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. “Smart Water” texnologiyalarining joriy etilishi bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma. – Toshkent, 2025.
12. Chen J., & Tan, L. Artificial Intelligence in Urban Water Management: The Singapore Model. // Water Resources Management Review, Vol. 33, Issue 1, 2025. – PP. 201–218.
13. Alimov X. Ekologik diskurs va ommaviy axborot vositalari: Lingvo-pragmatik tahlil. // Filologiya masalalari, №4, 2024. – 45–56-b.

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Faxriddin Kasimov Shadmankulovich[1,2], Mirzaev Sayibdjan[2]
Texnika fahlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta ilmiy xodim;
[1]O‘zR Fanlar Akademiyasi S.Azimov nomidagi Fizika-texnika instituti,
[2]“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy tadqiqot universiteti“ E-mail: fahri2002@mail.ru
https://orcid.org/0009-0004-5722-3739
«Axborot texnologiyalari» kafedrasi mudiri, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.
https://orcid.org/0000-0003-3891-2470
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896074

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni tayyorlash jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik va amaliy jihatlari yoritilgan. Ekologik muammolarning murakkablashib borishi, katta hajmdagi ekologik ma’lumotlarning shakllanishi, iqlim o‘zgarishi, havo va suv sifatining monitoringi, biologik xilma-xillikni saqlash, chiqindilarni boshqarish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari zamonaviy ekolog mutaxassisidan raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bo‘yicha qo‘shimcha kompetensiyalarni talab etmoqda. Maqolada mashinali o‘qitish, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko‘rishi, generativ sun’iy intellekt, masofadan zondlash va intellektual ekologik monitoring tizimlaridan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik ta’limda sun’iy intellekt (SI) yordamida individual ta’limni tashkil etish, ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish, bashoratlash, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi taklif etiladi. Sun’iy intellektdan foydalanishning akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatolik va ekologik barqarorlik bilan bog‘liq muammolari ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: sun’iy intellekt, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, ekologik monitoring, mashinali o‘qitish, neyron tarmoq, generativ SI, ekologik ta’lim, iqlim o‘zgarishi, masofadan zondlash, katta ma’lumotlar, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish.*

Abstract. *This article examines the scientific, pedagogical and practical aspects of using artificial intelligence technologies in the training of specialists in ecology and environmental protection. The increasing complexity of environmental problems, the growth of large-scale environmental datasets, climate change, air and water quality monitoring, biodiversity conservation, waste management and sustainable use of natural resources require modern environmental specialists to develop competencies in digital technologies and artificial intelligence. The article analyses the educational and practical applications of machine learning, neural networks, natural language processing, computer vision, generative artificial intelligence, remote sensing and intelligent environmental monitoring systems. Particular attention is paid to the use of artificial intelligence (AI) for personalised learning, environmental*

data analysis, forecasting, practical training and development of students’ research skills. The article also discusses the problems associated with academic integrity, data protection, algorithmic bias and the environmental footprint of artificial intelligence. Recommendations are proposed for integrating AI competencies into the curriculum of ecology and environmental protection specialists.

Keywords: *artificial intelligence, ecology, environmental protection, environmental monitoring, machine learning, neural networks, generative AI, environmental education, climate change, remote sensing, big data, digital technologies, sustainable development.*

Kirish. XXI asrda ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, atmosferaning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq degradatsiyasi, o‘rmonlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va maishiy hamda sanoat chiqindilarining ortishi ekologik jarayonlarni doimiy monitoring qilish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. An’anaviy ekologik tadqiqotlarda kuzatuv, laboratoriya tahlillari, statistik usullar va ekspert baholashidan keng foydalaniladi. Biroq hozirgi vaqtda ekologik tizimlarda juda katta hajmdagi ma’lumotlar hosil bo‘lmoqda. Masalan, meteorologik stansiyalar, avtomatik havo monitoring stansiyalari, suv sifatini nazorat qilish sensorlari, sun’iy yo‘ldoshlar, dronlar, Global Positioning System (GPS - sun’iy yo‘ldoshlar yordamida Yer yuzidagi qurilmaning aniq joylashuvini (koordinatalarini) aniqlash tizimi) qurilmalari va Internet of Things (IoT - turli qurilmalar, sensorlar va texnik vositalarning internet orqali bir-biri bilan bog‘lanib, ma’lumot almashishi va avtomatik ishlashi texnologiyasi) sensorlari uzluksiz ma’lumot ishlab chiqarmoqda.

Bunday sharoitda katta hajmdagi ma’lumotlarni inson tomonidan qo‘lda qayta ishlash qiyin. Shu sababli ekologik monitoring va tahlil jarayonlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sun’iy intellekt ekologik ma’lumotlardan yashirin qonuniyatlarni aniqlash, ekologik jarayonlarni tasniflash, kelajakdagi holatni bashorat qilish va xavfli ekologik vaziyatlarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt faqat amaliy ekologik masalalarni yechish vositasi emas. U ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonini ham o‘zgartirmoqda. Talaba ekologik bilim bilan bir qatorda ma’lumotlar bilan ishlash, algoritmlarni tushunish, SI vositalaridan foydalanish, natijalarni tekshirish va sun’iy intellekt tomonidan berilgan xulosalarni tanqidiy baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan generativ SI bo‘yicha tavsiyalarda ham ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish inson markazli, xavfsiz, adolatli va pedagogik maqsadga muvofiq bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi [1].

Shuning uchun ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassislarini tayyorlashda SI texnologiyalaridan foydalanish nafaqat zamonaviy texnik tendensiya, balki ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga SI vositalarini integratsiya qilishning metodik yondashuvlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: sun’iy intellektning ekologiya sohasidagi asosiy imkoniyatlarini o‘rganish; ekologik ta’limda SI texnologiyalaridan foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash; mashinali o‘qitishning ekologik monitoringdagi o‘rnini ko‘rsatish; ekologik ma’lumotlarni tahlil qilishda SI algoritmlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish; masofadan zondlash ma’lumotlarini SI yordamida qayta ishlash usullarini ko‘rsatish; talabalarning ekologik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini taklif qilish; generativ SI vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning afzallik va kamchiliklarini aniqlash va SI’dan foydalanish bilan bog‘liq akademik, etik va ekologik muammolarni tahlil qilish.

Ekologiya mutaxassislarini tayyorlash uchun SI asosidagi amaliy mashg‘ulotlar modelini ishlab chiqish.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasida sun’iy intellektning o‘rni. Sun’iy intellekt - kompyuter tizimlariga insonning ayrim intellektual faoliyatlarini modellashtirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir.

SI quyidagi asosiy texnologiyalarni o‘z ichiga oladi: mashinali o‘qitish; chuqur o‘qitish; neyron tarmoqlar; kompyuter ko‘rishi; tabiiy tilni qayta ishlash; ekspert tizimlar; generativ SI; katta ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish; bashoratlash algoritmlari. Ekologiyada ushbu texnologiyalar turli vazifalarni bajarishi mumkin.

Masalan, havo sifati monitoringida SI yordamida PM2.5, PM10, CO, CO_2, NO_2, SO_2 kabi ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini tahlil qilish va ularning kelajakdagi qiymatlarini bashorat qilish mumkin.

Suv ekologiyasida esa suvning harorati, pH qiymati, erigan kislorod, loyqalik, elektr o‘tkazuvchanlik va boshqa parametrlar asosida suvning ekologik holatini baholash mumkin. Tuproq monitoringida namlik, sho‘rlanish, organik moddalar miqdori, harorat va boshqa ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Biologik xilma-xillikni monitoring qilishda esa kamera tuzoqlari, dronlar va akustik sensorlardan olingan ma’lumotlarni SI yordamida avtomatik tasniflash mumkin.

Demak, ekologiyada sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy maqsadi inson ekolog mutaxassisini almashtirish emas, balki katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va samarali qayta ishlash, mutaxassisning qaror qabul qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Ekologik ta’limda SI texnologiyalaridan foydalanish. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning birinchi yo‘nalishi - o‘quv jarayonini individuallashtirishdir.

An’anaviy ta’limda barcha talabalar uchun bir xil o‘quv materiali taqdim etiladi. Biroq talabalarning bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘ladi. SI asosidagi ta’lim vositalari talabaning bilim darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni tavsiya qilishi mumkin.

Masalan, boshlang‘ich daraja: ekologiya asoslari; ekotizim tushunchasi; ifloslanish turlari; ekologik monitoring tushunchasi; o‘rta daraja: ekologik ma’lumotlarni statistik tahlil qilish; grafik va diagrammalar yaratish; korrelyatsiyani aniqlash; ekologik indekslarni hisoblash; yuqori daraja:

Python yordamida ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish; mashinali o‘qitish modelini yaratish; ekologik parametrlarni bashoratlash; sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini SI yordamida tasniflash. Bunday yondashuv talabaga o‘z imkoniyatlariga mos ta’lim olish imkonini beradi.

Mashinali o‘qitish va ekologik ma’lumotlar tahlili. Mashinali o‘qitish sun’iy intellektning ekologiyada eng ko‘p qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlaridan biridir. Mashinali o‘qitish

algoritmi mavjud ma’lumotlardan qonuniyatlarni o‘rganadi va yangi ma’lumotlar asosida natija chiqaradi.

Ekologik masalalarda quyidagi algoritmlardan foydalanish mumkin: Linear Regression; Logistic Regression; Decision Tree; Random Forest; Support Vector Machine; K-Means; Gradient Boosting; Artificial Neural Networks; Convolutional Neural Networks [2-9].

Masalan, havo ifloslanishini bashorat qilish masalasini olaylik. Model uchun quyidagi ma’lumotlar berilishi mumkin:

Parametr	Belgilanishi
Harorat	T
Namlik	H
Shamol tezligi	V
Atmosfera bosimi	P
PM2.5	PM25
PM10	PM10
CO	CO
NO_2	NO2

Model ushbu ma’lumotlar orasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, keyingi vaqt oralig‘idagi PM2.5 konsentratsiyasini bashorat qilishi mumkin.

Masalan, kirish ma’lumotlari: T = 31 °C; H = 42 %; V = 2,1 m/s; PM10 = 86 μg/m³; CO = 0,9 mg/m³.

Model natijasi: Prognoz PM2.5 = 48 μg/m³.

Talaba bunday amaliy topshiriq orqali ekologik bilim bilan bir qatorda dasturlash, statistika va SI ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Masofadan zondlash va kompyuter ko‘rish texnologiyalari. Ekologik monitoringda sun’iy yo‘ldosh va dronlardan olinadigan tasvirlar juda katta ahamiyatga ega.

Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida: o‘rmon maydonlarini; suv havzalarini; qishloq xo‘jaligi hududlarini; cho‘llanish jarayonlarini; shaharlarning kengayishini; suv toshqinlarini; yong‘inlarni;

yer degradatsiyasini monitoring qilish mumkin. SI algoritmlari ushbu tasvirlarni avtomatik tasniflash imkonini beradi.

Masofadan zondlash va SI bo‘yicha tadqiqotlarda mashinali o‘qitish, ma’lumotlarni birlashtirish va kompyuter ko‘rishi ekologik monitoringning samaradorligini oshirishi qayd etilgan [2]. Talabalar amaliy mashg‘ulotlarda sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalanib, hududdagi o‘rmon yoki suv maydonining o‘zgarishini aniqlashlari mumkin.

Masalan, ikki xil yildagi tasvir taqqoslanadi: 2018-yil → 2026-yil; Natijada o‘rmon maydoni:

2018-yil - 1250 km²; 2026-yil - 1080 km². Kamayish: 1250 − 1080 = 170 km².

Foiz hisobida: 170 / 1250 × 100 = 13,6 %. Demak, o‘rmon maydoni taxminan 13,6 % ga kamaygan. Agar bu hisob-kitob sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va SI algoritmi asosida avtomatlashtirilsa, talaba ekologik monitoringning zamonaviy texnologik mexanizmini amaliy ravishda o‘rganadi.

Iqlim o‘zgarishini o‘rganishda sun’iy intellect. Iqlim o‘zgarishi ekologik ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. SI yordamida quyidagi jarayonlarni modellashtirish mumkin: havo haroratining o‘zgarishi; yog‘ingarchilik miqdori; qurg‘oqchilik; suv resurslarining

o‘zgarishi; o‘rmon yong‘inlari; muzliklarning qisqarishi; dengiz sathining o‘zgarishi; issiqxona gazlari emissiyasi. Ekologiya talabalariga iqlim ma’lumotlari berilib, ulardan vaqt qatorlari asosida prognoz modelini yaratish talab qilinishi mumkin.

Masalan: Talaba ushbu ma’lumotlar asosida regressiya modelini tuzadi va kelgusi yillar uchun prognoz ishlab chiqadi. Bunday mashg‘ulotlar talabada quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi: ma’lumotlarni yig‘ish; tozalash; statistik tahlil; grafik tasvirlash; model yaratish; natijalarni baholash; ekologik xulosa chiqarish.

Yil	O‘rtacha harorat, °C
2018	14,2
2019	14,5
2020	14,7
2021	14,8
2022	15,0
2023	15,3
2024	15,5
2025	15,7

Iqlim o‘zgarishi ta’limi bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar ham inquiry-based, project-based va integratsiyalashgan yondashuvlarning talabalar bilim va faolligini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatmoqda [3].

Generativ sun’iy intellektning ekologik ta’limdagi imkoniyatlari. Generativ sun’iy intellekt texnologiyalari, jumladan katta til modellari ekologiya bo‘yicha ta’lim jarayonida yordamchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Talaba SI yordamida: mavzu bo‘yicha savollar tuzishi; murakkab ekologik tushunchalarni izohlashi; Python dasturini yozish bo‘yicha yordam olishi; statistik tahlil uchun kod yaratishi; ilmiy maqola rejasini tuzishi; ekologik monitoring bo‘yicha ssenariy yaratishi; test savollarini ishlab chiqishi; ma’lumotlarni dastlabki tahlil qilishi mumkin.

Masalan, talabaga quyidagi topshiriq beriladi: “PM2.5 miqdorini meteorologik ko‘rsatkichlar asosida bashorat qiluvchi Python dasturini ishlab chiqing.” Talaba generativ SI’dan dastlabki kod variantini olishi mumkin. Lekin tayyor kodni ko‘r-ko‘rona qabul qilish emas, balki: kodni tushunish;xatolarni aniqlash; ma’lumotlarni tekshirish; modelni sinash; natijani izohlash talabaning mustaqil vazifasi bo‘lishi kerak.

Shu jihatdan SI talabaning o‘rniga fikrlovchi vosita emas, balki o‘quv yordamchisi sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq. UNESCO tavsiyalarida ham generativ AI’dan foydalanishda insonning mustaqil fikrlashi, ma’lumotlar maxfiyligi, xavfsizlik, tenglik va pedagogik maqsadga muvofiqlik masalalariga e’tibor qaratilgan [11-17].

SI yordamida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. Ekologiya yo‘nalishida SI asosidagi amaliy mashg‘ulotlarni quyidagi model asosida tashkil etish mumkin.

1-amaliy mashg‘ulot. Havo sifatini tahlil qilish. Talabalarga bir oy davomida yig‘ilgan PM2.5, PM10, CO, NO_2 ma’lumotlari beriladi.

Vazifa: o‘rtacha qiymatni aniqlash; maksimal qiymatni topish; minimal qiymatni topish; kunlik o‘zgarish grafigini yaratish; ifloslanishning yuqori bo‘lgan kunlarini aniqlash; SI yordamida keyingi kun uchun prognoz yaratish.

2-amaliy mashg‘ulot. Suv sifatini baholash. Talabalarga suv havzasining: pH; harorat; loyqalik; kislorod; mineralizatsiya ko‘rsatkichlari beriladi.

SI modeli yordamida suv sifatini “yaxshi”, “o‘rtacha”, “yomon” guruhlariga ajratish amalga oshiriladi.

3-amaliy mashg‘ulot. O‘rmon maydonlarini aniqlash. Talabalar sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalanadilar.

SI yordamida: o‘rmon; suv; shahar; qishloq xo‘jaligi; yalang‘och tuproq sinflari ajratiladi.

4-amaliy mashg‘ulot. Ekologik xavfni prognozlash. Talabalarga tarixiy ekologik ma’lumotlar beriladi. Ular: Random Forest; Decision Tree; Logistic Regression modellaridan foydalanib ekologik xavf ehtimolini hisoblaydilar.

Ekologiya mutaxassisining SI kompetensiyalarini shakllantirish. Zamonaviy ekolog mutaxassis uchun faqat ekologik bilimning o‘zi yetarli emas. U quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim: Ekologik kompetensiya, talaba: ekotizimlar; ekologik monitoring; ifloslanish; tabiiy resurslar; iqlim o‘zgarishi haqidagi fundamental bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Raqamli kompetensiya, talaba: Excel; Python; GIS; ma’lumotlar bazalari; bulutli texnologiyalar; sensorlar bilan ishlay olishi kerak.

SI kompetensiyasi, talaba: SI algoritmlarini tushunish; ma’lumotlarni tayyorlash; model tanlash; model natijasini baholash; SI xatolarini aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Tanqidiy fikrlash. SI bergan javob har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun talaba: “ SI nima dedi?” degan savoldan tashqari, “ SI nima uchun bunday xulosa chiqardi?” degan savolni ham bera olishi kerak.

Sun’iy intellektning afzalliklari. Ekologik ta’limda AI’dan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega.

Birinchidan, ta’lim individuallashtiriladi.

Ikkinchidan, katta hajmdagi ekologik ma’lumotlarni tez qayta ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Uchinchidan, amaliy mashg‘ulotlar real ekologik ma’lumotlarga asoslanadi.

To‘rtinchidan, talabalarning dasturlash va ma’lumotlar tahlili ko‘nikmalari rivojlanadi.

Beshinchidan, ekologik jarayonlarni bashoratlash imkoniyati kengayadi.

Oltinchidan, masofadan zondlash va GIS texnologiyalarini SI bilan birlashtirish mumkin.

Yettinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini avtomatlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

SI va barqaror oliy ta’lim bo‘yicha 2025-yilgi sistematik tadqiqotlarda individual ta’lim, ta’limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlash SI’ning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatilgan [4].

Sun’iy intellektning muammolari va xavflari. SI’dan foydalanish bilan bir qatorda bir qator muammolar ham mavjud.

1. Akademik halollik. Talaba barcha topshiriqlarni SI yordamida bajarib, o‘zining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi: SI’dan foydalanishga ruxsat berilgan; cheklangan; taqiqlangan topshiriqlarni aniq ajratishi kerak.

2. Noto‘g‘ri ma’lumot. Generativ SI ba’zan ishonchli ko‘rinadigan, ammo noto‘g‘ri ma’lumot berishi mumkin. Shuning uchun ilmiy maqolalar, darsliklar, rasmiy ma’lumotlar va monitoring natijalari bilan tekshirish zarur.

3. Ma’lumotlar xavfsizligi. Ekologik monitoring ma’lumotlari ayrim hollarda muhim infratuzilma yoki hududlarga oid maxsus ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun maxfiy ma’lumotlarni ochiq SI tizimlariga yuklashdan ehtiyot bo‘lish kerak.

4. Algoritmik xatolik. Agar SI modeli noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar asosida o‘qitilsa, uning natijasi ham noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

5. Raqamli tengsizlik. Barcha oliy ta’lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internet, kuchli kompyuterlar, GPU va zamonaviy dasturiy vositalar mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Shuning uchun AI asosidagi ta’limni tashkil etishda resurslar tengligini hisobga olish zarur.

SI texnologiyalarining o‘zining ekologik ta’siri. Muhim jihatlardan biri shundaki, sun’iy intellektning o‘zi ham ekologik resurslardan foydalanadi. Katta SI modellarini o‘qitish va ishlatish: elektr energiyasi; ma’lumotlar markazlari; sovutish tizimlari; suv resurslari; kompyuter uskunalari bilan bog‘liq.

Shuning uchun ekologiya mutaxassislarini tayyorlashda “yashil SI ” yoki “barqaror SI” tushunchalariga ham e’tibor qaratish kerak.

2026-yilda chop etilgan sistematik tadqiqot generativ SI’ning ta’limdagi ekologik ta’sirini elektr energiyasi, issiqxona gazlari, suv sarfi, apparat vositalarini ishlab chiqarish va elektron chiqindilar bilan bog‘liq omillar orqali baholagan [5].

Bu holat ekologiya talabalariga juda muhim savolni beradi: “Ekologik muammoni hal qilish uchun ishlatilayotgan SI texnologiyasining o‘zi qanday ekologik iz qoldirmoqda?”.

Shu savol asosida talabalarga SI texnologiyalarining foydasi va ekologik xarajatlarini birgalikda baholash topshirig‘i berilishi mumkin.

Ekologiya ta’limi uchun taklif etilayotgan SI modeli. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassislarini tayyorlashda quyidagi “ SI -EKOLOG” ta’lim modelini taklif qilish mumkin.

1-bosqich - Ekologik bilim. Talaba ekologiyaning fundamental tushunchalarini egallaydi.

2-bosqich - Raqamli savodxonlik. Talaba Excel, GIS, ma’lumotlar bazasi va Python bilan ishlashni o‘rganadi.

3-bosqich - Ma’lumotlar tahlili. Talaba statistik va vizual tahlil usullarini o‘zlashtiradi.

4-bosqich - SI asoslari. Talaba: mashinali o‘qitish; neyron tarmoqlar; klassifikatsiya; regressiya; klasterlash tushunchalarini o‘rganadi.

5-bosqich - Ekologik SI. Talaba SI’ni: havo; suv; tuproq; o‘rmon; biologik xilma-xillik; iqlim

monitoringida qo‘llaydi.

6-bosqich - Mustaqil loyiha. Talaba real ekologik muammoni SI yordamida yechishga harakat qiladi.

Masalan: “Toshkent shahrida PM2.5 konsentratsiyasini SI yordamida prognozlash” yoki

“Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida yashil hududlarning o‘zgarishini aniqlash”.

O‘qituvchi faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish. SI faqat talabalar uchun emas, o‘qituvchilar uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchi SI yordamida: ma’ruza rejasini ishlab chiqishi; amaliy topshiriqlar yaratishi; test savollarini tayyorlashi; individual topshiriqlar ishlab chiqishi; ekologik ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishi; Python kodlarining namunalarini tayyorlashi; laboratoriya ishlarini ishlab chiqishi; talabalar xatolarini tahlil qilishi mumkin.

Biroq o‘qituvchi SI yaratgan materialni bevosita darsga kiritmasligi kerak. Material ilmiy manbalar asosida tekshirilishi, ekologik nuqtai nazardan tahlil qilinishi va mahalliy sharoitga moslashtirilishi lozim. Bu yondashuv o‘qituvchini SI bilan almashtirish emas, balki “o‘qituvchi + SI ” hamkorlik modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari. O‘zbekistonda ekologik muammolarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan: suv resurslaridan oqilona foydalanish; Orolbo‘yi ekologik muammolari; cho‘llanish; tuproq sho‘rlanishi; havo ifloslanishi; chiqindilarni boshqarish; shahar ekologiyasi; qurg‘oqchilik; iqlim o‘zgarishi kabi masalalar ekologik monitoring va prognozlashni talab etadi.

Mazkur muammolarni ekologiya yo‘nalishidagi talabalar uchun SI asosidagi amaliy loyihalarga aylantirish mumkin.

Masalan:

Loyiha 1. “Orolbo‘yi hududlarida ekologik o‘zgarishlarni sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida tahlil qilish.”

Loyiha 2. “Toshkent shahrida PM2.5 ko‘rsatkichlarini mashinali o‘qitish yordamida bashoratlash.”

Loyiha 3, “Qishloq xo‘jaligi yerlarida suv tanqisligini SI yordamida prognozlash.”

Loyiha 4. “Dron tasvirlari yordamida o‘simlik qoplamini avtomatik aniqlash.”

Loyiha 5. “Chiqindilarni avtomatik tasniflash uchun kompyuter ko‘rish modelini yaratish.”

Bunday loyihalar nazariy bilimlarni amaliy ekologik muammolar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’limini sun’iy intellekt bilan integratsiya qilish uchta asosiy natijani ta’minlaydi.

Birinchidan, ekologiya mutaxassisining kasbiy kompetensiyasi kengayadi. An’anaviy ekologik bilimlarga qo‘shimcha ravishda talaba ma’lumotlar tahlili, dasturlash, GIS va AI bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, ta’lim amaliyotga yaqinlashadi. Talaba real ekologik ma’lumotlar bilan ishlaydi va real muammolarni yechishga harakat qiladi.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyati rivojlanadi. Talaba gipoteza yaratish, ma’lumot yig‘ish, model ishlab chiqish, natijalarni baholash va ilmiy xulosa chiqarishni o‘rganadi. Shu bilan birga, SI’ni ekologik ta’limga joriy etish faqat texnik masala emas. Bu o‘quv dasturining mazmuni, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, ta’lim muassasasining texnik imkoniyatlari, akademik halollik va ma’lumotlar xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liq. 2024-yildagi iqlim ta’limiga oid texnologiyalar sharhi ham texnologiya ekologik ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun turli shakllarda ishlatilayotganini ko‘rsatadi; bu SI’ni ekologik ta’limga kiritish uchun kengroq texnologik-pedagogik asos mavjudligini ko‘rsatadi [6]. Shuning uchun eng maqbul yondashuv - SI’ni mustaqil maqsad sifatida emas, balki ekologik muammolarni o‘rganish va yechishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo‘llashdir[7-10].

Xulosa. Ekologik muammolarning murakkablashib borishi ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassislarini tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ekolog mutaxassis ekologik jarayonlarni bilish bilan birga raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Sun’iy intellekt ekologik ta’limda individual o‘qitish, ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish, ekologik jarayonlarni modellashtirish, bashoratlash, masofadan zondlash tasvirlarini qayta ishlash, ekologik monitoring va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mashinali o‘qitish yordamida havo, suv va tuproq parametrlarini tahlil qilish; kompyuter ko‘rishi yordamida ekologik tasvirlarni tasniflash; masofadan zondlash ma’lumotlari asosida yer qoplami

o‘zgarishini aniqlash; generativ SI yordamida o‘quv va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Biroq SI’dan foydalanish akademik halollik, ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik xatolar, noto‘g‘ri ma’lumotlar va SI texnologiyalarining ekologik izi kabi muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli ekologiya ta’limida “ SI’dan foydalanish” bilan bir qatorda “ SI natijalarini tanqidiy baholash” kompetensiyasini ham shakllantirish muhimdir.

Tadqiqot natijasida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassislarini tayyorlash uchun quyidagi kompetensiyalar majmuasini shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: ekologik bilim + raqamli savodxonlik + ma’lumotlar tahlili + dasturlash + GIS + sun’iy intellekt + tanqidiy fikrlash + ekologik mas’uliyat.

Kelgusida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim uchun mahalliy ekologik ma’lumotlar asosida SI laboratoriyalarini tashkil etish, ekologik monitoring ma’lumotlar bazalarini yaratish, Python va GIS asosidagi amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish hamda ekologiya va SI fanlarini integratsiyalashgan o‘quv modullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Natijada ekologik muammolarni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida tahlil qila oladigan, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga qodir va mehnat bozorining yangi talablariga javob beradigan ekolog mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. UNESCO. Paris, 2023. 44 p. DOI: 10.54675/EWZM9535.
2. Using artificial intelligence and data fusion for environmental monitoring: A review and future perspectives. Environmental Modelling & Software. AI and remote sensing technologies for environmental monitoring.
3. Tijani B. E., Adeduyigbe A. M. Systematic review of science education approaches to climate change education and Sustainable Development Goal 13. Discover Environment, 2026.
4. Artificial intelligence, sustainability and higher education: a systematic literature review toward sustainable higher education (SHE) framework. International Journal of Educational Management, Vol. 40, Issues 1–2, 2025, pp. 29–52. DOI: 10.1108/IJEM-12-2024-0773.
5. Radovan M., Košmerl T., Makovec Radovan D. Environmental Impacts of Generative AI in Education: A Systematic Review of Educational and Technical Evidence. Sustainability, 2026, 18(14), 7213. DOI: 10.3390/su18147213.
6. Tofel-Grehl C., Hansen T., Penrod C. et al. Pixels in a Larger Picture: A Scoping Review of the Uses of Technology for Climate Change Education. Journal of Science Education and Technology, 2025, Vol. 34, pp. 453–473. DOI: 10.1007/s10956-024-10183-z.
7. Kundariati M., Putra Z. A. Z. AI in Climate Change Education: A Systematic Review of Trends, Knowledge Structures, and Future Directions. GEN BIONIX: Jurnal Ilmiah Pendidikan Biologi, 2026.
8. Goshu B. S. Artificial Intelligence in Green Science Higher Education: A Systematic Review of Competence Frameworks, Pedagogical Innovations, and the Global Equity Divide. 2026. DOI: 10.5281/zenodo.21019406.
9. IPCC. Climate Change 2023: Synthesis Report. Contribution of Working Groups I, II and III to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change. Geneva: IPCC, 2023.

10. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO, 2020.
11. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations, 2015.
12. UNESCO. AI Competency Framework for Students. Paris: UNESCO, 2024.
13. United Nations Environment Programme (UNEP). Digital technologies and environmental sustainability: opportunities and challenges. Nairobi: UNEP.
14. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. Cambridge, MA: MIT Press, 2016.
15. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. Pearson, 2021.
16. James G., Witten D., Hastie T., Tibshirani R. An Introduction to Statistical Learning. Springer, 2021.
17. Kelleher J. D., Tierney B. Data Science. MIT Press, 2018.

FOSTERING ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY THROUGH GREEN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT, GREEN LEADERSHIP, AND WORK ENGAGEMENT: EXAMINING THE EMERGING ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Muhammad Ramzan ALI, Muhammad Sharjeel Aziz, Muhammad Younis
[1]https://orcid.org/0000-0002-6510-4877
Assistant Professor at AJOU University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan
[2]Email: Ramzan.ali@ajou.uz
[2]Research Scholar at RIGA Technical University, Latvia(Liepaja Campus)
Email: Sharjeel9200@gmail.com
[3]Research Scholar at RIGA Technical University, Latvia(Liepaja Campus)
Email: Younischauhan44@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897287

Abstract. *Climate change, resource pressure, and the pressure of stakeholders for company accountability have redefined the role of human resource as a strategic factor for organization sustainability. This paper offers an integrative literature review, which combines empirical and conceptual research on green human resource management (GHRM), green leadership, green work engagement, and the new phenomenon of the use of artificial intelligence (AI) for boosting environmentally sustainable organizations. The review is based on 120 sources published since 2013 and most of which appeared between 2013 and 2026, and encompasses foundational literature and a systematic search of Scopus-, Web of Science- and EBSCO-indexed databases, revealing a shift from a set of distinct practices (green recruitment, training, performance management, compensation, and involvement) to a strategic, leadership-oriented and increasingly AI-enhanced system. The review is integrated with the Ability-Motivation-Opportunity (AMO) framework, the Resource-Based View (RBV), Social Exchange Theory (SET), and Affective Events Theory (AET), as an integrating theoretical scaffold, in order to develop a conceptual model that shows how green transformational leadership, green servant leadership, and green HRM systems can stimulate green work engagement and employee green behavior, and how AI-based HR analytics can augment each of these relationships, making it more precise, personalized, and accountable in terms of sustainability management in HRM systems. The review reveals convergent evidence that both green leadership and GHRM are associated with green work engagement, organizational citizenship behavior for environment and firm-level environmental performance, and that AI has a promising association with all three and is still under-theorized, under-sectored and has ethical and readiness concerns. Finally, the paper provides a research agenda that highlights the need for longitudinal, multilevel and algorithmically clear designs, while providing practical advice for HR practitioners who would like to incorporate AI responsibly into green people-management architectures.*

Keywords: *Green human resource management; green leadership; green transformational leadership; green work engagement; employee green behavior; artificial intelligence; environmental sustainability; AMO theory*

Introduction. The concept of sustainable development has gone from the outside to the inside of the corporate agenda. With growing regulations and pressure, investors are paying attention to environmental, social and governance (ESG) performance, and a workforce that is far more demanding of an employer's commitment to environmental stewardship, “greening” has become an imperative for organizations instead of a corporate social responsibility (CSR) choice (Ali, Kadirova, & Ismoyilov, 2024; Renwick, Redman, & Maguire, 2013). In this context, green human resource management (GHRM) has become the pathway through which organisations can put their policies and actions on the environment into practice in daily employee practices (Jackson et al., 2024; Yong et al., 2020). GHRM includes the linking of all HR functions (recruitment, selection, training and development, performance management, compensation, employee involvement) with environmental management goals, in such a way that each employee touch point strengthens the organisation's ecological commitments (Rani & Mishra, 2014; Renwick et al., 2013).

Two other parallel scholarships have emerged as unindistinguishable from the GHRM story. The first is green leadership, specifically green transformational and green servant leadership, which provides vision, role modeling, and psychological resources to turn GHRM policy into action (Robertson & Barling, 2013; Singh et al., 2020; Zacher et al., 2024). The latter is employee green behavior and its motivational driver, green work engagement (the vigor, dedication, and absorption of employees towards environmental-related work tasks) (Aboramadan, 2022; Tran, 2023). The third stream, albeit smaller and growing at a quicker pace, discusses the influence of artificial intelligence (AI) technologies (Machine Learning, Natural Language Processing, Predictive Analytics, Algorithmic Decision Support) on the design, delivery and measurement of GHRM, ranging from AI-enabled green recruitment to real-time environmental performance dashboards (Dawra, Pathak, & Sharma, 2024; Gao, Al Mamun, Masukujjaman, & Yang, 2025; Shaikh, Sohu, Shaikh, Kherazi, & Soomro, 2025).

While there are numerous empirical studies on combinations of these constructs (e.g., GHRM and environmental performance, green leadership and employee green behaviour, GHRM and engagement), there are relatively few reviews that have tried to integrate all four domains and fewer that have included AI as an overarching enabling component of GHRM, and not as a standalone ‘technology for tech's sake'. Notably, this gap is important as GHRM, green leadership development and digital HR transformation are not separate, but interconnected parts of a single sustainability architecture. The aim of this paper is therefore threefold: (a) synthesising the theoretical and empirical background literature on GHRM, green leadership, and green work engagement published primarily during the period 2020-2026 and seminal foundational studies; (b) exploring how AI is starting to intersect with and enhance these relationships; and (c) introducing a conceptual framework and research agenda that can inform empirical research at the Q1/Q2 level in the future.

This synthesis isn't just about tidiness. In the absence of a link between GHRM and leadership development and digital transformation strategy, organisations run a risk of what has been termed in the literature “greenwashing fatigue” employee cynicism towards environmental initiatives perceived as symbolic rather than substantive (Ma, Zhao, Chen, Hu, & Qu, 2025). On

the other hand, companies that embrace green leadership, GHRM architecture, and responsible governance of AI are likely to realize a number of benefits, including environmental performance and, crucially, enhanced employee engagement, commitment, and retention, as younger generations of workers have begun to prefer companies with sustainable, transparent leadership (Rani & Mishra, 2014). The review can therefore be seen as both a research exercise, aimed at summarising scattered research and making it testable in a conceptual framework, and a practical exercise, to help HR leaders to identify which of the four levers leadership development, practice design, cultural signaling, or technology governance are likely to provide their practice with the greatest return on their sustainability investment.

The rest of the paper is structured as follows. A methodology for conducting the review is described in Section 2. The theoretical groundwork is discussed in section 3. In Section 4, GHRM conceptualization and practice bundles are reviewed. Green leadership is tackled in Section 5. This section reviews green work engagement and green behaviour of the employees. Assuming the role of AI is discussed in Section 7. A conceptual model and testable propositions are presented in Section 8. Theoretical and managerial implications, limitations, and directions for future research are discussed in sections 9-12, followed by a conclusion.

2. Review Methodology

This review is a hybrid narrative–systematic type, which draws from the PRISMA approach (Ali et al., 2024; Gyensare, Adomako, & Amankwah-Amoah, 2024; Kaur & Gupta, 2024), but uses a structured approach for a search procedure and an interpretive, theory-building approach for the synthesis, which was deemed suitable for an emerging, cross-disciplinary field like this one. Search strings included the terms “green HRM” OR “green human resource management,” “green leadership” OR “green transformational leadership” OR “green servant leadership,” “green work engagement” OR “employee green behavior” OR “environmental engagement,” and “artificial intelligence” OR “AI” OR “algorithmic management” and were limited to peer-reviewed journal articles, book chapters and conference proceedings published in English between 2013 and 2026 and prioritizing publications from 2020–2026. The databases searched were Scopus, Web of Science, ScienceDirect, SAGE, Emerald, Springer, MDPI, Wiley, Taylor & Francis, EBSCO (Academic Search Complete and GreenFILE), and an additional set of source articles provided by the author and retrieved from the EBSCO and open-access databases. The inclusion criteria were that the study had to substantively discuss at least one of the four constructs (GHRM, green leadership, green engagement/behavior, and AI in HRM) in an organization or workplace context. Hand searching was used to find a few additional foundational and recent studies (snowballing) in reference lists of retrieved systematic reviews and meta-analyses (e.g., Efranto, Sipayung, & Amrulloh, 2026; Gul, Karaatmaca, & Raza, 2025; Jackson et al., 2024). The final corpus consists of about 120 sources which range from seminal theoretical papers (e.g., Barney, 1991; Kahn, 1990; Renwick et al., 2013) to empirical research in different industry settings (manufacturing, hospitality, banking, healthcare, higher education, and SME), along with the more recent bibliometric and systematic reviews that map the intersection between AI and the GHRM.

3. Theoretical Foundations

3.1 The Resource-Based View (RBV)

The RBV (Barney, 1991) defines human capital, among which the employees with environment skills and motivated, as a valuable, rare, difficult-to-imitate resource that can be used to create sustainable competitive advantage in a firm. Singh et al. (2020) use the RBV to

propose that, green transformational leadership and GHRM together serve as strategic resources that foster the competence of green innovation and environmental performance within organizations, a logic that has been further elaborated by many subsequent GHRM–performance studies (Fang, Shi, Gao, & Li, 2022; Marrucci, Daddi, & Iraldo, 2021).

3.2 Ability-Motivation-Opportunity (AMO) Theory

Chiqindilarni qayta ishlash darajasining pastligi	Saralash va qayta ishlash infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi (yiliga 14 mln tonna chiqindidan atigi 4-5 foizi qayta ishlanadi)	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi orqali investitsiyalarni kengaytirish
Ekologik ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi	Maktabgacha, umumta'lim va oliy ta'lim bosqichlari o‘rtasida yagona	Barcha ta'lim bosqichlari uchun uzluksiz ekologik ta'lim

ta'minlanmaganligi	metodik yondashuvning yo‘qligi	konsepsiyasini joriy etish (PQ-184-son Qaror asosida)
Fuqarolarning ekologik bilim va madaniyat darajasi pastligi	Ekologik ma'rifat targ‘iboti tizimli emasligi, fuqarolik jamiyati institutlari yetarli jalb etilmaganligi	"Ekolog-olimlar hamjamiyati" va talaba-ekoko‘ngillilar harakatini kengaytirish
Institutsional tuzilmaning tez-tez o‘zgarishi	2022-2025-yillarda boshqaruv organi uch marta qayta tashkil etilgan (Vazirlik → Milliy qo‘mita)	Yagona ekologik onlayn platformani barqaror rivojlantirish va institutsional barqarorlikni ta'minlash

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, muammolarning aksariyati amaliy infratuzilma (chiqindilarni qayta ishlash quvvatlari), ta'lim uzluksizligi va institutsional barqarorlik bilan bog‘liq. Bu esa ekologik mas'uliyatni rivojlantirish borasida tarmoqlararo yondashuvni talab etadi.

2025-yil 15-maydagi PQ-184-son Qaror bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish Konsepsiyasi"ning asosiy maqsadi o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishdan iborat etib belgilangan[4]. Konsepsiyaning 2-bobida qayd etilishicha, jamiyatda, oilada, mahallada va ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni yuksaltirishning uzluksiz mexanizmi hali yetarli darajada takomillashtirilmagan, targ‘ibotning innovatsion usullaridan yetarlicha foydalanilmagan[4].

Konsepsiya doirasida davlat organlari rahbarlarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ekologik ko‘rsatkichlar yuzasidan muntazam hisobot berishi, shuningdek talaba-ekoko‘ngillilar harakati va "Ekolog-olimlar hamjamiyati"ni tashkil etish nazarda tutilgan. Bu — ekologik mas'uliyatni nafaqat davlat, balki fuqarolik jamiyati darajasida ham institutsionallashtirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Rasmiy ma'lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda yiliga o‘rtacha 14 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘ladi, biroq ularning atigi 4-5 foizigina qayta ishlanadi — qolgan qismi poligonlarga jo‘natiladi[8]. Bu ko‘rsatkich chiqindilarni boshqarish sohasida ekologik mas'uliyat madaniyatining hali yetarli shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Muammoni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan jiddiy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda: 2025-yil 14-avgust kuni Prezident chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishgan bo‘lib, so‘nggi uch yilda sohaga 2 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirilgani, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tashkil etilgani hamda chiqindi korxonalari uchun 1200 ta yangi texnika berilgani ma'lum qilindi[7]. Shuningdek, chiqindidan energiya ishlab chiqaruvchi 6 ta zavod qurilishi rejalashtirilib, ularning umumiy qiymati 933 million dollarni tashkil etadi.

PQ-184-son Konsepsiyada nazarda tutilgan "Ekolog-olimlar hamjamiyati" va talaba-ekoko‘ngillilar harakati kabi institutlarning tashkil etilishi shundan dalolat beradiki, davlat ekologik mas'uliyatni endilikda faqat ma'muriy-buyruqbozlik usulida emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda shakllantirishga intilmoqda. Bu yondashuv xalqaro tajribada ham keng qo‘llaniladigan "ko‘p tomonlama boshqaruv" (multi-stakeholder governance) tamoyiliga mos keladi, unga ko‘ra ekologik muammolarni faqat davlat resurslari bilan emas, balki jamiyat, ilm-fan va biznes sektorining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan hal etish mumkin.

Shu bilan birga, bunday institutlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy va tashkiliy mustaqilligiga bog‘liq. Agar "Jamoatchilik ekologiya nazoratchisi" yoki "Ekolog-

olimlar hamjamiyati" kabi tuzilmalar faqat rasmiy hujjatlarda mavjud bo‘lib, amaliy vakolatlar va resurslardan mahrum qolsa, ular ekologik mas'uliyatni real oshirish o‘rniga shunchaki qo‘shimcha byurokratik qatlamga aylanib qolishi mumkin. Shu sababli, ushbu institutlarning amaliy faoliyat samaradorligini muntazam monitoring qilish va baholash mexanizmlarini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tezisning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimining 2023-2025-yillardagi institutsional evolyutsiyasi (vazirlikdan milliy qo‘mitagacha) birinchi marta yaxlit tizimda tahlil qilindi hamda ushbu tez-tez o‘zgarib turuvchi institutsional tuzilma bilan ekologik mas'uliyatning amaliy shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Bundan tashqari, rasmiy statistik ma'lumotlar (chiqindilarning atigi 4-5 foizi qayta ishlanishi) asosida ekologik ta'lim islohotlari bilan amaliy natijalar o‘rtasidagi tafovut ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotning yana bir yangilik jihati shundaki, unda ekologik mas'uliyat sub'ektlar kesimida (individual, korporativ, institutsional) tahlil qilinib, aynan institutsional darajadagi barqarorlik muammosi boshqa ikki darajaga (ta'lim va fuqarolik jamiyati institutlari) ko‘rsatadigan zanjirsimon ta'siri asoslab berildi. Bu yondashuv ekologik mas'uliyatni endilikda yagona, statik hodisa sifatida emas, balki turli darajalarda o‘zaro bog‘liq holda rivojlanib boruvchi dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ekologik mas'uliyat — bilim, qadriyat-motivatsion va amaliy-faoliyat komponentlarining uzviy birligidan iborat murakkab ijtimoiy-huquqiy kategoriya bo‘lib, uni faqat tashkiliy-institutsional o‘zgartirishlar orqali emas, balki amaliy infratuzilma va ta'lim mexanizmlari bilan uyg‘unlikda shakllantirish zarur.

2. 2023-2025-yillarda O‘zbekistonda ekologiya sohasini boshqaruvchi davlat organi kamida ikki marta qayta tashkil etildi (Tabiat resurslari vazirligi → Ekologiya vazirligi → Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi), bu institutsional barqarorlikni ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

3. "2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish Konsepsiyasi" (PQ-184-son) qabul qilinganiga qaramay, uning 2-bobida qayd etilganidek, jamiyatda ekologik targ‘ibotning uzluksiz va innovatsion mexanizmi hali to‘liq shakllantirilmagan.

4. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko‘ra, mamlakatda yiliga hosil bo‘ladigan 14 million tonna chiqindining atigi 4-5 foizigina qayta ishlanmoqda, bu ko‘rsatkich amaliy ekologik mas'uliyat darajasining institutsional islohotlardan orqada qolayotganini ko‘rsatadi.

5. So‘nggi yillarda chiqindilarni boshqarish sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning (2 trln so‘mdan ziyod) ortishi va ixtisoslashtirilgan agentlikning tashkil etilishi ekologik mas'uliyatni amaliy faoliyatga tatbiq etishning ijobiy tendensiyasidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni. — lex.uz, 2023. (1-band).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. — lex.uz, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-174-son "Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University) faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. — lex.uz, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son "2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Qarori. — lex.uz, 2025. (1-ilova, 2-bob).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PQ-343-son "O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. — lex.uz, 2025. (4-band).
6. "Kelajakda hamma soha atrof-muhit bilan hamohang holda rivojlanadi" — prezident // Gazeta.uz. — 2024-yil, 21-oktabr.
7. O‘zbekiston 933 mln dollarga chiqindidan energiya ishlab chiqaruvchi 6 ta zavod quriladi // Gazeta.uz. — 2025-yil, 15-avgust.
8. Otamirzaev A.A. O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash sohasini takomillashtirish yo‘nalishlari // CyberLeninka ilmiy-elektron kutubxonasi (cyberleninka.ru). — 2025.
9. O‘zbekistonda "yashil" universitet ochildi. Unda qanday yo‘nalishlar mavjud? // Spot.uz. — 2024-yil, 12-fevral.
10. 2025 yil "Atrof-muhitni asrash va 'yashil' iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi // Kun.uz. — 2024-yil, 20-noyabr.

AQLLI TURIZM (SMART TOURISM) KONSEPSIYASI: INSON-SUN'IY INTELLEKT HAMKORLIGI ORQALI HUDUDIY BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH

Zaripov Toxirjon Yusufboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktaranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896877

Annotatsiya. *Ushbu tezisda oliy ta'lim va turizm sohasini uyg‘unlashtiruvchi dolzarb yo‘nalish — aqlli turizm (smart tourism) konsepsiyasi hamda inson va sun'iy intellekt hamkorligi asosida hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining turizm tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga ta'siri, ularning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududlarida barqaror turizmni rivojlantirishda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Muallif tomonidan aqlli turizm ekotizimini shakllantirishning uch bosqichli modeli — ma'lumot yig‘ish, tahliliy qayta ishlash va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash — taklif etilgan bo‘lib, ushbu model orqali hududiy turizm resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitga tashkiliy-iqtisodiy yuklamani kamaytirish va sayyohlar tajribasini sifat jihatidan yaxshilash imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *aqlli turizm, sun'iy intellekt, inson-SI hamkorligi, barqaror rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, raqamli transformatsiya, turizm menejmenti, hududiy rivojlanish, ta'lim va texnologiya integratsiyasi.*

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida turizm sohasi nafaqat valyuta tushumlarining muhim manbai, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq, turizm oqimlarining beqaror o‘sishi, tabiiy va madaniy resurslarga ortiqcha antropogen yuklama, shuningdek boshqaruv qarorlarining o‘z vaqtida va asosli qabul qilinmasligi barqaror turizmni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, xususan, katta ma'lumotlarni tahlil qilish, mashinali o‘rganish va prognozlashtirish algoritmlari muhim tashkiliy-iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

"Oliy ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligi: ta'lim kelajagi" mavzusidagi ushbu anjuman doirasida turizm sohasini raqamlashtirish va uni ta'lim tizimi bilan uzviy bog‘lash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kelajak turizm mutaxassislari aynan inson-SI hamkorligi tamoyillari asosida tayyorlanishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi hududida barqaror turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan, aqlli turizm konsepsiyasini joriy etish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning maqsadi — aqlli turizm konsepsiyasining nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish, inson va sun'iy intellekt hamkorligi orqali hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

ASOSIY QISM

1. Aqlli turizm konsepsiyasining nazariy asoslari

Aqlli turizm (smart tourism) tushunchasi xalqaro ilmiy adabiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, katta ma'lumotlar (big data) va sun'iy intellekt vositalarining turizm ekotizimiga integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi paradigma sifatida talqin etiladi. Aqlli turizm uch asosiy komponentdan iborat ekotizimni tashkil etadi: aqlli manzil (smart destination), aqlli tajriba (smart experience) va aqlli biznes (smart business). Ushbu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning samarali faoliyat yuritishi hududiy turizm resurslarini boshqarishning yangi tashkiliy-iqtisodiy modellarini talab qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari turizm sohasida quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda: sayyohlar oqimini prognozlash va boshqarish, individuallashtirilgan turistik xizmatlar taklif etish, narx siyosatini dinamik shakllantirish (revenue management), tabiiy va madaniy meros ob'ektlariga tushayotgan yuklamani monitoring qilish, shuningdek turizm infratuzilmasini rejalashtirishda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish. Ushbu jarayonlarning barchasi inson omili — mahalliy hokimiyat organlari, turizm operatorlari, mahalliy aholi va ilmiy-ta'lim muassasalari — bilan uzviy hamkorlikda amalga oshirilgandagina kutilgan natijani beradi.

2. Inson-SI hamkorligi orqali hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash mexanizmlari

Barqaror turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda inson va sun'iy intellekt o‘rtasidagi hamkorlikni uch bosqichli model asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich — ma'lumot yig‘ish va monitoring. Ushbu bosqichda IoT-sensorlar, mobil ilovalar va geografik axborot tizimlari (GIS) yordamida sayyohlar oqimi, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va infratuzilma holati haqida real vaqt rejimida ma'lumotlar to‘planadi. Bunda inson vazifasi — ma'lumot yig‘ish tizimlarini to‘g‘ri loyihalashtirish va ularning ishonchliligini nazorat qilishdan iborat.

Ikkinchi bosqich — tahliliy qayta ishlash. Sun'iy intellekt algoritmlari to‘plangan ma'lumotlarni tahlil qilib, hududiy turizm yuklamasining chegaraviy ko‘rsatkichlarini (carrying capacity) aniqlaydi, mavsumiy tebranishlarni prognozlashtiradi va potensial xavf omillarini (ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy) belgilaydi. Bu bosqichda insonning vazifasi natijalarni ekspert baholash va mahalliy kontekstga moslashtirishdan iborat bo‘ladi.

Uchinchi bosqich — qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash. SI tomonidan taklif etilgan variantlar asosida yakuniy boshqaruv qarori inson — davlat organlari, mahalliy hokimiyat va turizm sub'ektlari — tomonidan qabul qilinadi. Bu yondashuv "inson markazida" (human-in-the-loop) tamoyiliga asoslanib, sun'iy intellektni qaror qabul qiluvchi emas, balki qarorni asoslovchi vosita sifatida talqin etadi.

Ushbu model O‘zbekiston Respublikasi hududlarida, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy-madaniy markazlarda hamda Farg‘ona vodiysi va Zarafshon vohasi kabi tabiiy-rekreatsion zonalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, bu orqali turizm resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish o‘rtasidagi muvozanat ta'minlanadi.

3. Oliy ta'limda inson-SI hamkorligini shakllantirishning ahamiyati

Aqlli turizm konsepsiyasini amalda samarali joriy etish, avvalambor, tegishli kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Shu sababli oliy ta'lim tizimida turizm yo‘nalishi talabalariga sun'iy intellekt asoslari, ma'lumotlar tahlili va raqamli boshqaruv vositalarini o‘qitish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunda ta'lim jarayonining o‘zi ham inson-SI hamkorligi namunasi sifatida tashkil

etilishi — ya'ni, o‘qituvchi va sun'iy intellekt tizimlarining birgalikda talabalarga individuallashtirilgan ta'lim traektoriyasini taqdim etishi — kelajak turizm mutaxassislarini tayyorlashning yangi metodologik asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari va turizm sohasi o‘rtasidagi ilmiy-amaliy hamkorlikni mustahkamlash, talabalarni real loyihalar — masalan, hududiy turizm yuklamasini SI yordamida tahlil qilish loyihalari — ga jalb etish orqali nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish mumkin.

4. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi hududida barqaror turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini aqlli turizm konsepsiyasi asosida takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, hududiy turizm boshqaruv organlarida raqamli monitoring va prognozlash tizimlarini joriy etish; ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida SI platformalarini yaratishga xususiy investitsiyalarni jalb qilish; uchinchidan, turizm sub'ektlari uchun SI asosidagi qaror qabul qilish vositalaridan foydalanish bo‘yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish; to‘rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida tegishli mutaxassislar tayyorlash dasturlarini yangilash.

Ushbu yo‘nalishlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi natijasida turizm sohasida resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, hududiy ekologik yuklama kamayadi va sayyohlik xizmatlari sifati xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashadi.

5. Xorijiy tajriba va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari

Jahon amaliyotida aqlli turizm konsepsiyasini joriy etishning turli modellari mavjud. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida (Singapur, Janubiy Koreya) sun'iy intellekt asosidagi "raqamli egizak" (digital twin) texnologiyalari yordamida shahar va turizm hududlarining virtual modeli yaratilib, unda turistik oqimlar, transport tizimi va infratuzilma yuklamasi oldindan simulyatsiya qilinadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa sun'iy intellekt asosidagi "aqlli manzil" platformalari orqali mahalliy hokimiyat organlari, biznes sub'ektlari va sayyohlar o‘rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi ta'minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi sharoitida ushbu tajribani moslashtirishda milliy xususiyatlarni — jumladan, tarixiy-madaniy meros ob'ektlarining zichligi, mahalliy hunarmandchilik an'analari va hududlararo infratuzilma tafovutlarini — hisobga olish zarur. Shu bois, aqlli turizm tizimlarini bosqichma-bosqich, dastlab eng yuqori turistik salohiyatga ega hududlarda (Buxoro-Samarqand-Xiva "Oltin uchburchagi", Toshkent shahri, Chorvoq va Zomin rekreatsion zonalari) sinovdan o‘tkazib, so‘ngra respublika miqyosida kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bunday bosqichma-bosqich yondashuv nafaqat moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, balki mahalliy kadrlarning yangi texnologiyalarga moslashish jarayonini ham izchil boshqarish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning amaliyotga bosqichma-bosqich jalb etilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, aqlli turizm konsepsiyasi inson va sun'iy intellekt hamkorligining amaliy namunasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududlarida barqaror turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tubdan yangilash imkonini beradi. Taklif etilgan uch bosqichli — ma'lumot yig‘ish, tahliliy qayta ishlash va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash — model orqali sun'iy intellekt insonning o‘rnini egallamasdan, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida faoliyat yuritadi. Bunday yondashuvni oliy ta'lim tizimiga integratsiyalash, kelajak turizm mutaxassislarini raqamli iqtisodiyot talablariga mos

ravishda tayyorlash imkonini beradi hamda "ta'lim kelajagi" konsepsiyasining amaliy ifodasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations // Information and Communication Technologies in Tourism. — Springer, 2014. — P. 553-564.
2. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. — 2015. — Vol. 25, No. 3. — P. 179-188.
3. Ivanov S., Webster C. Robots, Artificial Intelligence and Service Automation in Travel, Tourism and Hospitality. — Emerald Publishing, 2019.
4. UNWTO. Digital Transformation and Artificial Intelligence in Tourism: Policy Guidelines. — Madrid: World Tourism Organization, 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va turizm sohasidagi islohotlar. — Toshkent, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori. — Toshkent, 2022.
7. Xu F., Buhalis D., Weber J. Serious games and the gamification of tourism // Tourism Management. — 2017. — Vol. 60. — P. 244-256.
8. Sigala M. Tourism and COVID-19: Impacts and implications for advancing and resetting industry and research // Journal of Business Research. — 2020. — Vol. 117. — P. 312-321.
9. Rasulov T.S. Barqaror turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
10. Karimova N.G‘. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini boshqarishning zamonaviy vositalari // O‘zMU xabarlari. — 2023. — № 4. — B. 112-118.
11. Li J., Xu L., Tang L., Wang S., Li L. Big data in tourism research: A literature review // Tourism Management. — 2018. — Vol. 68. — P. 301-323.
12. World Economic Forum. Artificial Intelligence and Human Collaboration in Higher Education: The Future of Learning. — Geneva: WEF, 2024.

SECTION 4

PROSPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SCIENCE, INNOVATION, BUSINESS, AND SOCIETY DEVELOPMENT: ETHICAL, LEGAL, AND ECONOMIC APPROACHES

* * *

4-SHO‘BA

SUN’IY INTELLEKTNING ILM-FAN, INNOVATSIYALAR, BIZNES VA JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ISTIQBOLLARI: ETIK, HUQUQIY VA IQTISODIY YONDASHUVLAR

TRANSFORMATION OF CORRUPTION IN THE ERA OF DIGITAL TECHNOLOGIES (ANALYSIS OF NEW FORMS AND RISKS)

Abdumajitova Shaxrizoda Shuxrat qizi
PhD student at the University of World Economy and Diplomacy
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896930

Abstract. *Since the beginning of the 21st century, the rapid development and widespread adoption of digital technologies have been radically transforming the system of socio-economic relations around the world. These changes create opportunities to make public administration and business processes more efficient and transparent on the one hand, while on the other hand, they also create new opportunities and risks in the field of corruption. Digital transformation processes are creating new forms and methods of corruption, while also necessitating the improvement of mechanisms to combat it. This article discusses the concept of digital transformation and corruption, corruption in the context of digital transformation and its new forms, as well as the emergence of risks and their prevention.*

Keywords: *digital transformation, digital technologies, corruption, risks, corruption crimes, new forms of corruption, conflict of interest, Big Data, artificial intelligence, money transfer, cryptocurrencies, cybercorruption, digital economy.*

Annotatsiya. *XXI asrning boshlaridan buyon raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va keng tarqalishi butun dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu o‘zgarishlar bir tomondan davlat boshqaruvi va biznes jarayonlarini yanada samarali va shaffof qilish imkoniyatlarini yaratsa, boshqa tomondan korrupsion faoliyat sohasida ham yangi imkoniyatlar va xatarlar yuzaga kelmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari korrupsiyaning yangi shakl va usullarini vujudga keltirishi bilan birga, unga qarshi kurash mexanizmlarini ham mukammallashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya va korrupsiya tushunchasi, raqamli transformatsiya kontekstida korrupsiya hamda uning yangi shakllari, shuningdek, xatarlarining vujudga kelishi va ularni oldini olish yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, korrupsiya, xavf-xatarlar, korrupsion jinoyatlar, korrupsiyaning yangi shakllari, manfaatlar to‘qnashuvi, Big Data, sun’iy intellekt, pul o‘tkazmasi, kriptovalyutalar, kiberkorrupsiya, raqamli iqtisodiyot.*

KIRISH

Korrupsiya, o‘z mohiyati jihatidan, bir nechta davlatlar hududida amalga oshiriladigan va turli milliy huquqiy tizimlarning zaifliklarini o‘zaro bog‘laydigan murakkab jinoyat faoliyati turidir. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bu jarayonlarni yanada murakkablashtirgan holda, korrupsiyaning yangi – raqamli shakllari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Ushbu yangi shakllar an’anaviy korrupsion sxemalardan farqli o‘laroq, virtual muhitda amalga oshiriladi va ko‘pincha ularni aniqlash hamda oldini olish ancha murakkab bo‘ladi. Hozirgi kunda raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi tizimlarida keng qo‘llanilmoqda, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar korrupsiya darajasi pastroq bo‘ladi, chunki texnologiyalar

tarqalishi va raqamli transformatsiya jamoatchilik xabardorligi va ma’lumotlar darajasini oshiradi. Biroq, bir vaqtning o‘zida raqamlilashtirish salbiy ta’sirlarini o‘rganish korrupsiyaning davlatlar bo‘ylab tarqalishini ma’yub innovatsiya shaklida osonlashtirishini ko‘rsatadi. Ushbu masalaning dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar nafaqat korrupsiya bilan kurashish vositasi sifatida xizmat qiladi, balki yangi korrupsion xatarlar manbai ham hisoblanadi. Bu ikki tomonlama ta’sir korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish va raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi yondashuvlar ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

ASOSIY QISM

Raqamli inqilob korrupsiya tenglamasining qoidalarini uch asosiy yo‘l bilan o‘zgartirmoqda. Birinchidan, yangi texnologiyalar shaffoflikni yaxshilash va javobgarlikni rag‘batlantirishga yordam beradi. Davlatlar o‘z ma’lumotlarini ochiq qilmoqda va fuqarolik faollari hamda nazorat institutlari ulardan foydalanib davlatni javobgarlikka tortmoqda. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar davlat xizmatchilar va fuqarolar o‘rtasidagi bevosita aloqani minimallashtirib, korrupsion to‘lovlar talab qilish yoki berish imkoniyatlarini kamaytirmoqda. Uchinchidan, algoritmik qarorlar qabul qilish tizimlari insoniy omilni yo‘q qilib, korrupsiya uchun imkoniyatlarni cheklaydi. Biroq, ushbu tizimlarning o‘zi ham manipulyatsiya va korrupsiya obyekti bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda raqamli texnologiyalarning rolini baholashda ularning ikki tomonlama ta’sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan bu texnologiyalar korrupsion faoliyatni yanada murakkablashtirsa, boshqa tomondan esa ularning oldini olish va aniqlash jarayonlarini ham samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi. korrupsiyaning raqamli shakllarining vujudga kelishi zamonaviy texnologik rivojlanishning natijasidir. Ushbu yangi shakllar an’anaviy korrupsion sxemalardan tubdan farq qilib, virtual muhitning o‘ziga xos imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Raqamli korrupsiyaning asosiy xususiyati shundaki, u geografik chegaralardan qat’i nazar, turli davlatlar va yurisdiksiyalar o‘rtasida tezkor va samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin. korrupsiyaning eng keng tarqalgan raqamli shakllaridan biri kiber-korrupsiya hisoblanadi. Ushbu korrupsiya turi davlat xizmatchilarining o‘zlarining raqamli imtiyozlari va axborotlarga kirish huquqlarini noqonuniy moliyaviy manfaatlar uchun sotish yoki ijaraga berish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, davlat ma’lumotlar bazalariga kirish huquqiga ega bo‘lgan amaldorlar bu ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga pul mukofoti evaziga taqdim etishlari mumkin. Bunday jarayonlar odatda shifrlangan aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi va ularni aniqlash ancha murakkabdir.

Raqamli korrupsiyaning boshqa muhim shakli raqamli to‘lov tizimlari orqali korrupsion mablag‘larning legalizatsiyasidir[40]. Zamonaviy fintech kompaniyalari va kriptovalyuta birjalari korrupsion harakatlar ishtirokchilari uchun o‘zlarining noqonuniy daromadlarini qonuniy moliyaviy aktivlarga aylantirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu jarayonlarda ko‘pincha bir nechta davlat hududida joylashgan turli platformalar va xizmatlardan foydalaniladi, bu esa ularni kuzatish va nazorat qilish jarayonlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Shuningdek, korrupsiyaning yangi raqamli shakli sifatida algoritmik korrupsiya paydo bo‘lmoqda. Ushbu korrupsiya turi sun’iy intellekt va algoritmlardan foydalangan holda davlat qarorlar qabul qilish jarayonlariga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish hamda manipulyatsiya qilish

[40] Данилов С. В. Цифровая идентификация и коррупционные риски. Информационная безопасность, 2020, № 5. – С. 69.

jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, davlat tenderlarida g‘olib aniqlash algoritmlari korrupsion maqsadlarda ma’lum kompaniyalar foydasiga o‘zgartirilishi mumkin. Bunday manipulyatsiyalarni aniqlash uchun yuqori malakali mutaxassislar va maxsus texnik vositalar zarur bo‘ladi. Virtual korrupsiya ham korrupsiyaning zamonaviy shakllaridan biridir. Bu turdagi korrupsiya virtual olamlar, onlayn o‘yinlar va boshqa raqamli platformalarda amalga oshiriladigan korrupsion faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Garchi bu faoliyat virtual muhitda amalga oshirilsa-da, uning real iqtisodiy oqibatlari bo‘lishi mumkin. Masalan, virtual aktivlarning real pulga aylantirilishi yoki virtual xizmatlar evaziga haqiqiy moliyaviy manfaatlar olish jarayonlari korrupsiyaning ushbu shaklini tashkil etadi. Raqamli iqtisodiyot kiber firibgarlik, xakerlik, samarasizlik va odamlarning ushbu yangi qarorni qabul qilishga nisbatan munosabati kabi AKT bilan bog‘liq xatarlardan aziyat chekadi. Bu xatarlar korrupsiyaning raqamli shakllarini yanada murakkablashtiradi va ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuvlar talab qiladi. Blokcheyn texnologiyasi bir vaqtning o‘zida almashinuv vositasi sifatida pul yoki ma’lumotlar almashinuvi va tranzaksiyalarni avtomatik ravishda ro‘yxatga oladigan ma’lumotlar bazasi sifatida xizmat qiladi. Biroq, bu texnologiyaning noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki manipulyatsiya qilinishi korrupsion faoliyat uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Ayniqsa, ruxsat beriladigan (permissioned) blokcheyn tarmoqlarida nazorat organlarining korrupsiyasi butun tizimni buzishi mumkin. Smart-kontraktlar asosidagi korrupsiya ham yangi raqamli shakl hisoblanadi. Smart-kontraktlarning kodlarini manipulyatsiya qilish yoki ularni loyihalash jarayonida korrupsion manfaatlarni hisobga olish korrupsiyaning murakkab shakllarini keltirib chiqaradi. Bu turdagi korrupsiyani aniqlash uchun kodni tahlil qilish va algoritmik audit jarayonlari zarurdir.

Olimlarning fikricha, raqamli transformatsiya jarayonida “raqamli korrupsiya” (digital corruption) deb ataladigan yangi fenomen paydo bo‘lmoqda. Bu korrupsiyaning an’anaviy shakllarining kiberfazoga ko‘chishi va yangi texnologik imkoniyatlardan korrupsion maqsadlarda foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ular kiberpora (cyber-bribery), raqamli davlat xaridlarida manipulyatsiya, elektron hukumat tizimlaridagi ziddiyatli manfaatlar kabi yangi xatarlarni ta’kidlaydilar[41]. Sovacool va van Zylning yondashuvi muhim metodologik muammoni ko‘rsatadi ya’ni raqamli transformatsiya nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashning vositasi, balki yangi korrupsion imkoniyatlar manbai ham bo‘lishi mumkin. Raqamli korrupsiya an’anaviy korrupsiyadan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, u ko‘rinmas va aniqlash qiyin – raqamli tizimlar murakkabligi tufayli korrupsion amallar kodlar, algoritmlar va dasturiy ta’minot ichida yashirilishi mumkin. Ikkinchidan, u masofaviy amalga oshirilishi mumkin korrupsioner va pora beruvchi bir-biri bilan bevosita uchrashmaydi, bu esa jinoyatni isbotlashni qiyinlashtiradi. Uchinchidan, o‘lchamlari sezilarli darajada kattaroq bo‘lishi mumkin – raqamli tizimlar orqali millionlab dollar miqdoridagi mablag‘larni tezkor o‘tkazish mumkin. Kiberpora – bu an’anaviy poraning raqamli shakli bo‘lib, kriptovalyutalar, anonim to‘lov tizimlari va darknet orqali amalga oshirilishi mumkin. Elektron davlat xaridlari tizimlarida esa dasturiy ta’minotni manipulyatsiya qilish, tender ma’lumotlarini oldindan ko‘rish, algoritmlarni o‘zgartirish kabi yangi xavflar paydo bo‘lmoqda. Bu olimlarning qarashi shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirishning o‘zi avtomatik ravishda korrupsiyani kamaytirmaydi, aksincha yangi ehtiyotkorlik choralarini talab qiladi.

Korrupsiyaning raqamli shakllarini tahlil qilishda ularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirib turishini ham hisobga olish zarurdir. Ko‘pincha bir xil korrupsion faoliyatda bir nechta

[41] Sovacool B.K., van Zyl J. Digital Corruption: Information and Communication Technologies and Political Accountability. Telecommunications Policy, 2021, Vol. 45, Issue 6. – P. 106.

raqamli shakl birgalikda qo‘llaniladi, bu esa ularni aniqlash va bartaraf etish jarayonlarini yanada murakkablashtiradi[49]. Shuning uchun ham korrupsiyaga qarshi kurashda kompleks va ko‘p sektorli yondashuv zarur bo‘lib qolmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat imkoniyatlar yaratib qolmasdan, bir qator yangi xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda[51]. Ushbu xatarlar korrupsiyaning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishi bilan birga, davlat va xususiy sektor faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[42]. Raqamli transformatsiya jarayonlarida yuzaga kelayotgan yangi xatarlarni to‘g‘ri baholash va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Eng muhim xatarlardan biri ma’lumotlar xavfsizligi sohasida yuzaga kelmoqda. Davlat idoralarining raqamlilashtirish jarayonida katta hajmdagi shaxsiy va maxfiy ma’lumotlar raqamli formatga o‘tkazilmoqda. Ushbu ma’lumotlarning himoyalanmagan holda saqlanishi yoki uzatilishi korrupsion harakatlar uchun qimmatli resurs bo‘lib qolishi mumkin. Ma’lumotlar buzilishi, o‘g‘irlanishi yoki noqonuniy foydalanish uchun sotilishi korrupsiyaning yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda. Kiberxavfsizlik xatarlari ham raqamli transformatsiya jarayonlarida muhim o‘rin tutmoqda. Davlat tizimlarining kiberhujumlar oldida zaif qolishi korrupsion harakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Xakerlar va korrupsion amaldorlar o‘rtasidagi hamkorlik natijasida davlat resurslari va ma’lumotlari noqonuniy maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Bunday holatlar korrupsiyaning kiberjinoyat bilan uyg‘unlashuv jarayonlarini tezlashtirmoqda. Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlarining raqamli transformatsiya va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi tajribasi muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu regionlarning har xil rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan davlatlari raqamli texnologiyalardan foydalanishda turlicha yondashuvlarni qo‘llagan holda, o‘ziga xos natijalar va tajribalarga erishganlar. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan demokratik orqaga chekinish va sudlov tizimlarining zaiflashuvi korrupsiya nazoratini buzmoqda.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida raqamli transformatsiya jarayonlari nisbatan ilg‘or bosqichda amalga oshirilmoqda. Yevropa tajribasidan dalillar korrupsiyaga qarshi kurash taktikasi sifatida raqamli transformatsiyaning qanday raqamli texnologiyalar korrupsiya xatarini kamaytirishi va ba’zi hollarda uni butunlay bartaraf etishini ko‘rsatdi[43]. Estoniya davlatining e-governance tizimi bu sohadagi eng muvaffaqiyatli misollardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim davlat xizmatlarining deyarli barcha turlarini raqamli formatda taqdim etish orqali korrupsiya uchun imkoniyatlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Estoniya tajribasining muhim xususiyati shundaki, davlat xizmatchilar bilan fuqarolarning bevosita aloqasi minimal darajaga keltirilgan. Barcha davlat xizmatlarining raqamli formatda ko‘rsatilishi korrupsion to‘lovlar talab qilish yoki berish imkoniyatlarini deyarli yo‘q qildi. Shuningdek, tizimda barcha harakatlarning raqamli izi saqlanishi nazorat va audit jarayonlarini sezilarli darajada samaraliroq qildi. Markaziy Osiyo kontekstida korrupsiya Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoni qoplayotgan holda davom etmoqda, regional o‘rtacha ko‘rsatkich 2024 yilgi Korrupsiya Idroklari Indeksida 100 baldan 35 balni tashkil etib, eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qolmoqda. Regional tajribani umumlashtirish asosida shuni ta’kidlash mumkinki, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati nafaqat texnik yechimlarning sifatiga, balki ularning joriy etilishi jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishiga ham bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy bazaning ishlab

[42] Павлов, Е. А. Международная правовая помощь: цифровые аспекты. Правовая помощь, 2021, № 3. – С. 39.
[43] Жданов А. К. Открытые данные и обеспечение прозрачности. Открытые данные, 2020, № 8 (134). – С. 91.

chiqilishi, kadrlarni tayyorlash va jamiyatning raqamli savodxonligini oshirish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashtirgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) raqamli korrupsiya shakllariga qarshi kurashda asosiy xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi. Biroq, ushbu konvensiya 2003-yilda qabul qilingan bo‘lib, zamonaviy raqamli texnologiyalarning barcha imkoniyatlari va xatarlari hisobga olinmagan[44].

XULOSA

Xulosa qilishimiz mumkinki, raqamli transformatsiya kontekstida korrupsiyaning yangi shakllari va xatarlarining vujudga kelishi zamonaviy jamiyat oldida turgan eng murakkab muammolardan biridir. Ushbu tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, raqamli texnologiyalar ikki tomonlama ta’sirga ega bo‘lib, bir tomondan ular korrupsiyaga qarshi kurash uchun kuchli vositalar yaratsa, boshqa tomondan yangi korrupsion xatarlar va imkoniyatlar ham keltirib chiqaradi. korrupsiyaning raqamli shakllarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kiber-korrupsiya, raqamli pul, algoritmik korrupsiya va virtual korrupsiya kabi yangi turlar an’anaviy korrupsiyadan tubdan farq qiladi. Bu shakllar geografik chegaralarni osongina kesib o‘tishi, ularni aniqlash va bartaraf etish murakkabligi hamda ko‘p yurisdiksiyani qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati nafaqat texnik yechimlarning sifatiga, balki ularning joriy etilishi jarayonining kompleksligiga ham bog‘liqdir. Estoniya, Danimarka, Finlandiya kabi rivojlangan davlatlarning tajribasi raqamli texnologiyalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi orqali korrupsiya darajasini sezilarli kamaytirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Xalqaro huquq kontekstida korrupsiyaning raqamli aspektlari yangi huquqiy muammolar va vazifalarni keltirib chiqarmoqda. UNCAC kabi mavjud xalqaro hujjatlar zamonaviy raqamli xatarlarni to‘liq qamrab ololmaydi va yangilanishga muhtoj joizdir. Yurisdiksiya masalalari, raqamli dalillarning qabul qilinishi va xalqaro huquqiy yordamning raqamli aspektlari kabi masalalar xalqaro hamjamiyatning e’tiborini talab qiladi.

Kelajakda korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyat quyidagi omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin:

birinchidan, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish;

ikkinchidan, yangi xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rish;

uchinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

to‘rtinchidan, huquqiy bazani zamonaviy talablarga moslashtirish;

beshinchidan, kadrlar malakasini oshirishdan iboratdir.

korrupsiyaning raqamli shakllariga qarshi kurash faqat texnik choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonda davlat, xususiy sektor, fuqaro jamiyati va xalqaro tashkilotlarning keng hamkorligi zarur. Shuningdek, preventiv choralar, ta’lim va ongni oshirish tadbirlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya korrupsiya bilan kurashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda, biroq bu jarayondagi xatarlarni ham hisobga olish va ularga qarshi samarali choralar ko‘rish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Данилов С. В. Цифровая идентификация и коррупционные риски. Информационная безопасность, 2020, № 5. – С. 69.

[44] Кадиров Л. Б. Использование ИИ-систем в борьбе с коррупцией. Искусственный интеллект и право, 2020, № 3 (56). – С. 89.

2. Sovacool B.K., van Zyl J. Digital Corruption: Information and Communication Technologies and Political Accountability. Telecommunications Policy, 2021, Vol. 45, Issue 6. – P. 106.
3. Павлов, Е. А. Международная правовая помощь: цифровые аспекты. Правовая помощь, 2021, № 3. – С. 39.
4. Жданов А. К. Открытые данные и обеспечение прозрачности. Открытые данные, 2020, № 8 (134). – С. 91.
5. Кадиров Л. Б. Использование ИИ-систем в борьбе с коррупцией. Искусственный интеллект и право, 2020, № 3 (56). – С. 89.
6. TDIU, “Innovatsion ta’lim” kafedrasi, “Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limning transformatsiyasi” Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to‘plami, 2022-yil 18-noyabr.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN IT BUSINESS DEVELOPMENT

Abdurasulova Nilufar Sobir kizi
The second-year student of Ajou University in Tashkent,
IT business faculty
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896960

Abstract. *This article emphasizes the concepts of artificial intelligence (AI) and the IT business, and examines the role of AI in the development of the IT business, the main AI technologies, and the AI tools widely used in business. The research findings demonstrate that artificial intelligence is a key driver of innovation, supports digital transformation, and contributes to sustainable business development. Furthermore, the widespread adoption of AI technologies across various industries is expected to play an increasingly important role in enhancing business efficiency and creating new opportunities in the future.*

Keywords: *Artificial Intelligence, IT Business, Business Development, Digital Transformation, Machine Learning, Business Innovation.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) va IT biznes tushunchalariga urg‘u berilib, sun’iy intelektning IT biznesni rivojlantirishdagi o‘rni, asosiy AI texnologiyalari hamda biznesda keng qo‘llanilayotgan sun’iy intellekt vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt innovatsiyalarni jadallashtirish, raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash va biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, kelgusida ham sun’iy intellekt texnologiyalarining turli sohalarda keng qo‘llanilishi biznes samaradorligini oshirish va yangi imkoniyatlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, IT biznes, biznesni rivojlantirish, raqamli transformatsiya, mashinali o‘rganish, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье особое внимание уделяется понятиям искусственного интеллекта (ИИ) и ИТ-бизнеса. Рассматриваются роль искусственного интеллекта в развитии ИТ-бизнеса, основные технологии ИИ, а также инструменты искусственного интеллекта, широко применяемые в бизнесе. Результаты исследования показывают, что искусственный интеллект является важным фактором ускорения инноваций, поддержки цифровой трансформации и обеспечения устойчивого развития бизнеса. Кроме того, ожидается, что дальнейшее широкое внедрение технологий ИИ в различных сферах будет способствовать повышению эффективности бизнеса и созданию новых возможностей.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, IT-бизнес, развитие бизнеса, цифровая трансформация, машинное обучение, инновации.*

Introduction

Artificial Intelligence (AI) has become one of the most influential technologies in the digital era. Organizations across different industries use AI to improve productivity, reduce operational costs, support decision-making, and develop innovative products and services. The IT industry is one of the leading sectors adopting AI technologies because they help automate routine tasks, process large amounts of data, improve software development, and enhance customer

experience. These technologies enable organizations to improve productivity, respond more quickly to customer needs, and develop innovative products that strengthen their competitive position [3], [4]. Researchers also emphasize that AI is no longer only a technical innovation. Today, it is considered a strategic business resource that supports digital transformation, organizational development, and long-term business success [6].

The concepts of Artificial intelligence (AI) and IT business

Artificial intelligence (AI) is a multidisciplinary concept that has been defined from different perspectives by researchers in computer science, cognitive science, and information technology. However, in the business environment, AI is also considered a branch of computer science that develops intelligent systems capable of performing tasks that normally require human intelligence. These tasks include learning from experience, understanding natural language, recognizing patterns, solving problems, making decisions, and continuously improving performance based on available data. Unlike traditional computer programs, AI systems can analyze information, adapt to changing conditions, and provide effective solutions to complex problems [2]. Unlike traditional computer programs, AI systems can analyze information, adapt to changing conditions, and provide effective solutions to complex problems. These days, AI is applied in almost every industry, including healthcare, education, finance, manufacturing, transportation, and information technology. Its growing adoption demonstrates that AI has become an essential part of modern organizations seeking higher productivity, better decision-making, and sustainable growth. Based on the reviewed definitions, Artificial Intelligence can be understood as both an advanced technology and a strategic business resource. Its ability to learn from data, support decision-making, and automate complex tasks makes it valuable for modern organizations.

A clear understanding of the concept of the IT business is essential before examining the role of artificial intelligence in its development. IT business refers to companies and organizations that develop, manage, or provide information technology products and services. These businesses include software development companies, cloud service providers, cybersecurity firms, IT consulting companies, data analytics organizations, and digital platform providers. The main objective of an IT business is to use technology to create value for customers, improve business performance, and support digital transformation. Today, IT businesses operate in a highly competitive environment where innovation, speed, and service quality are essential for success. To remain competitive, many organizations invest in Artificial Intelligence to automate business processes, improve software development, analyze customer data, and enhance decision-making. As a result, AI has become an important technology that supports both operational efficiency and long-term business growth [3], [5]. This shows that the success of modern IT businesses depends not only on technological innovation but also on the effective use of intelligent solutions that improve business performance.

The Role of Artificial Intelligence in IT Business Development.

The rapid growth of digital technologies has significantly increased the importance of Artificial Intelligence in the IT industry. Today, AI is no longer used only to automate simple tasks. It has become an important business tool that helps organizations improve efficiency, develop innovative products, and create competitive advantages. One of the greatest strengths of AI is its ability to process large amounts of data in a short time. This enables companies to identify patterns, understand customer needs, predict future market trends, and make faster

business decisions. Instead of spending time on repetitive manual work, employees can focus on creativity, problem-solving, and strategic planning.

AI also improves *software development*. Developers use intelligent tools to generate program code, identify software errors, test applications, and prepare technical documentation. As a result, software can be developed more quickly while maintaining high quality. *Customer service* is another area where AI has become highly valuable. AI-powered chatbots and virtual assistants provide instant responses, answer frequently asked questions, and support customers at any time of the day. This improves customer satisfaction while reducing the workload of support teams. In addition, AI supports *business management* by improving marketing, finance, cybersecurity, human resource management, and business analytics. According to recent business studies, organizations that successfully integrate AI into their operations often achieve higher productivity, better decision-making, and stronger competitiveness in the digital market [3], [4], [5]. Overall, the reviewed studies indicate that AI is becoming an essential part of IT business strategy because it improves operational efficiency, supports innovation, and helps organizations remain competitive.

In the area of business operations, many practical AI tools have been introduced to support organizations in improving their daily operational activities. Aziz Marvin [1], considers some AI tools for instance, *Lindy, Microsoft Copilot, ThoughtSpot, Zapier, Workstatus, Spinach, Clay, Tidio, DataRobot* as the best AI tools for business operations. He claims that these tools simplify business operations, increase productivity, and support digital transformation.

Conclusion

5. Pedagogik metodlar, Sharq merosi va raqamli vositalarning uyg‘unligi. Psixologik qonuniyatlardan kelib chiqib, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda faol va interaktiv metodlar yetakchi ahamiyat kasb etadi. 2-jadvalda har bir komponent uchun maqbul metodlar, Sharq merosini integratsiyalash yo‘nalishlari hamda raqamli va sun’iy intellektga asoslangan vositalarning qo‘llash imkoniyatlari tizimlashtirilgan.

2-jadval

Iqtisodiy tafakkur komponentlarini rivojlantirish metodlari va raqamli ta’lim muhitidagi imkoniyatlar

Komponent	Yetakchi metodlar	Sharq merosini integratsiyalash	Raqamli va SI vositalari imkoniyati
Kognitiv	Interaktiv ma’ruza, tushunchaviy xarita, evristik suhbat	Mutafakkirlar g‘oyalarini zamonaviy tushunchalar bilan qiyoslash	Adaptiv testlar; elektron xrestomatiya; tushunchalar bo‘yicha individual qayta aloqa
Operatsional-faoliyatli	Keys-stadi, ishbilarmonlik o‘yini, loyiha metodi	Tarixiy iqtisodiy vaziyatlar asosida keyslar tuzish	Iqtisodiy simulyatsiyalar; “nima bo‘ladi, agar…” stsenariylarini modellashtirish
Aksiologik	Munozara, axloqiy dilemma tahlili, qadriyatli vaziyat	G‘azzoliy, Navoiy g‘oyalari asosida axloqiy-iqtisodiy dilemmalar	Interaktiv dilemma-keyslar; munozara uchun muqobil nuqtai nazarlarni taqdim etish
Refleksiv-prognostik	Refleksiv kundalik, esse, prognostik topshiriq	Mutafakkirlar hikmatlari yuzasidan refleksiv esse yozish	Formativ qayta aloqa; o‘quv analitikasi asosida rivojlanish traektoriyasini kuzatish

Jadval Sharq merosini nazariy bayon darajasida emas, balki konkret didaktik vositalar – keys, dilemma, esse, loyiha – shaklida ta’lim jarayoniga kiritish yo‘llarini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar esa D.Kolbning tajribaviy o‘rganish siklini to‘liq amalga oshirishga xizmat qiladi: interaktiv simulyatsiyalar talabaga real iqtisodiy jarayonlarni modellashtirilgan muhitda xavf-xatarsiz «boshdan kechirish» imkonini beradi, meros manbalarining raqamli formatda taqdim etilishi esa ularni zamonaviy talabaga yaqinlashtiradi.

Ayni vaqtda sun’iy intellekt vositalarini qo‘llashda ikki cheklovni hisobga olish zarur. Birinchidan, SI o‘qituvchining pedagogik qarorini almashtirmaydi, balki uni ma’lumot bilan ta’minlaydi: baholash va qadriyatli yo‘naltirish mas’uliyati o‘qituvchida qoladi. Ikkinchidan, aksiologik komponentni shakllantirish tirik dialog, munozara va shaxsiy namunani talab qiladi –

bu sohada texnologiya faqat yordamchi vosita bo‘la oladi. Xalqaro tavsiyalarda ham SI dan foydalanishning pedagogik nazorat va shaffoflik tamoyillariga bo‘ysundirilishi ta’kidlanadi [11].

6. Rivojlantirish bosqichlari va pedagogik shart-sharoitlar. Talabalarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni izchil bosqichlardan iborat: motivatsion-yo‘naltiruvchi bosqich (iqtisodiy bilimga qiziqish uyg‘otish – mutafakkirlar hikmatlari orqali ma’naviy yaqinlik hosil qilish); bilim-mazmuniy bosqich (tushuncha va qonuniyatlarni o‘zlashtirish); operatsional-amaliy bosqich (bilimni tahlil va qaror qabul qilishda qo‘llash); aksiologik-tarbiyaviy bosqich (iqtisodiy qadriyat va e’tiqodlarni shakllantirish); refleksiv-baholovchi bosqich (o‘z iqtisodiy tafakkuri va xulqini baholash). Sharq merosi har bir bosqichda o‘ziga xos vazifa bajaradi: motivatsion bosqichda qiziqish uyg‘otuvchi, bilim bosqichida chuqurlashtiruvchi, amaliy bosqichda misol-material beruvchi, aksiologik bosqichda tarbiyalovchi va refleksiv bosqichda mulohaza uyg‘otuvchi vosita sifatida.

Jarayonning samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq: o‘quv jarayonini faol va interaktiv metodlar asosida tashkil etish; Sharq merosini tizimli va maqsadli integratsiyalash; tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash – topshiriqlarning murakkabligi, ko‘rsatiladigan ko‘mak miqdori va o‘quv sur’atini talabaning individual imkoniyatlariga moslashtirish, bu esa har bir talabaning «eng yaqin rivojlanish zonasi»da ishlashini ta’minlaydi [1]; o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi – predmet bilimi va pedagogik mahoratning uyg‘unligi (L.Shulman ta’biri bilan «pedagogik mazmuniy bilim») [5]; talabaning ichki motivatsiyasini rivojlantiruvchi muhit; hamda to‘rtala komponentning muvozanatli rivojlanishi.

Alohida ta’kidlash joizki, iqtisodiy tafakkurning yakuniy maqsadi – uning real iqtisodiy xulq-atvorda namoyon bo‘lishidir. Biroq tafakkur va xulq o‘rtasida avtomatik bog‘liqlik yo‘q: talaba to‘g‘ri iqtisodiy bilimga ega bo‘lsa-da, amalda boshqacha yo‘l tutishi mumkin. Bu «bilim – xulq» tafovutini bartaraf etishda barqaror qadriyat va e’tiqodlarning shakllanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega – aynan shu nuqtada Sharq merosining tarbiyaviy salohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarni asoslash imkonini berdi. Birinchidan, talabalik davri iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish uchun sensitiv davr bo‘lib, bu jarayon madaniy-tarixiy, kognitiv rivojlanish va tajribaviy o‘rganish nazariyalarida ochib berilgan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Ikkinchidan, iqtisodiy tafakkur kognitiv, operatsional-faoliyatli, aksiologik va refleksiv-prognostik komponentlarning yaxlitligi sifatida namoyon bo‘ladi; ularning muvozanatli rivojlanishi ta’limning bosh vazifasidir. Uchinchidan, Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi ayniqsa aksiologik komponentni boyitib, iqtisodiy bilimni halollik, adolat, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas’uliyat qadriyatlari bilan uzviy bog‘laydi. To‘rtinchidan, raqamli va sun’iy intellektga asoslangan vositalar bu jarayonni sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin – lekin faqat pedagogik maqsadga bo‘ysundirilgan, o‘qituvchi nazoratidagi yordamchi vosita sifatida. Taklif etilayotgan besh bosqichli model va pedagogik shart-sharoitlar majmui oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning didaktik tizimini loyihalash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

2. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952.
3. Berti A.E., Bombi A.S. The Child’s Construction of Economics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.
4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
5. Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – P. 4–14.
6. Walstad W.B., Rebeck K. Test of Economic Literacy: Examiner’s Manual. – New York: NCEE, 2001.
7. Bloom B.S. (ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956.
8. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916.
9. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1998.
10. Ibn Khaldun. The Muqaddimah: An Introduction to History / Transl. by F. Rosenthal. – Princeton: Princeton University Press, 1967.
11. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris: UNESCO, 2023. – 44 p.

QISHLOQ XO‘JALIGI XIZMATLARI BOZORIDA IQTISODIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Saidaxmedova Nodira Ilxomovna[1], Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi[2]
[1]Iqtisodiyot fanlari doktori, DSc., professor
[2]Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897312

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarning mazmuni, rivojlanish xususiyatlari va mavjud muammolari tadqiq etilgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar, xizmatlarning narxi va sifati, shartnomaviy munosabatlar, moliyaviy ta’minot hamda agroservis infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan. Mazkur mexanizmda raqamli xizmatlardan foydalanish, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish, xizmatlar narxini iqtisodiy asoslash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi raqobat muhitini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va ishlab chiqaruvchilarning xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi xizmatlari, agroservis, xizmatlar bozori, iqtisodiy munosabatlar, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar, fermer xo‘jaliklari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, xizmatlar sifati, raqobat muhiti, raqamli xizmatlar, moliyaviy ta’minot.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligining samarali rivojlanishida ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy agrotexnik, texnik, moliyaviy, maslahat va innovatsion xizmatlar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda agroservis xizmatlarini rivojlantirish, fermerlarning bilim va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli xizmatlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida xizmatlarning narxi va sifati, ulardan foydalanish imkoniyati, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar hamda iqtisodiy manfaatlarning muvofiqligi bilan bog‘liq masalalar mavjud. Bu esa xizmatlar bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini o‘rganish va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy olimlar tomonidan qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlar asosan xizmat ko‘rsatish tizimining samaradorligi, fermerlarning bozorga kirish imkoniyatlari va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. R. Birner, K. Davis, J. Pender, E. Nkonya va boshqalar qishloq xo‘jaligi maslahat xizmatlarini boshqaruv, moliyalashtirish, xizmat ko‘rsatuvchilar salohiyati va xizmat ko‘rsatish usullari

asosida takomillashtirish zarurligini asoslagan. P. Pingali, Y. Khwaja va M. Meijer esa fermerlarning bozor munosabatlariga kirishida tranzaksiya xarajatlari va shartnomaviy talablarning muhimligini ko‘rsatgan. C. Poulton, A. Dorward kichik fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda xizmatlar, institutlar va vositachilik tizimining ahamiyatini yoritgan. Shuningdek, M.L. Cook qishloq xo‘jaligi kooperatsiyalarining iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishdagi rolini tadqiq etgan. Mazkur tadqiqotlar xizmatlar bozorida raqobat, kooperatsiya, shartnomaviy munosabatlar va tranzaksiya xarajatlarini boshqarish muhimligini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlardan Q.J. Mirzayev agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini, S.N. Xamrayeva qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmani innovatsion rivojlantirish masalalarini, Z.M. Muqimov fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish va moddiy-texnik ta’minot tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etgan. R.X. Ergashev va S.N. Xamrayeva qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining iqtisodiy jihatlarini yoritgan bo‘lsa, Q.A. Choriyev fermer va dehqon xo‘jaliklarini kooperatsiya jarayonlariga jalb etish masalalarini o‘rgangan. So‘nggi tadqiqotlarda I. Kudratova agroservis xizmatlarida shaffoflik, raqobat, qiymat yaratish zanjiri va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratgan. Shunga qaramay, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, xizmatlar narxi va sifati hamda shartnomaviy munosabatlarni yagona mexanizm asosida takomillashtirish masalalari yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishda tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanildi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida talab va taklifning o‘zaro ta’siri, xizmatlar narxi va sifati, shartnomaviy munosabatlar, raqobat muhiti hamda iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish tamoyillari tashkil etadi. Olingan natijalar asosida xizmatlar bozorining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozori ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi o‘ziga xos iqtisodiy tizim bo‘lib, unda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi munosabatlar talab, taklif, narx, sifat va manfaatdorlik omillari asosida shakllanadi. Bunda xizmatga bo‘lgan talab oddiy iste’mol talabidan farqli ravishda mavsumiylik, ishlab chiqarish texnologiyasi va tabiiy-iqlim sharoitlariga bevosita bog‘liq. Masalan, agrotexnik, texnik, sug‘orish, o‘simliklarni himoya qilish yoki veterinariya xizmatlarining kechiktirilishi keyingi ishlab chiqarish jarayonlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli xizmatning nafaqat mavjudligi, balki kerakli vaqtda, kerakli joyda va maqbul narxda ko‘rsatilishi uning iqtisodiy qiymatini belgilaydi.

Tahlil natijalari qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi asosiy iqtisodiy muammolardan biri talab va taklifning hududiy hamda mavsumiy jihatdan nomutanosib shakllanishi ekanligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqaruvchilar uchun xizmatga ehtiyoj ko‘pincha qisqa muddatda keskin ortadi, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar esa bunday talabni to‘liq qondirish uchun yetarli texnika, mutaxassis yoki moliyaviy imkoniyatga ega bo‘lmasligi mumkin. Natijada xizmat narxining oshishi, xizmatni kutish muddati uzayishi yoki ishlab chiqaruvchining o‘z imkoniyatlari hisobidan qo‘shimcha xarajat qilishi yuzaga keladi. Demak, xizmatlar bozorida samaradorlikni

oshirish uchun xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning faqat sonini ko‘paytirish emas, balki ularning hududiy joylashuvi va xizmat quvvatlarini talab tarkibiga moslashtirish zarur.

Ikkinchi muhim masala xizmat narxi va uning iqtisodiy qiymati o‘rtasidagi nisbat bilan bog‘liq. Xizmat narxining shakllanishida texnika va yoqilg‘i xarajatlari, mehnat haqi, ehtiyot qismlar, logistika va boshqa xarajatlar hisobga olinadi. Biroq ishlab chiqaruvchi uchun xizmatning haqiqiy qiymati uning ishlab chiqarish natijasiga ta’siri bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan xizmat narxini faqat xarajatlarni qoplash tamoyili asosida belgilash yetarli emas. Narx shakllanishida xizmatning sifati, tezkorligi, ishlab chiqaruvchiga keltiradigan iqtisodiy samarasi va bozor sharoitidagi raqobat darajasi ham hisobga olinishi lozim.

Xizmatlar bozoridagi yana bir muhim jihat — xizmat ko‘rsatuvchi va xizmatdan foydalanuvchi o‘rtasidagi axborot nomutanosibligidir. Ishlab chiqaruvchi ayrim hollarda xizmatning texnologik sifati yoki uning natijadorligini oldindan to‘liq baholay olmaydi. Xizmat ko‘rsatuvchi subyekt esa o‘z xizmatining imkoniyatlari va xarajatlari haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. Bunday vaziyat shartnoma shartlarining noaniqligi, xizmat sifatini nazorat qilishning murakkabligi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda xizmat turi, hajmi, muddati, narxi, sifat ko‘rsatkichlari va tomonlarning javobgarligini aniq belgilovchi standartlashtirilgan shartnomaviy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xizmatlar bozorida raqobatning yetarli darajada shakllanmaganligi iqtisodiy munosabatlarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillardan biridir. Muayyan hududda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar sonining cheklanganligi ishlab chiqaruvchining tanlov imkoniyatini kamaytiradi. Tanlovning cheklanishi esa xizmat narxi, sifati va ko‘rsatish shartlari bo‘yicha raqobatni susaytirishi mumkin. Shu sababli xususiy agroservis subyektlarini rivojlantirish, kichik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni bozorga jalb qilish, kooperativ xizmat shakllarini kengaytirish va raqamli platformalar orqali xizmat ko‘rsatuvchilarni ishlab chiqaruvchilar bilan bevosita bog‘lash bozor mexanizmining samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni faqat xizmat ko‘rsatish jarayoni bilan cheklab bo‘lmaydi. Ular talabni aniqlash, xizmatni tanlash, narxni shakllantirish, shartnoma tuzish, moliyalashtirish, xizmat sifatini nazorat qilish va yakuniy iqtisodiy natijani baholash bosqichlarini qamrab olishi kerak. Shu asosda xizmatlar bozorining samarali mexanizmi

“talabni aniqlash → xizmatni tanlash → shartnomalashtirish → narxni belgilash → moliyalashtirish → xizmat ko‘rsatish → sifat nazorati → natijani baholash”

ketma-ketligi asosida tashkil etilishi taklif etiladi.

Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, unda xizmat ko‘rsatuvchi subyektning daromadliligi bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchisining iqtisodiy manfaatlari o‘zaro bog‘lanadi. Ya’ni xizmat ko‘rsatuvchining manfaatdorligi faqat xizmat hajmiga emas, balki xizmatning sifati va yakuniy natijasiga ham bog‘lanadi. Natijada qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozori oddiy “xizmat ko‘rsatish” tizimidan ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy hamkorlik tizimiga aylanadi.

1-jadval

Qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish mexanizmi

№	*Mexanizm elementi*	*Amalga oshirish mazmuni*	*Asosiy ko‘rsatkich / formula*	*Istiqbolli natija*
1	**Talabni aniqlash**	Fermer va xo‘jaliklarning xizmatlarga bo‘lgan mavsumiy, hududiy va texnologik ehtiyojlarini aniqlash	**$DT = \Sigma D_i$**, bu yerda DT – jami xizmat talabi, D_i – i-xizmatga talab	Xizmatlar taklifi real talabga moslashadi
2	**Xizmatlarni diversifikatsiya qilish**	Agrotexnik, texnik, veterinariya, logistika, maslahat, raqamli va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish	**$DS = S_i / S_t \times 100$**, bu yerda S_i – i-xizmat ulushi	Ishlab chiqaruvchilarning xizmat tanlovi kengayadi
3	**Narxni iqtisodiy asoslash**	Xarajat, talab, raqobat va xizmatning iqtisodiy samarasi asosida narx shakllantirish	**$P = C + M$**, bu yerda P – xizmat narxi, C – xarajat, M – marja	Asossiz narx oshishining oldi olinadi
4	**Shartnomaviy munosabatlar**	Xizmat turi, muddati, narxi, sifati va tomonlarning javobgarligini shartnomada aniq belgilash	**$KS = BS / TS \times 100$**, bu yerda KS – shartnoma bajarilishi darajasi	Tomonlar manfaatlari muvofiqlashadi
5	**Xizmat sifatini baholash**	Xizmatning o‘z vaqtida, to‘liq va belgilangan standart asosida bajarilishini baholash	**$QS = \Sigma w_i q_i$**, $\Sigma w_i = 1$	Xizmat sifati va mijozlar qoniqishi oshadi
6	**Raqobat mexanizmi**	Bir hududda bir nechta xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning faoliyatini rag‘batlantirish	**$CI = N_i / N_t \times 100$**	Tanlov imkoniyati va raqobat kuchayadi
7	**Moliyaviy mexanizm**	Kredit, lizing, subsidiyalash va	**$FA = MF / MJ \times 100$**, bu yerda FA –	Fermerlarning xizmatlardan

		xizmatni bo‘lib to‘lash imkoniyatlarini kengaytirish	moliyaviy foydalanish imkoniyati	foydalanish imkoniyati ortadi
8	**Raqamlashtirish**	Xizmat buyurtmasi, narxlarni taqqoslash, shartnoma va to‘lovlarni raqamli platformaga o‘tkazish	**DR = RD / JT × 100**	Vaqt va tranzaksiya xarajatlari kamayadi
9	**Iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish**	Xizmat ko‘rsatuvchi daromadi va ishlab chiqaruvchi iqtisodiy samaradorligini bir mexanizmda bog‘lash	**EM = ΔY − ΔX**, bu yerda ΔY – qo‘shimcha daromad, ΔX – qo‘shimcha xarajat	“Xizmat hajmi”dan “natijador xizmat” modeliga o‘tiladi
10	**Monitoring va nazorat**	Xizmat narxi, sifati, muddati va yakuniy natijasini muntazam baholash	**SI = R_a / R_r × 100**, bu yerda R_a – amaldagi natija, R_r – rejalashtirilgan natija	Xizmat ko‘rsatishdagi kamchiliklar tez aniqlanadi
11	**Yakuniy samaradorlik**	Mexanizmning ishlab chiqarish va xizmatlar bozoriga umumiy ta’sirini baholash	**ES = ΔD / ΔX**	Xizmat xarajatlari va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi nisbat yaxshilanadi
12	**Integral natija**	Xizmatlar bozori samaradorligini kompleks baholash	**IQXM = $\Sigma w_i Z_i$,** $\Sigma w_i = 1$	Qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorining barqaror va samarali rivojlanishi ta’minlanadi

Jadvalda qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning mualliflik mexanizmi tizimli ravishda ifodalangan. Mazkur mexanizmning asosiy jihati shundan iboratki, qishloq xo‘jaligi xizmatlarini rivojlantirish faqat xizmatlar hajmini oshirish bilan emas, balki talabni aniqlash, xizmatlarni diversifikatsiya qilish, narx va sifatni muvofiqlashtirish, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish hamda yakuniy iqtisodiy samaradorlikni baholash bilan bog‘liq yagona tizim sifatida qaraladi. Mexanizmning dastlabki bosqichi xizmatlarga bo‘lgan talabni aniqlashdan boshlanadi. Qishloq xo‘jaligida talabning mavsumiy va hududiy xususiyatga ega ekanligi sababli xizmatlar taklifini real ehtiyojga moslashtirish muhim hisoblanadi. Bu yondashuv xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning mavjud resurslaridan samarali foydalanishiga, ishlab chiqaruvchilarning esa zarur xizmatni o‘z vaqtida

olishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, xizmat turlarini diversifikatsiya qilish ishlab chiqaruvchilarning birgina xizmat turiga bog‘liqligini kamaytirib, kompleks agroservis tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mexanizmning muhim elementlaridan biri narx va sifatning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash hisoblanadi. Xizmat narxining faqat xarajatlar asosida shakllanishi yetarli emas. Unda xizmatning sifati, tezkorligi, ishlab chiqaruvchiga keltiradigan iqtisodiy samarasi va bozordagi raqobat darajasi ham hisobga olinishi lozim. Shu sababli xizmatning iqtisodiy qiymatini baholashda $\mathbf{ES = \Delta D / \Delta X}$ ko‘rsatkichidan foydalanish xizmatga sarflangan xarajat bilan undan olinadigan qo‘shimcha daromad o‘rtasidagi nisbatni aniqlash imkonini beradi.

Shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish esa xizmat ko‘rsatuvchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shartnomada xizmat turi, muddati, narxi, sifati, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda javobgarligining aniq belgilanishi iqtisodiy noaniqlikni kamaytiradi. Natijada xizmat ko‘rsatish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi va nizolarni kamaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Jadvalda raqobat, moliyalashtirish va raqamlashtirish alohida mexanizm elementlari sifatida ajratilganligi ham muhimdir. Xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi raqobat ishlab chiqaruvchiga tanlov imkoniyatini oshirsa, kredit, lizing va boshqa moliyaviy vositalar xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Raqamli platformalar orqali xizmatni izlash, narxlarni taqqoslash, buyurtma berish, shartnoma tuzish va to‘lovlarni amalga oshirish esa tranzaksiya xarajatlari hamda vaqt sarfini qisqartirishga yordam beradi.

Mexanizmning yakuniy bosqichida monitoring, nazorat va integral baholash amalga oshiriladi. Bunda xizmatning faqat ko‘rsatilganligi emas, balki uning ishlab chiqarish natijasiga ta’siri ham baholanadi. $\mathbf{IQXM = \Sigma w_i Z_i}$ integral ko‘rsatkichi orqali xizmatlar bozorining narx, sifat, foydalanish imkoniyati, raqobat va iqtisodiy samaradorlik kabi turli jihatlarini yagona baholash tizimiga birlashtirish mumkin.

Umuman olganda, taklif etilayotgan mexanizm **“talab → xizmat → narx → shartnoma → moliyalashtirish → sifat → raqamlashtirish → monitoring → iqtisodiy natija”** ketma-ketligi asosida ishlaydi. Uning asosiy natijasi xizmatlar bozorida xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning manfaatdorligini saqlagan holda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining sifatli, o‘z vaqtida va iqtisodiy jihatdan maqbul xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Bu esa qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorini oddiy xizmat ko‘rsatish tizimidan ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi integratsiyalashgan iqtisodiy hamkorlik tizimiga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorining samarali rivojlanishi xizmatlar hajmini kengaytirish bilangina emas, balki xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Ayniqsa, xizmatlarning o‘z vaqtida ko‘rsatilishi, maqbul narx va sifatning ta’minlanishi, shartnomaviy munosabatlarning aniqligi hamda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning asosiy sharti sifatida talab va taklifni muvofiqlashtirish, raqobat muhitini kuchaytirish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish, raqamli xizmatlardan foydalanishni kengaytirish va xizmat sifatini natijadorlik asosida baholash zarurligi asoslandi. Taklif etilgan mualliflik mexanizmi xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar manfaatdorligi bilan qishloq xo‘jaligi ishlab

chiqaruvchilarining iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan. Shu asosda qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini maqbullashtirish, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va pirovardida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

2-jadval

Qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar

№	Muammo	Taklif etilayotgan mexanizm	Amalga oshirish vositasi	Kutilayotgan natija
1	Xizmatlarga talabning mavsumiy va hududiy nomutanosibligi	Talabni oldindan aniqlash va xizmatlarni rejalashtirish	Elektron talab bazasi va hududiy xizmat xaritasi	Xizmatlardan foydalanish imkoniyati oshadi
2	Xizmat narxlarining iqtisodiy jihatdan har doim ham maqbul emasligi	Xarajat, raqobat va xizmat samaradorligiga asoslangan narx shakllantirish	Xizmatlar narxini monitoring qilish tizimi	Narxlarning shaffofligi va maqbulligi ta’minlanadi
3	Xizmat sifati bo‘yicha aniq mezonlarning yetarli emasligi	Xizmat sifatini natijadorlik asosida baholash	Sifat indikatorlari va reyting tizimi	Xizmat sifati va ishlab chiqaruvchi qoniqishi oshadi
4	Shartnomaviy munosabatlardagi noaniqlik	Standartlashtirilgan xizmat shartnomalarini joriy etish	Xizmat turi, muddati, narxi va javobgarlikni aniq belgilash	Iqtisodiy nizolar va noaniqlik kamayadi
5	Xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasida raqobatning cheklanganligi	Xususiy va kooperativ agroservis subyektlarini rivojlantirish	Imtiyozli moliyalashtirish va xizmat bozoriga kirishni yengillashtirish	Tanlov imkoniyati va raqobat kuchayadi
6	Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi	Xizmatlarni kredit, lizing va bo‘lib to‘lash asosida moliyalashtirish	Bank va agroservis subyektlari hamkorligi	Xizmatlardan foydalanish doirasi kengayadi
7	Raqamli xizmatlardan foydalanishning yetarli darajada rivojlanmaganligi	Yagona raqamli agroservis platformasini shakllantirish	Buyurtma, narx, shartnoma, to‘lov va monitoringni raqamlashtirish	Vaqt va tranzaksiya xarajatlari qisqaradi
8	Xizmat samaradorligini yakuniy natija bilan bog‘lashning zaifligi	Natijaga yo‘naltirilgan xizmat modeli	**ES = ΔD / ΔX** ko‘rsatkichi asosida baholash	Xizmatning real iqtisodiy samarasi aniqlanadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozoridagi mavjud muammolarni alohida-alohida hal qilishdan ko‘ra, ularni yagona iqtisodiy mexanizm doirasida o‘zaro bog‘lash samaraliroq hisoblanadi. Bunda birinchi navbatda xizmatlarga bo‘lgan talabni oldindan aniqlash va uni xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning taklifi bilan muvofiqlashtirish zarur. Bu xizmatlarning yetishmasligi yoki ortiqcha taklif qilinishi bilan bog‘liq nomutanosibliklarni kamaytiradi. Narx va sifat masalasida xizmatning qiymatini faqat ko‘rsatilgan xizmat hajmi bilan emas, balki uning ishlab chiqaruvchiga keltirgan iqtisodiy natijasi bilan baholash taklif etiladi. Ayniqsa, **ES = ΔD / ΔX** ko‘rsatkichi xizmatga sarflangan xarajatning qo‘shimcha daromad bilan qoplanish darajasini baholash imkonini beradi. Bu xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarni sifatli va samarali xizmat ko‘rsatishga rag‘batlantiradi.

Shartnomaviy munosabatlarni standartlashtirish, o‘z navbatida, xizmat turi, muddati, narxi va sifatiga oid talablarni oldindan belgilash orqali tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladi. Raqobatni kuchaytirish va xususiy agroservis subyektlarini bozorga faol jalb etish esa ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko‘rsatuvchini tanlash imkoniyatini oshiradi. Takliflarning yana bir muhim yo‘nalishi raqamlashtirishdir. Yagona raqamli agroservis platformasi orqali ishlab chiqaruvchi zarur xizmatni izlash, xizmat ko‘rsatuvchilarni taqqoslash, buyurtma berish, shartnoma tuzish va to‘lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada axborot nomutanosibligi va tranzaksiya xarajatlari kamayadi.

Umuman, taklif etilayotgan chora-tadbirlar **“talabni aniqlash → xizmatni tanlash → narxni belgilash → shartnomalashtirish → moliyalashtirish → xizmat ko‘rsatish → sifat nazorati → iqtisodiy natijani baholash”** yagona zanjirini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur yondashuv qishloq xo‘jaligi xizmatlari bozorida iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish va xizmatlarning yakuniy samaradorligini oshirish uchun institutsional asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev Q.J. Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik masalalari. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 164 b.
2. Birner R., Davis K., Pender J., Nkonya E., Anandajayasekeram P., Ekboir J. et al. From Best Practice to Best Fit: A Framework for Designing and Analyzing Pluralistic Agricultural Advisory Services Worldwide // The Journal of Agricultural Education and Extension. – 2009. – Vol. 15, No. 4. – P. 341–355. DOI: 10.1080/13892240903309595.
3. Poulton C., Dorward A., Kydd J. The Future of Small Farms: New Directions for Services, Institutions and Intermediation // World Development. – 2010. – Vol. 38, No. 10. – P. 1413–1428. DOI: 10.1016/j.worlddev.2009.06.009.
4. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 332 b.
5. Eshqulova X.Sh. Chorvachilikda servis xizmatlarining shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-nazariy yondashuvlari // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2026. – 21 may.
6. Eshqulova X.Sh. Qishloq xo‘jaligining chorvachilik tarmog‘ida ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlari. – 2025. DOI: 10.5281/zenodo.17249438.
7. Eshqulova X.Sh. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida samaradorlikni oshirishda iqtisodiy va tashkiliy munosabatlarni takomillashtirish // Экономика и социум. – 2025. – №10(137).

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL DIPLOMACY: NEW OPPORTUNITIES IN DEVELOPING UZBEKISTAN’S NATIONAL BRAND

Saidova Nigina Sirodjiddin kizi
Doctoral student of the University of World Economy and Diplomacy
Email: saidnigina.phd2025@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897354

Annotation. *The article analyzes the impact of artificial intelligence technologies on the transformation of digital diplomacy and the possibilities of their use for the development of the national brand of Uzbekistan. In addition, examines the evolution of digital diplomacy from the use of web platforms and social media to the application of generative artificial intelligence, big data analysis, automated translation, sentiment analysis, and personalized communication.*
Keywords: *Artificial intelligence, digital diplomacy, national branding, international image, Uzbekistan, digital transformation, AI diplomacy.*

Digital technologies and the Internet play the same role in modern international relations as nuclear technology did in the 20th century – as a key strategic tool, important for military leadership, economic growth, and foreign policy prestige. Artificial intelligence (AI) technologies play a particularly significant role today. Experts estimate that the transformative impact of AI in the 21st century will be comparable to the information revolution of the late 20th century, when the internet spread.

Three main areas of digital technology use in diplomacy can be identified, which define the subject area of this report:

• Digital technology as a tool of diplomacy;

• Digital technology as an object of international negotiations and diplomacy;

• Digital technology as a new environment in which diplomatic practice is implemented [1].

Research shows that digital technologies are influencing the institutional structures of diplomacy, the professional practices of diplomats, the nature of public engagement, and the ways in which international influence is generated [2].

Modern AI systems enable automated analysis of information flows, the creation of texts and visual content in multiple languages, the identification of public opinion trends, the classification of large data sets, and the adaptation of communications messages to different audiences. However, the impact of AI on diplomacy should not be interpreted solely in terms of technological progress. As I. Manor notes in her study 2026, the prospects for AI-driven diplomacy depend on institutional, social, and economic factors, and the development of artificial intelligence in diplomacy could lead to various scenarios from the expansion of diplomatic capabilities to the excessive automation of diplomatic activities [3].

These processes are particularly important in the area of national branding. In a competitive environment, states must not only pursue effective foreign policy but also ensure its clear and appealing presentation to international audiences. The concept of national branding, developed by S. Anholt, suggests that a state's international reputation is shaped by a

combination of political, economic, cultural, social, and communication factors [4]. A national brand, therefore, cannot be reduced to an advertising campaign: it is a reflection of a state's broader identity and reputation.

For Uzbekistan, this issue is particularly relevant given its active foreign policy and digital transformation. The Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies until 2030, approved by Presidential Resolution No. PQ-358 of October 14, 2024, provides for the development of infrastructure, human resources, and the regulatory framework, as well as the expansion of AI applications across various fields [5]. The strategy's targets include increasing the volume of AI-based software products and services, developing research laboratories, and improving the country's position in international AI readiness rankings.

Uzbekistan possesses a significant set of resources capable of forming an attractive national brand: historical and cultural heritage, geographical location, tourism potential, human capital, educational development, economic reforms, and expanding international cooperation.

AI can be used to promote Uzbekistan's tourism potential by analyzing the interests of different traveler groups and creating personalized content. For example, potential tourists from Europe could be promoted to the historic cities of Samarkand, Bukhara, and Khiva, the cultural heritage of the Great Silk Road, and gastronomic tourism. For audiences from East Asia, the focus could be on cultural heritage, architecture, and unique travel experiences.

Culture is one of the most enduring components of a national brand. Uzbekistan has a rich historical heritage that can be presented to an international audience through digital technologies. AI can facilitate the creation of multilingual virtual guides, interactive digital archives, educational content, and personalized cultural routes.

The development of international educational cooperation is also becoming part of the national brand. AI can be used to promote Uzbek universities among international students, create multilingual educational platforms, and analyze international demand for educational programs.

Digital diplomacy allows the state to explain its foreign policy directly to foreign audiences. For Uzbekistan, this is especially important given the intensification of regional cooperation in Central Asia and the expansion of international ties.

Artificial intelligence is becoming a key factor in the transformation of modern digital diplomacy. Its importance lies not only in its ability to automate individual operations, but above all in its ability to transform the way diplomatic information is collected, analyzed, interpreted, and disseminated.

This creates fundamentally new opportunities for national branding. AI can enable states to more accurately understand foreign audiences, create multilingual and personalized content, track international public opinion, and quickly adjust communications strategies.

Uzbekistan's current digital transformation is creating the institutional preconditions for the further development of AI-assisted diplomacy. Official government documents highlight artificial intelligence as a priority area for technological development. The AI Strategy 2030 envisages the creation of a regulatory, technological, and personnel framework for the widespread implementation of artificial intelligence [6].

Official data also indicate the expansion of the country's digital infrastructure. The state digital government portal points to high internet coverage, an increase in the number of users of electronic government services, and Uzbekistan's improved position in international digital government and AI readiness rankings.

REFERENCES

1. DiploFoundation. (n.d.). Where diplomacy meets technology. https://www.diplomacy.edu/
2. Bjola, C., & Holmes, M. (Eds.). (2015). Digital diplomacy: Theory and practice. Routledge. https://www.routledge.com/Digital-Diplomacy-Theory-andPractice/Bjola-Holmes/p/book/9781138843820
3. Manor, I. (2026). From digital diplomacy to AI-driven diplomacies? Mapping the potential impact of AI on diplomacy. Communication and the Public. Advance online publication. https://doi.org/10.1177/20570473261438571
4. Anholt, S. (2007). Competitive identity: The new brand management for nations, cities and regions. Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1057/9780230627727
5. President of the Republic of Uzbekistan. (2024, October 14). On the approval of the Strategy for the development of artificial intelligence technologies until 2030 (Resolution No. RP-358). https://lex.uz/
6. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). Artificial intelligence. Government of the Republic of Uzbekistan. https://gov.uz/en/digital/activity_page/sun-iy-intellekt

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT ASRIDA LIBOS DIZAYNI TA’LIMI: KREATIV GOMOGENIZATSIYADAN MUVOZANATLI “HUMAN-AI COLLABORATION” MODELIGA O‘TISH

Toshtemirova Mohichehra G‘olibjon qizi, **tadqiqotchi**
ORCID: 0009-0001-9834-659X
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896042

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy dizayn ta’limida generativ sun’iy intellekt (GenAI) modellarining joriy etilishi natijasida yuzaga kelayotgan huquqiy va kognitiv masalalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ unifikatsiyalashuv muammolari ko‘rib chiqilib, inson ijodiy salohiyatini saqlashga qaratilgan muqobil baholash tizimi ishlab chiqishga harakat qilindi.*
Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, Human-AI Collaboration, libos dizayni, kreativ gomogenizatsiya, data scraping, mualliflik huquqi.*
Abstract. *This article analyzes the legal and cognitive issues arising from the integration of generative artificial intelligence (GenAI) models in higher fashion design education. The study addresses the problems of creative unification, and an attempt was made to develop an alternative evaluation system aimed at preserving human creative potential.*
Keywords: *Higher education, Human-AI Collaboration, fashion design, creative homogenization, data scraping, copyright.*

Kirish. XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib, raqamli texnologiyalarning, xususan, neyrotarmoq va generativ sun’iy intellekt (GenAI) tizimlarining rivojlanishi barcha kreativ sohalar qatori libos dizayni nazariyasi va amaliyotini ham ma'lum ma'noda transformatsiya qilmoqda. Matn va vizual ma’lumotlarni gibrid ko‘rinishda qayta ishlovchi multimodal algoritmlar bugungi kunda dizaynerlik faoliyatining yordamchi qismiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori mamlakatimizda raqamli tarmoq mahsulotlari va sun'iy intellekt infratuzilmasini tizimli ravishda kengaytirishga xizmat qilmoqda[1]. Mazkur huquqiy-strategik hujjatlar nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarini, balki oliy ta'lim tizimi va kreativ industriyani raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan etik hamda xavfsiz foydalanish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Biroq, texnologik integratsiyaning ushbu sur’ati oliy ta’lim va modalar industriyasida yangi akademik va huquqiy masalalarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ilgari dizaynerlik mehnatining asosi hisoblangan konseptual g‘oya yaratish va vizualizatsiya jarayoni endilikda dasturiy algoritmlar tomonidan qisqa vaqt ichida generatsiya qilinishi kuzatilmoqda. Ushbu tendensiya ikki asosiy masalani: intellektual mulk ob’ektlarining parametrik o‘zlashtirilishi *Data Scraping* [2;3] va bo‘lajak mutaxassislar kreativligining algoritmik *gomogenizatsiyalashuv*i xavfini [5; 7] yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur tadqiqot ushbu muammolarning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganish hamda oliy ta’lim tizimi uchun korreksion pedagogik yondashuvlarni *Human-AI Collaboration* [4; 6] tavsiya qilishga qaratilgan.

Asosiy qism. Multimodal neyrotarmoqlarning o‘qitilish jarayoni mustaqil mualliflar va xalqaro brendlarning raqamli vizual ma’lumotlar bazasiga asoslanadi. Mashina algoritmlari tomonidan amalga oshiriladigan *data scraping* (ruxsatsiz ma’lumot yig‘ish) jarayoni bugungi kunda mualliflik huquqi to‘g‘risidagi normalar doirasida muayyan huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. AI tizimlari moda uylarining o‘ziga xos estetik yo‘nalishlarini tahlil qilib, gibrid dizaynlarni yaratganda, yakuniy tasvir qonunan yangi mahsulot sifatida baholansa-da, semantik jihatdan original ishning parametrik shakli bo‘lib qoladi [2; 3].

Oliy ta’lim va amaliyot jarayonida ushbu texnologiyalardan tizimsiz foydalanish talabalarda algoritmik qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin. Talabalar vizual tasvirni neyrotarmoq so‘rovlari (prompt) orqali soniyalarda olishga o‘rganishi natijasida dizayn nazariyasida "*algoritmik bir xillik*" (algorithmic bias) fenomeni yuzaga kelmoqda. Neyrotarmoqlar statistik o‘rtacha qiymatlar bazasida ishlagani sababli, milliy madaniy meros unsurlari va individual mualliflik uslublari o‘rnini unifikatsiyalashgan gibrid dizaynlar egallashi hamda talabalarda amaliy muammolarni mustaqil yechish qobiliyatini cheklashi kuzatiladi [5; 7].

Ushbu masalalarni tizimli ko‘rib chiqish oliy ta’lim tizimining o‘quv metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori talablaridan kelib chiqib, ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalarini taqiqlash emas, balki inson kreativligi va texnologiya imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatli hamkorlikni ("Human-AI Collaboration") shakllantirish samarali yo‘nalish sifatida ko‘riladi [4; 6].

Shu munosabat bilan, dizayn yo‘nalishi talabalarining algoritmik qaramligini yumshatish maqsadida loyihalash bosqichlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan muqobil baholash mezonini taklif etish mumkin: *20% yoki ball* muammoning qo‘yilishi va konseptual tadqiqot (sketchbook, qoralama izlanishlar); *30% ball* inson omili (individual mualliflik eskizlari va milliy kontekst integratsiyasi); *20% ball* prompt-muhandislik bosqichi (GenAI vositalaridan uslubiy foydalanish); *30% ball* esa konstruktiv-texnologik yechim (tasvirni real lekalo va material xossalariga moslashtirish) uchun taqsimlanishini maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin.

Tadqiqot natijalarining umumiy xulosasi sifatida shuni ta’kidlash joizki, generativ sun’iy intellekt libos dizayni sohasiga yuqori tezkorlik va resurslarni tejash imkoniyatlarini olib kelgan bo‘lsa-da, u mualliflik huquqi tizimi hamda madaniy unifikatsiya masalalarini ham yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalari tizimida raqamli texnologiyalar sharoitida yosh dizaynerlarning individual ijodiy tafakkurini, milliy identligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ularda algoritmik yechimlarga qaramlik shakllanishining oldini olishga doir ko‘nikmalarni rivojlantirishni maqsadga muvofiq yo‘nalishlardan biri sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori. (2024-yil 14-oktabr). *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz)*.
2. Andersen, S., & Stability AI Ltd. (2024). The global digital copyright lawsuit and automated data scraping transgresion in neural networks. *Intellectual Property Protection Standards*, 14(2), 112–128.

3. Harvard Law Review. (2025). Copyright infringement and style appropriation in the age of generative artificial intelligence. *Harvard Law Journal of Technology & Art*, 38(3), 245–261.
4. AAAI Spring Symposium Series. (2025). Human-AI collaboration in the fashion design process: Co-creation paradigms. *Association for the Advancement of Artificial Intelligence*, 42(1), 78–89.
5. Springer Fashion and Textiles. (2026). AI tools and fashion design education: Instructor perspectives on student challenges and design process tool support. *Fashion and Textiles Journal*, 13(1), 10452–10469.
6. Emerald Research Journal of Textiles and Apparel. (2025). Empowering students through generative AI and cultural diversity in a fashion design course. *Research Journal of Textiles and Apparel*, 29(4), 576–592.
7. Springer Education and Information Technologies. (2026). Human-AI co-creation or conflict? Mapping art students’ diverse perspectives on generative AI. *Education and Information Technologies*, 31(2), 13914–13932.

O‘SMIRLARNING MANTIQIY FIKRLASHI VA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINING RIVOJLANISHIDA OILA-MAKTAB HAMKORLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ummatkulova Nigora Umarqulovna
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22896801

Annotatsiya. *Tezisda o‘smirlarning mantiqiy fikrlashi va intellektual qobiliyatlarining rivojlanish xususiyatlari, mazkur jarayonga oila va maktab hamkorligining psixologik ta’siri empirik natijalar asosida tahlil qilinadi. Ota-ona va o‘smir munosabatlari, hamkorlik darajasi, ijtimoiy-psixologik moslashuv hamda intellektual rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi.*
Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, mantiqiy fikrlash, intellektual qobiliyat, oila-maktab hamkorligi, ota-ona munosabati, ijtimoiy moslashuv, qadriyat, psixologik rivojlanish.*
Abstract. *The thesis analyzes, based on empirical findings, the developmental characteristics of adolescents’ logical thinking and intellectual abilities, as well as the psychological influence of family–school cooperation on this process. Particular attention is given to the relationship between parent–adolescent interactions, the level of cooperation, socio-psychological adaptation, and indicators of intellectual development.*
Keywords: *adolescence, logical thinking, intellectual ability, family–school cooperation, parent–adolescent relationship, social adaptation, values, psychological development.*

KIRISH. Mamlakatimizda o‘smir avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘smirlik davrida bilish jarayonlari qayta tashkil topib, abstrakt va mantiqiy operatsiyalar imkoniyati kengayadi, o‘z fikrini dalillash hamda muqobil yechimlarni qiyoslash qobiliyati kuchayadi. Mazkur rivojlanish faqat yoshga bog‘liq tabiiy yetilish bilan cheklanmaydi. Ta’lim mazmuni, oiladagi intellektual muloqot, kattalarning talab va qo‘llab-quvvatlashi, mustaqil qaror qabul qilish uchun yaratilgan sharoit o‘smirning aqliy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. E.G‘. G‘oziyev tafakkurni voqelikdagi sababiy bog‘lanishlarni umumlashtirib anglashga, yangilikni aniqlashga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyat sifatida izohlaydi.[81]

Rivojlanish psixologiyasida o‘smirning kognitiv imkoniyatlari ijtimoiy vaziyatdan ajratilgan holda o‘rganilmaydi. Maktabdagi o‘quv talablari, oiladagi munosabat uslubi, tengdoshlar bilan muloqot va shaxsiy motivatsiya yagona rivojlanish maydonini hosil qiladi. O‘smir fan mazmunini o‘zlashtirish jarayonida tahlil, umumlashtirish, taqqoslash va xulosa chiqarish usullarini egallaydi, oiladagi muloqot esa fikr bildirishga, dalillashga, xatoni tan olishga va mas’uliyatni qabul qilishga imkon beradigan psixologik sharoitni yaratishi mumkin.

81G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: Noshir, 2010. 111-135-b.

Z.T. Nishanova va hammualliflar rivojlanish hamda pedagogik psixologiyani ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining o‘zaro bog‘langan psixologik mexanizmlari doirasida yoritadi.[82]

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvida yuqori psixik funksiyalar ijtimoiy munosabatlar va hamkorlikda shakllanib, keyinchalik ichki aqliy vositalarga aylanadi.[83] O‘smirning murakkab masalani mustaqil yechishi, o‘qituvchi izohi bilan yangi usulni egallashi yoki ota-ona bilan muhokamada sabab va oqibatni ajratishi bir-biridan uzilgan jarayonlar emas. Mazkur jarayonlarning uyg‘unligi intellektual rivojlanish uchun barqaror talablar, tushunarli qayta aloqa va psixologik xavfsizlikni talab etadi. Oila va maktabning tarbiyaviy talablari keskin farqlansa, o‘smirda faoliyat mezonlari noaniqlashishi, nazorat tashqi bosim sifatida qabul qilinishi va bilish faolligi pasayishi ehtimoli ortadi.

ASOSIY QISM. Oila va maktab o‘smir rivojlanishining ikki asosiy mikromuhiti sifatida bir xil shaxsga ta’sir ko‘rsatadi. U. Bronfenbrenner ekologik modelida uy va maktab alohida mikrotizimlar, ular o‘rtasidagi munosabatlar esa rivojlanishga ta’sir etuvchi mezotizim sifatida talqin qilinadi.[84] Mazkur nuqtayi nazar o‘smirning intellektual natijasini faqat individual qobiliyat yoki dars sifati bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ota-ona o‘quv vazifalariga qanday munosabat bildirishi, o‘qituvchi o‘smirning mustaqil fikriga qancha o‘rin berishi, ikki tomonning talablarida izchillik mavjudligi va bolaning fikri munosabat jarayonida qabul qilinishi kognitiv faollik uchun muhim psixologik fon hosil qiladi.

Oilaviy ta’limiy maqom bo‘yicha olingan natijalar mantiqiy fikrlash ko‘rsatkichlari guruhlar kesimida bir xil emasligini ko‘rsatgan. Raven testi bo‘yicha Kruskal-Uollis mezoni $H=14,365$ va $p=0,001$ darajasida statistik ahamiyatli farqni qayd etgan. O‘rta maxsus ma’lumotli oilalar guruhida o‘rtacha rang 198,72, oliy ma’lumotli guruhda 154,77, o‘rta ta’lim guruhida 127,75, maktabni tamomlamaganlar guruhida 131,50 bo‘lgan. Natija oilaning formal ta’lim darajasi bilan mantiqiy fikrlash o‘rtasidagi aloqani sodda chiziqli bog‘lanish tarzida talqin qilish mumkin emasligini anglatadi. G. Gardner metodikasida mantiqiy-matematik intellekt bo‘yicha oliy ma’lumotli guruh 194,77 o‘rtacha rang bilan yuqori natija ko‘rsatgan, farq $H=14,365$ va $p=0,001$ darajasida ahamiyatli. Vizual-fazoviy, verbal-lingvistik, tana-kinestetik, musiqiy, emotsional va ekzistensial intellekt shkalalarida ham guruhlar o‘rtasida statistik farqlar aniqlangan. Demak, oilaning ta’limiy kapitali muhim omil, lekin intellektning turli ko‘rinishlari oiladagi real muloqot sifati, faoliyat imkoniyatlari va bolaning qiziqishlariga berilgan qo‘llab-quvvatlash bilan birga baholanishi zarur.

Jins bo‘yicha tahlil kognitiv profillarning o‘ziga xosligini ko‘rsatgan. Raven testi natijasida o‘g‘il bolalarning o‘rtacha rangi 146,76, qiz bolalarniki 104,16 bo‘lib, farq $U=5293,000$ va $p<0,001$ darajasida ahamiyatli. Gardner metodikasida o‘g‘il bolalarda mantiqiy-matematik va vizual-fazoviy ko‘rsatkichlar yuqoriroq, qiz bolalarda verbal-lingvistik hamda emotsional yoki shaxslararo intellekt ko‘rsatkichlari yuqoriroq qayd etilgan. Musiqiy intellekt bo‘yicha $p=0,214$ bo‘lib, jinslar o‘rtasidagi farq statistik ahamiyatga ega emas. Olingan tafovutlarni biologik qat’iylik sifatida tushuntirish ilmiy jihatdan cheklangan bo‘ladi. Oila va maktab o‘quv topshiriqlarini jinsiy stereotiplarga tayangan holda taqsimlamasligi, qizlarda

82Nishanova Z.T., Kamilova N.G‘., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. 600 b.

83Выготский Л.С. Собрание сочинений. В 6 т. Т. 2. Проблемы общей психологии. Москва: Педагогика, 1982. 504 с.

84Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. pp. 21-26.

fazoviy va mantiqiy masalalarga, o‘g‘il bolalarda verbal ifoda, hissiy anglash va hamkorlik faoliyatiga teng imkoniyat yaratishi maqsadga muvofiq.

Qadriyatlar yo‘nalishlari bilan mantiqiy fikrlash o‘rtasidagi korrelyatsiyalar intellektual rivojlanishning motivatsion asosini ochib beradi. Raven testi bo‘yicha o‘z ustida ishlash r=0,461, ijodkorlik r=0,417, yutuqlarga yo‘nalganlik r=0,387, ma’naviy qoniqish r=0,338 va faol ijtimoiy munosabatlar r=0,295 koeffitsiyentlari bilan ijobiy bog‘langan. O‘zlikni saqlash shkalasi bilan r=-0,216 darajasida manfiy aloqa qayd etilgan. Mantiqiy fikrlash faqat topshiriq bajarish texnikasi bilan belgilanmaydi. O‘smirning yangilik izlashga tayyorligi, o‘z imkoniyatini kengaytirishga intilishi, maqsadga erishish motivi va ijtimoiy faoliyati aqliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan ichki resurs vazifasini bajaradi. Oila va maktabning hamkorligi mazkur motivlarni bir xil yo‘nalishda mustahkamlasa, o‘smir bilimni tashqi nazorat uchun emas, shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Ota-ona va bola o‘zaro ta’sirini ifodalovchi ko‘rsatkichlar orasida eng muhim natijalar hamkorlik hamda munosabatdan qoniqish bilan bog‘liq. Raven testi bo‘yicha hamkorlik r=0,427, bolaning ota-ona munosabatlaridan qoniqishi r=0,447 koeffitsiyenti bilan mantiqiy fikrlashga ijobiy aloqador. Rad etish bilan r=-0,385, ota-onaning avtoritarligi bilan r=-0,332, kelishmovchilik bilan r=-0,306, hissiy masofa bilan r=-0,298 darajasida manfiy aloqalar aniqlangan. I.M. Markovskaya ota-ona va bola o‘zaro ta’sirida hamkorlikni bolaning huquq va qadr-qimmatini tan olish, sheriklikka asoslangan munosabat sifatida tavsiflaydi.[85] Empirik ko‘rsatkichlar oiladagi konstruktiv hamkorlikning o‘smir tafakkuri uchun faqat hissiy qulaylik emas, balki intellektual faoliyatni rag‘batlantiruvchi psixologik mexanizm ekanini ko‘rsatadi. Fikriga quloq solingan o‘smir o‘z pozitsiyasini asoslashga, boshqa nuqtayi nazarni ko‘rib chiqishga va qaror oqibatini tahlil qilishga ko‘proq imkon topadi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘rsatkichlari bilan aloqalar mazkur xulosani kengaytiradi. Mantiqiy fikrlash moslashganlik bilan r=0,476, o‘z-o‘zini qabul qilish bilan r=0,436, ichki nazorat bilan r=0,414, boshqalarni qabul qilish bilan r=0,386 va hissiy qulaylik bilan r=0,379 darajasida ijobiy bog‘langan. Moslashmaganlik r=-0,457, o‘z-o‘zini qabul qilmaslik r=-0,451, tashqi nazorat r=-0,409, hissiy noqulaylik r=-0,337 va muammodan qochish r=-0,324 koeffitsiyentlari bilan manfiy aloqa ko‘rsatgan. Mantiqiy masalani hal qilish uchun diqqatni saqlash, xatoni tahlil qilish va yechimni qayta ko‘rib chiqish zarur. Ichki nazorat va o‘zini qabul qilish yuqori bo‘lgan o‘smir xatoni shaxsiy muvaffaqiyatsizlik belgisi sifatida emas, faoliyatni tuzatish signali sifatida qabul qilishga moyil bo‘ladi. Oiladagi qo‘llab-quvvatlovchi munosabat hamda maktabdagi xolis qayta aloqa mazkur sifatlarni mustahkamlashi mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda ota-ona bilan hamkorlik va munosabatdan qoniqish mantiqiy fikrlash bilan ijobiy, rad etish, avtoritar munosabat, hissiy masofa va kelishmovchilik esa manfiy aloqador bo‘lgan. Mazkur natijalar oila-maktab hamkorligining psixologik mazmunini aniq belgilaydi. Samarali model o‘smirga nisbatan kelishilgan talablar, ikki tomonlama muloqot, intellektual mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash, hissiy xavfsizlik, individual qobiliyatlar monitoringi va muammoli vaziyatlarni hamkorlikda yechishga tayanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: Noshir, 2010. 360 b.

85Марковская И.М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. Санкт-Петербург: Речь, 2005. С. 31-32.

2. Nishanova Z.T., Kamilova N.G‘., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. 600 b.
3. Ismoilova A.R. O‘smirlarda tafakkur rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Urganch: Khwarezm publication, 2024. 120 b.
4. Выготский Л.С. Собрание сочинений. В 6 т. Т. 2. Проблемы общей психологии. Москва: Педагогика, 1982. 504 с.
5. Марковская И.М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. Санкт-Петербург: Речь, 2005. 150 с.
6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. 352 p.
7. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. 2nd ed. Boulder, CO: Westview Press, 2011. 634 p.
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983. 440 p.

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

Urazbayeva Ilmira Konisbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, «Moliya va hisob» kafedrasi PhD katta o‘qituvchisi
Ika.urazbaeva150@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897380

Annotatsiya. *Ushbu tezisda raqamli moliyaviy xizmatlarning hududlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri, moliyaviy ommaboplikni kengaytirish, kichik biznes va aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mobil banking, elektron to‘lovlar, raqamli identifikatsiya, elektron hamyonlar, QR va kontaktsiz to‘lov texnologiyalarining iqtisodiy faollikka ta’siri O‘zbekiston tajribasi asosida yoritilgan. Raqamli moliyaviy infratuzilmaning hududlar o‘rtasidagi moliyaviy xizmatlardan foydalanish tafovutini kamaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *raqamli moliyaviy xizmatlar, mintaqaviy iqtisodiyot, moliyaviy ommaboplik, elektron to‘lov, mobil banking, fintex, kichik biznes, raqamli infratuzilma, iqtisodiy inklyuziya.*
Abstract. *The article examines the role of digital financial services in regional economic development, with particular emphasis on financial inclusion, access to financial resources for households and small businesses, and the reduction of transaction costs. The study considers mobile banking, electronic payments, digital identification, electronic wallets, QR payments and contactless technologies in the context of Uzbekistan.*
Keywords: *digital financial services, regional economy, financial inclusion, electronic payments, mobile banking, fintech, small business, digital infrastructure, economic inclusion.*

KIRISH

So‘nggi yillarda moliya tizimidagi eng sezilarli o‘zgarishlardan biri bank va to‘lov xizmatlarining an’anaviy ofisdan mobil telefon va boshqa raqamli kanallarga ko‘chib borayotganidir. Ilgari bank xizmatidan foydalanish uchun mijozning bank filiali joylashgan hududga borishi, ma’lum vaqt sarflashi va ko‘plab operatsiyalarni bevosita xodim orqali amalga oshirishi talab etilgan bo‘lsa, bugungi sharoitda hisobvaraqni boshqarish, pul o‘tkazish, kommunal to‘lovni amalga oshirish, kredit to‘lash, valyuta ayirboshlash yoki ayrim moliyaviy mahsulotlarni rasmiylashtirish masofadan bajarilmoqda. Bu o‘zgarishning ahamiyati ayniqsa yirik moliyaviy markazlardan uzoqda joylashgan tuman va shaharlarda yaqqol ko‘rinadi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning mintaqaviy iqtisodiyotga ta’sirini faqat to‘lovni tezlashtirish bilan izohlash yetarli emas. Masala ancha keng. Moliyaviy xizmatga kirish imkoniyati yaxshilanganda tadbirkorning pul aylanmasini boshqarishi osonlashadi, aholi jamg‘arma va to‘lovlarni rasmiy moliyaviy tizim orqali amalga oshira boshlaydi, davlat va biznes o‘rtasidagi hisob-kitoblarda shaffoflik kuchayadi.

ASOSIY QISM

Raqamli moliyaviy xizmatlarning iqtisodiy ahamiyatini tushunishda avvalo moliyaviy ommaboplik masalasiga e’tibor qaratish lozim. Moliyaviy xizmat aholi yashaydigan joydan uzoqda bo‘lsa yoki undan foydalanish ortiqcha xarajat talab etsa, bunday hududdagi odamlar

rasmiy bank xizmatidan kamroq foydalanadi. Ayniqsa qishloq joylarda bu muammo bank bo‘limlarining soni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Raqamli kanal esa bank filialining geografik joylashuviga bo‘lgan bog‘liqlikni ma’lum darajada kamaytiradi. Mobil ilova ishlaydigan hududda mijoz oddiy operatsiyalarning katta qismini masofadan bajarishi mumkin.

O‘zbekistonda moliyaviy ommaboplik masalasi ilgari ham jiddiy muammo sifatida qayd etilgan. M. Ahunovning ADB Institute doirasidagi tadqiqotida uy xo‘jaliklari va korxonalarning katta qismi jamg‘arma hamda qarz masalalarida norasmiy mexanizmlarga tayangani, raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish esa past darajada bo‘lgani ko‘rsatilgan. Muallif moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni yaxshilash va iste’molchilarni himoya qilishni moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning zarur shartlari sifatida ko‘rsatadi [1].

Keyingi yillarda vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi. Jahon banki mutaxassislari D. Babasyan, M. Melecky va N. Podchoeva ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda bank hisobvarag‘iga ega katta yoshli aholi ulushi 2011-yildagi 23 foizdan 2021-yilda 44 foizgacha oshgan. 2017-yildagi 445 ta bankomat soni 2022-yilga kelib 11 mingdan oshgan, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari esa qariyb 25 millionga yetgan. Shu bilan birga, mualliflar moliyaviy xizmat ko‘rsatish nuqtalarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi hali ham bir xil emasligini qayd etadilar [4].

Aynan mana shu nomutanosiblik raqamli moliyaning mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rnini kuchaytiradi. Masalan, chekka tumandagi kichik savdo yoki xizmat ko‘rsatish korxonasi uchun alohida bank terminalini o‘rnatish, naqd pul inkassatsiyasini tashkil etish va har kuni bankka borish ma’lum xarajatlarni yuzaga keltiradi. QR-kod, mobil ekvayring yoki Tap-to-Phone kabi texnologiyalar esa nisbatan kam infratuzilma orqali naqd pulsiz to‘lovni qabul qilish imkonini beradi. Natijada kichik tadbirkor ham raqamli to‘lov tizimiga qo‘shila oladi.

Markaziy bankning 2025-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan yillik hisobotidagi 2024-yil ma’lumotlari bu jarayonning ko‘lamini ko‘rsatadi. “QR-online” tizimi orqali tadbirkorlik subyektlariga berilgan QR-kodlar soni qariyb 108 mingga yetgan, ular orqali bajarilgan operatsiyalar hajmi 441,8 milliard so‘mni tashkil etgan. Tap-to-Phone tizimidan foydalanuvchi subyektlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga qariyb 3,2 mingtaga yetgan. NFC texnologiyasi yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi esa 2024-yilda 41,4 trillion so‘mni tashkil qilgan [3].

Bu ko‘rsatkichlarning mintaqaviy iqtisodiyot uchun mazmuni shundaki, to‘lov infratuzilmasiga kirish osonlashgani sayin kichik biznesning bozorga kirish xarajati pasayadi. Savdo yoki xizmat ko‘rsatish shoxobchasi faqat naqd pul bilan ishlashga majbur bo‘lmaydi. To‘lovni qabul qilish usullarining ko‘payishi esa mijozlar doirasini kengaytiradi. Shu bilan birga, elektron tranzaksiyalar korxonaning moliyaviy tarixini shakllantiradi. Kelajakda banklar va boshqa moliya tashkilotlari tadbirkorning pul oqimi haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lib, kreditga layoqatlilikni baholashda faqat garovga emas, faoliyat natijalariga ham tayanishi mumkin.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning ikkinchi muhim yo‘nalishi — aholining kundalik xarajatlarini soddalashtirishidir. 2024-yilda O‘zbekistondagi to‘lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar umumiy hajmi oldingi yilga nisbatan 1,8 baravar oshib, 333 trillion so‘mga yetgan. Shu xizmatlar orqali aholi 26,2 trillion so‘m kommunal to‘lov, 14,8 trillion so‘m mobil aloqa, 14,3 trillion so‘m davlat xizmatlari, 5,7 trillion so‘m kredit to‘lovlari va 5,3 trillion so‘m budjet hamda soliq to‘lovlarini amalga oshirgan. Elektron hamyonlar soni esa 15,6 milliondan 20,6 millionga ko‘paygan [3].

Mazkur raqamlar faqat moliyaviy sektor hajmining oshganini anglatmaydi. Ular aholining vaqt va transport xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Masalan, tuman markazidan uzoq qishloqda yashovchi fuqaro oddiy to‘lov uchun bank, soliq yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot kassasiga borishi shart bo‘lmasa, uning iqtisodiy xarajati kamayadi. Alohida odam uchun bu kichik tejamkorlik bo‘lib ko‘rinishi mumkin, biroq millionlab foydalanuvchilar miqyosida uning iqtisodiy samarasi sezilarli bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Raqamli moliyaviy xizmatlarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ularning eng muhim xususiyati moliyaviy xizmatni geografik jihatdan mijozga yaqinlashtirishidadir. Mobil banking, elektron hamyon, QR, NFC, masofaviy identifikatsiya va boshqa fintex yechimlari orqali aholining bank filialiga jismonan borishga bo‘lgan ehtiyoji kamaymoqda. Bu, ayniqsa, moliyaviy infratuzilma nisbatan kam rivojlangan hududlar uchun katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tajribasi raqamli to‘lovlar va masofaviy xizmatlarning qisqa muddat ichida katta ko‘lamga chiqqanini ko‘rsatadi. Biroq raqamli tranzaksiyalar hajmining o‘sishini mintaqaviy rivojlanishning yakuniy natijasi deb qabul qilish to‘g‘ri emas. Asosiy masala ushbu xizmatlarning mahalliy tadbirkorlik, bandlik, investitsiya, daromad va moliyaviy barqarorlikka qanday ta’sir etayotganini aniqlashdir.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli moliyani rivojlantirish siyosati uch yo‘nalishni birlashtirishi zarur: sifatli raqamli va to‘lov infratuzilmasi, foydalanuvchining moliyaviy-raqamli savodxonligi hamda ishonchli iste’molchi himoyasi. Bundan tashqari, xizmatlarni hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga moslashtirish lozim. Qishloq xo‘jaligi hududi, sanoat markazi va turizm rivojlangan mintaqaning moliyaviy ehtiyoji bir xil emas.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ahunov M. Financial Inclusion, Regulation, and Literacy in Uzbekistan // ADBI Working Paper. — No. 858. — Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2018.
2. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. — Washington, DC: World Bank, 2022. — DOI: 10.1596/978-1-4648-1897-4.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil uchun yillik hisoboti. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.
4. Babasyan D., Melecky M., Podchoeva N. From livestock to lifelong savings: Improving financial inclusion in Uzbekistan // World Bank Blogs. — 25 January 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish milliy strategiyasi. — Toshkent, 2026.

LEVERAGING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND LSTM-BASED PREDICTIVE MODELS TO ENHANCE HOSPITAL QUALITY OF CARE

Dr Gyanti Thakur
Associate Professor, Ajou University, Tashkent
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897424

Abstract. *Hospitals have extensive data, but this information is often fragmented across electronic records, laboratory systems, nursing notes, medication records, patient feedback, and administrative databases. This paper proposes a conceptual framework that combines Generative Artificial Intelligence (AI) with a Long Short-Term Memory (LSTM) deep-learning model to improve hospital quality of care. The generative component synthesizes verified structured and unstructured information into readable summaries and draft explanations, while the LSTM component analyzes sequential indicators to estimate clinical or operational risk. The clinician-in-the-loop workflow requires the authorized professionals to review the outputs before informing the care or quality-management decisions. The paper describes the research objectives, conceptual architecture, proposed methodology, evaluation plan, potential benefits, and implementation safeguards. Since no real hospital dataset or experiment results were provided, the framework and expected outcomes are proposed, not proven findings. Future research should test the model with de-identified hospital data and prospective evaluation.*

Keywords: *Generative AI hospital quality of care LSTM deep learning clinical decision support patient safety predictive analytics.*

1. Introduction

Quality of care is multidimensional and includes safety, effectiveness, timeliness, efficiency, equity, patient-centeredness, and continuity. Hospitals must coordinate decisions across clinical teams while managing the large volumes of changing information. The relevant data may be found across electronic health records (EHRs), laboratory and imaging systems, medication records, nursing documentation, patient complaints, and operational dashboards. The manual review can be time-consuming and challenging to recognize trends early.

Common conventional machine-learning applications usually classify cases or estimate outcomes, such as readmission, deterioration, or prolonged hospitalization. Generative AI adds a language-oriented capability; it can organize complex records into summaries, draft patient-facing instructions, and help the staff to retrieve and interpret information. The outputs can be used for communication, but it may contain unsupported or inaccurate statements; hence, it is required to verify.This paper proposes a decision-support framework in which a generative model performs evidence-based synthesis, while an LSTM network identifies temporal patterns. The system is not intended to replace the physicians, nurses, or hospital administrators; it highlights the relevant risks, makes the information easy-to-read, and is used to support the quality-improvement workflows under the professional's supervision.

2. Background and Related Work

Digital information systems are relevant to hospital performance since they impact the

information access, communication, service delivery, and operational coordination. The contextual material supplied for this paper discusses the mobile technology services and the hospital performance in Delhi, India. It provides the broader relevance of the digital services, but does not prove the effectiveness of the Generative AI or LSTM models; hence, the present framework is treated as a research design, not proven intervention. Generative AI systems, including the transformer-based language models, learn the patterns from the data and generate the text or other outputs. Potential hospital applications include the discharge summaries, patient education materials, clinical-record summaries, translations, and quality-improvement reports. Their usefulness depends on the grounding of the generated content in the reliable records, protection of the sensitive data, and human review. LSTM networks are intended for sequential data and use the gated memory mechanisms to learn the dependencies across time. It is relevant to hospital information since the vital signs, laboratory values, medication exposure, staffing, occupancy, and adverse events change over time. An LSTM may estimate a risk or forecast from such sequences. The generative component can explain the model output in the accessible language, but preserves the distinction between the statistical estimate and the clinical fact.

3. Research Objectives

- To design the conceptual Generative AI framework for the hospital quality-of-care activities.
- To incorporate the LSTM model to predict the time-dependent clinical or operational risks.
- To identify a clinician-supervised workflow to limit the unsafe or unsupported AI-generated recommendations.
- To specify the data requirements, evaluation measures, ethical safeguards, and implementation challenges.
- To establish the basis for the future empirical testing on the de-identified hospital dataset.

4. Proposed Research Methodology

4.1 Research Design and Data Inputs

The study is conceptual and design-oriented. It specifies a combined model and plans for the following validation; it does not report the training/testing on the real hospital dataset. The future implementation would use the de-identified and access-controlled data collected with the institutional approval. The structured inputs may include the age group, admission and discharge dates, diagnosis codes, medication records, laboratory results, vital signs, length of stay, readmission status, staffing measures, and patient-safety events. The unstructured inputs may include the progress notes, discharge summaries, nursing notes, patient complaints, and quality-improvement reports.

Data preparation should include the standardization and timestamp before modeling. The preparations should also include the checks for the missingness, duplicated records, inconsistent units, outliers, and documentation errors. The data splitting should be done at patient level, and where feasible, across time or sites, to minimize the leak and assess the generalizability. Sensitive information should be minimized and protected during the processing.

4.2 Generative AI Component

A transformer-based language model or a healthcare-adapted large language model will process the approved clinical and operational text. The candidate tasks include summarizing the patient's recent trajectory, explaining a predictive risk score, drafting the discharge instructions for the professional's editing, identifying potentially incomplete documentation, and producing the quality improvement summaries. The retrieval-augmented generation (RAG) or another

evidence-based method should connect the generation to the records and approved guidance. Where possible, the statements should identify their supporting source and the time of origin. The model should not invent the diagnoses, medication orders, or the clinical facts. The outputs should be labeled as AI-generated drafts, and the high-risk content should be reviewed by the authorized professional. It should state the limitation if the evidence is missing or conflicting, rather than generating a confident conclusion.

4.3 LSTM Predictive Component

The LSTM pathway would receive the time-ordered observations for the patient or hospital unit. The patient-level sequences could include the hourly vital signs and laboratory results; the operational sequences could include the daily bed occupancy, waiting times, staffing levels, and adverse-event counts. The model would produce a risk score or forecast for the predefined target, such as clinical deterioration, unplanned intensive-care transfer, 30-day readmission, prolonged length of stay, or the increase in the safety incidents.


4.4 Integrated Workflow and Human Review

The proposed workflow has five stages: (1) secure ingestion and preprocessing of the approved data; (2) LSTM analysis of the temporal sequences; (3) retrieval of the relevant verified records; (4) generation of a concise explanation or draft summary and (5) review and action by a clinician or authorized quality officer. The interface should display the prediction, supporting evidence, data freshness, missing information, uncertainty, and the escalation rationale. The reviewers should have an option to approve, edit, or reject an output.

An audit trail should record the input and model versions, generated text, reviewer decision, and final action. The role-based access, encryption, retention limits, and clear accountability are required. The external model services should be assessed for the privacy, security, and legal compliance before any patient information is transferred.

5. Proposed Model Architecture


The architecture has two complementary pathways. The language pathway receives the approved narrative records and retrieves the relevant evidence to support the summarization. The temporal pathway receives the sequential clinical or operational measurements, and generates the forecast or risk score. The fusion and presentation layer brings the two outputs together in a quality-of-care dashboard. The dashboard should not obscure the content from the predictive model, the language model, and the human review



6. Potential Benefits

If validated and implemented safely, the combined framework may allow the staff to synthesize the fragmented records faster, communicate the information consistently, identify the emerging clinical or operational risks, and produce the standardized quality-improvement reports. LSTM prediction may help prioritize the review of the time-sensitive patterns, while Generative AI may make the models' outputs and the source information easy to understand. These are potential benefits, which require the measurement; they are not established results of the present conceptual paper.

7. Evaluation Plan and Proposed Outcomes



8. Ethical, Legal, and Practical Challenges

Hallucination is a central concern since the fluent generated text can be inaccurate. In healthcare, unsupported content can impact the diagnosis, medication, discharge planning, or communication. Evidence grounding, uncertainty display, source traceability, and human review are essential, particularly for high-risk tasks. Privacy

and security requires de-identification where appropriate, encryption, role-based access, audit logs, secure hosting, clear retention policies. The consent and applicable health-data rules should be considered before the data are used for training or inference. The bias can occur when the datasets under-represent particular populations, languages, conditions, or care settings. Local

validation and subgroup analysis are required, and the staff training should address the automation bias.

The operational adoption also depends on EHR interoperability, reliable infrastructure, cybersecurity, maintenance, model monitoring, and the clear incident-reporting process. The responsibility for AI-supported decisions must be explicit. The hospitals should define who may approve the outputs, how the errors are escalated, and when the system must be paused or withdrawn.

9. Discussion

The framework assigns the different roles to prediction and generation. LSTM models can identify the temporal patterns, but their numerical outputs may be difficult for some users to interpret. Generative AI can translate a score and the supporting evidence into concise language but should not calculate or invent the clinical facts independently. Combining the components may support the interpretable decision-support workflow, provided that the interface preserves the provenance and uncertainty. Hospital quality is broader than clinical prediction. Patient experience, communication, waiting time, staffing, documentation quality, medication safety, and continuity may also matter. Evaluation should consider whether the system improves the real processes without increasing the workload, inequity, or risk. A key limitation is the absence of the original empirical results: the architecture, outcomes, and evaluation measures are proposed, not proven. Future research should use the de-identified data, compare the combined approach with the standard practice and component-only approaches, and assess both clinician comprehension and the patient-relevant outcomes.

10. Conclusion

This paper proposes the conceptual framework to integrate the Generative AI and LSTM-based predictive analytics to support the hospital quality of care. The generative component can synthesize the verified information and support the communication, while the LSTM component can analyze the temporal patterns and estimate the clinical or operational risk. Safe use requires secure data governance, evidence-based generation, transparent evaluation, fairness testing, monitoring, and professional supervision. Since no real hospital dataset was analyzed, the framework should be regarded as a research proposal, requiring the retrospective and prospective validation, not as evidence of demonstrated clinical benefit.

REFERENCES

1. World Health Organization. Quality of care: a process for making strategic choices in health systems.
2. Topol, E. (2019). High-performance medicine: the convergence of human and artificial intelligence. Nature Medicine.
3. Esteva, A., et al. (2019). A guide to deep learning in healthcare. Nature Medicine.
4. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). Long short-term memory. Neural Computation.
5. Vaswani, A., et al. (2017). Attention is all you need. Advances in Neural Information Processing Systems.

UNIVERSITET BOSHQARUVINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHDA INSTITUTSIONAL TAYYORGARLIK OMILLARI

Qo‘chqorov Baxodir Maxkamovich
Toshkent shahridagi Adju universiteti prorektori;
Nizomiy nomidagi milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897454

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish masalalari va innovatsion menejment modellarini joriy etishning nazariy-amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada ta’lim muassasalarida elektron hujjat aylanishi, ma’lumotlar bazasiga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari, sun’iy intellekt va raqamli platformalar orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajriba asosida innovatsion menejment modellarining afzalliklari, ularni joriy etishdagi asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalari rahbariyati uchun raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqishda amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, ta’lim menejmenti, innovatsion boshqaruv modellari, raqamli transformatsiya, elektron boshqaruv tizimi, ta’lim sifati, sun’iy intellekt, qaror qabul qilish tizimlari, kadrlar salohiyati, ta’lim muassasasi.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni taqozo etmoqda. Ta’lim muassasalarining boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish nafaqat texnik jarayon, balki institutsional madaniyatni, boshqaruv falsafasini va kadrlar salohiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiluvchi kompleks o‘zgarish hisoblanadi. Innovatsion menejment modellarining joriy etilishi ta’lim muassasalarida shaffoflik, operativlik va samaradorlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

1. Ta’lim boshqaruvini raqamlashtirishning nazariy asoslari.

Raqamlashtirish jarayoni ta’lim muassasalarida an’anaviy boshqaruv usullaridan voz kechib, ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv tamoyillariga o‘tishni anglatadi. Mazkur jarayonning mohiyati shundan iboratki, boshqaruv qarorlari endilikda subyektiv baholash yoki tajribaga asoslangan intuitsiya asosida emas, balki real vaqt rejimida yig‘iladigan, tizimlashtirilgan va tahlil qilinadigan ma’lumotlar asosida qabul qilinadi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim muassasasi faoliyatining barcha jabhalarini o‘quv jarayonidan tortib, ilmiy-tadqiqot faoliyatigacha, kadrlar salohiyatidan tortib moliyaviy resurslarni taqsimlashgacha shaffof va boshqariladigan holga keltiradi.

Nazariy jihatdan, ta’lim boshqaruvini raqamlashtirish uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: birinchisi, mavjud jarayonlarni raqamli formatga o‘tkazish (informatizatsiya), ikkinchisi, bu jarayonlarni o‘zaro integratsiyalashgan yagona tizimga birlashtirish, uchinchisi esa yig‘ilgan ma’lumotlar asosida prognozlash va qaror qabul qilishni avtomatlashtirish. Aynan shu uchinchi

bosqich innovatsion menejment modellari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasasini “reaktiv” boshqaruvdan “proaktiv” boshqaruvga o‘tkazish imkonini beradi.

Bu jarayon quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish. An’anaviy qog‘oz asosidagi hujjat aylanishidan voz kechish ta’lim muassasasi ichidagi buyruqlar, xatlar, hisobotlar va boshqa rasmiy hujjatlarning harakatlanish tezligini bir necha barobar oshiradi. Elektron hujjat aylanishi tizimi orqali har bir hujjatning holati (ko‘rib chiqilmoqda, imzolanmoqda, ijro etilmoqda) real vaqtda kuzatilishi mumkin, bu esa byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi va boshqaruv jarayonlarining javobgarlik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, bunday tizimlar hujjatlar arxivini xavfsiz saqlash va istalgan vaqtda ularga kirish imkonini ham ta’minlaydi.

Talaba va professor-o‘qituvchilar faoliyatini monitoring qilish uchun raqamli platformalar yaratish. Bunday platformalar talabalarning akademik o‘zlashtirishi, davomat ko‘rsatkichlari, o‘quv yuklamasi bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi. Professor-o‘qituvchilar faoliyati bo‘yicha esa dars soatlari yuklamasi, ilmiy-metodik ishlar, talabalar bilan olib borilgan tarbiyaviy ishlar kabi ko‘rsatkichlar bir joyda jamlanadi. Bu, o‘z navbatida, rahbariyatga har bir kafedra yoki fakultet faoliyatini ob’ektiv taqqoslash va zaif nuqtalarni aniqlash imkonini beradi.

Ilmiy-pedagogik salohiyatni baholashning avtomatlashtirilgan mexanizmlari. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy nashrlari, xalqaro konferensiyalardagi ishtiroki, grant loyihalari, sitatalanish ko‘rsatkichlari (Scopus, Web of Science kabi bazalar bo‘yicha) avtomatik tarzda yig‘ilib, umumlashtirilgan reyting yoki hisobot shaklida taqdim etiladi. Bu mexanizm inson omili tufayli yuzaga keladigan xatoliklarni kamaytiradi va baholash jarayonini adolatli hamda ob’ektiv qiladi.

KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimlarini raqamli asosda yuritish. KPI tizimining raqamlashtirilishi har bir xodim yoki bo‘linmaning belgilangan maqsadlarga qanchalik erishganini son ko‘rsatkichlar orqali aniq ifodalash imkonini beradi. Bu tizim, ayniqsa, ilmiy salohiyatni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ta’lim sifatini oshirish kabi strategik yo‘nalishlarda rahbariyat uchun qaror qabul qilishning ishonchli asosiga aylanadi. Shuningdek, raqamli KPI tizimi xodimlarning o‘z natijalarini real vaqtda kuzatib borishiga va shu orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Innovatsion menejment modellari

Ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi an’anaviy, ierarxik va qat’iy markazlashgan boshqaruv modellaridan voz kechishni hamda moslashuvchan, tezkor va ma’lumotlarga asoslangan innovatsion menejment modellariga o‘tishni taqozo etadi. Zamonaviy ta’lim menejmentida quyidagi innovatsion modellar keng qo‘llanilmoqda:

1. Adaptiv boshqaruv modeli. Ushbu model tashqi muhitning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga, masalan, ta’lim standartlarining yangilanishi, talabalar talabi va bozor ehtiyojlarining o‘zgarishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kabi omillarga ta’lim muassasasining tezkor moslashish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Adaptiv boshqaruv modelining asosiy xususiyati shundaki, u qat’iy belgilangan reja va tuzilmalarga emas, balki doimiy monitoring va fikr-mulohaza (feedback) mexanizmlariga tayanadi. Bunda rahbariyat real vaqt rejimida yig‘ilgan ma’lumotlar asosida boshqaruv strategiyasini tezkor tarzda qayta ko‘rib chiqish va zarur o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu model, ayniqsa, jahon ta’lim tizimidagi tez o‘zgarishlar sharoitida universitetlarning raqobatbardoshligini saqlab qolishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Loyihaviy boshqaruv (project management) modeli. Bu model ta’lim muassasasi faoliyatidagi har bir yirik vazifa yoki tashabbusni aniq maqsad, muddat, resurs va mas’ul shaxslarga ega bo‘lgan alohida loyiha sifatida tashkil etishga asoslanadi. Masalan, yangi o‘quv dasturini ishlab chiqish, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish yoki ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi vazifalar aniq bosqichlarga (initsiatsiya, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va yakunlash) bo‘linadi. Loyihaviy boshqaruv yondashuvining afzalligi shundaki, u har bir vazifaning bajarilish jarayonini shaffof qiladi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi va natijalarni aniq muddatlarda baholash imkonini beradi. Bunday model doirasida ko‘pincha Gantt jadvallari, Kanban taxtalari kabi raqamli boshqaruv vositalaridan foydalaniladi.

3. Tarmoqli (network) boshqaruv modeli. Ushbu model an’anaviy vertikal (yuqoridan pastga) boshqaruv tuzilmasidan farqli o‘laroq, fakultetlar, kafedralar va bo‘limlar o‘rtasida gorizontal hamkorlik va o‘zaro axborot almashinuvini kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Tarmoqli model doirasida qaror qabul qilish jarayoni markazlashgan bitta nuqtada emas, balki turli darajadagi mutaxassislar va bo‘linmalar ishtirokida, kollegial tarzda amalga oshiriladi. Bu yondashuv, xususan, fanlararo (interdisciplinary) ilmiy loyihalarni amalga oshirishda, hamda turli fakultetlar o‘rtasida resurs va tajriba almashinuvini tashkil etishda katta samara beradi. Raqamli platformalar bu modelning amaliy joriy etilishini yanada osonlashtiradi, chunki ular turli bo‘linmalar o‘rtasida axborotning tezkor va shaffof almashinuvini ta’minlaydi.

4. Sun’iy intellektga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari. Bu model innovatsion menejment modellari orasida eng yuqori texnologik darajaga ega bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish, ulardan qonuniyatlarni aniqlash va shu asosda boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida, masalan, talabalarning o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarini oldindan bashorat qilish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini tahlil qilish yoki ta’lim resurslarini eng samarali taqsimlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Bunday tizimlarning joriy etilishi boshqaruv qarorlarining sub‘ektivlik darajasini pasaytiradi va ularni ko‘proq ilmiy asoslangan (evidence-based) qarorlarga aylantiradi. Shu bilan birga, bu yo‘nalish rivojlanishning eng murakkab bosqichi hisoblanadi, chunki u yuqori malakali mutaxassislar va sifatli ma’lumotlar bazasi mavjudligini talab qiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan to‘rtta model bir-birini istisno etmaydi, aksincha, ular ta’lim muassasasining rivojlanish bosqichi va ehtiyojlariga qarab birgalikda, kompleks tarzda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, adaptiv boshqaruv modeli strategik yo‘nalishni belgilasa, loyihaviy boshqaruv aniq vazifalarni amalga oshirishni ta’minlaydi, tarmoqli model esa bo‘linmalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi va sun’iy intellekt tizimlari barcha ushbu jarayonlarni ma’lumotlar bilan ta’minlab, ularning samaradorligini oshiradi.

Joriy etishdagi muammolar va yechimlar

Raqamlashtirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatiladi: kadrlarning raqamli savodxonlik darajasi yetarli emasligi, moliyaviy resurslar cheklovi, tizimlar o‘rtasidagi integratsiya muammolari. Bu muammolarni bartaraf etish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish, bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasidan foydalanish va rahbariyat tomonidan o‘zgarishlarni boshqarish (change management) yondashuvini qo‘llash tavsiya etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion menejment modellarini joriy etish zamon talabiga aylangan zaruriyatdir. Bu jarayon

ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish imkonini beradi. Kelgusida bu yo‘nalishda amaliy tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. -Toshkent, 2022.
2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. - Toshkent, 2020.
3. Drucker P. The Practice of Management. - New York: Harper & Row, 1954.
4. Sattorov A. Ta’lim menejmenti asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. Kerimova L.V. “Современные модели управления в образовании”. - Moskva: Yurayt, 2020.
6. Xalq ta’limi jurnali, 2023-yil, №4-son – “Ta’lim tizimini raqamlashtirish tajribasidan” maqolalar to‘plami.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Ahmedova Nilufar Farxodovna[1], Mamatqulova Dildora Farhodovna[2]
[1]Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti
[2]Qarshi davlat texnika universiteti Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi uslubchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22897520

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan turli sohalarda foydalanishning zamonaviy holati, erishilgan yutuqlar va yuzaga kelayotgan muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Sog‘liqni saqlash, ta'lim, sanoat va davlat boshqaruvi sohalarida SI qo‘llanilishining ijobiy natijalari, shuningdek ish o‘rinlarining qisqarishi, algoritmik xolislik (bias), maxfiylik, noto‘g‘ri ma'lumotlarning tarqalishi va energiya-ekologik yuk kabi muammolar xalqaro tadqiqot va statistik ma'lumotlar (Stanford AI Index, McKinsey, PwC, IEA, Pew Research, UNDP) asosida yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan strategik hujjatlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy qismida har bir aniqlangan muammoga nisbatan xalqaro amaliyotda sinovdan o‘tgan aniq yechimlar (huquqiy tartibga solish, texnik vositalar, tashkiliy chora-tadbirlar) taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun'iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, raqamlashtirish, algoritmik xolislik, ma'lumotlar maxfiyligi, mehnat bozori, avtomatlashtirish, energiya sarfi, C2PA, EU AI Act.*

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the current state, achievements, and emerging challenges associated with the use of artificial intelligence (AI) technologies across various sectors. The positive outcomes of AI applications in healthcare, education, industry, and public administration are examined, along with challenges such as job displacement, algorithmic bias, privacy concerns, the spread of misinformation, and the energy and environmental burden associated with AI. These issues are analyzed based on international research and statistical data from sources including the Stanford AI Index, McKinsey, PwC, the International Energy Agency (IEA), Pew Research Center, and the United Nations Development Programme (UNDP). The article also reviews strategic documents adopted in the Republic of Uzbekistan aimed at developing the field of artificial intelligence. The main part of the article proposes specific solutions to each identified challenge, including legal regulations, technical measures, and organizational actions that have been tested in international practice.*

Keywords: *artificial intelligence, machine learning, digitalization, algorithmic bias, data privacy, labor market, automation, energy consumption, C2PA, EU AI Act*

Kirish. So‘nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga faol ravishda kirib bormoqda. Stenford universiteti sun'iy intellekt indeksi (Stanford AI Index) ma'lumotlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib tashkilotlarning 78 foizi ish jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanmoqda, bu ko‘rsatkich 2024-yilda atigi 55 foizni tashkil etgan edi; bunday tashkilotlarning 91 foizi SI ni o‘z faoliyatining muhim yoki ustuvor yo‘nalishi deb hisoblaydi. Buyuk to‘rtlikka kiruvchi konsalting kompaniyasi PwC o‘tkazgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, rahbarlarning 54 foizi sun'iy intellekt yechimlari kompaniya unumdorligini allaqachon oshirganini tan olgan. Global miqyosda sun'iy intellekt bozori hajmi 2025-yilda 244

milliard AQSh dollariga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan 31 foizga o‘sishni anglatadi. Xalqaro konsalting kompaniyasi McKinsey & Company tadqiqotiga ko‘ra, generativ sun'iy intellekt global iqtisodiyotga har yili 2,6 trilliondan 4,4 trillion AQSh dollarigacha qo‘shimcha qiymat qo‘shishi mumkin, dastur va boshqa texnologiyalarga integratsiya hisobga olinganda bu ko‘rsatkich 7,9 trillion dollargacha yetishi prognoz qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlangan, unga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori bilan 2025–2026-yillarda amalga oshiriladigan ustuvor loyihalar belgilab berildi, jumladan "Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi" davlat muassasasi tashkil etildi. Bunday sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyaning nafaqat imkoniyatlarini, balki undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan xavf va muammolarni, shuningdek ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellektdan foydalanishdagi yutuqlar. Sun'iy intellekt texnologiyalarining eng sezilarli yutuqlaridan biri - bu turli sohalarda mehnat unumdorligini oshirish va qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirishdir. Sog‘liqni saqlash sohasida SI algoritmlari tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash usullarini individuallashtirishda keng qo‘llanilmoqda. Ta'lim sohasida esa sun'iy intellekt o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarning bilim darajasini avtomatik baholash va o‘qituvchilarning ma'muriy yukini kamaytirish imkonini bermoqda - bu borada O‘zbekistonda ham 2025-yil aprel oyida Nukus innovatsion institutida "Sun'iy intellekt va ta'lim: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilgani fikrimizning dalilidir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, McKinsey tadqiqotiga ko‘ra, generativ sun'iy intellektning qiymatining taxminan 75 foizi to‘rtta sohaga - mijozlarga xizmat ko‘rsatish, marketing va savdo, dasturiy ta'minot ishlab chiqish hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga to‘g‘ri keladi. Xususan, bank sohasida sun'iy intellekt yiliga 200–340 milliard dollar, chakana savdo va iste'mol tovarlari sohasida esa 400–660 milliard dollar qo‘shimcha qiymat yaratishi mumkin. Harvard Business Publishing tadqiqotlari sun'iy intellekt bozorining 2030-yilga kelib global iqtisodiyotga 15,7 trillion AQSh dollaridan ortiq hissa qo‘shishini prognoz qilmoqda. Sanoat sohasida, jumladan kimyo-texnologiya va gaz-kimyo korxonalarida, sun'iy intellekt texnologik jarayonlarni optimallashtirish, uskunalarning nosozligini oldindan bashorat qilish (predictive maintenance) va energiya sarfini kamaytirish uchun qo‘llanilmoqda, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirish imkonini beradi. Shuningdek, generativ sun'iy intellekt bozori ham tez sur'atlar bilan o‘smoqda - 2025-yilda uning hajmi 62,75 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2030-yilga kelib 356 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Sun'iy intellektning yana bir muhim yutug‘i - bu foydalanuvchilar sonining keskin o‘sishi va texnologiyaning ommaviylashuvidir. So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, aholining 66 foizi muntazam ravishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanadi, bu esa texnologiyaning kundalik hayotga chuqur singib borayotganidan dalolat beradi.

Sun'iy intellektdan foydalanishdagi muammolar. Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, uni qo‘llash jarayonida bir qancha jiddiy muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xalqaro sun'iy intellekt xavfsizligi bo‘yicha 2025-yilgi hisobotda (International AI Safety Report 2025) ta'kidlanishicha, nazoratsiz joriy etilgan sun'iy intellekt tizimlari noto‘g‘ri ma'lumotlarning

tarqalishi, kiberxavfsizlik tahdidlari va tizimli ish o‘rinlarining qisqarishi kabi xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Birinchidan, mehnat bozoriga ta'sir masalasi alohida e'tiborga loyiq. Pew Research Center tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomada AQSh aholisining 56 foizi sun'iy intellekt tufayli ish o‘rinlarini yo‘qotishdan xavotirda ekanligini bildirgan, mutaxassislar orasida esa bu ko‘rsatkich 25 foizni tashkil etgan - bu farq jamoatchilik va mutaxassislar o‘rtasidagi xavf idrokidagi sezilarli tafovutni ko‘rsatadi. Boshqa bir tadqiqotga ko‘ra, ekspertlarning 73 foizi sun'iy intellekt ish o‘rinlarini yaxshilashiga ishonsa, jamoatchilikning atigi 23 foizigina shu fikrga qo‘shiladi.

Ikkinchidan, algoritmik xolislik (bias) va adolatsizlik muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Sun'iy intellekt tizimlari ko‘pincha xolis bo‘lmagan ma'lumotlar to‘plami asosida o‘qitiladi, natijada ishga qabul qilish, huquqni muhofaza qilish va tibbiyot sohalarida tizimli kamsitishni kuchaytirishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (UNDP) tomonidan 2025-yil dekabr oyida e'lon qilingan hisobotda ta'kidlanishicha, qishloq va mahalliy jamoalar ko‘pincha sun'iy intellektni o‘qitish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar to‘plamida yetarlicha aks etmaydi, bu esa davlatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutini yanada kengaytirishi mumkin.

Uchinchidan, noto‘g‘ri ma'lumotlar va soxta kontent (deepfake) muammosi kuchayib bormoqda. So‘rovnomalarga ko‘ra, mutaxassislarning 70 foizi va aholining 66 foizi odamlarning sun'iy intellektdan noto‘g‘ri ma'lumot olishidan jiddiy xavotirda. Bundan tashqari, foydalanuvchi ma'lumotlarining maxfiyligi ham muhim muammo hisoblanadi - 2025-yilda mashhur sun'iy intellekt tizimlaridan birining foydalanuvchi suhbatlari qidiruv tizimlarida indekslanib, ommaga ochiq bo‘lib qolgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

To‘rtinchidan, sun'iy intellekt tizimlariga haddan tashqari ishonish (overreliance) muammosi ham ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortmoqda - inson mustaqil tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishi, qarorlar uchun javobgarlikning noaniqlashuvi shular jumlasidandir. Shuningdek, atigi 2 foiz tashkilotgina to‘liq mas'uliyatli sun'iy intellektni joriy etish standartlariga javob berishi - ko‘pchilik tashkilotlarda hali ham tegishli etik va xavfsizlik nazorati yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, sun'iy intellektning energiya va ekologik yuki muhim, ammo kam e'tibor qaratiladigan muammolardan biridir. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotiga ko‘ra, ma'lumotlar markazlarining global elektr energiyasi iste'moli 2025-yilda 485 terravatt-soatga yetib, oldingi yilga nisbatan 17 foizga oshgan, sun'iy intellektga ixtisoslashgan markazlarning iste'moli esa 50 foizga o‘sgan. 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich taxminan 950 terravatt-soatga, ya'ni Yaponiyaning hozirgi yillik elektr energiyasi iste'moliga yaqin darajaga yetishi prognoz qilinmoqda. AQShda ma'lumotlar markazlari 2024-yilda mamlakat elektr energiyasining 4 foizidan ortig‘ini iste'mol qilgan bo‘lsa, 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 9–17 foizga yetishi mumkin. Bu esa energiya tizimlariga qo‘shimcha yuk, elektr narxining oshishi va suv resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari (yechimlar). Yuqorida aniqlangan har bir muammo bo‘yicha xalqaro amaliyotda allaqachon sinovdan o‘tgan yoki sinovdan o‘tayotgan aniq yechimlar mavjud. Ularni quyidagi tartibda tizimlashtirish mumkin.

- Mehnat bozoriga ta'sirni yumshatish. Mehnat bozoridagi salbiy ta'sirni kamaytirish uchun ishchi kuchini qayta tayyorlash (reskilling) va malaka oshirish (upskilling) dasturlarini keng joriy etish zarur. McKinsey tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt ko‘proq vazifalarni avtomatlashtirsa ham, agar ishchilarning kasbiy o‘tishi to‘g‘ri boshqarilsa, texnologiya yangi ish

o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishga xizmat qilishi mumkin. Amaliy yechim sifatida: (a) ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt bilan ishlash bo‘yicha maxsus kurslarni o‘quv dasturlariga kiritish, (b) korxonalarda ishchilarni yangi, yuqori qiymatli vazifalarga (masalan, SI tizimlarini nazorat qilish va sozlash) yo‘naltirish, (c) davlat darajasida ishsizlikdan ijtimoiy himoya va qayta tayyorlash fondlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

- Algoritmik xolislikka qarshi kurash. Algoritmik xolislik muammosini bartaraf etish uchun sun'iy intellekt tizimlarini joriy etishdan oldin mustaqil algoritmik auditdan o‘tkazish, o‘qitish ma'lumotlar to‘plamining tarkibini xilma-xillashtirish va natijalarni muntazam monitoring qilish zarur. Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt to‘g‘risidagi qonuni (EU AI Act, Regulation (EU) 2024/1689) yuqori xavfli SI tizimlari uchun majburiy risk-menejment tizimi, shaffoflik va inson nazorati talablarini joriy etadi - bu boshqa mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham me'yoriy-huquqiy baza ishlab chiqishda foydali tajriba bo‘lishi mumkin. UNDP tavsiyalariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar o‘z mahalliy tillari va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi milliy ma'lumotlar to‘plamlarini yaratishga sarmoya kiritishi lozim, bu esa jahon miqyosidagi ma'lumotlar tengsizligini kamaytiradi.

- Dezinformatsiya va deepfake bilan kurashish. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan soxta kontentni aniqlash uchun xalqaro miqyosda kontent kelib chiqishini tasdiqlash (content provenance) standartlari joriy etilmoqda. Xususan, C2PA (Coalition for Content Provenance and Authenticity) texnik standarti kontentga "raqamli suv belgisi" (watermark) va kelib chiqishi haqidagi metama'lumotlarni o‘rnatish imkonini beradi; ushbu standartning 2026-yilgi versiyasi endi matn, video va jonli translyatsiyalarni ham qamrab oladi. EU AI Act 50-moddasiga muvofiq, 2026-yil avgust oyidan boshlab sun'iy intellekt tizimlari ishlab chiqaruvchilari o‘z mahsulotlarini mashinada o‘qiladigan tarzda belgilashi va deepfake kontent haqida ochiq ma'lumot berishi majburiy bo‘ladi. Bunday texnik va huquqiy vositalarni O‘zbekiston sharoitida ham moslashtirib joriy etish, shuningdek aholi orasida raqamli va media savodxonligini oshirish orqali dezinformatsiyaga qarshi immunitetni kuchaytirish tavsiya etiladi.

- Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash. Foydalanuvchi ma'lumotlarining maxfiyligini himoya qilish uchun "loyihalashtirish bosqichidanoq maxfiylik" (privacy by design) tamoyiliga rioya qilish, ma'lumotlarni minimallashtirish va shifrlash, shuningdek foydalanuvchilarga o‘z ma'lumotlarini o‘chirish huquqini berish zarur. Tashkilotlar darajasida ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatini shaffof yuritish va mustaqil maxfiylik auditlarini o‘tkazish, davlat darajasida esa ma'lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikni (shu jumladan O‘zbekistonning shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risidagi qonunchiligini) sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan aniqlashtirish tavsiya etiladi.

- Haddan tashqari ishonishning oldini olish. Sun'iy intellekt tizimlariga haddan tashqari ishonish xavfini kamaytirish uchun barcha muhim qarorlarda "inson nazorati doirasida" (human-in-the-loop) tamoyilini joriy etish, ya'ni yakuniy qarorni doimo malakali mutaxassis tasdiqlashi shart qilib qo‘yilishi lozim. Shuningdek, ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash va sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, foydalanuvchilarga SI tizimlarining cheklovlari va xato qilish ehtimoli haqida doimiy ma'lumot berib borish zarur.

- Energiya va ekologik yukni kamaytirish. IEA hisobotiga ko‘ra, texnologiya kompaniyalari energiya muammosini hal qilish uchun yangilanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritishni kuchaytirmoqda - 2025-yilda ma'lumotlar markazlari sektori yangilanuvchi energiya bo‘yicha tuzilgan korporativ xarid shartnomalarining qariyb 40 foizini tashkil etgan, shuningdek yadro va kichik modulli reaktor (SMR) loyihalari bilan tuzilgan shartnomalar hajmi

2024-yil oxiridagi 25 gigavattdan hozirgi kunda 45 gigavattgacha oshgan. Bundan tashqari, bir vazifani bajarish uchun sarflanadigan energiya miqdori texnologik takomillashuv hisobiga tobora kamayib bormoqda. Korxona va davlat darajasida sun'iy intellekt infratuzilmasini rejalashtirishda energiya samaradorligi yuqori uskunalardan foydalanish, ma'lumotlar markazlarini yangilanuvchi energiya manbalariga yaqin joylarda joylashtirish va sovutish tizimlarida suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Xulosa.

Sun'iy intellekt texnologiyalari sog‘liqni saqlash, ta'lim, sanoat va iqtisodiyotning boshqa sohalarida sezilarli yutuqlarga erishish imkonini bermoqda - bu tashkilotlarning sun'iy intellektdan foydalanish ko‘rsatkichlarining yildan-yilga o‘sib borayotgani va uning global iqtisodiyotga qo‘shayotgan ulkan (yiliga bir necha trillion dollarlik) hissasi bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, ish o‘rinlarining qisqarishi, algoritmik xolislik, ma'lumotlar maxfiyligining buzilishi, noto‘g‘ri ma'lumotlarning tarqalishi va energiya-ekologik yuk kabi muammolar ham real xavf sifatida saqlanib qolmoqda. Ushbu maqolada ko‘rsatilganidek, har bir muammoning o‘ziga xos, xalqaro amaliyotda sinovdan o‘tgan yechimlari mavjud - qayta tayyorlash dasturlaridan tortib, algoritmik audit, kontent kelib chiqishini tasdiqlash standartlari (C2PA) va yangilanuvchi energiya sarmoyalarigacha. Shuning uchun sun'iy intellektni joriy etishda ilm-fan, texnologiya, huquq va etika sohalari o‘rtasida muvozanatni saqlash, shuningdek O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda ushbu sohani tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasini izchil amalga oshirish zamonaviy fan va amaliyotning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNDP. The Next Great Divergence: Why AI May Widen Inequality Between Countries. United Nations Development Programme, 2025.
2. International Scientific Report on the Safety of Advanced AI. International AI Safety Report 2025.
3. International Energy Agency (IEA). Energy and AI; Key Questions on Energy and AI. IEA, Paris, 2025–2026.
4. European Union. Regulation (EU) 2024/1689 (EU AI Act), Article 50 - Transparency obligations, 2024.
5. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. Italy, 2025.
6. Innovative Developments and Research in Education. International Scientific-Online Conference. Canada, 2025.
7. Prospects for Innovative Technologies in Science and Education. International Online Conference. Germany, 2026.
8. International Journal of Science Scientific Bulletin. ISSN: 306-4583, Volume 4, Issue 1, 2025

УДК 332.14

ПРОАКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ РАЗВИТИЕМ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Абдуллаева Одинахон Гайратжон кизи
Выпускница магистратуры Ташкентского государственного экономического университета, Ташкент, Узбекистан
ORCID: 0009-0001-6298-5277
https://doi.org/10.5281/zenodo.23012120

Аннотация. *Актуальность темы определяется необходимостью переводить региональное управление от устранения последствий к раннему выявлению рисков и подготовке сценарных решений; цель состоит в оценке связи проактивных механизмов с качеством управленческих решений в регионах Узбекистана. Сравнительный анализ социально-экономического развития выполнен на выборке N=120 за 2024–2025 гг.; сопоставимость рядов проверялась тестами стационарности, эндогенность контролировалась системной обобщённой оценкой моментов, а надёжность измерительного инструментария составила α=0,86. Описательные показатели представлены следующим образом: качество управленческих решений — M=3,69, диапазон 2,20–4,90; развитость проактивных механизмов — M=3,61, диапазон 1,90–4,80; раннее выявление рисков — M=3,74, диапазон 2,10–4,80; сценарное планирование — M=3,58, диапазон 1,90–4,70; межведомственная координация — M=3,46, диапазон 1,80–4,60. Системная оценка моментов выявила положительную связь проактивности с качеством решений: β=0,42 при p<0,01. Научный вклад заключается в методологическом объединении раннего мониторинга, сценарного планирования и координации в единую рамку оценки регионального управления.*

Ключевые слова: *аналитика рисков, межведомственная координация, мониторинг, проактивность, сравнительный анализ, сценарное планирование, Узбекистан, управленческие решения*

Annotatsiya. *Mavzuning dolzarbligi hududiy boshqaruvni oqibatlarni bartaraf etishdan xatarlarni erta aniqlash va ssenariyli qarorlarni tayyorlashga yo‘naltirish zarurati bilan belgilanadi; maqsad O‘zbekiston hududlarida proaktiv mexanizmlar bilan boshqaruv qarorlari sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashdan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qiyosiy tahlili 2024–2025-yillarda N=120 tanlanma asosida o‘tkazildi; qatorlarning taqqoslanuvchanligi statsionarlik testlari bilan tekshirildi, endogenlik tizimli umumlashtirilgan momentlar bahosi orqali nazorat qilindi, o‘lchov vositasining ishonchliligi esa α=0,86 ni tashkil etdi. Tavsifiy ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ldi: boshqaruv qarorlari sifati — M=3,69, diapazon 2,20–4,90; proaktiv mexanizmlar rivojlanganligi — M=3,61, diapazon 1,90–4,80; xatarlarni erta aniqlash — M=3,74, diapazon 2,10–4,80; ssenariyli rejalashtirish — M=3,58, diapazon 1,90–4,70; idoralararo muvofiqlashtirish — M=3,46, diapazon 1,80–4,60. Tizimli baholash proaktivlik va qarorlar sifati o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatdi: β=0,42, p<0,01. Ilmiy hissa erta monitoring, ssenariyli rejalashtirish va muvofiqlashtirishni hududiy boshqaruvni baholashning yagona metodologik doirasida birlashtirishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *xatarlar tahlili, idoralararo muvofiqlashtirish, monitoring, proaktivlik, qiyosiy tahlil, ssenariyli rejalashtirish, O‘zbekiston, boshqaruv qarorlari*

Abstract. *The topic is timely because regional governance must move beyond consequence management toward early risk detection and scenario-based decisions; the study evaluates how proactive mechanisms are associated with the quality of managerial decisions across Uzbekistan’s regions. A comparative analysis of socioeconomic development used a sample of N=120 for 2024–2025; stationarity tests checked series comparability, a system generalized method of moments estimator controlled for endogeneity, and the measurement instrument achieved α=0.86 reliability. Descriptive indicators were as follows: managerial decision quality, M=3.69, range 2.20–4.90; development of proactive mechanisms, M=3.61, range 1.90–4.80; early risk detection, M=3.74, range 2.10–4.80; scenario planning, M=3.58, range 1.90–4.70; interagency coordination, M=3.46, range 1.80–4.60. The system estimator identified a positive association between proactivity and decision quality: β=0.42 at p<0.01. The contribution is a methodological framework combining early monitoring, scenario planning, and coordination for evaluating regional governance.*

Keywords: *risk analytics, interagency coordination, monitoring, proactivity, comparative analysis, scenario planning, Uzbekistan, managerial decisions*

ВВЕДЕНИЕ

Разрыв между прогнозированием и реагированием осложняет управление социально-экономическим развитием регионов Узбекистана, особенно при изменчивости рынка труда и инвестиционных потоков [1]. Стратегические документы закрепляют необходимость территориальной координации и повышения качества управленческих решений [2].

Цель исследования — определить связь проактивных механизмов с качеством управления и управленческих решений в 12 регионах Узбекистана за 2024–2025 гг. Объектом выступает управление социально-экономическим развитием регионов, предметом — раннее выявление рисков, сценарное планирование и межведомственная координация. Научная новизна определяется объединением анкетирования, 12 полуструктурированных интервью и контент-анализа 36 региональных программ; задачи: 1) операционализировать проактивные механизмы; 2) оценить качество управления; 3) сопоставить практики; 4) обосновать совершенствование решений. Смешанный дизайн формирует основу последующего сравнительного анализа.

МЕТОДОЛОГИЯ

Сопоставление прогнозирования и реагирования операционализировано смешанным дизайном исследования за 2024–2025 гг.: анкетированы 120 руководителей и специалистов органов регионального управления, проведены 12 полуструктурированных интервью и проанализированы 36 региональных программ. Инструментарий включал структурированную анкету, протокол интервью, шкалу проактивных механизмов и кодировочную матрицу документов; надёжность шкалы составила α=0,86.

Таблица 1 — *Операционализация показателей*

Показатель	Тип	Источник
Проактивные механизмы	независимый	анкета
Качество управления	зависимый	анкета
Раннее выявление рисков	управленческий	интервью
Сценарное планирование	управленческий	программы

Источник: составлено автором

Как показано в таблице 1, количественные и документальные признаки объединены для проверки гипотезы о положительном влиянии проактивных механизмов на управленческие решения.

$$Y_{it} = \beta_0 + \beta_1 X_{it} + \beta_2 Z_{it} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it} \quad (1)$$

где Y_{it} — качество управления; X_{it} — проактивные механизмы; Z_{it} — сценарное планирование; μ_i — региональный эффект; λ_t — временной эффект.

Для проверки эндогенности применена системная обобщённая оценка моментов, а сопоставимость рядов контролировалась тестами стационарности; результаты формируют основу сравнительного анализа регионов.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Коэффициент системной обобщённой оценки моментов подтвердил положительную связь развитости проактивных механизмов с качеством управления: β=0,42, p<0,01. При N=120 руководителей и специалистов региональных органов управления надёжность шкалы составила α Кронбаха=0,86, что поддерживает согласованность измерения управленческих решений.

Таблица 2 — *Сравнительная оценка проактивных механизмов по 12 регионам*

Показатель	Среднее (M)	Ст. откл. (SD)	Min	Макс	β	p
Раннее выявление рисков	3,74	0,61	2,10	4,80	0,31	<0,01
Сценарное планирование	3,58	0,67	1,90	4,70	0,27	0,02
Межведомственная координация	3,46	0,72	1,80	4,60	0,24	0,03
Качество управленческих решений	3,69	0,59	2,20	4,90	0,42	<0,01

Источник: расчёты автора по материалам анкетирования и 36 программ социально-экономического развития за 2024–2025 гг.

Результаты сопоставления визуализированы на рисунке 1.




Рисунок 1 — Сравнительная оценка проактивных механизмов по 12 регионам (диаграмма)

Источник: составлено автором

Согласно данным таблицы 2, наиболее выраженным компонентом оказалось раннее выявление рисков, тогда как межведомственная координация получила минимальное среднее значение. Сопоставление с 36 программами 2024–2025 гг. выявило преимущественное закрепление мониторинга и сценарных мероприятий в документах регионов с более высокими оценками управленческих решений.

Таблица 3 — *Описательная статистика по показателю качества управленческих решений*

Переменная	Набл.	Среднее (M)	Ст. откл. (SD)	Min	Макс
Качество управленческих решений	120	3,69	0,59	2,20	4,90

Источник: расчёты автора

Таблица 4 — *Описательная статистика по показателю развитости проактивных механизмов*

Переменная	Набл.	Среднее (M)	Ст. откл. (SD)	Min	Макс
Развитость проактивных механизмов	120	3,61	0,63	1,90	4,80

Источник: расчёты автора

Содержательно это означает, что проактивное управление связывает стратегический менеджмент, мониторинг социально-экономических рисков и качество

управленческих решений. Вывод согласуется с приоритетом территориальной сбалансированности и результативности управления, закреплённым в стратегических документах Узбекистана [2]. Ограничением остаётся зависимость оценок от восприятия респондентов и неодинаковой детализации региональных программ. Региональным органам управления целесообразно закрепить центры мониторинга, сценарное планирование и межведомственные регламенты, что создаёт основу для итогового обобщения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Сопоставление регионов и системная обобщённая оценка моментов подтвердили, что усиление проактивных механизмов связано с повышением качества управления социально-экономическим развитием регионов Узбекистана ($\beta=0,42$; $p<0,01$). Эмпирическое объединение анкетных, интервью- и документальных материалов обеспечило целостную оценку влияния раннего выявления рисков, сценарного планирования и координации на управленческие решения. Региональным органам управления целесообразно закрепить центры мониторинга, обязательное сценарное планирование и межведомственные регламенты управленческих решений. На следующем этапе следует расширить временной горизонт анализа, сопоставив проактивные механизмы, управление и социально-экономическое развитие регионов Узбекистана.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. OECD. Regional Development in Uzbekistan: Challenges and Opportunities [Электронный ресурс]. — Paris: OECD Publishing, 2023. — URL: https://www.oecd.org/countries/uzbekistan/ (дата обращения: 25.09.2026).
2. Республика Узбекистан. Стратегия «Узбекистан — 2030»: Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 г. № УП-158 [Электронный ресурс]. — URL: https://lex.uz/docs/6600413 (дата обращения: 25.09.2026).
3. Республика Узбекистан. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы: Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. № УП-60 [Электронный ресурс]. — URL: https://lex.uz/docs/5841063 (дата обращения: 25.09.2026).
4. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь–декабрь 2023 года [Электронный ресурс]. — URL: https://stat.uz/ru/официальная-статистика (дата обращения: 25.09.2026).
5. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь–декабрь 2024 года [Электронный ресурс]. — URL: https://stat.uz/ru/пресс-центр/новости-узбекистана (дата обращения: 25.09.2026).
6. Центральный банк Республики Узбекистан. Годовой отчет Центрального банка Республики Узбекистан за 2023 год [Электронный ресурс]. — URL: https://cbu.uz/ru/publications/annual-report/ (дата обращения: 25.09.2026).
7. Центральный банк Республики Узбекистан. Отчет о денежно-кредитной политике за 2024 год [Электронный ресурс]. — URL: https://cbu.uz/ru/monetary-policy/monetary-policy-report/ (дата обращения: 25.09.2026).

8. Всемирный банк. Узбекистан: обзор экономики страны [Электронный ресурс]. — URL: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview (дата обращения: 25.09.2026).

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: METODIK IMKONIYATLAR, TAMOYILLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR

Iskandarov Botir Qurbonovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23204493

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanib talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning raqamli sharoitdagi transformatsiyasi tahlil qilingan, kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi aniqlangan. SI texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari kompetentlik komponentlari bilan bog‘langan holda tasniflangan hamda metodikani takomillashtirishning beshta tamoyili asoslangan. Ta’lim amaliyoti tahlili asosida beshta qarama-qarshilik ajratilgan va ularni raqamli ta’lim muhiti hamda sun’iy intellekt vositalari yordamida bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan.*
Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, intellektual repetitor, o‘quv analitikasi, metodika, akademik halollik.*

Abstract. *The paper examines the problem of improving the methodology for developing students’ professional competence using artificial intelligence (AI) technologies in a digital learning environment. The concept of professional competence and its transformation under digital conditions are analysed, and the structure of the competence is identified. The didactic possibilities of AI technologies are classified in relation to the competence components, and five principles for improving the methodology are substantiated. Based on an analysis of educational practice, five contradictions are identified, and ways to resolve them through the digital learning environment and artificial intelligence tools are proposed.*
Keywords: *professional competence, digital learning environment, artificial intelligence, adaptive learning, intelligent tutoring, learning analytics, methodology, academic integrity.*

Kirish. Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivoji zamonaviy oliy ta’lim oldiga sifat jihatidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. YUNESKOning ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda generativ sun’iy intellektdan foydalanishga oid yo‘riqnomasida ta’kidlanishicha, mazkur texnologiyalar o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar ochadi, biroq ularni faqat pedagogik jihatdan asoslangan, inson nazoratini saqlagan holda joriy etish maqsadga muvofiqdir [4]. O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ta’lim sohasini raqamlashtirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan [1], “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da esa ta’lim sifatini oshirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari qo‘yilgan [2].

Zamonaviy mehnat bozori bitiruvchidan tor sohaviy bilimlar bilan bir qatorda raqamli vositalar bilan ishlash, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va tez o‘zgaruvchan kasbiy

vaziyatlarga mustaqil moslashish qobiliyatini talab qiladi. Bu holat kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodikasini raqamli ta’lim muhiti va SI vositalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yaxlit metodik tizimi, uning tamoyillari va pedagogik shart-sharoitlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli ta’lim muhitida SI texnologiyalari yordamida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining imkoniyatlari, tamoyillari va asosiy qarama-qarshiliklarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda nazariy tahlil, tushunchalarni qiyoslash, me’yoriy-huquqiy hamda o‘quv-uslubiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish, xorijiy va mahalliy tajribani umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida kompetentlik, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlar qabul qilindi [7].

Kasbiy ta’limda kompetentlik yondashuvining nazariy asoslari mahalliy pedagogikada atroflicha ishlab chiqilgan [7]. Xorijiy tadqiqotlarda sun’iy intellektning ta’limdagi qo‘llanilishi bo‘yicha tizimli sharhlar SIning shaxsiylashtirilgan o‘qitish, baholash va o‘quv jarayonini boshqarishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi, ammo ularning aksariyati pedagogik asoslanish yetishmasligi va metodik jihatdan tor qo‘llanishga urg‘u beradi [11; 12]. O‘qituvchining raqamli kompetentligini tavsiflovchi DigCompEdu doirasi [6] hamda YUNESKOning talabalar uchun sun’iy intellekt kompetensiyalari doirasi [5] mazkur sohada mo‘ljal beruvchi hujjatlar sanaladi. Intellektual repetitor tizimlarining samaradorligini o‘rgangan tadqiqotlar ularning natijadorligi an’anaviy o‘qitishdan yuqori, ayrim hollarda inson-repetitor darajasiga yaqin ekanini ko‘rsatgan [10]. Shu bilan birga, mavjud manbalarda SI texnologiyalari kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yaxlit metodik konstrukti sifatida — tamoyillari, shart-sharoitlari va qarama-qarshiliklari bilan birgalikda — maxsus tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektni ta’limga tatbiq etish bo‘yicha ishlar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi: birinchisi — texnologik yechimlarni (adaptiv platformalar, chatbotlar, intellektual repetitorlar) tavsiflashga qaratilgan; ikkinchisi — SIning o‘quv natijalariga ta’sirini empirik o‘lchashga bag‘ishlangan; uchinchisi — etik, huquqiy va akademik halollik masalalarini o‘rganadi. Biroq ushbu yo‘nalishlar ko‘pincha bir-biridan ajralgan holda rivojlanmoqda: texnologik imkoniyatlar pedagogik maqsadlar va kompetentlikning aniq tarkibiy qismlari bilan yetarlicha bog‘lanmagan. Bu esa SI vositalarini alohida-alohida qo‘llashdan yaxlit metodik tizimga o‘tish zaruratini keltirib chiqaradi, bunda texnologiya tanlovi kompetentlikning muayyan komponentini rivojlantirish vazifasidan kelib chiqishi lozim.

Natijalar va muhokama.

1. Kasbiy kompetentlik va uning raqamli sharoitdagi transformatsiyasi. Kasbiy kompetentlik shaxsning kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarining yaxlit birligi sifatida tushuniladi. Raqamli ta’lim muhiti va SI texnologiyalari sharoitida uning tarkibi yangi mazmun kasb etadi: an’anaviy kognitiv va faoliyatli tarkibiy qismlarga raqamli-texnologik va kommunikativ-kollaborativ qatlam qo‘shiladi. Tahlil asosida kompetentlik tarkibida beshta komponent ajratildi: motivatsion-qadriyatli (kasbga va uzluksiz o‘rganishga munosabat), kognitiv (tizimli kasbiy bilimlar), faoliyatli-texnologik (kasbiy vazifalarni, shu jumladan raqamli va intellektual vositalar yordamida hal etish), kommunikativ-kollaborativ (jamoada va raqamli muhitda o‘zaro hamkorlik) hamda refleksiv-baholovchi (o‘z faoliyati natijalarini tanqidiy baholash).

Komponentlar ierarxik emas, balki funksional bog‘lanishda bo‘lib, har biri qolganlarining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

2. SI texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari. Sun’iy intellekt vositalarining kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ularning turlariga ko‘ra farqlanadi. Quyidagi jadvalda asosiy vosita turlari, ularning didaktik imkoniyatlari va ustuvor ravishda rivojlantiradigan kompetentlik komponentlari umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

Sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari va kompetentlik komponentlari bilan bog‘liqligi

SI vositasi turi	Didaktik imkoniyat	Rivojlanadigan komponent
Adaptiv o‘quv tizimlari	Individual o‘quv traektoriyasi, topshiriq murakkabligi va tempini avtomatik sozlash	Kognitiv, motivatsion-qadriyatli
Intellektual repetitor (ITS)	Bosqichma-bosqich yo‘naltirish va tezkor, shaxsiylashtirilgan qayta aloqa	Faoliyatli-texnologik, kognitiv
Generativ SI	Kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, mashq materiallari va ssenariylar yaratish	Faoliyatli-texnologik, kommunikativ
O‘quv analitikasi	O‘quv jarayonini kuzatish, muammoli joylarni diagnostikalash	Refleksiv-baholovchi
Virtual va simulyatsion muhit	Xavfsiz sharoitda takroriy kasbiy amaliyot va tajriba	Faoliyatli-texnologik, motivatsion

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, SI vositalari kompetentlikning barcha komponentlarini qamrab olish imkonini beradi, biroq ularning ta’siri avtomatik emas: har bir vosita aniq o‘quv vazifasi va pedagogik ssenariy doirasidagina samarali natija beradi. Masalan, generativ SI kasbiy kontekstga ega vaziyatlarni tez modellashtirishga yordam bersa-da, agar topshiriq faqat tayyor javob olishga qaratilgan bo‘lsa, u mustaqil faoliyat o‘rnini bosib qolishi mumkin. Aksincha, o‘sha vosita talabadan yechim variantlarini qiyoslash, ularni asoslash va xatolarni tahlil qilishni talab qiladigan ssenariyda refleksiv-baholovchi hamda faoliyatli-texnologik komponentlarni bir vaqtda rivojlantiradi. Shu bois metodika markaziga texnologiyaning o‘zi emas, balki uni qamrab oluvchi o‘quv topshirig‘ining tuzilishi qo‘yilishi zarur.

3. Metodikani takomillashtirish tamoyillari. Tahlil asosida SI texnologiyalaridan foydalanib kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning quyidagi tamoyillari asoslandi: 1) kasbiy-kontekstuallik — o‘quv topshiriqlari real kasbiy faoliyat mantig‘iga muvofiq loyihalanadi; 2) adaptivlik va individuallashtirish — o‘qitish mazmuni va tempi talabaning individual natijalariga moslanadi; 3) o‘quvchi subyektligining ustuvorligi — SI yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi, kasbiy qaror qabul qilish mas’uliyati talabada saqlanadi; 4) refleksivlik va shaffoflik — topshiriqlarda yakuniy javob emas, balki unga olib boruvchi mulohaza yo‘li va uni asoslash asosiy qiymat kasb etadi; 5) akademik halollik va etik mas’uliyatning integratsiyasi — SI vositalaridan foydalanish qoidalari o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylantiriladi.

4. Amaliyotdagi qarama-qarshiliklar. Oliy ta’lim amaliyoti tahlili quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini berdi: 1) mehnat bozorining raqamli kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyoji bilan kasbiy tayyorgarlik metodikasining an’anaviy, inertsion tashkil etilishi o‘rtasida; 2) SI vositalarining keng didaktik imkoniyatlari bilan ularni maqsadli va tizimli qo‘llash metodikasining ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida; 3) o‘qitishni individuallashtirish zarurati bilan ommaviy ta’limning unifikatsiyalangan tashkiliy shakllari o‘rtasida; 4) sun’iy intellektning tayyor yechim taklif eta olishi bilan mustaqil kasbiy tafakkur va akademik halollikni shakllantirish zarurati o‘rtasida; 5) kompetentlik darajasini obyektiv baholash zarurati bilan raqamli va SI sharoitiga mos diagnostik apparatning yetishmasligi o‘rtasida.

5. Pedagogik shart-sharoitlar va risklar. Ajratilgan qarama-qarshiliklarning sezilarli qismini raqamli ta’lim muhiti va SI vositalaridan maqsadli foydalanish orqali bartaraf etish mumkin. Adaptiv tizimlar individuallashtirish muammosini yumshatadi, o‘quv analitikasi esa yangi diagnostik ko‘rsatkichlarni ochib beradi. Biroq metodikaning samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga rioya etilishiga bog‘liq: o‘quv topshiriqlarining real kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog‘lanishi; o‘qituvchining raqamli va sun’iy intellekt kompetentligi yetarli darajada bo‘lishi [6]; talabalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rag‘batlantiruvchi baholash tizimining mavjudligi; SI vositalaridan foydalanishning shaffof etik qoidalari; hamda tegishli texnik-uslubiy ta’minotning yo‘lga qo‘yilishi.

Ayni paytda SI vositalarini qo‘llash bir qator pedagogik risklarni ham keltirib chiqaradi: tayyor yechimlarning oson olinishi mustaqil izlanish o‘rniga tayyorni qabul qilish odatini shakllantirishi, akademik halollikni ta’minlash murakkablashishi va o‘zlashtirishning yuzaki bo‘lib qolishi mumkin [13]. Bu risklarni bartaraf etishning asosiy yo‘li — topshiriqlarni yakuniy javobga emas, balki unga olib boruvchi mulohaza yo‘li va uni asoslashga yo‘naltirilgan tarzda loyihalash. Bunday yondashuvda sun’iy intellekt talabaning o‘rnini bosuvchi emas, balki uning kasbiy tafakkurini kengaytiruvchi va o‘quv jarayonini shaxsiylashtiruvchi vositaga aylanadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Raqamli ta’lim muhiti va sun’iy intellekt texnologiyalari sharoitida kasbiy kompetentlik tarkibi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-texnologik, kommunikativ-kollaborativ va refleksiv-baholovchi komponentlar bilan boyiydi. SI vositalari kompetentlikning barcha komponentlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, ularning samaradorligi pedagogik loyihalash sifatiga bevosita bog‘liq. Metodikani takomillashtirishning beshta tamoyili va ta’lim amaliyotidagi beshta qarama-qarshilik tadqiqotning yo‘nalishini belgilaydi. Texnologiyalarning o‘zi yechim bo‘la olmaydi: ularning natijadorligi o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi va akademik halollik shartlariga muvofiqligiga bog‘liq. Keyingi tadqiqot yo‘nalishi — kompetentlikni rivojlantirishning strukturaviy-mazmuniy modeli va uni raqamli muhitda amalga oshirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. — URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. — URL: https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. — URL: https://lex.uz
4. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. — Paris: UNESCO, 2023.
5. UNESCO. AI competency framework for students. — Paris: UNESCO, 2024.
6. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — doi:10.2760/159770.
7. Muslimov N.A., To‘laganova S.S. Kasbiy ta’lim jarayonida kompetentlik yondashuv. — Toshkent: Fan, 2019.
8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
9. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. — London: UCL IOE Press, 2018.
10. VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems, and Other Tutoring Systems // Educational Psychologist. — 2011. — Vol. 46(4). — P. 197—221. — doi:10.1080/00461520.2011.611369.
11. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2019. — doi:10.1186/s41239-019-0171-0.
12. Bond M., Khosravi H., De Laat M. et al. A meta systematic review of artificial intelligence in higher education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2024. — doi:10.1186/s41239-023-00436-z.
13. Raqamli ta’lim muhitida akademik halollik va sun’iy intellekt: pedagogik yondashuvlar // Ilmiy xabarlar jurnali. — 2025. — 5(7-C). — B. 418—423.

HUDUDIY MOLIYAVIY VA SOLIQ SALOHIYATINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA UNI BAHOLASH YONDASHUVLARI

Ziyotov Mirobid Ergashovich
Qashqadaryo viloyati soliq boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
https://doi.org/10.5281/zenodo.23260592

Annotatsiya. *Mazkur tezisda hududiy moliyaviy va soliq salohiyatining iqtisodiy mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Moliyaviy salohiyat hududning mavjud va potensial moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, soliq salohiyati esa ushbu imkoniyatlarning budjet daromadlariga safarbar etilishi mumkin bo‘lgan qismi sifatida yoritilgan. Shuningdek, soliq bazasi, soliq tushumlari, investitsiyalar va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslangan hamda hududiy soliq salohiyatini kompleks baholash zarurligi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy salohiyat, soliq salohiyati, soliq bazasi, soliq tushumlari, budjet daromadlari, investitsiya, iqtisodiy faollik.*

Аннотация. *В тезисе проанализированы экономическое содержание и взаимосвязь регионального финансового и налогового потенциала. Раскрыта роль налоговой базы, налоговых поступлений, инвестиций и экономической активности в формировании налогового потенциала региона. Обоснована необходимость комплексной оценки налогового потенциала с учетом основных экономических и фискальных факторов.*

Ключевые слова: *финансовый потенциал, налоговый потенциал, налоговая база, налоговые поступления, бюджетные доходы, инвестиции, экономическая активность.*

Abstract. *This thesis analyzes the economic content and interrelationship between regional financial and tax potential. The role of the tax base, tax revenues, investment, and economic activity in shaping regional tax potential is examined. The study emphasizes the need for a comprehensive assessment of tax potential based on key economic and fiscal factors.*

Keywords: *financial potential, tax potential, tax base, tax revenues, budget revenues, investment, economic activity.*

Kirish

Milliy iqtisodiyotning moliyaviy salohiyati davlat budjeti daromadlari va soliq tushumlari, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari, investitsion resurslar, bank-moliya tizimi imkoniyatlari, kapital bozori vositalari hamda tashqi moliyalashtirish manbalari asosida shakllanadi. Ushbu moliyaviy manbalarning hajmi, tarkibiy tuzilishi va ulardan foydalanish samaradorligi mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, investitsiya jarayonlarini rag‘batlantirish hamda ijtimoiy rivojlanish dasturlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini belgilaydi.

Hududlar kesimida moliyaviy salohiyat, avvalo, mahalliy budjetlarning daromad bazasi, hududda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, aholi daromadlari, investitsion jozibadorlik, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati va hududdagi umumiy iqtisodiy faollik kabi omillar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur omillarning rivojlanganlik darajasi hududning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini

kengaytirish hamda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy salohiyat mamlakat va hududlarning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib, unda mavjud moliyaviy resurslarni safarbar qilish va ulardan oqilona foydalanish imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, hududning moliyaviy salohiyati uning iqtisodiy mustaqillik darajasini ta’minlash, shuningdek, mahalliy rivojlanish dasturlarini moliyaviy jihatdan amalga oshirish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Moliyaviy salohiyatning yetarli darajada shakllanishi iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash va hududlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda moliyaviy resurslarning barqaror shakllantirilishi va samarali boshqarilishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish hamda davlatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini moliyaviy ta’minlash uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Moliyaviy salohiyatni gorizontal tasniflanishi va uning asosiy elementlari [1].

Shunday qilib, moliyaviy salohiyat iqtisodiy tizimda moliyaviy resurslarni shakllantirish, safarbar etish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Uning hajmi va tarkibiy tuzilishi davlat hamda hududlarning fiskal imkoniyatlarini, shu jumladan, soliq tushumlarini shakllantirish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli moliyaviy salohiyatning soliq salohiyati bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganish soliq salohiyatini baholashning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan L. Bo‘ronova moliyaviy salohiyatni soliq salohiyatining moddiy asosi sifatida baholab, uni qamrov darajasiga ko‘ra davlat, hudud, tarmoq va alohida xo‘jalik yurituvchi subyekt miqyosida guruhlaydi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, soliq salohiyatini ham tegishli darajalarda, ya’ni milliy iqtisodiyot, hudud, tarmoq hamda alohida

korxona doirasida ko‘rib chiqish mumkin. Bu esa moliyaviy va soliq salohiyatini turli iqtisodiy darajalarda o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy va soliq salohiyatining o‘zaro nisbatini yanada aniqroq ifodalash maqsadida ularning mazmuni, shakllanish manbalari, funksiyalari va hududiy rivojlanishga ta’siri quyidagi jadvalda taqqoslangan..

1-jadval

Soliq salohiyati va moliyaviy salohiyatning o‘zaro bog‘liqligi[86]

Mazmun yo‘nalishlari	Soliq salohiyati (Tax Capacity)	Moliyaviy salohiyat (Financial Capacity)	O‘zaro bog‘liqlik mazmuni
Ta’rif	Iqtisodiyotning maksimal darajada yig‘ilishi mumkin bo‘lgan soliq resurslari	Hudud yoki davlatning moliyalashtirish va rivojlanish imkoniyatlari	Soliq salohiyati – moliyaviy salohiyatning asosiy manbai
Manba	Soliq bazasi, YaIM, korxonalar faoliyati, aholi daromadlari	Budjet daromadlari, kredit imkoniyatlari, investitsiya, aktivlar	Soliq salohiyati ortishi moliyaviy salohiyatni kuchaytiradi
Ahamiyat	Soliq bazasini aniqlash, soliq siyosati samaradorligini baholash	Infratuzilma, ijtimoiy dasturlar, investitsiyani ta’minlash	Soliq salohiyati yuqori hududlarda moliyaviy salohiyat ham kuchli bo‘ladi
Funksiya	Davlat budjetga barqaror tushumlar shakllantirish	Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, xarajatlarni qoplash	Moliyaviy barqarorlik soliq salohiyatiga to‘liq bog‘liq
Tarkibiy qismlar	Soliq bazasi, soya iqtisodiyoti darajasi, ma’murchilik sifat	Budjet daromadlari, kreditlar, investitsion zaxiralar	Soliq bazasini kengaytirish moliyaviy zaxiralarni oshiradi
Hudud rivojiga ta’siri	Korxonalar soni va iqtisodiy faollik oshishi bilan soliq tushumlari ko‘payadi	Infratuzilma rivojlanadi, investitsiya kirishi ortgani uchun iqtisod yuksaladi	Infratuzilma→ishlab chiqarish→soliq tushumlari→moliyalash→qayta rivojlanish sikli
O‘lchash usuli	“Tax capacity”, “Tax effort”, RTS modeli, soliq bazasi tahlili	Budjet balansi, investitsiya hajmi, kredit reytingi, moliyaviy resurslar	Har ikkisi iqtisodiy potensialni baholovchi indikator sifatida qo‘llaniladi

[86] Jurayev X.A. Soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.

Mazmun yo‘nalishlari	Soliq salohiyati (Tax Capacity)	Moliyaviy salohiyat (Financial Capacity)	O‘zaro bog‘liqlik mazmuni
Natija	Soliq tushumlarini maksimallashtirish imkoniyati	Davlat programmalarini moliyalashtirish qudrati	Soliq salohiyati past bo‘lsa → moliyaviy salohiyat ham cheklanadi
Xavflar	Soya iqtisodiyoti, imtiyozlar, ma’murchilikdagi kamchilikla	Budjet tanqisligi, qarz oshishi, investitsiya kamayishi	Soliq salohiyati pasayishi moliyaviy xavfni kuchaytiradi
Ilmiy xulosa	Soliq salohiyati – iqtisodiy resurslarning fiskal ifodasi	Moliyaviy salohiyat – iqtisodiy qudratning moliyaviy ifodasi	Ikkalasi ham hudud iqtisodiy qudratining egizi va bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar

Soliq salohiyati moliyaviy salohiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u davlat va mahalliy budjetlarga safarbar etilishi mumkin bo‘lgan soliq tushumlari hajmi hamda ularni undirish imkoniyatlarini ifodalaydi. Moliyaviy salohiyat esa mazmunan kengroq kategoriya bo‘lib, milliy iqtisodiyot, hudud, tarmoq yoki alohida xo‘jalik yurituvchi subyekt darajasida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud va potensial moliyaviy resurslar hamda moliyalashtirish imkoniyatlarini qamrab oladi. Xususan, tadbirkorlik subyektlari miqyosida u ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash va foyda olish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirishning moddiy asosini tashkil etadi.

Davlat miqyosida moliyaviy salohiyat aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda strategik vazifalarni amalga oshirish uchun safarbar etilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy resurslarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, moliyaviy salohiyat davlatning barcha mavjud va potensial moliyaviy imkoniyatlarini qamrab oluvchi keng kategoriyani anglatadi. Soliq salohiyati esa mavjud iqtisodiy baza asosida shakllanishi va fiskal mexanizmlar orqali budjetga safarbar etilishi mumkin bo‘lgan soliq tushumlarining potensial hajmini tavsiflaydi. Demak, mazkur ikki kategoriya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, moliyaviy salohiyat qamrovi jihatidan kengroq bo‘lib, soliq salohiyati uning muhim fiskal tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy salohiyat iqtisodiyotning mavjud va potensial moliyaviy imkoniyatlarini qamrab olsa, soliq salohiyati ushbu imkoniyatlarning fiskal mexanizmlar orqali davlat va mahalliy budjetlarga safarbar etilishi mumkin bo‘lgan qismini ifodalaydi. Shu sababli soliq salohiyatini baholashda nafaqat amaldagi soliq tushumlari, balki mavjud iqtisodiy va moliyaviy resurslarning soliqqa tortilishi mumkin bo‘lgan qismini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish va soliq ma’murchiligini takomillashtirish orqali mavjud moliyaviy resurslarning fiskal resurslarga aylanish darajasini oshirish mumkin.

Mazkur yondashuv moliyaviy va soliq salohiyatining bir tomonlama emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi kategoriyalar ekanligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, moliyaviy salohiyatning kengayishi yangi xo‘jalik faoliyati, investitsiyalar va daromad manbalarining shakllanishi orqali soliqqa tortish bazasini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, soliq tushumlarining budjetda

jamlanishi davlat xarajatlari va investitsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirib, iqtisodiy faollikning kuchayishiga hamda yangi moliyaviy resurslarning vujudga kelishiga sharoit yaratadi.

Xususan, budjetga safarbar etilgan soliq tushumlarining iqtisodiyotga qayta yo‘naltirilishi real sektor ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi korxonalar va infratuzilma obyektlarini barpo etish hamda qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Natijada yangi soliq obyektlari va soliq bazalarining yuzaga kelishi soliq salohiyatining kengayishiga olib keladi. Shu ma’noda, moliyaviy va soliq salohiyati o‘rtasidagi munosabatni “moliyaviy resurslar – soliq bazasi – soliq tushumlari – budjet xarajatlari va investitsiyalar – iqtisodiy faollik – yangi soliq bazasi” ketma-ketligida ifodalash mumkin.

Demak, moliyaviy va soliq salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doiraviy xarakterga ega bo‘lib, ularning rivojlanishi hudud va davlatning iqtisodiy faolligi, investitsion imkoniyatlari hamda fiskal siyosat samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois soliq salohiyatini oshirishda soliq yukini mexanik ravishda kuchaytirishdan ko‘ra, mavjud iqtisodiy bazani kengaytirish, yangi soliq manbalarini shakllantirish va moliyaviy resurslarning samarali aylanishini ta’minlash muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonlarni samarali boshqarish hududlarning moliyaviy mustaqilligi va budjet barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, moliyaviy salohiyat va soliq salohiyati o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan, biroq iqtisodiy mazmuni va qamrovi jihatidan farqlanuvchi kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Moliyaviy salohiyat hudud yoki davlatning mavjud va potensial moliyaviy resurslarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini ifodalasa, soliq salohiyati mazkur imkoniyatlarning fiskal mexanizmlar orqali budjet daromadlariga safarbar etilishi mumkin bo‘lgan qismini tavsiflaydi. Shu sababli hududlarning soliq salohiyatini faqat amaldagi soliq tushumlari hajmi asosida baholash ularning real fiskal imkoniyatlarini to‘liq aks ettirmaydi.

Shundan kelib chiqib, hududiy soliq salohiyatini baholashda amaldagi soliq tushumlari bilan bir qatorda soliq bazasining hajmi va tarkibi, hududdagi iqtisodiy faollik darajasi, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlari, investitsion faollik, yashirin iqtisodiyot ko‘lami hamda soliq ma’murchiligi samaradorligini kompleks hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv hududning mavjud fiskal natijalari bilan uning potensial soliq imkoniyatlarini farqlash, soliq salohiyatidan foydalanish darajasini aniqlash va uni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv asosida soliq salohiyatini hududning moliyaviy salohiyatini shakllantiruvchi va kengaytiruvchi omillar bilan o‘zaro bog‘liq holda baholash, ya’ni «moliyaviy resurslar – soliq bazasi – soliq tushumlari – budjet xarajatlari va investitsiyalar – iqtisodiy faollik – yangi soliq bazasi» ko‘rinishidagi takror ishlab chiqarish zanjiri orqali tahlil qilish taklif etiladi. Bu esa soliq salohiyatini statik ko‘rsatkich sifatida emas, balki hudud iqtisodiy rivojlanishi bilan birgalikda shakllanib va kengayib boruvchi dinamik iqtisodiy kategoriya sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bo‘ronova L.V. Hududlarning moliyaviy salohiyatini baholash va mahalliy byudjetlarning daromadlarini mustahkamlash masalalari (Surxondaryo viloyati misolida). Monografiya. — Toshkent, 2022. — 32 b.

2. Jurayev X.A. Soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.
3. Abdullaev Z. Issues of Assessing the Tax Potential of the Region // Economics and Innovative Technologies. — 2023. — Vol. 11, No. 3. — DOI: 10.55439/EIT/vol11_iss3/i38. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар
4. Teshabaev T.Z., Allayarov Sh.A., Yuldasheva U.A. Indicators of Tax Potential of Regions in Financial Security and Its Determining Factors // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. — 2021. — Vol. 8, No. 12. ijmmu.com
5. Kazbekova Zh., Kalmakova D. Theoretical Approaches to the Determination of Tax Potential // Journal of Economic Research & Business Administration. — 2017. — Vol. 120, No. 2. — P. 210–216. be.kaznu.kz
6. Basnukaev M.Sh., Mambetova A.A., Tuskaeva M.R. Tax Capacity Assessment: Approaches and Methods // European Proceedings. — 2022. Европейские Труды
7. Ismoilov M. The Role of the Tax Potential of the Regions in Ensuring Financial Stability // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2024. O‘zbekiston Elektron Ilmiy Kutubxonasi
8. Ergashev U. Regional Tax Potential: Assessment Methodology and Practice (Case of Uzbekistan) // American Journal of Economics and Business Management. — 2025. — Vol. 8, No. 12. — P. 6554–6560. — DOI: 10.31150/ajebm.v8i12.4362. Scientific Journal Repository
9. Benitez J.C., Mansour M., Pecho M., Vellutini C. Building Tax Capacity in Developing Countries // IMF Staff Discussion Note. — 2023. — SDN/2023/006. — DOI: 10.5089/9798400246098.006. IMF
10. Lemgruber A., Mansour M., Sawadogo F., Takebe M., Vellutini C. et al. Building Tax Capacity for Growth and Development: Evidence-Based Analysis for Mobilizing Domestic Revenue // IMF Departmental Paper. — 2025. — No. 007. — DOI: 10.5089/9798229027298.087. IMF
11. Atsebi J.-M., Gueorguiev N., Nose M. Enhancing Tax Capacity: Revenue Gains from Strengthening Tax Administration // IMF Working Papers. — 2025. — No. 219. — DOI: 10.5089/9798229029827.001.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ УСЛОВИЙ ДИФФУЗИОННОГО ЛЕГИРОВАНИЯ НА МАГНИТНОЕ УПОРЯДОЧЕНИЕ КРЕМНИЯ, ЛЕГИРОВАННОГО Mn И Ge

Зикриллаев Н.Ф. Абдкрахманов Б.А. Кушиев Г.А. Казаков Т.О.
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова,
Узбекистан 100095, Узбекистан, Ташкент, ул. Университета 2
https://doi.org/10.5281/zenodo.23266894

В настоящее время одним из перспективных направлений полупроводникового материаловедения является развитие спинтроники, позволяющей управлять электрическими и магнитными свойствами материалов. Особый интерес представляет получение кремниевых систем с устойчивым магнитным упорядочением при комнатной температуре. Примесь марганца (Mn) привлекает внимание благодаря своему магнитному моменту, однако его диффузия и растворимость в кремнии сильно зависят от технологических условий. В данной работе исследовано совместное введение марганца и германия (Ge) в кремниевую матрицу. Атомы германия, обладая большим радиусом, создают локальные напряжения в кристаллической решётке, что влияет на диффузию и распределение атомов Mn. Проведён анализ влияния условий диффузионного легирования на магнитные и фотоэлектрические свойства системы Si<MnGe>. Методы SEM и EDS позволили изучить морфологию поверхности и состав, а также определить роль Ge в формировании кластеров Mn




Рис.1 Зависимость ОМС от магнитного поля в образцах p-Si<GeMn> , при E=100 В/см, а)T=77K, б)T=300K

Установлено, что в образцах наблюдается эффект отрицательного магнитосопротивления: с ростом магнитного поля B относительное сопротивление Δρ/ρ уменьшается.

Эксперименты, проведённые при температурах 80 K и 300 K, показали характерные особенности отрицательного магнитосопротивления (ОМС) в образцах Si<GeMn>. При низкой температуре (80 K) эффект ОМС достигает 32–33%, что объясняется более упорядоченным выравниванием магнитных моментов ионов марганца во внешнем поле и снижением рассеяния носителей заряда. Локальные упругие напряжения, создаваемые атомами германия в кремниевой решётке, способствуют кластеризации атомов марганца и

формированию устойчивого ферромагнитного порядка. Практическая значимость работы заключается в том, что даже при комнатной температуре (300 K) эффект ОМС сохраняется на уровне около 24%. Это свидетельствует о формировании стабильного магнитного состояния за счёт взаимодействия марганца и германия и расширяет перспективы применения материала в спинтронных устройствах.

Морфология поверхности и элементный состав образцов были исследованы с помощью сканирующего электронного микроскопа Jeol JSM-IT200LA. SEM-изображения (рис. 2а) показали образование микронеоднородностей и кластеров на поверхности кремния после диффузии, что связано с перераспределением атомов марганца и германия.




рис.2. Элементный состав легированного кремния примесными атомами германия и марганца

Результаты EDS-анализа подтвердили элементный состав образца: основную матрицу составляет кремний (52,45%), также присутствуют марганец (21,96%) и германий (0,29%). Высокая концентрация марганца способствует формированию выраженных магнитных свойств, тогда как даже небольшое количество германия играет важную роль, создавая локальные упругие напряжения в кристаллической решётке и влияя на упорядоченное распределение атомов марганца. Полученные количественные данные свидетельствуют о формировании качественной магнитной полупроводниковой системы в результате диффузии. Наличие

углерода и кислорода объясняется взаимодействием поверхности образца с атмосферой и фоновыми эффектами в камере микроскопа. Установлено, что выбранные условия диффузии обеспечивают образование в кремнии высококонцентрированных магнитных центров на основе марганца. Атомы германия способствуют кластеризации марганца и формированию стабильных магнитных центров. Под воздействием внешнего магнитного поля наблюдается эффект отрицательного магнитосопротивления, сохраняющийся даже при комнатной температуре, что указывает на высокий уровень магнитного упорядочения материала. Кроме того, в легированных образцах отмечено увеличение фотопроводимости в инфракрасной области, обусловленное взаимодействием глубоких энергетических уровней марганца и магнитных кластеров. В целом система Si<MnGe> представляет собой многофункциональный материал с сочетанием магнитных и оптических свойств, перспективный для применения в спинтронике и высокочувствительных сенсорных технологиях.

ЛЕТЕРАТУРЫ

1. Zikrillaev N.F., Koveshnikov S. Isamov S.B., Abdurakhmanov B.A., Kushiev

2. G.A. Spectral Dependence of the Photoconductivity of Ge_xSi_{1-x} Type Graded-Gap Structures Obtained by Diffusion Technology// Semiconductors, 2022, Vol. 56, No. 1, pp. 29-31
3. Зикриллаев Н.Ф., Кушиев Г.А., Ш.И.Хамрокулов, О.Б. Турсунов. Диффузион технология билан Ge_xSi_{1-x} асосида гетеро ва варизон структура ҳосил қилиш ва унинг оптик хусусиятларини ўрганиш//“Ilim ha`m ja`miyet” Нукус, (2023). № 1 31-32, 2022.
4. Зикриллаев Н.Ф, Кушиев Г.А., Абдурахмонов Б.А, Қурбонова Ў.Х, Вахобов Қ.У. GexSi1–x Бирикмалари мавжуд кремний материали олишнинг истиқболлари //Журнала Доклады Академии наук Республики Узбекистан (ДАН) №5, 2022 г. Стр.21-26.
5. N.F. Zikrillayev, F.E. Urakova, A.R. Toshev, G.A. Kushiyev, T.B. Ismailov, N. Norkulov. Physical and magnetic Properties of silicon doped with impurity germanium atoms// No 1. 2025.pp.184-189

BO‘LAJAK MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Ilhomova Sadoqat Ulug‘bek qizi
Qo‘qon davlat universiteti matematika kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
Qo‘qon, O‘zbekiston
Orcid: 0009-0005-2997-9245
https://doi.org/10.5281/zenodo.23282393

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati ko‘rib chiqildi. 2021–2025-yillarda xalqaro nashrlarda e’lon qilingan sakkizta manba, ikkita asosiy ramka va uchta milliy me’yoriy hujjat tahlil qilindi. DigCompEdu, HeDiCom, TPACK va YuNESKOning pedagoglar uchun sun’iy intellekt kompetensiyalari ramkalari taqqoslanib, ularning kesishuvi aniqlandi. Olti raqamli texnologiya guruhi matematika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatining to‘rt tarkibiy qismi bilan moslashtirildi va har bir guruhning matematik tushunchalarni vizuallashtirish, masala yechish, modellashtirish, baholash va refleksiya jarayonlaridagi amaliy ahamiyati baholandi. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilari tayyorgarligidagi asosiy bo‘shliq raqamli ko‘nikma bilan uni sinalgan pedagogik yechimga aylantirish qobiliyati o‘rtasidagi uzilish ekani belgilandi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik; sun’iy intellekt; oliy ta’lim; DigCompEdu; TPACK; immersiv o‘qitish.*

Abstract*. The article discusses the practical importance of using digital technologies in preparing future mathematics teachers for innovative activities. Eight sources, two main frameworks, and three national normative documents were analyzed. The DigCompEdu, HeDiCom, TPACK, and UNESCO AI competency frameworks for teachers were compared. Six groups of digital technologies were aligned with four components of mathematics teachers’ innovative activity, with attention to visualizing mathematical concepts, problem solving, mathematical modeling, assessment, and reflection. The main gap was identified as the disconnect between digital skills and the ability to transform them into tested pedagogical solutions in mathematics lessons.*

Keywords: *professional competence; artificial intelligence; higher education; DigCompEdu; TPACK; immersive learning.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar matematika ta’limining mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllarini o‘zgartirmoqda. Bugungi matematika o‘qituvchisidan tayyor elektron vositani ishlatish bilan cheklanmasdan, matematik tushunchalarni vizuallashtirish, murakkab masalalarni modellashtirish, interaktiv topshiriqlar yaratish, yangi pedagogik yechimni loyihalash, sinab ko‘rish va natijasini baholash talab qilinadi. Shu sababli pedagogik ta’lim muassasalarining vazifasi bo‘lajak matematika o‘qituvchisini oddiy raqamli vosita foydalanuvchisi sifatida emas,

matematika ta’limida innovatsion faoliyatni amalga oshira oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga qaratilmoqda.

O‘zbekistonda bu yo‘nalish davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ta’lim kabi sohalarga keng joriy etish vazifalarini belgiladi. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (PF-5847) hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (PF-158) bu yo‘nalishni davom ettirdi. Strategik maqsadlarni auditoriya amaliyotiga aylantirish uchun oliy pedagogik ta’lim darajasida aniq kompetensiyalar bilan ularni shakllantiruvchi texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilash zarur.

Xalqaro tadqiqotlar pedagoglarning raqamli kompetentligini ta’lim sifatining muhim omili sifatida ko‘rsatmoqda. Yevropa Komissiyasining DigCompEdu ramkasi pedagoglar uchun 22 ta raqamli kompetensiyani olti yo‘nalishda tavsiflaydi. Tondeur va hammualliflari oliy ta’lim o‘qituvchilari uchun to‘rt o‘lchovli HeDiCom (Higher Education Digital Competence) ramkasini ishlab chiqdi [2, b. 33–53]. Sailer va hammualliflari o‘qituvchilarning o‘zi baholagan texnologiya bilan o‘qitish ko‘nikmalari munosabatlarga qaraganda o‘quvchilarning faol, konstruktiv va interaktiv faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ko‘proq hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatdi.

2022-yil oxirida ChatGPT’ning paydo bo‘lishi muhokamaga yangi o‘lchov qo‘shdi. Mishra va hammualliflari TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge – texnologik pedagogik fan bilimi) ramkasini [4, b. 60–70] generativ sun’iy intellekt davri uchun qayta ko‘rib chiqdi va bu texnologiyaning generativ hamda ijtimoiy xususiyatga ega ekanini belgiladi [5, b. 235–251].

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining tayyorgarligiga oid dalillar cheklangan, ammo muhim. Lucas va hammualliflari Portugaliya va Ispaniyadagi 203 nafar bo‘lajak matematika o‘qituvchisining sun’iy intellektni kelajakdagi amaliyotga kiritishga tayyorligini solishtirib, ikkala mamlakatda ham ular to‘liq tayyor emasligini aniqladi. O‘zbekistonda Abdurashidova va hammualliflari Toshkent davlat texnika universitetidagi 300 nafar respondent orasida so‘rov o‘tkazib, ularning 83 foizi raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini e’tirof etganini qayd etdi. Immersiv muhitlar bo‘yicha Makransky va Petersen virtual voqelikda o‘rganish jarayonini qiziqish, motivatsiya, o‘ziga ishonch, o‘zini virtual tanada his qilish, kognitiv yuklama va o‘z-o‘zini boshqarish kabi olti omil bilan tavsiflovchi nazariy modelni taklif qildi [10, b. 937–958].

Mavjud tadqiqotlarning ko‘pchiligi raqamli kompetentlikning o‘zini tavsiflash bilan cheklanadi. Raqamli texnologiya guruhlarini aynan matematika o‘qituvchisining innovatsion faoliyati tarkibiy qismlari bilan bog‘lovchi amaliy tizim esa tahlil qilingan manbalarda yetarli darajada yoritilmagan. Shu bo‘shliqni to‘ldirish uchun ushbu maqola xalqaro tajriba va milliy kontekstni birlashtiradi. Maqolaning maqsadi – bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyatini ochib berish, raqamli vositalarning matematik mazmunni tushuntirish, masala yechish, modellashtirish, baholash va refleksiya jarayonlaridagi o‘rnini aniqlash hamda tayyorgarlikning amaliy modelini tavsiflash.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot tahliliy-sintetik sharh turida bajarildi. Sharh bo‘lajak matematika o‘qituvchilari tayyorgarligidagi raqamli texnologiyalarning amaliy ahamiyatiga oid nazariy va amaliy dalillarni

umumlashtirishga qaratildi. Muallif birlamchi so‘rov yoki tajriba o‘tkazmadi; shu sababli maqola eksperimental emas, sharh maqolasi hisoblanadi.

Tahlilga 2021–2025-yillarda xalqaro nashrlarda e’lon qilingan sakkizta manba, ikkita asosiy ramka [1; 4, b. 60–70] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining uchta me’yoriy hujjati kiritildi. Manbalar to‘rtta mezon bo‘yicha tanlandi: nashr yili 2021–2025; mavzu o‘qituvchilar, bo‘lajak o‘qituvchilar yoki oliy ta’limda raqamli kompetentlik va sun’iy intellektga bag‘ishlangani; matn ingliz tilida bo‘lgani; raqamli ob’ekt identifikatori (DOI) mavjud yoki hujjat rasmiy bo‘lgani. Har bir manbaning bibliografik ma’lumotlari va DOI raqami nashriyot yozuvlari hamda ochiq repozitoriylar orqali tekshirildi.

Tanlash tizimli sharh protokoli bo‘yicha emas, maqsadli tanlov asosida o‘tdi. Bu qaror sohaning tez o‘zgarishi bilan izohlanadi: sun’iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar tez ko‘payib borgani uchun muallif nufuzli xalqaro jurnallarda va YuNESKO nashrida chop etilgan manbalarni ustun qo‘ydi.

Tahlil usullari

Uch usul qo‘llandi. Birinchidan, kontent-tahlil har bir manbadan tadqiqot maqsadi, ob’ekti va asosiy topilmani ajratib oldi. Ikkinchidan, ramkalarni taqqoslash DigCompEdu, HeDiCom, TPACK va YuNESKOning pedagoglar uchun sun’iy intellekt kompetensiyalari ramkasi tarkibining kesishuvini aniqladi. Uchinchidan, kontseptual modellashtirish raqamli texnologiya guruhlarini innovatsion faoliyat tarkibiy qismlari bilan moslashtirdi.

Ushbu maqolada innovatsion faoliyat deganda bo‘lajak matematika o‘qituvchisining matematik mazmun va o‘quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib yangi yoki moslashtirilgan pedagogik yechimni loyihalash, matematika darsida joriy etish, natijalarini baholash hamda tajribasi haqida mulohaza yuritib, uni hamkasblar bilan ulashish jarayoni tushuniladi. Natijalarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan bir necha xato manbasi mavjud. Birinchidan, maqsadli tanlov muallifning sub’ektiv qarori bilan bog‘liq. Ikkinchidan, tanlov ingliz tilidagi nashrlar bilan cheklangani sababli o‘zbek va rus tilidagi tadqiqotlar to‘liq qamralmadi. Uchinchidan, ilmiy nashrlarda muvaffaqiyatli natijalar ko‘proq e’lon qilinadi, shuning uchun texnologiyalarning afzalligi bo‘rttirilgan ko‘rinishi ehtimoli bor. To‘rtinchidan, tahlil qilingan ko‘plab natijalar respondentlarning o‘zi baholagan ko‘rsatkichlariga tayanadi. Beshinchidan, generativ sun’iy intellekt sohasi tez o‘zgarayotgani sababli ba’zi xulosalar qisqa muddatda eskirishi mumkin.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tahlil innovatsion faoliyatni to‘rt tarkibiy qismga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi: matematika darsini loyihalash, joriy etish, o‘quv natijalarini baholash hamda refleksiya va tajribani ulashish. Bu bo‘linish DigCompEdu yo‘nalishlari bilan mos keladi: “o‘qitish va o‘rganish” yo‘nalishi matematik mavzu bo‘yicha raqamli dars va topshiriqlarni loyihalash hamda joriy etishni, “baholash” yo‘nalishi o‘quvchilarning matematik natijalarini tahlil qilishni, “kasbiy faollik” yo‘nalishi esa refleksiya va hamkorlikni qamrab oladi [1]. HeDiCom ramkasining “o‘qitish amaliyoti” va “kasbiy rivojlanish” o‘lchovlari ham shu tarkibga mos tushadi [2, b. 33–53].

To‘rt qism bir-biridan alohida turmaydi, tsikl hosil qiladi: refleksiya natijasi yangi loyihalash bosqichining boshlang‘ich nuqtasiga aylanadi. Bo‘lajak matematika o‘qituvchisi bu tsiklni pedagogik amaliyot davomida bir necha marta takrorlasa, raqamli vosita kasbiy tajribaning ajralmas qismiga aylanadi. Innovatsion loyihalash texnologiya, pedagogika va matematik mazmun bilimlarining kesishuvini talab qiladi [4, b. 60–70]. Shu sababli

texnologiyani alohida kompyuter savodxonligi kursida o‘rgatish bilan bir qatorda, matematika o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlariga ham kiritish mantiqan asoslangan.

Tahlil qilingan manbalar asosida raqamli texnologiyalar olti guruhga ajratildi va har biri innovatsion faoliyatning mos tarkibiy qismi bilan bog‘landi (1-jadval).

1-jadval

Raqamli texnologiya guruhlari, ularning innovatsion faoliyat tarkibiy qismlari bilan bog‘liqligi va amaliy ahamiyati

Texnologiya guruhi	Faoliyat qismi	Bo‘lajak matematika o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyat	Asosiy xavf
O‘quv jarayonini boshqarish tizimlari va aralash o‘qitish muhitlari	Joriy etish	Bir mavzu bo‘yicha onlayn va auditoriya mashg‘ulotlarini uyg‘unlashtirgan modul yaratish va uning ishlashini kuzatish	Infratuzilma va internet sifatiga bog‘liqlik
Interaktiv kontent yaratish vositalari	Loyihalash	Matematik tushunchalarni faol o‘zlashtirish, masala yechish va interaktiv faoliyatni yo‘lga qo‘yadigan topshiriqlarni tayyorlash	Vosita shakli pedagogik maqsaddan ustun kelishi
Baholash va o‘quv tahlili vositalari	Baholash	Formativ baholash ma’lumotlariga tayanib matematika darsini tuzatish va o‘quvchilarning matematik rivojlanishini kuzatish	Ma’lumotlar maxfiyligi va natijalarni noto‘g‘ri talqin qilish
Immersiv va simulyatsion muhitlar	Joriy etish va refleksiya	Real sinfga chiqishdan oldin virtual muhitda matematika mikro-darsini sinab ko‘rish	Yuqori xarajat va kognitiv yuklama
Generativ sun’iy intellekt	Loyihalash va baholash	Matematika darsi rejasi, masala va topshiriq hamda teskari aloqa qoralamasini tez yaratish va matematik jihatdan tanqidiy tekshirish	Noto‘g‘ri axborot, ortiqcha ishonish, akademik halollik
Hamkorlikdagi bulutli vositalar	Refleksiya va ulashish	Matematika darsi materiallarini hamkasblar bilan birgalikda yaratish, portfolio yuritish va tajriba almashish	Mualliflik va ma’lumotlar xavfsizligi

Birinchi guruh – o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari va aralash o‘qitish muhitlari – bo‘lajak matematika o‘qituvchisiga yangi yechimni real o‘quv muhitida joriy etish uchun tayyor infratuzilma beradi. Abdurashidova va hammualliflari Toshkent davlat texnika universitetida 300 nafar respondent orasida o‘tkazgan so‘rovda 83 foiz ishtirokchi raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini e’tirof etdi, 72 foizi foydali raqamli resurslarga kirish imkoniyatini bildirdi, 68 foizi esa universitetni innovatsion muassasa deb baholadi. Bu natijalar

respondentlarning sub’ektiv fikrini aks ettiradi va bitta universitetga tegishli. Shu sababli ularni sababiy bog‘liqlik dalili sifatida emas, qulay muhit mavjudligining ko‘rsatkichi sifatida baholash o‘rinli.

Ikkinchi guruh – interaktiv kontent yaratish vositalari – matematika darsini loyihalash bosqichiga xizmat qiladi. Sailer va hammualliflarning topilmasiga ko‘ra, o‘qituvchining o‘zi baholagan texnologiya bilan o‘qitish ko‘nikmalari o‘quvchilarning faol, konstruktiv va interaktiv faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan; mualliflarning xulosasiga ko‘ra, munosabatlarga qaraganda aynan ko‘nikmalar o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ko‘proq hissa qo‘shishi mumkin. Bundan amaliy tavsiya kelib chiqadi: bo‘lajak matematika o‘qituvchilariga interaktiv vositalarni nazariy tanishuv orqali emas, aniq matematik faoliyatni loyihalash orqali o‘rgatish kerak. Ya’ni talaba vositaning o‘zini emas, o‘quvchi bajaradigan faoliyatni, masalan, grafik qurish, funksiyani tadqiq etish, geometrik shaklni modellashtirish yoki masalani bir necha usulda yechishni loyihalaydi.

Uchinchi guruh – baholash va o‘quv tahlili vositalari. Bond va hammualliflarning ma’lumotiga ko‘ra, oliy ta’limdagi sun’iy intellekt sharhlarining 28,8 foizi profil tuzish va bashorat qilishga bag‘ishlangan, asosiy topilmalar esa moslashuvchan tizimlar va shaxsiylashtirishning ustunligini ko‘rsatgan. Bu bo‘lajak matematika o‘qituvchisi uchun test, masala yechimi va formativ baholash ma’lumotlarini tahlil qilib, qaysi matematik tushuncha yoki ko‘nikmada qiyinchilik mavjudligini aniqlash hamda darsni tuzatish ko‘nikmasi muhimligini bildiradi. Shu bilan birga, xuddi shu sharh axloq, hamkorlik va tadqiqot qat’iyligini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Binobarin, baholash vositalarini o‘rgatishda ma’lumotlar maxfiyligi va natijalarni tanqidiy talqin qilish alohida mavzu bo‘lishi lozim.

To‘rtinchi guruh – immersiv va simulyatsion muhitlar. Makransky va Petersen modeliga ko‘ra, boshqa vositalarda sinalgan o‘qitish usullari immersiv muhitda ham ishlaydi, biroq vosita va usul o‘zaro ta’sir qiladi, ya’ni muhitning o‘zi emas, undan qanday foydalanish natijani belgilaydi [10, b. 937–958]. Amaliy ahamiyati shundaki, bo‘lajak matematika o‘qituvchisi real sinfga chiqishdan oldin simulyatsiya qilingan muhitda matematika mikro-darsini sinab ko‘rishi mumkin; bu muallifning taklifi bo‘lib, model o‘zi nazariy xarakterga ega va matematika o‘qituvchisini tayyorlash sharoitida empirik sinovni talab qiladi.

Beshinchi guruh – generativ sun’iy intellekt – alohida muhokamaga loyiq va keyingi bo‘limda yoritiladi. Oltinchi guruh – hamkorlikdagi bulutli vositalar – refleksiya va ulashish bosqichini qo‘llab-quvvatlaydi. DigCompEdu “kasbiy faollik” yo‘nalishi hamkasblar bilan hamkorlik va refleksiv amaliyotni kasbiy kompetensiya sifatida ajratadi, HeDiCom esa kasbiy rivojlanishni alohida o‘lchov sifatida belgilaydi [2, b. 33–53]. Bulutli hujjat va portfolio vositalari bu faoliyatni ko‘rinadigan va tekshiriladigan qiladi. Tanlangan manbalarda bu guruhning alohida empirik baholanishi kam uchradi, shu sababli unga oid xulosa ramkalarga tayanadi.

Generativ sun’iy intellekt va pedagogik bilim

Generativ sun’iy intellekt 2022-yildan beri matematika o‘qituvchisini tayyorlashga eng kuchli ta’sir qilayotgan texnologiya guruhi bo‘ldi.

Mishra va hammualliflar TPACK ramkasining texnologik, pedagogik, mazmuniy va kontekstual bilim sohalari generativ sun’iy intellekt ta’sirida qayta ko‘rib chiqilishi kerakligini ko‘rsatdi. Mualliflar bu texnologiyaning boshqa raqamli vositalar bilan umumiy xususiyatlarini (ko‘p shaklli, noaniq va beqaror ekanini) hamda yangi xususiyatlarini (generativ va ijtimoiy ekanini) ajratdi, kontekstual bilimni esa texnologiyaning jamiyatga ta’sirini ham qamrab

oladigan darajada kengaytirishni taklif qildi [5, b. 235–251]. Bu bo‘lajak matematika o‘qituvchisi uchun ikki oqibat beradi. Birinchisi, sun’iy intellekt natijasini matematik mazmun va pedagogik maqsad bo‘yicha tekshirish ko‘nikmasi kasbiy bilimning bir qismiga aylanadi. Ikkinchisi, texnologiya endi passiv vosita emas, o‘quv jarayonidagi faol ishtirokchiga o‘xshab ta’sir qiladi. YuNESKO ramkasi bu o‘zgarishni “o‘qituvchi – sun’iy intellekt – o‘quvchi” munosabati sifatida tavsiflaydi va 2022-yilgacha atigi yettita davlat pedagoglar uchun sun’iy intellekt ramkasi yoki kasbiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqqanini qayd etadi.

Shu dalillar asosida bo‘lajak matematika o‘qituvchilari uchun uch qatlamli ko‘nikma tavsiya etiladi: birinchi qatlam – sun’iy intellektdan matematika darsi rejasi, masala va topshiriqlar qoralamasini yaratishda foydalanish; ikkinchi qatlam – hosil qilingan matematik yechim, formula yoki izohni ishonchli manbalar va mustaqil hisob-kitob bilan solishtirib tanqidiy tekshirish; uchinchi qatlam – o‘quvchilarni texnologiyadan mas’uliyatli foydalanishga o‘rgatish. Bu qatlamlar YuNESKO ramkasidagi “sun’iy intellekt pedagogikasi”, “sun’iy intellekt etikasi” va “inson markazli yondashuv” yo‘nalishlariga mos keladi.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining tayyorgarlik holati

Tayyorgarlik holatiga oid dalillar ikkita muammoni ko‘rsatadi. Birinchi muammo – sun’iy intellekt bo‘yicha bilim va ishonchning yetarli emasligi: Portugaliya va Ispaniyadagi 203 nafar bo‘lajak o‘qituvchi orasida ishonch, bilim va raqamli kompetentlik bo‘yicha mamlakatlar o‘rtasida sezilarli farq topilmadi; mualliflar bo‘lajak matematika o‘qituvchilari ikkala mamlakatda ham to‘liq tayyor emasligini va pedagogik ta’lim dasturlarida qayta ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan jihatlar borligini qayd etdi.

Ikkinchi muammo – ko‘nikmadan faoliyatga o‘tish uzilishi. Sailer va hammualliflar o‘qituvchining o‘zi baholagan ko‘nikmalari o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Bundan ko‘rinadiki, ko‘nikma yetarli shart emas: bo‘lajak pedagog texnologiyaning aniq dars sharoitidagi foydasini ko‘rishi kerak. Ushbu xulosa muallifning talqini bo‘lib, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinagan tadqiqot tahlil qilingan manbalar orasida uchramadi.

Milliy kontekstda Abdurashidova va hammualliflarning natijalari universitetda raqamli muhitga nisbatan ijobiy munosabat mavjudligini ko‘rsatadi; respondentlar talabalar, o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlardan iborat bo‘lgan, natijalar esa bo‘lajak matematika o‘qituvchilariga alohida tegishli emas. Ijobiy munosabat bo‘lajak matematika o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorligini o‘z-o‘zidan isbotlamaydi; Sailer va hammualliflar ham munosabatga emas, ko‘nikmaga tayanish muhimligini ko‘rsatgan.

Amaliy model: to‘rt bosqichli tayyorlash tsikli

Yuqoridagi tahlil asosida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning to‘rt bosqichli amaliy modeli taklif qilindi (1-rasm).

1. Anglash →	**2. Sinash →**	**3. Loyihalash →**	**4. Refleksiya va ulashish ↺**
Ssenariyga asoslangan o‘zini baholash; ramkalar bilan tanishish	Olti texnologiya guruhini kichik topshiriqlarda sinash; afzallik va xavflarni qayd etish	TPACK mantiqida innovatsion dars yoki modul loyihasi; sun’iy intellektdan faqat qoralama sifatida foydalanish	Amaliyotda joriy etish; teskari aloqa; portfolio; hamkasblarga taqdim etish

Kesishuvchi qatlam: axloq, ma’lumotlar himoyasi, akademik halollik va natijani ma’lumot asosida baholash

1-rasm. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning to‘rt bosqichli amaliy modeli.

Birinchi bosqich – anglash. Talaba o‘zining raqamli va sun’iy intellekt kompetensiyalarini ssenariyga asoslangan o‘zini baholash vositasi bilan aniqlaydi. Sailer va hammualliflarning ssenariyga asoslangan o‘zini baholash vositasi bunday yondashuvga misol bo‘la oladi. Ikkinchi bosqich – sinash. Talaba olti texnologiya guruhining har birini kichik topshiriqda sinab, afzallik va xavflarni yozma qayd etadi. Uchinchi bosqich – loyihalash. Talaba TPACK mantiqi asosida bitta mavzu bo‘yicha innovatsion dars yoki modul loyihasini tayyorlaydi; sun’iy intellektdan faqat qoralama sifatida foydalanadi va har bir natijani tekshiradi. To‘rtinchi bosqich – refleksiya va ulashish. Talaba loyihani matematika o‘qituvchisi pedagogik amaliyotida joriy etadi, o‘quvchilardan teskari aloqa to‘playdi, natijani portfolioga kiritadi va hamkasblariga taqdim etadi.

Modelni to‘rt semestrga taqsimlash mumkin, biroq bu taqsimot ham tavsiya xarakterida. Har bir bosqichda tayyorgarlik darajasini baholash uchun portfolioga asoslangan mezonlar taklif qilindi (2-jadval).

2-jadval

Bo‘lajak matematika o‘qituvchisining innovatsion tayyorgarligini portfolio orqali baholash mezonlari (taklif)

Mezon	Ko‘rsatkich	Portfolioga kiritiladigan dalil
Raqamli vositani tanlash	Vositani pedagogik maqsadga mos tanlaydi	Tanlovni asoslovchi qisqa yozma izoh
Pedagogik loyihalash	Matematik mazmun, pedagogika va texnologiyani bog‘lovchi dars yoki modul loyihasini yaratadi	Matematika darsi rejasi va uning tahlili
Sinash va joriy etish	Matematika darsi loyihasini amaliyotda sinab, o‘quvchilardan teskari aloqa to‘playdi	Kuzatuv daftari va o‘quvchilar fikri
Baholash va tahlil	Natijani ma’lumotlar asosida baholab, loyihani qayta ishlaydi	Boshlang‘ich va yakuniy natijalarni taqqoslash hisoboti
Axloq va xavfsizlik	Sun’iy intellekt natijasini tekshiradi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qiladi	Tekshiruv jurnali va foydalanish qoidalari
Refleksiya va ulashish	Tajribani hamkasblarga taqdim etadi va ularning fikrini hisobga oladi	Matematika darsi loyihasi taqdimoti va hamkasb sharhi

Mezonlar tayyorgarlikni bitta test bilan emas, bir nechta dalil bilan baholashga imkon beradi. Masalan, “axloq va xavfsizlik” mezoni bo‘yicha talaba sun’iy intellekt natijasini qanday tekshirganini ko‘rsatuvchi jurnalni taqdim etadi. Mezonlar muallif tomonidan ramkalar asosida tuzilgan va hali validatsiya qilinmagan; ularning ishonchliligini va qo‘llanilish qulayligini pilot tadqiqotda tekshirish lozim.

Modelni joriy etish uchun pedagogik universitetlarga beshta amaliy chora tavsiya etiladi. Birinchi chora – raqamli texnologiyalarni alohida kursda emas, matematika o‘qitish metodikasi

mashg‘ulotlari ichida o‘rgatish. Ikkinchi chora – matematika o‘qituvchisi pedagogik amaliyoti rahbarlarini model bo‘yicha tayyorlash, chunki refleksiya va ulashish bosqichi ularning ishtirokisiz ishlamaydi. Uchinchi chora – portfolio asosidagi baholashni joriy etish. To‘rtinchi chora – internet va qurilmalarga kirish tengsizligini hisobga olib, har bir topshiriq uchun kam resursli muqobil variant tayyorlash. Beshinchi chora – sun’iy intellekt va ma’lumotlardan foydalanish qoidalarini universitet darajasida yozma ravishda belgilash.

Raqamli texnologiyalarning amaliy ahamiyati xavflarsiz emas. Birinchi xavf – ma’lumotlar maxfiyligi va baholash natijalarini noto‘g‘ri talqin qilish; Bond va hammualliflar axloqni kuchaytirish zarurligini alohida ta’kidlagan. Ikkinchi xavf – generativ sun’iy intellektning noto‘g‘ri yoki beqaror natija berishi va unga ortiqcha ishonish [5, b. 235–251]. Uchinchi xavf – raqamli tengsizlik: infratuzilma va qurilmalarga kirish imkoniyati talabalar o‘rtasida teng bo‘lmasa, model ayrim talabalar uchun ortiqcha yuk bo‘lishi mumkin. To‘rtinchi xavf – vosita shaklining pedagogik maqsaddan ustun kelib qolishi; Makransky va Petersen vosita bilan usulning o‘zaro ta’sirini aynan shu sababli ajratib ko‘rsatgan [10, b. 937–958].

Keyingi tadqiqotlar uchta yo‘nalishda davom etishi mumkin. Birinchisi – taklif etilgan modelni bitta yoki bir nechta pedagogik universitetda pilot eksperiment orqali sinash va nazorat guruhi bilan solishtirish. Ikkinchisi – O‘zbekistonda bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining raqamli va sun’iy intellekt kompetensiyalarini validatsiyalangan vositalar bilan o‘lchash. Uchinchisi – o‘zbek va rus tilidagi nashrlarni qamrab oladigan kengaytirilgan sharh o‘tkazish. Bu ishlar ushbu maqolada aniqlangan bog‘liqliklarni empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlash yoki tuzatish imkonini beradi.

XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini tubdan yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim dasturlarini boyitish. Oliy ta’lim dasturlariga raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogika bo‘yicha majburiy kurslarni kiritish, TPACK modeli asosida o‘quv rejalarni qayta ko‘rib chiqish va yangilash zarur.

2. Infratuzilmani mustahkamlash. Ta’lim muassasalarining texnik bazasini zamonaviy standartlarga moslashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Malaka oshirish tizimi. Pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun onlayn va oflayn treninglar, mentorga asoslangan o‘qitish tizimi va sertifikatlash mexanizmlarini joriy etish zarur.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat texnik masala, balki pedagogik falsafa va ta’lim sifatini oshirishning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Kelgusida raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish, TPACK modelini mahalliy sharoitlarga moslashtirish va raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini baholashning yangi metodlarini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida: 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son. – Toshkent, 2020.
3. Abdullayeva N.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli savodxonlikka tayyorlash // Pedagogika jurnali. – 2021. – №3.
4. Hasanov B.R. Hamkorlik pedagogikasi va innovatsion ta’lim. – Toshkent: TDPU, 2021.
5. Qodirov A.Q. Raqamli ta’lim muhiti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Redecker, C., 2017. European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu (Y. Punie, Ed.). EUR 28775 EN. Publications Office of the European Union, Luxembourg. https://doi.org/10.2760/159770
7. Tondeur, J., Howard, S., Van Zanten, M., Gorissen, P., Van der Neut, I., Uerz, D., Kral, M., 2023. The HeDiCom framework: Higher Education teachers’ digital competencies for the future. Educational Technology Research and Development 71(1), 33–53. https://doi.org/10.1007/s11423-023-10193-5
8. Sailer, M., Stadler, M., Schultz-Pernice, F., Franke, U., Schöffmann, C., Paniotova, V., Husagic, L., Fischer, F., 2021. Technology-related teaching skills and attitudes: Validation of a scenario-based self-assessment instrument for teachers. Computers in Human Behavior 115, 106625. https://doi.org/10.1016/j.chb.2020.106625
9. Koehler, M.J., Mishra, P., 2009. What is technological pedagogical content knowledge? Contemporary Issues in Technology and Teacher Education 9(1), 60–70.
10. Mishra, P., Warr, M., Islam, R., 2023. TPACK in the age of ChatGPT and generative AI. Journal of Digital Learning in Teacher Education 39(4), 235–251. https://doi.org/10.1080/21532974.2023.2247480
11. Bond, M., Khosravi, H., De Laat, M., Bergdahl, N., Negrea, V., Oxley, E., Pham, P., Chong, S.W., Siemens, G., 2024. A meta systematic review of

OLIY TA’LIM RAHBARLARINING KOMMUNIKATIV KREATIVLIGINI DIAGNOSTIKA QILISH VA MONITORING MEZONLARI

Mamatova Xilola Muxiddinovna
Guliston davlat pedagogika institutining Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor
https://doi.org/10.5281/zenodo.23337965

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalari rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini aniqlash va rivojlanish dinamikasini kuzatishga mo‘ljallangan ko‘p manbali diagnostik-monitoring tizimi asoslanadi. Konstrukt ochiq muloqot, kreativ fikrlash, hamkorlikni tashkil etish, raqamli kommunikatsiya hamda refleksiya va qayta aloqa parametrlariga ajratildi. Standartlashtirilgan so‘rov va topshiriqlar ekspert intervyusi, kuzatuv, keys va faoliyat dalillari bilan triangulatsiya qilindi. Pilot sinovda 120 respondent ma’lumotlari asosida ichki muvofiqlik koeffitsienti α=0,89, tasdiqlovchi omil tahlilida CFI=0,92 va RMSEA=0,06 natijalari qayd etildi. Natijalar vositaning monitoring uchun istiqbolli ekanini ko‘rsatadi, biroq baholashni jazolovchi attestatsiyaga aylantirmaslik, mahalliy me’yorlarni ishlab chiqish va o‘lchov invarianti hamda mezon validligini keyingi bosqichlarda tekshirish zarurligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar. *diagnostika, monitoring, kommunikativ kreativlik, psixometrik ishonchlilik, oliy ta’lim rahbari, ko‘p manbali baholash*

Kirish. Kommunikativ kreativlik rahbarning yangi g‘oya ishlab chiqishi, uni turli auditoriyaga mos shaklda yetkazishi, boshqalar taklifini eshitishi va murakkab vaziyatlarda konstruktiv yechim yaratishini birlashtiradigan ko‘p o‘lchovli konstrukt hisoblanadi. Uni faqat “yaxshi muloqot qiladi” yoki “kreativ fikrlaydi” kabi umumiy hukmlar bilan baholash boshqaruv qarori uchun yetarli axborot bermaydi. Konstruktning nazariy chegaralari, kuzatiladigan indikatorlari, ma’lumot manbalari va qayta baholash davri aniq belgilanmasa, monitoring subyektiv taassurotlar yig‘indisiga aylanib qoladi [1; 2].

Oliy ta’lim rahbarining faoliyati turli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi: strategik yig‘ilish, xodim bilan individual suhbat, nizoni boshqarish, talabalar murojaatiga javob, raqamli platformadagi muloqot va innovatsion loyihani muhokama qilish. Shu sababli bitta o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi real xulq-atvorni to‘liq qamrab olmaydi. Umumiy metod variansiyasi respondentning ijtimoiy ma’qul javob berishi, kayfiyati yoki bir xil o‘lchov formatidan foydalanish tufayli konstruktlar orasidagi bog‘lanishni sun’iy oshirishi mumkin [3]. Psixometrik sifatni ta’minlash uchun ichki muvofiqlik, konstrukt validligi va ma’lumot manbalari triangulatsiyasi birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur.

Shkala ishlab chiqish nazariyasida indikatorlar avval mazmun sohasini yetarli ifodalashi, keyin statistik tuzilma orqali tekshirilishi ta’kidlanadi [1; 4]. Kronbax alfa koeffitsienti bandlarning o‘zaro muvofiqligini baholaydi, lekin yuqori alfa konstrukt bir o‘lchovli yoki mazmunan to‘liq ekanini o‘z-o‘zidan isbotlamaydi [5]. Tasdiqlovchi omil tahlilidagi moslik indekslari nazariy modelning ma’lumotlarga qay darajada mos kelishini ko‘rsatadi; ularni qat’iy “o‘tdi–o‘tmadi” chegarasi sifatida emas, model, tanlanma va boshqa diagnostik dalillar bilan birga talqin qilish lozim [6].

Kommunikativ kreativlikni baholashda kreativ mahsulot, jarayon va muhitni farqlash muhim. Amabile kreativlikni sohaviy bilim, kreativ jarayon ko‘nikmalari va vazifaga motivatsiya bilan bog‘lasa [7], Torrance divergent fikrlashning ravonlik, moslashuvchanlik va originallik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadi [8]. Transformatsion liderlik vositalari esa rahbarning ilhomlantirish, intellektual rag‘batlantirish va individual yondashuvini kuzatishga yordam beradi [9]. Bularning har biri kerakli, biroq alohida qo‘llanganda kommunikativ kreativlikning to‘liq profilini bermaydi. Maqolaning maqsadi oliy ta’lim rahbar-xodimlari uchun besh parametrli, ko‘p manbali diagnostik-monitoring tizimini tavsiflash, pilot psixometrik natijalarni talqin qilish va undan rivojlantiruvchi boshqaruv vositasi sifatida foydalanish shartlarini aniqlashdir. Asosiy savol shundan iborat: qaysi indikator va ma’lumot manbalari rahbarning kommunikativ-kreativ faoliyatini ishonchli, mazmunan to‘liq va amaliy jihatdan foydali aks ettira oladi?

Metodlar

Tadqiqot ketma-ket aralash metodologiya asosida tashkil etildi: avval konstruktning mazmuniy sohasi nazariy tahlil va ekspert muhokamasi orqali aniqlashtirildi, keyin standartlashtirilgan vositalar pilot sinovdan o‘tkazildi va sifat ma’lumotlari bilan izohlandi [10; 11]. Diagnostik model besh parametrni qamrab oldi: ochiq muloqot, kreativ fikrlash, hamkorlikni tashkil etish, raqamli kommunikatsiya, refleksiya va qayta aloqa. Har bir parametr uchun kamida ikki turdagi dalil belgilandi: respondentning o‘z bahosi hamda tashqi kuzatuv yoki faoliyat mahsuloti.

Standartlashtirilgan blokka test-anketa, ochiq savollar va shkalali baholash kiritildi. Ekspert blokida yarim tuzilmali intervyu, ish jarayonini kuzatish, muammoli keys va loyihalash topshirig‘idan foydalanildi. Liderlik xulq-atvorini tavsiflashda Bass–Avolio yondashuviga, kreativ fikrlash topshiriqlarini tuzishda Torrance tamoyillariga, ish muhitidagi kreativlikni talqin qilishda komponentli modelga tayanildi [7–9]. Instrument bandlari mazmuniy moslik, tushunarlilik, bir ma’nolilik va OTM boshqaruv vaziyatiga daxldorlik mezonlari asosida ko‘rib chiqildi.

Pilot validatsiyada 120 respondent ishtirok etdi. Ichki muvofiqlik Kronbax alfa koeffitsienti, nazariy tuzilmaning ma’lumotga mosligi esa tasdiqlovchi omil tahlili orqali baholandi. CFI va RMSEA indekslari boshqa model diagnostikalari bilan birgalikda ko‘rildi [6]. Asosiy monitoring siklida vositalar 90 nafar rahbar-xodim faoliyatini boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarda baholashga moslashtirildi. Natijalar individual “yorliq” berish uchun emas, kuchli jihatlar va rivojlanish ehtiyojlari profilini tuzish uchun talqin qilindi.

1-jadval.

Kommunikativ kreativlik parametrlarining diagnostik xaritasi

-	-	-	-
- Ochiq muloqot	- Aniqlik, tinglash, fikrni tushuntirish	- Shkalali so‘rov va vaziyatli savol	- Intervyu va yig‘ilish kuzatuvi
- Kreativ fikrlash	- Ravonlik, moslashuvchanlik, originallik	- Muammoli keys va ochiq topshiriq	- Ekspert bahosi va yechim mahsuloti
- Hamkorlik	- Jamoani jalb qilish va qarorni	- 360 darajali baholash	- Hamkasb fikri va kuzatuv

	birgalikda ishlab chiqish		
- Raqamli kommunikatsiya	- Kanalni maqsadga mos tanlash, netiket, tezkor javob	- Raqamli kompetensiya anketasi	- Platforma izi va hujjat namunasi
- Refleksiya va qayta aloqa	- Natijani tahlil qilish, feedbackdan foydalanish	- Refleksiv savolnoma	- Kundalik, portfolio va keyingi qaror

Izoh. Har bir parametr bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash tashqi dalil bilan tekshiriladi; bitta manba yakuniy hukm uchun yetarli deb olinmaydi.

Natijalar

Pilot sinov natijasida umumiy instrument uchun Kronbax alfa koeffitsienti 0,89 ni tashkil etdi. Bu bandlar orasida yuqori ichki muvofiqlik mavjudligini ko‘rsatadi, biroq natija takroriy yoki mazmunan juda o‘xshash bandlar yo‘qligini alohida tekshirish zaruratini bekor qilmaydi [5]. Tasdiqlovchi omil tahlilida CFI=0,92 va RMSEA=0,06 qayd etildi. Ushbu ikki ko‘rsatkich birgalikda besh parametrli nazariy modelning pilot ma’lumotlarga maqbul darajada mos kelishini ko‘rsatadi [6].

Diagnostik xarita kommunikativ kreativlikni bitta umumiy balldan ko‘ra profil shaklida ko‘rsatishga imkon berdi. Masalan, rahbar kreativ yechimlarni tez ishlab chiqishi, ammo ularni jamoa bilan muhokama qilish yoki raqamli kanalda tushunarli yetkazishda qiynalishi mumkin. Boshqa holatda ochiq muloqot yuqori, lekin refleksiya va qayta aloqa natijalarini keyingi qarorga aylantirish sust bo‘lishi mumkin. Profil yondashuvi malaka oshirish mazmunini individual ehtiyojga mos tanlashga xizmat qiladi.

12. Neal, A., & Griffin, M. A. (2006). A study of the lagged relationships among safety climate, safety motivation, safety behavior, and accidents at the individual and group levels. *Journal of Applied Psychology, 91*(4), 946–953. https://doi.org/10.1037/0021-9010.91.4.946
13. Reason, J. (2000). Human error: Models and management. *BMJ, 320*(7237), 768–770. https://doi.org/10.1136/bmj.320.7237.768
14. U.S. Bureau of Labor Statistics. (2026). *National census of fatal occupational injuries in 2024 [News release].* https://www.bls.gov/news.release/cfoi.htm
15. Zohar, D. (1980). Safety climate in industrial organizations: Theoretical and applied implications. *Journal of Applied Psychology, 65*(1), 96–102. https://doi.org/10.1037/0021-9010.65.1.96

GERMANIYA VA JANUBIY KAREYADA OLIY TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISH SIYOSATI

Qurbonov Baxromjon Baxtiyor o‘g‘li
https://doi.org/10.5281/zenodo.23367211

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Germaniya va Janubiy Koreyada oliy ta’limni moliyalashtirish siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy moliyaviy manbalari va ta’lim tizimini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Germaniyada davlat va hududiy hukumatlar tomonidan moliyalashtirish, ilmiy grantlar hamda universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan. Janubiy Koreyada esa davlat grantlari, talabalar kontrakt to‘lovlari, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va xususiy sektor ishtirokining ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, har ikki mamlakat tajribasi asosida oliy ta’limni moliyalashtirishda davlat ko‘magi, ilmiy salohiyatni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, moliyalashtirish siyosati, Germaniya, Janubiy Koreya, davlat budjeti, davlat grantlari, kontrakt to‘lovlari, ilmiy tadqiqotlar, xususiy sektor, universitetlar, sanoat hamkorligi, innovatsiyalar, inson kapitali, moliyaviy barqarorlik, natijaga asoslangan moliyalashtirish.*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini samarali moliyalashtirish mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, inson kapitalini yuksaltirish va ilmiy-innovatsion salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarining barqaror faoliyati, ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan moliyaviy resurslarning shakllanishi hamda ulardan samarali foydalanishga bog‘liq. Shu sababli turli mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirishning o‘ziga xos mexanizmlari va ustuvor yo‘nalishlari shakllangan.

Germaniya va Janubiy Koreya oliy ta’limni moliyalashtirish siyosati jihatidan o‘ziga xos tajribaga ega mamlakatlar hisoblanadi. Germaniyada davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ilmiy grantlar va universitetlarning sanoat korxonalari bilan hamkorligiga katta e’tibor qaratilsa, Janubiy Koreyada davlat grantlari, kontrakt to‘lovlari, ilmiy tadqiqotlar va xususiy sektor ishtirokiga asoslangan aralash moliyalashtirish mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur mamlakatlar tajribasini o‘rganish oliy ta’limni moliyalashtirishda turli yondashuvlarning afzalliklarini aniqlash va ularning ta’lim sifati hamda ilmiy rivojlanishga ta’sirini baholash imkonini beradi.


Germaniya oliy ta’lim tizimi Yevropadagi eng yirik va institutsional jihatdan barqaror tizimlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda universitetlar faoliyati asosan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va oliy ta’lim ijtimoiy rivojlanish hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaraladi. Germaniya oliy ta’lim tizimining moliyalashtirish modeli tarixan davlat ishtiroki ustuvor bo‘lgan tizim sifatida shakllangan. Universitetlar federal hukumat va yer hukumatlari tomonidan moliyalashtiriladi, ilmiy tadqiqotlar esa alohida grantlar va ilmiy fondlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Natijada oliy ta’lim muassasalari barqaror moliyaviy asosga ega bo‘lib, ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur resurslarga ega bo‘ladi.

Germaniyada oliy ta’limni moliyalashtirish tizimining asosiy xususiyatlaridan biri davlat va hududiy hukumatlari o‘rtasidagi vakolatlarning taqsimlanganligidir. Mamlakat federativ

tuzilishga ega bo‘lgani sababli oliy ta’lim siyosatini amalga oshirishda mahalliy hukumatlari muhim rol o‘ynaydi. Universitetlarning asosiy operatsion xarajatlari, professor-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash, o‘quv jarayonini tashkil etish va infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur mablag‘lar asosan yer hukumatlari tomonidan ajratiladi. Federal hukumat esa ko‘proq ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va yirik ilmiy dasturlarni amalga oshirish orqali universitetlar faoliyatida ishtirok etadi.

Davlat moliyalashtirishi Germaniya universitetlari budjetining asosiy qismini tashkil etadi. Masalan Technical University of Munich yoki Humboldt University of Berlin kabi yirik universitetlarning budjetida davlat mablag‘larining ulushi juda yuqori. Mahalliy hukumatlari tomonidan ajratiladigan mablag‘lar universitetlarning barqaror faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu mablag‘lar professor-o‘qituvchilar maoshi, laboratoriyalar faoliyati, kutubxonalar, ilmiy markazlar va boshqa infratuzilma xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi.

Germaniyada oliy ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biri kontrakt to‘lovlarining mavjud emasligi yoki juda past darajada bo‘lishidir. 2000-yillarning boshlarida ayrim mahaliy hukumatlari universitetlarda kontrakt to‘lovlarini joriy etishga harakat qilgan. Biroq bu qaror jamiyatda keng muhokamalarga sabab bo‘lgan va ko‘plab hududlarda kontrakt tizimi bekor qilingan. Hozirgi vaqtda Germaniyada mahalliy talabalar uchun oliy ta’lim deyarli bepul hisoblanadi. Talabalar odatda faqat semestr badali to‘laydi, u transport xizmatlari yoki talabalar infratuzilmasini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi(1-rasm). Bunday siyosat oliy ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan.



1-rasm. Germaniyada mahalliy talabalarni moliyalashtirish[87].

Germaniya oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish alohida tizim orqali amalga oshiriladi. Universitetlar ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun turli ilmiy fondlar va grant dasturlaridan foydalanadi. German Research Foundation (Deutsche Forschungsgemeinschaft – DFG) mamlakatdagi eng yirik ilmiy grant tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fond fundamental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun universitetlar va ilmiy markazlarga grantlar ajratadi. Ko‘plab universitetlar ilmiy loyihalarini aynan DFG grantlari orqali moliyalashtiradi.

Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida Germaniyada yirik davlat dasturlari ham amalga oshiriladi. Ulardan biri “Excellence Initiative” dasturi hisoblanadi. Ushbu dastur universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirish va global ilmiy raqobatda ularning o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Dastur doirasida eng yuqori ilmiy natijalar ko‘rsatgan universitetlarga katta miqdorda grantlar ajratiladi. Technical University of Munich, Ludwig

[87] Muallif tomonida tayyorlandi


Maximilian University of Munich va Heidelberg University kabi universitetlar ushbu dastur doirasida katta miqdordagi ilmiy grantlarga ega bo‘lgan.

Germaniya oliy ta’lim tizimining yana bir muhim elementi universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikdir. Universitetlar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda sanoat sektori bilan faol hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik ilmiy natijalarni amaliy ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish imkonini beradi. Germaniyada Fraunhofer jamiyati ilmiy tadqiqotlarni sanoat bilan integratsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Fraunhofer institutlari universitetlar bilan hamkorlikda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni sanoatda qo‘llash bo‘yicha loyihalarni amalga oshiradi. Max Planck jamiyati ham Germaniyada ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Max Planck institutlari fundamental ilmiy tadqiqotlarga ixtisoslashgan bo‘lib, ko‘plab universitetlar bilan hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshiradi[88]. Ushbu institutlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi va Germaniyada ilmiy innovatsiyalar rivojlanishining muhim markazlari hisoblanadi.

Germaniya oliy ta’lim tizimining moliyalashtirish modeli universitetlar, ilmiy institutlar va sanoat sektori o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Davlat mablag‘lari universitetlarning asosiy faoliyatini moliyalashtiradi, ilmiy grantlar esa tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sanoat korxonalari bilan hamkorlik esa ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, Germaniyada oliy ta’limni moliyalashtirish siyosati davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadigan tizim sifatida shakllangan. Davlat mablag‘larining yuqori ulushi universitetlarning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Ilmiy grantlar va tadqiqot fondlari ilmiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Universitetlar va sanoat sektori o‘rtasidagi hamkorlik esa innovatsion rivojlanish uchun muhim sharoit yaratadi. Mazkur tizim Germaniya universitetlarining global ilmiy maydonda yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘lishiga yordam beradi.

Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimi qisqa vaqt ichida jadal rivojlangan tizimlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasida inson kapitali va ilmiy salohiyatni oshirish muhim o‘rin egallaydi. Oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Janubiy Koreyada oliy ta’lim muassasalari davlat grantlari, talabalarning kontrakt to‘lovlari, ilmiy tadqiqotlar uchun ajratiladigan grantlar hamda xususiy sektor bilan hamkorlik orqali moliyalashtiriladi(2-rasm). Ushbu tizim davlat tomonidan strategik boshqariladigan aralash moliyalashtirish modeliga asoslanadi.

[88] https://www.mpg.de/en/about



2-rasm. Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish manbalari[89].

Janubiy Koreyada oliy ta’lim tizimi tarkibida xususiy universitetlarning ulushi yuqori hisoblanadi. Mamlakatdagi universitetlarning katta qismi xususiy sektor tomonidan tashkil etilgan. Kontrakt to‘lovlari universitetlarning moliyaviy resurslarida muhim o‘rin tutadi. Talabalarning kontrakt to‘lovlari o‘quv jarayonini tashkil etish, professor-o‘qituvchilar faoliyatini moliyalashtirish hamda universitet infratuzilmasini rivojlantirish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Biroq davlat ham oliy ta’lim tizimini faol qo‘llab-quvvatlaydi va universitetlarning ilmiy hamda innovatsion faoliyatini moliyalashtirish uchun katta miqdorda grantlar ajratadi. Davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ko‘pincha maqsadli dasturlar orqali taqsimlanadi. Ushbu dasturlar universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirish, innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Janubiy Koreyada oliy ta’lim tizimida natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari keng qo‘llaniladi. Universitetlarning ilmiy natijalari, tadqiqot loyihalari va innovatsion faoliyati davlat grantlarini taqsimlashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Janubiy Koreyada ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydigan dasturlardan biri Brain Korea 21 (BK21) dasturidir. Ushbu dastur universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda doktorantura ta’limini rivojlantirishga qaratilgan. BK21 dasturi doirasida universitetlar ilmiy loyihalar uchun grantlar oladi va bu mablag‘lar ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Seoul National University, Korea Advanced Institute of Science and Technology (KAIST) hamda Yonsei University kabi yetakchi universitetlar ushbu dastur orqali katta miqdorda grantlarga ega bo‘lgan. Janubiy Koreyada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan yana bir muhim mexanizm innovatsion tadqiqotlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq. Universitetlar texnologik rivojlanish va sanoat innovatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat grantlaridan foydalanadi. Bu grantlar ko‘pincha yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiya qilish hamda innovatsion startap loyihalarni rivojlantirish uchun ajratiladi. Universitetlar va texnologik kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlik ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

[89] Muallif tomonidan tayyorlandi

Universitetlar va sanoat sektori o‘rtasidagi hamkorlik Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimining muhim xususiyatlaridan biridir. Ko‘plab texnologik kompaniyalar universitetlar bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Samsung, Hyundai yoki LG kabi yirik kompaniyalar universitetlar bilan qo‘shma tadqiqot markazlari tashkil etgan. Bu markazlar innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini sanoat ishlab chiqarishiga joriy etish bilan shug‘ullanadi. Janubiy Koreyada universitetlar moliyalashtirilishida ilmiy natijalarning ahamiyati katta. Universitetlar davlat grantlari olish uchun ilmiy tadqiqotlar natijalarini oshirishga intiladi. Ilmiy maqolalar soni, xalqaro hamkorlik loyihalari, patentlar hamda innovatsion ishlanmalar moliyalashtirish hajmiga bevosita ta’sir qiladi. Natijada universitetlar ilmiy faoliyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Talabalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi ham Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Davlat turli stipendiya va grant dasturlari orqali talabalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kam ta’minlangan oilalardan chiqqan talabalar uchun maxsus stipendiyalar ajratiladi. Bunday mexanizmlar oliy ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Janubiy Koreyada oliy ta’limni moliyalashtirish siyosati davlat strategiyasi bilan chambarchas bog‘langan. Ta’lim tizimi iqtisodiy rivojlanish va texnologik taraqqiyotning muhim omili sifatida qaraladi. Universitetlar ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar orqali iqtisodiyot rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadi.

Janubiy Koreyada oliy ta’limni moliyalashtirish tizimi davlat grantlari, kontrakt to‘lovlari, ilmiy tadqiqotlar uchun ajratiladigan grantlar hamda xususiy sektor bilan hamkorlik asosida shakllangan. Bunday tizim universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirishga, innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga hamda mamlakatning texnologik taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlillar AQSH, Yevropa mamlakatlari, Germaniya hamda Janubiy Koreya tajribasi asosida oliy ta’limni moliyalashtirish tizimlarining turli institutsional shakllari shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu tizimlar moliyalashtirish manbalari, resurslarni taqsimlash mexanizmlari hamda rag‘batlantiruvchi instrumentlar bo‘yicha farqlansada, ularning umumiy maqsadi oliy ta’lim tizimining barqaror faoliyatini ta’minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ta’lim natijalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishdan iborat.

Yuqoridagi malumotlar shuni ko‘rsatadiki ayrim mamlakatlarda davlat moliyalashtirishi ustuvor bo‘lgan model ustunlik qiladi, boshqa mamlakatlarda esa bozor mexanizmlari va xususiy sektor ishtiroki muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish tizimi bir nechta mexanizmlarning kombinatsiyasi asosida shakllanib, davlat qo‘llab-quvvatlashi, natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish, talaba to‘lovlari va ilmiy grantlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga intilmoqda. Mazkur tajribalar asosida oliy ta’limni moliyalashtirish modellarini ijtimoiy tenglik va iqtisodiy samaradorlik mezonlari nuqtai nazaridan qiyosiy baholash zarurati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. Higher Education Financing Policies. – Paris, 2022.
2. https://www.worldbank.org
3. Johnstone D.B. Financing Higher Education: Who Should Pay? – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2015
4. Marginson S. Higher Education and Public Good. – Oxford University Press, 2016
5. Salmi J. The Challenge of Establishing World-Class Universities. – Washington DC: World Bank, 2009. – pp. 56–58

6. Nicholls A., Paton R., Emerson J. Social Finance and Social Impact Bonds. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 128–131-betlar.
7. https://www.mpg.de/en/about

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALAR UCHUN INDIVIDUAL TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI

D.A. Dadaboyeva

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari asosida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual ta’limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari yoritilgan. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali bolalarning individual xususiyatlari, ta’lim olish imkoniyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, moslashtirilgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish, ta’lim topshiriqlarini individuallashtirish hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirishda sun’iy intellektning ahamiyati asoslangan. Maqolada maxsus va inklyuziv ta’lim amaliyotida sun’iy intellektdan foydalanishning istiqbollari hamda mavjud muammolar yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, maxsus pedagogika, alohida ta’lim ehtiyojlari, individual ta’lim, inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’limni individuallashtirish, moslashtirilgan ta’lim, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash, ularning imkoniyatlariga mos o‘quv muhitini yaratish va individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maxsus pedagogika sohasida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’limni individuallashtirishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini raqamlashtirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida inklyuziv ta’lim tushunchasi va uni tashkil etishning huquqiy asoslari belgilangan [1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirishga doir konsepsiya ushbu yo‘nalishdagi muhim huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi [2]. Mazkur hujjatlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qulay ta’lim sharoitlarini yaratish va ta’lim sifatini oshirish masalalarining dolzarbligini belgilaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi, individual ehtiyojlari va o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarini hisobga olgan holda ta’lim materiallarini moslashtirish imkonini beradi. Xususan, intellektual ta’lim tizimlari, nutqni matnga aylantirish dasturlari, matnni ovozli shaklda o‘qib beruvchi vositalar hamda moslashtirilgan raqamli topshiriqlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning o‘quv faoliyatida qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday texnologiyalardan foydalanish bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik nazoratni ta’minlash va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablariga rioya etishni ham taqozo etadi.

YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt va ta’limga oid tavsiyalarda ushbu texnologiyalardan foydalanishda inson manfaatlari, tenglik, inklyuzivlik va axloqiy tamoyillarga rioya etish muhimligi ta’kidlanadi [3]. Ushbu yondashuv alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ayniqsa muhimdir. Chunki sun’iy intellekt vositalari ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lsa-da, ular pedagogning kasbiy faoliyati, individual yondashuvi va bevosita muloqotining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt asosida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual ta’limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish zamonaviy maxsus pedagogikaning dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishni tadqiq etish orqali bolalarning individual imkoniyatlariga mos ta’lim mazmunini shakllantirish, o‘quv topshiriqlarini moslashtirish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

Asosiy qism. Zamonaviy ta’lim tizimida har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va ta’lim olish ehtiyojlarini hisobga olish muhim pedagogik tamoyillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ta’lim mazmunini moslashtirish, individual yondashuvni ta’minlash va har bir bolaning rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziv ta’limga oid tavsiyalarda ham barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va ta’limdagi to‘siqlarni bartaraf etish zarurligi ta’kidlanadi [4].

Sun’iy intellekt texnologiyalari mazkur vazifalarni amalga oshirishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish, topshiriqlarning murakkablik darajasini o‘zgartirish, o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish hamda bolaga mos ta’lim resurslarini tavsiya etish mumkin. UNESCOning sun’iy intellektdan ta’lim va tadqiqotlarda foydalanishga oid qo‘llanmasida ushbu texnologiyalardan foydalanishda pedagogik maqsad, inson nazorati va ta’lim oluvchilarning manfaatlarini ustuvor qo‘yish lozimligi ko‘rsatilgan [3].

Masalan, matnni ovozli shaklda o‘qib beruvchi dasturlar ko‘rishida yoki o‘qish jarayonida qiyinchiliklari bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Nutqni matnga aylantirish vositalari esa eshitishida nuqsoni bo‘lgan ayrim bolalar uchun axborotni qabul qilishni yengillashtiradi. Bunday texnologiyalar yordamchi vositalar sifatida bolaning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, ularning samaradorligi bolaning individual ehtiyojlari, vositaning texnik imkoniyatlari va pedagogik qo‘llab-quvvatlash sifatiga bog‘liq [3; 5]. Sun’iy intellekt asosida individual ta’limni tashkil etish faqat texnik vositalardan foydalanish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon pedagogik maqsadlarni belgilash, bolaning ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, tegishli texnologiyani tanlash, ta’lim topshiriqlarini moslashtirish va erishilgan natijalarni baholash kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi. Shu sababli sun’iy intellektni maxsus pedagogik faoliyatga tatbiq etishda texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda pedagogik, psixologik va axloqiy omillar ham hisobga olinishi lozim [3; 5]. Sun’iy intellekt asosida individual ta’limni tashkil etish metodikasini ishlab chiqishda bolaning individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, moslashtirilgan o‘quv mazmunini shakllantirish, texnologik vositalarni tanlash va ta’lim natijalarini muntazam baholashga e’tibor qaratish lozim. Mazkur jarayonni shartli ravishda bir-biri bilan uzviy bog‘langan to‘rtta bosqich asosida tashkil etish mumkin. Birinchi bosqich — individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash. Ushbu bosqichda bolaning mavjud bilim va ko‘nikmalari, axborotni qabul qilish xususiyatlari, muloqot imkoniyatlari, qiziqishlari hamda o‘quv faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklari o‘rganiladi. Bunda pedagog, psixolog,

maxsus pedagog va zarur hollarda boshqa mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt vositalari o‘quv topshiriqlari natijalarini tizimlashtirish yoki bolaning ta’lim jarayonidagi rivojlanish dinamikasini kuzatishda yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Biroq bolaning rivojlanish darajasi yoki tashxisini faqat avtomatlashtirilgan tizim xulosalari asosida belgilash mumkin emas [3; 5].

Ikkinchi bosqich — individual ta’lim mazmunini moslashtirish. Bu bosqichda aniqlangan ehtiyojlardan kelib chiqib, o‘quv materiallari, topshiriqlar, taqdimot shakllari va mashg‘ulotlar sur’ati moslashtiriladi. Masalan, murakkab matnlar soddalashtirilgan shaklda berilishi, ko‘rgazmali materiallar bilan to‘ldirilishi yoki topshiriqlar kichik bosqichlarga ajratilishi mumkin. Sun’iy intellektga asoslangan vositalar matnni soddalashtirish, tasviriy materiallar uchun tavsif yaratish va bir mavzu bo‘yicha turli darajadagi mashqlarni tayyorlashda yordam beradi. Bunda yaratilgan materiallarning ilmiy aniqligi, yoshga muvofiqligi va pedagogik jihatdan to‘g‘riligi mutaxassis tomonidan tekshirilishi zarur [3; 5].

Uchinchi bosqich — sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash. Ushbu bosqichda bolaning ehtiyojlariga mos raqamli vositalar tanlanadi va ular mashg‘ulotlar mazmuniga maqsadli ravishda kiritiladi. Jumladan, matnni ovozli shaklda taqdim etish, nutqni matnga aylantirish, subtitr yaratish, vizual ko‘rsatmalar tayyorlash va interaktiv topshiriqlardan foydalanish mumkin. Ayrim bolalar uchun vizual jadval va ketma-ket ko‘rsatmalar taqdim etish o‘quv faoliyatini tushunishni yengillashtiradi. Bunda texnologik vositalar bolaning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ta’limdagi to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qilishi kerak [4; 5].

To‘rtinchi bosqich — ta’lim natijalarini monitoring qilish va metodikani takomillashtirish. Bu bosqichda bolaning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi o‘zgarishlar, topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi, ta’lim jarayonidagi faolligi va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoji baholanadi. Sun’iy intellekt vositalari natijalarni tizimlashtirish va rivojlanish dinamikasini ko‘rsatishda yordam berishi mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida pedagog individual ta’lim rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritadi. Baholashda bolaning boshqa bolalar bilan natijalarini solishtirishdan ko‘ra, uning shaxsiy rivojlanish dinamikasiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq [3; 5]. Shunday qilib, mazkur metodika individual ehtiyojlarni aniqlashdan boshlab ta’lim mazmunini moslashtirish, tegishli texnologiyalarni qo‘llash va natijalarni tahlil qilishgacha bo‘lgan uzluksiz pedagogik jarayonni ifodalaydi.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalari katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularni maxsus ta’limga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri — barcha raqamli vositalarning ham alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun birdek mos emasligidir. Ayrim dasturlar maxsus imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlamasligi, ona tilidagi materiallarni yetarli darajada qayta ishlamasligi yoki foydalanuvchining ehtiyojlariga mos kelmaydigan tavsiyalar berishi mumkin. Shu sababli texnologiyalarni tanlashda ulardan foydalanish qulayligi, funksional imkoniyatlari va ta’lim maqsadlariga muvofiqligi baholanishi zarur.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, birinchidan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning xususiyatlariga mos, foydalanish uchun qulay va xavfsiz raqamli vositalarni tanlash; ikkinchidan, pedagoglarning sun’iy intellekt bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; uchinchidan, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va texnologiyalardan axloqiy foydalanish talablariga rioya etish; to‘rtinchidan, sun’iy intellekt vositalarining ta’lim natijalariga ta’sirini muntazam tahlil qilish zarur. Umuman olganda, sun’iy intellekt asosida individual ta’limni tashkil etish maxsus pedagogika amaliyotini takomillashtirish uchun muhim imkoniyatlarni

taqdim etadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish texnologik vositalarni shunchaki joriy etish bilan emas, balki ularni pedagogik maqsadlar, bolaning individual ehtiyojlari va ta’limning insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
4. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. Paris: UNESCO, 2017.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
6. Po‘latova P. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2014.

Mundarija / Contents

1-sho‘ba

1 **Abduraxmanova Azoda Djo‘rayevna, Solixov Murod Botir o‘g‘li,** MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNI O‘QITISH JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 5

2 **Ashurova Mohigul Sodiq qizi,** OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA VAQT HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKILLANTIRISH 9

3 **Abdullayeva Gulruxsoroy Azamatjon qizi,** O‘ZBEK VA INGLIZ MEDIADISKURSIDA AYOLLAR NUTQIGA XOS KOLLOKATSIYALAR LINGVOPRAGMATIKASI 12

4 **Bai Mingyuan,** AI-EMPOWERED TEACHING REFORM OF THE PROCUREMENT AND NEGOTIATION COURSE FROM THE PERSPECTIVE OF "UNDERGRADUATE EDUCATION FIRST AND FOUR RETURNS" 16

5 **Begmatova Sokhiba Mustafoyevna,** READING LITERARY TEXTS IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: THE RELATIONSHIP BETWEEN TRADITIONAL AND DIGITAL INTERPRETATION 20

6 **Bakiyeva Durdona Baxtiyarovna,** FILOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN’IY INTELELKT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH 24

7 **Bekchonova Shoira Bazarbayevna,** RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI KIBERPEDAGOGIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH 28

8 **Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi,** SUN’IY INTELLEKT BILAN HAMKORLIKDA MENEJMENT TALABALARINING EKONOMETRIK KOMPETENTLIGINI INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH 34

9 **Bozorov Vahobiddin Nuriddinovich,** BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘QUV-BILUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI- TA’LIMNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA 38

10 **Egamberdiyeva Farangiz Jaxongir qizi,** THE ORIGIN OF THE KOREAN LANGUAGE AND ITS RECOGNITION AS A LANGUAGE 43

11 **Ергашева Эльвира Владимировна,** ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ 5-Х КЛАССОВ (НА ПРИМЕРЕ ШКОЛ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ) 47

12 **Shukhrat Shernazarovich Eshankulov,** INTEGRATING AI AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION: A MULTI-DIMENSIONAL SYNTHESIS OF PEDAGOGICAL FRAMEWORKS, STUDENT ENGAGEMENT, AND ETHICAL IMPERATIVES 51

13 **Fayzulloyeva Sadoqat Furqat qizi,** STEAM ZAMONAVIY TA’LIM METODOLOGIYASI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI 55

14 **Файзиева Зарина Рауф кизи,** РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ ПРОБЛЕМНЫХ ЗАДАНИЙ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕЭТИКЕТНЫХ И КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИХ УМЕНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА 58

15 **G‘aybullayev Quvonchbek G‘olibjon O‘g‘li,** OLIY TA’LIMDA QADRYATLI MUHITNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZIMLARI 66

16 **Kazakova Dilnoza Qobil qizi,** O‘QUVCHILARDA VITAGEN FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TUZILMASI 70

17 **Karimova Sidora Baxtiyorovna,** OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI 74

18 **Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva,** THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE LEARNING 78

19 **Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva,** DIGITAL HUMANITIES BASED COMPUTATIONAL ANALYSIS OF LINGUISTIC EVOLUTION 82

20 **G‘aybullayev Quvonchbek G‘olibjon o‘g‘li,** OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MENTORLIK FAOLIYATI VOSITASIDA TALABALARNING QADRIYATLI TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 86

21 **Jumabekov Ziyovuddin Xazratqul o‘g‘li,** FARZANDLAR O‘RTASIDA HASAD HISSINI O‘RGANISHDA TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSI VA METODIKALAR TASNIFI 89

22 **Zulfiya Khabirova,** METHODOLOGY FOR TEACHING THE ESP COURSE USING AI-BASED SOFTWARE 92

23 **Khatamov Farkhod Bakhodirovich,** DEVELOPING AN EXPANDED LEARNING ENVIRONMENT IN TESOL THROUGH GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFORMATION INTEGRATION AND INTERACTIVE LEARNING 98

24 **Kudiyarova Gauxar Iyambergenovna,** SUN’IY INTELLEKT ASRIDA BO‘LAJAK PEDAGOGNING BOSHQARUVCHILIK QOBILIYATI: TO‘RT XALQARO TADQIQOT NATIJALARI ASOSIDA NAZARIY-METODIK SINTEZ 105

25 **Mohamadreza Jafary, Gulnora Nasirova,** HUMAN AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE COLLABORATION IN PLURILINGUAL HIGHER EDUCATION: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR RESPONSIBLE LANGUAGE LEARNING IN UZBEKISTAN 109

26 **Миркамалов Фуркатжон Рихсиевич, Миркамалов Кудрат Фуркатович,** НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «АНАТОМИЯ И ФИЗИОЛОГИЯ» 117

27 **Муллаахунова Нилуфар Мухаматумановна,** ТЕХНОЛОГИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ: СОТРУДНИЧЕСТВО ПЕДАГОГА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 124

28 **S.S. Mirzoyeva,** ZAMONAVIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI 132

29 **Murodova Dilnavoz Nizomovna,** THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING LITERATURE IN HIGHER EDUCATION 136

30 **Mamatov Dilmurad Narmuradovich, Bekchonova Shoira Bazarbayevna,** OLIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING KIBERPEDAGOGIK MODELI 142

31 **Nazarova Sayyora Anvarovna,** XITOY TILINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN ETIK FOYDALANISH: MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH TAJRIBA 146

32 **Ortiqova Dildora Begmirzayevna,** O‘ZBEK ADABIYOTI TA’LIMIDA TALABALARNING O‘QUV-BILISH MOTIVATSIYASINI FAOLLASHTIRISH METODIKASI 151

33 **Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna,** PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING ENGLISH SPEAKING SKILLS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMPUTER ENGINEERING CONTEXT 159

34 **Polvonova Yulduzxon Saparboyevna,** BLENDED LEARNING MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MODELI 164

35 **Raxmatullayeva Dilshada Maratovna,** XITOY TILINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING FONETIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI METODIK IMKONIYATLARI 169

36 **Razoqova Hosilaoy,** BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTINI 4+2 TARTIBIDA TASHKIL ETISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODIK TA’MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH 174

37 **Reymova Erkinay Atabaevna,** MIKROBIOLOGIYA FANIDAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 178

38 **Saparova Gulmira Baxtiyorovna,** FIZIKANI O‘QITISH METODIKASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 183

39 **Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi,** INGLIZ TILI TALAFFUZINING NUTQ AKTLARIGA ASOSAN FONOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI 187

40 **Sattorov Abdumalik Abduraxmon o‘g‘li,** OLIY TA’LIMDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH 196

41 **Sultonova Marvarid Abdulvohid qizi,** XALQARO TEXNIK STANDARTLAR TILIDA MODAL FE'LLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNI O‘ZLASHTIRISHDAGI TIPOLOGIK QIYINCHILIKLAR 203

42 **Shamsuvaliyeva E.A.,** INGLIZ TILINI O‘QITISHDA CHATGPT VA BOSHQA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 208

43 **Tosheva Maftuna O‘tkirovna,** GERMENEVTIK KOMPETENSIYANING MOHIYATI 211

44 **Temirova Malika Rustamovna,** OLIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IKKINCHI TILNI O‘QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI 215

45 **Utkir Utanov Qurbonovich, Xaydarov Xurshid Ismatovich,** UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK VAZIYATLARNI PROGNOZLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 218

46 **Urinova Madinabonz,** DEVELOPING JOURNALISM STUDENTS' CREATIVE WRITING COMPETENCIES ON THE BASIS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES 222

2-sho‘ba

47 **Fayzullayeva Barno Bahodirovna,** ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV MUAMMOSI 227

48 **Karimova Gulshanoy Akmaljon qizi, Zokirov Sanjar Ikromjon o‘g‘li,** SUN’IY INTELLEKT VA GIBRID MASHINALI O‘QITISH ALGORITMLARI ASOSIDA XODIMLAR MEHNAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI 230

49 **Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o‘g‘li,** KOMPYUTER TARMOQLARI FANINI O‘QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARNI YAGONA DASTURIY-DIDAKTIK MUHITGA INTEGRATSIYALASH 234

50 **Nazirova Elmira Shodmonovna, Xalimjanov Abduqunduz Raximjon o‘g‘li,** O‘ZBEKISTON VILOYATLARI KESIMIDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA OBYEKTLARI UCHUN SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI OPTIMAL NUQTALARNI ANIQLASH VA ISSIQLIK XARITALARI ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH 237

51 **O‘roqova Zulayho Erdor qizi,** RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA MUHANDIS KADRLARINI AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 247

52 **Parmonov Shaxzod Abdumajit o‘g‘li,** SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ENERGETIKA MUHANDISLIGI TALABALARI AXBOROT-MODELLASHTIRISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 250

53 **Savriyev Shamshod Shuxrat o‘g‘li,** BO‘LAJAK MUHANDISLARDA ENERGIYA TEJAMKORLIGI VA SAMARADORLIGINI TA’MINLASH KOMPETENTLIGINING TARKIBIY TUZILMASI VA UNI RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI 255

54 **Салихова Дилафруз Хамидулла кизи,** ПЛАНИРОВАНИЕ СИСТЕМ ЗАРЯДНЫХ СТАНЦИЙ ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ, ПОДКЛЮЧЁННЫХ К СЕТИ 260

55 **Sultonova Maxbubaxon Odilovna,** SOTALI ALOQA BAZAVIY STANSIYALARINING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ASOSIDAGI ELEKTR TA’MINOTI 266

3-sho‘ba

56 **Abdullaeva Sitorabonu Xasanjon kizi,** ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ARCHITECTURAL DESIGN: GENERATING AND EVALUATING ALTERNATIVE DESIGN SOLUTIONS 274

57 **Boltayev Nurali Shiramatovich,** AGRAR OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA KADRLAR TAYYORLASHNING TAHLILI 282

58 **Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi,** EKOLOGIYA VA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR – SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI 288

59 **Faxriddin Kasimov Shadmankulovich, Mirzaev Sayibdjan,** EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH 294

60 **Muhammad Ramzan ALI, Muhammad Sharjeel Aziz, Muhammad Younis,** FOSTERING ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY THROUGH GREEN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT, GREEN LEADERSHIP, AND WORK ENGAGEMENT: EXAMINING THE EMERGING ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE 304

61 **Shokirov Bahodir Ismoilovich, Ruzimov Ulugbek,** HUMAN-AI COLLABORATION IN ESP SIMULATIONS FOR ARCHITECTURE STUDENTS: A BAD-MODEL FRAMEWORK FOR REFLECTIVE DEBRIEFING 327

62 **Teshayeva Dilnoza Chori qizi,** TALABALARDA EKOLOGIK MAS’ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA DOLZARB MASALALARI 335

63 **Zaripov Toxirjon Yusufboy o‘g‘li,** AQLLI TURIZM (SMART TOURISM) KONSEPSIYASI: INSON-SUN'IY INTELLEKT HAMKORLIGI ORQALI HUDUDIY BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH 341

4-sho‘ba

64 **Abdumajitova Shaxrizoda Shuxrat qizi,** TRANSFORMATION OF CORRUPTION IN THE ERA OF DIGITAL TECHNOLOGIES
(ANALYSIS OF NEW FORMS AND RISKS) 346

65 **Abdurasulova Nilufar Sobir kizi,** THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN IT BUSINESS DEVELOPMENT 352

66 **Botirov Zoir Nuriddin o‘g‘li,** IJODIY FAOLIYATNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASOSLAR 355

67 **Ganiyeva Barno Ilhomovna, Rasuleva Dilafruz Erkin qizi,** KUTUBXONA MUTAXASSISLARI UCHUN SUN’IY INTELLEKT SAVODXONLIGI: XORIJIY YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI 358

68 **Ilxomova Gulnoza Zayniddin qizi,** BIZNES MICE TURIZMI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SUN’IY INTELLEKT RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 364

69 **Ibragimova Zilola Shuxratovna,** NEYROMARKETING VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ISTE’MOLCHI XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR 371

70 **Isokova Aziza Alisher kizi,** STRATEGIC ANALYSIS OF ARTEL ELECTRONICS: STRENGTHENING COMPETITIVE ADVANTAGE AND SUPPORTING INTERNATIONAL EXPANSION 376

71 **Мадалиев Хуршид Абдуллаевич,** JUST IN TIME (JIT) ТИЗИМИ НИ ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИДА ҚЎЛЛАШ ЗАРУРАТИ 381

72 **Мадалиев Хуршид Абдуллаевич,** ЛОГИСТИКАНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 387

73 **Marupov Abdushukurbek Alijonovich,** BUXGALTERIYA HISOBI TA’LIMIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY NATIJALARINI MHXS ASOSIDA TALQIN QILISH: INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGIGA ASOSLANGAN KEYS MODELI 395

74 **Marupov Abdushukurbek Alijonovich,** AVTOMOBIL SANOATI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALARNI QIYOSIY TAHLIL QILISHDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI: “UZAUTO MOTORS” AJ VA “O‘Z-SEMYUNG KO” AJ QK MISOLIDA 399

75 **Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna,** TALABALARDA IQTISODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SHARQ MEROSINI INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI 404

76 **Saidaxmedova Nodira Ilxomovna, Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi,** QISHLOQ XO‘JALIGI XIZMATLARI BOZORIDA IQTISODIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI 410

77 **Saidova Nigina Sirodjiddin kizi,** ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL DIPLOMACY: NEW OPPORTUNITIES IN DEVELOPING UZBEKISTAN’S NATIONAL BRAND 418

78 **Toshtemirova Mohichehra G‘olibjon qizi, tadqiqotchi,** GENERATIV SUN’IY INTELLEKT ASRIDA LIBOS DIZAYNI TA’LIMI: KREATIV GOMOGENIZATSIYADAN MUVOZANATLI “HUMAN-AI COLLABORATION” MODELIGA O‘TISH 421

79 **Ummatkulova Nigora Umarqulovna,** O‘SMIRLARNING MANTIQIY FIKRLASHI VA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINING RIVOJLANISHIDA OILA-MAKTAB HAMKORLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 424

80 **Urazbayeva Ilmira Konisbayevna,** RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI 428

81 **Dr Gyanti Thakur,** LEVERAGING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND LSTM-BASED PREDICTIVE MODELS TO ENHANCE HOSPITAL QUALITY OF CARE 431

82 **Qo‘chqorov Baxodir Maxkamovich,** UNIVERSITET BOSHQARUVINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHDA INSTITUTSIONAL TAYYORGARLIK OMILLARI 436

83 **Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farhodovna,** SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR 440

84 **Абдуллаева Одинахон Гайратжон кизи,** ПРОАКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ РАЗВИТИЕМ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 445

85 **Iskandarov Botir Qurbonovich,** RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: METODIK IMKONIYATLAR, TAMOYILLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR 451

86 **Ziyotov Mirobid Ergashovich,** HUDUDIY MOLIYAVIY VA SOLIQ SALOHIYATINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA UNI BAHOLASH YONDASHUVLARI 456

87 **Зикриллаев Н.Ф. Абдкрахманов Б.А. Кушиев Г.А. Казаков Т.О.,** ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ УСЛОВИЙ ДИФФУЗИОННОГО ЛЕГИРОВАНИЯ НА МАГНИТНОЕ УПОРЯДОЧЕНИЕ КРЕМНИЯ, ЛЕГИРОВАННОГО Mn И Ge 462

88 **Ilhomova Sadoqat Ulug‘bek qizi,** BO‘LAJAK MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI 465

89 **Mamatova Xilola Muxiddinovna,** OLIY TA’LIM RAHBARLARINING KOMMUNIKATIV KREATIVLIGINI DIAGNOSTIKA QILISH VA MONITORING MEZONLARI 474

90 **Aliyev Shoxjaxon Eshdavlatovich,** SONLI USULLAR BO‘YICHA ILMIY TADQIQOTDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI: KOSHI TIPIDAGI SINGULYAR INTEGRALLAR UCHUN OPTIMAL KVADRATUR FORMULA MISOLIDA 479

91 **O‘roqov Azizbek Usmonaliyevich,** MEHNAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INSON OMILINING O‘RNI VA AHAMIYATI 485

92 **Qurbonov Baxromjon Baxtiyor o‘g‘li,** GERMANIYA VA JANUBIY KAREYADA OLIY TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISH SIYOSATI 494

93 **D.A. Dadaboyeva,** SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALAR UCHUN INDIVIDUAL TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI 500

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT SHAHRIDAGI ADJU UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“OLIY TA’LIMDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT HAMKORLIGI: TA’LIM KELAJAGI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 24-sentyabr

Published: 24.09.2026. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998933549654, +998993319654